Alisher NAVOIY

SADDI ISKANDARIY

I

Xudoyo, musallam xudoliq sanga[1],
Birov shahki, da’bi gadoliq sanga.

Xudovandi bemislu monandsen,
Xudovandlarga xudovandsen.

Zabardastlar zerdasting sening,
Biyiklar kelib borcha pasting sening.

Sanki ko‘rguzub mavj daryoyi jud,
Sen aylab ayon korgohi vujud.

Vujud ahlining komi judung bila,
Kelib jud qoyim vujudung bila[2].

Vujudung qachon qilsa zohir qidam,
Bo‘lub borcha ashyo vujudi adam.

Zamoneki kavnayn ma’dum edi,
Adam tangnoyida maktum edi.

Ne kun orazidin bor erdi nishon,
Ne tun turrasi anda anbarfishon.

Sahardin falak zoli ro‘ toza yo‘q,
Shafaqdin yuziga aning g‘oza yo‘q.

Ne afloku, ne muttasil anda davr,
Ne el, ne aning davridin elga javr.

Ne olam diyoridin osor ham,
Ne paydo diyor ichra dayyor ham.

Sen ul nav’ mavjud eding, bal vujud
Ki, budungg‘a yo‘q erdi nangi nabud.

Ayon bo‘lmayin bahri zotingg‘a mavj,
Aning mavjig‘a ne hazizu ne avj.

Jamolingki mehri jahontob o‘lub
Xafo pardasi ichra noyob o‘lub.

Jamolingg‘a chunkim zuhur istading,
Quyoshingg‘a ifshoyi nur istading.

Bu nav’ iqtizo ayladi xo‘blug‘
Ki, qilg‘aysen izhori mahbublug‘.

Chu mahbubluq amri pinhon emas
Ki, to bo‘lmag‘ay oshiq imkon emas.

Chu bori husng‘a ishq loyiq base,
Kerak bo‘ldi husnungg‘a oshiq base.

Chu bir junbush etti ayon bahri zot,
Padid o‘ldi amvojdin koinot.

Iki harf amrin qilib nuktavar,
Ayon aylading muncha dilkash suvar.

Chu qilding malak xaylini jilvasoz,
Alar qismati bo‘ldi zikru niyoz.

Iki, uchu to‘rt ochilib parlari,
Harimi jaloling kabutarlari.

Tilab ul kabutarlar oromini,
Yasading falak qasrining tomini.

Chu aflok tarhig‘a chekting qalam,
Havo safhasig‘a chekildi raqam.

To‘quz gunbad ul nav’ chekting baland
Ki, vahm anda rust aylay olmas kamand.

Kelib bir-biri ichra har bir nihon,
Fazo har biriga jahon dar jahon.

Alar javharini basit aylading,
Birin sekiziga muhit aylading.

Bori bir-biri javfida to‘-bato‘,
Biri birga vobast o‘lub mo‘-bamo‘.

Borin tab’ bir jonib aylandurub,
Burung‘i borin tab’ ila yondurub.

Bo‘lub ul sekizning madori anga,
Taharruk aro ixtiyori anga.

Yana birda sabt aylading sobitot,
Anga sayr, ammo bularg‘a sabot.

Tushub davr aro jomi nilufariy,
Anga berk yuz ming sharaf gavhari.

Murassa’ javohir bila bo‘lsa jom,
Vale davr aro jom topsa xirom.

Necha bor esa sayr zohir anga,
Ne tong mahkam o‘lsa javohir anga.

Bo‘lub jilvagar yuz tuman mohvash,
Vale jilva ichra sukun birla xush.

Yana birni undur hisor aylading,
Birovni anga qal’ador aylading.

Muhandis shiori taammul ishi,
Tahammulliq ul nav’ bo‘lmay kishi.

Batiyravlig‘i hilm ayog‘i kibi,
Garonjonlig‘i sabr tog‘i kibi.

Ko‘zidin balo raxnasi ochilib,
Damidin nuhusat o‘ti sochilib,

Qaro yuz bila charxi gardunnishin,
Nechukkim, xaros uyi ichra chibin.

Yana birni bir ma’bad etting vase’,
Aning obidi qadr aro bas rafe’.

Saodat ziyosin sochib mehrson,
Yuzinda sharaf hullasi taylason.

Topib «Kimiyoyi saodat»qa yo‘l,
Falak xonaqohida g‘azzoliy ul[3].

Falak gunbadi ichra qandildek,
Vayo Arsh burjida Jibrildek.

Bo‘lub yaxshiliqqa munir axtare,
Xaridor, ya’ni deyin Mushtariy.

Yana birni bir maqtal etting ajib,
Aning sokini qotili, bas muhib.

Kishi tig‘idin topmayin bahr amon,
Beshinchi mamolikda ul qahramon.

Kelib lam’ai tig‘i barqi balo,
Hamul suv aro xalq g‘arqi balo.

Bo‘lub sheva el bo‘ynin urmoq anga,
Itik tig‘ ila bosh uchurmoq anga.

Kesuk boshning kosasin jom etib,
Vale qon may o‘rnig‘a oshom etib.

Kelib ish anga charx davrida qahr,
Qadah davrida, o‘ylakim qatra zahr.

Yana birni bir ravza qilding nazih,
Muqimi aning hurdin ham farih.

Demay hurkim, charx mulkida shoh,
Anga taxti feruza oromgoh.

Sipehr ahlining zeb ila zayni ul,
Demay ayni ul, qurratul-ayni ul.

Bo‘lub zoti raxshanda mir’ot anga,
Guvoh ushbu da’voda zarrot anga.

Biri gunbadi charxi gardon aro,
Aningdekki, zar shamsa ayvon aro.

Yana birni toqi baland aylading,
Muqim anda bir no‘shxand aylading.

Quyosh chehralik sho‘xi barbatnavoz
Ki, jon rishtasi tor anga, cholsa soz.

Chu torig‘a daston guzorish berib,
Bag‘irlarg‘a tirnog‘i xorish berib.

Qachon xushnavo lahn bunyod etib,
Agar Aqli Kull bo‘lsa faryod etib.

Qayonkim yetib barbatidin nag‘am,
Ne yo‘l anda topib kudurat, ne g‘am.

Falak toqida un chekib ko‘ngli tinch,
Bo‘lub, o‘ylakim doira ichra sinch.

Yana birni qilding kutubxonae,
Ichinda kitobatda farzonae.

Mudaqqiq zamirida mamlu funun,
Kelib diqqat ahli aro zufunun.

Ishi sarbasar la’bu nayrang o‘lub,
Suvdek qaydakim yetsa, ul rang o‘lub.

Shiori xaroshi qalam aylamak,
Nukat safha uzra raqam aylamak.

Falak durjida lavhi darkordek,
Davot uzra bir naqshi pargordek.

Yana birni soz aylading turfa dayr,
Aning sokinin aylading tezsayr.

Boridin itikrak xiromi aning,
Vale tegmayin yerga gomi aning.

Manozilg‘a bot-bot qilib intiqol,
Otin goh etib badru, gohi hilol.

Vubolu sharaf ko‘rguzub sur’ati,
Gahi za’fi ortib, gahi quvvati.

Falak davrida sur’ati ichra zo‘r,
Tegirmon toshi uzra andoqki mo‘r.

Chu obog‘a bu nav’ berding sifot,
Alar tahtida aylading ummahot.

A’to yetti-yu, to‘rt qilding ano,
Natija uch etting bulardin yano4.

Ne tong, gar ano to‘rt qilding muboh
Ki, to‘rt o‘ldi shar’ ichra joyiz nikoh.

Birining mizojini tez aylading,
Aning tab’ini shu’laxez aylading.

Biriga berib lutfi tab’i hayot,
Hayot ahlig‘a berding andin najot.

Birin soyir etting, nechukkim samo,
Safo ichra mir’oti getinamo.

Yasoding kasofat birining ishin
Kim, ul bo‘ldi bu ishdin asfalnishin

Berib bu tazavvujg‘a payvand ham,
Padid aylading necha farzand ham.

Biriga hajar jismidin to‘shadur,
Anga naqd balkim jigargo‘shadur.

Biriga numu jilvasidin hayot,
Qadi jilvada nayshakar, bal nabot.

Birin lutf aro javhari jon deyin,
Anga obxo‘r obi hayvon deyin.

Munga tegru g‘ilding marotibnavard
Ki, ochting bashar gulbuni ichra vard.

Ochilg‘och bu gulshanda inson guli,
Ne inson guli, bog‘i rizvon guli.

Tanig‘a sharafdin duvoj aylading,
Boshin ham sazovori toj aylading.

Qilib ko‘nglini roz ganjinasi,
Yuzin aylading zot oyinasi.

Anga aylagach nuri husnung zuhur,
O‘qubon malak xayli Alloh nur.

Chu bu nav’ mavjud qilding ani,
Maloyikka masjud qilding ani.

Qayu ko‘zguda tutsa aksing vujud.
Maloyik nechuk qilmag‘aylar sujud.

Bosh indurmagan aylab izhori ta’n,
Ne tong ta’m nuni anga tavqi la’n.

Chu berding anga rutba mundoq baland,
Qilib ko‘nglini sevmaging arjumand.

Chu ishqing o‘ti soldi ko‘ngliga tob,
Quyoshning yuzidin ketordi sahob.

Quyoshingg‘a xud mone’i yo‘q edi,
Hijobi aning o‘zlugi-o‘q edi.

Chu raf’ aylading ul hijobin aning,
Fuzun aylading ishqi tobin aning.

Seni ko‘rdi har yonki soldi ko‘zin,
Chu bori sen o‘ldung, iturdi o‘zin.

Ajab holkim, bo‘lsa ayni shuhud,
Chiqorg‘oy birov jonidan shavqi dud.

Zihi turfa ma’shuqi oshiqnavoz
Ki, qilmoqqa o‘z husnini jilvasoz.

Karam birla xalq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame.

g‘araz odame anga olam tufayl,
Nekim g‘ayri olamdur, ul ham tufayl.

Kishi ko‘rmamish hargiz andoq kishi
Ki, oshiqqa oshiqlik o‘lg‘ay ishi5.

Yaqin anglasam g‘ayr bordur adam,
O‘zung oshiqu ishqu ma’shuq ham.

Chu ma’shuqu oshiq sen o‘ldung tamom,
Sanga ishqu ushshoqdin vassalom.

II

Munojot ul Karimi Xalloq va mukarrami alal-itloqqakim, karamining «kof»i sarkashlik bila yozuq «qof»ini yerga past qilur va «ro»si royi olamoro bila ma’siyat «ayn»in ko‘r etar va «mim»i lutfi emim bila xato xattig‘a afv raqami chekar va o‘z jurmi oloyishin demak va bahri g‘ufronidin amon istamak

Lakal-hamd, yo Akramal-Akramin,
Karam ahlin etgan gadoyi kamin.

Karim o‘lsa olamda har nav’ shoh,
Anga sen karam qilding ul dastgoh.

Karamdin kishi qayda sochqay diram,
Diram sen anga qilmog‘uncha karam.

Karam ahli gar sohibi toj erur,
Ki, xoni navolingg‘a muhtoj erur.

Anga sen xazoyin eshigin ochib,
Chu sochmoqqa amr aylabon, ul sochib.

Bas, ul filhaqiqat karamkesh emas,
O‘zung Mukrim, ul bir sabab besh emas.

Chu sen Mukrim, ahli karamdur sabab,
Desam Akramul-Akramin ne ajab.

Munga o‘zga ma’ni dog‘i bordur,
Akobir so‘zidin namudordur

Ki, ayni karamdin qachonkim Iloh,
Gunahkordin o‘tkarur bir gunoh.

Karam fartidin budur oning ishi,
Kim ul ishga o‘zga tutulmas kishi.

Ulusqa agar ul gunoh ishdurur,
Qiyomatqacha afvu baxshishdurur.

Bu yanglig‘ karamdin rasuli amin
Seni etmish ul Akramul-Akramin.

Ilohiy, alarkim gunahkor ekin,
Sen o‘tkarmagan ne gunah bor eking‘

Chu har mujrimekm, sen etting karam,
So‘rulmas hamul jurm ila o‘zga ham.

Agar afv birla karam budurur,
Bori xalqning jurmi ma’fudurur.

Sangakim karamdur bu g‘oyatqacha
Kim el ma’fu o‘lsa nihoyatqacha.

Chu daryoyi rahmatqa solg‘anda mavj,
Quruq qolmamish ne hazizu ne avj.

Necha menda jurm o‘lsa behad padid,
Ne yanglig‘ bo‘la olg‘amen noumid.

Necha ma’siyatdin tabahkormen,
Nihoyatdin ortuq gunahkormen.

Qadimni xijolat yuki xam qilib
Anga jurm sarborliq ham qilib.

Tutoshib vujudumg‘a hirmon o‘ti,
Ne hirmon o‘ti, balki isyon o‘ti.

Bu isyon o‘ti ichra kuymak aro,
Bo‘lub dudidin ro‘zgorim qaro.

Ne isyon o‘ti, balki otashkada,
Anga hema bu jismi mehnatzada.

Ne otashkadakim tomug‘din nishon,
Zabonalari ko‘kka otashfishon.

Gunah shu’lasin chun chekib ul tomug‘,
Kuyub abri rahmat nechukkim momug‘.

Sharardin kavokib yuzi o‘rtanib,
Ne kavkab, maloyik pari cho‘rkanib.

Qarortib tutun charx javfin tamom,
Zamona qo‘yub oning otini shom.

Demay shom, mehnat palosi deyin,
Jahon kiydi motam libosi deyin.

Gunahda meni o‘ltururga qazo,
Kiyib dahr shaxsi libosi azo.

Ichin ham qaro qayg‘u g‘amnok etib,
Yaqosin dog‘i subhdin chok etib.

O‘kush tiyraliklar aro turfa boq
Ki, charx etti mushkum savodini oq.

Savodim bayozig‘a so‘rsang dalil,
Yerur shomi isyong‘a subhi rahil.

Fano paxtasi bil namudor anga,
Kafan rishtasi angla har tor anga.

Ajal xaylig‘a chun hujum ortibon,
Adam sori har toridin tortibon.

Nechuk bo‘lmay ohimdin otashfishon,
Menikim ajal eltgay mo‘kashon.

g‘amim yo‘qtur o‘lmakda emgak uchun,
Nedinkim tug‘ar kimsa o‘lmak uchun.

Va lekin bu jonimg‘a emgakdurur,
Ki asru yomon nav’ o‘lmakdurur.

Munga tegru andinki, o‘zni bilib,
Zalolat aro umr zoyi’ qilib.

Nafas urmay aylar zamon xiyralik
Ki, topmay ko‘ngul ko‘zgusi tiyralik.

Qadam urmayin g‘ayri berohg‘a
Ki, andin tushub bosh tuban chohg‘a.

Tunu kun xarobot aro mayparast,
Qilib o‘zni isyon mayi birla mast.

Musallo garavda mayolo bo‘lub,
Rido go‘shasi bodapolo bo‘lub.

Bo‘lub maykada dayri zulmat asos,
Men anda qari gabri haqnoshinos.

Agar muncha yuz bo‘lsa rasvolig‘im,
Siyahro‘lug‘u besaru polig‘im.

Vale sendin uzmaymen aslo umid
Ki, ermon karam bahridin noumid.

Bu dargohda har kim gunahkorroq,
Inoyat qilurg‘a sazovorroq.

Muni anglag‘ach bo‘ldi holim taboh
Ki, ummid ila ko‘prak ettim gunoh.

Yeshittimki, Horuni daryoato
Demishkim, chu afv aylasam bir xato.

Agar bilsalar xalqkim begumon,
Ne chog‘lig‘ toparmen farah ul zamon.

Toparg‘a inoyat bila parvarish,
Ulus qilmag‘ay jurmdin o‘zga ish.

Ilohiy, tuman ming bu Horun kibi,
Ne Horunki, Ashku Faridun kibi.

Sening dargahingda ne bo‘lg‘ay xase,
Demay xaski, ul xasdin o‘ksuk base.

Alar qilsalar muncha arzi karam,
Bu ma’razda ne nav’ atay seni ham.

Alar gar shah o‘lsa, gadomen yamon,
O‘lar vaqti soyil hamon, shah hamon.

Yorurda quyosh partavidin saro,
Qachon farq o‘lur fahm zarrot aro.

Qilur vaqt bu zarralarg‘a karam,
Navoiyg‘a lutf ayla bir zarra ham.

Sazo andin ar jurmu pindor erur,
Sen ul qilki sendin sazovor erur.

Xato aylaganni hisob aylama,
Xatosig‘a loyiq azob aylama.

Karam birla jurmini kam aylagil,
Garu ul qildi kamm, lek karam aylagil.

Agar qilmading zuhdu toat nasib,
Habibingdin etgil shafoat nasib.

III

Ul Rasuli amin na’tikim, risolat xutbasida muborak alqobi sayyid ul-mursalin keldi va ul shafe’ ul-muzannibin vasfikim, humoyun sifoti «Va mo arsalnoka illo rahmatan lil-olamin» yozildi, alayhi afzalus- salavot va akmalut - tahiyot

Zihi anbiyo xaylining sarvari,
Boshing uzra sarxaylliq gavhari.

Demay anbiyo qavmu xayling sening,
Bori ofarinish tufayling sening.

Tutub gavhari zoting avval vujud,
Bo‘lub so‘ngra mavjud budu nabud.

Zamoneki nurungg‘a bo‘lmay zuhur,
Ne zulmat bo‘lub zohir ul dam, ne nur.

Chu Haq aylab ul nurni sham’i jam’,
Aning nuridin yorutub jam’i sham’.

Bu mash’al chu o‘z shu’lasin yorutub,
Rusul sham’i andin yorug‘luq tutub.

Demaykim rusul, har nekim topti ruh,
Bu kibritdin borcha topib futuh.

Ne kibrit, gugirdi ahmar ham ul.
Ne gugird, iksiri akbar ham ul.

Vujudingdin aylab qazo kimiyo,
Misin oltun aylab bori anbiyo.

Bu sabqatki, zotingg‘a berdi Ahad,
Sanga Bul-bashar tong yo‘q o‘lmoq valad.

Atoliqqa suratda payvand erur,
Vale asli fitratda farzand erur.

Ajab yo‘q sen o‘lmoq ato, ul sabiy,
Bu ma’nig‘adur dol «Kuntun-nabiy»[1].

Qachonkim, valad bo‘lsa Odam sanga,
Bas ahfod erur o‘zgalar ham sanga.

Xiradg‘a solib ajz zoting sening,
Xirad ahlig‘a mu’jizoting sening.

Chu Musog‘a[2] «Tavrot» etib Haq bayon,
Sanga ul bayon ichra mu’jiz ayon.

Bo‘lub chunki Dovud[3] qismi «Zabur»,
Sening mu’jizing anda aylab zuhur.

Chu Isog‘a[4] «Injil»[5] nozil bo‘lub,
Haq anda sifotingg‘a qoyil bo‘lub.

Kalomeki sendin topib intizom,
Aning lafz bar lafzi mu’jiznizom.

Nechakim kutubi osmoniy kelib,
Borisinda sendin nishoniy kelib.

Bo‘lub chun zuhuri valodat sanga,
Bo‘lub fosh nuri saodat sanga.

Aning partavidin nechukkim quyosh,
Madoyin bo‘lub Makka[6] ahlig‘a fosh.

Sujudungg‘a butlar bo‘lub yerga past,
Aningdekki, but ollida butparast.

Angakim sanga berdi mundoq vujud,
Bu shukronag‘a sen ham aylab sujud.

Seni chunki sojid qilib kirdigor,
Anga sajda qilmoq bo‘lub oshkor.

Sening tug‘mog‘ing ravshan aylab jahon
Aningdekki, tuqqay quyosh nogahon.

Bu ishtin falak topqach ogohliq,
Sanga shahlar uzra berib shohliq.

Falakka bu baxshish qilurg‘a ne had,
Seni Haq shah etmish azal to abad.

Guvoh o‘ldi toji futuvvat munga,
Dalil o‘ldi muhri nubuvvat munga.

Bu muhreki naqshin tutub ul kitif,
Quyosh ichradur axtari munxasif.

Ne axtarki, bir xotam etmish nishon,
Yadulloh[7] aro xotam o‘lg‘on nihon.

Vujudungni chun qildi Haq ganji roz,
Haqiqat duru la’lidin yo‘q majoz.

Qilib fosh mahfuzi asror fanin,
Zaruratki muhr etti o‘z maxzanin.

Demay jismkim, ganji shohiydur ul,
Ne xotam, nigini ilohiydur ul.

Angakim ilik bersa mundoq nigin,
Niginida tong yo‘q zamonu zamin.

Gini yo‘qki, oy uzra piroyadur,
Quyosh ustida mushkdin soyadur.

Quyoshning chu man’ ayladi soyani,
Nedin soya kasb etti bu poyani.

Chu sham’ingning o‘ldi adam soyasi,
Nechuk bo‘ldi bu soya hamsoyasi.

Qilib har kun ul soyag‘a rashk fosh,
To‘kar sarg‘arib, titrab ashkin quyosh.

Quyoshingg‘akim banda yuz badrdur,
Iki zulf iki laylatul-qadrdur.

Demay zulf, iki gesuyi anbarin,
Qarorib alar atridin mushki Chin.

Sabo Chin[8] sari andin eltib shamim,
Bo‘lub Chin dog‘i nofai mushkin nasim.

Nedin bo‘ldi Chin nofasi mushkfom,
Bulardin agar qilmadi mushk vom.

O‘rulganda topib chu tobu shikanj,
Iki anbarin af’i, ul jism ganj.

Qachonkim tarar chog‘da tobin ochib,
Sabo bargi gul uzra sunbul sochib.

Yuzung sunbuli anbarinfom aro,
Saodat tazarvi tushub dom aro.

Qushekim sanga bastai dom emish,
Azozildek farruxanjom emish.

Ayog‘ingg‘a tayreki afgandadur,
Agar chug‘z bo‘lsunki, farxandadur.

Birovkim erur ganj vayronasi,
Ne g‘am ajdaho bo‘lsa hamxonasi.

Alarkim o‘lumga davo qildilar,
Aso tashlabon ajdaho qildilar.

Ochilg‘och kalomingdin obi hayot,
Ani to‘rt burqa’g‘a soldi uyot.

Chu habli matining ayon qildi zo‘r,
Munung ayladi ajdahosini mo‘r.

Ne Muso-yu, Isoki, bori milal,
Chu shar’ing ayon bo‘ldi topti xalal.

Zihi oftobi risolatpanoh
Ki, anjumdek etting rusuldin sipoh.

Vale chunki xurshiding etti zuhur,
Kavokib sipohin nihon qildi nur.

Nekim charxu anjum sanga jilvagoh
Ki, jilvang chog‘i Arsh[9] o‘lub xoki roh.

Rikobingda chovush o‘lub Jabrail.
Bu ma’nig‘a me’roj shomi dalil.

IV

Ul humoyi balandparvoz tayronining sur’ati ta’rifidakim, me’roj shabistonida ko‘zi nargisi bila ko‘ngli g‘unchasi «mozog‘al-basaru va mo taro» jo‘yboridin shodobdurur va taqarrub ayvonida muqavvas qoshlari « qoba qavsayni av adno » e’tiboridin bahrayob

Ne shom ul shabistoni farxundafol,
Bulub ofarinish uzorig‘a xol.

Demay xolkim, gesuyi mushkrez,
Qilib ofarinish uza mushkbez.

Chu oning bo‘lub oshkoro isi,
Jahonni tutub mushkisoro isi.

Taaniy bila junbish aylab nasim,
Yoyib mushk zimnida avroqi sim.

Ne simin varaq, balki yuz lam’a nur,
Qilib ul shabistonda har yon zuhur.

Ul anvordin jirmi g‘abro yorub,
Ne g‘abro, shabistoni xazro yorub.

Falak gulshani ravza bo‘stonidek,
Sipehr axtari xuld rizvonidek.

Maloyik inib ravshan axtar kibi,
Uchub dahr davrida shabpar kibi.

Bu qushlar jinohi yeli chun yetib,
Shayotin g‘uborini barbod etib,

Bu yanglig‘ kecha ul charog‘i sipehr,
Yuzi toza gulbargi bog‘i sipehr.

Quyoshdek ulusdin nihoniy bo‘lub,
Yeri hujrai ummahoniy bo‘lub

Ki, nogoh choqildi bir tez barq
Ki, ofoqni qildi nur ichra g‘arq.

Demay barqkim, toyiri barqsayr,
Qo‘lida bir ul nav’kim barqtayr.

Biri Arsh ayvonining toyiri,
Biri xuld bo‘stonining soyiri.

Anga Sidra koxi navogoh o‘lub,
Munga ravza bog‘i charogoh o‘lub,

Kelib hosilan Jabraili amin,
Yetib turfa tovusi xuldi barin.

Buroqi[1] sabuk sayri qudsiy sirisht.
Bo‘lub jilvagohi riyozi bihisht.

Falak sayridin tez orom anga,
Ming illiq falak sayri bir gom anga.

Qayonkim solib gom payki nazar,
Yuz oncha qilib gomi oning guzar.

Chu yetti payomovari rahnavard,
Bo‘lub jabhadin xoki dargahnavard.

Yuzin mehrdek aylagach xoksud,
Habibig‘a yetkurdi Haqdin durud

Ki, hijron bisotin tay etmak kerak,
Qo‘pub Haq visolig‘a yetmak kerak.

Yeshitgach bu so‘z soyiri charxgom,
Ravon qo‘pti bo‘lmoqqa gardunxirom.

Chekib qosid ul raxshu aylandurub,
Safar sozni qo‘ldab, otlandurub.

Chu otlandi rokib, nechukkim daraxsh,
Burun surdi Baytul-haram[2] uzra raxsh.

Yana po‘yada qo‘ydi Aqsog‘a yuz,
Ne Aqsog‘a yuz, charxi a’log‘a yuz.

O‘tub hamli avvalda bu bog‘din,
Yelu o‘t bila suvu tufrog‘din.

Chu javlongahi bo‘ldi bu tiyra farsh,
Burun hamlada farshdek qoldi Arsh.

Falakdin demay o‘tmak oson edi,
Quyig‘i tihi birla yakson edi.

Burung‘idakim oyg‘a qildi vido’,
Qamar manzili bo‘ldi taqtash-shio’.

Chu kasb etti ul nuri joviddin,
Qamar poyasi o‘tti xurshiddin.

Chu raxshi ikinchiga urdi qadam,
Atoridg‘a[3] sindi davotu qalam.

Ko‘rub ummiyi ilmlar maxzani,
Ravon ilm kasb etmak o‘ldi fani.

Uchunchi sori chun shitob aylabon,
Falak Zuhrag‘a[4] ehtisob aylabon.

Yo‘lidin qochib zohir etmay surud,
Ravon yoshurub chodiri ichra rud[5].

Chu to‘rtunchi sori takovar surub,
Quyoshqa base sarzanish yetkurub.

Bo‘la olmayin ul shabistonda fosh,
Kirib yer tubiga uyotdin quyosh[6].

Beshinchiga chun yetkurub gomni,
Qilib bandai amri Bahromni[7].

Ki, solib ulus tarkidin qing‘a tig‘,
Qilib tark qon to‘kmagin bedarig‘.

Chu oltinchig‘a yetkurub rahbari,
O‘qub xutbai davlatin Mushtariy[8].

Duosig‘a minbarda chun qo‘l ochib,
Boshig‘a falak naqdi anjum sochib.

Yetinchiga chun obir aylab samand,
Saodatdin o‘lub Zuhal[9] bahramand.

Bo‘lub daf’ aning borcha nahsiyati,
Quli bo‘lub aning saodat oti.

Chu aylab sekizinchi sori murur,
Savobit topib maqdamidin surur.

Ochib gullarin ul musamman chaman,
Boshi uzra sochib gulu nastaran.

Hamal chun aningdek topib mehribon,
Kerakmas debon Muso yanglig‘ shubon.

Bo‘lub sadqasi charxi davvor uyi,
Qilib davra, andoqki assor uyi.

Iki paykar ochib duosig‘a el,
Tongib xizmatig‘a iki yerda bel.

Musharraf qilib chunki xarchangni,
Ochib raxshi temorig‘a changni.

Qochib Sher yetgan zamon ul daler,
Qari tulku ul nav’kim yetsa sher.

Bo‘lub Xo‘shag‘a dona gavhar kibi,
Ne gavhar kibi, balki axtar kibi.

Ayog‘ig‘a Mezon qo‘yub boshini,
Adolat yuzidin tuzub toshini.

Chayon no‘sh sochmoq qilib ibtido,
Yetib nishining band-banddin judo.

Bo‘lub qosh uchidin ishoratnamoy,
Berib qobi qavsayndin mujda Yoy.

Suti O‘chkuning shirai jon bo‘lub,
Aning qatrasi durri g‘alton bo‘lub.

Yo‘li ustida Qubqakim suv sochib,
Sochar vaqti suv yo‘qki, inju sochib.

Falak deb damidin tirilganda Hut
Ki, «Subhona hayyil-lazi lo yamut»[10].

Falak bog‘i andoq topib zebu far
Ki, bir charx o‘lub anda har nilufar.

Chu garm aylabon charxi atlasqa ot,
To‘shab atlasin oti ollinda bot.

Chu sayr aylab ul necha toram sori,
Takovar surub Arshi a’zam sori.

Bo‘lub muftaxir Arsh aning zotig‘a
Ki, na’l aylabon «ayn»idin otig‘a.

Berib chunki Kursiga piroyae,
Urujig‘a Kursi bo‘lub poyae.

Munavvar bo‘lub Lavh anvoridin,
Qilib shamsa xurshid ruxsoridin.

Qalamg‘a yetib maqdamidin kushod,
Yozib chashmzaxmi uchun «in yakod»[11].

Surub barqsayrini jon mulkiga,
Ne jon mulkiga, lomakon mulkiga.

Guzargohi ul damki Rafraf bo‘lub,
Yuzidin damo-dam musharraf bo‘lub.

O‘tub dog‘i bir yerga tortib alam
Ki, bo‘lmay anga hamrahi hamqadam.

Qolib po‘yadin payki aflokgard,
Qadam olmayin raxshi gardunnavard.

Buroqin tushub paykiga topshurub,
Qadamsiz yurub, po‘yasiz gom urub.

Ne to‘rt asldin ko‘ngliga yorliq,
Ne olti tarafdin xabardorliq.

Ham olti-yu ham to‘rt mavquf edi,
Aning xotiri birga mash’uf edi.

Bo‘yidin vujudi libosin so‘yub,
Boshidin taayyun livosin qo‘yub.

Vujudin adam gardi aylab sog‘inch,
Vujudu adamdin bo‘lub ko‘ngli tinch.

O‘zidin chu jonida qolmay nishon,
Solib o‘zni jonon sori jonfishon.

O‘zidin o‘zin toki qilmay xalos,
Qila olmayin o‘zni jonong‘a xos.

Chu o‘zlukni o‘zdin qilib bartaraf,
Qilib jilva maqsud anga har taraf.

Bo‘lub raf’ o‘zluk aro pardasi,
Padid o‘ldi vahdat saropardasi.

Niqob anda yetmish ming etti zuhur,
Aning ko‘pragi zulmat, ozrog‘i nur.

Ki, raf’ etti borin hidoyat yeli,
Hidoyat yeli yo‘q, inoyat yeli.

Yaqinroq sig‘indi visol istabon,
Visol avjig‘a ittisol istabon.

Nekim istabon aylar erdi havas,
Tamomig‘a Haq yetkurub dastras.

Yorub vasl xurshididin ayn anga,
Muayyan bo‘lub qobi qavsayn anga.

Taallumg‘a yetmay «shadidul-quvo»,
Ko‘zi topti «mo zog‘», o‘zi «mo tag‘o»[12],

Necha ikilik naqshi nobud o‘lub,
Bir-o‘q vahdati sirf mavjud o‘lub.

Qilib mayl ummat nizomig‘a ham,
Yonib «Li maalloh» maqomig‘a ham.

Qilib mustami’liqda arzi niyoz,
Topib Haq taolodin ismoi roz.

Agar maxfiy, ar fosh o‘lub Haq so‘zi,
O‘zi aytibu ham eshitib o‘zi.

Ko‘rub bahri g‘ufronni chun mavjnok,
Tilab osiy ummat gunohini pok.

Bu maqsudini arz qilg‘on zamon,
Talab birla topmoq bo‘lub tav’amon.

Chu topib tilab topmag‘onni kishi,
Kirib ko‘ngliga avd qilmoq ishi.

Kelib g‘unchau bog‘i rizvon yonib,
Yetib qatrau bahri Ummon yonib.

Topib har ne maqsudkim istabon,
Bo‘lub borcha mavjudkim istabon.

Yonib yuz qo‘yub raxshu yo‘ldoshig‘a,
Tonilmay yetishgach alar qoshig‘a.

Aning shavkatin beadad topibon,
Necha Ahmad istab Ahad topibon.

Yana sekribon markabi uzra chust,
Qilib po‘ya azmi, nechukkim nuxust.

Falak ahli ichra alolo tushub,
Malak xaylig‘a sho‘ru g‘avg‘o tushub.

Maloik tutub yo‘l boshin javq-javq,
Tamoshosida borcha ko‘nglida shavq.

Jamolig‘a chun ko‘zlarin ochibon,
Tabaqi nurlar boshig‘a sochibon.

Anga nur sochmoqqa monand bu
Ki, sochqay kishi bahri Ummonga suv.

Sochib nuru bori ayog‘in o‘pub,
Ayog‘ neki, raxshi tuvog‘in o‘pub.

Chu bir xayl etib xayrbodig‘a mayl,
Yetib, xayra maqdam, debon o‘zga xayl.

Bular qilmayin avd, pobo‘s etib
Ki, bir o‘zga xayli maloik yetib.

Malakdin to‘lub, baski, har qo‘l anga,
Nuzul etgali bog‘lanib yo‘l anga.

Tuman ming sharor ichra bir lam’a nur,
O‘kush xayli nor ichra bir lam’a nur.

Vale nurig‘a nordin yo‘q gazand,
Bo‘lub nor ul nurdin bahramand.

Bu yanglig‘ kirib xayli aflok aro,
Guzar qilg‘ali markazi xok aro.

Boshig‘a aning evrulub har falak.
Nechukkim, falak uzra xayli malak.

Charog‘ig‘a parvonalardek nujum,
O‘zin o‘rtamaklikka aylab hujum.

Ne parvonakim, borcha sham’in tutub,
Aning mash’ali nuridin yorutub.

Falak ahlin aylab chu nur ichra g‘arq,
Falakdin inib yerga andoqki barq.

Guli chun qilib toza bu bog‘ni,
Yetib g‘ayrati Arsh tufrog‘ni.

Tushub bo‘lg‘och oromgohi visoq,
Yonib payku jannatqa eltib Buroq.

Munungdek safarkim emas xalq ishi
Ki, sharhin aning aylay olmas kishi.

Xiradni ne tong aylasa badgumon
Ki, boshtin-oyoq bor emish bir zamon.

Borib kelmak andoq topib ittisol
Ki, bo‘lmoq burun so‘ngra lafzi mahol.

Ne yerga yetishgay xirad bilmagi,
Bor ersa borurdin burun kelmagi.

Dame sayr etardin biyik himmati,
Murodini hosil qilib ummati.

Borig‘a berib mujdai shodlig‘,
Gunah intiqomidin ozodlig‘.

Navoiyg‘a bo‘lsa gunah behisob,
Anga ham, gunohig‘a ham ne hisob.

Shafe’ o‘lg‘on o‘lsa bu yanglig‘ rasul,
Haq ul nav’ ani qilg‘on o‘lsa qabul,

Ishi necha jurm ichra mushkildurur,
Bag‘ishlang‘on el ichra doxildurur.

Qachon hojati bo‘lg‘ay erdi ravo,
Agar topmasa erdi mundoq navo.

V

Bu «Xamsa» takmilidakim, salavoti xamsa adosidek avval fajr sajadotidin «Siymohum fi vujuhihim min asarissujud» zumrasig‘a kirildi va zuhr rakaotidin «Varkau maarrokiin» xaylig‘a qo‘shululdi va asr qiyomidin «Va iqomas-salovot» jamoatig‘a yuz qo‘yuldi va mag‘rib qiroatidin «Iqra’ bismi

rabbikallazi xalaq» xalqig‘a bosh induruldi va emdi isho niyatidin otil tab’ni g‘aflat uyqusig‘a borg‘oli qo‘ymayin

Kel, ey tole’i sa’du baxti baland
Ki, sizdin bo‘lur odami arjumand.

Angakim tushar qaysingiz soyasi,
Quyoshdin biyikrak bo‘lur poyasi.

Angakim yetar ikingizdin madad[1],
Madadkori Haqdur azal to abad.

Karam aylab iki qo‘lum qo‘ldangiz,
So‘z iqlimi sori meni yo‘ldangiz.

Bu vodiy aro Xizri[2] rohim bo‘lung,
Qayon yuz ketursam panohim bo‘lung.

Burundin chu ko‘rguzdunguz yorliq,
Base yetti sizdin madadkorliq.

Kichik erkanimdin bo‘lub qoshima,
Ulug‘ muddao soldingiz boshima[3].

Chu olimg‘a kelgan biyik tog‘ edi,
Toshi itigu yo‘li bo‘rtog‘ edi.

Bu bo‘rtog‘liq birla yuz pech anga,
Chiqa olmag‘udek kishi hech anga.

Chiqar yo‘lida to‘rt oromgoh[4],
Beshinchisi maqsad biloishtiboh.

Har oromgohida yuz nav’ ranj,
Vale tutqach orom zimnida ganj.

Anga chiqmoq o‘lmay kishining ishi,
Magarkim chiqib bir, iki, uch kishi[5].

Manga chunki sizdin madad bor edi,
Ne sizdinki, Tengri madadkor edi.

Chiqorg‘a chu qildim azimat durust,
Qadam urdum ul aqba yo‘lig‘a chust.

Qilay deb maqom ul falakvash sarir,
Itik tosh ayog‘img‘a erdi harir.

Qadam urmog‘im bemadoro bo‘lub
Kim, ul xora yo‘lumda xoro bo‘lub.

Qilib tang‘a osudalig‘ni harom,
Hamul to‘rt manzilni qildim xirom.

Yo‘lum ichra manzil chu bu to‘rt edi,
Chiqorim biyik, o‘ylakim o‘rt edi.

Solib chun biyik yo‘lg‘a chiqmoqqa xez,
Makon tay qilib, o‘t kibi garmu tez.

Ne manzilg‘a yetguncha gar ranj o‘lub,
Vale bahra manzilda bir ganj o‘lub.

Qo‘yuldi chu to‘rtunchi manzilg‘a gom,
Dedimkim, qilay to‘rt-besh kun maqom

Ki, yo‘l ranjidin notanumand edim,
Tinorg‘a, base orzumand edim.

Necha kunki daf’ o‘ldi farsudaliq,
Mizojimg‘a yuzlandi osudaliq.

Tabiatki xo‘yi kasolatdurur,
Taraddud anga sa’b holatdurur.

Xususanki tovsholmish o‘lg‘ay base,
Qotig‘ po‘yadin tolmish o‘lg‘ay base.

Besh-o‘n kunchakim bo‘ldum oromjo‘y.
Nishoti mayu nuqldin komjo‘y.

Havo andoq aylabdur oni lavand,
Tarab tanbalu, komu g‘aflat tanand,

Ki, juz mayli komu murod aylamas,
Qadam yo‘lg‘a urmog‘ni yod aylamas.

Desam azm targ‘ibig‘a yuz masal,
Aning daf’ig‘a ko‘rguzub ming hiyal.

Yo‘l emgaklarin yod qilg‘on zamon,
Bo‘lur xotiri azm etardin ramon.

Dame bemayu nuql masrur emas,
Manga oning islohi maqdur emas.

Azimat anga mundin ar qolsa kech,
Ne emgakki chektim, erur borcha hech.

Xususanki zanjirlar birla ham,
Agar cheksalar, yo‘lg‘a qo‘ymas qadam.

Nasihat mizojig‘a dargir yo‘q,
Kuchum yetmasu o‘zga tadbir yo‘q.

Yarim yo‘lda qolmoq erur mushkil ish,
Manga tushgan ish kimsaga tushmamish.

Bu dostonki surdum–kinoyatdurur,
g‘araz andin, ushbu hikoyatdurur

Ki, Haqdin ato chu manga bor edi,
Yana baxtu iqbol ham yor edi

Ki, chun «Xamsa» azmin durust ayladim,
Kamargohig‘a panja rust ayladim.

Yetishmay ko‘p ul ishta panjamg‘a ranj,
Nasib o‘ldi besh ganjidin to‘rt ganj.

Ne vasf aylayin, chunki har kim yetar,
Taammul agar qilsa, ma’lum etar.

Ki ganj, o‘yla yo‘qtur Faridung‘a ham.
Faridun demay, balki Qorung‘a[6] ham.

Va lekin beshinchida tab’i najand,
Necha kun bo‘lub lahvg‘a poyband.

Qadah durdig‘a qo‘l uzotibdurur,
Ayog‘i bu loy ichra botibdurur.

Ani tortmog‘liqni bu loydin,
Hamul bodai xotiroloydin.

Necha o‘z qoshimdin qilurmen xayol,
Xirad ul xayolimni aytur mahol.

Uyekim, vahaldin chekar yuz kishi,
Ani chekmak ermasdurur mo‘r ishi.

Bu ishdinki tab’im haroson erur,
Agar Tengri lutf etsa oson erur.

Qachon cheksa oni inoyat qo‘li,
Ilayinda ochsa hidoyat yo‘li.

Talab yo‘lida tolpina, tirmana,
Ne dushvor manzilg‘a yetmak yanag‘

Chu Haqdin edi ul saodat manga,
Bu dushvor ish ichra jalodat manga.

Bu dam hamki, mushkilrak o‘lmish ishim,
Yerur Tengri ollinda-o‘q nolishim.

Agar lutfini aylasa yovarim,
Tilimni yozug‘larga uzrovarim.

Chekib borcha oludalig‘din ayoq,
Tutub bori behudalig‘din qiroq.

Nadomat ko‘zin ashknok aylabon,
Hamul suv bila g‘usli pok aylabon.

Solib ko‘ngluma so‘z demak niyatin,
Kiyib egnima dog‘i so‘z kisvatin.

Suxanvarlig‘ asbobini soz etib,
Duri nazm sochmog‘lig‘ og‘oz etib.

Tuzay nazm mulkida shohona bazm,
Hamul bazm sori qilay yona azm.

Bilik taxti uzra chiqib o‘lturay,
Xayol elchisin har taraf chopturay.

Namudori rasmi rayosat qilib,
Ibo aylaganga siyosat qilib.

Maoniy sipohini jon mulkidin,
Ne jon mulkidin, lomakon mulkidin,

Yasoq birla yetkurtayin favj-favj
Ki, tutsun cherik ne hazizu ne avj.

Yig‘ilg‘och sipah, tarki bazm aylayin,
Jahongirlik sori azm aylayin.

Solib tang‘a so‘z javshanu bagtarin,
Qo‘yub bosh uza pok nazm afsarin.

Minay ko‘shishu sa’y raxshig‘a tez,
Sipah ziynatig‘a qiloyin sitez.

Yasolni tuzay andoq orosta
Ki, bir tuz chaman sarvi navxosta.

Mamolikki, tab’ aylamish erdi fath,
Ul iqlimkim bo‘lmamish erdi fath.

Ne iqlim, balkim jahon kishvari
Ki, topmish edi fathi Iskandariy.

Skandardek aylab sipahdorlig‘,
Sipahni xalaldin nigahdorlig‘.

Nechukkim, Skandar[7] kezib xushku tar,
Musaxxar qilay nazm ila bahru bar

Ki, ya’ni chekib xomai xushxirom,
Skandar ishiga qilay ehtimom.

Ilohi Navoiyg‘a tavfiq ber,
Qaro shomig‘a sham’i tahqiq ber

Kim, ul shomi dayjur ofotidin,
Ne ofotidin, balki zulmotidin,

Chiqorsun Xizr yanglig‘ obi hayot,
Yetursun Skandar janobig‘a bot.

Necha zoyil o‘lsun hayoti aning,
Tirilsun bu dam bori oti aning.

VI

So‘z ta’rifida bir necha so‘zkim, ofarinish daryosidin burung‘i chiqqon gavhari serobdurur va xilqat sipehridin avvalg‘i tulu’ etgan axtari purtob va bu munosabat bilan hazrati shayxi Nizomiy qaddasa sirrahu maddohlig‘ikim, bu axtarning sipehri gardoni ul erdi va bu ta’rif bila Mir Xusrav navvara marqadahu avsofikim, bu gavharning daryoyi

Ichar xayl so‘z bodai sofini,
Demak farz keldi so‘z[1] avsofini.

Budur vasfi ichra kamolin demak
Ki, bo‘lmas kamolini vasf aylamak.

Bu ta’rif anga bas muvajjahdurur

Ki, ta’rif etardin munnazahdurur.

Biyikrak maqom ichra aflokdin,
Ne aflokdin, vahmu idrokdin.

Ul avj uzrakim sochilib so‘z duri,
Surayyo kelib anda tahtas-sari.

Vujud ichra olamg‘a sabqatnamoy,
Sharaf birla Odamg‘a rif’atfizoy.

Gar ul bo‘lmasa kimsaga yo‘q sharaf,
Aningdekki, gavharsiz o‘lg‘ay sadaf.

Sadaf to guhar anda pinhon erur,
Aning xozini bahri Ummon[2] erur.

Guhardin chu xoli bo‘lur ul sadaf,
Yerur teng ulu bir qurug‘on kashaf.

Bashar zotida javhari jon ham ul,
O‘luk jismida obi hayvon ham ul.

Bukim javhari jon dedim otini,
Qilay jon bila bu so‘z isbotini.

Chu jism ichra jon yo‘qtur, ul yo‘qdurur,
Yana jong‘a onsiz bu hol-o‘qdurur.

Bashar xaylig‘a til tutulg‘on zamon,
Tiriklik hamon keldi o‘lmak hamon.

Bu hamkim dedim obi hayvon ani,
Quloq tutki, sharh aylay oson ani.

O‘luk tirguzur bo‘lsa hayvon suyi,
Qilur ham bu ishni dami Isavi[3].

Qayu kimsakim, so‘z berur jon anga,
Qilur jon fido obi hayvon anga.

O‘lukka gar andin erur joni pok,
Va lekin tirikni ham aylar halok.

Gahi masjid ichra alolo solib,
Xarobot aro goh g‘avg‘o solib.

Ham ul charx bahrig‘a durdonadur,

Ham ul bahru gavharg‘a afsonadur.

Bashar tab’ining ishvagar dilbari,
Nazardin nihon, ul sifatkim pari.

Dilorolig‘ anda jahon dar jahon,
Latofat ani ko‘zdin aylab nihon.

Vale gar tilab xalq ofatlarin,
Kiyib savt ila harf kisvatlarin.

Hulalkim jamolin mushakkal qilib,
Ma’oniy duridin mukallal qilib.

Yuziga berib zeb san’at bila,
Solib zulfig‘a tob diqqat bila.

Berib nuktadonlig‘ fasohat anga,
Yasab nuktaronlig‘ balog‘at anga.

Lutufdin yuzin aylab orosta,
Bo‘lub, o‘ylakim mohi nokosta.

Og‘iz ravzanidin xirom aylasa,
Quloq hujrasig‘a maqom aylasa.

Ne o‘tlarki solg‘ay jahon ichra ul,
Jahon ichra yo‘q, insu jon ichra ul.

Bu hol o‘lsa minbar uza oshkor,
Vara’ ahlining ko‘nglin aylab figor.

Biri nolai dardnok aylabon,
Biri dalqi pashmina chok aylabon.

Bu yanglig‘ki, sharh ayladim mojaro,
Agar zohir o‘lsa xarobot aro,

Bir o‘t durdkashlarg‘a solg‘ayki dahr,
Topa olmag‘ay shu’ladin o‘zga bahr.

Ko‘kusga qoqib yumrug‘ o‘rnig‘a tosh,
Urub yer uza bo‘rk o‘rnig‘a bosh.

Damekim, anga zohir o‘lmay vujud,
Gum erdi adam ichra budu nabud.

Ne bu yeti qandili volo edi,

Ne to‘quz sipehri muallo edi.

Adam erdi har neki mavjud erur,
Juz ul zotkim, foyizi jud erur.

Ham ul vahdati sirf bo‘stonidin,
Ne bo‘ston, haqiqat gulistonidin.

Burunroq nasimeki urdi nafas,
Yeshitgil nafaskim, so‘z erdiyu bas.

Ochildi chu ul yel – dam urdi nuhuft,
Adam ichra yuz g‘unchai noshukuft.

Qayu g‘unchakim, gulshani koinot,
Bu jonbaxsh yel birla topti hayot.

Nima ofarinishda tutmay o‘run
Ki, tebranmish o‘lg‘ay bu yeldin burun.

Qayu vardkim, keldi anbarshamim,
Ani bilki ochmishdurur bu nasim.

Magar bo‘ldi Ruhul-quds hamrahi,
Va yo keldi anfosi Ruhullahi.

Aning birla koni maoniy kutub,
Yo‘q arziy kutub, osmoniy kutub.

Necha qidmati ortuq andozadin,
Vale dam-badam tozaroq-tozadin.

Jahon gulshani ichra bu toza gul,
Quyosh vardidek oliy ovoza gul

Ki, andindurur dahr bog‘ig‘a atr,
Bori ofarinish dimog‘ig‘a atr.

Vale voqe’ o‘lmish tafovut base,
Biri gulbun o‘lmish, yana bir xase.

Bu gavhardin o‘ldi to‘la g‘arbu sharq,
Vale topti qiymatda bisyor farq.

Birovga yetishgonga qiymat pashez,
Yana birga qiymat kelib ganjxez.

Bu ganj olgon ul nodiri fard6 erur

Ki, ganji aning Ganjaparvard erur.

Ham ul ganjrezu ham ul ganjposh,
Bo‘lub bazlidin dahr aro ganj fosh.

Nechakim ochib ganj to‘kmakka qo‘l,
Vale maxzani roz ganjuri ul.

Aning ganjidin har diram axtare,
Yashil kup anga gunbadi axzare.

Kup ostidag‘i xisht qursi qamar,
Vale boshida tashti zarrini xur.

Qazo qismidin yetmayin ranj anga,
Bu yanglig‘ ne bir ganj, besh ganj[7] anga.

Tutub ganji bu charxi nuh toqni,
Nechukkim, quyosh nuri ofoqni.

Bu yanglig‘ki ganji maoniy to‘kub,
Jahon ahlig‘a jovidoniy to‘kub.

Bu besh ganjidinkim jahondur to‘lo
Ki, ko‘k javfida dog‘i yo‘qtur xalo.

Yo‘q ulkim, jahonni to‘lo aylamish
Ki, gardunni ham imtilo aylamish.

Kelib tab’i garduni oliy asos,
Maoniy duri anda anjumqiyos.

Bu gardun aro tab’i xurshid o‘lub,
Aning nuri olamda jovid o‘lub.

Shihobi qalam, chunki aylab tarosh,
Topib safhai mehr andin xarosh.

Atoridki, mavloyi dargahnishin,
Qachon xoma yo‘nsa bo‘lub rezachin.

Falak ud so‘zida axgar qilib,
Maloik ani udi mijmar qilib.

Ne kog‘azg‘akim, kilki gavharfishon,
Qilib mehri zarkash anga zarfishon.

Yetib anda oltinchi ko‘k zevari,

O‘pub boshig‘a sanchibon Mushtari.

Falak ahli ul noma ko‘rgan zamon,
Boshi uzra misvoke aylab gumon.

Quyosh chunki nur anglamay aynidin,
Ani yorutub gardi na’laynidin.

Bo‘lub so‘z mayig‘a chu hushi garov,
Anga jur’akash yo‘q, magarkim birov.

Birov yo‘qki, hinduyi la’bovari,
Ne hinduki, joduyi donishvari.

Ne joduki, donoyi hikmatmaob,
So‘zi nazm devonidin intixob.

Chuchuk nuktadin yopishib nomasi,
Magar nayshakardin bo‘lub xomasi.

Anga xoma no‘gi qaranful kibi,
Va yo sarvinoz uzra sunbul kibi.

Gah ul sunbuli tar qaranful sochib,
Qaranful dog‘i goh sunbul sochib.

So‘z ichra anga tezbozorliq,
Bu bozor aro turfa attorliq.

Valek ul do‘koneki mavjud anga,
Sutunu eshik-sandalu ud anga.

Bu attorliqda maqosid bilib,
Ani doli donish Atorid qilib.

Qachon xoma dastonsaro aylabon,
Savodi jahonni qaro aylabon.

Chu Hindustondin surub doston,
Qilib dahrni dag‘i Hinduston.

So‘zi shohidi majlisoroyi Hind,
Bu majlis ichida o‘zi royi Hind.

Demay roy ani, balki yuz Kedu roy,
Sazodur anga xokro‘bi saroy.

Bu yerga chekib poya xusravlug‘i,

Biyik avjida mehr partavlug‘i

Ki, donish savodida har kimki shoh,
Aning xizmatida bo‘lub xoki roh.

Nizomiycha gar nazmi cholok yo‘q,
Chu el muncha – cholok yo‘q, bok yo‘q.

So‘z avjida gar ul mahi xovariy,
Bu gar yo‘q mahi xovariy, Mushtariy.

Aning la’lida gar duraxshandaliq,
Munung dog‘i durrida raxshandaliq8.

Gar ul rahrav o‘lsa, bu payrav kelib,
Gar ul shoh, bu dog‘i xusrav kelib

Ki, jannat alar maskani to abad,
Navoiyg‘a ma’nilaridin madad.

Yana ham qilib naqdjo‘lug‘ ado,
Bu savdog‘a urdi qadam har gado.

Vale har biriga bir ofat yetib
Kim, ul kom tahsili man’in etib.

Aningkim bo‘lub nazm piroyasi,
Bu savdoni qilmoqqa sarmoyasi.

Topib juz’e sud birla surur,
Solib ko‘ngliga ul sururi g‘urur.

Tajovuz qilib ajzu insofdin,
Qabartib o‘zin da’viyu lofdin.

Chu tarki adab zul etib iqtizo,
So‘z ayturg‘a tavfiq bermay qazo.

Agar naqd ila bo‘lsa ham borliq,
Anga xalq qilmay xaridorliq.

Ne qog‘azdakim nukta aylab raqam,
Raqam qilmay oni yana kimsa ham.

Kishi naql qilmoqqa chekmay nasaq,
Bo‘lub ul varaq raml chekkan varaq.

Bu xayl ichra bir nomurode edi

Ki, tahrir qilg‘on savode edi

Ki, garchi yuzi zebdin erdi fard,
Niyoz ohidin lek topti navard.

Bu ma’nidin ar zulmat, ar nur erur,
So‘zi goh tillarda mazkur erur.

Chu ul choshnig‘a musharraf bo‘lub,
O‘zi jargaliklardin Ashraf9 bo‘lub.

Bular chun adam sori ko‘chmish edi,
Degil masnaviy oti o‘chmish edi.

Hamul bog‘ aro gul yo‘qu bo‘yi ham,
Qurumish edi ul arig‘ suyi ham.

Bihamdillah, ul gul topib rangu bo‘,
Bir oqqan ariqqa yana oqti suv.

VII

So‘z durlari nazmida nizomiynizom va takallum gavharlari intizomida xusravkalom Nizomiy bila Xusrav qoyim maqomi, ya’ni hazrati maxdumiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy1 madda zilluhul-oliy alo maforiqi farqat-tolibin janobida arzi niyoz qilmoq va izhori

Birov oldi so‘z kishvarin yakqalam
Ki, qildi qalamni sutuni alam.

Qo‘lig‘a olib nayza o‘rnig‘a kilk,
So‘z iqlimini sarbasar qildi milk.

Bilik avjining mehri toboni ul,
Qayu mehr, so‘z jismining joni ul.

Chu sur’at aro o‘t sochib xomasi,
Yana garm o‘lub nukta hangomasi.

Hamul o‘tqakim, nazm sham’in tutub,
Maoniy shabistonini yorutub.

Chu tab’idin oqib maoni suyi,
Kelib chashmai zindagoni suyi.

Hamul chashmadin chun su bermak tuzub,
Suxanvarlik o‘lgan tanin tirguzub.

Chu istab tarab tab’i ozodasi,
Quyub nazm jomig‘a so‘z bodasi.

Aning jur’asi elni mast aylabon,
Demay mastkim, mayparast aylabon.

Ne jomeki, may jur’asidin name,
Tarashshuh qilib, mast o‘lub olame.

Bu yanglig‘ki jomi maoniy tutub,
Malak xaylig‘a do‘stgoniy tutub.

Bo‘lub chun aning jomidin jur’achash,
Bo‘lub charx so‘filari jur’akash

Ki, mash’uf o‘lub jomi mastonag‘a,
Garov aylabon xirqa mayxonag‘a.

Yangi oyni jomi hiloliy qilib,
Nechakim to‘la bo‘lsa xoli qilib.

Janohayn o‘lub sukrdin xokro‘b,
Gahi dastafshon, gahi poyko‘b,

Bu nav’ o‘lsalar Arshi A’zam eli,
Ne bo‘lg‘ay, xayol ayla, olam elig‘

Chu ul jomdin obi hayvon topib,
O‘ni jon berib, gar biri jon topib.

Dema jom ila mayki, nazmi ravon,
Yeru ko‘k elin ayladi notavon.

Qayu nazm, balkim jahon ofati,
Jahon ofati yo‘qki, jon ofati.

Yeshitmakligi zavqnok aylabon,
Vale darki ma’ni halok aylabon.

G‘azal dardu so‘zini, vah-vah, ne dey,
Desa masnaviy, Alloh-Alloh, ne dey!

Agar nazmdin borcha uslub anga,
Bori bir-biridin erur xo‘b anga.

Vale masnaviy o‘zga olamdurur
Ki, ta’big‘a holo musallamdurur.

Bo‘lub jilvagar tab’i ko‘zgusida
Ki, sabt ayladi «Xamsa» o‘trusida.

Yerur andin ortuqki, o‘ksuk emas,
Yel andin der ortuqki, o‘ksuk demas.

Aning baytig‘a gar fuzundur adad,
Vale yo‘qturur munda ma’nig‘a had.

Necha anda durji daqoyiqdurur,
Vale munda durri haqoyiqdurur.

Bo‘lur oni bahru muni kon demak,
Ani ko‘ngul, ammo muni jon demak.

Burun jilva aylab ayon «Tuhfa»si,
Berib olam ahliga jon tuhfasi.

Yana «Subha»[3] jon rishtasin tor etib
Ki, har muhra bir durri shahvor etib.

Chu Yusuf[4] so‘zin oshkor aylabon,
Zulayho kibi elni zor aylabon.

Chekib xoma «Layliyu Majnun»[5] sari,
Yuz ofat solib tog‘u homun sari.

Bu damkim qilib xomasin durfishon,
Skandar hadisidin aytur nishon.

Shak ermaski, fath aylabon xushku tar,
Skandar kibi olg‘usi bahru bar.

Bukun komil ul nav’ mafhum emas,
Burun bor ekan dog‘i ma’lum emas.

Birov ko‘ngli ollindakim sofdur,
Agar zarkash, ar bo‘ryobofdur.

Agar bo‘lsa o‘z fannida bebadal,
g‘animatdur ul borchag‘a filmasal.

Birovkim anga nafas qudsiysifot,
Nafas birla o‘lganga bergay hayot.

Qayu kimsakim ahli idrokdur,
Anga jon fido qilsa ne bokdur.

Agar nuktai jonfizosi aning,
Bu nav’ o‘lsa, yuz jon fidosi aning.

Alo, toki jon bo‘lg‘ay inson bila,
Tirik bo‘lg‘ay inson dog‘i jon bila.

Hadisini el jonig‘a voya qil,
Hamul voyadin jong‘a sarmoya qil.

Bu sarmoyadin bizga kome yetur,
Labolab mayi vasli Jomiy yetur

Ki, Jomiyg‘a o‘zni qilib jur’akash,
So‘z aylay ado, mastu devonavash.

VIII

Inoyat quyoshi vasfidakim, fayz matla’idin tulu’ etsa, tarbiyati xorani yoquti obdor va la’li otashin qilur va hidoyat sahobi ta’rifidakim, jud havosidin irtifo’ tutsa, taqviyatidin tufroqtin lolai serob va guli otashin ochilur va o‘zining ko‘ngli xorasi ul quyosh partavin topqonin demak

Birovkim, erur yovar iqbol anga,
Ne ish qilsa farxundadur fol anga.

Qayu ishgakim royi ozim bo‘lur,
Zafar yoru davlat mulozim bo‘lur.

Agar qilsa xarmuhra daryo‘za ul,
Bo‘lur kirsa ilgiga feruza ul.

Tikon sorikim qo‘l uzotur nuhuft,
Qo‘lig‘a kirar g‘unchai noshuguft.

Agar oyg‘a tushsa ko‘zi, kun bo‘lur,
Qadam qo‘ysa tufroqqa, oltun bo‘lur.

Qaro af’i ar yetsa oning qo‘li,
Bo‘lur komi gulchehraning sunbuli.

Bulut boshig‘a yetsa yomg‘ur sochar,
g‘alatdurki yomg‘ur sochar, dur sochar.

Vale ish kerak bo‘yla farzonag‘a,
Bu yanglig‘ atoyoda shukronag‘a

Ki, forig‘ bo‘lub xalq bedodidin,
Farog‘ istamay dodgar yodidin.

Jafosi aning do‘stg‘a yetmagay,
Qayu do‘st, dushmang‘a javr etmagay.

Demay javrkim, qilsa a’dosi javr,
Anga bo‘lmag‘ay tortmoq kiyna tavr.

Jafo o‘trusida vafo aylagay,
Va gar buxl ko‘rsa ato aylagay.

Necha topsa dunyo mato’ig‘a kom,
Aning hifzig‘a qilmag‘ay ehtimom.

Dema, Haq nekim yetkurur – naylagay,
Borin Haq rizosida sarf aylagay.

O‘ziga aro yerda ko‘rmay vujud,
Bu shukronag‘a Haqqa etgay sujud.

Atoyoni anglab, musabbib ishi,
O‘zin bilmagay o‘rta yerda kishi

Kim, o‘truda yetgay aningdek futuh
Ki, sharhig‘a berdim yuqorroq vuzuh.

Bulut elga durdin atokesh emas,
Haq ehsonidur, ul sabab besh emas.

Tugangach sochar fayz amtor anga,
Havoda yana bormu osor angag‘

Shukufa chog‘i yelki sochqay diram,
Bo‘lurmu demak yelni sohibkaramg‘

Qazodin anga har ne marqum erur,
Chu tutti vujud o‘zga – ma’dum erur.

Manga Tengridin bo‘ldi ro‘zu bu kom
Ki, har ishgakim ayladim ehtimom,

Husulig‘a oning uzotquncha qo‘l,
Suhulat bila qo‘pti ollimdin ul.

Murodim agar xorabunyod edi,
Bo‘lub gard ollimda barbod edi.

Yo‘lumda nekim ajdaholiq qilib,
Qo‘lumda madadg‘a asoliq qilib.

Buzug‘ soyasida qilib daf’i ranj,
Tushumg‘a kirib maxfi ollinda ganj.

Ko‘rub Tengri lutfin falak chog‘liq,
Nechuk qilmay o‘truda tufrog‘liqg‘!

Necha shukriga sajda qilsam najand,
Meni chunki aylar falakdin baland.

Sujud ichra bu sud tutsa vujud,
Yerur bevujud ulki qo‘yg‘ay sujud[1].

Bu mujmalki kilk etti ta’vil ani,
Yeshitsang qilay emdi tafsil ani.

Borin aytmoq gar emas dilpazir,
Vale sharhi maqsuddin yo‘q guzir

Ki, chun Haqdin o‘ldi inoyat manga,
Karam ayladi benihoyat manga.

Ulug‘ komlardin edim baxtiyor
Ki, yo‘q erdi anda manga ixtiyor.

Ne tong bo‘lsa ko‘pdin-ko‘p ar qayg‘uluq,
Tama’ bo‘lsa kimga ulug‘din-uluq.

Va lekin ne g‘am Tengri aylab karam,
Ulug‘ muddao bersa, maqsud ham.

G‘arazkim, chu nazm o‘ldi tuhmat manga,
Yoyildi jahon ichra shuhrat manga.

G‘azal tarzig‘a avval aylab sitez,
Jahon ichra soldim ulug‘ rustaxez.

O‘qur vaqti ahli salomat muni,
Ko‘rub olam ichra qiyomat kuni.

Har asnofi zikri emas sha’nima,
Bilur har kishi boqsa devonima[2].

Vale qoni’ o‘lmay ushoq ishga hech,
Dimog‘imda erdi ulug‘ pech-pech[3].

Ne maydon aro sursam erdi samand,
Havosin ko‘ngul qilmas erdi pisand.

Ne bo‘stonki sayr ichra mavjud edi,
Haqoratdin ollimda mardud edi.

Xayolimda kishvarsitonlig‘ kirib,
Mamolikda sohibqironlig‘ kirib.

Bu andeshadin erdi ko‘nglumda shayn
Ki, bo‘ldi ko‘ngul moyili xamsatayn.

Chu mashg‘ul bo‘ldum tamoshosig‘a,
O‘tub vodiyu tog‘u daryosig‘a.

Yorimchuq ko‘rub sayr tark etmadim,
Yere qolmadikim – anga yetmadim.

Jahone ko‘rundi ko‘zumga nihon,
Nihon, balki har bayti ichra jahon.

Qayu go‘shakim, nozir o‘ldum dame,
Nazarg‘a edi jilvagar olame.

Vale tog‘ining tig‘i ul nav’ tez
Ki, ko‘k xam bo‘lub, aylab andin gurez.

Itiklikta har xora toshe anga,
Kamarda kelib «durboshe» anga.

Bo‘lub lola qon, sabza tig‘i halok,
Giyohi dog‘i sarbasar zahrnok.

Xaloyiqqa otmoqqa sangi balo,
Yetak ham to‘lo anda, ham qo‘l to‘lo.

To‘lo g‘orlar ajdahoyi damon,
Dami o‘ylakim ajdahoyi zamon.

Yutarg‘a chu og‘izlari ochilib,
Sharori balo har taraf sochilib.

Ul o‘tqa o‘tun tishlaridin qalab,
Zabona tilidin falakni yalab.

Yana bahri zaxxori andoq amiq
Ki, anda falak jungidek yuz g‘ariq.

Ubur aylab ul yon balo sarsari
Ki, mavji balo yuzlanib har sari.

Yubon ko‘k yuzin xayli ko‘lok anga,
Hubob anglanib go‘yo aflok anga.

Balo selidin mavji xunxorroq,
Nahangi ajaldin sitamkorroq.

Yana dashtining sathi andoq vase’
Ki, yetmay qirog‘ig‘a charxi sare’.

Balo manzili marzu bumi aning,
Ajal shaxsin o‘rtab samumi aning.

Dema devbod, andakim bori dev,
Yugurmakta sargashta har sori dev.

Hamoqat topib chun ko‘rub tul anga,
Bu dasht ichra bozi berib g‘ul anga.

Qum ichra topib ul biyobon gumi,
Mashaqqat hisobi biyobon qumi.

Kishikim boqib oshkoru nihon,
Ko‘rub bo‘yla mehnat jahon dar jahon.

Nazarg‘a kelib ganji beintiho,
Vale har biri uzra yuz ajdaho.

Bo‘lub chun bu olamg‘a nozir dame,
Manga yuzlanib har zamon olame.

Qilib yod da’voyu lofimni ham,
Sog‘inib burun der gazofimni ham.

Uyatqa solib bo‘yla holat meni,
Halok aylabon bal xijolat meni.

Gahi yuzlanib ul so‘zumdin uyot,
So‘zumdin demaykim, o‘zumdin uyot.

Gahi debki, yo‘q daxli imkon munga,
Tasarruf qila olmoq inson munga.

Bu andesha ko‘nglumda qo‘ymay qaror,
Halok aylabon ajz ila iztiror.

O‘zumdin ishim ya’si jovid o‘lub,
Ishimdin ko‘ngul dog‘i navmid o‘lub.

Qulog‘im bu holat aro bir xurush –
Yeshittiki, der erdi farrux surush

Ki: «Yey bulbuli zori alhonsaro,
Vale so‘z riyozida dostonsaro.

Navo ichra ming lahnsozing qani,
Dasotini xotirnavozing qanig‘

Sanga oncha Haq lutfi voqe’durur
Ki, to turk alfozi shoe’durur.

Bu til birla to nazm erur xalq ishi,
Yaqin qilmamish xalq sendek kishi.

Sanga turk aqolimin aylab raqam,
Azalda nasib aylamish yakqalam.

Nasib etti aylab seni marzbon,
Sinoni qalam birla tig‘i zabon.

Ki, bu mulk aro qahramon bo‘lg‘asen,
Ulus ichra sohibqiron bo‘lg‘asen.

Bu yo‘l qat’idin toymog‘ing ne edig‘
Ko‘rub «Xamsa» sustoymog‘ing ne edig‘

Qayu ishki, bo‘lmish muyassar sanga,
Bo‘lurmu bu andesha bovar sangag‘

Ki Haq lutfi bo‘lmay bo‘lub erkin ul,
Ul ochmay yorub erkin ollingda yo‘lg‘

Ne ishgaki el sundung, ul[4] tutti el,
Muni ham alarning yana biri bil.

Agar ochmasa Haq hidoyat yo‘li,
Va gar tutmas o‘lsa inoyat qo‘li.

Kim, o‘lg‘ay zaif odamizodi xas
Ki, ishta tavonolig‘ etgay havas.

Xususanki, sen barchadin pastsen,
Demay xaski, tufroqqa hamdastsen.

Ham eldin sanga ko‘prak afkandalik,
Havosingg‘a dog‘i parokandalik.

Ne ko‘nglungda quvvat, ne jismingda zo‘r,
Nechukkim, oyog‘ ostida qolsa mo‘r.

Bosilg‘ochki yanchilsa mo‘ri zaif,
Ne ish qilg‘ali bo‘lg‘ay, oyo, harifg‘

Agarchi sen ul mo‘ri pajmurdasen
Ki, davron jafosidin ozurdasen.

Vale Haqdin o‘lsa inoyat sanga,
Tulu’ etsa mehri hidoyat sanga.

Necha mo‘r esang baxt o‘lub rahnamun,
Sanga ajdaholarni qilg‘ay zabun.

Ko‘nguldin tavahhumni aylab adam,
Ilik ishga ur, yo‘lg‘a qo‘yg‘il qadam!»

Chu hotif manga bu nido ayladi,
Men etgan adoni ado ayladi[5].

Shukuh oncha yuzlandi jonim sari,
Tavon ham tani notavonim sari

Ki, bo‘ldi nazar nargisi bog‘cha,
Ko‘ngul g‘unchasin xud ne dey, tog‘cha.

Yetib g‘aybdin chun bu neru manga,
Bo‘lub so‘z demak mayli asru manga.

Qazodin ko‘rub garm hangomani,
Yo‘nub «Xamsa» tahririg‘a xomani.

Ko‘ngul ichra shavq o‘tig‘a ishtiol,
Ko‘ngulsizga nazm etgali ishtig‘ol.

Ne yanglig‘ki bor erdi qildim shuru’,
Nechukkim murod erdi topti vuku’.

Qalamni chu kog‘aznigor ayladim,
Ko‘p a’jubalar oshkor ayladim.

Ne g‘oyatki tab’im haroson edi,
Yuz oncha bitir vaqt oson edi.

Guhar ul qadar sochtim ofoq aro
Ki, javf o‘ldi gum bu kuhan toq aro.

Davotimki, ochti do‘koni guhar,
Do‘koni guhar yo‘qki, koni guhar.

Hamonoki yur chog‘da losin aning,
Siloya qilurda qarosin aning.

Tomizg‘onda har qatrae su anga,
Su o‘rnida tomg‘ondur inju anga.

Qayu qatra suv, balki daryoyi jarf
Ki, qilmish anga Haq davotimni zarf.

Davot ermas ul o‘zga olam degil,
Ne olam, ani charxi a’zam degil!

Gar ul charxdin yo‘q nishone anga,
Nedur yuz jahoni maoni anga.

Bo‘lub kilkim andoq dilovar nahang
Ki, bahri maoniyda qilmay darang.

Qayonkim bu suvda tavof aylabon,
Suni jung yanglig‘ shikof aylabon.

Maalqissa: ayturda ul masnaviy,
Agarchi bor erdim alar payravi.

Vale der zamon qaysi bir daftarin,
Sochib bahri andeshaning gavharin.

Anga zebu ziynatlar ettim fuzun
Ki, vasfi erur sharh etardin uzun.

Kam afsona kilk etti tahrir anga
Ki, yo‘l topmamish xatti tag‘yir anga.

Chu Haqdin edi keldi poku silig‘,
Qayu yergakim bo‘ldi ortuqsilig‘.

Bu yanglig‘ yetib to‘rti itmomig‘a,
Biri yetmamish erdi anjomig‘a[6].

Shuru’i dog‘i nopadidor o‘lub
Ki, tag‘yir vaz’ig‘a dushvor o‘lub.

Latoyif topilmas edi oncha ham,
Yana to‘rtiga lohiq o‘lg‘oncha ham.

Ko‘ngulda topilmasdin ozor edi,
Va lekin topar fikrida bor edi.

Munga tegrukim nazm elining shahi[7],
Bu ish borcha dushvorining ogahi.

Safo bazmining sofi oshomi ul,
Bu dayr ahli sarhalqasi Jomiy ul.

Yeshittim, qilib zeb daftar so‘zin,
Qilur nazm go‘yo Skandar so‘zin.

Vale qilmayin mayl holotig‘a,
Shuru’ aylamishtur maqolotig‘a.

Qo‘yubtur tavorixu afsonasin,
Bitiydur degan durri yakdonasin.

Bu so‘zdan manga yuzlanib shodliq,
Topib xotirim g‘amdin ozodliq

Ki, toptim durekim talabgor edim,
Berib umr naqdin xaridor edim.

Kim ul doston sori chun boqqamen,
Ko‘p ortuqsi zevar anga toqqamen.

Chu Haqdin bo‘lub lutf zohir manga,
Nasib o‘ldi mundoq javohir manga.

Yo‘nub xoma, kog‘az nigorish qilay,
Ham ul dostonni guzorish qilay.

Skandar jahondori kishvarsiton
Ishidin chu nazm o‘lsa har doston.

So‘zidin dog‘i yaxshi taqrib ila,
Ham ul doston zaylida zeb ila,

Suray hikmatoso maqolotini,
So‘z ichra ajoyib xayolotini.

Berib doston zebi elga fireb,
So‘zidin fireb o‘lg‘ay ortuqsi zeb

Ki, farzonalar deb ko‘p afsona ham,
So‘zin nazm etibdur bu farzona ham.

Qadam ursam ushbu iki yo‘lg‘a men,
Nekim borcha debdur, demish bo‘lg‘amen.

Bo‘lub garm ne harza so‘zlar dedim,
Magar mast edim, yo‘qsa majnun edim.

Bu damkim xirad mendin ogohdur,
So‘zum borcha astag‘firullohdur.

Haq etgay munga dog‘i ilgim qaviy
Ki, bo‘lg‘aymen ul xaylning payravi.

Alardin qachon yetmaguncha madad,
Manga noma sabt etgali qayda hadg‘

Agarchi bu so‘zni ulus kam bilur,
Vale men bilurmen, Xudo ham bilur.

Ki, aylab yarim tunlar uyqu harom
Ki, Haq sajdasig‘a qilurmen qiyom.

Alarning ravoni puranvorig‘a,
Bu birning dog‘i quvvati korig‘a[8],

Qilib fotiha xatmi ixlos ila,
Ko‘zum bahrida jismi g‘avvos ila,

Qilurg‘a niyozimning isbotini,
Tutub boshqa-boshqa alar otini,

Tazallum yuzidin tazarru’ qilib,
Madad har biridin tavaqqu’ qilib.

Bulardin so‘ng ilgimga olib qalam,
Nekim xotir istar qilurmen raqam.

Ishim tobu oshubi pinhon emas,
Qalam safhag‘a qo‘ymoq imkon emas.

Bular yo‘qki, har kimki nazme demish,
Va yo bu jamoatqa doxil emish.

Borig‘a niyozu duodur ishim,
Alardin madad muddaodur ishim.

Chekarmen alar jomi shavqini xush[9],
Vale pir Jomiyg‘a men durdkash.

Ketur soqiyo, ul kayoniy qadah,
Tag‘oreki, degaylar oni qadah

Ki, og‘zimg‘a quyg‘on dam-o‘q sipqoray,
Og‘iz andin olg‘och, o‘zumdin boray!

Mug‘anniy, surudi harifona chek,
Bir un birla tek turmag‘il, yona chek!

Dema so‘z, meni ayla mastu xarob
Ki, tongla so‘z ayturg‘a qilg‘um shitob!

Navoiy, necha soqiyi shangdur,
Mug‘anniy dog‘i dilkashohangdur.

O‘zung asrag‘aysen ichar chog‘da roh
Ki, kulliy ish ollingg‘a tushmish saboh!

IX

Aningdekki, anbiyoi mursal anjumani anjumig‘a Muhammadi arabiy «ayni»din quyoshliq ayon bo‘ldi, salotini oliy xaylida dog‘i Shohi g‘oziy[1] vujudi bojudidin hamul hol zohir bo‘lg‘ondin shammae zohir qilmoq xalladallohu mulkahu va sultonahu va a’lo shonahu

Azal subhikim, mavj urub bahri jud,
Berib ofarinishqa naqshi vujud.

Raqam topibon charxi miyno dog‘i,
Aning javfida jirmi g‘abro dog‘i.

Vale ko‘pragi suvg‘a maqrun bo‘lub,
Bashar ma’mani rub’i maskun bo‘lub.

Yasab chunki ham do‘zaxu ham bihisht,
Basharni qilib zishtu zebosirisht

Ki, el qismi komu balo aylagay
Kim, ul iki uyni[2] to‘lo aylagay.

Bu suratqa bo‘lg‘och azaldin qazo,
Qazo elga bu nav’ etib iqtizo

Ki, bo‘lg‘ay tafovut aroda base,
Bu bir to‘biyi ravza, ul bir xase.

Zaruratki, atvor o‘lub muxtalif,

Har el bir sifatqa bo‘lub muttasif.

Jahon ichra g‘avg‘oyi xayli bashar,
Nizo’ uzra solg‘ay base sho‘ru shar.

Agar bo‘lsa ba’zig‘a ogohlig‘,
Bo‘lub lek ko‘prakka gumrohlig‘.

Solurg‘a zalolat tuniga ziyo,
Alar ichra irsol etib anbiyo.

Keraklik uchun zabtu oyin dog‘i,
Qilib nasb alarg‘a salotin dog‘i.

Vale anbiyo ichra andoqki, shoh
Muhammad kelib, o‘zga – xaylu sipoh.

Aning ummatidin salotinda ham,
Birov keldi shoh, o‘zga bori xidam.

Qayu shohkim, dovari taxtgir,
Ne dovar, shahanshohi gardunsarir.

Bori shohlarning sarafrozi ul,
Shahi shar’oyin Abulg‘ozi ul.

Vujudidin ofoq aro zebu zayn,
Ulus xon bin xoni Sulton Husayn[3].

Otig‘a qazo: «doma ihsonahu»,
Yozib «xalladallohu sultonahu»[4].

Jahon xalqidin poki zoti g‘araz,
Bu javhar kelib, ofarinish – araz.

Bu a’roz aro javhari zot anga,
Qilib pok gavharlik isbot anga.

Jahon durji ichra samin gavhar ul,
Sipehr avji uzra munir axtar ul.

Bo‘lub qadri bog‘i falak olami,
Munir anjum ul bog‘ning shabnami.

Dema bog‘, farrux shabiston degil,
Bu shabnam bila kavkabiston degil.

Ne kavkab, ani jolai nob de,

Dema jolakim, kirmi shabtob de.

Chu shabnam desam javhari jon erur
Ki, har qatra daryoi ehson erur.

Ki a’dosidin yuz tuman ming fariq,
Hamul bahr qa’rida bordur g‘ariq.

Aning kirmi shabtobidur axgare,
Demon axgarekim, erur ajdare.

Yorug‘lug‘ki atrofin oning tutub,
Ani og‘zining shu’lasi yorutub.

Adu bo‘lsa bu charxi gardon anga,
Chekib bir nafas yutmoq oson anga.

Agar royining mehri ko‘rguzsa tob,
Quyosh zarradek aylabon iztirob.

Ne tong gar quyosh iztirob etsa fosh,
Anga chunki har zarradur bir quyosh.

Agar bazmi ayshi tuzulsa, sipehr
To‘quz xon kelib, anda bir qurs – mehr.

Topib olam ul xonlaridin xo‘rish,
Aningdekkim ul qurs ila parvarish

Saxosi chu zohir bo‘lub bahru kon,
Tutub tufrog‘u tosh ichinda makon.

Ne bahr ichra bir durri g‘alton qolib,
Ne kon ichra bir la’li raxshon qolib.

Bo‘lub bahr devonau talxkom,
Yaqosida sochqon kafiga maqom.

Vale kon gadolig‘ topib chorasi,
Gadolardek atrofida xorasi.

Olib bahru konning chu sarmoyasin,
Iki notavonning yasab voyasin.

Qo‘lin bahr ila kon misoli degil,
Saxodin alar tavri xoli degil.

Atosi qilib bahru kong‘a jafo,

Anga bahru kon dog‘i qilmay vafo.

Guli xulqi andoqki, bog‘i bihisht.
Suyi chashmai zindagonisirisht.

Guli atri yuz yilchiliq yo‘l ketib,
Yuz illik o‘luk jon topib, chun yetib.

Suyinkim Haq aylab ziloli hayot,
Butub borcha andin niholi hayot.

Qilib chunki bo‘lsa balog‘atshior,
Masihodin anfosi jonbaxshi or

Ki, bo‘lg‘och Masihog‘a ul muddao,
Tazarru’ bila aylabon yuz duo.

Yuzidin birikim bo‘lub mustajob,
Ani xalq Jonbaxsh aylab xitob.

Chu ul nukta surmakka og‘zin ochib,
Demay jon berib elgakim, jon sochib.

Aningdek ulus nutqidin jon topib
Ki, o‘lgan kishi obi hayvon topib.

Damidin topib bir, agar ming hayot,
Quyoshdin nechukkim yorur koinot.

Chuchuk til bila no‘sh etib elga bahr,
Qilichi tilidin tomib lek zahr.

Qilich yo‘q, hiloli duraxshanda ul,
Chopar vaqtida barqi raxshanda ul.

Agar barq emas, nega tushgan zamon,
Sug‘a yetmayin bo‘lmay andin among‘

Balo abridin tushgach ul ildirim,
Ko‘rub Dashti Qifchoqdin[5] to Qirim.

O‘qi razm vaqti chu topib kushod,
Aduv joni tang‘a debon xayrbod.

Aning no‘giga moni’ o‘lmay zirih
Kim, ul xasm ko‘nglidin ochib girih.

Ochilg‘och girih turmayin anda kech,

Demay kechkim, qilmayin maks hech.

Ko‘rub manzili tiyra yetgan zamon
Ki, yetmak hamon anga, o‘tmak hamon.

Sinonig‘a gar xud qatig‘ xoradur
Ki, bag‘ri aning no‘gidin yoradur.

Uchi qatra suvdin topib choshni,
Ne tong gar teshar qatra suv toshni.

Tesharda alar xora bor oncha farq,
Suv andoqki yomg‘ur, bu andoqki barq.

Chu razm ichra raxshig‘a javlon berib,
Aduv chun ko‘rub vahmdin jon berib.

Qilib xasmin bir-bir ul devzod
Aningdekki, xoshokni devbod.

Tushub chun vag‘o olamig‘a dame,
Dame sa’y etib, fath o‘lub olame.

Olib olame, aylab a’doni raf’,
Bu ishdin bo‘lub olam ahlig‘a naf’

Ki, olam futuhida har ne yetib,
Borin olam ahlig‘a ehson etib.

Chekib fitna ya’jujig‘a bir sari,
Qilich shaklidin Saddi Iskandariy.

Gar ul ojiri sust bunyoddin,
Temurdin bu, yo‘q-yo‘qki po‘loddin.

Skandar necha rust bog‘lab tilism,
Bu aylab tilismin ushotmog‘ni qism.

Ushatmog‘ta zoyi’ qilib ranjini,
Murodi saxo aylamak ganjini.

Aning6 ko‘zgusi gar jahon ko‘rguzub,
Munung ko‘zgudek royi olam tuzub.

Aning mushkilotin hakim etsa hal,
Muning mushkilotin hakimi azal.

Gar ul obi hayvon tilay jon berib,

Munung nuktasi obi hayvon berib.

Gar ul sa’y birla olib xushku tar,
Bu besa’y bazl aylabon bahru bar.

Alo, to Skandardin o‘lg‘ay nishon,
Muni tut jahonda Skandarnishon.

Mute’i qilib bahr ila barni ham,
Baru bahr olg‘on Skandarni ham.

Mulozimlarini Skandarfar et,
Adolat uyin Saddi Iskandar et.

Ayoqchi, tut oyinagun sog‘are,
Ne sog‘arki, mir’oti Iskandari!

Hamul ko‘zgu birla ko‘zum ravshan et,
Ko‘ngul g‘unchasin, o‘ylakim gulshan et.

Mug‘anniy! Chu gulshanda bazm o‘ldi rost,
Budur xostkim tuzsang ohangi «Rost»![7]

U ohangdin bizni qilsang xushon
Ki, bo‘lsoq sarandozu domanfishon!

Navoiy, chu bazm o‘ldi orosta,
Qadahdin tutub mohi nokosta.

Bu shohona majlis aro boda ich,
Va lekin qachon tutsa shahzoda, ich!

X

Xilofat taxtining toji zebandasi va saltanat tojining mulk baxshandasi, jahondorlig‘ kishvarining sohib sariri va jahonkushoyliq sipehrining mehri muniri Sulton Badiuzzamon[1] bahodir madhida.

Xirad bog‘ining sarvi ozodasi,
Zamon ahlining shohu shahzodasi.

Hayo gulistonida abri mutir,
Adab osmonida mehri munir.

Asolat sipehrida raxshanda mehr,
Adolat jahonig‘a oliy sipehr.

Saodat bahorida ozoda sarv,

Sharaf gulshanida xiromon tazarv.

Saxo ravzasida gulafshon nasim,
Ato vardida ruhparvar shamim.

Kamol avjining xusravi anjumi,
Hamul anjuman aynining mardumi.

Vafo gulbunining ochuq vardi ul,
Saxo bahrining javhari fardi ul.

Kelib saltanat aynu, ul nuri ayn,
Badiuzzamon ibni Sulton Husayn.

Zihi xilqating nur, bal ruhi pok,
Malak zikri sha’ningda ruhi fidok.

Maloiksifat pok zoting sening,
Malakvash jame’i sifoting sening.

Yig‘ib yaxshiliq birla yaxshi qiliq,
Qiliqdek boshingdin-ayoq yaxshiliq[2].

Latofat nihon istab ahli jahon,
Jahoni latofat sen aylab nihon.

Nihon lutfung ar bemadoro bo‘lub,
Yoshurg‘on soyi oshkoro bo‘lub.

Quyoshkim, erur nur sochmoq ishi,
Netib nur ila oni yopqay kishi.

So‘zungdin yetib elga quti hayot,
Xizr suyini gum qilib ul uyot.

Gar ul suv berib Xizr umrig‘a mad,
Bu so‘zdin ulusqa hayoti abad.

Chu bi xosiyat bo‘lmay ul suv aro,
Nihon aylab o‘zni qorong‘u aro.

So‘zung aylabon umrbaxshandaliq,
Yuzungdin xaloyiqqa farxandaliq.

Yo‘q ulkim, mute’ ahli biynish sanga
Ki, ma’muri amr ofarinish sanga.

Yo‘q ulkim bo‘lub amru farmon bila

Ki, umrungg‘a aylab duo jon bila.

Yeshitgan malakson sifoting sening,
Duo birla istab hayoting sening.

Falak himmating avji ollinda past,
Falak ahli xuddomingga zerdast.

Qo‘lung himmat avjida chun ochilib,
Nujum ul diramkim, quyi sochilib.

Yeshik xayli oni qabul etmayin
Ki, jam’ aylamakka nuzul etmayin.

Diram yo‘qki, bahri kafing dur sochib,
Sahob, o‘ylakim yerga mo‘ldur sochib.

Bu yanglig‘ yog‘inlar bila ul sahob,
Berib charx bo‘stonig‘a obu tob.

Tun ul bo‘ston ichra sunbul kibi,
Vale kun ochilg‘on sarig‘ gul kibi.

Yoyib sunbuli mushk isin dahr aro
Ki, davron shabistonin aylab qaro.

Chu sorig‘ gulin charx bog‘i ochib,
Tabaq birla oalmg‘a oltun sochib.

Aningdekki bo‘lg‘onda ul zarfishon,
Yetib borcha olamg‘a andin nishon.

Alo, to quyosh zarfishon o‘lg‘usi,
Sahob ilgi gavharfishon o‘lg‘usi.

Qadah – bazmi ayshing aro zarnigor,
Javohir qilib oni gavharnigor.

To‘lub ul qadah la’li raxshon bila,
Ne raxshanda la’l, obi hayvon bila.

Sen ichmakka aylab anga iltifot,
Damo-damki bo‘lsun mumiddi hayot.

Ketur soqiy, ul mayki raxshandadur,
Aning nash’asi fayz baxshandadur.

Ko‘ngul maskanin lavnidin gulshan et,

Nazar hujrasin tobidin ravshan et.

Mug‘anniy, surude chek andoq baland
Ki, tushsun sipehr ahlig‘a dilpisand!

Unung savtini oliy ovoza et,
So‘z ovozasin ko‘ngluma toza et!

Navoiy, so‘z ayturda farzona bo‘l,
Chu ish boshingga tushti, mardona bo‘l!

Bahona tariqini barbod qil,
Surub doston, nukta bunyod qil!

XI

Bu gavharfishonliqdin chun ulug‘ maqsud tarix ilmi maxzanig‘a vuquf topmog‘lig‘ va bu javohir nishonliqdin kulliy murod salotini moziya holoti makshuf bo‘lmog‘ erdi, ul jihatdin Ajam mulukikim, to‘rt tabaqa voqe’dururlar, alar ahvolidin ijmol tariqi bila ixtisor etildi va avvalg‘i tabaqakim peshdodiylardurur peshnihod alar ishlari sharhin qilindi

Bu tarix surat nigorandasi,
Bu yanglig‘ bo‘lur so‘z guzorandasi:

Ki andinki Odam alayhissalom,[1]
Xilofat saririda tutti maqom.

Anga tegrukim, shohi Makkiy laqab,
Ne Makkiy laqabkim, Rasuli arab

Muhammadki[2] erdi rusul shohi ul,
Laduniy ulumning ogohi ul.

Qilib Haq ani sayyidal-mursalin,[3]
Risolat uza bo‘ldi masnadnishin.

Bu mobayn aro voqe’ o‘lg‘on muluk
Ki, ko‘rguzdilar shahlig‘ ichra suluk.

Ko‘p ettim tavorix o‘qur sori mayl,
Hamonoki bor erdilar to‘rt xayl

Ki, tarix tahririn etgan raqam,
Bitibdur alarni «Muluki ajam».

Agarchi ko‘p o‘lmishdurur ixtilof
Ki, bor ixtilof aylaganlar maof

Ki, solmishdurur imtidodi zamon,
Havodiski, om aylamish osmon.

Tavorix vaz'ig'a behad futur
Ki, andin bu fan ichra bo'lmish qusur.

Vale ulcha bergaylar andin xabar,
«Nizom ut-tavorix»[4] erur mu'tabar.

Qilib o'zgalar birla tatbiq ham,
Bu sarnoma fihrastin ettim raqam.

Bularniki sabt ayladim to'rt qism,
Yeshit emdi borig'a tarixu ism.

Burung'ig'a keldi laqab Peshdod,
Ikinchi emishlar Kayoniynihod.

Uchunchiga Ashkoniy o'ldi laqab,
Yana birga Sosoniy o'ldi laqab.

Vale Peshdod[5] o'ldi o'n bir kishi,
Burun saltanat keldi bu qavm ishi.

Alar peshvosi Kayumarsi6 rod
Kim, ul qo'ydi taxt uzra oyini dod.

Tutub gar jahonni asosi aning,
Dadu vahsh charmi libosi aning.

Yana bir jahondor Hushang[7] edi
Ki, zebandai toju avrang edi.

Anga yo'q xiradmandlig' ichra had,
Bitib nusxae «Jovidoni xirad».

Chu ul bordi, Tahmuras[8] o'ldi padid,
Anga bog'ladi olam ahli umid.

Base shahr olamda qildi bino,
Nishopuru Marvu Sipohon[9] yano.

Yana surdi Jamshid[10] olamg'a raxsh
Ki, ham taxtgir erdi, ham tojbaxsh.

Xaloyiqqa ko'p yetkurub intifo',
g'arib amr ko'p ayladi ixtiro'.

Yana dahr dorosi Zahhok[11] edi,
Ki, el qoni to‘kmakta bebok edi.

Necha kun ishiga ko‘rundi sabot,
Borur chog‘ ko‘rundi anga asru bot.

Faridun[12] edi so‘ngra ofoqgir,
Anga bori ofoq farmonpazir.

Boshi uzra toji Kayoniy bo‘lub,
Dirafshi aning koviyoniy bo‘lub.

Manuchehr[13] bo‘ldi valiahd anga
Ki, masnad edi bu kuhan mahd anga.

Furot arig‘in ul ravon ayladi,
Shajar ektiyu bo‘ston ayladi.

Yana topti Nuvdar[14] jahondin navo,
Jahon mulkiga bo‘ldi farmonravo.

Vale dahr komin ravo qilmadi,
Anga dog‘i olam vafo qilmadi.

Yana shohlig‘ qildi Afrosiyob[15],
Vale qildi Eronni zulmi xarob.

Zamonida gar erdi obod kam,
Ani qo‘ymadi charx obod ham.

Bo‘lub Zob Tahmospning[16] navbati,
Falakdin o‘tub chatrining rif’ati.

Musallam anga erdi avrangu toj
Ki, bog‘ishladi yeti yilliq xiroj.

Chu olam tihi bo‘ldi Tahmospdin,
Zamon zebu far topti Garshosbdin[17].

Falak tavsanin garchi rom ayladi,
Chu vaqt o‘ldi, ul ham xirom ayladi.

Bari dahrning sarfarozi edi,
Vale dahrdin barcha bozi yedi.

Ketur soqiy, ul jomi jamshedsoz
Ki, qilg‘ay jahondin meni beniyoz.

Chu yo‘q shohlig‘ rasmi ogohlig‘,
Yerur maydin ogohlig‘ – shohlig‘.

Mug‘anniy, «ajam»[18] ichra tutqil nag‘am,
Sig‘ur anda zikri «Muluki ajam».

Alar Peshdod erkanin yod qil,
Manga sen dog‘i tarki bedod qil.

Navoiy, ajab yerga yetmish so‘zung,
Ne eldur bular, xud bilursen o‘zung!

Adab birla shohona sog‘ar sumur,
Dimog‘ing chu garm o‘ldi afsona sur!

XII

Ikkinchi tabaqakim kayoniylardurur alarning oliy taxtlari va kayoniy Tojlarin boshdin-ayoqqacha demak

Birovkim, bu so‘z ayladi ibtido,
Qilur «Furs tarixi» bu nav’ ado

Kim, erdi Kayoniy ikkinchi guruh
Ki, olamda erdi alardin shukuh.

Bulardin burung‘ini bil Kayqubod[1]
Ki, erdi xiradmandu odilnihod.

Magar Rustam[2] ul vaqt edi navjuvon
Ki, bo‘ldi aning ollida pahlavon.

Yana tutti Kovus[3] ofoqni,
Tama’ ayladi charxi nuh toqni.

Sipahdori Gudarz[4] erdiyu Tus,[5]
Siyovushqa6 yorutti nori majus.

Yana bo‘ldi Kayxusravi[7] pokroy,
Jahon ahlig‘a roy ila kadxudoy.

Sipahdor anga Tusu Gudarzu Gev,
Faromarz ila Rustamu Zolu Nev[8].

Yana bo‘ldi Luhrosb[9] mulk uzra shoh,
Ko‘pi Balx[10] erdi anga taxtgoh.

Yaqindin anga tiyra bo‘ldi basar

Ki, lashkarkashi bo‘ldi Buxtunnasar[11].

Yana mulk uza qildi Garshosp[12] hukm,
Nechukkim, qilib erdi Luhrosb hukm.

Vale tutti Zardusht[13] oyini ul,
Majus[14] o‘ldi istab, alar dini ul.

Yana mulk uza tutti Bahman[15] qaror,
O‘churdi zalolat o‘tidan sharor.

Agar Zobulistong‘a[16] soldi futur,
Vale Bayti maqdasqa berdi surur.

Chu ul bordi mulkini berdi Xudoy
Qizig‘aki, bor erdi oti Humoy.[17]

Chu tavfiq anga bo‘ldi omuzgor,
Necha yil anga to‘qtadi ro‘zgor.

Vafo qilmay ul olamorog‘a mulk,
Yana muntaqil bo‘ldi Dorog‘a[18] mulk.

Shahe erdi ul shimasi adlu dod,
Buyurdi jahon ahlig‘a inqiyod.

Aning o‘g‘li Doroyi Doro[19] edi
Ki, andin so‘ng ul olamoro edi.

Vaziri bo‘lub shoh ila xashmnok,
Aning qasdidin bo‘ldi Doro halok.

Skandarki gardung‘a chekti livo,
Aning asrida bo‘ldi farmonravo.

O‘z o‘rnida gar zikri topti vuqu’,
Vale qilmag‘um qissasig‘a shuru’.

Kayoniylar erdi bu to‘qquz kishi
Ki, chekti alarni falak gardishi.

Vale, o‘ylakim ko‘kka chekti baland,
Qaro yer uza soldi oxir najand.

Ayoqchi, mayi do‘stgoniy ketur,
To‘lo ayla jomi Kayoniy ketur

Ki, davronki, oyini o‘lmish jafo,

Ne Kayga, ne Dorog‘a aylar vafo.

Mug‘anniy, tuzub nag‘mai Pahlaviy,[20]
Surude aning birla chek ma’naviy!

Bu shahlarki nazm ichra qildim savod,
Surudung aro sen dog‘i ayla yod.

Navoiy, may ich, dog‘i bo‘l rahshunos,
Bu shahlardin et o‘z ishingni qiyos!

Jahondorlarni jahon qilsa past,
Topa olmag‘aymu gadolarg‘a dastg‘

XIII

Uchinchi tabaqakim, ashkoniylardururkim, alarni muluki tavoyif ham yebdurlar, alar holatidin doston surmak

Muarrixki yozdi «Muluki Ajam»,
Bu yanglig‘ qilur dostonni raqam

Ki, o‘n to‘quz erdi uchunchi muluk
Ki, bor erdilar olam ichra muluk.

«Muluki tavoyif»ki mashhur erur,
Bulardurki, daftarda mastur erur

Ki, Iskandari[1] kordon etti nasb,
Mamolik aro hukmron etti nasb.

Alardin biri Ashki Doro[2] edi
Ki, ko‘p shavkati oshkoro edi.

Necha kun qilib zulm yo adlu dod,
Jahon mulkiga ayladi xayrbod.

Chu Ashkoni Dorog‘a qoldi jahon,
Qilib zulmni el ko‘zidin nihon.

Jahon Ashki Ashkong‘a[3] bo‘lg‘ach maqom,
Zuhur etti Iso alayhissalom.

Chu Bahromi Shopurg‘a[4] qoldi dahr,
Bori dahr eli adlidin topti bahr.

Yalosh ibni Bahrom[5] surgach samand,

Falak burjig‘a mahkam etti kamand.

Chu oldi jahon Hurmuz ibni Yalosh,[6]
Adolat o‘tar dahr aro qildi fosh.

Yana Narsi ibni Yalosh[7] oldi taxt,
Necha kun ani komron etti baxt.

Yana qoldi Feruzi Hurmuzg‘a[8] toj,
O‘kush tojvarlardin oldi xiroj.

Yalosh ibni Feruz[9] chun bildi mulk,
Tafoxur aning adlidin qildi mulk.

Yana Xusrav ibni Yalosh[10] o‘ldi shoh,
Anga yer yuzin tutti xaylu sipoh.

Yana shahlig‘ etti Yaloshi Yalosh,[11]
Kishiga aning birla bo‘lmay talosh.

Yana Ardavoni Yalosh[12] o‘ldi tund,
Aning tig‘ini ham falak qildi kund.

Yana Ardavon ibni Ashg‘on[13] bo‘lub,
Zamona aning uzrini ham qo‘lub.

Jahon oldi Gudarzi[14] Ashg‘on yana,
Anga ham jafo qildi davron yana.

Yana shoh Tiyri Gudarz edi
Ki, manzilgahi bu kuhan marz edi.

Yana bo‘ldi Gudarz Tiyri ulug‘,
Ani ham zavol ayladi qayg‘ulug‘.

Yana tutti olam yuzin Ardavon[15]
Ki, chekti ani charxi axzar davon.

Bularg‘a dog‘i boqiy o‘lmay hayot,
Falak mulkni berdi bot, oldi bot.

Ketur soqiy, ul sog‘ari la’lrang,
Anga davrida zohir etma darang.

Chu yo‘qtur darange falak jomig‘a,
Ko‘ngul qo‘yma og‘ozu anjomig‘a.

Mug‘anniy, bu shahlarki chektim tiroz,

Alar yodig‘a nag‘ma chek dilnavoz

Ki, nag‘mang bila bir qadah no‘sh etay,
Dame nuktadin tilni xomush etay.

Navoiy, bu shahlarki ko‘rdi jahon,
Bukun barcha tufrog‘ arodur nihon.

Chu borig‘a ul yon azimatdurur,
Zamone xush o‘lmoq g‘animatdurur.

XIV

To‘rtunchi tabaqa sosoniylar erdilarkim, jahon mulkida jahon mulkida jahonbonliq qildilar va rub’i maskun mamlakatin bildilar

Navosozi dehqoni ozarparast,
Bu nav’ etti so‘z rishtasin borbast

Ki, to‘rtunchi xayl ulcha shoh erdilar,
Falakqadru anjumsipoh erdilar

Ki, holo adamdur alarg‘a mafar,
Yigirmi durur, dog‘i to‘quz nafar.

Biri Ardasher ibni Bobak[1] edi
Ki, ba’zi el oni valiy ham dedi.

Yana erdi Shopur[2] bin Ardasher
Ki, shohe edi kordonu daler.

Ul etti baqo mulki sori xirom,
Qo‘yub o‘g‘li Hurmuzni[3] qoyim-maqom.

Yana tegdi Bahromi Hurmuzg‘a[4] toj,
Jahon ichra adlidin o‘ldi rivoj.

Yana qildi Bahromi Bahrom[5] jahd
Ki, dahr etti toza aning birla ahd.

Yana o‘g‘lig‘a dahr aro kom edi
Ki, Bahromi Bahromi Bahrom6 edi.

Yana qildi Narsini[7] charx arjumand,
Ham oxir adam sori surdi samand.

Yana Hurmuzi Narsi[8] etti g‘uluv
Ki, qadri falakdin oshurdi uluv.

Yana yetti Shopuri Hurmuzg‘a[9] zo‘r
Ki, soldi sipah birla olamg‘a sho‘r.

Yana Ardasher ibni Hurmuzg‘a[10] kavn,
Yetishti chu ul Tengridin topti avn.

Yana qildi Shopuri Shopur[11] kin
Ki, ofoq anga bo‘ldi zeri nigin.

Yana tuzdi Bahromi Shopur[12] jaysh
Ki, ilgiga oldi to‘la jomi aysh.

Yana oldi Feruzi bin Yazdijird,[13]
Jahonda qilib adlu insof vird.

Yana shah Yalosh ibni Feruz[14] edi,
Adolat bila olamafruz edi.

Qubod ibni Feruz[15] ham tuzdi bazm,
Bu kox ichra, lekin qo‘yub qildi azm.

Yana bo‘ldi Jomosb[16] kishvarsiton,
Jahon bo‘ldi insofidin bo‘ston.

Chu taxt oldi Nushirvoni Qubod,[17]
Ul etti bino dahr aro adlu dod.

Yana Hurmuz ibni Anushirvon,[18]
Kiyurdi jahon jismi ichra ravon.

Chu Parvezi Hurmuzg‘a[19] charx o‘ldi yor,
Zamonida shod o‘ldi mulku diyor.

Chu Sheruya[20] og‘ozi kin ayladi,
Aziz elni xoru hazin ayladi.

Yana Ardasher[21] o‘ldi chun qahramon,
Aning qahrig‘a qoldi ahli zamon

Yana Ardasher o‘ldi kishvarxudoy,
Jahon ahlig‘a bo‘ldi rahmatfizoy.

Yana Kisri Arslon[22] topti far,
Adam mulkiga ul ham etti safar.

Yana Kisri[23] o‘ldi jahon dovari
Ki, gardundin o‘tti aning afsari.

Yana dahr Turonni[24] qildi aziz
Ki, nisbatda Parvezg‘a erdi qiz.

Jahon oldi Parvezi Bahrom[25] ham,
Qo‘lig‘a tutub tig‘ ila jom ham.

Yana bo‘ldi Ozarmi[26] afsarparast
Kim, ul topti Turon yeriga nishast.

Yana Farrux[27] oldi jahon kishvarin,
Solib adl aro tab’i donishvarin.

Yana Yazdijird[28] oldi mulku diyor,
Ki, derlar laqabda ani Shahriyor.

Qayu birki mulk oldi topti surur,
Mubaddal sururig‘a bo‘ldi g‘urur.

Jahon mulkin o‘z mulki qildi gumon,
Gumoni hamon erdi – ketmak hamon.

Qutuldi alar dahr ozoridin,
Ketib bori, qoldi jahon boridin.

Ayoqchi, manga jomi shohona tut,
Tugangan soyi to‘ldurub yona tut!

Chu ketgumdurur, dahr bazmi qolib,
Ketay bori komimni maydin olib.

Mug‘anniy, surud aytibon rud tuz,
Vafosiz jahon birla padrud tuz!

Chu ketmaklik andin erur noguzir,
Dame xushdil o‘lmoq erur dilpazir.

Navoiy, bu yanglig‘ emish dahr ishi,
Vafo ko‘rmamish hargiz andin kishi.

Kishilik budurkim, unutsang ani,
Chu tarking qilur, tark tutsang ani!

XV

Iskandar dostonining og‘ozikim, haq anjomig‘a yetkurg‘ay va tarixining iftitohikim, Tengri ixtitomi raqamin surgay va aning nasabida ixtilofkim, tarix ahli qilmishlar va ul ixtilofni raf’ etib, ahli tahqiq

ishining haqiqatin bilmishlar va malik Faylaqusning dori baqog‘a ketgani va Iskandarning mulki foniy taxtin maqom etgani

Nigor aylagan naqshi rumiytiroz,
Ochib parda, bu nav’ ko‘rguzdi roz

Ki, bu to‘rt xayliki topti ado
Ki, ko‘k toqig‘a soldilar ko‘p sado[1]

Ki, davronlari to‘rt ming uch yuz il,
Yana o‘ttuz oltiyu o‘n oy bil.

Bu muddatda kimdinki osor edi
Ki, kishvarkusho bal jahondor edi.

Topib besh yuzu balki ming yil amon,
Bu muddatda mahkumi – ahli zamon.

Qilib ulcha xotirg‘a kelgancha ish,
Alarg‘a nasib o‘lmadi oncha ish.

Ki, oz vaqt aro shohi Yazdonparast,
Skandarga ofoq aro berdi dast.

Bilingay, deyilganda bir-bir ishi
Ki, xalq etmadi Tengri andoq kishi.

Bu mujmalki vasf ayladim zotini,
Qilay emdi borining isbotini.

Hamul to‘rt xayliki yozdim sutur,
Ikidin so‘ng[2] Iskandar etti zuhur.

Kayoniylar o‘lg‘onda bir-bir nihon
Ki, Doroyi Bahmang‘a qoldi jahon.

Mubohot etib taxt ila toj anga,
Berurlar edi shohlar boj anga.

Bu fursat aro voliyi Rumu Rus,
Shahe erdi oti malik Faylaqus.[3]

Malikvash kelib har sifoti aning,
Malakvash vale pok zoti aning.

Nizomiyki nazm ahlig‘a shoh edi,
Bu shah sarguzashtidin ogoh edi,

Kitobida der chog‘ nishonin aning,
Bu yanglig‘ dedi dostonin aning

Ki, nasl ichra yo‘q erdi payvand anga,
Murod erdi olamda farzand anga.

Bu savdo solib jismig‘a pech-pech,
Gum o‘lmas edi ul tamannosi hech.

Magar bir kun ovdin olib ko‘ngli bahr,
Tarab birla aylab edi azmi shahr.

Ko‘rundi yo‘li uzra vayronae,
Yo‘murgan falak zulmi koshonae.

Toshi xastalar ko‘ngli yanglig‘ sinuq,
Ichi motamiylar ichidek buzuq.

Bu vayrona ichra shahi baxtiyor,
Sabosayrini surdi beixtiyor.

Ko‘rarkim, qo‘yub haml bir homila,
Qarin qolmayin ruh anga jism ila[4].

Yotib ollida tifli zoru zabun,
Chekib gah-gahe yig‘lag‘on yanglig‘ un.

Bo‘lub shomi rihlat anoning kuni,
Kelib gohu gah yo‘q – o‘g‘ulning uni.

Uniga bukim yig‘lamog‘ni qotib,
Ano so‘gi5 oni magar yig‘lotib.

Solib chun alarg‘a nazar Faylaqus,
Degil tushti ko‘ngliga nori majus[6].

Buyurdiki, mahramvash el yettilar,
O‘lukni hamul yerda dafn ettilar.

O‘zi tiflni oldi e’zoz ila,
Qilur erdi parvarda yuz noz ila.

Skandar atab, o‘g‘li bildi ani,
O‘larda valiahd qildi ani.

Muarrix yana nav’ ham surdi so‘z
Ki, nisbatda Dorog‘a yetkurdi so‘z

Ki, Dorog‘a berdi qizin shohi Rum,
Yasab zeb ila, o‘ylakim naxli mum.

Bir ish bo‘ldikim, bemadoro ani,
Atosig‘a qaytardi Doro ani.

Hamonoki sur aylagan tun – sahob
Sadafqa to‘kub erdi durri xushob.

Chu vaqt o‘ldi, fosh ayladi ul sadaf,
Durekim, jahon topti andin sharaf.

Yana bo‘yla so‘z dog‘i mazkur erur
Ki, «Ta’rixi furs» ichra mastur erur.

Ki, olamda iki Skandar emish
Ki, ikisi davronda dovar emish.

Biri ulki, Doro bila qildi razm,
Biri buki, sad bog‘layu etti azm.

Va lekin bu fursatki donoyi dahr,[7]
Berur erdi bu qissadin elga bahr.

Ki, jomi safo urdi elga salo
Ki, Jomiyg‘a yetkurmasun Haq balo.

Skandar ishi erdi manzum anga,
Bori holati erdi ma’lum anga.

Manga ham chu mashg‘ulluq bu edi,
Tavorix ollimda o‘tru edi.

Bu yerda meni chunki ajz etti lol,
O‘pub yerni, donodin ettim savol.

Skandarga iki ekanni adad,
Chu ollinda tahqiq edi, qildi rad:

«Ul ishlar, – dedi, – birga voqe’durur,
Guvohi aning nassi qote’durur»[8].

Aningdekki aslin Nizomiy dedi,
Hamul nav’ farzona Jomiy dedi

Kim, ul Faylaqus o‘g‘li ermish yaqin,
Yemas ahli ta’rix tardidi chin.

Qilindi chu tahqiq tadqiq ila.
Qilay emdi tadqiq tahqiq ila.

Bu yanglig‘ bayon etti ta’rixsanj
Ki, chun yovar o‘ldi saroyi sipanj.

Skandarni topti malik Faylaqus,
Yasab mulkin andoqki zebo arus.

Ochib baxshishu bazl abvobini,
Tuzatti base sur asbobini.

Mulukona tartibu oyin bila,
Yorutti ko‘zin ul jahonbin bila.

Qilib hifzig‘a kecha-kunduz qiyom,
Fuzunroq etib dam-badam ehtimom.

Berib parvarishqa munosib xo‘rish,
Munosib xo‘rishdin topib parvarish.

Ani asramay koxu ayvon aro,
Yasab yer ko‘ngul ichra, bal jon aro.

Nechukkim tengiz durri shohonasin,
Tengiz yo‘qki, kon la’li yakdonasin.

Anga tegrukim bo‘ldi lafzi durust,
Taallum ishi vojib o‘ldi naxust.

Naqumohis[9] ollinda dastur edi
Ki, hikmatqa olamda mashhur edi.

Sipehr avjig‘a fikri sur’atnamoy,
Falak sayridin royi mushkilkushoy.

Nazar chobukin chun qilib tezbin,
Bo‘lub noziri vajhi aynul-yaqin.

Kishi yo‘q bilik ichra monand anga,
Arastui farzona farzand anga.

Chu tadbir ila daf’i ofot etib,
Aning royidin shah mubohot etib.

Bori ilm aro, o‘yla sohib kamol
Ki, komil aningdek topilmoq mahol.

Skandarni donog‘a topshurdi chust
Ki, donishning avroqin etgay durust.

O‘ziga sharaf bildi dono muni
Ki, ul voqif erdi valodat kuni.

Boqib charxning borcha holotig‘a,
Kavokibning iqbolu ofotig‘a.

Ko‘rub mustaqimin, bilib roje’in,[10]
Yozib erdi mavludining tole’in.

Qilib hukmlar anjum arqomida,
Raqamlar qo‘yub erdi ahkomida

Kim, ul tifli farruxpayi pokzod,[11]
Shahe bo‘lg‘usi poku farruxnihod.

Yeti ko‘k uza shavkati yetgusi,
Yurub rub’i maskunni fath etgusi.

Kirib shohlar qullari sonig‘a,
Bo‘yun qo‘yg‘usi tavqi farmonig‘a.

Sipehr avjig‘a yetkurub himmatin,
Falak toqida cholg‘usi navbatin.

Chu hay’atda tab’i jadal qilg‘usi,
Falak mushkilotini hal qilg‘usi.

Qilib xurdadon tab’i hikmatni qism,
Base yerda soz etgusidur tilism.

Riyoziy bila tuzgusidur rasad,
Ilohiy bila fitna ollig‘a sad.

Jahon mulkini chun maqar qilg‘usi,
Tengiz ichra yillar safar qilg‘usi.

Anga haq nasib aylabon xushku tar,
Yurub fath qilg‘usidur bahru bar[12].

Hakim anglamish erdi chun barcha hol,
Bu iqboldin bo‘ldi ishratsigol.

Murattab qilib lavhi irshodini,
Anga qildi ta’lim bunyodini.

Qayu ishni ta’lim qilg‘on zamon,
Yeshitmak hamon erdi – bilmak hamon.

Bilib bo‘lmas erdi tavaqquf anga,
Qilur erdi turluk tasarruf anga.

Bu yanglig‘ki te’dod bo‘ldi sifot,
Hamono o‘n onchani kasb etti bot.

Bilik kasbini qildi to joni bor,
Hunar bildi onchaki imkoni bor.

Chu tutti musallam kamolotin el,
Dilovarlig‘ amrig‘a chust etti bel.

Ne ishkim sipohig‘a naf’ aylagay
Ki, andin adusini daf’ aylagay.

Gahi markab uzra silahsho‘r edi,
Yayog‘liqda gah varzishi zo‘r edi.[13]

Demaykim, o‘qi ochti tori zirih
Ki, tori taxayyuldin ochti girih.

Sinoni bila tikti axtar ko‘zin,
Ne axtar ko‘zin, charxi axzar ko‘zin.

Aning tig‘i xoroni qildi shikof
Ki, kemuxti g‘abrodin etti g‘ilof.

Kamandinki chin-chin qila boshladi,
Falak qal’asi burjig‘a toshladi.

Qachon gurzini qildi xoronabard,
Qatig‘ xoradin ko‘kka yetkurdi gard.

Chu maydon aro zo‘r rasmin tuzub,
Churuk ip kabi ajdahoni uzub.

Va gar royi birla bo‘lub chorasoz,
Dilovarlig‘u kuchga bo‘lmay niyoz.

Bori ishda bir yerga yetti ishi
Ki, mumkin emas andoq o‘lmoq kishi.

Atosi dog‘i chun surub erdi umr,
Vido’ etgali yetkurub erdi umr.

Qadining xamidin bilib erdi xayl
Ki, jismig‘a tufroq sari bo‘ldi mayl.

Quvosini za’f aylagan chog‘da sust,
Skandar bo‘lub erdi shahlig‘da chust.

O‘zi bo‘ldi Tengriga po‘zishpazir,
Skandarga topshurdi toju sarir.

Chu o‘g‘lig‘a taxtini qildi maqom,
O‘zi ayladi taxta sori xirom.

Hamono iki shox berdi daraxt,
Birin yo‘ndilar taxtau birni taxt.

Ne qushqaki bir shoxi maskandurur,
Yana shoxi so‘ngra nishimandurur.

Skandar chu ko‘rdi ato margini,
Yaqin erdi qilg‘ay jahon tarkini.

Chu mustavli o‘ldi bu niyat anga,
Ato qilmish erdi vasiyat anga

Ki: «Mulkumda begonani qo‘ymag‘il,
Shabistonima yonani qo‘ymag‘il!

Harimim aro kirmasun hech yot
Ki, bo‘lg‘ay anga pardadarlikda ot!

Seni istabon topqonimdin murod
Budurkim, qachon aylasam xayrbod.

Sen o‘lsang chu qoyim maqomim mening,
Babod o‘lmag‘ay nangu nomim mening».

Bu so‘z yodig‘a kelgach o‘ldi zarur,
Yeturmak ato pardasig‘a surur.

Hamiyat dog‘i mone’ o‘ldi base
Ki, yeldin zilolig‘a tushg‘ay xase.

Ato so‘gini aylagach bartaraf,
Sariru nigin topti andin sharaf.[14]

Ato taxtini chun maqom ayladi,
Tuzub rud, ohangi jom ayladi.

Ayog‘chi, ber ul javhari g‘amzudo[15],
Dema g‘amzudo, jomi motamzudo.

Ki, andin sumursam g‘amim qolmasun,
Ato so‘gidin motamim qolmasun.

Mug‘anniy, qilib soz rudi nishot,
Aning birla tuzgil surudi nishot

Ki, so‘z taxtida bo‘ldum oromgir,
Bo‘lay tahniyat bazmida jomgir!

Navoiy, jahonning firibin yema,
Xirad ollida naqshu zebin dema.

Chu davron ishi bevafoliqdurur,
Fuzun shohlig‘din gadoliqdurur.

Gadoeki qayd o‘lg‘ay andin yiroq,
Muqayyad jahondordin yaxshiroq!

XVI

Himmat humoyining balandparvozlig‘i ta’rifidakim, janohhaynining soyasi quyoshning anqoyi zarrin janohig‘a zulmat Qofida nishiman berur va azimjussalig‘i vasfidakim, bayzoning siymin bayzosin janohayni ostig‘a yashurur va har gadog‘a ul soya tushsa, salotin aning gadoyidurur va har shohdin soyasin olsa gado aning qoshida shoh ko‘rinur

Birovkim anga himmat o‘ldi baland,
Erur olam ahli aro arjumand.

Kishi naqdi gar bir qaro mis emas,
Agar himmati bo‘lsa muflis emas.

Ani angla mufliski, yo‘q himmati,
Chu yo‘q himmati, yo‘q aning hurmati.

Bu rasm o‘ldi oyini dayri fano
Ki, hurmat topar kimda bo‘lsa g‘ino.

Chu himmat erur kimiyoyi vujud
Ki, andin topar e’tibor ahli jud.

Birovkim, aning kimiyodur fani,
Ani desa bo‘lg‘ay el ichra g‘ani.

g‘inodur chu el hurmatig‘a sabab,
Anga ehtirom etsalar yo‘q ajab.

Birovkim, aning himmati yo‘qturur,
g‘ani bo‘lsa ham hurmati yo‘qturur.

Tutay, dunsifat kimsaning ganji bor,
Tunu kun aning hifzidin ranji bor.

Pashize agar tugdi ersa laim,
Mudom ochmog‘idin topar ko‘ngli bim.

Desakim: ochay tongla, yoxud bugun,
Tugar ul tugunga yana bir tugun.

Ochardin emas komi tarqotmog‘i,
g‘araz bor anga o‘zga bir qotmog‘i.

Ko‘runmay diram iqdin ochmog‘i xo‘p,
Diram har necha ko‘p, tugun dog‘i ko‘p.

Ochar bo‘lsa andin sarosar girih,
Solur ko‘ngliga bir girih har girih.

Ayig‘ la’bidin jatqakim non erur,
Ani itga solmoq ne imkon erur.

Bijin topsa yer, to ichiga sig‘ar,
Ne qolsa ovurtig‘a borin yig‘ar[1].

Yig‘och uzra gar bo‘lsa yuz ming yongog‘
Ko‘mar yerga har ne o‘g‘urlodi zog‘.

Yer ostiki sichqong‘a koshonadur,
Yana anda har yon nihon xonadur.

Razolatni haddin qachon oshurur,
O‘zidin dog‘i tu’masin yoshurur.

Najosat yo‘lidin qo‘yub gulxani,
Zaxiram, deb anbor aylar ani.

Jualdur tezak toshimoqdin zabun
Ki, bo‘lmish qarorib, yuzi sarnigun.

Ani qo‘ymas o‘lmakligin bilsa ham,
Necha ot oyog‘ig‘a yanchilsa ham.

Ko‘rar ayb dun sarf qilmoq diram,
Aningdekki, yig‘mog‘ni ahli karam.

Karamdin birovkim tihi jayb erur,
Tihi aylamak jayb anga ayb erur.

Bu ish himmat ahlig‘adur ibtilo
Ki, jaybi diram birla bo‘lg‘ay to‘lo.

Karamsizki bor uyda maxzan anga,
Falokat bila foqadur fan anga.

Yemas elki amvol aro bo‘lsa g‘arq,
Alar birla muflislar ichra ne farqg‘

Desam ham bo‘lurkim, erur farqi kam,
Xirad ollida ko‘pdurur farqi ham

Ki, har necha bemoya bo‘lsa la’im,
Anga kimsadin yo‘qdurur hech bim[2].

Vale bo‘ldi chun ganjiyu maxzani,
Xaloyiq erur jonining dushmani.

Qizil tulku yoxud qaro kish kibi
Ki, bo‘lg‘ay tuki qatlining mujibi.

Sadafdekki yiqqon uchun durri pok,
Qilurlar olur chog‘da ko‘ksini chok.

Ko‘ngul himmat ahlig‘akim bo‘ldi keng,
G‘ino birla faqr o‘ldi ollinda teng[3].

Ne ganj o‘lsa bermakda bordur aziz,
Ne nomus etar bergali bir pashiz[4].

Mubohot qilmas yemaktin kuloch,
g‘amin bo‘lmas ar topsa yovg‘on umoch.

Xirad ahli chunkim taammul qilur,
Tafovut bu ikida ham topilur.

Ne naqdeki ahli karam sarf etar,
Anga xalqdin ko‘p mashaqqat yetar.

Agar yo‘q anga bazl etar dastras
Ki, zoti aro himmati ganji bas.

Ne eldin topar har zamon yuz malol,
Ne ahvolig‘a yuz qo‘yar ixtilol.

Kishikim biyikrakdurur himmati,
Jahon ahlidin kamdurur mehnati.

Ne qushkim baland o‘lsa parvoz anga,
Halok istamas novakandoz anga.

Agarchi erur mushak otmoq ishi,
Bulut momug‘in o‘rtay olmas kishi.

Necha tifl qilsa pulab xiyraliq,
Qachon sham’i anjum topar tiyraliqg‘

Tutaykim, biyik toqqa chiqsun palang,
To‘lun oyg‘a sekrib yeturgaymu changg‘

Baland aylabon himmat ul beniyoz
Ki, har necha himmat biyik, mehnat oz.

Birovgaki himmat qilur yorliq,
Gadoliq tilar, yo‘q jahondorliq.

O‘zin faqr birla jahondor etar,
Jahondorliqdin vale or etar.

Dema faqr ko‘yi gadoyin gado
Ki, shahlar shahi qilmish oni Xudo.

Qilur podsho ul gadoliq havas,
Nechukkim, gado podsholiq havas.

Magar Haq yeturgay bu ogohlik
Ki, faqr istagay el, qo‘yub shohliq.

XVII

Iskandar bila ul gadolig‘ ixtiyor etgan podsho, balki filhaqiqat podsholiqqa yetgan gado hikoyatikim, Iskandar ani mazallat chohidin chiqorib, saltanat koxig‘a o‘lturtmoq istadi va ul toj tarkin qilib, boshidin tarki tojixayolin chiqoremadi.

Eshittimki, Iskandari nomdor,
Chu bo‘ldi jahon ahlig‘a komkor.

Ne kishvarki bo‘ldi musaxxar anga,
Mute’ o‘ldi doroyi kishvar anga.

Hamul shahni kishvarg‘a shoh ayladi,
Hamul elga kishvarpanoh ayladi.

Shahu mulkdin ko‘ngli ting‘och tamom,
Yana mulk azmig‘a qildi xirom.

Magar fath bo‘lg‘onda Mag‘rib zamin,
Shahi zohir aylab edi qatlu kin.

Chu razm o‘ti bo‘lmish edi bartaraf,
Shah o‘lmish edi razm ichinda talaf.

Skandar chu fahm etti xasmin qatil,
Anga mulki ichra tilatti adil.

Dedikim: «Bu kishvar salotinidin1,
Xabarliq jahonbonliq oyinidin,

Qolibmu ekin bir aningdek kishi
Ki, qilsam ruju’ anga bu mulk ishig‘

Ani elga shoh aylasam mustaqil
Ki, mulk o‘zgaga bo‘lmasa muntaqil».

Dedilar xaloyiq duo aylabon,
Hadisig‘a jonlar fido aylabon.

Ki: «Ofoq aro sarfaroz o‘lg‘asen,
Hamisha raiyatnavoz o‘lg‘asen.

Bu yanglig‘ kishikim qilursen so‘rog‘
Ki, andin raiyatqa yetgay farog‘.

Qabul aylagay oni yaxshi-yamon,
Kishi yo‘q, magarkim birov bu zamon,

Vale xalq ichindin firor aylamish,
Ajab nav’ ish ixtiyor aylamish.

Tiriklar arosig‘a qilmas ubur,
Matofi emas g‘ayri – eski qubur[2].

Hamono tiriklarda ko‘rmay vafo,
Qubur ahlig‘a aylamish iktifo.

Boshi toj tarkin qilib ixtiyor,
Bo‘lub tark toji bilan baxtiyor.

Ne maskan bo‘lub kecha bir bum anga,
Ne kunduz yemak vajhi ma’lum anga.

Kishi birla yo‘q mutlaqo ulfati,
Bo‘lub xalq g‘avg‘osidin kulfati.

Niyoz ahli chun qilsalar ixtilot,
Qilur so‘zda zohir gahi inbisot.

Nasoyih der elga bag‘oyat mufid
Ki, olamdin elni qilur noumid.

So‘z ichra bu taqrib tartib etar
Ki, elni fano sori targ‘ib etar!»

Skandar eshitgach dedikim: «Yurung,
Ani qayda bo‘lsa, topib kelturung!»

Ravon hukm ila har taraf surdilar,
Topib shoh bazmig‘a yetkurdilar.

Yalang erdi boshu, ayog‘i yalang,
Yaqo chokidin ko‘ksi dog‘i yalang.

Jahon shug‘li gardiga silkib etak,
Tutub iki ilgiga iki so‘ngak.

Skandar anga ehtirom ayladi,
O‘z ollinda oliy maqom ayladi.

Dedi: «Bu so‘ngaklardin afsona ayt,
Ne so‘rsam, javobin aning yona ayt!»

Dedi: «Go‘rlardin qilurda guzar,
Necha bu so‘ngaklarga soldim nazar.

Zamirimg‘a lekin nihon qoldi bu
Ki, shahning qayudur, gadoning qayug‘

Chu o‘lganda birdur bu iki mato’,
Tiriklikda nevchun qilurlar nizo’g‘»

Kelib bu kalomi Skandarga xush,
Dedi: «K-ey zabonovari borkash,

Seni toptim asru biyik nuktalik,
Agar bor esa himmating ham biyik.

Seni kishvaringda qilay arjumand,
Berib shohlig‘, poyang aylay baland».

Dedi: «Himmat o‘lmish manga hamnishast,
Sen istardek ermas, vale asru past

Ki, tark aylabon faqr sarmoyasin,
Pisand etgamen shohlig‘ poyasin.

Yemas rub’i maskunga rag‘bat manga,
Tilar to‘rt sarmoya himmat manga:

Biri andin o‘ldi hayoti abad
Ki, yo‘qtur aning intihosig‘a had.

Yana bir: yigitlikki topmay xalal,
Qariliq bila bo‘lmag‘ay ul badal.

Yana bir: g‘inoyi muabbaddurur
Ki, ollinda iflosqa raddurur.

Yana: shodlig‘kim, yo‘q oning g‘ami,
Adam bo‘lg‘ay ul surning motami».

Skandarni hayrat zabun aylabon,
Dedi, bosh uyotdin nigun aylabon

Ki: «Yey farruxoyinu farxundaroy,
Bu uqdangdin ul bo‘ldi mushkilkushoy

Ki, bu dayr aro topsang ogohliq,
Sanga faqr berdi, manga shohliq.

Agarchi meni ayladi arjumand,
Sanga berdi himmatni mendin baland».

Gadoyeki bo‘lg‘ay biyik himmati:
Anga past erur shohlig‘ rif’ati.

Chu himmat baland o‘ldi ersa faqir,
Ko‘ziga erur asr shohi haqir.

XVIII

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, maqsudg‘a qaysi maqom yaqinroq va ul maqom sari ne

nav’ xirom munosibroq va Arastu yo‘qluq maqomig‘a yo‘l ko‘rguzmak va sabukborliq xiromi ohangi tuzmak

Arastudin etti Skandar savol:
«Ki, ey fikratingg‘a falak poymol,

Ne yo‘ldurki, maqsud erur manzili,
Ne ishdurki mahmud erur hosilig‘»

Dedi: «Xalqdin o‘zni fard aylamak,
Fano ko‘yi yo‘linda gard aylamak».

Dedi: «Ul kishikim tavongardurur,
Anga xayr ko‘prak muyassardurur».

Amalning chu maqsud aro daxli bor,
Tavongarg‘a ko‘prak kerak e’tibor.

Birovkim savob etsa ko‘prak husul,
Anga ko‘prak o‘lg‘ay umidi vusul.

Dedi: «Xayrkim qilsa ahli manol,
Bu ishdin emastur yiroq ikki hol.

Biri ulki: mavqe’dadur ul ishi,
Ishin g‘ayri mavqe’ qilur ham kishi.

Gar ish g‘ayri mavqe’da mavjud erur,
Kishi har nekim qildi mardud erur.

Va gar o‘z yeridadurur qilg‘ani,
Ne ish qilsa maqbul tutsaq ani.

Nekim asldin topti ma’zulluq,
Ishi far’ ila bo‘ldi mashg‘ulluq.

Yerur rohzan kimki ogoh erur,
Bu yo‘lda nekim mosivalloh erur.

Birov shoh vaslig‘a qat’ etsa yo‘l,
Kerak voqif o‘lsa qaroqchidin ul.

Qaroqchig‘a bo‘lg‘on kishi muttafiq,
Qachon shoh bazmig‘adur mustahiqg‘

Vale ulki raf’ etti budu nabud,
Gumon qilmadi Haqdin o‘zga vujud.

O‘zin chunki maqsud aro qildi yo‘q,
O‘zi qolmayin, qoldi maqsudi-o‘q.

Gumon qilma mundin biyikrak maqom,
Kishi anda chun yetti, bo‘ldi tamom».

Bu durlarnikim sochti gavharfurush,
Sadaf og‘zidek soyil o‘ldi xamush.

XIX

Iskandarning saltanat tojidin sarkashlik qilib, xilofat taxtidin ayoq tortqoni va Rum ahli boshlarin oyog‘iga qo‘yub, aning maqdamidin taxt poyasin baland qilib, toj qadrin arjumand qilg‘onlari va aning adli aynining quyoshi bila zulm shomining xuffoshin ko‘r etib, jahonni yorutqoni va zulm ahlining zulmatdek olam yuzidin qiroq tutqoni

Guzorishqa ulkim, qalam qildi tez,
Qalamdin bu yanglig‘ bo‘lur nuktarez

Ki, chun Faylaqus o‘rtadin chekti raxt,
Skandarg‘a taslim etib toju taxt.

Skandarki donoyi ofoq edi,
Bilik ichra ofoq aro toq edi.

Anga toj ila taxt tushmay qabul,
Bu andeshadin behad erdi malul

Ki, shahlig‘da haddin ko‘p ofot erur,
Ne qilsa falakdin mukofot erur.

Agar tarkiga ko‘nglini shod etib,
Atoning vasiyatlarin yod etib.

Ko‘p oshufta qilg‘och ani bu mihan,
Ulusni yig‘ib, tuzdi bir anjuman.

Chu yaksar yig‘ildi sharifu vaze’
So‘ze qildi og‘oz behad bade’.

«Ki, ey qavmkim, mulkungiz keldi Rum
Ki, ollimda holo qilibsiz hujum.

Agar sarfaroz ar sarafgandasiz,
Bori Tengriga men kibi bandasiz.

Yeman siz kibi, sizdin o‘ksuk base,
Atosiz, dil ozurdae bekase.

Atomni agar lutf aylab Iloh,
Bu kishvar uza ayladi podshoh.

Hamono bu ishga sazovor edi,
Bu yuk chekkali quvvati bor edi.

V-ar obovu ajdodima qildi Haq,
Bu mulk ahlig‘a hukmronliq nasaq.

Alar dog‘i zeboi taxt erdilar,
Tavonou feruzbaxt erdilar.

Vale men erurmen bag‘oyat haqir,
Dog‘i saltanat amri behad xatir.

Bu ishga keraktur tavono kishi,
Yemas men kibi notavono ishi.

Yerur tortmoq sher chekkonni mo‘r,
Yukin pilning aylamak pashsha zo‘r[1].

Ne bor shahlik aylarga niyat manga,
Ne aylay desam qobiliyat manga.

Bu taklifdin chunki ranjurmen,
Agar aylasam tark – ma’zurmen.

Chu men ayladim ajzim izhorini,
Bu andeshadin ko‘nglum ozorini.

Siz emdi o‘zunguzga shohe toping,
Bu kishvarg‘a kishvarpanohe toping.

Har ishta zamon ahlining foyiqi
Ki, to bo‘lg‘ay ul shohlig‘ loyiqi.

Quyoshdek qaviymehru ravshanzamir,
Va gar chiqsa ashhabqa ofoqgir.

Adolat aro fasli navro‘zdek,
Siyosatda barqi jahonso‘zdek.

Iriklik chog‘i xasmg‘a chorasoz,
Qotig‘liq mahalli raiyatnavoz[2].

Anga taxtu davlatni maskan qiling,
Boshin toj birla muzayyan qiling

Kim, ul yog‘durub abri ehsonini,
Yeramdek qilib mulk bo‘stonini.

Adu xaylin oshuftahol aylasun,
Sanam zulfidek poymol aylasun.

Necha shu’lai fitna yoqsa aduv,
Qilich selidin ursun ul o‘tqa suv.

Raiyatqa qilsa qalamzan sitam,
Qalamzanning ilgini qilsun qalam[3].

Musofir yo‘li rishtasin uzmasun,
Qaroqchi qarosini ko‘rguzmasun.

Qilib zabt ila mahkam o‘g‘ri yo‘lin,
Ulus molidin qisqa qilsun qo‘lin.

Adam aylasun zulm ta’limini,
«Lam»i jahd etib «lom» ila «mim»ini[4].

Adolat qilurning topib holatin,
Fuzun qilsun elga aduv olatin.

Nekim Haq buyurmish, bo‘lub payravi,
Haq aytur ulus ilgin etsun qaviy.

Berib zulmgustarga farsudaliq,
Raiyatqa yetkursun osudaliq».

Tugatgach so‘zin shohi ravshanzamir,
Ulus chektilar har tarafdin nafir

«Ki, ey xusravi odili dodgar,
Nega aylading bizni faryodgarg‘

Yetar chog‘da adlingdin elga navo,
Bu yanglig‘ nedin zulm ko‘rdung ravog‘

Ne so‘zlar edikim bayon aylading
Ki, bu xalq bag‘rini qon aylading.

Bu so‘zlar deguncha, oqiz qonimiz
Ki, bo‘lsun yo‘lungda fido jonimiz!

Sen o‘lg‘uncha bu el boshidin yiroq,
Yiroq bo‘lsalar jonidin yaxshiroq.

Sanga garchi jonbaxsh keldi kalom,
Yaqin erdikim aylagay qatli om[5].

Senu saltanat tarki – so‘zmu bo‘lur,
Badilingni ko‘rguchi – ko‘zmu bo‘lurg‘

Bugun olam ichra sen ul shohsen
Ki, aflok sirridin ogohsen.

Jahon ichra sen bilmagan yo‘q ulum,
Bilur olam ahli, nekim ahli Rum.

Falak sham’i royi muniring sening,
Maloyik charog‘i zamiring sening.

Jahon ko‘rmagan sen kibi xusrave,
Quyoshtal’ate, Mushtariy6 partave.

Qilib adl royingdin andoq zuhur
Ki, gul birla xurshiddin atru nur.

Vujudingda pinhon xiradyorlig‘,
Jamolingda paydo jahondorlig‘.

Bu himmatki zoting aro bordur,
Sanga Rum sultonlig‘i ordur.

Bilurbizki bu mulk erur kam sanga,
Umid ulki, tushgay jahon ham sanga.

Falak sayridin oshkoru nihon
Ki, hukme yozilmish: seningdur jahon.

Yana kimsa farmonravo qilmag‘il,
Jahon ahlini benavo qilmag‘il.

Agar sen bu ishni qabul etmagung,
Bu mulk ahli faryodig‘a yetmagung.

Qo‘yub mulki mavrusinga yonani,
Ravo ko‘rsang uy ichra begonani.

Qila olmayin bu balo ixtiyor,
Borimiz qilurbiz jalo ixtiyor!

Chu tushsak gadoliqqa har mulk aro,
Xudo so‘rg‘usi sendin ul mojaro».

Bu so‘z deb ulus bo‘ldilar ashkrez,
Bosh aylab yalang, chektilar rustaxez.

Skandarki mundoq alomat ko‘rub,
Alomat demaykim, qiyomat ko‘rub.

Pushaymon bo‘lub degan aqvolig‘a,
Buzuldi base ko‘ngli el holig‘a.

Solib ul sifat sidq oyin sifot,
Degandin aning ko‘ngli ichra uyot.

Ham atboining yaxshi niyatlari,
Yana ham atosi vasiyatlari

Ayon etti bir nav’ ta’sir anga
Ki, bermak mahol erdi tag‘yir anga.

Bo‘lub xotiri haddin ortuq malul,
Ulus iltimosini qildi qabul.

Rizo zohir etgach, shahi navjuvon,
Arastuyi7 farzona qo‘pti ravon.

Olib tojni aylabon arjumand,
Aning boshidin ayladi sarbaland.

Ravon tutti aytib sano, bir qo‘lin,
Balinosi8 dono yano bir qo‘lin.

Iki ganji hikmat ani yo‘ldabon,
Chiqordilar avrang uza qo‘ldabon.

Topib maqdamidin biyik poya taxt,
Quyosh boshi uzra solib soya baxt.

Arastu bila o‘q, Balinos edi
Ki, bu Xizr edi, ul bir Ilyos[9] edi.

Xaloyiqqa yuzlandi bir inbisot
Ki, o‘lturgali yetti mufrit nishot.

Nisor ul qadar sochti yaxshi-yamon
Ki, qildi nujum arzni osmon.

Adadsiz surur ahlig‘a bo‘ldi sur,
Aningdekki sur ahli qildi surur.

Chu Iskandari mehr o‘lub pardapo‘sh,
Shafaq bodasin topti qilmoqqa no‘sh.

Tarabdin falak qildi holi anga,
Yangi oyni jomi hiloliy anga.

Skandar barumand o‘lub baxtidin,
Shabistong‘a kirdi tushub taxtidin.

Gulu sabza uzra tuzub toza bazm,
Mayi lolagun ichgali qildi azm.

Qadah partavikim damo-dam tutub,
Shabistonni xurshiddek yorutub.

Debon so‘z, degach shohi gardunjanob,
Javobin Arastuyi hikmatmaob.

Surub nukta har sori donishvari,
Bilik ichra allomai kishvari.

Ne hikmatdin ayru qadah gardishi,
Ne juz ilmi hikmat takallum ishi.

Nukotkim shahi komyob aytibon,
Anga nukta ahli javob aytibon.

Zuhur aylabon garchi ayshu tarab,
Vale sarbasar mahzi ilmu adab.

Chu har ilmdin bo‘ldi guftu shunid,
Dimog‘ini shahning qizitti nabid.

Qo‘pub chiqqali mayl ko‘rguzdi xayl,
Ko‘zi shohning uyqug‘a qildi mayl.

Bo‘lub uyqu chun ulcha matlub o‘lub,
Yorim kecha ham sajda marg‘ub o‘lub.

Ibodat uchun shohi yazdonparast,
O‘zin xas kibi qildi tufroqqa past.

Ishi yig‘layu uzri mofot edi,
Anga tongg‘acha bo‘yla avqot edi.

Quyosh chun qilib avj ohangini,
Yorutti yana charx avrangini.

Kavokib topib ul yoruqdin zarar,
Bori uchtilar ul sifatkim sharar.

Skandar yana taxtin aylab maqom,
Xaloyiqqa hukm ayladi bori om.

Ulus qildilar xizmatig‘a hujum,
Quyosh tegrasida nechukkim nujum.

Yig‘ilg‘och ulus shah qilib ibtido,
Xaloyiqqa so‘z mundoq etti ado:

«Ki, berdi manga dodgarlik Iloh,
Bor ersa xaloyiq aro dodxoh,

Kelib ollima arzi hol aylasun,
O‘z ahvolini qiylu qol aylasun!

Qoshimda so‘zin arz aylar zamon,
Meni bir o‘zi yanglig‘ etsun gumon.

Ne taxtimdin o‘lsun anga dahshate,
Ne tojimdin o‘lsun anga vahshate.

Ne shah deb meni aylasun iztirob,
Ne maqsud adosida qilsun shitob.

Ayon aylasun reshi dardu g‘amin,
Yoqay dod bermak bila marhamin».

Ulus boshladi arzi hol aylamak,
Skandar bila qiylu qol aylamak.

Sahardin anga tegrukim istivo,
So‘rub, xalq dardig‘a qildi davo.

Kishi qoni to‘kkanni bo‘ynin urub,
Qo‘lin kestururning, qo‘lin kesturub.

Berib dod mazlumi g‘amxorag‘a,
Qilib rahm marhumi bechorag‘a.

Qilib zulm ahlin qaro yerga past,
Alarg‘aki, mazlum erur zerdast.

Xush ul shahki zulm ahlin aylab nigun,
Jafokash jafogarni ko‘rgay zabun.

Bu yanglig‘ qo‘yub adl bunyodini,
Yarim kungacha berdi el dodini.

Atosi zamonida har nav’ ish
Ki, andin xaloyiqqa ozor emish,

Tamomin ulus boshidin qildi daf’,
Yetishsun deb andin xaloyiqqa naf’.

Yana shohlar hodis etgan rusum
Ki, bedod emish el aro bu umum.

Alar tarhini buzdi bunyoddin,
Xaloyiqni qutqordi bedoddin.

Adolat tariqini fosh ayladi,
Siyosat anga durbosh ayladi.

Raiyatqa ma’lum etib ehtiyoj,
Iki yil alardin ko‘tardi xiroj.

Amal ahlig‘a qildi mashg‘ulluq,
Yomonlarg‘a yetkurdi ma’zulluq.

Vale yaxshig‘a taqviyat ayladi,
Yana yaxshilar tarbiyat ayladi.

Yana narxlarg‘a qilib ishtig‘ol,
Og‘ir sotquchig‘a berib go‘shmol.

Tuz aylab tarozu iki boshini,
Temurdin yasab, muhr etib toshini.

Qari ham temurdin anga bo‘ldi xos
Ki, el bo‘ldi kam gaz olurdin xalos.

Qaponni ham ul ixtiro ayladi,
Qiyos ichra raf’i nizo ayladi.

Yana tuzluk izhorig‘a tuzdi kayl
Ki, el qilmag‘ay egrilik sori mayl.

Yana tuzdi oltun tarozusini,
Qaviy aylabon adl bozusini.

Marohil aro qo‘ydi rahdorlar,
Yo‘l ahlin xatardin nigahdorlar.

Adolat qo‘lin tutti andoq biyik
Ki, topti amon arslondin kiyik.

Karak xaylig‘a qarchig‘ay darmiyon,
Alar jo‘ja yanglig‘, bu bir makiyon.

Yarim kungacha adl ila dod edi,
Yana kun so‘ngg‘i yaxshi bunyod edi.

Bu yanglig‘ chu oz vaqt tuzdi rusum,
g‘ani bo‘ldilar adlidin ahli Rum.

Ketur soqiyo, to‘ldurub jomi adl
Ki, ko‘rguzdi Iskandar ayyomi adl!

Taodul bila tut ani behamol,
Icharda manga garchi yo‘q e’tidol.

Mug‘anniy, navoda tuzub mu’tadil,
Navosozliq qil manga muttasil.

Qulog‘img‘a dilkash sadoe yetur,
Meni benavog‘a navoe yetur!

Navoiy, taoduldin etma udul,
Qabul ahlidin gar tilarsen qabul!

Chu odil shah ilgidin ichgung ayoq,
Necha e’tidol asrasang yaxshiroq.

Nechukkim, erur adl shahlarg‘a zeb,
Yerur ham gado, xokirahlarg‘a zeb.

Shahekim, adolatdur oning ishi,
Teng ermas anga shohlardin kishi.

XX

Adolat ayni ta’rifidakim, salotinning zulumoti zulmi orasida «aynul - hayot» jovidoniydurur va ichganga ziloli zindagoniy yetkurur

Ne asmokim, ul Haq sifotig‘adur,
Agar fikrating har bir otig‘adur.

Ne amreki bo‘lg‘ay sifat doxili,
Haq otidur ul amrning foili.

Karam fartidindur karim o‘lmog‘i,
Tarahhum ko‘pidin rahim o‘lmog‘i.

Agar vojidu mojid et e’tibor,
Agar Hayyu Qayyum bir hukmi bor.

Vale oti asmoda odil emas,
O‘qur chog‘da el oni odil demas.

Adolatqa yetganda qilmish Xudo,
O‘z otini «Al-adl» birla ado.

Bu otig‘a ko‘prak uchun ehtimom,
Aning birla olamg‘a berdi nizom.

Ne shahkim, aning adl kirdoridur,
Desam, yo‘q ajabkim, Xudo yoridur.

Bu ma’nidin erkinki, olamda shoh
Ki, derlar ani xalq zilli Iloh.

Gar af’oli mardudu maqbul emas,
Bulardin qiyomatda mas’ul emas.

Yerur adlkim, Qodiri Zul-jalol,
Qiyomat kuni andin aylar savol,

Agar adl yo‘q oshkoru nihon
Yaqin bilki, zeru zabardur jahon.

Anushirvon[1] garchi kofir edi,
Vale adl zotida zohir edi.

O‘run garchi kofirg‘a do‘zaxdurur,
Aning adldin o‘rni barzaxdurur.

Agar kufr rizvon sori qo‘ymadi,
Vale adl niyron sori qo‘ymadi.

Ul o‘tgandin ar ming yil andozadur,
Adolatdin ovozasi tozadur.

Yerur turfa bukim, salotin aro,
Qayu adl etar kishvari din aro.

Qilurda sifat adlu insofini,
Nihoyatqa yetkurmak avsofini,

Demaklik emas «hukmroni zamon»,
Demaktur «Anushirvoni zamon».

Ajabroq bukim, ulki bu oti bor,
Bu tashbih birla mubohoti bor.

Ne so‘zdinkim o‘tti erur bu ajab
Ki, kavnayn shohi – Rasuli arab.

Shahekim, rusul keldi xayli aning,
Bori ofarinish tufayli aning.

Qilur chog‘da Haq shukri izhorini,
Magar bu sifat surdi guftorini

Ki: «Sultoni odil zamonida dahr,
Vujudum bila berdi olamg‘a bahr.

Manga chun valodat zamoni edi,
Ulusqa adolat zamoni edi».

Hadisida ham bu bashoratdurur
Ki, adl ahli sori ishoratdurur.

Ki, adl ichra o‘tganga bir soati,
Yerur behki, jinnu bashar toati.

Yana ham hadisedurur bu sahih
Ki, aylabdur oni bayoni fasih:

«Qolur kufr aro qolsa obod mulk,
Bo‘lur zulm agar bo‘lsa barbod mulk».

Shah ar kufr aro adlin etsa ravon,
Tuzar mulkin andoqki Nushiravon.

Va gar din aro zulm parron qilur,
Bu shahlardek oz chog‘da vayron qilur.

Shahekim qilur xayli insong‘a amr,
Haq etmish anga adlu ehsong‘a amr.

Agar zulm qilsa erur necha hol
Ki, jonig‘adur borcha oning vubol.

Birovkim Haq amrig‘a osiy bo‘lur,
Nekim qilsa jurmu maosiy bo‘lur.

Yana bir bukim aylab o‘zni safih,
Haq axloqig‘a xulqi qolmas shabih.

Yana buki elga solib iztirob,
Qilur zulmi obodlarni xarob.

Yana ulki, chun zulme mavjud o‘lur,
Bori xalq ko‘ngliga mardud o‘lur.

Ne mardudluqkim, bo‘lur el ishi –
Tunu kun aning jonining qarg‘ishi.

Ne damkim urar xalq nuqsonig‘a,
Qilur tez do‘zax o‘tin jonig‘a.

Ulus dushmani desa bo‘lmas ani
Ki, bor ul haqiqatda o‘z dushmani.

Necha zulmkim elga zolim qilur,
O‘z-o‘ziga ko‘prak qilur – Haq bilur.

Ne zolimki, bir kimsaga zulm etar,
Iki foida zulmkashga yetar.

Bir ulkim, qiyomat kuni ajri bor,
Angakim bu zulm aylamish, zajri bor.

Yana buki, mazlum erur ot anga,
Kishi aylamas zulm isbot anga.

Vale kimsakim zulm anga komdur,
Bu olamda mardudu badnomdur.

Makon chun qilur o‘zga olam sori,
O‘tar betavaqquf jahannam sori.

Qayu shohkim adldin fard erur,
Ham o‘z jonig‘a zulmidin dard erur.

Kivursa o‘zin odil el sonig‘a,
Ne zulm elga aylar, ne o‘z jonig‘a.

Agar bilsa shah adl etar hirfasin,
Nechuk bergay o‘z ilgidin sirfasin.

Necha sirfadin shah keraktur yiroq,
Bu yerda vale sirfasi yaxshiroq.

Shahekim, anga adl bo‘lg‘ay qiliq,
Yerur aylasa sirfa besirfaliq.

XXI

Mahmud hikoyatikim, ajal og‘ir uyqusig‘a borg‘ondin so‘ngra Mas’udning tushiga kirdi va adolat aynin paydo qilur uchun anga pandlar berdi va nasihat zilolidin aning yuziga bir suv urdikim, ani g‘aflatuyqisidin seskandurdi

Yeshittimki, Mahmudi[1] g‘oziyg‘a dahr
Chu jomi hayot ichra hal qildi zahr.

Qilib «irjii» nag‘masin istimo’,
Ruju’ etti olamg‘a aylab vido’.

Jahondin uzar chog‘da payvandini
Valiahd etib erdi farzandini.

Chu ul ayladi tarki dori fano,
Firoqida o‘g‘lig‘a erdi ano.

Hamono laqab erdi Mas’ud anga,
Kirib tushga bir kecha Mahmud anga,

O‘g‘ulg‘a ajab nav’ qildi zuhur,
Boshidin-ayog‘ig‘acha g‘arqi nur.

Bo‘lub turfa bog‘e aning maskani,
Dema bog‘kim, ravzaning gulshani.

Damo-dam fuzunroq nishoti aning,
Oshib har zamon inbisoti aning.

Zumurraddin ollida havzeki, aql
Kelib ojiz avsofin aylarda naql.

Mudavvar kelib charxi axzar kibi,
Suvi lavnu ta’m ichra kavsar kibi.

Qirog‘ida ul havzning bir daraxt,
Solib shoh uza soya andoqki baxt.

Qilib past tubo qadin poyasi,
Hamul ravza sahnin tutub soyasi.

Yana ravzaning sabzasi za’faron,
Isi xastalar jismidin za’fron.

Tamoshosidin ko‘zga yorub charog‘,
Muattar bo‘lub atri birla dimog‘.

Ko‘rub shoh Mas’ud bu turfa hol,
O‘pub yer atosidin etti savol

Ki: «Sultonlig‘ing ichra netting ekin
Ki, bu nav’ manzilg‘a yetting eking‘»

Dedi: «Ul zamonkim, jahondor edim,
Adolat qilur fikrida bor edim.

Chekar chog‘da Hindustong‘a sipoh,
Chu ul nohiyat bo‘ldi oromgoh,

Dedim emin o‘lsun cherikdin bu mulk,
Sitamg‘a uzotur ilikdin bu mulk.

Munodidin anglab bu hukmumni xayl,
Manga bo‘ldi sayr aylamak sori mayl.

Qilib besha tavfig‘a har yon nazar,
Ki, nogah bir el sori soldim guzar.

Jazira aro necha uyluk kishi,
Kelib za’f ila ajz alarning ishi,

Yig‘ochu qamishdin yasab xonumon,
Ani sandalu zarhal aylab gumon.

Uy ichra gilem o‘rnida bo‘ryo,
Kelib bog‘u bo‘ston buzuq qo‘ryo.

O‘tar chog‘da nazzora aylab muni,
Yetishti qulog‘img‘a mazlum uni.

Hamul un bila markab ettim ravon,
Chu yettim, ajuze edi notavon.

Buzub qo‘ryosin cherikchi kirib,
Uyidin necha shox o‘tun oyirib,

O‘tunni uyidin chiqorg‘on zamon,
Solib to‘bra ichra dog‘i somon.

Yana bir ayog‘ ham olib badsigol
Ki, ul zarf bor erdi yashil safol.

Bularni olib zolimi tundxo‘,
Chiqarda yo‘luqti manga ro‘baro‘.

Jadal aylabon dodxohi bila,
Kelib ul iki-uch guvohi bila.

Chu bildim aning zulmu yag‘mosini,
Iyosiga qaytardim ashyosini.

Yana qo‘ryosini naybast etib,
Ne ayrilg‘onin borcha payvast etib.

Dedim, bog‘labon zolim ilgini rust,
Osib bo‘g‘zidin ul uy ollida chust.

Chu ashyosini oldi zoli najand,
Hamul dam sipah sori surdum samand.

Men etgan zamon tarki dori g‘urur
Ki, bo‘ldi maqomim bu dori surur.

Nihoyatsiz erdi gunohim mening,
Bu ish bo‘ldi oxir panohim mening.

Xitob o‘ldi, k-ey osiyi borgoh
Ki, umrungda qozg‘onmading juz gunoh.

Necha haddin ortuq gunahkorsen,
Tomug‘ shu’lasig‘a sazovorsen.

Hamul adlkim tutti sendin vujud,
Gunohing bog‘ishlandi budu nabud.

Vale har ne ish qilg‘oning beg‘araz
Topibdur bu olamda bir-bir evaz.

Tuzatting chu ul zolg‘a qo‘ryo,
Yo‘q erdi bu fe’lingda ro‘yu riyo.

Aning muzdidur bu riyozi bihisht,
Yeli mushkso, gardi anbarsirisht.

Iki shox o‘tunkim, ani oldi zol,
Yerur muzdi bu naxli tubo misol.

Yashil zarfkim, aylading rad anga,
Yevazdur bu havzi zumurrad anga.

Yetaklik somoninki oldi ajuz,
Yevazdur anga za’faron birga yuz.

Qatil etganing zolimi shumni
Ki, qutqording ul xasta mazlumni.

Aning muzdi bo‘ldi hayoti abad,
Maqosidga yo‘q bu hayot ichra had.

Bu savdodin ar voqif o‘lsa kishi.
Qachon adldin o‘zga bo‘lg‘ay ishi.

Agar adl olamda tutmas vujud,
Pushaymonlig‘ etmas bu olamda sud.

Sangakim bu soat erur dastras,
Bu ish kasbidin tinmog‘il bir nafas.

Damekim, shah o‘z adlidin fard erur,
Anga ul dame bedavo dard erur.

Chu Mas’ud uyg‘ondi ul uyqudin,
Farog‘at topib xotiri qayg‘udin.

Adolat tariqin shior ayladi,
Ato buyrug‘in ixtiyor ayladi.

Qayu shahki adl etsa Mas’uddek,
Ne tong Haq nasib etsa Mahmuddek.

XXII

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, adolat natijasi ne nav’ ishlar bo‘la olg‘aykim, ul natija umidiga kishi ul yo‘lg‘a qadam solg‘ay va Arastug‘a jahonkushoyliq tili ochilmoq va adl natijasi jahongirlik erkinin sobit qilmoq va odilg‘a ul jahon saodati ham topilmoq

Yana shoh Arastug‘a qildi xitob
«Ki, ey donishoyinu hikmatmaob!

Shahekim erur adlning jozimi,
Ne ishlar ekin adlning lozimig‘»

Dedi: «Shahki adl o‘lsa oyin anga,
Musaxxardurur dunyoyu din anga.

Bu olamda bo‘lmog‘liq ofoqgir,
Yana olam ahlida jannatsarir.

Bu olam olurni burun sharh etay,
Yana o‘zga olamg‘a dog‘i yetay.

Shahekim anga adl bunyod o‘lur,
Natija bukim, mulki obod o‘lur.

Chu mulk o‘ldi obodu xalqi g‘ani,
Yaqindurki, ma’mur o‘lur maxzani.

Chu maxzanni bu nav’ ma’mur etar,
Sipohig‘a beshak mavojib yetar.

Sipohi qachon shahg‘a tolib kelur,
Adusig‘a, shak yo‘qki, g‘olib kelur.

Qachon bir adusini past ayladi,
Aning mulkini zerdast ayladi.

Iki mulk afzun qilur quvvatin,
Yana xasmining sindurur shavkatin.

Bu tartib ila chunki tarhin solur,
Ajab yo‘q, agar dahr mulkin olur.

Yana ulki chun adli zohirdurur,
Bori qavm ila xayli shokirdurur.

Sipohiysi gar tig‘ urar beadad,
Raiyat duo birla aylar madad.

Qachon qildi ming xasmi kinxoh o‘qi,
Yarim kecha qilg‘oncha bir oh o‘qi.

Yana ulki chun adl bo‘lmish fani,
Adu xayli dog‘i tilarlar ani.

Raoyosi tunlar ilik ochibon,
Sipohiysi borib anga qochibon.

Birov topsa bir ishga muncha sabab,
Jahongir bo‘lmog‘lig‘i ne ajabg‘

Bu bir muddao chunki topti vuqu’,
Yana birga emdi qiloyin shuru’.

Birov Tengriga iltijo kelturub,
Chu adl amr qilmish bajo kelturub.

Olib mulkidin ranju farsudaliq,
Xaloyiqqa yetkurgay osudaliq.

Taammul qilib adlu ehsonig‘a,
Duo qilsa ofoq eli jonig‘a.

Natija munga g‘ayri g‘ufron emas,
Jazoyi amal bo‘lmay imkon emas.

Bu olam dog‘i bo‘ldi, ul ham anga,
Iki kavn mulki musallam anga».

Chu xatm etti donoi bisyordon,
Javobini topti shahi kordon.

Hakim ayturidin chu kasb etti naf’,
Bori shubhasi ko‘nglidin bo‘ldi raf’.

XXIII

Iskandar ishlarining tafsilini ijmol bila deyilmak va ul ijmolning mujmalotin tafsil qilmoq va Doroning rasuli anga oltun bayza tilay kelib, po‘lod nayzadek itik so‘zlar javob topib bormoq va ul sinon lam’asining barqi aning xirmani sabrig‘a o‘t solmoq va kunjud bila go‘y va chavgon yibormagi va Iskandar ul chavgon bila go‘y urub kunjudni qushlar termagi

Bu yanglig‘ dedi mo‘badi nuktasanj[1],
Ki, tarix ilmig‘a ko‘p chekti ranj.

Ki, chun qildi ul shohi navxosta,
Adolat bila mulkin orosta.

Hakim, o‘ylakim ko‘rguzub erdi yo‘l,
Adolat havosin bilib erdi ul.

Ki, olam olurg‘a bo‘lur muntahi,
Bu so‘z fikrida xotiri ogahi.

Taammul qilur erdi haddin fuzun,
Chekar erdi andisha torin uzun.

Chu adlu shijoat anga yor edi,
Yana roy ila hikmati bor edi.

Quyoshdek sipehr uzra tortib alam,
Yurub oldi olam yuzin yakqalam.

Ul ishlarki ul qildi ofoq aro,
Kishi qilmadi bu kuhan toq aro.

Bu a’jubalarkim anga berdi dast,
Jahondorlar qadri topti shikast.

Nekim qildi ul desa, aytay, kishi,
Tuganmas o‘qub qarnlar ul ishi.

Bori qilg‘onin demak oson emas,
Deganga tugatmaklik imkon emas.

Munosib bu keldiki har hol ila,
Desam, avval ahvolin ijmol ila

Ki, komim ravo aylamish bo‘lg‘amen,
Hadisin ado aylamish bo‘lg‘amen.

Yana qissasig‘a taaqqul qilib,
Tavorixig‘a ko‘p taammul qilib.

Umurida ulcha g‘aroyibdurur
Ki, ul ishta ko‘prak ajoyibdurur.

Judo aylabon kizb oloyishin,
Anga aylasam nazm oroyishin[2].

Hamonoki ul shohi davlatpanoh,
Burun Rum taxtig‘akim bo‘ldi shoh.

Muxolifqa qasdi halok ayladi
Ki, a’dodin ul yerni pok ayladi.

Cherik chekti andin so‘ng istab kushod,
Jahon ichra aylarga fathi bilod[3].

Burun tortibon razm uchun tig‘i kin,
Yurub ayladi azmi Mag‘rib zamin[4].

Qilib Zangbor[5] ahliga chiyralik,
Yudi tig‘ suyidin ul tiyralik.

Yana bo‘ldi Doro[6] bila hamnabard
Ki, badxohdin ko‘kka yetkurdi gard.

Yana mulk ochmoqta qilmay darang,
Yurub fath qildi bilodi Farang[7].

Chu bo‘ldi mute’ anda bo‘lg‘on ulus,
Qirim birla fath ayladi Andalus[8].

Yonib Misr fathig‘a qildi sitez,
Sipehr oni Misr uzra etti aziz.

Ko‘rub tab’i ul marzni oshno,
Qilib anda Iskandariya bino.

Chu Zardusht[9] daf’ig‘a qildi g‘ulu,
Alar o‘tig‘a tig‘ ila urdi su(v).

Iroqi Ajam sori qilg‘ach xirom,
Navo topti ohangidin ul maqom.

Iroqi Arabg‘a chu surdi samand,
Qudumidin o‘ldi ul el bahramand.

Yana ayladi azmi Shomu Halab,
Nasib o‘ldi ul yerga komu tarab.

Yaman sori chiqti nechukkim Suhayl[10],
Aqiq o‘lg‘ali toshlari qildi mayl.

Yer o‘pmakka chun Makka azmi qilib,
Qabuli uchun ul eshik ochilib.

Qilib azm andin savohil sari,
Qo‘yub yuz ajoyib marohil sari.

Yana aylabon Fors fathig‘a azm,
Muyassar bo‘lub, aylamay kinu razm.

Ochilg‘och bular shohi farxundafol,
Saodat bila qildi azmi Shimol.

Chu mulk olg‘ali da’bu xo‘ razm etib,
Tavajjuh bila fathi Xorazm etib.

Chekib ra’yati mehri ishroqni,
Yoruq aylabon Dashti Qifchoqni.

Chu bu nohiyatdin inontob o‘lub,
Inongiri Saqsinu Saqlob o‘lub.

Chu ozim bo‘lub jonibi Osu Rus,
Bo‘lub yuzlari vahmidin sandarus[11].

Tushub Charkasu Gurja[12] sori yo‘li,
Bo‘lub borcha gurjiyu charkas quli.

Shimol ahlin ehsong‘a g‘arq aylabon,
Tavajjuh qilib azmi Sharq aylabon.

Chu manzil qilib mulki Farxorni,
Kesib ul gulistonda har xorni.

Chu ma’bar bo‘lub Movarannahr anga,
Yasolib Samarqanddek shahr anga.

Chigil birla Yag‘modin aylab ubur,
Nechukkim, chamandin sabovu dabur[13].

Yurub Ching‘a bo‘lg‘onda masnadnishin,
Kamar bog‘lab ollinda Xoqoni Chin.

Yana Hind sori qilib turktoz,
Bo‘lub Ked qulluq bila chorasoz.

Buzub Hindu Chin ichra butxonalar,
Yasab toat ahlig‘a koshonalar.

Chu raf’ aylabon kufr yanglig‘ uyub,
Berib rahnavardig‘a azmi Janub.

O‘tib Sind ila Kechu Mukron sori,
Ham andin qilib azm Kirmon sori.

Xuroson havosida topqach hayot,
Yasab anda shahre nechukkim Hirot.

Sipohon sari dasht qilg‘onda tay,
Bino aylabon shahre andoqki Ray.

Chu fath o‘ldi olamdag‘i marzu bum,
Ko‘ngul jam’ etib ayladi azmi Rum.

Necha vaqt o‘lub aysh ila jomgir,
Ko‘ngul topmadi anda oromgir.

Yana qatla olamni sayr ayladi,
Mamolikda bunyodi xayr ayladi.

G‘arib ishlaridinki yo‘q anga had,
Biri erdi ya’juj ollig‘a sad.

Masohat qilib borcha ofoqni,
Ne ofoqkim, charxi nuh toqni.

Chu qildi masohat masolik aro,
Yig‘och etti ta’yin mamolik aro[14].

Tanobeki, massoh qildi quloch,
Qilib o‘n iki ming qari bir yig‘och[15].

 Aning sa’yidin topti bori sabil
Nishone qachon bir yig‘och o‘lsa mil[16].

Manozilda tarhi rabot ayladi
Ki, andin musofir nishon ayladi.

Chu ma’murani tuzdi qilmay darang,
Tengiz mayli qildi, nechukkim nahang.

Su uzra surub benihoyat kema,
Solib anda bori keraklik nima.

Necha yil suv uzra xirom ayladi,
Jazoyirda gohi maqom ayladi.

Haq ehsonidin bahri zoxir aro,
Bilodikim erdi jazoyir aro.

Borin fath qildi suv uzra yurub,
Birin chun olib, ilgarirak surub.

Chu yer qolmadi olmog‘on suda ham,
Bu ishlar bila bo‘lmay osuda ham.

Su mavji kibi iztirob ayladi,
Muhit o‘rtasig‘a shitob ayladi.

Chu bo‘ldi yeri nuqtagohi Muhit,
Quyi suvu ustun sipehri basit.

Qilib suv tubin ko‘rmak andishae,
Hamul hikmat ahli yasab shishae.

Kirib shishag‘a ranju tashvir ila,
Ning og‘zini berkitib qir ila,

Tanobeki, bo‘lg‘ay necha ming qari,
Yeshilgan, kelur chog‘da daryo sari.

Bir uchin qilib shisha davrig‘a rust,
Yana bir uchin tutturub elga chust.

Bu yanglig‘ qilib cho‘kti daryo quyi,
Ani qa’rig‘a chekti daryo suyi.

G‘aroyibki daryoda bo‘lg‘ay nihon.
Anga zohir o‘ldi jahon dar jahon.

Alardin ravo aylabon komini,
Kema ichra qo‘ydi yana gomini.

Va lekin bu so‘zda erur ixtilof,
Yerida demakdin emasmen maof.

Yana azm qildi qurug‘luqqa bot,
Chiqib ayladi azmi obi hayot.

Qoronquda aylab yorug‘luq talab,
Ani topmayin qoytti xushklab.

Qurug‘luq aro Xizr o‘lub rahbari,
Tengiz ichra Ilyos edi yovari.

Bu ishlar qilibkim, kishi qilmayin,
Kishidin bu nav’ ishlar aytilmayin.

Valoyat qilib Tengridin multamas,
Nubuvvatqa dog‘i topib dastras.

Bo‘lub oncha davlat muyassar anga,
Yana oncha kishvar musaxxar anga

Ki, sabtig‘a yo‘nsa kishi xomae,
Keraktur raqam topsa «Shahnoma»e.

Va lekin bu daftarda gunjoyishi,
Yemas siqqudek borcha oroyishi.

Zaruratdin alqissa har hol ila,
Aning qissasin surdum ijmol ila.

Ado bo‘ldi har bayt aro daftare,
Har uy ichra qildim nihon kishvare.

Tamomi bu erdiki, qildim ado,
Vale emdi tavfiq bersa Xudo,

Sunub panja kulliy ishe sori qo‘l,
Qilay nazmkim, asl bo‘lg‘ay hamul:

Alardin biri erdi Doro ishi
Kim, ul nav’ ish yod bermas kishi.

Bu nav’ erdi ul kim malik Faylaqus
Ki, Rum ahli erdi anga xokbo‘s.

Jahonxusrav ul chog‘da Doro edi,
Anga shohlig‘ oshkoro edi.

Kayoniylar o‘rnida ofoqgir,
Kelib pusht-barpushti sohibsarir.

Umurida oyini Luhrosbiy,
Sipohida qonuni Gushtosbiy.

Bo‘lub ko‘p Kayoniy ish ihdos anga,
Tegib Bahmaniy mulk meros anga.

Jahonbonlig‘ amrida Xusravnajod,
Angachaki Kayxusravu Kayqubod.

Jahon mulkida mustaqil podshoh,
Anga topshurub shohlar toju kox.

Mamolikda har sohibi taxtu toj,
Anga yetkurub peshkash, yo xiroj.

Biri Faylaqus erdi ul xayl aro,
Xirojini berguchi bemojaro.

Xiroj ul nimakim muqarrar emish,
Hamonoki ming bayzai zar emish.

Chu ul qildi dayri fanodin xirom,
Skandar anga bo‘ldi qoyim maqom.

Bor erdi chu mulk o‘ldi tayin anga,
Bu yanglig‘ki sharh ettim oyin anga.

Ham avvalg‘i yil tortibon tig‘i kin,
Qilib Zang shohi bila big‘i kin.

Topib tig‘ining barqi chun ishtiol,
Kuyub zangi andin nechukkim zugol[17].

To‘kub erdi qon oncha ul xayldin
Ki, zang ahli ruxsori ul seldin,

Qaro dog‘lardek bo‘lub oshkor,
Bo‘lub yer yuzi, o‘ylakim lolazor.

Iki-uch yil ichra necha bo‘yla razm,
Qilib erdi ul shohi farxunda azm

Ki, borida a’dosi mankub edi,
Kirib ilgiga ulcha matlub edi.

Bu fursatda fath aylagan marzu bum,
Bo‘lub iki-uch onchakim mulki Rum.

Qilib xaylin a’dog‘a andoq daler
Ki, bo‘lg‘ay qulon qasdida narra sher.

Shukuhi oshib bahri zaxxordin,
Livosi o‘tub charxi davvordin.

Qilib tig‘i barqi jahonso‘zluq,
Yuzi mash’ali olamafruzluq.

Xayoli aro urmayin tobu pech,
Jahongirlik fikridin o‘zga hech.

Ne ofoqni o‘ziga keng ko‘rub,
Ne ofoqning shahlarin teng ko‘rub.

Atosi vafotidin uch yil o‘tub,
Ishi lek o‘n oncha rif’at tutub.

Bu uch yil aro ko‘ngliga yetmayin,
Xayolig‘a balkim xutur etmayin

Ki, Dorog‘a bo‘lg‘ay ishi ehtiyoj,
Anga xud ne etgayki, bergay xiroj.

Birovkim azaldindurur rif’ati,
O‘zidek rafe’-o‘q erur himmati.

Bukim bo‘lg‘usi xasm Doro anga,
Kerak zohir etmak madoro anga.

Va yo mulku johig‘a qilmoq nazar,
Aning ko‘ngliga mutlaq etmay guzar.

Qachon qilsalar kin iki narra sher,
Yaqinkim, bo‘lur navjuvonroq daler.

Qachon kin chog‘i bo‘lg‘ay andeshasi
Ki, ko‘prakdurur xasmning peshasi.

Iki ajdaho bo‘lsalar kinasanj,
Tafovut ne, ko‘prak esa yerda ganj.

Tengizda balig‘ bo‘lsa haddin ulug‘,
Nahang o‘lmas osebidin qayg‘ulug‘.

Skandargakim yovar aflok edi,
Bisot ichra har kun tarabnok edi

Ki, Doro qoshidin yetishti rasul,
Aning ostonig‘a qildi nuzul.

Parastandalardin chu bor istadi,
Ani ollig‘a shahriyor istadi.

Qadam urg‘och-o‘q ko‘rdi chun shohni,
Supurdi yuzi birla dargohni.

Parastandaliq rasmi chun soz etib,
So‘ziga duoni sarog‘oz etib.

Duoeki, bo‘lg‘ay sazovor anga,
Julus amri aylab jahondor anga.

Chu o‘lturdi qosid tikib yerga ko‘z,
Ne yoro anga surmayin derga so‘zg‘

Skandar shukuhi qilib lol ani,
Qayu lolkim, dangu behol ani.

Qilib shoh andin bu ma’nini fahm
Ki, farru shukuhi anga soldi vahm.

So‘z aytib, aning sori solmay ko‘zin,
Anga tegrukim, topti qosid o‘zin.

Ko‘ngul bosqonin chunki fahm etti shoh,
Savol etti shohona aylab nigoh

Ki: «Doro shahi komron xushmudurg‘
Anga mulk oyini dilkashmudurg‘»

Qo‘pub, yer o‘pub berdi qosid javob,
Yana komkorona qildi xitob

Ki: «Bu nav’ kelmakta komingni ayt,
Nekim dedi Doro payomingni ayt!»

Yana yer o‘pub qosidi rahxirom,
Dedi: «K-ey shahanshohi oliymaqom,

Chu so‘rdung so‘zumni, erur noguzir
Ki, bo‘lg‘aymen ollingda farmonpazir.

Hamono burunroq malik Faylaqus
Ki, Rum andin o‘lmish edi nav’arus,

Qilib erdi ming bayza har yil qabul,
Zari mag‘ribiydin toparg‘a vusul.

Bo‘lub ermish uch yilki ul komyob,
Bo‘lubtur bihisht ichra oromyob.

Bu uch yilg‘i taqsim topqon xiroj
Ki, andin edi do‘stluqqa rivoj.

Magar shoh devonig‘a ketmamish,
Yetar maxzan ichra magar yetmamish.

Mening kelganimdin bu erdi murod
Ki, gar lutf etib shohi oliynajod,

Ani bersa, aylab hisob, eltayin,
Yo‘q ersa, ne aytur javob – eltayin».

Skandarga keldi bu so‘z bas qatig‘,
g‘azab zahridin komi bo‘ldi achig‘.

Yuzi rangi ko‘rguzdi o‘tdin nishon,
Bo‘lurg‘a jahon ichra otashfishon.

Yana lahzae boshin aylab quyi,
Hamul o‘t uza urdi hikmat suyi

Ki, ifroti hilmu kamoli xirad,
g‘azab xayli andeshasin qildi rad.

Ko‘tardi boshin so‘zga og‘zin ochib,
Javobig‘a oning javohir sochib

Dedi: «Ayt Dorog‘a mendin salom,
Salom aytqach bo‘yla yetkur payom

Ki, shahliqki, yo‘qtur baqosi aning,
Yemas juz fano intihosi aning.

Bugun-tonglalig‘ umr uchun ko‘rma ranj
Ki, qo‘yg‘aysen albatta ganj uzra ganj.

Xazoyinki yig‘ding adaddin fuzun,
Sanga ranj tekurdi haddin fuzun.

Bukim yig‘ding, avval top andin asig‘,
Qachon topsang andin asig‘, o‘zga yig‘.

Ishekim zarar naf’idin bo‘lsa ko‘p,
Yemas qilmog‘i aql ollinda jo‘b.

Sanga naf’ yo‘q, bizga andin alam,
O‘zungga yeturma alam, bizga ham.

Tilab bayza ko‘p bo‘lma mehnatqa to‘sh,
Havo tutti ul bayza berguchi qush[18].

Agar tab’ing o‘ldi nasihatpazir,
Yemas bizga ham do‘stluqdin guzir.

Va gar pand ko‘nglunga yo‘q sudmand,
So‘zung bizga dog‘i emas dilpisand.

Boshingdin bu behuda savdoni qo‘y,
Xayolingdin ushbu tamannoni qo‘y.

Angakim erur nuktadonu zarif,
Ulug‘ ishdurur tonimog‘liq harif.

Sanga notavonlar bila tushti ish,
Meningdek kishi birla ish tushmamish.

Guruheki, har yil olursen xiroj,
Sotibsen alarg‘a biror eski tojg‘

Xiroj olmoq andin emas dilpazir
Ki, ham tojbaxsh o‘lsa, ham taxtgir.

Nahangeki bahr ichra bebok erur,
Gar ul suvda yuz ming durri pok erur.

Ne nav’ o‘lg‘ay andin xiroj istamak,
Suvda durri ko‘p bo‘lsa boj istamak.

Bu yanglig‘ tamannoni qilg‘on base,
O‘zin suvda qildi balig‘ tu’masi.

Xiradmandlig‘ keldi xursandliq,
Qulaysiz tama noxiradmandliq.

Chekib bejihat bo‘yla xorij navo,
Aromizda ko‘rma xusumat ravo.

Gumon etmakim, molu johing sening,
Ish o‘lg‘onda bo‘lg‘ay panohing sening.

Dema yer ko‘tarmas adadsiz cherik,
Sanga tig‘im ollinda tutqay ilik.

Sanga ko‘p, manga ozroq ersa sipoh,
Yerur berguchi ozu ko‘pga Iloh.

Kerak dastgir o‘lsa davlat ishi,
Yo‘q ersa netar ko‘p cherikni kishig‘»

Tugatguncha so‘zni shahi nuktago‘,
Mahobat eshitguchini qildi suv.

Qo‘pub qosidi notavon tutti yo‘l,
Vale ne tirik, ne o‘luk erdi ul.

Solib tezrak har nafas gomni,
Chu Dorog‘a yetkurdi payg‘omni.

Javobini Doro eshitgach tamom,
Tag‘ayyur topib, bo‘yla surdi kalom

Ki: «Har kimga bu nav’ afsonadur,
Tasavvur qilurmenki, devonadur.

Va yo mast erkinki, bu so‘zini
Degan chog‘da bilmaydurur o‘zini.

Va yoxud erur tifli beaqlu roy
Ki, ermas so‘zida xirad rahnamoy».

Chu bu nuktalardin savol ayladi,
Ravon mustame’ sharhi hol ayladi

Ki: «Ne telba fahm ettim oni, ne mast,
Xud ermas yana tifli g‘aflatparast.

Yerur ham xirad yoru ham hushmand,
Hadisi rafe’u janobi baland.

Bo‘lub ilmu hikmatqa hamdast ham,
Dilovarsifatdur, zabardast ham.

Ne hojat sifotin bayon aylamak,
Bo‘lur so‘zlaridin ayon aylamak.

Shukuhi bila farridin hech ahad,
Topa olmay ollida so‘z derga had.

Nechakim nazar aylasam har sari,
Aning fikri ermasdurur sarsari».

Bu so‘z qildi Doroni ul nav’ tund
Ki, bo‘ldi ajal tig‘i ollinda kund.

G‘azab o‘tini ayladi shu’laxez
Ki, tushti falak javfida rustaxez[19].

Ul o‘t qo‘zg‘alon soldi davron aro,
Ne davron aro, charxi gardon aro.

Buyurdiki, qosidni band ettilar,
Siyahchol sori olib kettilar.

Dedi: «Go‘dagi bandazodam mening,
Janibatkashi xonavodam mening.

Ham obosi bu xonadon bandasi,
Ham ajdodi ajdodim afkandasi.

Nazar aylasam aql mezonig‘a,
Kim o‘lg‘ayki, kirgay kishi sonig‘ag‘

Ki, oning so‘zin so‘z hisobi tutub,
Va yo men degan so‘z javobi tutub.

Tuzub sharh aylarda debochae,
Yasab bahr ollinda daryochae.

Ne mendin tavahhum, ne eldin uyot,
Bu g‘oyatqa sharh etgay andin sifot.

Aning daf’i asbobin eng tuzay,
Anga ul kim erkonligin ko‘rguzay.

Beray go‘shmoleki, har badsigol,
Tuzalgay chu yod etgay ul go‘shmol»[20].

Zabonovare avval istatti chust,
Demakta daleru adosi durust.

Anga so‘zlar aytib itik dosdek,
Itik dosdek yo‘qki, olmosdek.

Yana berdi chavgonu go‘e anga,[21]
Qilib munda ham guftugo‘e anga.

Yana bir idish kunjudi behisob
Berib, anda ham qildi so‘zlar xitob.

Uzotib ani tikti yo‘lig‘a ko‘z
Ki, to ne keturgay javobig‘a so‘z.

Chu ul yetti qat’i masofat qilib,
Qizil tilni boshig‘a ofat qilib.

Skandarga arz etti ahli vusul
Ki: «Doro qoshidin kelibdur rasul».

Dedi shahki, qosidni kelturdilar,
Qaro yerni gardung‘a yetkurdilar.

Skandarga chun tushti qosid ko‘zi,
Unut bo‘ldi og‘zida aytur so‘zi.

Shukuhi aning jismidin oldi tob,
Viqori solib ko‘ngliga iztirob.

Yer o‘ptiyu arzi duo ayladi,
Risolat tariqin ado ayladi.

Dedi shahki: «Arz et so‘zung borini,
Bayon qil, xayoling namudorini!»

Dedi homili roz aylab sujud
Ki: «Joningg‘a Haqdin tuman ming durud[22].

Yo‘q ollingda so‘z derga yoro manga,
Vale dey, degan so‘zni Doro manga.

Ne so‘zkim demish ul desang, arz etay,
Desang yo‘q, qayondinki keldim, ketay».

Skandar zamirig‘a soldi bilik
Ki: «Bordur keturgan kalomi irik».

Dedikim: «Payom etti Doroyi dahr,
Adolat bila kishvaroroyi dahr,

Ki, rasmi qadimiyki, derlar xiroj,
Ki, yo‘q bizga olmoqqa xud ehtiyoj.

Vale shohlarkim, erur bandamiz,
Ne hukmeki qilsoq sarafkandamiz.

Muni bermak – izhori toatdurur,
Bizing hukmumizga itoatdurur.

Otongg‘a zamonekim, erdi hayot,
Bu xizmat aro zohir etti sabot.

Chu sen topting oning maqomig‘a yo‘l,
Kerak qilsang erdi, nekim qildi ul.

Itoat tariqin shior etmading,
Nekim qildi ul, ixtiyor etmading.

Iki-uch yil o‘ttiyu ul yetmadi,
Kishi ham ani bozjust etmadi.

Chu ish haddin o‘tti yiborduk kishi
Ki, bo‘lg‘ay xiroj olmoq oning ishi.

Demishsen necha so‘zki, hadding emas,
Kishi bilsa haddin, so‘z andoq demas.

Vale nevchunkim, kichikdur yoshing,
To‘qunmaydurur toshqa hargiz boshing.

Dedukkim, jununungg‘a og‘oz emish,
Jaholat sanga ko‘pu aql oz emish.

Ishingga yo‘q isloh tadbirdin,
Chu go‘daksen, o‘ttuk bu taqsirdin.

Kerak emdi xizmatni nokom etib,
Ne vajheki qolmish saranjom etib.

Olib, qilmayin vahm, azm etgasen,
Rafe’ oston o‘pgali yetgasen.

Yuzungdin dog‘i raf’ bo‘lg‘ay hijob,
Inoyat dog‘i ko‘rgasen behisob.

Agar vahmdin iztirob aylasang,
Degan amrdin ijtinob aylasang

Va yo bo‘lsa tug‘yoni jahlu g‘urur
Ki, so‘z raddi zotingg‘a kelsa zarur

Ki bilmasliging ibtidosidur ul,
Kichik yoshlig‘ing iqtizosidur ul.

Yibordim qoshingg‘a munosib nima,
Bo‘yun to‘lg‘ama, nomunosib dema!

Keturdi, bu so‘zni debon nuktago‘y
Aro yerga bir savlajon birla go‘y

Ki, go‘dakliging chunki g‘olibdurur,
Sanga go‘yu chavgon munosibdurur.

Budurkim, ko‘rungay sanga ko‘zga ish,
Va lekin erur mulk ishi o‘zga ish.

Va gar raf’ qilmay ko‘nguldin xilof,
Ayon qilmasang ajzinga e’tirof.

Nizo’ o‘lg‘on o‘lsa muakkad sanga
Ki, xud yo‘q ul andeshag‘a had sanga.

Qo‘yub jahl, o‘z joningga rahm qil,
Sipohim hisobin bu kunjudcha bil».

Debon, qo‘pti majlisdin aylab shitob,
Ulug‘ zarf aro kunjudi behisob

Keturdiyu og‘zidin ochti tugun,
Bisot ichra ul zarfin etti nigun,

Dedi: «Shohdin har kim etsa haros,
Sipohin bu kunjuddin etsun qiyos».

Tugatgach so‘zin nuktago‘yi daler,
Javob istayu, ko‘z tikib boqti yer.

Chu qosid bu yanglig‘ takallum qilib,
Skandar nihoniy tabassum qilib.

Tugatti chu xorij tamanno bila,
Skandar so‘z ochti taanno bila

Ki: «Doroyi davron shahi pokzod
Ki, bermish tariqi fasohatqa dod.

Ani so‘z chu beixtiyor aylamish,
Ajab nuktalar oshkor aylamish.

Bukim shohlarni demish bandasi,
Sarafrozlarni sarafkandasi.

Guruheki o‘z lutfi birla Iloh,
Alarni qilibdur ulus uzra shoh.

Kishi o‘ziga banda qilmoq xitob,
Hamonoki ermas tariqi savob[23].

Alar qullug‘i Haqqa oyin erur,
Agar Tengri, bandam, desa chin erur.

Bu so‘zkim dedi shohi daryoato,
Shak ermaski, bordur sarosar xato.

Yerur shirk chun Tengrining shirkati,
Kirar kufr yo‘lig‘a bu fikrati.

Yana ulki, debdur meni tiflu mast,
Dog‘i telbalik qaydig‘a poybast.

Bu uch ishga bo‘lg‘ay birov muttaham
Ki, chekkay so‘zi kufr sori alam.

Yo‘q ersa iki shohi hashmatmato’,
Ayon etsalar mulk uzra nizo’.

Biri bo‘lsa farzan ulug‘, bir kichik,
Bu so‘z demas o‘lsa ulug‘da bilik.

Qo‘tonning uluq qush aro soni bor,
Vale sung‘ur ollinda ne joni bor?[24]

Yana buki, shoh aylab ehson manga,
Yibormishdurur go‘yu chavgon manga.

Yerur munda bir ramzi po‘shida harf,
Tafa’ul aro benihoyat shigarf

Ki, yer hay’atin aylabon justujo‘y,
Mudavvar topibdurlar andoqki go‘y[25].

Chu shoh oni tutti musallam manga,
Hamonoki Haq berdi olam manga.

Bukim ilgima soldi chavgonini,
Musallam manga tutti maydonini.

Hamono chiqib mulk maydonidin
Meni bahravar qildi chavgonidin

Ki, to men bu maydonda go‘y urg‘amen,
Samandim qilib garmpo‘y urg‘amen.

Manga mujdalar yetti andin base
Ki, mamnunmen ul komrondin base.

Bu kunjudki ham keldi andin bu yon,
Aning dog‘i ramzini aylay bayon:

Chu qilmish sipohiyg‘a tashbih ani,
Yerur nuktae, o‘yla tanbih ani.

Mening xaylima keldi qushluq sazo
Kim, ul qushqa kunjuddin o‘lg‘ay g‘izo».

Buyurdiki, surdilar oncha tovuq,
Ki kunjud hisobig‘a bo‘lg‘ay yovuq.

Alar kelturub dona termakka zo‘r
Ki, bir dona ham qolmay elturga mo‘r.

Bu diqqatlar aylab suxanvarni lol,
Qayu lolkim, o‘lturub infiol.

Buyurdi ravon shohi hikmatqiyos
Ki: «Bo‘l emdi Doro sari rahshunos.

Yeshitgan javobingni yetkur anga,
Ne so‘zlarki surdung manga, sur anga!»

Yonib qosid ul so‘z xaroshi bila,
Ayog‘i kelib, bordi boshi bila.

Chu Dorog‘a bilganlarin qildi fosh,
Adovat o‘ti ko‘kka tegurdi bosh.

Qolib fitna xaylig‘a ahli zamon,
Adam ko‘yiga qochti amnu amon.

Ayoqchi, ketur mayki, tortay daler,
Chu sarxush bo‘lay, go‘kray andoqki sher!

Kiray xasm aro, o‘ylakim sheri mast,
Borig‘a beray bir dam ichra shikast.

Mug‘anniy, cholib, garm hangoma tuz,
Surudungda ohangi «Shahnoma» tuz.

Chu ohangi kin ettilar ikki shoh,
Daler o‘lsun ul nag‘ma birla sipoh.

Navoiy, jahon ichra oshub erur,
Fitan sarsari amniyatro‘b erur.

Bu oshubdin gar tilarsen amon,
Amon topma may shug‘lidin bir zamon.

Zamon ahlig‘a bo‘lsa ming ibtilo,
Yemas mubtalo boda ichgan to‘lo.

XXIV

Muxolafat mazammatidakim, «mux» hasad bila «ulfat»durur va «muxl» andisha bila «ofat» ko‘runurki, aksin tutsa, musodaqat yuz berur va tarkin tutsa, saodat sarmanzilig‘a yetkurur va soyir el muxolafati bobidakim, mujibi xonumon xaroblig‘idur va saloting‘a voqe’ bo‘lsa, jahon xarablig‘i

Jahon ahlida yo‘q vafo, ey rafiq,
Yerur rifq1 alardin judo, ey rafiq!

Adovat bila kindur oyinlari,
Tuganmas adovat bila kinlari.

Jahon ichra mavjud erur necha xayl
Ki, borig‘adur kina qilmoqqa mayl.

Kishi bo‘lmag‘ay qilsang andeshae
Ki, topilmag‘ay anga hampeshae.

Qachonkim ayon bo‘ldi hamkorliq,
Ne imkon kishi bo‘lmay ozorliq.

Bilur kimki bir pesha bo‘lg‘ay fani
Ki, albatta hampeshadur dushmani.

Bir ishta mahorat chu zohir bo‘lur,
Yana kimsa ham anda mohir bo‘lur.

Chu har soridin bo‘ldi da’voyu lof,
Aro yerda solur taassub xilof.

Bo‘lur kin ikovning tuniyu kuni,
Tilar bo‘lmag‘ay – bu ani, ul muni.

Nedinkim biri bo‘lsa tufroqqa teng,
Bu fanda qolur yer yana birga keng.

Kim o‘lsa birov birla hamfanlig‘i,
Jihat budurur bo‘lsa dushmanlig‘i.

Bu yolg‘uz emas ahli san’at aro
Ki, ko‘prakdurur ahli davlat aro.

Shahekim anga bo‘lsa yuz ming kishi,
Budur borcha bir chargalikning ishi.

Alarkim, nayobatqa mansubdur,
Taqarrublari shahg‘a matlubdur.

Alarkim, erurlar amoratmaob,
Qilurlar nayobat uchun iztirob.

Alarkim, tuman bo‘ldi oyinlari,
Amorat uchundur bori kinlari.

Alarkim, qo‘shunbekligin qildi fan,
Xarobi bukim boshlag‘aylar tuman.

Yerur chun tafovut bila ul asos,
Asofilg‘a tegru bihozalqiyos.

Qayu chargakim anda bir xayl erur,
Borig‘a yana chargaga mayl erur[2].

Qilur har biri sa’y yetmak burun,
Hamul maqsadi ichra topmoq o‘run.

Taassub chu soldi aroda sudo’[3],
Yana o‘rtag‘a tushti kinu nizo’.

Necha shohlarg‘a yaqinroq kishi,
Adovat kelib ko‘prak oning ishi.

Asofilg‘a har nechakim jahl erur,
Va lekin xusumatlari sahl erur.

Ziyonin nechakim yomon farz qil,
Bir o‘ziga, yo o‘n o‘zidekka bil.

Bulardin avosit arodur ashad
Ki, nuqsonlari fosh o‘lur beadad[4].

Topar ko‘p kishi ul adovatda bim,
Buzulur base xonadoni qadim.

Burung‘i arig‘ etsa toshmoqqa mayl,
Ikinchi erur poya borong‘a sel.

Va lekin aoliyg‘a tushsa hisob
Ki, bo‘lg‘ay salotin gardunjanob.

Bu go‘yo jahon ichra to‘fon erur
Ki, andin jahon ahli vayron erur.

Ne to‘fon, balo bahri chayqolgoni,
Jahon ahli suv ostig‘a qolg‘oni.

Agar dashtu tog‘ uzradur har fariq,
Qilich bahri suyig‘a bo‘lmoq g‘ariq.

Jahon mulkidin amn bo‘lmoq yiroq,
Amonliq hamul mulk elidin qiroq.

Balo selining bo‘lmog‘i mavjzan,
Cho‘murmoq ulusni bu mavji fitan.

Ne to‘fon, bedodu selobi g‘am,
Yerur onchakim dahr eliga alam.

Adovatqa bog‘lab kamar ikki shoh,
Jahon ahlini aylab ikki sipoh.

Bori tortibon qatl uchun tig‘i tez,
Qilib tig‘i tez o‘ltururga sitez.

Ato bir taraf gar erur, filmasal,
Yana jonib o‘lsa o‘g‘ulg‘a mahal.

Ikisiga kin o‘ti solg‘ay g‘azab,
Ul o‘t qon icharga qilib tashnalab.

Ato jon berib o‘g‘lin o‘lturgali,
O‘g‘ul ham anga tig‘i kin surgali.

Qarindosh topsa qarindoshini,
Damo-dam tilab kesgali boshini[5].

Tushub oshnolarg‘a begonaliq,
Ketib hamnishinlarg‘a hamxonaliq.

Bu nav’ o‘lsa mundoq iki zot aro,
Ne bo‘lg‘ay, gumon qil iki yot arog‘

Aningdek esib tundbodi nabard
Ki, oshubdin yetkurub ko‘kka gard.

Tutub fitna gardi xaloyiq ko‘zin
Kim, ul gard aro xalq topmay o‘zin.

Solib elga mundoq nabardi balo,
Gahi qatlu toroju gohi jalo.

Agar bu iki shahg‘a bo‘lmay masof,
Va lekin bo‘lub bo‘yla doyim xilof.

Ulusqa degan yanglig‘ ahvol o‘lub,
Xaloyiq havodisqa pomol o‘lub.

Va gar rahm qilmay ulus jonig‘a,
Azimat qilib razm maydonig‘a,

Birisin zafar aylabon chiradast,
Yana bir sori zohir o‘lsa shikast.

Yaqin bilkim ul kundur ofat kuni,
Ne ofat kunikim, qiyomat kuni.

Xusho, iki ozodai nomurod
Ki, bir-birga zohir qilib ittihod.

Ne ul aylasa bu madoro qilib,
Anga ham bu rifq oshkoro qilib.

Aning komi bu birga maqsud o‘lub,
Munung raddi ul birga mardud o‘lub.

Rafiq iki darvesh, beishtiboh,
Yerur yaxshiroqkim, aduv iki shoh![6]

XXV

Iki jahondor muxolafatidin jahon ahli xirmanig‘a balo barqi yetgani va iki yor muvofaqatidin ul tutashqon o‘tqa rahmat yomg‘uri yog‘ib, shu’lasin past etgani

Eshittimki, Chingizu[1] Xorazmshoh,
Adovatqa chun bo‘ldilar kinaxoh.

Buzuldi jahon ulcha maqdur erur,
Netay sharhin aytib, chu mashhur erur.

Hamonoki Chingiz topib zafar,
Aning mulkini qildi zeru zabar.

Ne kishvar arokim maqom ayladi,
Chekib tig‘i kin, qatli om ayladi.

Tushub mavjg‘a bahri jabborliq,
Ayon aylabon mavji qahhorliq.

Ato o‘g‘lig‘a yig‘labon: hoy-hoy!
Qizig‘a ano tortibon: voy-voy!

Hayot uyiga marg solib xalal,
Amon raxnasin mahkam aylab ajal.

Magar Shom mulkida erdi bu hol
Ki, iki rafiqi mavaddatxisol.

Qazodin birov dastgiri bo‘lub,
Birov yo‘qki, kofir asiri bo‘lub.

Ko‘zidin oqar qonlaridin ikov,
Yudilar ilik jonlaridin ikov.

Tilab har biri aylamak ibtido
Ki, jonin yana birga qilg‘ay fido.

Bu holatda qotil chekib tig‘i qatl
Birisiga qildi ayon big‘i qatl.

Yana bir boshin ochib, etmay haros,
Ayon ayladi yolborib iltimos

Ki: «Avval mening boshima tig‘ sur,
Chu men o‘ldum, ul dam aning bo‘ynin ur!»

Munga chunki mayl etti o‘lturgali,
Boshig‘a jafo tig‘i tekurgali.

Ochib boshin ul bir ham aylab havas,
Nekim erdi avvalg‘ig‘a multamas.

Bular har bir – ul bir uchun qayg‘uda,
Bu holatda Chingiz emish uyquda.

Tushiga kirar bu ikki yor ishi,
Muni ko‘rgach aytur anga bir kishi

Ki: «Kechgil xaloyiqqa ozordin,
Vafo o‘rgan ushbu iki yordin.

Sanga kinavar bo‘lsa Xorazmshoh,
Ul ishtin jahon ahlig‘a ne gunohg‘»

Iki shah kini jahonni buzub,
Iki zor mundoq vafo ko‘rguzub.

Chu uyg‘ondi uyqusidin qahramon,
O‘lumdin xaloyiqqa berdi amon.

Iki yoru qotilda ul mojaro
Ki, om o‘ldi baxshish so‘zi xalq aro,

Qilib erdi kofirg‘a dog‘i asar,
Yetishti qulog‘iga chun bu xabar.

Qilib raf’ ko‘nglidin ozorni,
Yeshib qildi ozod iki yorni.

Iki shoh chun bo‘ldilar kinaxoh,
Jahon ahli bo‘ldi sarosar taboh.

Vale iki darveshning himmati,
Muvofiqlig‘i yumni xosiyati

Ki, qildilar isor joni hazin,
Ko‘tardi jahon ahlidin tig‘i kin.

Kishi aylasa rifq yumnin havas,
Anga to abad ushbu tamsil bas[2].

XXVI

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, muxolafatki borcha milalda mamnu'durur va nizo'ki borcha mahalda nomasmu', andoq modda topilg'aymukim, anda dilpazir bo'lg'ay va qilmog'i noguzir va Arastu ul tiyralikda yorug'lug' ko'rguzmak va ul muxolif ohangni rostda tuzmak

Yana so'rdi shohi Faridunhasham[1]
Ki: «Yey hikmat ahlig'a roying hakam!

Iki kimsaga voqe' o'lmoq nizo',
Bir ishta erur mujibi imtino'.

Nizoeki, har kimga masmu'dur,
Xirad buyrug'i birla mamnu'dur.

Topilg'aymu ul nav' bir joddae,
Hamul jodda ichra bir moddae

Ki, bo'lg'ay nizo' anda xotirpisand
Ki, gar bo'lmasa bo'lg'ay andin gazandg'»

Dedi hikmatoyini donanda[2] harf
Ki: «Qilding savole bag'oyat shigarf.

Nizoeki qildi xirad oni rad,
Qabul etti ham ba'zi ishda xirad.

Birovda bir ish bo'lsa nodilpazir,
Ki, foilg'adur qilmog'i noguzir.

Vale elga andin zarardur base,
Aning zimnida sho'ru shardur base.

Birov man'ig'a gar topar dastras,
O'zin tutsa ma'zur, ma'zur emas[3].

Va gar man' qildiyu yer tutmadi,
Ne ish tarkinikim bu der, tutmadi.

Bilindiki, ko'p tab'i rog'ibdurur,
Irikrak aning man'i vojibdurur.

Munung birla ham topmasa imtino’,
Bo‘lur vojib ul lahza qilmoq nizo’.

Bo‘lur chun nizo’ ichra nuqsonu sud,
Kerak anda bir shart tutsa vujud

Ki, bukim nizo’ ichra tuzdi asos,
O‘zin aylasa xasm birla qiyos.

Agar g‘olib o‘lmog‘lig‘in chog‘lasa,
Nizo’ig‘a ul lahza bel bog‘lasa.

Va gar quvvatin anglasa bayn-bayn,
Aroda padid etmasa sho‘ru-shayn.

Va gar xud o‘zin bilsa mag‘lubdur,
Nasihat bila iktifo xo‘bdur.

Kerak ul nasihat dog‘i narmro‘y
Ki, to mustami’ bo‘lmag‘ay tundxo‘y.

Ki tund o‘lsa ko‘p vahshat imkoni bor
Ki, nosihqa ham bim nuqsoni bor.

Nizo’ ichra mundoq marotibni bil,
Qila olmog‘ing chun yaqin bo‘ldi qil.

Yaqin bo‘lmasa g‘olibi zan kerak,
Kishi barcha ishta xiradfan kerak.

Birovkim xiraddur anga rahnamun,
Bu ishlarda qo‘ymas bo‘lurg‘a zabun».

Chu nofi’ javob angladi mustami’,
Yana so‘rmadi so‘z – bo‘lub muntafi’.

XXVII

Doroning Iskandar so‘zidin oshufta bo‘lub, sipoh yig‘moqtin olamg‘a oshub solib, olam-olam cherik yig‘ib Iskandar razmig‘a azm qilg‘oni va Skandar ham ul daryoyi ofat muqobalasida seli balo va ko‘hi maxofat muqotalasig‘a barqi razm va vag‘o yasab yuzlashgani va ofoqni ul iki shoh zeru zabar qilurda Doroning livoyi davlati o‘zga sarsar ofatidin sarnigun bo‘lub Iskandarning mahchak alami quyosh livosidin o‘tgani

Iki shoh ishida hikoyatguzor,
Bu yanglig‘ berur so‘zga zebi uzor

Ki, Dorog‘a chun yetti borg‘on rasul,
Skandar qazoyosig‘a berdi tul.

Qayu so‘zki shahdin xitob ayladi,
Nekim istimoi javob ayladi.

Chu arz aylamakdin yo‘q erdi guzir,
Borin ayladi arz farmonpazir.

Chu fahm etti Doro aningdek javob,
g‘azab o‘tidin jismig‘a tushti tob.

Yonar o‘tdek o‘ldi qadam to ba farq,
Taharruk ani qildi andoqki barq.

Gahi bo‘ldi davron bila tundxo‘,
Gahi charxi gardong‘a dedi: «Tufu!»

Oshib dam-badam iztirobi aning,
Yeru ko‘kka ta’nu itobi aning.

Bu oshub dardig‘a bo‘lmay davo,
Cherik jam’ig‘a bo‘ldi farmonravo.

Kishi chopti ofoq aro bedarang,
Bajuz Rum ila Zangboru Farang[1].

Sipah bahrig‘a tushti ul nav’ jo‘sh
Ki, o‘tti falak lujjasidin xurush.

Ham Eronu Turon[2], ham aqsoyi Chin,
Anga tegrukim, haddi Mashriq zamin.

Chiqib ul sifatkim, kishi qolmayin,
Demay qolmayinkim, qola olmayin.

Anga tegrukim, haddi aqsoyi g‘arb,
Butub borchaning jismidin sozi harb.

Yana ham diyori Janubu Shimol,
Kishi qolmog‘i topmayin ehtimol.

Bashar jinsi xaylin jahondin yig‘ib,
Jahon ahlini to‘rt yondin yig‘ib.

Sipah jo‘sh urub tog‘u homun aro,
G‘alat ayladim, rub’i maskun aro.

Surub elni zobit sipahdorlar,
Siyosat tariqida g‘addorlar.

Bu yanglig‘ cherik yaxshiroq fol ila,
Iki yilda jam’ o‘ldi tunqol ila.

Sipohiyki yer sathig‘a sig‘mayin,
Cherik hargiz andoq kishi yig‘mayin.

Ne uchu qiroq erdi paydo anga,
Ne haddu ne g‘oyat huvaydo anga.

Adadda falak anjumidin fuzun,
Ne anjum, biyobon qumidin fuzun.

Chu mav’idg‘a jam’ o‘ldi mundoq sipoh,
Bilib ul sipah sori azm etti shoh.

Nazar soldi chun ul cherik sori tez,
Adovat o‘tin ayladi shu’laxez.

Dimog‘ig‘a yo‘l topti nav’i g‘urur
Ki, gardun qochar qilsam ul yon ubur.

Yetib har tarafdin ulus shahlari
O‘kush tortig‘u tuhfa hamrahlari.

Aqolim voliylari javq-javq,
Itoat solib borcha bo‘ynig‘a tavq[3].

Chu Doro tushub borgohi aro,
Tushub jo‘sh xaylu sipohi aro.

Qo‘yub borgoh ichra taxti baland,
Chiqib taxt uza xusravi arjumand.

Tuzub masnadekim, sipehri barin,
Yana ko‘rmayin, o‘yla masnadnishin.

Qilib hukmkim: «Mulk sultonlari,
Qamuq xaylu kishvar nigahbonlari,

Kelib borcha yer o‘ptik aylab salom,
Munung birla kasb ayladik ehtirom».

Saloting‘a chunkim, bu nav’ o‘ldi bor,
Topib ishlari sikkai e’tibor.

Yiroqtin kelib, borcha bosh indurub,
Tikib yerga koʻz, oʻq uchidin turub.

Chu har birni koʻrmakka shoh istabon,
Borib hojibi borgoh istabon.

Kelib ul bisoti qirogʻin oʻpub,
Qoʻyub ollida bosh, ayogʻin oʻpub.

Yonib, chun boʻlub oʻrnigʻa rahxirom,
Yana bir boʻlub xoki dargahxirom.

Bu yanglig' yarim kungacha erdi mahl
Ki, topti sharaf ulki bor erdi ahl.

Xito mulkidin Mangu-qoon kibi,
Yana Hind elidin Qaroxon kibi.

Hamul Misrdin Varqau Boshdek,
Dogʻi Dasht elidin Temurtoshdek.

Farangisdek Xovaron mulkidin,
Davoli kibi Shirvon mulkidin.

Shahu shohzoda adaddin fuzun,
Sipahdoru sarxayl haddin fuzun[4].

Ki, pobo'sidin boʻldilar sarbaland,
Yana iltifoti bila arjumand.

Boʻlub koʻrmagidin chu oliy asos,
Yana peshkashlar chekib beqiyos

Ki, yuz ming muhosibqa yuz yil shitob,
Yetishsa qila olmag'aylar hisob.

Bu ashgʻolni aylabon bartaraf,
Xaloyiqni tarqattilar har taraf.

Ne sarxaylkim bor edi har sari,
Tilatti inoyat qilib ichkari.

Qilib tojvarlarg'a hukmi julus,
Bori oʻltururg'a boʻlub xokboʻs.

Chu atrofida shohlar oʻlturub,
Sipahdorlar xizmatida turub.

Ulug‘lar chu altofidin topti bahr,
Ravon boshladi nukta Doroyi dahr

Ki: «Bois chekarga bu yanglig‘ sipoh,
Xaloyiq farog‘in qilurg‘a taboh

Bu erdiki, chun Rumdin Faylaqus,
Jahon rihlati azmig‘a urdi ko‘s,

Qolibdur anga zodae majnunvashe,
Sudek kajrave, o‘t kibi sarkashe.

Yibormay xazoying‘a uch yil xiroj,
Boshig‘a sarafrozliq soldi toj.

Chu bordi kishi bilgali sharhi hol
Ki, o‘z xizmatin nevchun etmish o‘solg‘

Aning birla bu mojaro surgali,
Baqoyoni devong‘a kelturgali.

Parishon takallum qilib beadad
Ki, yo‘qtur anga, o‘yla so‘z derga had.

Yana qildim irsol ko‘p nav’ pand,
Anga hech pand o‘lmadi sudmand.

Javobida ko‘p qildi tarki adab,
Meni dog‘i oshufta qildi g‘azab.

Yeshitgach qulaysiz maqolin aning,
Zarurat ko‘rub go‘shmolin aning.

Bo‘lub bois ul go‘lu nodon ishi,
Cherik jam’ig‘a chopti har yon kishi».

Dedilar qo‘pub, yer o‘pub shohlar,
Sipahbadlig‘ amridin ogohlar

Ki: «Qilmoqqa holini oning taboh,
Ne hojat edi aylamak azm shoh.

Bu yanglig‘ cherik hojat ermas edi,
Aning daf’ig‘a bir qule bas edi.

Qayu birga bu ish inoyat bo‘lur,
Hamonoki bu ish kifoyat bo‘lur».

Dedi shohkim: «Chun yig‘ilmish sipoh,
Kerak Rumni qilsaq oromgoh.

Chu kirmish anga Zangboru Farang,
Alar fikriga ham keraktur darang.

Necha kun bu yerlar tavofi qilib,
Adudin mamolikni sofiy qilib,

Agar qaytsaq ham emastur yiroq,
Har andeshadin bu erur yaxshiroq».

Chu shoh og‘zig‘a soldi bu so‘z qazo,
Qazo amrig‘a chora yo‘q juz rizo.

Nekim shah dedi, ittifoq ettilar,
Bori Rum azmin yaroq ettilar.

Manozil bitib, bo‘ldilar jazmi ko‘ch,
Qo‘pub har taraf qildilar azmi ko‘ch.

Bularg‘a bo‘lub ko‘ch-barko‘ch azm,
Skandarga dog‘i xabar yetti jazm,

Ki, Doro yig‘ib yer yuzidin sipoh,
Buyon aylamish azm beishtiboh.

Xud ermas edi g‘ofil ul holdin,
Ishida yiroq erdi ehmoldin.

Uzotib damo-dam adug‘a kishi,
Payopay xabar topmoq erdi ishi.

Qayu ishgakim fahm etib ehtiyoj,
Farog‘at bila aylar erdi iloj.

Sipohini ul shohi navxosta,
Aningdek qilib erdi orosta,

Ki, ollig‘a cheksa sipah olame,
Ki bo‘lsa alar har biri Rustame,

Nechukkim yel ollig‘a bo‘lg‘ay samon,
Yetishmak hamonu – sovurmoq hamon.

Va lekin shiori madoro bo‘lub,
Tahattuk yo‘q andoqki Doro bo‘lub[5].

Chu Doro hadisi anga bo‘ldi tuz
Ki, olam sipohin yig‘ib qo‘ydi yuz.

Bu yanglig‘ cherikkim bayon ayladim,
Raqam birla vasfin ayon ayladim.

Tuzub ul xiradmandi hikmatmaob,
Aduv ro‘baro‘yig‘a qildi shitob.

Nechukkim tengiz sori g‘urranda abr
Va yo go‘r xaylig‘a g‘urron hizabr.

Chu fahm etti ul ishni Doro dog‘i,
Ki bordi arodin madoro dog‘i.

Aning chiqmog‘i bo‘yla bevahmu pos,
Aduv xaylig‘a soldi behad haros.

Chu o‘n manzil o‘ldi aro yerda jazm,
Iki yondin o‘ldi taanniyu hazm.

Yurush rasmida bo‘lmas erdi o‘sol,
Ko‘charda, tusharda bor erdi yasol.

Tushulgach, cherik davrini shaq qilib,
Sipah hifzi aylarga xandaq qilib.

Quyosh chun botib ko‘kka soya chiqib,
Hamul iki yondin taloya chiqib.

Yazak ahlig‘a, o‘yla bedorliq,
Taloya aro, o‘yla hushyorliq[6].

Ki, gar mo‘r tebransa qilmay darang,
Tikarlar edi ko‘zin otib xadang.

Bu yanglig‘ sipah boshlabon ikki shoh
Ki, bir kunchilik qoldi yo‘l razmgoh.

Aro yerda tog‘e edi bas rafe’,
Iki yonida iki dashti vase’.

Iki dasht aro iki xusrav eli
Ki, yo‘l topmay ul el aro tong yeli.

Skandar sipah tegrasiga yetib.
Nechakim kerak zabtida jahd etib,

Yasab xandaqu hisn Xaybar kibi,
Ne Xaybarki, Saddi Skandar kibi[7].

Chu ko‘ngli bo‘lub tinch yuz tig‘zan,
Bori lashkaroroyu lashkarshikan.

Oyirib o‘zi birla bo‘ldi ravon,
Zihi, ham sipahdoru ham pahlavon.

Hamul tog‘ uza chiqti ul xayl ila,
Aduvning sipohin tamosho qila.

Ne ko‘rdiki, tutmish sipah yer yuzin,
Qaro aylabon dahr tog‘u tuzin.

Taharruk topib xalqdin dashtu tog‘,
Taharrukka ham kimsa topmay farog‘.

Falakni aningdek tutub dudu gard
Ki, pinhon bo‘lub gunbadi lojuvard.

Topib gard ila dud chun imtizoj,
Berib o‘tu tufroqqa bir mizoj.

Qayonkim Skandarga tushti nazar,
Topa olmadi xalq ichidin guzar.

Qila olmayin el qiyosini hech,
Tahayyur aning mag‘zini qildi gech.

Xayolida bu so‘zkim: «Iki cherik
Qachon sunsalar kin ishiga ilik,

Biri yona bircha esa iki-uch,
Yerur harb oyini ozroqqa kuch.

Agar bo‘lsa bir sori yolg‘uz kishi,
g‘anim o‘lsa o‘trusida yuz kishi.

Agar istasa harbu parxoshini,
Ilik birla kesmaktur o‘z boshini.

Manga muncha hikmat tariqida lof,
Ajab yerda yoydim bisoti masof.

Bu yerdin yonarning xud imkoni yo‘q,
Nabard aylasam g‘ayri nuqsoni yo‘q!»[8]

Bu fikr ichra royi xiradparvari
Ki, bir tosh uza iki kabki dariy

Ko‘rundiki, bir-birga aylab sitez,
Urushurlar erdi base tundu tez.

Biri jussa ichra zabardastroq,
Yana bir haqir erdiyu pastroq.

Anga necha quvvat, munga oncha za’f,
De olg‘oncha quvvat, de olg‘oncha za’f.

Skandar chu ul za’fu quvvat ko‘rub,
O‘zi birla Dorog‘a nisbat ko‘rub,

Alar sori boqti taammul bila,
O‘ziyu aduvg‘a tafa’ul bila.

O‘zi jonibidin haqirin tutub,
Aduv o‘rnig‘a yona birin tutub.

Qilur erdi ul harb nazzorasi,
Taraddud aro joni bechorasi.

Ki, nogoh havodin uqobe inib,
Qilib sayd olurg‘a shitobe inib,

Ulug‘rog‘ni sayd etti ul nav’ chust
Ki, go‘yokim ul xud yo‘q erdi nuxust.

Uqob ilgida bo‘lg‘och ul bir taboh,
Yana birga bo‘ldi yeri jilvagoh.

Skandar bo‘lub xushdil ul holdin,
Tanumand o‘lub ko‘ngli bu foldin.

Bilibkim, anga xasm o‘lur zerdast,
Va lekin topar o‘zga yerdin shikast.

Bu ishdin o‘ziga shugun anglabon,
Yonib xasm qadrin nigun anglabon.

Sipohig‘a kirdi topib bu futuh,
Aningdekki, jonsiz badan ichra ruh.

Chu ul tog‘din indi topib navo,
Quyosh chekti tog‘ keyin sori livo.

Falak mash’ali ko‘ktin o‘lg‘och nigun,
Zamona bo‘lub dudidin qirgun.

O‘zin aylabon mahkam iki sipoh
Sipoh intizorin chekib razmgoh.

Yazak aylabon, o‘yla ogohliq
Ki, qilmay anga soya hamrohliq.

Taloya bo‘lub har taraftin mudir,
Tun o‘g‘risin etmak tilab dastgir[9].

Yazakdin sipah davrida, o‘yla bim
Ki, tebranmak imkoni topmay nasim.

Ulus, o‘yla mazbut o‘lub har sori
Ki, un ham chiqa olmayin tashqori.

Iki shoh har sori ish fikrida,
Yasol zikri birla tikish fikrida.

Nari yuzda Doroyi anjumsipoh,
Boshi uzra gardun kibi borgoh.

Qilib taxt uza ish yarog‘ini guft,
Bori nav’idin oshkoru nuhuft.

O‘zi jonibi fath lozim ko‘rub,
Livosig‘a nusrat mulozim ko‘rub.

Ko‘ziga Skandarni hech ilmayin,
Qazodin ne hol o‘lmog‘in bilmayin.

Sipahbadlari xud g‘ulu aylabon,
Skandar so‘zin guftugo‘ aylabon

Ki: «Gar shoh hukm etsa bevahmu biym,
Yerurbiz anga har birimiz g‘anim».

Biri debki: «Ko‘rgach qaro qochqusi»,
Biri debki: «Uzr eshigin ochqusi».

Va lekin Skandar sori barcha jazm
Ki, qilmoq kerak tongla o‘lguncha razm.

Qaviy xasmg‘a mumkin ermas shikast,
Magar ulki ko‘rguzgabiz zarbi dast.

Ko‘zidin borib uyqu osoyishi,
Ishi razm ahlining oroyishi.

Yeliga karamdin yeturmak navid,
Qochar elga bim, ish qilurg‘a umid.

Yeli hech tinmay yasab sozu barg,
Muhayyo qilib javshanu xudu targ.

Ko‘runub uzun kina ahlig‘a tun,
Vale kun xayoloti tundin uzun.

Bu yanglig‘ edi iki yondin xayol
Ki, bo‘ldi ayon subhi farruxjamol.

Sahar oshkor etti zarrin livo
Ki, bo‘ldi yorug‘ mahchasidin havo.

Qazo soldi ul iki daryog‘a jo‘sh
Ki, Bahrom sam’ig‘a yetti xuro‘sh.

Chekib gurdlar na’rai hoila
Ki, solib yer ajzosig‘a zilzila.

Zuhur aylabon «arzu zilzolaho
Va axrajatil-arzu asqolaho»[10].

Bo‘lub tig‘zanlar qadam to ba farq,
Falak turkidek ko‘k temur ichra g‘arq[11].

Yasab harb uchun o‘zni markab uza,
Takovar surub, o‘z yasolin tuza.

Chu otlandi Doroyi davlatpanoh,
Skandarg‘a o‘tru tuzatti sipoh.

Sipah dema, daryoyi xunxor, de,
Falak bahri andin namudor, de.

Safe tuzdi tuzmakka oyini harb
Ki, bir qambali–sharq edi, biri–g‘arb.

Yasoleki bu tul ila ko‘rguzub,
Budur turfakim, yeti dabqur tuzub.

Borong‘or12 anga xayli Mashriq zamin,
Samarqanddin toki sarhaddi Chin.

Yana yuz ming o‘zbak mo‘g‘ul birla zam,
Yuz ellik ming ul sori qalmoq ham.

Bo‘lub borchasi olti yuz ming kishi,
Boriga hunar kin ila razm ishi.

Yasab Chin elin turki chiniysirisht,
Tarovatda andoqki bog‘i bihisht.

Yeti rang zarbaft har pahlavon,
Solib bodpoyig‘a bargustvon.

Dovulg‘oda chiniy yalov dilpazir,
Yana javshan ustiga chiniy harir.

Yasoleki qalmoq xoni yasab,
Ajal do‘zaxidin nishone yasab.

Tomug‘ shu’lasi barcha rangin yalov,
Bilinib yalov jilvasidin qalov.

Har o‘pchinluk oncha qilib karru far
Ki, andin tushub dahr aro sho‘ru shar.

Alar xaylining xoni To‘qvob o‘lub,
Urush vaqti ozarmdin tob o‘lub.

Mo‘g‘ul sherpaykarlari o‘tu yolin,
Taaddud aro it tukidin qolin.

Bular xoni Mangu kelib razm aro
Ki, oshubi olamni aylab qaro.

Yana mang‘it o‘zbak bila yondashib,
Iki zulfdek tuzlari chirmashib.

Kumushdek yorug‘ barchaning ko‘hasi,
Boz uzra dovulg‘alar charkasiy.

Alar yonida Movarannahr eli,
Iki rud arosida o‘n shahr eli.

Bori shergiru bori pilzo‘r,
Tikib o‘q bila ko‘zlarin bo‘lsa mo‘r.

Jinonvash Samarqand mavjud yo‘q
Ki, qilmish bino oni Iskandar-o‘q[13].

Juvong‘orda Mag‘rib eli bir sari,
Yana sori Bartosiyu Barbari.

Sinonlar sarig‘ rang, qalqon dog‘i,
Kejimlar sarig‘ jins, xafton dog‘i,

Arab barridin nayzavar qirq ming
Ki, yakroni tozi kelib borchaning.

Alamlar qarou sinonlar qaro,
Bedov uzra bargustvonlar qaro.

Hamul mag‘rib ahlini boshlab Tali’,
Arab xaylining peshvosi Vaki’.

Madoyin navohisidin Ardasher,
Chekib tig‘, xaylida yuz ming daler.

Binafsh aylabon shadda birla dirafsh,
Samand uzra bargustvon ham binafsh.

Qutayf ahli, Bahraynu Bag‘dod ham,
Sipahbad alarg‘a kelib Gustaham.

Bo‘lub sarbasar ko‘k temur ichra g‘arq,
Ko‘k atlasda pinhon qadam to bafarq.

Juvong‘or ham olti yuz ming adad,
Bular boshqa andinki bo‘lg‘ay madad.

Hirovul yasab yeti yuz ming kishi
Ki, hayron qolib yeti ko‘k gardishi.

Borining kelib xudu xaftoni oq,
Nekim kiyguluktur yasab oni oq.

Bu kofurgun saf aro razm eli,
Kelib Dashti Qifchoqu Xorazm eli.

O‘zidin topib g‘ul farru shukuh,
Sipah saf tuzub davrida ko‘h-ko‘h.

Qilib andoq orosta yetti g‘ul
Ki, yel xayli topmay aro yerda yo‘l.

Bo‘lub har saf ul elga yuz ming nafar,
Shah oyinidin barchag‘a zebu far.

Bular kiymagi barcha axzar bo‘lub,
Alamg‘a yashil shuqqa zevar bo‘lub.

Bo‘lub olam ul sabzadin marg‘zor,
Yashil xat bo‘lub yer yuziga uzor.

Hamul qalbgoh ichra Doroyi dahr,
Xilofig‘a yo‘q haddu yoroyi dahr.

Bu yanglig‘ yasab sozu oyini razm,
Aduv sori taskin bila qildi azm.

Nari yuzda Iskandari sherdil,
Qilib xayli oroyishi muttasil.

Borong‘orin aylab sipohi farang,
Bori qon to‘karga bo‘lub bedarang.

Aduvning qalin erkonin bilmayin,
Agar bilsa ham ko‘zga hech ilmayin.

Sipahdor alar ichra Shaypol[14] o‘lub,
Tahavvurda chun Rustami Zol o‘lub.

Kiyimlar guhardin mukallal bori,
Farangiy yeti rang maxmal bori.

Alam shuqqasi dog‘i jinsi farang,
Ham ul borcha zarbaftu ham yeti rang.

Aduv ichra yuz ming bori tezu tund
Ki, haybatlaridin quyosh tig‘i kund.

Juvong‘orida erdi Bartosu Rus,
Falak xingidek barcha tundu shamus.

Alar javshani borcha qolqonduruq,
Sinon qo‘llarida nechukkim so‘ruq.

Vale bodpolarg‘a solg‘on kejim,
Saqarlotu borcha yovurqon kejim.

Dovulg‘a bo‘lub to‘ppi yanglig‘ bari,
O‘tog‘a bosh uzra sariq qush pari.

Kelib har biri kecha andoqki bum,
Muvofiqqa maymun, muxolifqa shum.

Bular dog‘i yuz ming kelib son aro,
Chekib saf juvong‘orda maydon aro.

Hirovulda zang ahli ta’yin bo‘lub,
Alarg‘a yana o‘zga oyin bo‘lub.

Kiyib barchasi javshani zangsoz,
Yoruq ko‘zgudek zangdin beniyoz.

Yana xudlar misli javshan kelib,
Qaro tunda xurshidi ravshan kelib.

O‘tog‘a temur birla shahpar misol,
Quyosh uzra sonchib nechukkim hilol.

Kejimlar dog‘i barcha po‘loddin.
Topib lam’a suhoni bedoddin.

Yorug‘ oha yuz ming aduv o‘trusi,
Sarosar ajal shaxsining ko‘zgusi.

Qilib g‘ulini borcha Rumiy sipoh,
Topib ziynat ul g‘ul ila razmgoh.

Qizil yuz bila borcha andoqki sher,
Aduv qasdig‘a sher yanglig‘ daler.

Kejim borchag‘a sheru babru palang,
Jiba uzra xafton dog‘i ushbu rang.

Bo‘lub har bir, andoqki, g‘urranda abr,
Degil tutti olam yuzin sheru babr.

Turub qalb aro shohi farruhsarir,
Nechukkim hizabre, vale shergir.

Boshi ustida sherpaykar alam,
Yesib anga nusrat yeli dam-badam.

Bu yanglig‘ sipah birla doroi Rum,
Sipohin yasab, o‘ylakim naxli mum.

Yurub xasm xaylining o‘trusig‘a,
Munung ul ham andoqki qarshusig‘a.

Chekib ko‘s uni iki yondin g‘irev,
Aningdekki, mast o‘lsa yuz narra dev.

Falak turki gardunni iki chopib,
Aning har birisiga bir yuz yopib.

Aduv shaynini kimsa qilmay qiyos
Ki, nokor o‘lub g‘ulg‘ulidin havos.

Nafir, o‘ylakim ajdari tezdam,
Taharruk solib bo‘ynig‘a iki xam.

Og‘iz ochmog‘i elni tutmoq uchun,
Va yo xasm xaylini yutmoq uchun.

Yana karranoyu kovurgo uni,
Qilib oshkoro qiyomat kuni.

Alamlarki yeldin bo‘lub jilvagar,
Fulklar nabardidin aytib xabar.

Havoni aningdek tutub tiyra gard
Ki, bo‘lmay ayon ko‘zga dashti nabard.

Ko‘p elkim qilib gird qilmog‘in vird,
Kurra shakli yerning bo‘lub nimgird.

Sipah na’lidin yonchilib yorimi,
Bo‘lub gard yanglig‘ falak ozimi.

Bu daryoyi gard ichra tushgan kishi,
Nafas qaytarurdin su yutmoq ishi.

Qolin tig‘ ul gardi hayjo aro,
O‘kush mo‘r oqib loyi daryo aro.

Dema gardkim, erdi mushkin sahob,
Yeru ko‘k arosig‘a tortib niqob.

Choqib barq o‘ti ohalar ishnari,
Chekib ra’d uni boralar kishnari[15].

Tutub qo‘lg‘a jabborlar tig‘i tez,
Falak tortqondek sinoni sitez.

Bu yanglig‘ iki olami qatlu kin
Ki, titrab alardin zamonu zamin.

Yurub bir-biriga yaqin yettilar,
Ayog‘ tog‘dek yerga berkittilar.

Suron soldilar avval ul nav’ tez
Ki, olamg‘a tushti ajab rustaxez.

Demasmenki, qo‘zg‘oldi olam eli
Ki, bulg‘ashti bu sabz toram eli.

Qo‘yar erdi hamlin falak bevasi,
Satarvanlig‘ ar bo‘lmasa shevasi[16].

Chu bir lahza topti sukun ul xuro‘sh,
Ulus og‘zi g‘avg‘odin o‘ldi xamo‘sh.

Nasimi vag‘o bir sori surdi gard,
Ko‘rundi xaloyiqqa dashti nabard.

Hamul har tarafdin bir anbuh saf,
Ne anbuhkim, ko‘h to ko‘h saf.

Qililg‘on kibi lavn-lavnin bayon,
Tamosho qilur elga bo‘ldi ayon.

Aningdekki tushgay choqindin duraxsh,
Skandar safidin birov surdi raxsh.

Tarid aylayu kirdi maydon aro.
Hunarlar ayon qildi javlon aro.

Solib bodpoyig‘a bargustvon,
Namudor aro, o‘ylakim arg‘uvon.

Kiyib javshan ustiga chiniy harir,
Kelib suv uza sabzadek dilpazir.

Sinon o‘ng qo‘linda nechukkim sutun,
So‘l egnida qalqon kelib la’lgun.

O‘tog‘a tikib xudida savsani,
Bo‘lub g‘unchadin savsan ochmoq fani.

Bu hay’at bila chobuki jangjo‘y,
Turub o‘rtada boshladi guftugo‘y.

Skandar duosin burun qildi yod
Ki: «Topsun aduvsig‘a komu murod!»

Yana dedi yuz kelturub har sari
Ki: «Derlar meni Boriqi Barbariy[17].

Burun bor edim shoh Dorog‘a qul,
Vale topmadim qullug‘i ichra yo‘l.

Meni, o‘ylakim bor edim bilmadi,
Rioyat, nechukkim kerak, qilmadi.

Topib mendin o‘ksuklar andin navo,
Manga ko‘rdi ko‘p benavolig‘ ravo.

Chu holim dedim, shohi oliysifot,
Javobimg‘a ham qilmadi iltifot.

Ijozat so‘zin arz qilg‘och turub,
Tayog‘latti qahr aylabon bosturub.

Chu Doro qilib muncha zulmu shikast,
Meni qildi baxtim Skandarparast.

Chu dargohig‘a yettim istab panoh,
Manga oncha lutfu karam qildi shoh.

Kim ul tarbiyatdin sarafkandamen,
Ish etmay olib muzd, sharmandamen.

Bukunkim, qilibmen bu maydong‘a azm,
Iki ish uchun aylagum kinu razm:

Bir ulki: shahimg‘a qilib bandaliq,
O‘zumdin qilay raf’i sharmandaliq.

Yana ulki: chun qatl rasmin tuzay,
Ishim shoh Dorog‘a ham ko‘rguzay.

O‘zin ulki harbimg‘a moyil qilur,
Manga iki maqsud hosil qilur:

Alarg‘aki shohi xirad rahnamun,
Inoyat qilib erdi mendin fuzun.

Bo‘lurkim payopay ravon aylagay,
Yako-yak borin imtihon aylagay».

Chu Boriq tugatti kalomin tamom,
Alardinkim ul aylamish erdi kom.

Ravon bo‘ldi maydong‘a qotilvashe,
Tutundek g‘aliz, o‘t kibi sarkashe.

Oti na’lidin toki xudida mil,
Kirib ko‘k temur ichra andoqki nil.

Oti na’lidinkim sharar ayrilib,
Balo abridin marg o‘ti choqilib.

Falaksayri oshubi payvast ila,
Solib yel dimog‘ig‘a farrast ila.

Hamoyildag‘i tig‘i bejodadek,
Qo‘l ichra sinoni kelib xodadek.

Ani razm eli sheri darron, debon,
Otin anjuman ahli Harron[18] debon.

Chu maydon tariqin ado ayladi,
Turub xusravig‘a duo ayladi.

Tugatgach duo, chopti Boriqqa tez,
Anga dog‘i Boriq bo‘lub barqxez.

Biri-birga maydonda chirmoshtilar,
Base bir-biridin qolib, oshtilar.

Uch uz oltmish olti la’bu girih,
O‘tubkim sinon uchi ko‘rmay zirih.

Ham oxir chu Boriq edi ishta chust,
Sinon birla markabdin oni durust

Yiroq soldi andoqki, charxi barin,
Sinonu qo‘lig‘a dedi: «Ofarin!»

Tushub, bo‘ynig‘a bog‘labon polahang,
Shah ollig‘a yetkurdi qilmay darang.

Skandarga farxunda bo‘ldi bu fol
Ki, nusrat anga avval ochti jamol.

Yana sherpaykar yali xasmband,
Yer o‘ptiyu maydong‘a surdi samand.

Tilar erdi hayjo qilurg‘a tane
Ki, razmig‘a ot surdi pilafkane.

Dalereki to razm varzish qilib,
Aduvsig‘a yuz ma’raka ish qilib.

Temur ichra boshtin-ayog‘i nihon,
Nechukkim o‘zi, oti dog‘i nihon.

Laqab Shayda[19] birla anga fosh o‘lub,
Nasab birla Harrong‘a qardosh o‘lub.

Yo‘lin to‘sti Boriqning oshuftavash,
Anga surdi Boriq dog‘i kinakash.

Yana qo‘ydilar sa’yu ko‘shishga yuz,
Sinonlarni aylab biri-birga tuz.

Chu yor o‘ldi iqboli Iskandariy,
Yana topti fursat yali Barbariy.

Ani ham qilib nayza birla nigun,
Chekib shohi ollig‘a xoru zabun.

Skandar falakdin topib komu bahr,
Falakka qilib ta’n Doroyi dahr.

Chopib Barbariy bo‘ldi maydonnavard,
Muboriz tilar erdi istab nabard.

Yana garmkine solib yuzga chin,
Chopib Barbariy qasdig‘a garmkin.

Yetishmak hamonu yetishgan zamon,
Dilovar qo‘lidin yiqilmoq hamon.

Bu yanglig‘ to‘quz pahlavoni daler
Ki, har bir edi ish chog‘i narra sher,

Bori Barbariyg‘a asir o‘ldilar,
Sinon zaxmidin dastgir o‘ldilar.

Yana harbig‘a kimsa mayl etmadi,
Vale Boriq o‘z o‘rnidin ketmadi.

Muboriz tilab bor edi na’razan,
Zamirig‘a a’doning otashfikan.

G‘azab soldi Dorog‘a ko‘p iztirob:
«Anga kimsa chiqsun!» deb etti shitob.

Ham oxir birov surdi maydong‘a ot,
Aduvg‘a surub soldi javlong‘a ot.

Ham ul pilzo‘r erdi, ham piltan,
Takovar anga, o‘ylakim karkadan.

Palangina bargustvon otig‘a,
Kiyib babr to‘n xalq ofotig‘a.

Qizil xo‘ddin boshida nimtarg
Ki, vahmidin o‘lub o‘lum holi marg.

Hamul xo‘d davrig‘a chirmab qaro,
Kishi ko‘rmamish lolani dog‘ aro.

Yuzi ulcha mumkindur ahmar aning,
Mahosin yuzi uzra asfar aning.

Yuzi rangi xurmo masallik kasif,
Mahosin namudori xurmog‘a lif.

Iki ko‘z anga ikki olmosdek,
Vale davrasi qon to‘la tosdek.

Vatangohi aqsoyi Mag‘rib zamin,
Yeli ermish ul yerda vodiynishin

Ki, bu yanglig‘ ermish alar hay’ati,
Qo‘shun elcha har qaysining shavkati.

Ne xusravki, ul bo‘lsa olamga shoh,
Chekar bo‘lsa bir xasmi sori sipoh.

Kelur ermish ul qavmdin bir kishi,
Ki sa’b o‘lsa a’dodin ul shoh ishi.

Qilur ermish ul shaxs maydong‘a azm,
Namudor etar ermish oyini razm.

Chu bo‘ldi adusi giriftor anga,
Bo‘lur ermish uy sori raftor anga.

Kishi turg‘uza olmas ermish ani,
Anga tegrukim manzilu maskani.

Giriftorini dog‘i eltur emish,
Buyurur emish har nechuk topsa ish.

Chu Boriqdin el erdi hayratqa g‘arq,
Ul ohangi kin etti andoqki barq.

Ikov bo‘ldi maydonda parxoshjo‘y,
Choparlar edi chirmashib so‘-baso‘y.

Gahi bu qochib, ul keyindin surub,
Ki, maydon boshig‘a degin yetkurub.

Bu qaytib aning goh podoshig‘a,
Qovub toki maydonning ul boshig‘a.

Gahi sovurub gard, etib tobu pech
Ki, qilmay quyundin kishi farq hech.

Chu asrab o‘zin Boriqi kinparast,
Anga Mag‘ribiy topmayin hech dast.

Vale bo‘ldi Boriq ishi nursiz
Ki, ko‘shish qilib erdi maqdursiz.

O‘zidek to‘quz kimsa olmish edi,
Bu kirgan zamon ilgi tolmish edi.

Chu ahvolida bo‘ldi za’f oshkor
Belidin tutub gurdi mardumshikor.

Qo‘nqordiyu o‘ng ilgiga qildi rust,
So‘l ilgi bila markabin tutti chust.

Chu topib mahal, saydini sirmadi,
Yonib o‘z sipohiga ham kirmadi.

Ravon bo‘ldi Mag‘rib sori azm etib,
G‘animni olib, rahnavardin yitib.

Anga aylabon hayrat ahli jahon,
Anga tegrukim, bo‘ldi ko‘zdin nihon.

Ko‘rub Mag‘ribiydin bu beboklik,
Skandarga yuzlandi g‘amnoklik.

Yana Barbariy holig‘a g‘am yebon,
«Aning holi ne bo‘ldi erking‘» – debon.

Bo‘lub shodkim, bordi sahro sari,
Yonib qilmadi azm Doro sari.

Vale shoh Doro, base shod o‘lub,
Buzug‘ ko‘ngli ul ishdin obod o‘lub.

Bukim Barbariyning bo‘lub g‘olibi,
Aning sori kelturmadi Mag‘ribiy.

Necha shodmonliqqa mone’ edi,
Vale xasm daf’ig‘a qone’ edi.

Chu xurshid dorosi etti kamin,
Kamingoh anga bo‘ldi Mag‘rib zamin.

Qilib jilva oy mehri xovar kibi,
Ulusni yorutti Skandar kibi.

Yonib razmgahdin ul iki sipoh,
Tushub berk tuttilar oromgoh.

Tutub xandaq iki sipah davrini,
Qanot, o‘ylakim borgah davrini.

Taloya yana chiqti har soridin,
Yazak tinmadi hifz izhoridin.

Qilib borgoh ichra Doro maqom,
Zarurat yuzidin tilab rudu jom.

Vale qon yutub shisha yanglig‘ nihon
Ki, tongla ne ish zohir etgay jahong‘

Skandar dog‘i o‘zga oyin topib,
Bir Iskandar onida taskin topib.

Topib o‘ng yonida kamol ahli yer,
Tutub so‘l qo‘lida qitol ahli yer.

Taammul bila har xiradpeshae,
Qilib fath bobida andeshae.

Tahavvur bila har jahonpahlavon,
Tilab nusrat onchaki tobu tavon.

Chu o‘tti kecha xaylidin iki pos,
Biror elda jur’at, birorda haros.

Tilab xilvate shohi yazdonparast,
Tazarru’ qila bo‘ldi tufroqqa past.

Zafar istamakdin chu topti farog‘,
Sahar najmi yorutmish erdi charog‘.

Yana tushti oshub iki taraf,
Iki xayl har yon tuzatmakka saf.

Yana ko‘szan tushti junbush aro,
Yana ko‘s tushti g‘urunbush aro.

Hamul nayzavarlarg‘a tushti shitob,
Hamul nayzalar jismig‘a pechu tob.

Hamul tig‘zanlarg‘a bo‘ldi masof,
Hamul tig‘lar bo‘ldi pahlushikof.

Hamul bo‘ldi kin benadomat yana,
Hamul qoyim o‘ldi qiyomat yana.

Skandar qilib xilvat ichra niyoz
Ki, qilg‘ay aning chorasin chorasoz.

Chiqar vaqtida qoside yetti chust,
Nihoni tutub nomae og‘zi rust.

Anga yetkurub noma xilvat aro,
Dedikim: «O‘qub anglag‘il mojaro».

Skandar ochib, qildi nazzorasi,
Haq aylab edi dardining chorasi.

Hamonoki Dorog‘a iki kishi,
Bor ermish nayobat alarning ishi.

Vale zulmidin jonlaridin to‘yub,
Ikisi ko‘ngul o‘lmakiga qo‘yub.

Berib biym Doroki topqach zafar,
Ul ikiga go‘r og‘zin etgay maqar.

Ul iki kishi ham yaroq aylabon,
Aning qatlig‘a ittifoq aylabon

Ki: «Chun bizga ul qilg‘usi big‘i qatl,
Anga biz burunroq chekib tig‘i qatl,

Yiqoli daraxtini bunyodidin,
Qutulsun ulus zulmu bedodidin.

Necha zulmidin jonimiz qolmag‘ay,
Bu nav’ o‘lsak armonimiz qolmag‘ay».

Skandarga yozg‘on emishlar bitik,
Birovni yuborgan emishlar itik.

Qilib nomada sabt bu so‘zlarin,
Anga bog‘lag‘onlar emish o‘zlarin.

O‘qudi Skandar chu ul nomani,
Ne nav’ erkanin bildi hangomani.

Va lekin gumon qildi makru firib,
Dam urmay o‘z-o‘ziga berdi shikib.

Dedikim: «Munga hech yanglig‘ javob,
Demakda emas erdi royi savob

Ki, yolg‘on esa demagan yaxshiroq,
Chin ersa bu bor anda yetmak yiroq».

Tavakkal qilib rokib o‘ldi ravon,
Aduv kiniga rog‘ib o‘ldi ravon.

Tuzaldi yana iki yondin yasol,
Yana oshkor o‘ldi rasmi jidol.

Burunroqki maydong‘a kirgay birov,
Iki qotil etgan kibi so‘z garov,

Yetib shoh Doro iki yonidin,
Qilich la’lgun qildilar qonidin.

Biri sug‘lubon gurdagohig‘a tig‘,
To‘kub yerga qonin aning bedarig‘.

Yana bir dog‘i tig‘ urub boshig‘a,
Qilib zulm aning zulmi podoshig‘a.

Yebon zaxm ul nav’ doroi taxt,
Yiqildi aningdekki oliy daraxt.

Tushub yer uza shohi Bahmannajod,
O‘chub mash’ali dudai Kayqubod.

Qazodin bu nav’ ish chu paydo bo‘lub,
Boshi uzra eldin alolo bo‘lub.

Sipohida paydo bo‘lub qo‘zg‘alish,
Sipah qo‘zg‘alur, shahg‘a chun tushti ish.

Skandar tariqi kiyosat bila,
Qilib fahm ul ishni farosat bila.

Taanni bila azm etib ul taraf
Ki, bo‘lmay parishon sipohig‘a saf.

Yetishti chu ul xaylning qoshig‘a
Ki, jam’ erdilar shohning boshig‘a.

Skandar yetishgach qo‘yub yerga bosh,
Anga qildilar shoh holini fosh.

Skandar tushub keldi Doro sari,
Ishi tushti rifqu madoro sari.

Ko‘rarkim, yotur jismi qon ichra g‘arq,
Topilmay aning birla qon ichra farq.

Boshi uzra o‘lturdi giryon bo‘lub,
Aning holig‘a ko‘ngli vayron bo‘lub.

Olib qo‘ydi o‘z qo‘ynig‘a boshini,
Uzorig‘a har yon to‘kub yoshini.

Chu behush uza septi andoq gulob,
Ochildi anga nargisi nimxob.

Boshi uzra kim erkanin qildi fahm,
Takallumga til ochti bebiymu vahm.

Dedi: «Marhabo, ey shahi navjavon,
Jahon uzra ham shohu ham pahlavon.

Atodin o‘g‘ul bo‘lmag‘on sen kibi,
Aduv uzrini qo‘lmag‘on sen kibi.

Nechakim xilofingda qildim g‘ulu,
Vale ko‘p qilur erdim ul orzu

Ki, sendek kishikim jahon fardisen,
Salotinda Doro hamovardisen.

Xaloyiqqa yo‘q hech ishing nisbati,
Jahon ichra sen Tengrining qudrati.

Zamone ko‘zum tushsa ruxsoringa,
Qulog‘ mustami’ bo‘lsa guftoringa.

Manga berdi xud Hayyi Dono murod,
Ajal aylagan chog‘ vale nomurod.

Yetishti nekim qildi Doro umid,
Vale o‘zdin o‘lg‘on zamon noumid.

Bo‘lubsen ajab vaqt mehmon manga
Ki, yo‘qtur nisoring bajuz jon manga.

Bu soat netib mezbonliq qilay,
Qabul aylasang jonfishonliq qilay!

Yengildim, netib bo‘lg‘amen mizbon
Ki, xud bir nafas men sanga mehmon!

Bu soatki boshimg‘a qo‘ydung qadam,
Ne erkin xayoling, degil oni ham.

Agar yorlig‘dur shioring sening,
Iki dahr aro Tengri yoring sening.

Va gar qatl uchun kelmishang qoshima,
Kesay deb qadam qo‘ymishang boshima.

Muruvvat qilib kesmagil bir zamon,
Iki-uch so‘z ayturcha bergil amon!»

Skandar qilib ul takallumni go‘sh,
Chekib motamiylar masallik xuro‘sh.

Yaqo yirtibon, tojini toshlabon,
Dedi zor yig‘lay bu so‘z boshlabon

Ki: «Bo‘lsun tirik yeti kishvar shahi,
Jahon bo‘lmasun bir dam andin tihi.

Anga men kamina parastandamen,
Parastandalig‘ ichra sharmandamen.

O‘zumga kerak qullug‘in chog‘labon,
Aning borgohida bel bog‘labon,

Aduvdin mubarro qilib ma’manin,
Jahondin chiqorsam edi dushmanin.

Tilim bormas ayturg‘a bu so‘zki, shoh
Xiroj istab o‘ldi manga kinaxoh.

Ko‘rub shahni bu nav’ beiltifot,
Yuzumga mening keldi muncha uyot.

Sipah chektimu zohir ettim xilof,
Ayon ayladim o‘trusida masof.

Va lekin bu ishdin xabardor emon,
Qilur el bila sohibasror emon.

Manga yetti bir noma ham bu zamon,
O‘qub tashladim bo‘yla qilmay gumon.

Keturganga garchi sazo bermadim,
Va lekin bu ishga rizo bermadim.

Bu damkim ayon bo‘ldi bu mojaro,
Yoruq olam o‘lmish ko‘zumga qaro.

Jahondorkim Haq aning yovari,
Kerak bo‘lsa albatta bu bovari

Ki, rozidur Iskandar o‘lmakka bot,
Bo‘lub shahg‘a ming yil zamoni hayot.

Bukim shah dedi: «Bor iki-uch so‘zum»,
Aning yo‘lida muntazirdur ko‘zum.

Meni ul murodingg‘a hamroz qil,
Buyurmog‘i birla sarafroz qil».

Chu topti Skandardin ul nav’ bahr,
Duolar qilib, dedi doroyi dahr

Kim: «Ul uch so‘zum — uch vasiyatdurur
Ki, izhori ko‘nglumga niyatdurur.

Birisi bukim, ul iki kinaxoh
Ki, qatlimg‘a qo‘l sundilar begunoh,

Alar qatlin oyini dod etgasen,
Bu ish birla ruhumni shod etgasen.

Yo‘q andin manga garchi daf’i gazand,
Va lekin sanga bordurur sudmand.

Yana qavmu xaylimg‘a qilma inod
Ki, derlar alarni Kayoniynajod.

Bilurmen alarda yo‘q andoq kishi
Ki, kelgay qo‘lidin adovat ishi.

Karam aylasang, borcha xaylingdurur,
Qilurlar ne xizmatki maylingdurur.

Habo aylama xonadoni qadim
Ki, yo‘qtur alardin sanga hech bim.

Yana Ravshanakkim,[20] qizimdur mening,
Bukundin nari mensizimdur mening.

Kayoniy salotin nishoni anga,
Barozanda toji Kayoniy anga.

Kelib saltanat bahridin durri pok,
Sharaf avjidin axtari tobnok.

Bisotingni ul sham’ birla yorut,
Aning shug‘lidin xotiringni ovut.

Kivur mehr birla shabistoninga,
Qilib aqd, o‘lturt ani yoninga.

Yerur ul buzug‘ mazraim xo‘shasi
Manga pora bo‘lg‘on jigargo‘shasi.

Harimimda sen dog‘i farzand bo‘l,
Hamul xasta bag‘rimg‘a payvand bo‘l.

Kim ul dog‘i sendin topib to‘shae,
Sanga hosil etsa jigargo‘shae.

Atodin Skandarnihod o‘lg‘ay ul,
Anodin Kayoniynajod o‘lg‘ay ul

Ki, chun bel adolatqa chust aylagay,
Ikimizga nisbat durust aylagay.

Qabul aylab, et xasta ko‘nglumni shod
Ki, emdi qilur vaqt erur xayrbod!»

Skandar to‘kub ashku tortib nafir,
Dedi: «K-ey shahanshohi gardunsarir!

Itoat yo‘linda nuzul ayladim,
Nekim hukm qilding, qabul ayladim.

Umid ulki tavfiq bergay Iloh
Ki, ruhungg‘a qilg‘ay meni uzrxoh!»

Yeshitgan chu mundoq qabul etti so‘z,
Degon chun eshitti bu so‘z, yumdi ko‘z.

Ajal shomi tong yo‘q agar bo‘lsa fosh
Ki, Bahman kuniga uyoqti quyosh.

Adam bo‘ldi qonuni Luhrosbiy,
Nigun bo‘ldi oyini Gushtosbiy.

Bo‘lub tiyra Kayxusrav oyin charog‘,
Siyovush o‘ti bag‘rig‘a qo‘ydi dog‘.

Unut bo‘ldi Kovus yodi dog‘i,
Bal ovozai Kayqubodi dog‘i.

Manuchehr ruhig‘a tushti jaza’,
Faridun ravonig‘a yetti faza’.

Chu Doroni dahr etti jondin sutuh,
Skandar jahondori Doroshukuh.

Solib mahdi shohona ichra tanin,
Kayoniy mahofa qilib maskanin.

Judo ayladi razm maydonidin,
Arig‘ aylab ul gard ila qonidin.

Topib ravzason dashti miynusirisht,
Olib sabzasidin nasimi bihisht.

Tushurtub hamul sabza uzra si poh,
Falak sabzasidin o‘tub borgoh.

Hamul borgoh ichra tushgan zamon,
Qilib qatldin elga hukmi amon.

Ketur soqiy, ul mayki, jone topay,
G‘am ichra o‘lardin amone topay!

Ki, gar davr og‘u berdi Dorog‘a bot,
Skandarga ham bermas obi hayot[21].

Mug‘anniy, bugun nag‘mai chang tuz,
Vale navha soz aylab ohang tuz

Ki, dardimg‘a tortib fig‘on yig‘layin,
Dame o‘ylakim shisha qon yig‘layin!

Navoiy, jahong‘a vafo yo‘qturur,
Aning da’bu rasmi jafo-o‘qdurur.

Vafo aylab oning vafosin unut,
Navo istasang, benavolig‘ni tut!

XXVIII

Zobitai rusumi shohiydakim, korxonai Ilohiydin namudordurur, aningdekki, ul borgohda xoh maloik xayli, xoh rusul ma’shari, xoh avliyo guruhi, xoh soyiri nos jamoati aloqadri marotibihim har biri o‘z yerida murattabdur, bu korgohda ham hamul dastur bila bo‘lsa yaxshiroq surat, balki zaruratdurur

Kerak qilsa, ulkim tilar shohliq,
Sipah borcha holidin ogohliq.

Yaqin bilsa tuzganda piroyasin,
Rioyat chog‘i har kishi poyasin.[1]

Uluqqa uluqcha ato aylasa –
Kichikka kichikcha saxo aylasa.

Kim etsa vasatliq yo‘linda zuhur,
Anga tuzsa oyini «xayril-umur».[2]

Ne tutsa ulug‘ni qoshida kichik,
Ne qilsa kichikni ulug‘ chargalik.

Bu qonun bila bo‘lsa oyin anga,
Topib kishvaru mulk tazyin anga.

Ishida ko‘rub farrux anjomini,
Olur saltanat amridin komini.

Ne shahkim, anga mundoq ermas tuzuk,
Tuzukluk nechuk kelgay andin, nechuk.

Aningdekki tifl istabon inbisot,
Chu shatranj o‘ynarg‘a yoysa bisot.

Ne o‘ynorini bilsa, ne termagin,
Ne olmog‘ini bilsa, ne bermagin.

Olib qo‘ysa baydaqni shah yonida,
Yana pil qo‘ysa rux ayvonida.

Bu oyin bila bersa har birga yer,
O‘zung de, xirad ahli oni ne derg‘

Bu o‘yuni aning nechakim cheksa kech,
Yerur hech, balkim emas dog‘i hech.

Yerur it safolig‘a qo‘ymoq samon
Hamonu, so‘ngak otqa solmoq hamon.

Bo‘riga kishi tu’ma qilsa qo‘zi,
O‘ziga balo hosil aylar o‘zi.

Qorindin desa sher topsun navo,
Bu ishni dog‘i aql ko‘rmas ravo.

Kim istar qorin birla arslonni to‘q,
Yorar topsa fursat aning qornin-o‘q.

Munosib emas toz boshig‘a toj,
Tumog‘a nutuqchig‘a ne ehtiyoj.

Ne sung‘urg‘akim tezparvozdur,
Murassa’ tumog‘a hanuz ozdur.

Yeshak ollida za’faron xo‘b emas
Ki, nodong‘a zarbaft marg‘ub emas.

Yilonni kishi tutsa sarko‘fta,
Balodin qilur o‘z yo‘lin ro‘fta.

Va gar bersa o‘z jaybi ichra mahal,
O‘zi qatlig‘adur tanobi ajal.

Yilon jayb aro solmoq etma havas
Kim, oxir yilondur bu, tasbih emas.

Yeshik it yeridur, gar olsun bo‘ri,
Mushukka maqom o‘ldi uyning to‘ri.

Gar ul dasht saydini aylar figor,
Va lekin bu uy saydin aylar shikor.

Ne imkonki sa’y aylamaktin kishi,
Alar aylagay bir-birining ishi.

Anga o‘z yerida keraktur hurish,
Munga dog‘i o‘z o‘rnida parvarish.

Kishi yaxshi boqsa zarurat chog‘i,
Keraklikdurur bu dog‘i, ul dog‘i.

Yana bir dog‘i turfa suratdurur
Ki, shah bilmak oni zaruratdurur.

Bukim, tutsa har kimsa tavrini pos,
Farosat bila bo‘lsa javharshunos.

Ko‘rub la’l, axgar gumon qilmasa,
Ham axgarni gavhar gumon qilmasa.

Judo qilsa xarmuhra feruzadin,
Butun chini o‘lsa sinuq ko‘zadin[3].

Yerur lek bu ishta dushvorliq
Ki, bor dahr eli bir namudorliq.

Ko‘runur bori odami odami,
Mushobih nechukkim sipehr anjumi.

Bu birga nuhusat irodatdurur,
Yana birga nuri saodatdurur.

Kishi bo‘lsa ham, filmasal, tav’amon.
Bo‘la olur ul yaxshiyu bu yamon.

Kitobatda birdekdur alfu alif,
Hisob ichradurlar base muxtalif[4].

Biyobonda o‘lub qurug‘on kashaf,
Yerur hay’at ichra nechukkim sadaf.

Erur lek bu birda durri yatim,
Yana birda bir necha azmi ramim5.

Erur naxldek sham’u muz shushasi,
Munung o‘t, aning suvdurur xo‘shasi.

Ushoq qand un-tuzga monand erur,
Va lekin biri tuz, biri qand erur.

Humo dog‘i bor, o‘ylakim karkase,
Vale bor aroda tafovut base.

Vale shahg‘a nuri farosat kerak,
Shunosolig‘ ichra kiyosat kerak

Ki, kimsondin oltunni farq aylagay,
Qizil tobadin kunni farq aylagay.

Va gar bu basiratdin o‘lsa yiroq,
O‘kush imtihon qilg‘oni yaxshiroq.

Va gar ilgiga tushti donishvar el,
Funun ichra oroyishi kishvar el.

Keraktur alar birla nav’i maosh
Ki, xotirlari topmag‘ay ko‘p xarosh.

Yo‘q ulkim karam ko‘rgayu bas kirom,
Kerak rozi andin xavosu avom.

Agar shohdin xalqi xursand emas,
Aduv qasdi qilsa xiradmand emas.

Ne dushmang‘adur tig‘ chekmak fani
Kim, o‘z xaylidur sarbasar dushmani.

Zafar, o‘yla shahdin kanor aylagay
Ki, xaylini dushmang‘a yor aylagay.

Agar yillar eldin madoro bo‘lur,
Zarurat chog‘i oshkoro bo‘lur.

XXIX

Sulton Abu Said Ko‘ragon navvara marqadahu hikoyatikim, royi uqdakushoyi bila ko‘p mamlakat oldi va tig‘i umrfarsoyi bila ko‘p elga oshub soldi va lekin sipohi rozi emas erkandin ish vaqti borcha qo‘zg‘oldi va o‘zi a’do aro mahlakaga qoldi, balki xasm ul sarafrozning tig‘i kin bila bo‘ynin choldi

Shahekim1 ishi xurdadonlig‘ edi,
Laqab otig‘a Ko‘ragonlig‘ edi.

Xuroson bila Movarounnahr aning,
Bulardin dog‘i boshqa ko‘p shahr aning.

Olib mulki Xorazmu Kirmong‘acha,
Yana Koshg‘ardin Sipohong‘acha.

Bo‘lub Zobulsitonu Kobulsiton,
Bahori murootidin gulsiton.

Olib dahr aro beadad mulku shahr,

Bo‘lub saltanat ichra doroi dahr.

Solib donishu puxta tadbirlik,
Boshig‘a havoi jahongirlik.

Karonsiz sipohig‘a berdi hujum,
Yurub qilg‘ali fath Tabrizu Rum.

Hunar ko‘p berib olimul-g‘ayb anga,
Vale bor edi bir ajab ayb anga

Ki, maxzan yig‘org‘a solib maylini,
Tutar erdi tanqis ila xaylini.

Ul andeshadin ko‘ngli xursand edi,
Sipah shohdin norizomand edi.

Chu chekti sipah ul navohiyg‘a shoh,
Navohiy shahi dog‘i yig‘di sipoh.

Mamolikka yuzlanmasun deb xalal,
Chiqib o‘tru izhor qildi jadal.

Qotig‘lashtilar ishda haddin fuzun,
Adovatning ayyomi chekti uzun.

Chu shahdin sipoh erdi ozorliq
Zamoneki yuzlandi dushvorliq.

Buzub har taraftin sipah shohni,
Anga aylabon chiyra badxohni.

Yo‘q ulkim qochib, shahg‘a bedod etib
Ki, borib aduvsig‘a imdod etib.

Aningdekki doroi gardunsarir
Aduv ilgiga bo‘ldi zoru asir.

Falak chunki bemehrlik qildi fosh,
g‘urub etti ul nav’ ravshan quyosh.

Aodisi qasd aylabon jonig‘a,
Qilich la’lgun qildilar qonig‘a.

Ne shahdinki atboi xushnud emas,
Pushaymonlig‘i ish chog‘i sud emas.

Sipahdin judo shoh erur bir kishi,

Ne bo‘lg‘usidur bir kishining ishi.

Qurur chun gulsitondin ayrildi gul,
Ki bir luqma etdur badansiz ko‘ngul.

Aningdekki xushdur sipah birla shoh,
Ham andoqdurur shoh birla sipoh.

Shahu xayl ma’shuqu oshiq kerak,
Ne ishkim qilurlar muvofiq kerak.

Jahon olmoq oson sarukor emas:
Vale ittifoq o‘lsa dushvor emas.

XXX

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, sohibroy taaqqul bila ish bikri yuzidin niqob ochqondin so‘ngra nega visolidin kom topmas va aning javobi

Yana qatla doroi gardunshukuh,
Dedi: «Key hakimi Filotunshukuh»![1]

Kishida ne fe’leki mavjud erur
Ki, andin ziyonbud yo sud erur.

Chu fe’lig‘a boqsa taaqqul bila,
Natijasin anglar taammul bila.

Bilurkim tama’ aylar elni zalil,
Qanoatqa izzu sharafdur dalil.

Erur shoh ishiga dog‘i bu qiyos
Ki, chun bo‘ldi behbudig‘a rahshunos

Ki, maqsad topar el rizosi bila,
Turar ko‘p xaloyiq duosi bila.

Tilar voqian ishda o‘z sudini,
Qilur orzu komu behbudini.

Nedin bas qilib tarki royi savob,
Qilur noxush af’olni irtikob

Ki, andin yetib shavkatig‘a shikast,
Bo‘lur zerdastig‘a ul zerdastg‘»

Dedi kordon fikrin aylab amiq
«Ki, bu so‘z aro nuktaedur daqiq.

Kishikim bilik bahrig‘a topti g‘avr,
Bu so‘zning javobin dedi necha tavr:

Bir ulkim, kishi aqlin etsa hakam,
Salohu fasodin topar beshu kam.

Salohin aning tab’i aylar pisand,
Bilur qilsa bo‘lg‘usidur sudmand.

Vale qilmog‘i nafsig‘a shoq erur,
Suhulat sari nafs mushtoq erur[2].

Qachon nafs o‘z komin etti havo,
Qilur elni ko‘p naf’din benavo.

Yana kimsa har ishga majbul erur,
Jibilliy xisolig‘a mashg‘ul erur[3].

Topib ish salohin yomondur demas,
Anga lek bittab’ marg‘ub emas.

Tilar qilmog‘ig‘a o‘zin baxtiyor,
Yerur lek qilmasda beixtiyor.

Yana bir qilib fikri axtarparast,
Kavokibga qildi ani borbast

Ki, gar yor erur axtari tole’i,
Qilur, o‘yla ishkim erur nofe’i.

Kitobatki shug‘ledurur bas nafis,
Birov istasa o‘zni mushafnavis.

Agar tole’ida yuz iqbol erur,
Atorid vale anda badhol erur.

Kitobatqa sa’y etsa to joni bor,
Qalamzan bo‘lurning ne imkoni borg‘

Bu uch so‘zga bu nav’ bo‘ldi nasaq,
Vale ulcha derlar budur ahli Haq

Ki, gar ahli masjid erur, gar kunisht,
Nekim topti qismat kuni sarnavisht,

Necha aylasa fikru tadbir anga,
Yo‘q imkoni qilmoqqa tag‘yir anga.

Qayu roykim topti oni savob,
Bo‘la olmadi shug‘lig‘a komyob.

Jihat budur, ulkim tilar vajhi rost
Ki, yo‘q ermish ul ishda Tengriga xost,

Gar ish fikrini topti tadbir ila,
Bu tadbiri tuz keldi taqdir ila.

Ham ermas aning royu tadbiridin
Ki, ul ham erur Tengri taqdiridin.

Hamul xaylkim ahli tahqiq erur,
Bu ish ul el ollinda tavfiq erur.

Muvaffiq bukun sensen, ey pokzod
Ki, har kun bu tavfiqing o‘lsun ziyod!»

Hakim o‘ldi bu nav’ chun nuktasanj,
Nasib o‘ldi ul nuktadin shahg‘a ganj.

Xamush o‘ldi jonini ravshan qilib,
Bu so‘z birla ko‘nglini maxzan qilib.

XXXI

Iskandarning Doro mamolikiga mulkron bo‘lub, kunuz va xazoinidin mehr va sahobdek zarposh va durafshonliq qilib, sipoh va raiyatni ul ehsonlardin obod etib, olam mamoliki shohlarin tilarga elchilar yiborgoni va alar borcha aning amrig‘a inqiyod qilib, Kashmir shohi nomuvofiq afsun o‘qub, Hind royi bozguna javob berib, Chin xoqoni chin so‘zdin qoshig‘a chin solg‘oni

Raqam aylagan bu zafarnomani,
Ado bo‘yla qildi bu hangomani

Ki, bo‘lg‘och Skandarga mundoq zafar,
Aduvsi dargohig‘a bo‘ldi maqar.

Guruheki Doroparast erdilar,
Aning hukmig‘a zerdast erdilar.

Chu Doro ishi bo‘ldi el ichra fosh,
Aning ollig‘a qo‘ydilar barcha bosh.

Yiroq mulklardin vale kelgan el,
Vatan azmi qildilar andoqki yel:

Salotini Saqlobu Mashriq zamin,
Ne Xorazmu, ne Hindu, ne mulki Chin,

Hamul kunki qochmoqqa mayl ettilar,
Tavaqqufsiz o‘z mulkiga kettilar.

Skandarga chun fath bo‘ldi qarin,
Topib shavkat andoqki sheri g‘arin.

Biyik taxt uzra maqom ayladi,
Vasiyat ishiga qiyom ayladi.

Burun shoh Dorog‘a tutti azo,
Bo‘lur yanglig‘ ul nav’ shahg‘a sazo.

Tutub so‘g e’zozu tamkin bila,
Qilib dafn shohona oyin bila.

Base zor yig‘lab aning holig‘a,
Aning holig‘a yo‘q, o‘z ahvolig‘a

Ki, ish boshig‘a tushti behad ulug‘,
Necha ish ulug‘, ishchisi qayg‘ulug‘.

Topib chunki Doro ishidin farog‘,
Tutub iki qotilni aylab so‘rog‘.

Ko‘mub dor uchun yerga iki sutun,
Ul ikini osturdi andin nigun.

Yana tirborong‘a farmon qilib,
Alarg‘a ulus tirboron qilib

Ki, har kimki g‘adr aylasa shohig‘a,
Jazo budurur baxti gumrohig‘a.

Buyurdi badanlarni kuydurdilar,
Kul ettilaru ko‘kka sovurdilar.

Yana hukm qildiki, doronajod,
Qayonkim kishi bo‘lsa g‘amginu shod.

Bori emin o‘lsunki, lutfi amiym,
Ko‘tardi alar ko‘nglidin vahmu biym.

Ne iqto’ alarg‘aki Doro qilib,
Skandar ham andog‘ madoro qilib.

Yana qildi ta’yin pisandida el,
Bori xayl aro anjumandida el.

Yozib Ravshanak nazdig‘a nomae,
Azodin surub tiyra hangomae.

Bitib sudmand anda har nav’ pand
Ki, ko‘p qilma oshubi nosudmand.

Saodat gulidin barumandliq,
Yerur Tengri hukmig‘a xursandliq.

Jahon bog‘idin gulbun o‘lsa nuhuft,
Taru toza bo‘lsun guli noshukuft.

Sadaf ko‘ksini gar sipehr etti chok,
Sharaf tojin etsun makon durri pok.

Yana andag‘i elga farmon qilib,
Borig‘a mavoid ehson qilib

Kim, aylab ravon sarvi ozodni,
Qayu sarv, huri parizodni

Ketursunlar oning shabistonig‘a,
Quyosh gulruxin charx ayvonig‘a.

Chu Doro vasiyatlarin soz etib,
Jahongirlik shug‘lin og‘oz etib.

Xazoyinki Doro qilib erdi jam’,
Nihonu oshkoro qilib erdi jam’,

Faridun chog‘idin yig‘ilg‘on manol,
Topib shohdin shohg‘a intiqol.

Anga tegrukim Kayqubodi guzin,
Jahon mulkiga bo‘ldi masnadnishin,

Xud andin so‘ng avlodig‘a qoldi mulk,
Chu bordi biri, ul biri oldi mulk.

Qayu birki bo‘ldi jahondin nihon,
Yana birga meros qoldi jahon.

Biriga necha ganju maxzan to‘lub,
Yana birga yetgonda taz’if o‘lub.

Bu fursatqa tegruki Doroyi dahr,
Jahondorlig‘ taxtidin topti bahr.

Ming uch yuz yil o‘n to‘rt olampanoh
Ki, bor erdilar olam ahlig‘a shoh.

Xazoyinki jam’ ettilar behasib,
Haq etti Skandarga borin nasib.

Qiloe’ki Dorog‘a maxzan edi,
Yeshittimki yuz, dog‘i seksan edi.

Bular borcha maxzun javohir bila,
Zari maxfiyu, siymi zohir bila.

Kelib barchadin xozinu kutvol,
O‘pub shoh ayog‘ini davlat misol.

Xazina kalidin bu bir kelturub,
Yana qal’a miftohin ul topshurub.

Alarg‘a shah aylab base justujo‘y,
Qilib maxzanu qal’adin guftugo‘y.

Biriga karam oshkor aylabon,
Yana birni ummidvor aylabon.

Qayu kimsa har qal’adinkim yetib,
Anga-o‘q hamul ishni tafviz etib.

Xazoying‘a hukm etti lekin nuxust,
Ki ahli qalam aylabon bozjust.

Tilab daftar ul shoh devonidin,
Ki maxzan edi jam’, farmonidin.

Topib jam’u xozindin istab hisob,
Agar la’l koniyu gar durri nob.

Qayu qilsa daftar yuzidin qabul,
Anga hukm aylab tariqi vusul.

Yana chiqmag‘onni hisobig‘a rost,
Tashaddud bila qildurub bozxost.

Alar chun bori jam’ini tuz qilib,
Shah ollida arz etgali yuz qilib.

Chu shoh ollida bo‘ldi xotirnishon,
Bu hukm ayladi shohi maxzanfishon

Ki: «Qilsunlar o‘rdug‘a borini naql»
Ki ul naqldin qoldi hayratqa aql.

Ravon bo‘ldilar hukm ila xayl-xayl,
Nechukkim tengiz jonibi tund sel.

Itoat qilib shoh farmonig‘a,
Tashirlar edi shoh devonig‘a.

Iki yilg‘acha, o‘ylakim korvon,
Kelur erdi shah sori ganji ravon.

Hisob asramish erdi ahli qalam
Kim, ermas edi ganjning nisfi ham.

Yana dedi shah, kimsa ta’yin qilib
Ki: «Xozing‘a qolg‘onni taxmin qilib,

Borib aylasunlar eshiklarni rust
Ki, topshurg‘ay etgan zamon bozjust!»

Nekim hukm qildi shahi arjumand,
Hamul nav’ ila bo‘ldilar korband.

Keturgan hisobin qilib ahli fan,
Qiyos ettilar yetti yuz ming tuman.

Dedi shohi Dorofaru Jamshukuh
Ki: «Doro sipohidag‘i har guruh,

Sipahdoru navvobu hojib anga
Ki, devondin ermish mavojib anga.

Muqarrar ne erkonni arz aylasun,
Aning fikrini shahg‘a farz aylasun».

Chu arz o‘ldi nekim muqarrar edi,
Shah ollida asru muhaqqar edi.

Dedilar bu ham bo‘yla voqe’ emish
Ki, har bir necha qatla roje’ emish.

Ulusqa base ranju taklif o‘lub,
Kirar ermish ul qo‘lg‘a tansif o‘lub.

Chu Doro sipohig‘a bildi bu hol,
Dedi lutf etib shohi daryonavol

Ki: «Gar rasm Dorog‘a tansifdur,
Vale bizga ul rasm taz’ifdur[1].

Muzoaf, – dedikim, – bering ganjdin»
Ki, el tindi butkargali ranjdin[2].

Mavojib olur to‘rt yuz ming kishi
Ki, chokarlik erdi alarning ishi,

Olib ganjdin borcha iqto’ini,
Muraffah bu nav’ etti atbo’ini[3].

Yana iki yuz ming mavojibxo‘ri,
Bo‘lub birga iki mavojiblari.

Ulufa berib olti yuz ming sipoh,
Falak avjidin o‘tkarib borgoh.

Mavojib sipahg‘a chu taz’if etib,
Raiyat xirojini tansif etib.

Sipohiysi obodu ham shod o‘lub,
Raoyosi ham shodu obod o‘lub.

Chu to‘kti sipohu raiyatqa ganj,
Angau munga bartaraf bo‘ldi ranj.

Dedikim: «Manga ganj emastur havas,
Sipohu raiyat manga ganj, bas.

Agar ganj erur bahru kondin fuzun,
Va gar xud xizona jahondin fuzun.

Chu naf’e emastur alardin gumon,
Alardur hamon, toshu tufrog‘ hamon.

Agar naf’din bo‘lsa maxzan yiroq,
Aning la’lidin xora ko‘p yaxshiroq

Kim, ul xora bir tosh erur bezarar,
Vale ganjdin elgadur yuz xatar.

Kishiningki benaf’ erur maxzani,
Jahon ahlidur sarbasar dushmani.

Ulus bo‘lsa ma’mur bir ganj erur
Ki, andin jahon fathi beranj erur».

Skandar chu topti bu sarmoyani,
Yel uzra solib lutf ila soyani.

O‘zidin qilib rozi Eron elin,
Jahon ochqali rust qildi belin.

Burun hikmat ahlidin etti guzin,
Necha kimsa borig‘a royi razin.

So‘z ayturda har bir kelib mo‘shikof,
Hamul torlardin bo‘lub hullabof.

Qilib tortqon chog‘da tig‘i zabon
Ki, qilmay tuman tig‘liq marzbon.

Ne so‘zdaki sa’y oshkoro qilib,
Chu xasm o‘ldi obiy madoro qilib.

Uzun tillari charb der nukta chog‘,
Qilichdekki surtulsa yuziga yog‘.

Bori ilmdin bori sohibvuquf,
Kelib har birisi jahonfaylasuf.

Hamul xayldin shohi oliy xirad,
Qilib har birin bir sori nomzad.

Biri mulki Saqlobu Saqsin sori,
Biri Hind sori, biri Chin sori.

Biriga raqam bo‘ldi Baytulharam[4],
Biri topti Kashmir sori raqam.

Ataldi biri Misru, Bag‘dodg‘a,
Yozildi biri mulki Navshodg‘a.

Berib har biri ilgiga nomae,
Tuzub noma zimnida hangomae.

Bori noma mazmuni birdek payom,
Diloro so‘zu xotiroso kalom.

Chu tahrir uchun xoma no‘gin tuzub,
Bitik naqshini bu sifat ko‘rguzub

Ki, bu noma ul Tengri oti bila
Ki, qoyimdur aflok zoti bila.

Qadimeki, yo‘q ibtidosi aning,
Azimeki, yo‘q intihosi aning.

Gadolar zamirining ogohi ul,
Shahanshohlarning shahanshohi ul.

Qayu shahki doroi davron kelib,
Janobida mahkumi farmon kelib.

Bu shahliqdin ani qachon qilsa rad,
Kishiga jihat istamakka ne hadg‘

Gadoeki har dam to‘yub jonidin,
Munga dog‘i ro‘zi aning xonidin.

Shah etsa aningdekki doro ani,
Kishi rad qilurg‘a ne yoro ani.

Ul avloki andin ne bo‘lsa qazo,
Ayon aylagay borcha shahlar rizo.

Chu bu yerga Haq hamdini yetkurub,
Takallum tariqin bu yanglig‘ surub.

Ki: «Mendinki, Iskandar otimdurur,
Yeti kishvar olmoq sifotimdurur.

Sangakim oting keldi Xoqoni Chin,
Yo‘q ersa sipahdori Turon zamin.

Muni bilki, olamda budu nabud
Ki, kavnu fasod ichra tutqay vujud.

Chu mumkin emas kimsa tadbiridin,
Yaqinkim erur Tengri taqdiridin.

Gadolarg‘a gar podsholig‘ berur,
Va gar shohlarg‘a gadolig‘ berur.

Kerak shohlar ko‘rsa behbud ani,
Gadolar dog‘i bilsalar sud ani.

Nekim amridin oshkorodurur,
Ibo qilg‘ali kimga yorodurur.

Chu hukmidin o‘lmas ibo aylamak
Ki, bor ul vujudin habo aylamak.

Aning hukmidin oshkoru nihon,
Manga bo‘ldi ro‘zi sarosar jahon.

Chu ul qildi bu komg‘a baxtiyor,
Manga dog‘i bu ishda yo‘q ixtiyor.

Burun qildi iqbol qismat manga
Ki, yor o‘ldilar aqlu hikmat manga.

Otomkim, edi kishvaroroi Rum,
Chu bordi, manga qoldi ul marzu bum.

Topib ilmu hikmatdin ogohliq,
Tamanno yo‘q erdi manga shohliq.

Ne ishkim nasib etti Fayyozi Jud,
Kishining tamannosig‘a ne vujud.

Chu ollimg‘a yozg‘ondurur bu varaq,
Meni qo‘ymadi ixtiyorimg‘a Haq.

Ulus dog‘i afg‘onu zor ettilar,
Alar dog‘i beixtiyor ettilar.

Ne amr etti ilhomi hotif bila,
Shuru’ ayladim joni xoyif[5] bila.

Burun amri birla tuzub mojaro,
Qilib Zang eli ro‘zgorin qaro.

Yana azm qildim cholib noyu ko‘s,
Mute’ o‘ldi hukmumg‘a Bartosu Rus.

Yana ozim o‘ldum chu qilmay darang,
Nasib o‘ldi Haqdin diyori Farang.

Chu sa’yim yana oshkoro bo‘lub,
Asiri kafim shohi Doro bo‘lub.

Sarafroz etib baxti sarmad meni,
Haq etmish bu yanglig‘ muayyad meni.

Qayu birgakim tole’im qo‘ydi yuz,
Bor erdi alar mencha o‘n, balki yuz.

Chu Haq amridin zohir ettim nabard,
Alardin chiqordim falak uzra gard.

Bo‘lubdur bugun mulki Eron manga,
Bori shohlar bandai farmon manga.

Guruheki Doroni anglab rafe’,
Bo‘lub erdilar buyrug‘ig‘a mute’.

Bori dargahimg‘a nuzul ettilar,
Kelib qullug‘umni qabul ettilar.

Inoyatlar ettim gumondin fuzun,
Nekim el gumon etsa, ondin fuzun.

Sanga ham agar baxt yovardurur,
Yana tole’ing yoru rahbardurur,

Qo‘pub o‘zgalardek janobimg‘a kel,
Janobi sipehr intisobimg‘a kel.

Ne amr aylasam, bil kalomimni xo‘b,
Tobug‘umda bosh qo‘y, ayog‘imni o‘p

Ki, boringg‘a men lutfu ehson qilay,
Madoru rifq ulcha imkon qilay.

Seni shahlar ichra baland aylayin,
Inoyat qilib, arjumand aylayin.

Qilay kishvaringning misolin raqam
Ki, tutsun taalluq sanga yakqalam.

Sipehr ofatidin panohing bo‘lay,
Aduv qilsa kin, kinaxohing bo‘lay.

Va gar mone’e tutqon o‘lsa vujud
Ki, yo‘lg‘a qadam qilmasang xoksud.

Qila olmas o‘lsang bu sori murur,
Bu iqboldin oriy o‘lsang zarur,

Senga ostonbo‘s mamnu’ esa,
Degan uzr ma’qulu masmu’ esa,

Ini, o‘g‘lung o‘lsa ikovni yibor,
Yo‘q ersa elingdin birovni yibor

Ki, donou sohibxirad bo‘lg‘ay ul,
Sanga noyibu mu’tamad bo‘lg‘ay ul

Ki, cheksun kelib mol ila peshkash,
Bajo kelturub qullug‘ung bandavash.

Nekim uzrung o‘lsa ado aylasun,
Ne komingdurur muddao aylasun

Ki, koming sarosar ravo aylayin,
Nekim va’da qildim, vafo aylayin.

Va gar boshlasang aylamay inqiyod,
Maozalloh oyini jahlu inod[6].

Tariqi adovat shior aylasang,
Zalolat yo‘lin ixtiyor aylasang,

Ne ollingg‘a keltursa charxi dani,
Ko‘rar lahza, ko‘rgil o‘zingdin ani.

Madoro xayolini mendin unut,
Nekim qilsam ul vaqt ma’zur tut.

Bu erdi maqosidki, topti payom,
Yana so‘zni qosid degay, vassalom!»

Bu yanglig‘ makotib insho qilib,
Yana so‘zlar ul elga ifsho qilib

Ki, har so‘zga bo‘lsa mahal muqtaziy,
Kerak bo‘lmasa ul mahal munqaziy.

Va gar o‘zga aytilsa so‘z nosavob,
Yerur qosidi kordondin javob.

Murattab chu bo‘ldi bitiklar bori,
Uzotti alar har birin bir sori.

Chu bo‘ldi ravon har taraf ul rusul,
Qilurda, demakta bilib juzvu kul[7].

Qayu birki har sori azm ettilar,
Chu oz vaqt yo‘l kettilar yettilar.

Ul ishni bilib har shahu shahriyor
Ki, bor erdi mulki aning har diyor.

Rioyat qilib ulcha ta’zim edi,
Agar anda ummid, agar bim edi.

Alarning tuzub xotiri komasin,
Olibon qo‘yub ko‘zga shah nomasin.

O‘qub, chunki mazmundin ogah bo‘lub,
Hamul nomabar birla hamrah bo‘lub.

Muhayyo qilib peshkash yo xiroj,
Yana har negakim erur ehtiyoj.

Shah iqboli topmog‘ni jazm aylabon,
Bori yettilar shahg‘a azm aylabon,

Magar uch kishikim, xato qildilar,
Azimat qilurdin ibo qildilar.

Vale har biri dedi bir nav’ so‘z,
Ki, tutmas edi kimsa ul nav’ ko‘z.

Dedi shohi Kashmir bevahmu bok
Ki, oti edi Mallu ibni Mabok

Ki: «Iskandar ar shohi ofoqdur,
Mening mulkum ofoqdin toqdur.

Manga Tengri uch ish qilibdur nasib
Ki, bo‘lsam zabun, bo‘lg‘ay asru g‘arib.

Biri ulki, mulkum erur bas matin,
Jiboli rafe’u qilo’i hasin.

Yana turfa ish munda paydodurur
Ki, ham davri, ham osti daryodurur.

Ikinch ulki, bor oncha afsungarim,
Mavojib yegon barchasi chokarim.

Ki, gar fitnae yetsa aflokdin,
Qilur har biri royi bebokdin:

Fusun birla yumronni sheri jayon,
Gavaznni salobatda babri yabon[8].

Ki, Iskandar ar yig‘sa olam elin
Anga esturay, o‘yla ofat yelin

Ki, qo‘zg‘alg‘ay ul xayli topmay amon,
Hamul nav’kim, tund yeldin samon.

Uchunch ulki, gar ul bo‘lub kinparast,
Taaddi bila topsa mulkumga dast.

Bu mulk ichra bir ko‘hsore durur,
Biyik tog‘ uza bir hisore durur.

Misu ro‘ydin anga yakpora jism,
Burun ahli hikmat yasog‘on tilism.

Qozilmish bu shahr ichra naqbe nihon
Ki, gar kirsa shoh ish tushub nogahon.

Borur yo‘l, urub tob qo‘rg‘ong‘acha,
Quyun o‘ylakim, charxi gardong‘acha.

Qachon qilsalar bir boshin nopadid,
Yana boshi ham bo‘lmas aslo padid.

Kishi ul hisor ichra qilg‘och vatan,
Tilismi aro bordur ul nav’ fan

Ki, ul fannikim justujo‘ qilsa el,
O‘g‘urlay olur xasmdin o‘tu yel.

Bu mulkedurur garmser ul tariq,
Ki, gar esmasa yel, bo‘lur el hariq.

Bu mulk ichra har kimsakim joni bor,
Chu yel turdi, turmoq ne imkoni borg‘

Gar o‘t bo‘lmasa hojat ermas demak,
Ki, ne nav’ o‘lur odamiyg‘a yemak.

Yerur barcha taqdir birlan zarur,
Bu iqlimdin o‘zga sori ubur».

Chu Mallu bo‘lub bo‘yla fikratnamoy,
Debon lek Hinduston shohi Roy

Ki: «Iskandar ul shohi oliysarir,
Yerurmen ne hukm etsa farmonpazir.

Va lekin chu Doroyi getipanoh
Ki, oning sori chekmish erdi sipoh.

Bitib noma yuz nav’ ta’rif ila,
Meni ham tilab erdi taklif ila.

So‘zi nofiz erdi, dog‘i yo‘l yiroq,
Kerak erdi bir-iki yilliq yaroq.

Olib mulkdin iki yilliq xiroj,
Cherikka berib onchakim ehtiyoj.

Chu yettuk aning joru buljoriga,
Shahi Rum eli birla paykoriga.

Ani xud shah iqboli past ayladi,
Ajal domig‘a poybast ayladi.

Aduvdin chiqordi shah iqboli gard,
Biz o‘lduq biyobonda vodinavard.

Yaroqu sipah barcha barbod o‘lub,
Falakdin o‘kush nav’ bedod o‘lub.

Urushqon elimga sarafkandalik,
Tutulg‘ong‘a boshtin-oyoq bandalik.

Ulus ollida banda ozodalar,
Jilovda qilib po‘ya shahzodalar.

Men aylab necha oy biyobonni tay,
Yeturguncha bu mulku kishvarga pay.

Yelimkim, bo‘lub qatlu yag‘moga tush,
Kelib o‘n ulushtin buyon bir ulush.

Tushub mulkum eliga bas turfa hol
Ki, g‘oyib topib, kim ne aylab xayol.

Qaro rang asliy dema el aro
Ki, bu mulk motamg‘a kiydi qaro.

Demonkim, emasmen Skandarparast,
Tushubtur manga lek muncha shikast.

Aning hukmi boshimg‘au jonima,
Vale zulmdin kirmasun qonima.

Bugundin iki-uch yil o‘tsa zamon,
Yuz ursa bu kishvarga amnu amon.

Topilsa buyurg‘onig‘a dastras,
Manga dog‘i bor oni ko‘rmak havas.

Iki-uch yil o‘tmayki taklif etar,
Manga behad andin malolat yetar.

Yevurmas agar lutf etib bu varaq,
Ko‘ray har nekim olima yozdi Haq.

Aning amri hukmi qazo xud emas,
Xudovand bo‘lsa Xudo xud emas.

Chu men muncha tuttum so‘zi hurmatin,
Kerak ul dog‘i asrasa izzatin».

So‘ziga berib Roy mundoq javob,
Qilib Chin shahi o‘zga yanglig‘ xitob,

Debonkim: «Skandar yiborgan bitik
Ki, sammdin achig‘dur, qilichdin itik.

Rasulin bu sori yiborgan kuni,
Taammul bila yozmamishtur muni.

Sipohim qalin, kishvarim to‘qturur,
Mening andin o‘ksuklugum yo‘qturur.

Shahekim yana shahga ma’mur etmas,
Anga bo‘yla maktub dastur emas.

Yozibdur kitobatda hikmat so‘zin,
«Hakimu xiradmand» debdur o‘zin.

Aning royikim bo‘yla sofiydurur,
Bu so‘zlar xiradqa munofiydurur.

Bu so‘zni deyolmas sipehri barin –
Ki: «Kelsun janobimg‘a Xoqoni Chin!»

Necha qilsa Doro jahondorliq,
Aromizda voqe’ edi yorliq.

Muloqot asbobini tuzmadi,
Manga bo‘yla taklif ko‘rguzmadi.

Skandarni Doroi soniy tutay,
Jahon mulkining shohi oni tutay.

Anga qoldi go‘yo bu ma’ni nihon,
Ki Chin kishvaridur yana bir jahon.

Yigitlik anga so‘zga berdi shitob,
Javobida men aylamon iztirob.

Agar nomasin ul yozibdur irik,
Vale men iriklikka urmon ilik.

Gar ul qilsa Doro kibi yorliq,
So‘ziga qilurmen xaridorliq.

Xayoli agar mundin afzun esa,
Bitik ichra yozg‘on kibi so‘z desa.

Tamannosida bo‘lmasa e’tidol,
Ishim yo‘qturur, g‘ayri kinu jidol.

Demonkim, aning sori azm aylagum,
Qayu yerdakim desa razm aylagum.

Vale kelsa boshimga tortib cherik,
Kirib shahrima chekmogumdur eshik.

Sipahdin yoyib charxi gardung‘a gard,
Chiqib ro‘baro‘ aylagumdur nabard!»

Skandar janobiga aylab nuzul,
Ul uch mulk shohi so‘zin uch rasul.

Bu dastur ila ibtido qildilar,
Tugaguncha bir-bir ado qildilar.

Ne shahlarki, keldilar ollig‘a bot,
Alarg‘a qilib asru ko‘p iltifot.

Necha qatla shohona majlis tuzub,
Mayu rud birla tarab ko‘rguzub.

Necha may bila ko‘ngli ishratfizoy,
Ul uch mulk bobida fikratnamoy.

Tarab bazmida aysh o‘lub peshasi,
Vale ko‘nglida azm andeshasi.

Va lekin chu yoqin yetib erdi qish,
Cherik shohlar qish kuni chekmamish.

Chu qishloq ishi ko‘nglida erdi jazm,
Qarobog‘i Arron sori qildi azm.

Ayoqchi, unut bir dam andishani,
Ayoq ichra qilg‘il nigun shishani.

Dame solmag‘il shishadek yuzga chin
Ki, azm aylagum Hindu Kashmiru Chin.

Mug‘anniy degil hinduyi rexta[9],
Anga sehri Kashmiri omexta.

Men ichganda chiniy ayog‘ni olib,
Degil savt ollimda chiniy cholib.

Navoiy, sumur bodai jonfizoy
Ki, qolmish ne Mallu, ne Xoqon, ne Roy.

Bu ma’ni xati davri sog‘ardadur,
Alardin dema, so‘z Skandardadur.

Yo‘q, Iskandari olamoroda bahs,
Yerur balki Xizru Masihoda bahs.

XXXII

Qish ta’rifidakim, tund yeli ko‘ngli hasrastliq ushshoq sovuq ohidin nishona ko‘rguzur va sovuq zamhariri ichi o‘tluq bedillar kofurbor nafasidin fasona aytur va taxta muzekim, marmar toshidin dam urar va chopquni durboshikim, jahonni barham va bu faslda falakvash oq uykim, quyoshdek shu’ladin, balki shu’ladek bodadin ravshan bo‘lg‘ay va anjuman bir quyoshyuzluk bahori nozparvard gul’uzoridin gulshan

Kerak bazm aro o‘tu may bo‘lsa day,
May andoqki o‘t, o‘t aningdekki may.

Aning manqali shiratazyin kelib,
Munung shirasi manqaloyin kelib.

Munung yuzida may bati la’li nob,
Ichinda aning burdog‘on bat kabob.

Aning shu’lasi uyni gulshan qilib,
Munung lam’asi ko‘zni ravshan qilib[1].

Ani dam-badam yondurub dilkashe,

Muni har dam aylondurub mahvashe.

Anga dud o‘rnig‘a tarvihi ud,
Bu solib dimog‘ ichra har lahza dud.

Aning axgari koni gavhar bo‘lub,
Munung la’li bir pora axgar bo‘lub.

Vale bazm yuz boshlig‘ oq uy aro,
Oq uy toshi tun mushki birla qaro.

Vale mushk uza abri kofurbez,
Jahon uzra yakdast kofurrez.

Oq uyga eshik rust, tungluk dog‘i,
Bo‘lub ko‘raga ev davrig‘a to‘k dog‘i.

Mug‘anniylar aylab navosozliq,
Muoshirlar aylab sarandozliq.

Ne may, elni har sho‘x bir noz ila,
Yiqib g‘amzai novakandoz ila.

Ko‘ngulda biridin nihoni g‘ame,
Xayoli bila o‘zga bir olame.

Chu may oni beixtiyor etmayin,
Ul anduhini oshkor etmayin.

Vale chun qilib boda toroji hush,
Bo‘lub o‘trudin mohvashi bodano‘sh.

Munga dam-badam ul qadah achchig‘i,
Qadahdek solib achchig‘-achchig‘ yig‘i.

Ne boqmay anga umridin bahrasi,
Ne boqmoqqa oning sori zahrasi.

Kelib nogah ul sho‘xi xudroy anga,
Qadah tutsa yuz noz ila, voy anga!

Ichib bodani qo‘ysa ollig‘a bosh
Qiyomatqacha bosh ko‘tarmasa kosh!

Gar o‘lsa dema marg soni ani,
Hayoti, degil, jovidoni ani.

O‘zidin ketib oshiqi mayparast,

Yiqildi chu har kimsa bir yerda mast.

Sabuhiy chog‘i ko‘z ochib mohvash,
Xumor etgali daf’, o‘lub jur’akash.

Yana yoqibon sham’u majlis tuzub,
Yatimona ko‘p shevalar ko‘rguzub.

Ko‘zi ayni maxmurlug‘ ichra mast,
Mayi la’lidin mastlar mayparast.

Qaro bo‘rkin egri qo‘yub boshig‘a,
Yetib bir qirog‘i qaro qoshig‘a.

Ko‘zi po‘stin ichra pinhon bo‘lub,
Hamal burjida mehri raxshon bo‘lub.

Qiyos etmayin davri laylu nahor,
Aningdek qish ichra, munungdek bahor.

Bu hay’at bila oshiqi boshig‘a,
Kelib noz ila o‘lturub qoshig‘a.

Qulog‘in tutub, tortib uyg‘otqali,
Ko‘z ochqoch tuman noz o‘qin otqali.

Masihovash alqissa yuz dam tuzub.
Kecha andoq o‘lturganin tirguzub.

Chu oshiqqa ul ruh etib iltifot,
Masih ilgidin topib obi hayot.

Masihi damidin aning jon topib,
Xususan, yana obi hayvon topib.

Iki jur’adin, o‘yla maston bo‘lub
Ki, bazm ahlig‘a harfi daston bo‘lub.

Dema mast, majnuni behol de,
Junun ichra oshufta ahvol de.

Harorat chu g‘olib bo‘lub bodadin,
Junun ortibon ul parizodadin.

Qilib vahmkim ishqi devonasoz,
Anga qilmag‘ay nogah ifshoi roz.

Qo‘pub dog‘i uydin chiqib tashqari,

Urub telbalardek qadam har sari.

Jahonni ko‘rub qor ichinda nihon
Ko‘runub ko‘ziga yana bir jahon.

Kamar tig‘idin sarsar andoq esib
Ki, har yerga tegsa pichoqdek kesib.

Sular muzdin andoq bo‘lub sangbast
Ki, tosh ursalar mumkin o‘lmay shikast.

Quyosh chashmasi bir qadah muz bo‘lub,
Sochilg‘on bori qatra yulduz bo‘lub.

Falak sabzasida qolib yoshurun,
Nazarg‘a bo‘lub zohir o‘lg‘onda tun.

Ko‘runmay quyosh partavi nurluq,
Borib tab’idin dog‘i mahrurluq.

Yel osebidin xalq yuz bog‘labon,
Nafasning tafi shusha muz bog‘labon.

Urub qush o‘zin o‘tqa devonadek,
Va yo sham’i so‘zong‘a parvonadek.

Degil duddin shu’la dom etti fosh,
Shararlardin o‘ldi anga donaposh.

To‘lun oyg‘a ko‘k bo‘lg‘ucha yuz to‘ngub,
Falak bahri nili dog‘i muz to‘ngub.

Yemas oq bulut charx javfida tuz
Ki, andin sinib tushti bir pora muz.

Chu day xoni yel xaylidin un solib,
Chaman kishvari sori chopqun solib.

Shajar xaylini, o‘yla tolon etib
Ki, boshtin-ayog‘ini uryon etib.

Qilib o‘zlarin o‘rtamak multamas,
Sarosar o‘tun bo‘lmak aylab havas.

Gumon aylabon shu’la ko‘rgach tazarv,
Qilib davrida larza shamshodu sarv.

Bo‘lub momug‘u tuk aro el nihon,

Hamul nav’kim qoqum ichra jahon[2].

Yopib el qulog‘larin iki kitf,
Qo‘yunlarda qo‘llar bo‘lub mu’takif.

Kishikim qilib hayya nazzorasi,
Gumon aylabon pesa ip porasi.

Borib zahriyu urmayin tobu pech,
Aning zahrin aylab havo zahri hech.

O‘t ustida mahvashlar aylab hujum,
Quyosh tegrasida nechukkim nujum.

Chu sorg‘artib elni nasimi sabo,
Bo‘lub ul somonlarg‘a o‘t kahrabo.

Nasim aylagach birka sori shitob,
Qilib borcha siymobni siymi nob[3].

Balig‘lar bo‘lub day nahangiga qut,
Tong ermas nahangiki, qut etsa hut.

Chu Bahman sipohi tuzub anjuman,
Yer Isfandiyorin qilib Ro‘yintan.

Bu Isfandiyor aylabon chun sitez
Solib olam ahli aro rustaxez.

Sovug‘ shiddatidinki ko‘zlar qotib,
Anga qavs har dam balorak otib.

Nazarg‘a kelib bul’ajab olame,
Havodis yelidin jahon darhame.

Ul oshufta nazzora qilg‘och bu hol,
Qilib day sipohi ani poymol.

Ul uydin chiqorg‘a jihat ko‘rmayin,
Bajuz qaytmoq maslahat ko‘rmayin.

Kirib bazm anbarsirishte topib,
Qochib ul tomug‘din bihishte topib.

Anga hurzode tutub kavsare
Ki, ul suv urub jonig‘a ozare.

Chu bir ratl no‘sh aylabon mast o‘lub

Ki, soqiy ayog‘ida-o‘q past o‘lub.

Boshikim bo‘lub yor ayog‘ig‘a past,
Yetib charxi gardunga andin shikast.

Qayu kimsakim topsa mundoq murod,
O‘qusun yomon ko‘z uchun «in yakod»[4].

Necha anjuman jannatosordur,
Tomug‘dur agar kimsa beyordur.

XXXIII

Majnun hikoyatikim, qish kunining uzun qorong‘u tuni Layli zulfining mushki isin yel korvonidin istishmom qilib, gom urar erdikim, baxt mashshotasi ul sarishtai murodni ilgiga berdi

Yeshittimki, Majnuni sho‘ridahol
Ki, dasht uzra soyir edi mohu sol.

Taku toz erdi qishu yoz anga,
Qishu yoz erdi taku toz anga.

Chu yoz o‘lsa vodiy tomug‘din nishon
Ki, xurshid o‘lur erdi otashfishon.

Anga voya ermas erdi soyae
Ki, topmas edi soyadin voyae.

Va gar qish havosi to‘kub zamharir
Ki, bard aylar erdi baqamni zarir.

Ham etmas edi azm maskan sori,
Isinmoq uchun mayl gulxan sori.

Bori mayli ul yonki Layli edi,
Qayon Layli, ul sori mayli edi.

Xabar har qayon topsa mahbubidin,
Chekib nola joni puroshubidin.

Urar erdi yeldek aning sori gom,
Sabo gul sori aylagandek xirom.

Magar bir qish ermish bag‘oyat sovuq,
Ani po‘ya Laylig‘a qilmish yovuq.

Dimog‘ig‘a bermish sabo yor isin,

Aningdekki, bulbulg‘a gulzor isin.

Bu holatda go‘yo qaro tun emish,
Aning ollidin yelu chopqun emish.

Nigoridin ul iski topib mashom,
Yumub ko‘z, urar ermish ul sori gom.

Yetishgan zamon yor uyi qoshig‘a,
Hamono urunmish eshik boshig‘a.

Ochilg‘och eshik, uyga kirmish yurub,
Magar uyga kirmak budur bosh urub.

Ko‘z ochib ko‘rar, uyda Layli emish,
Qaro tunda ravshan Suhayli emish.

Solur hayratu shavq jonig‘a tob,
Qilib betahammulluq oni xarob.

Qo‘yub Layli ollida tufroqqa yuz,
Yumar so‘ngra kavnayndin iki ko‘z.

Ani hujrada Layli aylab nihon
Ki, fahm etmagaylar eli nogahon.

Kishi hush tarkida bu nav’ kom
Topib, istasa hush – bo‘lsun harom.

Yerur ishq aro bo‘yla a’jubalar
Ki, beishq bilmas bu mansubalar.

Navoyig‘a, yo Rab, qarib et ani,
Qarib etting ersa, nasib et ani.

XXXIV

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, shito fasli burudat kasratidin va yog‘in shiddatidin mujibi parishonliq va boisi besomonliqdurur xalq anga nevchun rog‘ib va tab’ anga nega tolibdurur va hakim javobqa og‘iz ochmoq va hikmat sahobidin durar sochmoq

Yana qatla doroi daryonavol[1]
Dedi: «Key hakimi Masihomisol,[2]

Shito faslida ko‘p suubatdurur

Ki, insong‘a andin uqubatdurur.

Biri yelki, elni qilur dardnok,
Biri bardi mufritki – aylar halok.

Yana zamhariru uzun tun dog‘i,
Qo‘shulsa yelu qor, chopqun dog‘i.

Falak yerga bu nav’ o‘lur fitnarez
Ki, andin kerak tab’ qilgay gurez.

Nedin qishqa ko‘prakdurur tolib el,
Anga yozdin ortug‘ bo‘lur rog‘ib el.

Munung vahshatig‘a chu bor ittilo’,
Haroson kerak erdi mundin tibo’»[3].

Dedi, hikmatoyini axtarshunos:
«Ki, bu ishga bor o‘zga yanglig‘ qiyos.

Chu qish tab’i borid dog‘i ratb erur,
Xirad munda bu nav’ ruxsat berur

Ki, tab’ ichra solur sabou shitob,
Harorat bila yubsdin iztirob.

Chu yubsu harorat bo‘lur mushtail,
Ani boridu ratb etar mu’tadil[4].

Yana chun shabobu kuhulat[5] dog‘i,
Yerur elga ayshu farog‘at chog‘i.

Bilur el qoshida muqarrardurur
Ki, bu qishda xushroq muyassardurur

Ki, gar kunduzi bo‘lsa qoru yog‘in,
Bilur el g‘animat farog‘at chog‘in.

Taraddudg‘a chun bo‘ldi mone’ havo,
Farog‘at qilur tab’ komin ravo.

Yerur kechasi dog‘i chunkim tavil,
Bu dog‘i farog‘atqa keldi dalil

Ki, suhbat munosibdurur o‘tsa shom
Ki, topqay sukun uyqu birla avom.

Anga tegrukim, bo‘lg‘ay uyqug‘a chog‘,

Rutubat qilib kasb maydin dimog‘.

Bo‘lub uyqug‘a vaqtida rag‘bati,
Badanning budur mujibi sihhati.

Chu ul uyqudin tab’ masrur erur,
Zamon dog‘i bor ulcha maqdur erur.

Yana hirfat ahli tutub go‘shae,
Maoshi uchun istasa to‘shae,

Uzun tunda uyqudin o‘lg‘ach amon,
Yerur kasbining vaqti mumtad zamon.

Yana ilm tahsili aylar kishi,
Agar istasa rushd topqay ishi.

Ishidin anga hosil o‘lmas farog‘,
Yemay ko‘p uzun kecha dudi charog‘.

Iki boshta yonsa charog‘i aning,
Tun o‘rtasi ting‘ay dimog‘i aning.

Yana ahli Haqkim qo‘yub xo‘rdu xob
Qilurlar ibodatqa jahdu shitob.

Xaloyiq ko‘zidin erurlar nihon
Ki, ravnaqliq ermas alarsiz jahon.

Qaro tunlar ul xayl toat etar
Ki, olamga andin yorug‘luq yetar.

Bas ul tun nechakim topar imtidod,
Yorug‘luqqadur mujibi izdiyod.

Bukim sharh topti necha nav’ ish,
Muyassardurur olam ahlig‘a qish.

Bu kim dahr eli qishni aylar talab,
Yerur ani istarga muncha sabab».

Degach so‘zni donoyi bisyordon,
Dedi: «Ofarin!» — xusravi kordon.

XXXV

Iskandarning jahongirlik muddaosi bila azm etib, Xurosong‘a yetib, Hiroti sonahallohu anil-ofoti val baliyotni bino qilib, Movarounnahrni olib Samarqandi bemonand tarhin solib, Kashmir sori

mutavajjih bo‘lg‘oni va Kashmiriylar sehri daf’ig‘a Muso kibi yadi bayzo ko‘rguzub, sehroyin qal’alarin mo‘jiza birla buzub, Malluning dog‘i buzulub, tilism qo‘rg‘onig‘a azm etgani va Iskandarning Kashmir shahrig‘a ketgani

Muarrixki, sharh etti bu mojaro,
Bu yanglig‘ bo‘lur so‘zga dastonsaro

Ki, chun qildi qishloq azmig‘a shoh,
Qarobog‘i Arronni oromgoh.

Jahongirlik erdi andeshasi,
Bu tadbir edi tunu kun peshasi.

Tuzub hikmat ahli bila anjuman,
Bo‘lur erdi bu amrda royzan.

Xayolida doim bu tadbir edi,
Xayoli namudori taqdir edi.

Bu andeshadin hosil o‘lg‘ach farog‘,
Sipah ziynatin aylar erdi yarog‘.

Berib qavmu xaylig‘a dildorlig‘,
Tilar erdi Haqdin madadkorlig‘.

Chu raf’ o‘lsa erdi anga barcha qayd,
Bo‘lub rokib, aylar edi azmi sayd.

Farog‘at chog‘i, sayd o‘lub peshasi,
Matofi Aras[1] ro‘dining beshasi.

Bu erdi ishi toki gardon sipehr,
Hamal jilvagohig‘a yetkurdi mehr.

Quyosh xusravi chunki topib sharaf,
Sipah tortti sabzadin har taraf.

Urub shohi xurshidvash borgoh,
Chekib dasht uza sabza yanglig‘ sipoh.

Topib sa’d soat kuhan toqdin,
Saodat bila chiqti qishloqdin.

Qilib azm, qo‘ydi Sipohong‘a[2] yuz,
O‘tub andin, urdi Xurosong‘a[3] yuz.

Munga yetgucha borcha Eron zamin
Bo‘lub erdi hukmig‘a zeri nigin.

Xuroson havosida topti nishot,
Mizojig‘a yuzlandi ko‘p inbisot.

Kim, ul kishvare erdi behad vase’,
Yeri o‘zga iqlimlardin rafe’.

Masohat qilib borcha atrofini,
Nechukkim kerak topib avsofini.

Fazosida ko‘p chashmau rud bor,
Bori yub ko‘ngul ko‘zgusidin g‘ubor.

Yana bahr yanglig‘ ulug‘ to‘rt rud
Ki, ko‘k toqig‘a savti tortib surud.

O‘zi chunki jannat namudor o‘lub,
Sular dog‘i jannatqa anhor o‘lub.

Alardin dedilar birin Hirmand[4]
Ki, har qatrasi raf’ etib yuz gazand

Ki, anhoridin mulki Zobulsiton[5].
Bo‘lub zebu ziynat aro gulsiton.

Safo ichra ko‘zga berib xiraliq,
Hamul mulkdin raf’ etib tiralik.

Yoruq, o‘ylakim mehri getifuruz,
Bu ma’nidin oti kelib Nimro‘z[6].

Bu kishvarda har bir gado Hotame,
Dog‘i har sipohi kelib Rustame.

Yana bir alardin Darijaz[7] suyi,
Manofi’da ul nav’kim – raz suyi.

Qayu raz, «sharoban tahuro»dur ul,
Kecha-kunduz oshomi hurodur ul

Ki, anhori obod etib mulki Balx
Ki, andindurur xasmning ayshi talx.

Hamul Balxkim, qildi Hushangshoh,
Jahondin guzin aylabon taxtgoh.

Maqomi – Birohimi Adham[8] kelib
Ki, gardi rahi charxi a’zam kelib.

Yana bir dog‘i keldi Murg‘ob rud[9]
Ki, sha’nida kavsardin o‘ldi durud.

Olib zahmati jismu ranji ravon,
Xirad aytibon oni ganji ravon.

Bo‘lub andin obod Moxonu Marv
Ki, qushtur tazarv anda, ashjor – sarv.

Parivashlaridin bo‘lub bahramand,
Qilib taxt Tahmurasi devband.

Bo‘lub so‘ngra Sanjarg‘a oromgoh,
Ki, qush ko‘rmay ul nav’ bu domgoh.

Yana bir anga Chaxcharon[10] rud o‘lub
Ki, ul rud hayvon suyidin to‘lub.

Yeri rif’at ichra falakdin nishon,
Bu rud anda ul nav’kim Kahkashon.

Ushoq toshlari axtari tobnok,
Latofat aro, o‘ylakim durri pok.

Suyi xosiyatda ziloli hayot,
Topib andin ichkan o‘lumdin najot.

Qirog‘inda har gulbuni axzare,
Baqo ichra bir Xizr payg‘ambare.

Falakvash yerining fazosi dog‘i,
Kelib jannatoso havosi dog‘i.

Vale bu sifat nahri Kavsarmisol
Ki, andin jahon komi topib zilol.

Suyi qumu dasht ichra shoe’ bo‘lub,
Borib onchakim, borcha zoe’ bo‘lub.

Xurosonni chun shah masohat qilib,
Nechukkim kerak to‘rt nahrin bilib.

Dedikim, «Bu yerdur jinon gulshani»,
Pisand aylabon xotiri ravshani.

Vale chunki manzuri o‘lg‘och bu nahr,
Yasab anda bir jannatosor shahr.

Chu mazkur etib ahli donish hir ot,
Pisand aylamay xotiri, juz Hirot.

Chu bu lafzg‘a iltifot aylabon,
Hamul shahr otin Hirot aylabon.

Hirot o‘ldi alqobi Iskandari,
Dedilar avom oni lekin – Hiri.

Chu to‘rtunch iqlim edi mavqe’i,
Bas o‘ldi quyosh sohibi tole’i.

Kavokibgakim, yeti taqsim erur,
Jahon mulki ham yeti iqlim erur.

Angakim vasat mehri raxshon kelib,
Munga lek mulki Xuroson kelib.

Xuroson badandur, Hiriy jon anga,
Hiriy jon, badandur Xuroson anga[11].

Alo, toki bo‘lg‘ay sipehr uzra mehr,
Yoruq mehr nuridin o‘lg‘ay sipehr,

Anga bo‘lmasun mehr yanglig‘ zavol,
Sipehr etmasun xalqin oshuftahol.

Chu sa’y aylabon qildi doroi dahr,
Bino bo‘yla kishvarda bu nav’ shahr.

Qilur erdi manzil-bamanzil murur,
Angachaki Jayhundin etti ubur.

Yana kishvare ko‘rdi firdavsvash,
Havou suyi misli firdavs xush.

Latofat aro ravzadin bahr anga,
Vale ism o‘lub Movaraunnahr[12] anga.

Nedinkim, iki nahr arosi kelib,
Yaqin yuz yig‘ochqa fazosi kelib.

Oqib haddi sharqida Sayhun suyi,
Borib haddi g‘arbida Jayhun suyi.

Yo‘q ulkim anga bu iki rudu bas,
O‘n-o‘n besh suv har bir nechukkim Aras.

Bo‘lub har biridin judo nahrlar
Ki, har nahri obod etib shahrlar.

Va lekin bu rudeki, derlar Ko‘hak[13]
Ki, yo‘q ravzaning nahri erkonga shak

Ki, ichgach tavono bo‘lub notavon,
Guzar aylabon umr yanglig‘ ravon

Ki, andin ne bir shahr obod o‘lub,
Ne ma’murasidin birov shod o‘lub.

Agarchi latofatda rashki Furot[14],
Bo‘lub borcha zoe’, nechukkim hayot.

Skandar chu bu mulki dilkash ko‘rub,
Fazou havosin Eramvash ko‘rub.

Xususan Ko‘hak rudikim, nahri Nil[15]
Yemas oncha, ne Nilkim, Salsabil[16].

Yana Tengridin bo‘yla tutti umid
Ki, ul Nil uchun Misre etgay padid.

Qilib hikmat ahli bila guftugo‘y,
Yetib shahr uchun yaxshi yer justujo‘y.

Hamul pushtaekim Ko‘hak topti ism,
Ne pushta jahon ganji uzra tilism.

Ushoq tosh anga la’lu inju kibi,
Yashil sabzasi charxi miynu kibi

Ki, mansub erur anga Ko‘hak suyi,
Nedinkim, erur jori andin quyi.

Hamul to‘pa ollidin andoq oqar
Ki, oshiq boshu ashki, der, kim boqar[17].

Aning yonida shahr qildi bino
Ki, o‘lturmasun anga gardi fano.

Skandar otodi Samarqand ani,
Samarqandi firdavsmonand ani.

Ani chun tugatti qilib ehtimom,
Ravon qildi Kashmir sori xirom.

Kesib dashtning rohu berohini,
Anga solg‘ucha soyai johini.

Biyik himmatu baxti bedoridin,
Base mulk fath o‘ldi har soridin.

Chu Kashmir haddig‘a qo‘ydi oyog‘,
Padid o‘ldi bir charxpayvand tog‘.

Ko‘kartib qamar orazin xorasi,
Solib bo‘rkni yerga nazzorasi.

Falakka degin, o‘yla raxshanda tosh
Ki, pardoxt qilg‘aylar aylab tarosh.

Iki jonibi har bir andoq yiroq
Ki, qat’ig‘a azm etmagan yaxshiroq.

Bu yanglig‘ biyik tog‘, aningdekki Qof,
Bo‘lub charxdin yerg‘a tegru shikof.

Bo‘lub oshkoro arosinda yo‘l,
Vale iki yilmon qayo iki qo‘l.

Bu yo‘lkim anga tog‘ o‘lub har sari,
Kelib arzi taxmin bila yuz qari.

Ani ahli Kashmir darband etib,
Iki tog‘ni bir-birga payvand etib.

Yuz ellik qari avji rif’at anga,
Yana muncha dog‘i zaxomat anga.

Aningdek qo‘yub gaj bila xora tosh
Ki, yerdin bo‘lub ko‘kka yakpora tosh.

Temurdin yasab anda darvozae,
Falak toqidin toqi andozae.

Bu darvozani o‘yla rust aylabon,
Kim ul iki juzvin durust aylabon.

Qo‘poribki yerdin madoro bila,
Kamargohig‘a tegru xoro bila.

Yasab ustida burju boru dog‘i,
Aduv daf’in etmakka ko‘shish chog‘i.

Demay kimsa darbandu boru ani,
Tasavvur qilib aql jodu ani.

Ichinda iki ming kishi chorasoz,
Bori hiylapardozu afsuntiroz

Ki, darbandi oliy namudoridin,
Yaqin kelmagay kimsa ming qoridin.

Kishikim qadam qo‘yg‘ay ul yon nuxust,
Ayog‘i aning bo‘lg‘ay ul nav’ sust

Ki, topmay taharrukning imkonini,
Yomon vartada ko‘rgay o‘z jonini.

Takovar dog‘i qilsa ul yon shitob,
Ayog‘idin itgay tavon birla tob.

Sipah chun bu yerga yetib, lol o‘lub,
Tahayyurdin oshufta ahvol o‘lub.

Shah ollig‘a qaytib ayon ettilar,
Nekim bo‘lmish erdi bayon ettilar.

Shah etmay bu so‘zlarga hech iltifot,
Arastu bila yetti ul yerga bot.

Inonmay yiroqtin namoyish bila,
Yaqin ayladi ozmoyish bila.

Dedikim: «Bu nayrangi Kashmirdur,
Fusungar ishi, makru tazvirdur.

Kerak qilmoq andoq aning chorasi
Ki, bo‘lg‘ay nigun burj ila borasi».

Cherikni tushurdi keyinrak yonib,
Yurub hifz uchun davrig‘a aylonib.

Chu ko‘ngli bo‘lub jam’, aylab xirom
Tushub borgoh ichra, tutti maqom.

Bor erdi janobida besh yuz hakim,
Alardin o‘ni kecha-kunduz nadim:

Filotun, Arastu, Balinos ham,
Yana Arashmidus, Shaminos ham.

Qilinmunu Volisu Farfurnus
Ki, Suqrotu Hurmus kibi xokbo‘s.

Borin hozir etti tuzub anjuman,
Dedi anjumansozi lashkarshikan

Ki: «Bu ishki afsuni Kashmir erur,
Ani daf’ etarga ne tadbir erurg‘»

Ravon hikmat ahli so‘z og‘oz etib,
Tilin shahg‘a bori duosoz etib,

Dedilarki: «Shahg‘a bu ishtin ne g‘am,
Bu ish demali, bo‘lsa yuz muncha ham.

Bu darband agar charxi gardon erur,
Iloji aning bizga oson erur.

Shah iqbolini Tengri etsun fuzun
Ki, iqboli gar bizgadur rahnamun.

Bu nayranglarga shikast aylali,
Biyik borasin yerga past aylali.

Ne qilg‘ay necha jo‘giyi sehrsoz,
Biri muhraduzdu biri huqqaboz

Ki, hikmat eli oni daf’ etmagay,
Ilaydin ne qilg‘onlari ketmagay.

Bu donishvar elkim erur rahbaring,
Qayu rahbaring, bandau chokaring.

Bilikdin erur har biri bir jahon,
Jahon hikmati har birida nihon.

Filotung‘a yuzlandi ul yerga ish
Ki, jo‘gidin o‘lg‘ay anga sarzanish.

Arastu nega yerdin o‘lmas adam
Ki, ko‘rgay fusungardin afsunu dam.

Ko‘p o‘lsa fusunsozi Kashmirning,
Birimiz bizing bas, alar bo‘lsa ming.

Necha bo‘lsa chubchuqqa jodu laqab,
Ko‘pidin qilur saydgar ko‘p tarab.

Shah ar iki kun bo‘lsa oromjo‘y,
Uchunch o‘lsun a’dosidin komjo‘y.

Qilib hikmat oyinig‘a iltijo,
Buzoli alar sehrini jobajo».

Skandar bu so‘zdin tarabgin bo‘lub,
So‘zi ahli hikmatqa tahsin bo‘lub:

«Bori amrdin, – dedi, – ma’zul o‘lung,
Borib bu ishingizga mashg‘ul o‘lung».

Alar qo‘pti shahni duo aylabon,
Nekim komi erdi, ravo aylabon.

Skandar qo‘pub, qo‘ydi xilvatqa yuz,
Alar qo‘ydilar borcha hikmatqa yuz.

Bo‘lub anjum ahvolig‘a rahshunos,
Tabiatlarin dog‘i aylab qiyos.

Necha ko‘rau damni darkor etib,
Filizzotdin bir namudor etib.

Qilib mazj siymobu qal’iyu ro‘y,
Namudor qildilar ul nav’ go‘y

Mudavvar falakdek misoli aning,
Falakvash ichi dog‘i xoli aning.

Ichining xalosin malo qildilar,
Adovidin oni to‘lo qildilar.

Murakkab necha nav’ ashyo qilib,
Hamul huqqa ichra muhayyo qilib.

Iki suqba ichra fatila anga,
Qilib zohir ul tavr hiyla anga,

Kim ul go‘yni xasm boshi kibi,
g‘alat ayladim, ra’d toshi kibi.

Fatilasig‘a o‘tni chust aylabon,
Qo‘yub ra’d yoyig‘a rust aylabon.

Ani otib ul soda xoro aro,
Havodin tushurgaylar a’do aro.

Fatila borurda kuyub sarbasar,
Yetib maxfiy ashyog‘a o‘tdin asar.

Chu yerga tegib rust go‘yi tilism,
Necha pora bo‘lg‘ay anga salb jism.

Usholg‘och, sado chiqqay andin g‘arib,
Yana shu’lau rihu dudi ajib.

Uni buzg‘ay ul sehr asbobini,
O‘ti ochqay ul qal’aning bobini.

Qaro aylagay dudi sohir yuzin,
Qaroroq hamul fanda mohir yuzin.

Isidin kim etsa muattar mashom,
Unutqay fusun ilmini, vassalom.

Chu zebo tilism o‘lg‘ach orosta,
Hamul nav’kim mohi nokosta.

Bo‘lub jam’ ul hikmatoyin guruh,
Falakdin fuzun har biriga shukuh.

Qo‘yub shohi Dorofar ollig‘a yuz,
Ne Dorofar, Iskandar ollig‘a yuz.

Tilismi nihonni ayon qildilar,
Nihon barcha ramzin bayon qildilar.

Shah ul turfa ishdin base shod o‘lub,
Dedi uzrlar haddin afzun qo‘lub

Ki: «Mundoq tilismeki soz ettingiz,
Shuru’ida ne ishga mavquf sizg‘»

Chu shah tab’ida toptilar bu havas,
Dedilarki: «Hukmungg‘a mavqufu bas!»

Qo‘pub shohu el ichra g‘avg‘o tushub,
Ulusqa ul ishdin alolo tushub.

Chu rokib bo‘lub qal’ag‘a qildi mayl,
Ulus dog‘i yuzlandi andoqki sel.

Yurub ollida olam ogahlari,
Rikobida bori jahon shahlari.

Sipahning qirog‘ig‘a chun yettilar,
Ravon ra’d asbobi soz ettilar.

Tilismi garonmoyani kelturub,
Hamul ra’d yoyig‘a toshdek qurub.

Chu doruga o‘t yetti, tutti havo,
Qilurga ulus mehnatig‘a davo.

Borib tushti a’do arosig‘a chust,
Azim un chiqordi tegib yerga rust.

Degan to‘rt ish tutti andin vujud:
Sadou afan, is bila o‘tu dud.

Sado botil etti fusunlarni pok,
O‘ti kuydurub qal’ani qildi xok.

Fusungar yuzin dudi etti qaro,
Isi qo‘ymadi nukta xotir aro.

Alar ichra chun tushti bu rustaxez,
Topilmas edi chorae juz gurez.

Qochib bo‘ldilar ozimi poytaxt,
Anga tegrukim Malluyi tiyrabaxt.

Parishonlig‘u benavolig‘ bila,
Hamul duddin yuzqarolig‘ bila.

Borur chog‘da ming joduyi sabzrang,
Va lekin kelib barchasi ahli zang.

Borib anda ko‘k qarg‘a – zog‘e kelib,
Ketib to‘ti, ammo kalog‘e kelib.

Hamul go‘y otilg‘och qochib yak-bayak,
Masaldurki: «Ming qarg‘ag‘a bir kesak»[18].

Kishi tonimay munda mingdin birin,
Alar demaguncha ul ish sohirin.

Chu Mallug‘a arz ettilar holni,
Alar otqon ul turfa timsolni.

Skandar ishidin ko‘tardi hisob,
O‘z ahvolig‘a topti yo‘l iztirob.

Qaviy angladi oni, o‘zin zaif,
Yaqin bildikim, ermas ermish harif.

Hakim ollida hech jodu so‘zi,
Nechukkim Skandar qoshida o‘zi.

Aduv olg‘onin bildi darbandni,
Hamul qal’ai charxmonandni.

Yaqin angladikim, xato aylamish
Ki, shah buyrug‘idin ibo aylamish.

O‘zin topti bebargu hayron base,
Yelin ham vahimu parishon base.

Tuta olmadi mulki ichra qaror,
Dog‘i topmadi chorae juz firor.

Hamul qal’akim vasfi o‘tti burun,
Topa olmadi andin o‘zga o‘run.

Aning naqbin ochmoqqa aylab shitob,
Xazoyin toshitti anga behisob.

Base bebaho tuhfa – bori nafis
Ki, tab’ oni topqay o‘ziga anis.

Javohir fuzun haddu miqdordin,
Samin gavharu la’li shahvordin.

Avoniyi siyminu zarrin zuruf
Ki, ojiz bo‘lub elga andin vuquf.

Xazoyindakim har ne ashyo edi
Ki, nav’i tuhaf yo hadoyo edi.

Borin, o‘yla qildurdi qo‘rg‘ong‘a naql
Ki, ehsosidin qoldi hayratqa aql.

Chu jam’ ayladi ko‘nglin ul holdin,
Firor etti nofarrux iqboldin.

Makon ayladi ul Qaro tog‘ uza,
Aningdekki qo‘ng‘ay chibin zog‘ uza.

Anga bo‘ldi ish bo‘yla suratpazir,
Vale shohi Jamqadru Dorosarir.

Hamul damki otturdi qo‘rg‘ong‘a go‘y
Ki, darband qildi yiqilmoqqa ro‘y.

Dedi, aylagay azm qo‘rg‘on sari,
Nechukkim nabi charxi gardon sari.

Vale bermadi ahli hikmat anga,
Ravon azm qilmoqqa ruxsat anga.

Ki: «Qilmoq bugun azm emas maslahat,
Bugun man’ qilmoqqa budur jihat.

Kim, ul dud ila is tugansun tamom
Ki, nuqson topar elga andin mashom».

Yeshitgach bu so‘z dovari qahramon,
Sukun ixtiyor ayladi shodmon.

Yonib borgah sori azm ayladi,
Tarab birla ohangi bazm ayladi.

Bilik ahlidin majmae soz etib,
Ko‘p ehsonu tahsinlar og‘oz etib.

Qilib har birin lutfidin bahramand.
Ato birla ta’zimidin arjumand.

Chu mag‘ribqa otti hakimi sipehr,
Skandar tilismi kibi go‘yi mehr.

Qadah birla tiybi dimog‘ ettilar,
Tarab birla mayli farog‘ ettilar.

Anga tegrukim, garm bo‘ldi dimog‘,
Qo‘pub, uyqudin istadilar farog‘.

Borib tab’din ranju farsudaliq,
Badan uyqudin topti osudaliq.

Chu xurshid ko‘rguzdi anvorini,
Skandar kibi ochdi ruxsorini.

Skandar ochib chehra xurshiddek,
Murod ahlig‘a subhi ummiddek.

Chiqib raxsh uza, o‘ylakim Rustame,
Va yo charx uza nayyiri a’zame.

Sipah dog‘i to‘sh-to‘shdin o‘ldi ravon,
Agar xud tavono va gar notavon.

Chu darbandning og‘ziga yovushub,
Necha kun cherik o‘ttilar chuprushub.

Qilib ko‘ch-barko‘ch ul yon xirom
Ki, yetti hamul shahr elidin payom.

Rasule yetib xidmat etti padid,
Bir ilgida noma, birida kalid.

Xatin shahr ahli savod aylabon,
Aning hukmig‘a inqiyod aylabon

Ki: «Malluda bo‘lg‘on zamon bu diyor,
Yo‘q erdi bu qullarg‘a hech ixtiyor

Ki, qilgay eduk xidmat izhorini,
Ayon aylabon qulluq osorini.

Bu damkim ani shavkating qildi past,
Firor ixtiyor etti, topib shikast.

Necha bandalig‘ ichra sharmandabiz,
Nekim bizga hukm aylasang bandabiz.

Yorug‘ aylasang mulki vayronimiz,
Fidodur sanga mol ila jonimiz.

Va gar bizni istarga farmon erur,
Borig‘a yuzung ko‘rmak armon erur.

Yerurbiz ne hukm aylasang muftaxir,
Bu noma javobiga biz muntazir».

Skandar o‘qug‘och bititdi misol
Ki: «Siz kelgali bo‘lmang oshuftahol.

Hamul mulkunguzda farog‘at qiling,
Manga deb duo, Haqqa toat qiling

Ki, men xud kelurmen shitob aylabon»,
Yibordi bu yanglig‘ xitob aylabon.

Yetishguncha bu noma birla rasul,
O‘zi dog‘i shahr ichra qildi nuzul.

Yasab erdi Mallu tarabxonae,
Tarab qilgali qasri shohonae.

Hamul qasr davrida bir turfa bog‘,
Anga har guli toza ravshan charog‘.

Biyik toqini charxfarso qilib,
Bu gulshan otin Jannatoso qilib.

Hamul ravzada bo‘ldi shah manzili,
Tushub shahr ichinda sipah mahmili.

Chu bu ishni ma’lum etib xosu om,
Bori Jannatosog‘a aylab xirom,

Xavosi ko‘rub shohdin iltifot,
Topib har biri yangi boshdin hayot.

Avom ollig‘a iltijo aylabon,
Yiroqtin chekib un, duo aylabon.

Shah altof ila barchasin shod etib,
Buzulg‘on ko‘ngullarni obod etib.

Qilib hukmkim, el qilib iztirob,
Kishidin tama’ qilmasun rishtatob.

Birovkim tama’ rishtae qilg‘usi,
Aning birla bo‘g‘zidin osilg‘usi.

Berib mulk eli lek moli amon
Ki, andin topib bahra yaxshi-yamon.

Raiyat bu bermakka xursand o‘lub,
Sipohi olurdin barumand o‘lub.

Birovdin birovga yetishmay g‘ame,
Kishidin kishi olmayin dirhame.

Skandar ichib aysh uchun jomi sof,
Qilur erdi Kashmir mulkin tavof.

g‘aroyib ko‘rar erdi haddin fuzun
Ki, sharhi aning so‘zni aylar uzun.

Bir ul jumladin jome erdi shigarf,
To‘la maydin andoqki daryoi jarf

Ki, Mallu chu solib chiqib mulkini,
Qochib qoldi go‘yoki bir xozini.

Necha tuhfa ganjidin oning olib,
Chu ul qal’ag‘a azm etib, bu – qolib.

Hamul tuhfalar bir-biridin g‘arib,
Hamono Skandarga ermish nasib.

Alardin biri ul duraxshanda jom,
Ichinda to‘la bodai la’lfom

Ki, har nechakim ichsa kam bo‘lmayin,
Icha olmayin kimsa, xam bo‘lmayin.

Yozib jom davrida ta’rifini,
Qilur chog‘da ul jom tasnifini

Ki, olamni olg‘onda Jamshidshoh
Kim, ul xusrave erdi hikmatpanoh.

Necha yil yig‘ib hikmat ahlin tamom,
Tilism ettilar sa’y etib iki jom.

Birisin dedi: Jomi Getinamoy,
Birisin dedi: Jomi Ishratfizoy.

Chu Getinamo asru mashhur erur,
Muni vasf etay ulcha maqdur erur

Ki, vaz’in tilism aylaganda hakim,
Bu nav’ aylamish soz tab’i salim.

Ki, may jozibi bo‘lgay ajzo anga,
Tamom o‘lmag‘ay boda aslo anga.

Necha ichsalar bo‘lg‘ay ul lab-balab,
Zihi xush tamosho, zihi xush tarab.

Agarchi necha ichsa o‘ksulmagay,
Vale egri ham bo‘lsa, to‘kulmagay.

Aningdekki, may jazbi oning ishi,
Ola olmag‘ay jazb qilmay kishi.

May anda hamul kun magar qolmag‘ay
Ki, olamda maydin asar qolmag‘ay.

Skandarga chun ro‘zi ul jom o‘lub,
Tuzub majlisu bodaoshom o‘lub.

Qilib hikmat ahli tamosho ani,
Ilikdin dame qo‘ymay aslo ani.

Bo‘lub shahg‘a ul nav’ ishratfizoy
Ki, yod aylamay Jomi Getinamoy.

Ketur soqiy, ul jomi yoqutgun
Ki, el tab’ida ishrat etgay fuzun.

Necha bodasin ichsa kam bo‘lmag‘ay,
Muoshirg‘a andin alam bo‘lmag‘ay.

Mug‘anniy, surude chiqor dilnavoz,
Bo‘lub ahli Kashmirdek sehrsoz.

Agar nag‘ma bas qilmoq etsang havas,
Hamul jom gum bo‘lmayin qilma bas!

Navoiy, agar topsang ul nav’ jom,
Nekim bodadin o‘zga ichsang harom.

Xitob etgasen Jomi Boqiy ani,
Vale tutsa gulchehra soqiy ani!

XXXVI

Hakimi koinot payvand va xoliqi bemislu monand masnuoti tamoshosi aning vujudi isbotig‘a hujjati qoti’ va burhoni soti’ ekan bobda nukta surmak va ul sanoe’ning badoe’i jahon kezmakta ko‘prak muyassar erkonga ham dalil kelturmak va safar tariqin uch nav’da taqsim qilmoq: avval, soliki rahnavard o‘zluk bavodisin qat’ etib, maqsad haramig‘a muhtaram bo‘lmoq; ikkinchi sayyohi jahongard talab manozilida boshdin qadam qilib, murshidi komil irshodi bila takmil topmoq; uchunchi, xusravi Bahrom nabard sipohi anjum adad chekib jahon mulkin olmoq

Azal subhikim chekti Fayyozi Jud,
Bori ofarinishqa naqshi vujud.

Taharruk topib kilki taqdir anga,
Bo‘lub kavn ashkoli tasvir anga.

Chu ul xomani qildi suratnigor,
Ajoyib suvar bo‘ldi ko‘p oshkor.

Ajab yo‘q musavvir esa bir oti

Kim, ul chekti kavnaynning surati.

Bu tasvir aro ko‘p g‘aroyib durur,
Nihoyatsiz anda ajoyib durur.

Ki, har qaysig‘a kimki tadqiq etar,
Musavvir kamolini tahqiq etar.

Chu ashyoda ko‘rsa kishi san’atin,
Bilur Sone’i g‘aybdon qudratin.

Ul a’jubalarda bo‘lub xurdabin,
Anga Haq kamolida ortar yaqin.

Kim o‘lg‘ay quyosh sirrining mahrami
Ki, bir zarra mohiyatin odami.

Nechunkim kerak bilmak oson emas,
Ne oson emas, balki imkon emas.

Va lekin kishi zohir etsa talab,
Jahon ichra ko‘ptur ajabdin-ajab.

Muni ko‘rmak o‘lmas jahon kezmayin,
Taab zahrin o‘z komig‘a ezmayin.

Safar zahmati garchi dushvor erur,
Tengiz qa’rida durri shohvor erur.

Muhit ichra cho‘mmay nechukkim nahang,
Kishi ursa bo‘lg‘aymu gavharg‘a changg‘

Katakda qolib bo‘rdag‘on mokiyon,
Ne ma’lumi uchmoqqa sudu ziyon.

Falak javfida g‘arq o‘lub jurraboz
Paru bol urar chun nishebu faroz.

Demay, sayd jonig‘a yag‘mo qilur
Ki, olamni yaksar tamosho qilur.

Tarona chekar soyir erkonda rud,
Chu turdi tarab birla, chekmas surud.

Valoyat ishin qilsalar kimga arz,
Biyikrak maqomi erur tayyi arz.

Safar qilmag‘on odami xomdur,

Sovuqda to‘ngar kimga oromdur.

Falak sayrdin poya topti baland,
Sukun qildi tufrog‘ni xoru najand.

Safar qilmag‘ong‘a ne ogohliq
Ki, elga qilur Xizr hamrohliq.

Ne voqif kishi uydin olmay qadam
Ki, ne jonfizodur tavofi haram.

Xush ulkim, ko‘ngulga kushod istabon,
Qo‘pub azm qilg‘ay, murod istabon.

Fano taylasonini qilg‘ay kafan,
Kafan bas anga, balki gardi mihan.

Tajarrud xiromiga rog‘ib bo‘lub,
Tavakkul samandiga rokib bo‘lub.

Sarobi fano jo‘ybori aning,
Samumi balo lolazori aning.

Ayoqtin-boshi shavq o‘ti ichra g‘arq,
Itik po‘yada sekrib andoqki barq.

Tani chayqalib ko‘ngli topokidin,
Ul o‘t bosh urub jismi xoshokidin.

Qabarchuq kafi poyida har taraf,
To‘la durri maqsud ila iki kaf.

Yorilg‘och suyi dema har yon tomib,
Fano abridin durri g‘alton tomib.

Dema durri g‘altonki, hayvon suyi,
Ayog‘da to‘la har taraf jon suyi.

Yorug‘kim tobonni qilib choklig‘,
Yasab obi hayvon oqarg‘a arig‘.

Xizr aylasa poybo‘sin havas,
g‘araz ichmagi obi hayvonu bas.

Ne biymi malolat, ne xavfi alam,
Bu yanglig‘ yetib qilsa tavfi haram,

Iyo mukrimu hujra tayyor anga,

Karamdin emas bermamak bor anga.

Bu yanglig‘ aziz ulki mehmoni bor,
Qachon mizbon bo‘lmay imkoni bor.

Bu yanglig‘ safar kimgaki bersa dast,
Netar xilvat ichra bo‘lub poybast.

Safar ichra mundin biyik yo‘q maqom,
Va gar kimsaga dast bermas bu kom,

Yomon ermas ul hamki ozodae,
Miyonbastae yo‘lga omodae.

Qadam tortqon xalq abvobidin,
Yetak silkkan olam asbobidin.

Bo‘lub juzvdoni anisi aning,
Kitobi rafiqu jalisi aning.

Jahon ahlida chun vafo ko‘rmayin,
Jahondin dog‘i juz balo ko‘rmayin.

Qilib mayl olam tamoshosig‘a,
Fano mulkiga, faqr sahrosig‘a.

Qo‘pub gom urub fardu farzonavor,
Qilib dasht qat’ini devonavor.

Solib har nechuk yergakim, yetsa ko‘z,
Yeshitib yana barcha el ichra so‘z.

Ko‘rub har mashaqqatda xosiyate,
Topib har mazallatda kayfiyate.

Zilole tilab ko‘nglining tobig‘a,
Tabibe so‘rab dardi noyobig‘a.

O‘zin borcha xayl ichra tuz yetkurub,
Bori tuzlar ollig‘a yuz yetkurub.

Agar yetsa sarvaqtig‘a komile,
Quyoshdek falaksayru ravshandile.

Qo‘yub zarradek sayru sargashtalik,
Yetak chun topib, olmay andin ilik.

 Aning xidmatidin kushode topib,

Xudo ro‘zi etsa murode topib.

Bu yanglig‘ safar dog‘i marg‘ubdur,
Bu ham bo‘lmasa, ul dog‘i xo‘bdur

Ki, tortib Skandarmasallik sipoh,
Bo‘lurg‘a yeti kishvar ahlig‘a shoh.

Qayonkim azimat qilib fath etib,
Qilib har taraf mayl, nusrat yetib.

Bo‘lub gah Ajam mulki tasxir anga,
Musallam bo‘lub goh Kashmir anga.

g‘aroyib nihoyatdin afzun ko‘rub,
Ajib amr g‘oyatdin afzun ko‘rub.

Chu bir-bir kelib kom har dam anga,
Bo‘lub rub’i maskun musallam anga.

Jahon mulkiga hukmi shohi topib,
Bu shahlig‘ni mah to ba mohi topib.

Safar ichra har ishta ahli rashod,
Bu yanglig‘ kushod uzra topib kushod.
Sanga dog‘i bo‘lsa kushode havas,
Bu olamda topmoq murode havas.

Talab yo‘lida qil shitobandaliq
Ki, jo‘yandag‘a keldi yobandaliq.

XXXVII

Iki rafiq hikoyatikim, biri sayrdin quyosh sipehr kishvarida shoh bo‘lg‘ondek, mulk saltanatig‘a yetti va biri sukundin yer olam ahlig‘a lagadko‘b bo‘lg‘ondek, xoksorliq hosil etti, bu ham to garddek harakat etmadi, tufrodin qo‘pub maqomg‘a yetmadi

Xurosonda bor erdi iki rafiq,
Bo‘lub rifq ila bir-biriga shafiq.

Havodis solib ishlarig‘a shikast,
Maosh amrida bo‘ldilar tangdast.

Biri qilmayin tark mulku diyor,
Biri qildi lekin safar ixtiyor.

Mujovirg‘a davron solib zorliq,

Ulusdin ko‘rar erdi ko‘p xorliq.

Kerak elga muflis ko‘runsa qalil,
Kim oni qilur ko‘p ko‘runmak zalil.

Yerur ozki, feruza bo‘lmish aziz,
Chu xarmuhra ko‘pdur – o‘ni bir pashiz[1].

Musofir safarga topib ixtisos,
Burun xud mazallatdin o‘ldi xalos.

Ko‘rub har dam amre bag‘oyat ajib,
Ani tortibon eltur erdi nasib

Ki, tushti guzargohi Yunon sori,
Yetishti o‘luk – obi hayvon sori.

Yere ko‘rdi tufrog‘i hikmatsirisht,
Magar hikmat erdi anga sarnavisht.

Necha vaqt anda maqom ayladi,
Bilik kasbiga ehtimom ayladi.

Musohib bo‘lub ahli hikmat bila,
Base ilm kasb etti rag‘bat bila.

Ne qilg‘olikim kimga niyatdurur,
Burun shart anga qobiliyatdurur.

Chu qobil edi, topti behad vuquf
Ki, hikmatda bo‘ldi jahonfaylasuf.

Anga chun bu ish sayrdin berdi dast,
Yana sayrg‘a tushti qilmay nishast.

Anga Hind mulkiga tushti guzar
Ki, shohig‘a yopilmish erdi nazar[2].

Garav aylab erdi aroda bu so‘z
Ki, sa’y aylab ulkim manga ochsa ko‘z,

Anga aqd aylab ko‘zum nurini,
Ko‘zum ichraki parda masturini,

Ani qurratul-aynu farzand etay,
Ko‘zum nurini anga payvand etay[3].

Chu donog‘a fahm o‘ldi ul ehtiyoj,

Borib bir-iki kunda qildi iloj.

Shah o‘z va’dasig‘a vafo ayladi,
Degandek ani kadxudo ayladi.

Yetib shoh umri kuniga zavol,
Anga topti ul shohlig‘ intiqol.

Chu ogahlig‘ o‘ldi aning yorig‘a,
Bukim shahlig‘ o‘ldi aning yorig‘a.

Safar azmi qildi ajab hol ila,
Falak ko‘bidin jismi pomol ila.

Bu kishvarni chun qildi oromgoh
Ki, yori edi anda kishvarpanoh.

Rafiqig‘a keldi bu ish dilpazir,
Inoyat qilib, etti oni vazir.

Chu mulkida aftodau zor edi,
Ulus ollida dam-badam xor edi.

Vazoratdin o‘lmoq rafohiyati,
Bu dog‘i edi sayr xosiyati.

Chu avvalg‘ining sayri komil edi,
Anga saltanat amri shomil edi.

Kishi o‘zluki mulkidin qilsa sayr,
Anga oqibat aylasun Tengri xayr.

XXXVIII

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, chun safar mujibi shiddatdur, hikmat ahlidin anga nega ruxsatdur va javob eshitmak

Yana dedi shohi Faridunhasham
Ki: «Yey hikmat ahlig‘a roying hakam.

Hazarda bo‘lur komu osudaliq,
Safarda vale ranju farsudaliq.

Chu tab’ anda ranjuru ojizdurur,
Nedin shug‘li hikmatda joyizdururg‘»[1]

Javob aytti fikr birla hakim
Ki: «Yey hikmat amrida fikring salim!

Bukim sayr aro elga yetgay malol,
Aning ruxsatidur mahalli savol.

Vale munda sirri nihoni erur
Ki, naf'i aning jovidoni erur

Ki, har ranjdin so‘ng bo‘lur rohate,
Taabsiz muyassar emas ishrate.

Taomeki, ul mujibi komdur,
Gar o‘t ranjini tortmas – xomdur.

Ne oltunki bor elga dilkashlig‘i,
O‘t ichra bo‘lubtur judo g‘ashlig‘i.

Safarkim, mashaqqatda keldi saqar,
Aning o‘tida kimsa tutmay maqar.

Hamono anga ozmoyish kuni,
Yemas poku xolis vujud oltuni.

Chu har necha o‘t bo‘lsa so‘zandaroq,
Gudoz ichra oltun furo‘zandaroq.

Safar o‘tini aylagan ixtiyor,
Vujud oltunin qildi komil iyor[2].

Ketursa birov imtihondin mahak,
Iyori aro topmag‘ay hech shak.

Yana andin o‘ldi safar ruxsati
Ki, elning erur mujibi sihhati.

Nedinkim, safarg‘a kishi ursa gom,
Taraddud erur mujibi inhizom.

g‘izo hazmig‘a tab' chun bo‘ldi chust,
Kishi bu jihatdin bo‘lur tandurust[3].

Yana ulki, tab'eki bo‘ldi saqim,
Havou suv takroridin topti bim.

Bu iki chu bo‘ldi tajaddudpazir,
Tabiatqa sihhat bo‘lur dastgir

Ki, majbul erur odamizod anga
Ki, har amrkim bo‘lsa mu’tod anga.

Nishotig‘a takror hoyil bo‘lur,
Tabiat tajaddudga moyil bo‘lur.

Tajaddud erur chunki marg‘ubi tab’,
Yerur mujibi aysh mahbubi tab’.

Safarda bu holat muyassardurur
Ki, suvu havo nomukarrardurur.

Tabiatqa bor iki ishtin navo,
Alardin biri suv, birisi havo.

Chu ikisi bo‘ldi muyassar muqim,
Ne uzr aytqay tab’ bo‘lmay salim.

Bas o‘ldi safardin salomat dog‘i,
Bashar tab’ig‘a istiqomat dog‘i.

Hakim ar bu nav’ ishga ruxsat berur,
Xirad ahli ollinda ma’zur erur».

Javobin topib xusravi xurdabin,
Xamush o‘ldi donog‘a deb: «Ofarin!»

XXXIX

Iskandarning Kashmir shahrig‘a yetgandin so‘ngra Malluning tilism qo‘rg‘onidin Kashmirdin yel bila o‘tni o‘g‘urlag‘oni va ul viloyatni bir o‘luk jismdekki, nafasi munqati’ va g‘ariziy harorati muntafi bo‘lmish bo‘lg‘ay qilg‘oni va Aflotunning ul tilismni ochqoni va yashurg‘on yel bila Malluning hayotin barbod etib, maxfiy o‘t sharor va axgarin aning xirmani umrig‘a sochqoni va Iskandarning Mallu o‘rnida Feruzaning charog‘i davlatin yorutqoni

Bu farxunda tarix donishvari,
Dedi bo‘yla «Tarixi Iskandari»

Ki, Mallu chu azm etti qo‘rg‘onig‘a,
Tiriklikni minnat tutub jonig‘a.

Skandar kelib oldi taxtin aning,
Qilib tiyra iqbolu baxtin aning.

Ulusqa berib adli birla navid,
Ulus borcha adlig‘a bog‘lab umid.

Mute’ o‘ldilar hukmu farmonig‘a,
Ko‘ngul bog‘labon lutfu ehsonig‘a.

Xabar so‘rdi chun Mallu ahvolidin,
Bu yanglig‘ dedilar xabar holidin

Ki: «Shoh savlatidin firoriydurur,
Falon qal’a ichra hisoriydurur[1].

Hamul sehr yoxud tilisme so‘zi
Ki, elchi qoshida degandur o‘zi».

Tamomini sharh ettilar mo‘-bamo‘,
Xud anglab edi shohi farxundaxo‘.

Chu ul bir ajab nav’ surat edi,
Aning fikrin etmak zarurat edi.

Yana majmai dilkushoy istadi,
Bilik ahlidin anda roy istadi

Ki: «Kashmir agar toza gulzordur,
Havosi va lekin ajab hordur.

Yesar doimo ruhparvar nasim
Ki, jannatdurur, yo‘qsa bordur jahim[2].

Nasim ar bu gulshanda tutmas vujud,
Guli – o‘tdurur, sunbuli – tiyra dud.

Ajab ishki dahr o‘lg‘ay otashfishon,
Vale topmag‘ay kimsa o‘tdin nishon.

Ne mulk ichrakim bu uqubatdurur,
Bo‘lur elga anda suubatdurur.

Suubat nekim, bo‘lmoq imkon emas
Ki, bu ikining tarki[3] oson emas.

Bu ishga agar chora mumkindurur,
Ne g‘am, gar kishi munda sokindurur.

Yo‘q ersa burunroqki bor ixtiyor,
Ul avloki tark aylasak bu diyor

Ki, ojiz bo‘lub azm ishi xush emas,
Yeshitmakka har yerda dilkash emas».

Dedilar bilik ahli aylab duo
Ki: «Gar shahg‘a bu ishdurur muddao

Ki, oning bu makrini daf’ etkabiz,
Hijobeki ul soldi, raf’ etkabiz.

Nedin shoh tab’i haroson erur
Ki, bu qullar ollida oson erur.

Gar o‘n kungacha shoh muhlat berur,
Ul ish daf’ig‘a Tengri nusrat berur».

Dedi shahki: «O‘n kunga bo‘lsa darang,
O‘tu yelsiz el kelgusidur batang».

Ul ishtin ko‘rub shoh tab’in malul,
Filotuni donishvar etti qabul

Ki: «Farxunda tab’ini shohi jahon,
G‘amin etmasun oshkoru nihon.

Men uch kunda ul nav’ tadbir etay
Kim, ul hol vaz’ig‘a tag‘yir etay».

Bu so‘zni degach nuktadoni bisot,
Skandarga yuzlandi ko‘p inbisot.

Bu holatda ul nav’ gum bo‘ldi yel
Ki, do‘zax aro tushti isig‘din el.

Isig‘din bo‘lub xalq ichi toblig‘,
Ajabroq bukim, o‘tqa noyoblig‘.

Yetib matbax ahli fig‘on qildilar,
Fig‘on ichra bu so‘z ayon qildilar

Ki: «Olam aro yo‘qdur o‘tdin vujud,
Ne axgar, ne shu’la, ne uchqun, ne dud[4].

Degil xo‘blar ko‘nglidek bo‘ldi tosh
Ki, andin emas mutlaqo shu’la fosh.

Temur ursalar o‘t qilib orzu,
Yaqindurki chiqqay o‘t o‘rnig‘a suv.

Agar bo‘lsa shilon ishida futur,
Chu arz ayladuk bizdin ermas qusur».

Maalqissa: o‘tu yel o‘ldi taboh,
O‘t isig‘ dam erdiyu yel sovug‘ oh[5].

Tanur o‘lmayin kunduz otashfishon,
Kecha sham’da shu’ladin yo‘q nishon.

Ajab ishki chun yeldin erdi farog‘,
Nedin qolmadi o‘chmayin bir charog‘.

Isig‘din nazar sham’ig‘a xiraliq,
Sovug‘din yonar sham’g‘a tiraliq.

Ul uch kunda el bo‘ldi andoq zabun
Ki, bo‘ldi engaklarga qo‘llar sutun.

Filotun harimig‘a yuz qo‘ydi shoh,
Aningdekki shah, borcha xaylu sipoh

Kim: «Ul va’dakim qildi donoi dahr,
O‘tub uch kun, el topmadi hech bahr.

Agar mundin ortuq taammul bo‘lur,
Mashaqqatdin el betahammul bo‘lur!»

Dedi hikmatoyini donishpujuh
Ki: «Yel bo‘lmasun bu alamdin sutuh,

Bu kun dog‘i mav’idg‘a doxildurur,
Vale tongla maqsud hosildurur».

Bu so‘z birla taskin topib shohu xayl,
Bori qildi oromgohig‘a mayl.

Ul ish daf’i bu nav’ edikim, hakim
Ki, qildi qabul oni bevahmu bim:

O‘qub erdi Jomosb ahkomida
Bu so‘zniki: «Iskandar ayyomida

Kim, ul bo‘lg‘usi shohi hikmatsirisht,
Jahon mulki fathi anga sarnavisht.

Bo‘lurda jahon mulki tasxir anga,
Chu bo‘lg‘usidur fath Kashmir anga.

Shahi berk qo‘rg‘ong‘a yuz urg‘usi,
Ulusdin yelu o‘tin yoshurg‘usi.

Tilismedurur ul hisor ichra chust,
Bo‘lur topmog‘ oni qilib bozjust.

Hisor ichra bir uydurur sangbast,
Tilism aylamish oni hikmatparast

Ki, yel xaylini anda band aylamish,
Xaloyiqqa daf’i gazand aylamish.

Burun chog‘ esib asru bee’tidol,
Ulusqa yetar ermish andin malol.

Chu yelni hakim etmish ul uyda band,
Yasamish anga ravzani dilpisand.

Kelib mulk sori bu ravzang‘a yuz,
Boqib lek Kashmir shahrig‘a tuz

Ki, ravzan ichindin nekim chiqsa yel,
Hamul yel bila bahramand o‘lg‘ay el.

Chu ravzanni madrus qilg‘ay kishi,
Yesar yelni mahbus qilg‘ay kishi.

Yana qal’a toshida bir choh erur,
Tilisme yana anda dilxoh erur.

Bu choh og‘zi bas tordur, qa’ri keng,
Hamul qal’a davri kenglikda teng.

Aning qa’ri bir a’zam otashkada,
Kayumars chog‘idin otashzada[6].

Ichinda namudor andoq tilism
Ki, ul hufra kunjida bir ro‘y jism.

Kishi hay’ati birla junbishnamoy,
Ul otashgah ichra haroratfizoy.

Yasab ollida dam bila ko‘rae,
Hamul ko‘ra jismida moshurae.

Chu ul ko‘rau damg‘a aylab sitez,
Bu moshura nafxi qilib shu’la tez.

Choh og‘zida zohir sharar birla dud,
Bu dudu sharardin xaloyiqqa sud[7]

Ki, mulk ichra o‘t manba’i ul bo‘lub,
Ne o‘tkim, quyosh matla’i ul bo‘lub.

Bu mulk ichra o‘tlug‘ nekim bo‘lsa tosh,
O‘ti ushbu otashgah ichinda fosh.

Tilism aylabon jazb o‘tlarni pok
Ki, otashgah andin bo‘lub shu’lanok.

Shararlarki choh og‘zida bilgurub,
Hamul kishvar ahlig‘a o‘t yetkurub.

Kishi qilsa ul choh boshini rust,
Hamul nav’kim rust ekandur nuxust.

O‘t o‘lmas yana mulk ahlig‘a fosh,
Kirar yer tubiga nechukkim quyosh.

Skandar qachon olsa Kashmirni,
Aning shohi aylar bu tadbirni.

Ul ish daf’ig‘a ahli hikmat tamom,
Degaylar ayon aylali ehtimom.

Filotung‘a lekin havolatdurur
Ki, hikmatda sohibmaqolatdurur,

Kerak topib ul naqb boshin burun,
Tikib chodir ul yerda tutqay o‘run.

Ochib naqb boshini qilg‘ay xirom,
Qadamni sanab urg‘ay o‘n yetti gom.

Chu o‘n yetti gom urdi qilmay guzar,
Iki yonig‘a yaxshi qilg‘ay nazar

Ki, har sori lavhe erur ta’biya,
Birida yelu birda o‘t ta’miya[8].

Kerak tepsa har lavhni o‘yla rust
Ki, yumrulsa devor ichiga durust.

Biri yelga yo‘ldur, biri o‘tga yo‘l,
Buzulg‘och ravon tashqari qochtik ul

Ki, o‘t birla yel, o‘yla tug‘yon qilur
Ki, yo‘llarki bog‘landi – vayron qilur.

Iki raxnadin chun chiqar o‘tu yel,
Ko‘rar rustaxez ul navohiyda el.

Yel ul qal’a ahlig‘a andoq yetar
Ki, har kimgakim tegdi barbod etar.

Qilur barcha oliy imoratni past,
Berur bori indur yig‘ochga shikast.

Yeli qolmoq o‘lmay xayol aylamak,
Yerur bas xayoli mahol aylamak.

O‘t ul chohdinkim, bo‘lur shu’lazan,
Bo‘lur iltihobi aning qal’akan[9].

Tutoshur hamul qal’a o‘trusig‘a,
Ne o‘trusig‘a, burju borusiga.

Topar shu’ladin toshi ul nav’ tob
Ki, xalqi bo‘lur ichkari sangkabob.

Chu ul lavhlarni ushotti hakim,
Kerak tashqari tursa bir dam vahim.

Agar yel solib qal’ag‘a rustaxez,
Yetishti hamul shahrg‘a tundu tez,

Kirib lavhlar tomg‘a rust aylasun,
Hamul raxnalarni durust aylasun

Ki, ul o‘t bila yelga taskin yetar,
Ikisidin oshubu tug‘yon ketar.

Bo‘lur ham burung‘i qarori bila,
Yel oromiyu o‘t sharori bila».

Filotun bu afsona sharhin bilib,
Qo‘pub erdi shahdin taahhud qilib.

Kezib uch kun ul yerda hanjor ila,
Nishona bitilgan namudor ila.

Topib erdi ul naqbning boshini,
Qilurg‘a fusunsoz podoshini.

Uzotqoch xaloyiq bila shohni,
Hamul naqb uza chekti bungohni.

Makon aylagach arz naqbini mehr,
Chiqordi kavokib tilismin sipehr.

Filotun qilib azm dargohg‘a,
Tilab xilvat o‘ldi yaqin shohg‘a.

Bu so‘zni bilib arz qilmog‘ni farz,
Burundin nihoyatg‘acha qildi arz.

Shah anglab, bo‘lub hayratoyin anga,
Dedi aylab ehsonu tahsin anga

Ki: «Bu ish butarga topildi jihat,
Ne nav’ emdi dono ko‘rar maslahatg‘»

Duo aylabon surdi dono maqol
Ki: «Yey shavkatingg‘a falak poymol!

Manga ulcha darxo‘rd edi, bo‘ldi rost,
Saranjom o‘lur bo‘lsa Tengriga xost.

Bir ish qoldikim, bordur iqbol ishi,
Bugun muqbil andoqki sen yo‘q kishi.

Qaviydur ham iqbolu, ham davlating,
Ham ul ikicha quvvatu himmating.

Taammulluq ishlarga qildim iloj,
Sening dastburdungg‘a bor ehtiyoj

Ki, sindurg‘asen lavhlarni nuxust
Ki, bu ish saranjom bo‘lg‘ay durust

Ki, ham shohsen, ham jahon pahlavon,
Juvonmard o‘zung, davlating navjuvon.

Budur bandalar xotirig‘a murod
Ki, sendin bu ish bandi topqay kushod».

Degach nukta donoyi bisyordon,
Debon ofarinlar shahi kordon.

Nihoni necha mahrami roz ila,
Hamul bixradi chorapardoz ila.

Ravon rokib etti hamul sori azm
Ki, bo‘lmish edi naqb donog‘a jazm.

Chu yetkurdi shoyista hamrohni,
Qaro tunda ravshanravon shohni.

Tushurdiyu naqb og‘zig‘a bordi bot,
Aning birla hamrah shahi pokzot.

Kirib naqb aro oncha qildi xirom
Ki, erdi iki lavhai nuqrafom.

Ikisin Skandarga ko‘rguzdi ul,
Dedi: «Yemdi soat o‘tar, bot bo‘l!»

Skandar alarni ko‘rub bo‘ldi shod,
Hamul shodliqda qilib Haqni yod.

Iki lavhani tepti ul nav’ rust
Ki, yemruldiyu tashqari chiqti chust.

Ikov tiktilar ko‘zni qo‘rg‘on sari,
Ne qo‘rg‘on sari, sun’i yazdon sari[10].

Bu ishdin dame o‘tmadi beshu kam
Ki, o‘t qal’adin ko‘kka chekti alam.

Yana bir nafas o‘tmayin yetti yel,
Aningdekki to yetti, qo‘zg‘oldi el.

Chu yel soldi ofoq aro rustaxez,
Yana qildilar naqb sori gurez.

Iki raxna sori ravon bordilar,
Gachu xisht ila rust butkordilar.

Masolih tutulmoq uchun saddi bim,
Qilib erdi omoda borin hakim.

Balo raxnasi chunki mahkam bo‘lub,
Yelu o‘tning oshubi ham kam bo‘lub.

Chiqib naqbdin shohi gardun janob,
Aning birla donoyi hikmatmaob.

Bo‘lub ikisi baxtdin shodmon,
Sipah jonibi azm aylar zamon,

Hamul naqbdin keldi g‘avg‘o uni,
Alolo bila voyu-vaylo uni.

Hamul damki, qo‘rg‘on aro tushti o‘t
Ki, aflok avjiga yovushti o‘t.

Yana yel ham oshubkim boshladi,
Olib xalqni har taraf toshladi.

Bo‘lub el bu iki balodin halok,
Kirib naqb aro bir necha vahmnok.

Bu xayl ichra Malluvu farzandi ham,
Demay bir-iki, zavju dilbandi ham.

Hamul o‘tdin ul xayli dilso‘xta,
Kuyub bu biri, ul bir afruxta.

Chiqib keldi bori sarosemavor,
Tutoshib hamul shu’ladin hemavor.

Shah ollindag‘i ul guruhi xavos,
Borib aylab o‘tdin alarni xalos.

Ko‘pi o‘ldi ul xayli mahruqdin,
Kishi ko‘rmadi bo‘yla maxluqdin.

Necha kimsakim qoldi bo‘lmay halok,
Biri bor edi Mallu ibni Mabok.

Yana o‘g‘likim, oti Feruz edi,
Qizikim, mahi olamafro‘z edi.

Aning vasfig‘a bu dam ermas mahal
Ki, bo‘lg‘usidur o‘z mahallida hal.

Chu Mallug‘a fahm o‘ldikim-shohdur,
O‘zi umrining tori ko‘tohdur.

Skandar qoshig‘a kelib qo‘ydi bosh,
Boshin chun ko‘tardi, debon to‘kti yosh

Ki: «Shoho, qoshingda gunahkormen,
Jazo har ne qilsang – sazovormen!

Agar afv jurmumg‘a shomildurur,
Tirilmak manga asru mushkildurur.

Gar o‘tdin manga qat’ bo‘lmish hayot,
Yana o‘lturur hazratingda uyot.

Yerur o‘lmagim jazm har hol ila,
Sen o‘lg‘il tirik ko‘p yil iqbol ila.

Chu men bandamen, bu iki bandazod[11],
Alar afvi birla meni ayla shod!»

Ko‘rub shoh ul ajzu taslimni,
Chiqordi aning ko‘nglidin bimni.

Dedi: «Bizdin ermas edi bu sitez,
Sen o‘z boshinga tortting tig‘i tez.

Bu dam hamki tufroqg‘a surtub uzor,
Ayon aylading ajz ila e’tizor.

Qoshingda tuzub afv hangomasin,
Gunohingg‘a chektuk karam xomasin.

Tirilsang inoyat qilib taxtu toj,
Muqarrar qilib kishvaringdin xiroj.

Musallam tutub afsaringni dog‘i,
Chiqoli berib kishvaringni dog‘i[12].

Va gar bermasa umr muhlat sanga,
g‘urub etsa xurshidi davlat sanga,

Xalafzodinga ehtirom aylali,
Sanga oni qoyim-maqom aylali.

Yana zodi iffatmaobingni ham,
Shabiston aro oftobingni ham,

Harimi visol ichra xos aylabon,
Nikoh amrig‘a ixtisos aylabon,

Qilib sham’i majlis shabiston aro,
Anis aylali koxu ayvon aro.

Bu payvand birla bo‘lub ulfate,
Bizing birla bo‘lsun sanga nisbate».

Chu shah qildi bu nav’ so‘zlar ado,
Tarabdin bu xud qildi jonin fido.

Olib jonini lutfu ehson bila,
Qatil ayladi obi hayvon bila.

Urub erdi xanjar zamona anga,
Bu o‘lmak xud o‘ldi bahona anga.

Skandarki mulkida mehmon edi,
Chu kech yetti, tortar nima jon edi.

Chu ul shohg‘a qildi jonin nisor,
Gado etti naqdi nihonin nisor.

Anga bo‘yla bo‘lguncha rihlat chog‘i,
Kelib erdi arkoni davlat dog‘i.

Shah etti necha kimsa ta’yinki, bot –
Anga soz etib barcha bargi mamot[13].

Tong otqoch mulukona tartib ila,
Anga loyiq oroyishu zeb ila.

Sipoh ichra shahlarni ogoh etib,
Borin na’shi davrida hamroh etib.

Ne madfanki, ajdodi osudadur
Ki, tufroq anga anbari sudadur.

Ulug‘ ravzai charx toqi aning,
Yana bir falakcha ravoqi aning.

Yo‘q atrofi ko‘k gunbadining hadi,
Vale har bir, andoqki ko‘k gunbadi.

Toshida falaksoy o‘lub millar,
Ichinda malaksayr qandillar.

Kelib Mallu ajdodining madfani,
Borining og‘ir uyqug‘a ma’mani.

Saloting‘a bo‘lg‘on mahal komgoh,
Bu sultong‘a ham bo‘lsun oromgoh.

Ham andoqki shoh etti inshoi hukm,
Yeshitgonlar ettilar ijroi hukm.

Iki-uch kun atboi aylab jaza’,
Navardida bo‘ldi bisoti faza’.

Hamul mohi Kashmiru rashki Tiroz
Ki, otin qo‘yub erdilar Mehr Noz,

Bor erdi hamul so‘gdin g‘amzada,
Yana o‘g‘li Feruz motamzada.

Hamul so‘g raf’ig‘a shohi zaman,
Mulukona soz aylabon anjuman.

To‘quz poyalig‘ taxt uza o‘lturub,
To‘quz charxning shavkatin sindurub.

Muluk o‘lturub jashnida har taraf,
Yiroqtin olib davrini iki saf.

Bular borgoh ichra maskan topib,
Yiroqtin xaloyiq nishiman topib.

Talattuf bila shohi gardunfirosh,
Berib do‘stlardek aduvsig‘a osh.

Chekib oncha ne’matki charxi dani,
Xirom etgali tushta ko‘rmay ani.

Tuman xonu, har qaysi xoni sipehr,
Bu xonlarda har qurs – bir qursi mehr.

Qo‘y oncha bo‘lub zabhkim, soni yo‘q,
Ot onchaki qo‘y, oncha imkoni yo‘q.

Halovani ta’rif etay rang-rang,
Pishurmakka shakkar ezib tang-tang.

Tabaq o‘rnig‘a sahnni xon tutub,
Tabaqni et o‘rnig‘a biryon tutub.

Yeguluk fuzun haddi avsofdin,
Demay haddi avsofkim, lofdin.

Chu bu nav’ xon chekti doroi dahr,
Jahon ahli ul xonidin oldi bahr.

Chu xonlardin ul jashn xoli bo‘lub,
Shahi dahr farmoni holi bo‘lub

Ki, arkoni davlat xirom aylabon,
Shah ahkomini ehtirom aylabon.

Qilib zeb albosi Feruzni,
Haram ahli – mohi dilafruzni,

Kelib qo‘ydilar boshig‘a toji zar,
Libosi zar ustiga zarrin kamar.

Yana uch to‘quz davlat arkonig‘a,
To‘nu jubba birla aning yonig‘a –

Iki yuzga ham deklayu to‘n berib,
Yalang to‘n alarcha yana o‘n berib.

Alarni chu mundoq sevundurdilar,
Shah ollinda to‘quz yukundurdilar.

Yukungach, tilab shoh Feruzni,
Uzotib kalomi dilafruzni

Dedi: «Chora yo‘q Tengri taqdirig‘a,
Azaldan qazo kilki tahririg‘a.

Jahon ichra bo‘lsun gado, yo‘qsa shoh,
Budur barchaning yo‘li beishtiboh.

Yemas kimsa shahliqqa yetmak uchun,
Yerur shohu darvesh ketmak uchun.

Kishiga erur garchi ummid umr,
Birovga eshittingmu jovid umrg‘

Jahon uzra kim bo‘ldikim, urdi taxt
Kim, ul chekmadi taxta ustiga raxtg‘

g‘alat ayladim, taxt uza raxt erur
Ki, taxt ahlig‘a raxt ziynat berur.

Vale taxtag‘a kimki muhtojdur,
Qiyomat elidek yalangg‘ochdur.

O‘kush raxt ila taxt qilg‘on maqom,
Qilur taxta ustida uryon maqom.

Agar men va gar sen va gar Amru Zayd[14],
Kerakmasdurur rub’i maskunga qayd.

Baharhol chun ketgulukdur kishi,
Ketar fikri doim kerakdur ishi.

Kishiga amal xirman ar xo‘shadur,
Nekim munda ekti anga to‘shadur.

Yerur har kishiga bir ish zodi roh,
Vale zod erur adl bo‘lg‘ong‘a shoh.

Senikim bu mulk uzra shoh ayladim,
Bu kishvarda kishvarpanoh ayladim.

Kerak lutfu ehson shior aylasang,
Adolat yo‘lin ixtiyor aylasang.

Raiyatqa sendin yetib shodlig‘,
Mamolikka yuz qo‘ysa obodlig‘».

Bu yanglig‘ chu irshod etib va’zu pand,
Iki olam ichra bori sudmand.

Anga qildi ta’lim o‘z dinini,
Hamul ahli islom oyinini.

Bu so‘zlar ichiga hulul ayladi,
Yer o‘ptiyu borin qabul ayladi.

Dedi: «K-ey, shahanshohi getisiton,
Adolatda dunyoyu uqbositon.

Bukim aylading mayl farmonima,
Nekim amr qilding, bori jonima.

Degan so‘zlaringga tutub Haq meni,
Umid ulki qilg‘ay muvaffaq meni.

Degandek, Ilohiy, bo‘la olg‘amen,
Ne til birla uzrung qo‘la olg‘amen.

Otamning bo‘lub erdi yoshi uluq,
Men af’olidin bor edim qayg‘uluq.

Dimog‘ig‘a xiffat topib erdi yo‘l,
Quloq solmas erdi nasihatqa ul.

Ani bu jihatdin xato ayladi
Ki, shah buyrug‘idin ibo ayladi.

Berib pand, so‘zlar dedim ko‘p qatig‘,
Chu davlat yonib erdi, so‘z ne asig‘g‘

Chu men bar yedim shoh insofidin,
Umidim budur Tengri altofidin

Ki, qulluqda men dilpisand o‘lg‘amen,
Shah ehsonidin bahramand o‘lg‘amen,

Qaridin agar ishta keldi xato,
Yigit qilmag‘ay, ko‘rdi chun ko‘p ato».

Shah ul so‘zlarin chun nigoh ayladi,
Oto mulkida oni shoh ayladi.

Chu bordi kuhan pir o‘lub notavon,
Aning o‘rnida tutti yer navjuvon.

Ayoqchi, manga jomi pirona tut,
Demon xusravona, faqirona tut.

Hamul jom bo‘lsun manga choraras
Ki, boshtin yigitlik qilibmen havas!

Mug‘anniy, hazin nag‘ma bunyod qil,
Yigitlikning ayyomini yod qil

Ki, ul nag‘madin toza hushe topay,
Sog‘inib yigitlikni jo‘she topay!

Navoiy, base kech ayilding, darig‘!
Yigitlikni barbod qilding, darig‘!

Yigitlikta yo‘l urdi nafsi hasud,
Nadomat qariliqta emdi ne sudg‘

XL

Sabo subhining sabohati ta’rifidakim, nafas-nafas andin yorug‘luq yuzlanur va shabob gulzorining nazohati vasfidakim, lahza-lahza andin ochug‘luq dast berur va ul ayyomda quyoshdek sajdadin yuzni yorutmoq targ‘ibi va bu faslda binafshadek toatqa qad nigun qilmoq tahrisi

Na farxunda axtardurur ul kishi
Ki, toat yigitlikta bo‘lg‘ay ishi.

O‘yun vaqtida tark qilg‘ay o‘yun,
Nekim Tengri amr etti – sung‘ay bo‘yun.

Rizo kasbini bartaraf qilmag‘ay,
Zalolatda umrin talaf qilmag‘ay.

Angakim o‘zi oxirandesh emas,
Bu lahvu havo necha kun besh emas.

Xusho ulki, bilgay oni mug‘tanam,
Nari qo‘ymag‘ay Haq yo‘lidin qadam.

Ne ne’matki ro‘zi qilibdur Xudo,
Hamul shukri ne’matni qilg‘ay ado.

Vale kimki bo‘lg‘ay basirat fani,
Ne mumkin ado aylay olmoq ani.

Niamkim sanga Haq nasib aylamish,
Agarchi ani behisib aylamish.

Yeshit gar tilarsen aning rozini,
Ki, aytay ko‘pidin sanga ozini.

Adamdin sanga berdi avval vujud,
Nabudungni qildi karam birla bud.

Tufuliyat ayyomidin to shabob,
Vujudungg‘a yetkurmadi pechu tob.

Ne mushkil ishingda qilib yorlig‘,
Balolardin etti nigahdorlig‘.

Jamolingni jannatmisol ayladi,
Bo‘yung to‘biyoso nihol ayladi.

Chu afsungar etti ko‘zung jodusin,
Anga soldi oshubu noz uyqusin.

Solib sunbuli zulfungga toblar,
Ko‘ngul bo‘ynig‘a qildi qulloblar.

Tuzotti chu kirpiklaringdin sinon,
Sinonvarlar ilgidin olding inon.

Qoshing yoyin etgach ayon har taraf,
Bag‘ir dog‘in o‘truda qildi hadaf.

Chu berdi iki la’lingga no‘shxand,
Uyotdin ezildi aro yerda qand.

Tishing jolasin qildi durri xushob,
Sadaf bo‘ldi ul durg‘a yoquti nob.

Zanaxdoningga yetkurub rangu bo‘,
Ul olmag‘a jon chashmasi berdi suv.

Zaqan ustida oshkor etti xol,
Hamul chohning nuqtasidin misol.

Jamolingni tovusi zeb ayladi,
Karashmangni obidfireb ayladi.

Sukunungda zeboliq etti ayon,
Xiromingda ra’noliq etti bayon.

Boshingdin-ayog‘ingg‘acha xo‘bluq,
Oyog‘din, boshingg‘acha mahbubluq.

Bulardin o‘gun berdi aqlu havos,
Seni qildi har qaysig‘a rahshunos.

Niam zohir aylab samo to ba arz,
Sanga qildi bir necha qullug‘ni farz.

Aning zimnida dog‘i yuz ming xavos,
Ko‘p ummid qurbig‘a bo‘lmoqqa xos.

Sanga barcha amri faromush o‘lub,
Tiling shukrida gungu xomush o‘lub.

Ne shokir tiling muncha ehsonig‘a,
Ne mashg‘ul o‘zung amru farmonig‘a.

Tutub yer dimog‘ingda devi g‘urur,
Maloik qochib suhbatingdin zarur.

Ne og‘zingg‘a joriy o‘lub juz gazof,
Ne ko‘nglungga toriy bo‘lub juz xilof.

Yigitlikki ayyomi toatdurur,
Sanga bu sifat jahlu g‘aflatdurur.

Qilib «hay» deguncha bu vodini tay,
Chu qo‘ysang qariliq tariqig‘a pay,

Xud o‘lmas tarab yeli ul dam vazon,
Yetar umr bog‘ig‘a fasli xazon.

Bo‘lur yuz nechukkim xazon yafrog‘i,
Sarig‘liqqa lekin yuz urg‘on chog‘i.

Chinor ilgidek titrar el panjasi,
Vale bo‘lsa ul barg yel ranjasi.

Agarchi ilik titrar ul bargvash,
Tomurlar qurur, o‘ylakim obkash.

Yetib tiyra ko‘zlarga za’fi qaviy
Bo‘lur uylari kunjida munzaviy.

Ko‘ks uzra qilg‘on kibi mayl bosh,
Ko‘z uzra tushar kirpik o‘rnig‘a qosh.

Bo‘lur jism uza ayru-ayru bo‘g‘un,
Bir ipdekki bo‘lg‘ay payo-pay tugun.

Kelib rishtag‘a ul tugunlar firih,
Solib ishga har bir tugun yuz girih.

Jabing‘a tushar bir-bir ustiga chin,
Hamonoki «be»sin yoshurur jabin.

Qilur chin ko‘pi yuzni badrang jins,
Fatilakash, andoqki xudrang jins.

Ne xudrang, bal jinsi kohi degil,
Topib toru pudi tabohi degil.

Bu jins o‘lmag‘ay aybning pardasi
Ki, ul xud erur aybparvardasi.

Qilur tab’i borid nafasni sovuq,
Burudatda Bahman yeliga yovuq.

Nafas bardikim yog‘durub qorlar,
Bo‘lub oq mahosin anga torlar.

Agar qo‘psa qad mili chavgon kibi,
Taharrukda bosh go‘yi g‘alton kibi.

Yo‘q ersa yurumak ne imkon yana,
Aso shaklidin qo‘lda chavgon yana.

Taharrukdin ul bosh esa garmpo‘y,
Ne tong iki chavgondurur, fard – go‘y.

Yo‘q, o‘ltursa devor bo‘lmay amon,
Yopushmay uchosi nechukkim samon.

Va lekin uchodin o‘tub tizlari,
Yo‘q imkon ochuq uzvni kizlari.

Va gar yotsa mundoq malolat tuni,
Anga bosh ko‘tarmak qiyomat kuni.

Birov bo‘lsa bu nav’ ranjozmoy,
Anga solim o‘lg‘aymu tadbiru roy.

Har ishga shuru’ etmagi bemaza,
Ibodat anga ortug‘ aylab baza.

Tavono ekan chog‘da aylab gunoh,
Ne sud aylagan vaqt umrin taboh.

Yigitlik erur qulluq etmak chog‘i,
Qariliq erur chunki ketmak chog‘i.

Xusho ulki, umrin taboh etmadi,
Qilur ishlarin qilmayin ketmadi.

XLI

Ul g‘ofil yigit hikoyatikim, voqif pir nasihati qadrin bilmadi, ish vaqtidin o‘tgandin so‘ngra pushaymonlig‘i sud qilmadi

Eshittimki, bir turfa barno edi,
Yuzi dilkashu qaddi ra’no edi.

Nechukkim erur muqtazoi shabob,
Ishi bor edi lahv sori shitob.

Yemas erdi bir lahza berudu may,
Agar navbahoru va gar fasli day.

Bor edi javorinda ahli dile,
Tariqatning odobida komile.

Kelib erdi qo‘shnilig‘idin batang
Ki, bor erdi g‘avg‘o anga bedarang.

Nasihat qilur erdi ko‘p dilpazir,
Vale bo‘lmas erdi anga joygir.

Necha pand ila topsa erdi xitob,
Berur erdi nosihqa mundoq javob

Ki: «Bordur yigitlik farog‘at chog‘i,
Qariliq erur zuhdu toat chog‘i.

Shabob andakim uzr qo‘lg‘usidur,
Vara’ aylamak vaqti bo‘lg‘usidur».

Bu so‘z birla ko‘nglin qilur erdi xush,
Bu xushluq bila bor edi jur’akash.

Shabob o‘ttiyu quvvati qolmadi,
Dedi: «Toat aylay», qila olmadi.

Ham o‘lmish edi fisq odat anga,
Base sa’b erdi ibodat anga.

Va gar qilsa ham zavq topmas edi,
Dame lahvdin diyda yopmas edi.

Chu ko‘rdiki, umr o‘ldi yaksar taboh,
Yana yetti sarvaqtig‘a piri roh.

Ko‘rar turfa barnoni mabhutu masx
Ki, qilmish edi zuhd azmini fasx.

Kelib naz’ vaqti aning boshig‘a,
Sukun tutti rahm aylabon qoshig‘a.

Nekim qilg‘onidin pushaymon ko‘rub,
Zamirini benuri imon ko‘rub.

Dedi: «Pand berdim, vale qilmading,
Bu kun ollinga kelmagin bilmading».

Dedi: «Tajribam yo‘q edi, ey rafiq,
Su uzmakni o‘rganmay o‘ldum g‘ariq.

Qarilig‘da gar bilsam erdi bu hol,
Yigitlik chog‘i qilmas erdim vabol».

Dedikim: «Otangga necha umr edig‘»
Hisob aylabon: «Yuz o‘n iki», – dedi.

Dedi: «Ul ham o‘lmish edi notavong‘»
Yeshitguchi tasdiq qildi ravon.

Kulub dedi sohibdil: «Yey bulhavas,
Yemasmu edi tajribang muncha basg‘»

Angakim yetar Tengridin mavhiba,
Kerak o‘zgalar holidin tajriba.

XLII

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, yigitlikta tab’ nevchun ibodatdin mutanaffirdurur va qarilikqa dimog‘ taaqquldin qosir va hakimning pirona roy bila shohi juvonbaxtqa yo‘l ko‘rguzgani

Yana surdi bu nukta shohi jahon
Ki: «Yey nuktadoni ramuzi nihon,

Yigitlikta ish kasbi osondurur,
Nedin tab’i andin harosondururg‘

Nedindur anga komi lahvu tarab,
Vara’din nega zohir aylar taabg‘

Yigitlikning o‘tgan zamon navbati,
Har ishta nedin kam bo‘lur lazzatig‘

Tarabnok nevchun bo‘lur navjuvon
Qarig‘a bo‘lur ne tarab, ne tavong‘»

Dedi donishomuzi hikmatxisol
Ki: «Yey borcha da’bu xisoling kamol,

Tufuliyyat ayyomi yo‘qtur shuur,
Yerur tab’ royu xiraddin nufur.

Ul ayyom erur lahvg‘a muqtazi,
Xatog‘a, dog‘i sahvga muqtazi.

Nedinkim xiradqa chu yo‘q dastras,
Yerur nafs da’bi havou havas.

Tufuliyyat o‘tgachki bo‘ldi shabob,
Xirad nuri soldi dimog‘ ichra tob.

Kishining bu vaqt ikidur holati,
Erur aqli yo nafsining quvvati.

Agar aqlig‘a quvvat o‘ldi fuzun,
Bo‘lur yaxshi ishlar sori rahnamun.

Vale olam ahlida bu ozdur,
Ulusdin agar bo‘lsa mumtozdur.

Va gar nafsi aqlidin o‘lsa qavi,
Zaruratki, bo‘lg‘ay aning payravi.

Ne amr etsa lahvu havo soridur
Kim, ul nafs mayli xato soridur.

Chu ko‘prak xaloyiqqa budur tariq,
Bo‘lurlar xatokor ko‘prak fariq.

Chu elga berur parvarish ro‘zgor,
Kerak mundoq-o‘q bo‘lsa omuzgor.

Angakim, qilur ruhi qudsi madad,
Solur ko‘ngliga nur sham’i xirad.

Kishikim bu suratqa qodirdurur,
Base ozdur, bo‘lsa nodirdurur.

Adadda chu ko‘prakdur avvalg‘i xayl,
Hamul sori ko‘prakdurur elga mayl.

Bularg‘a taammul chu aylar ko‘ngul,
Berur chunki aksar topar hukmi kul.

Yigit chunki qo‘ydi kuhulatqa yuz,
Ishi qo‘ydi barcha suhulatqa yuz.

Burudatdin abdon to‘la boshladi,
Harorat o‘ti past o‘la boshladi.

Bular tab’ig‘a may bo‘lub dastgir,
Bo‘lub boda birla haroratpazir.

Chu may shug‘li sori bo‘lub murtakib,
Ul ashg‘ol o‘lub mujibi ko‘p laib.

Chu shayxuxat o‘ldi tabiatqa juft,
Qaviy vaz’ig‘a za’f soldi nuhuft.

g‘ariziy harorat o‘ti bo‘ldi past,
Rutubatqa bo‘ldi ul o‘t zerdast.

Qayu o‘tki, suv qilsa tug‘yon anga,
O‘zung deki, o‘chmay ne imkon anga.

Harorat kam o‘lg‘och, bo‘lub me’da sust,
g‘izo topmadi chunki hazmi durust.

Agar qilsa ta’lil quvvat ketib,
Ko‘pidin tabiatqa illat yetib[1].

Tabiatki andin qaviydur dimog‘,
Haroratdin anda yorutur chirog‘.

Ul o‘t o‘chgach-o‘q o‘chti bu sham’ ham,
Taaqqul anga bo‘lmadi jam’ ham.

Dimog‘ ichra xabt o‘ldi behaddu ad,
Futur o‘ldi oyini royu xirad.

Kishi bo‘lsa bu vasf ila muttasif,
Ajab yo‘q agar bo‘lsa masxu hazif.

Va lekin hamul xayli qudsiysifot
Ki, bo‘lmasun ul xaylsiz koinot.

Chu xilqatlari keldi hikmatsirisht,
Saodat alarg‘a kelib sarnavisht

Ki, ul qavm erur yo nabi, yo vali,
Va yo hikmat ahli aro a’qali

Ki, nafsoniyat qilmayin ishta fosh,
Qilurlar nechukkim keraktur maosh.

Badan ichra topib riyozat subut,
Ko‘ngulga berurlar safo birla qut.

Necha bo‘lsalar umr birla asan,
Toparlar kamol ichra vajhi hasan.

Necha kimsaga umr imkon erur,
Alar aqli xurshidi raxshon erur.

Yashag‘on soyi donish ichra boyib,
Katondek necha eskirib ko‘rkonib».

Skandarga chun yetti bu foida,
Savol etmadi nuktai zoida.

XLIII

Iskandarning, ko‘ngul zulfi jodudin xoli hindug‘a mayl etgandek, Kashmirdin Hindustong‘a azimat qilg‘oni va royi hind jamoati ahli yaqin va guruhi hikmatoyinni shafe’ qilib, alar podshohdin quli yozug‘in tilagondek, darxost qilib, qabul tushgoni va Roy Iskandari sohibroyni Hind sori boshlab, beshai Nigorda qishloq ko‘rguzgoni va ul beshaning to‘rt haddi vasfikim, bayon o‘ziga haddi ta’rif bilmas, balki rub’i maskunda andoq yer topilmas

Guzorandai donoi hindinajod,
Bu tarixni mundoq aylar savod

Ki, qilg‘och Skandar bu tadbirni
Ki, Feruzg‘a berdi Kashmirni.

Chu boshin sazovori toj ayladi,
Anga ham muayyan xiroj ayladi.

Muqarrar bu nav’ ayttikim: «Iki oy
Bo‘l o‘z kishvaring uzra ravnaqfizoy.

Bu miod ila jam’ aylab sipoh,
Tegishcha borig‘a berib xarji roh.

Yana qilma hech ish sori iltifot,
Yetish bizga Hinduston sori bot».

Bu so‘zlardin oni qilib sarfaroz,
Yana singlinikim, edi Mehr Noz.

To‘quz parda keynida pinhon qilib,
Harimida sham’i shabiston qilib.

Ayon aylabon Hind azmini jazm,
Ravon qildi Hinduston sori azm.

Cherikka ish oshub bo‘ldi yana,
Zamona lagadko‘b bo‘ldi yana.

Cherik yopibon arsai xokni,
Aning gardi andoqki aflokni.

Borur erdi ul sori aylab shitob,
Urub yo‘lni manzil-bamanzil tanob.

Qayu nohiyatqaki manzil qilib,
O‘tar erdi fathini hosil qilib.

Agar charxvash hisnu oliy jibol,
Sipoh aylar erdi ani poymol.

Yomonlardin ofoqni pok etib,
Vale yaxshilarni tarabnok etib.

Qilib sarkash el shavkatin yerga past,

Zabardastlarni qilib zerdast.

Etib dashtni adlidin bo‘ston,
Anga tegrukim mulki Hinduston.

Xabar chunki fahm ayladi Royi Hind
Ki, shoh o‘lg‘usi kishvaroroyi Hind.

Xud andinki, Kashmirg‘a azm etib,
Ne yanglig‘ ani fath etib, chun yetib.

Fusun rishtasin sarbasar uzganin,
Tilismotning fathi ko‘rguzganin.

Nelar qilg‘onin ahli Kashmir ila,
Agar zo‘r ila, yo‘qsa tadbir ila.

Eshitmish edi borchasin yak-bayak
Ki, ko‘ngli aro yo‘q edi hech shak.

Bilib erdikim aylay olmas xilof,
Ne mumkin xud etmak xayoli masof.

Murattab qilib peshkash asru ko‘b,
Skandar janobig‘a tortarg‘a jo‘b.

Mato’ anda har neki ashyo kelib,
To‘quz-to‘quz andin muhayyo kelib.

Boridin burun zinda pili damon
Ki, titrab alardin zaminu zamon.

Alarning kelib soni to‘quz-to‘quz,
Yana bir rivoyatda o‘tuz to‘quz.

Kelib tog‘dek har birining tani,
Chu zo‘r aylabon tog‘ yiqmoq fani.

Vale tog‘kim, bo‘lsa yakpora tosh,
Namoyishda xokistari xora tosh.

Bir uchida bir charxvash tosh anga
Ki, andin namudor o‘lub bosh anga.

Ajab tog‘ o‘lub jung yanglig‘ ravon,
Iki jonibida iki bodbon.

Qayu jung ko‘ktin nishon ko‘rguzub

Ki, xartumidin Kahkashon ko‘rguzub.

Ne xartumkim, gurza mori damon,
Salobatda ajdar hamon, ul hamon[1].

Chu jismig‘a har lahza ul aylanib,
Degil tog‘ aro ajdaho chirmanib.

Uzub, chirmog‘och solxo‘rda chinor,
Yiqib, turtgach sidraoso minor.

Chiqib xartum atrofidin iki tish,
Alardin falak xaylig‘a sarzanish.

Ajal naxlig‘a har biri soq o‘lub,
Sapidorning soqidek oq o‘lub.

Sifoti «balo»g‘a kelib muttasif,
«Balo» ichra sabt aylagan lom-alif[2].

Ulug‘ jussa birla falakdin misol,
Bo‘lub ul falak uzra changak hilol.

Bu yanglig‘ki sharh o‘ldi tobu tavon,
Solib har biri uzra bargustvon.

Yeti rang deboyi zarkordin,
Mukallal qilib durri shahvordin.

Yana har biri uzra bir turfa taxt,
Ichinda to‘quz hinduyi nekbaxt[3].

Qabul ichra har turfa hole kelib,
Nazar mardumidin misole kelib.

Bori zangiyi xoldek mushkrang,
Bori hinduyi zulfdek sho‘xu shang.

Borining libosi sorig‘ yo qizil,
Bahoru xazon aylabon muttasil.

Hamul pil chunkim xirom aylabon,
Bular anga uyqu harom aylabon.

Yana pilcha xingi toziynajod,
Demay devzodu, deyin devbod.

Nazarg‘a kelib har to‘quz o‘zga rang,

Ki, ul lutf ila kelmayin koʻzga rang.

Namudor aro har biri bir pari,
Vale devmonand oʻlub paykari.

Yugurmakta har bir sabodin oʻtub,
Sabo yoʻqki, raxshi samodin oʻtub.

Xirom aylagach, narm raftor ham,
Yurush barchagʻa tezu hamvor ham.

Har ablaqki, raftor aro gom olib,
Zamon ablaqi koʻz yetarcha qolib.

Har ashhabki, koʻkka boqib kishnabon,
Quyosh ashhabi tobidek ishnabon.

Kejim har toʻquzgʻa yana oʻzga rang,
Jalojillari barcha zarrina rang.

Minib ustiga hinduyi nayzavar,
Zarogin qabo, balki zarrin kamar.

Boʻlub chunki yakronigʻa jilvadeh,
Sinoni bila yerdin olib zireh.

Zuhalrang oʻlub, lek Bahromkin,
Zamiri aro barcha hangom kin[4].

Quloqlarida halqai bandaliq,
Topib oʻzcha oltungʻa arzandaliq.

Yana bu adad birla xarvor raxt,
Tangib tanglar charxkirdor raxt.

Nazokatda har hullai bemisol,
Boʻla olmayin pardapoʻshi xayol.

Boʻla olmayin kiysa mastur tan,
Namudor oʻlub oʻn qotidin badan.

Yana bu adad birla oltun zuruf,
Quyoshdek furuzon, vale bekusuf.

Surohiyu tungu qadah birla jom,
Safou namoyishda xurshidfom.

Yana oncha toʻtiyi shakkarshikan,

Ne shakkarshikan, balki shirin suxan.

Zumurrad tanu la’l minqor ham.
Hamul la’l so‘z vaqti durbor ham.

Yana oncha tovusi zebo jamol,
Latofatda tovusi jannatmisol.

Sanamdek qilib hush qasdida kuch,
Boshi uzra yo‘q tojkim, titraguch.

Yana sandalu ud xarvorlar,
Hamul mushku kofur anborlar.

Bu yanglig‘ muhayyo qilib peshkash
Ki, qilg‘ay tamoshosidin ruh g‘ash.

Akobirki – mulk ichra mavjud edi
Kim, ul xayl mulk ichra maqsud edi.

Bori hikmatoyinu donishpujuh,
Filotunmanish, bal Arastushukuh.

Yana bir guruh ahli zuhdu saloh,
Safoda quyoshdekki chiqqay saboh.

Masihi suxansanj yanglig‘ bori,
Faridi shakarganj yanglig‘ bori.

Bular ollida e’tizor aylabon,
Base ajzlar oshkor aylabon

Ki: «Men bir kamin bandamen shohg‘a,
Boshim moyil ul xoki dargohg‘a,

Xayolimg‘a hargiz xilof o‘tmamish,
Aning birla kinu masof o‘tmamish.

Ne had birla xud qilg‘amen bu xayol
Ki, qilsam ham o‘lg‘ay xayoli mahol.

Birovkim o‘zin tutsa hindu anga,
Ne yanglig‘ chiqor ro‘y-baro‘ anga.

Bukim amri yetganda azm etmadim,
Anga g‘oyati ajzdin yetmadim.

Misolin rusulidin oldim qo‘pub,

Boshim ustiga qo‘ydum oni o‘pub.

Ko‘p erdi manga xizmati multamas,
Borurg‘a vale topmadim dastras.

Nekim hukmi erdi ibo qilmadim,
Bo‘yun to‘lg‘abon mojaro qilmadim.

Misolini jon birla qildim qabul,
Desun bilganin, Tengri haqqi, rasul.

Vale asru majruhu ranjur edim,
Dedim uzr, nevchunki ma’zur edim.

Agar shoh uzrum qabul aylasa,
Buzug‘ kishvarimg‘a nuzul aylasa,

Meni lutf ila aylabon sarbaland,
Xaloyiq aro aylasa arjumand.

Boshim ko‘kka yetgay ul altofdin,
Namudoru oyini a’tofdin.

Quli bo‘lg‘amen tanda jon boricha,
Badan ichra jondin nishon boricha.

Va gar Tengri ko‘rguzmasun, qilsa qahr,
Mayi rifq jomi aro quysa zahr.

Manga zohir etsa gunahkorliq,
Ne tong qilsa hindu siyahkorliq.

Qabul aylamasga dog‘i qayda had
Ki, hindustoniyda bo‘lmas xirad.

Meni shah so‘zi birla mujrim biling,
Vale siz jamoat shafoat qiling.

Shak ermaski chun mahzi altofdur,
Arig‘ xotiri ko‘zgudek sofdur.

Qachon tursangiz siz shafoat qilib,
Gunohimdin o‘tgay inoyat qilib».

Bu so‘z birla hindui shirinzabon,
Ne hinduki, hind ahlig‘a marzbon,

Yibordi hamul xayli cholokni,

Tengiz ollig‘a necha xoshokni.

Hamul peshkashlar bila ul guruh,
Topib har qadam yo‘lda farru shukuh.

Borurlar edi o‘rdu o‘trusig‘a
Ki, yettilar Iskandar o‘rdusig‘a.

Burun borib arkoni davlat sori,
Yana yuz qo‘yub ahli hikmat sori.

Alar dog‘i zohir qilib ehtirom,
Bular dog‘i aylab adoyi payom.

Payomin alarning chu ma’lum etib,
Borib shoh tab’ig‘a mafhum etib.

Skandar chiqib taxt uza shodmon,
Topib Royi hindi g‘azabdin amon.

Hamul el kelurdin topib shodliq,
g‘amu g‘ussa bandidin ozodliq

Ki, bu xayl edi ollida ko‘p aziz,
Ko‘runmas edi Hind moli pashiz[5].

Alarni tilab lutfu ikrom ila,
Surub nukta shohona orom ila.

Saloh ahli yetgach, tushub taxtidin,
Bu tavfiq topib biyik baxtidin.

Ko‘rushgan mahalda qilib o‘zni past,
Ko‘rub o‘zni din ahlig‘a zerdast.

Qilib hikmat ahlig‘a ham mayl bot,
Yetib har birisiga ko‘p iltifot.

Haq ahli qoshida shahi nekbaxt,
Julus etgali qilmayin mayli taxt.

Takallufsiz aylab yer uzra maqom,
Alarni dog‘i ko‘p qilib ehtirom.

Tamomig‘a shoyista yer ko‘rguzub,
Nechukkim erur loyiq o‘lturg‘uzub.

Tilin uzr sori qilib nuktasanj

Ki, bushquncha xud yetmadi yo‘lda ranj.

Burun shahg‘a barcha duo qildilar,
Yana Roy so‘zin ado qildilar.

Qilib shoh izhori sharmandaliq,
Mashoyixqa aylab sarafkandaliq.

Dedi: «Har ne siz etsangiz iltimos,
Yerur farz tutmoq nafas bizga pos.

Sizing shahg‘a garchi gunah oz erur,
Sunufi inoyatqa mumtoz erur.

Agar jurmu isyoni ko‘p bo‘lsa ham,
Ko‘rub ajzini aylar erdim karam.

Xususan sizingdek kiromand el,
Xiradparvaru pokpayvand el.

Kelib bo‘lg‘asiz qilg‘onig‘a shafe’,
Ne qilg‘ay bajuz afv royi rafe’g‘

Gunohi xud oz erdi, ko‘b bo‘lsa ham,
Siyosat tariqig‘a jo‘b bo‘lsa ham,

Bilib kechtim ul barchaning boshidin,
Ilik torttim kinu podoshidin.

O‘ziga inoyatni jazm aylasun,
Qo‘pub borgah sori azm aylasun.

Ishiga chekay mulk birla tiroz,
Boshin toj ila aylayin sarfaroz.

Sariri yuzin kishvaroroy etay.
Livosi tirozin falaksoy etay.

Yana chunki siz xayli farruxjamol,
Ki, bo‘ldum sizing birla farxundafol.

Qadam ranja aylab buyon yettingiz,
Meni xushdilu bahramand ettingiz.

Sizing ranjingiz uzrini qo‘lg‘amen
Ki, andin o‘zim mubtahij bo‘lg‘amen.

Ne kishvarg‘a bir shoh kirgan zamon,

Qadimiy erur rasmi moli amon.

Ani qilmasunlar bu eldin talab
Ki, el topmag‘ay bermagidin taab.

Yana Roy xizmatg‘a chun yetgusi,
Bu kishvar xirojin qabul etgusi.

Xaloyiq boshidan olib ehtiyoj,
Maof ayladuk iki yilliq xiroj».

Bu yanglig‘ karamlar chu ko‘rguzdi shoh,
Ul el bo‘ldilar lutfidin xokiroh.

Ul axloqi behaddu g‘oyat ko‘rub,
Yana baxshishi benihoyat ko‘rub,

Aning shukrin ayturg‘a lol o‘ldilar,
Duo derda oshuftahol o‘ldilar.

Chu bir yo‘li yuzlandi mufrit surur,
Yaqin erdi jon tandin o‘lg‘ay nufur.

Ne nav’ o‘lsa o‘zlarni zabt aylabon,
Duo sori oyini rabt aylabon

Dedilarki: «To doyir o‘lg‘ay sipehr,
Sipehr uzra to aylag‘ay sayr mehr,

Sipehr uzra bo‘lsun sanga taxtgoh,
Quyosh girdbolishtidin takyagoh.

Falak bo‘lmasun sendek ogohsiz,
Jahon bo‘lmasun sen kibi shohsiz.

Musaxxar bo‘lub barcha olam sanga,
Yeti kishvar o‘lsun musallam sanga.

Yuzung aylasun baxt mehri samo,
Zamiringni mir’oti getinamo.

Janobingg‘a kelganda behol eduk,
So‘z ayturda qo‘rqunchdin lol eduk.

Seni o‘zga shahlardek ettuk gumon,
Deduk o‘zga shahlar hamon, sen hamon.

Ne bildukki, bo‘lsa alar tiyra xok,

Seni Tengri xalq aylamish nuri pok.

Seni shohlar ichra qilmish Iloh,
Aningdekki, soyir ulus ichra shoh.

Ko‘rub senda bu nav’ xulqi karim,
Ko‘nul ichra ne vahm qoldi, ne bim.

Birovdekki, gulni o‘t etgan gumon,
Isidin tirilgay yetishgan zamon.

Chu toptuq janobingg‘a mansubluq,
Fuzun bo‘ldi hayratqa mag‘lubluq.

Qililg‘och ishingda tafakkur fuzun,
Tahayyurg‘a bo‘ldi tahayyur fuzun.

Ko‘ruldi sifotingki mastur emas
Kim, ul nav’ insong‘a maqdur emas.

Vujudung Haq etmish maloyiksifot
Ki, sensiz dame bo‘lmasun koinot.

Seni bo‘yla bilsa edi Royi hind,
Kelib qilmag‘ay erdi parvoyi hind.

Ijozat agar bo‘lsa kelturmaki,
Yuzin ostoningg‘a yetkurmaki.

Borib afvu lutfung bayon aylali,
Hazin xotirin shodmon aylali.

Ani tortali qullug‘ungg‘a yovuq,
Ko‘zin xoki poyingdin etsun yoruq».

Dedi shahki: «Sizga nekim bo‘lsa kom,
Manga kom erur, andin o‘zga harom».

Duo qildilar ul jamoat qo‘pub,
Yana yo‘lg‘a yuz urdilar yer o‘pub.

Yetib Royi hind ollig‘a shodmon,
Ani ham qilib shod yetgan zamon.

Berib borcha holatdin ogohliq,
Tilab azm qilmoqqa hamrohliq.

O‘ziga topib Roy mundoq najot,

Degaysenki, o‘lganga yetti hayot.

Hamul xaylni solibon ilgari,
Ravon bo‘ldi shoh ostoni sari.

Yana tuhfalar burnog‘idin shigarf
Ki, vasfig‘a qilmay vafo savtu harf.

O‘ziga hamul elni hodi qilib,
Hidoyat bila qat’i vodi qilib.

Alar dog‘i rahbarlig‘ aylab anga,
Bori yo‘l suxanvarlig‘ aylab anga.

Shahi komron vasfini soz etib,
Bu qilmay tamom, ul bir og‘oz etib.

Debon fayzu naf’ini xurshidvor,
Ani zarradek aylab ummidvor.

Debon bo‘yla so‘zlarni hamrohig‘a,
Qadam qo‘ydilar shah dargohig‘a.

Ravon berdilar shahg‘a ogohlig‘
Ki, Roy etmish ul elga hamrohlig‘.

Yana hukmi oliyg‘a bo‘ldi sudur
Ki: «Bersun bilik ahli majlisqa nur».

Alar Hind Royin olib kirdilar
Ki, bu hukmg‘a muntazir erdilar.

Kafan egnidau qilich bo‘ynida,
Yana mavt piroyasi qo‘ynida.

Ani ko‘rgach-o‘q ayladi man’ shoh
Ki, ul qilmamish erdi oncha gunoh.

Ki, kelgay bu yanglig‘ mazallat bila,
Bu baskim, kelur ahli millat bila.

Nechukkim, muruvvat anga erdi fan,
Dedi, oldilar tig‘ birla kafan.

Keturdilar aylab base ehtirom,
Anga tegrukim shohi oliy maqom.

Shah e’zoz ila arjumand ayladi,

Quchushmoq bila sarbaland ayladi.

Qilib shohning poybo‘sig‘a mayl,
Nechukkim, tushar tog‘ ayog‘ig‘a sel,

Yuqorroq chekib shoh ikrom ila,
Quchub shohni Roy ham kom ila.

Yonib chun quchardin bo‘lub ko‘ngli xush,
Keturganlarni aylabon peshkash.

Shah aylab qabul, anga yer ko‘rguzub,
Mulukona qonunu oyin tuzub.

Nekim vahm edi ko‘nglidin qildi raf’,
Zamiridin andeshani qildi daf’.

Yana ul suruk zumrai dinni ham,
Dog‘i zumrai hikmatoyinni ham,

Burung‘idek aylab rioyat base,
Niyoz uzra qildi inoyat base.

Takallum qilib shah base jonnavoz,
Demay jonnavoz, ayt mehmonnavoz.

Bori Hind elin o‘yla sayd ayladi
Ki, tori vafo birla qayd ayladi.

Muloyim chiqib bazm haddin fuzun,
Tasalsul bo‘lub nuktalarga uzun.

Shah altofini chun ko‘rub beqiyos,
Qo‘pub Royi hind ayladi iltimos

Ki: «Aylab karam shohi gardunnahib,
Bu kishvarga ruxsoridin bersa zeb.

Tavaqquf qilib munda bir necha oy,
Qilib Hind tufrog‘ini charxsoy.

Bu kishvardakim ko‘p g‘aroyibdurur,
Demay, ko‘pki, koni ajoyibdurur.

Ajab beshau bul’ajab vahshu tayr,
Farog‘at bila necha kun qilsa sayr.

Yetibdur yaqin g‘olibo qish dog‘i,

Bu qish ichra yo‘q qilg‘udek ish dog‘i.

Bajuz bodau rudu ayshu nishot,
Farog‘at bila aylamak inbisot.

Xususanki Hindustonning qishi,
Qilur xalq tab’ig‘a navro‘z ishi.

Bulut uzra yomg‘ur, shajar uzra vard,
Ne sovug‘, ne issig‘, ne bolchig‘, ne gard.

Hamalg‘a quyosh chunki bergay sharaf,
Yurush azmi gar bor esa har taraf.

Sipah tortmoq vaqti ham uldurur,
Kishi har ish aylay desa yo‘ldurur».

Kelib shoh ko‘ngliga bu nukta xush,
Aningdekki, suv ko‘rsa sohib atash.

Qabul aylabon, bo‘ldi xushhol ko‘p,
Hamul elga yuzlandi iqbol ko‘p.

Dedi: «Qay sari bo‘lsangiz rahnamoy,
Bo‘loli bu qish anda mahmilkushoy».

Dedilarki: «Dehli erur poytaxt,
Munosibdurur tortmoq anda raxt».

Dedi shahki: «Shahr ichra sig‘mas sipoh,
Kerak beshada elga oromgoh.

Va gar sig‘sa dog‘i emas dilpisand
Ki, yetgay raoyog‘a eldin gazand.

Ravon bo‘lsa bizdin birov ilgari
Ki, yer ko‘rsa ul shahrdin tashqari.

Yiroqroqqina bo‘lsa ham bok emas
Ki, el shahrsiz asru g‘amnok emas».

Yana iltimos aylabon dedi Roy
Ki: «Hukm aylasa shohi kishvarkushoy,

Bu qul borsa bu ish saranjomig‘a,
Ko‘rarga mahal shoh oromig‘a.

Yo‘q ersa ko‘ngul hech topmas qaror,

Manga yuzlanur dam-badam iztiror».

Bu so‘zdin anga shohi farxundafar,
Inoyat qilib taxtu toju kamar.

Base tezrav raxshi xoroshikan,
Bori karkzo‘ru bori piltan.

Murassa’ egar birla tazyin topib,
Yana g‘oshiya gavharoyin topib.

Uzotib ani Hind sori nuxust,
O‘zi dog‘i azm etti ul yon durust.

Yetishti chu o‘z kishvari ichra Roy,
Bo‘lub kishvar ahlig‘a ishratfizoy.

Bilib elki dushmandin o‘lmish amon,
Qilib shod ko‘nglini yaxshi-yamon.

Shah etgan karamlarni bori bilib,
Bo‘lub shodu behad duolar qilib.

Yana Roy chun xushdil aylab elin,
Skandar yarog‘ig‘a bog‘lab belin.

Hamul beshakim der edilar Nigor[6],
Ichida aning benihoyat shikor.

Ne besha, Eram bog‘ining g‘ayrati,
Xirad nutqini lol etib hayrati.

Kelib beshadin atri anbar nasim,
Qilib tiyra tufrog‘ni abharshamim.

Muqorin kelib sandalu obnus,
Shabah birla ul nav’kim sandarus.

Nasimeki sandal saridin yetib,
Dimog‘ uyini sandalolud etib.

Hamul is tutub beshau tog‘ni,
Qilib sandalisuda tufrog‘ni.

Yilon sandaloso shajar soqig‘a,
Sochidek buti siymbar soqig‘a[7].

Qaranful qilib mayl sunbul sori,

Aningdekki, sunbul qaranful sori.

Shajar har biri yetkurub ko‘kka bosh,
Bo‘lub barglar ichra pinhon quyosh.

Quyosh barg aro ul sifat munzavi
Ki, tufroqqa soya aro partavi.

Chinor andakim panja aylab xizob,
Bo‘lub, o‘ylakim panjai oftob.

Falakkim yetib javzi bo‘yo anga,
Bosh aylanmog‘i soldi go‘yo anga.

Shajarkim bo‘lub javzi bo‘yo yeri,
Kelib shoxig‘a dorchiniy tiri.

Chu zaytun bo‘lub charx ila muttasil,
Bo‘lub charx zaytuni andin xijil.

Qayu naxlkim, shoxi ko‘ktin oshib,
Anga tok shoxi chiqib chirmoshib.

Uzum xo‘shasi birla ahli rasad,
Sipehr uzra Parvin ko‘rub beadad.

Hamul tokkim, bo‘ldi shox uzra band,
Solib sidra shoxig‘a pechon kamand.

Anga yormonib xo‘shaduzdi xayol,
Sipehr uzra chiqmog‘ni ko‘rmay mahol.

Xazon ichra chun bargi asfar sochib,
Falak har sori yuz ming axtar sochib.

Bu ashjor uchida har jins tayr,
Bo‘lub toyir o‘lg‘onda afloksayr.

Dema tayr charx uzra soyir bo‘lub
Ki, har tayr bir Nasri Toyir bo‘lub.

Suruk turfa to‘tii dilkashnavo
Ki, har yon tutub besha ichra havo.

Qo‘nub qay shajar uzra axzar qilib,
Ne axzarki, Xizri payambar qilib.

Bo‘lub bargsiz naxl noju kibi,

Ne nojuki, bu charxi minu kibi.

Dema charxi minuki, gulbun misol,
Gul ul xaylkim, ko‘rguzub rangi ol.

Qizil xaylining rangi gulnor o‘lub,
Anga shu’lai nor minqor o‘lub.

Qizil, yoshil aylab chu har yon hujum,
Yasalg‘on kibi aylabon rangi mum.

Yana shoraki nuktago‘ xayl-xayl,
Qilib hind elidek takallumga mayl.

Qilib lavha kimson bila zevari,
Aningdekki, hinduyi bozigari.

Dema lavhakim, lavhai zarnigor,
Qilib zarvaraq birla afsarnigor.

Qayonkim kiromanda madfun kelib,
Kim oni ko‘rub, zoru maftun kelib.

Javak atlas aylab o‘ziga libos,
Kiyib bo‘rk o‘rnida boshig‘a tos.

Xiromanda tovusi zebo jamol,
Malak xaylidin zohir aylab misol.

Qilib jilva har yon, vale masti noz,
Surohi kibi mastu gardanfaroz.

Surohi kelib lojuvardiynishon,
Qilib oni zarhal bila shustmon.

Tazarvi xiromanda, durroj ham,
Qilib hush naqdini toroj ham.

Bo‘lub chun tazarv aylabon mayli sarv,
Bu guldasta mili, mutallo – tazarv.

Chu tovus o‘lub shoxi oliynishin,
Bo‘lub sidra shoxida Ruhul-Amin.

Yeri sabza birla zumurradnishon,
Anga charxi mino zabarjadfishon.

Shimolida bu beshaning rudi Sind[8],

Janubida zohir bo‘lub shahri Hind.

Bu rud ichra yuz kema sur’atnamoy,
Falak bahrida o‘ylakim yangi oy.

Kelib haddi sharqida bir naysiton
Ki, vasfida kamdur necha doston.

Sarosar bu nay ichra shakkar butub,
Ne shakkarki, qandi mukarrar butub.

Bo‘lub sharbat ul naysitonning suyi,
Shakar, bolchig‘ o‘rniga suvdin quyi.

Yana haddi g‘arbida tog‘e rafe’,
Bo‘lub to‘rt fasl anda – fasli rabe’[9].

Qishu yoz mamlu rayohin anga,
Kelib nahlai shahd gulchin anga[10].

Nihoyatdin ortug‘ kelib bu kalez,
Bo‘lub borcha bu tog‘ aro shahdrez.

Kishi qaysi toshe sorikim boqib,
Aning shahdi bir chashma suvdek oqib.

Qayu ko‘l sori elga bo‘lsa vurud,
Ko‘rub shahd oqqonni andoqki rud.

Kiyik xayli bu tog‘ uza ming gala,
Gulu shahd arosida bori yala.

Bug‘uyu maral – nayistonida sayd,
Shakardin borining ayog‘ida qayd.

To‘la bahrida mohiyi siymgun,
Falak Huti har bir qoshida zabun.

Yana besha atrofida domu dad,
Kishi ovlamog‘lig‘ uchun beadad.

Kelib shahri xud vasfdin tashqari,
Bo‘lub xira ko‘z chun boqib har sari.

Bu beshadakim, dedim avsofini,
Qalam qildi mahdud atrofini.

Yere erdi ochuq bag‘oyat anga,

Gulu sabza bas benihoyat anga.

Qulovuzlug‘ aylab, bo‘lub rahnamoy,
Tushurdi Skandarni farxunda Roy.

Hamul sabzag‘a tushti xaylu sipoh,
Tikildi yana charxso borgoh.

Shah ul yerdin asru nishot aylabon,
Yurub har yonin ehtiyot aylabon.

Basirat bila har taraf ko‘z solib,
Aning tavru vaz’ida hayron qolib.

Qilib Roy anga oncha qulluq ayon
Ki, qosir bo‘lub sharhi ichra bayon.

Bori shug‘ldin shohi ma’zul o‘lub,
Qish ul yerda ishratqa mashg‘ul o‘lub.

Ketur soqiy, ul sog‘ari zarnigor
Ki, may la’lidin bo‘ldi gavharnigor.

Chu dashti Nigor ichra qildim maqom,
Keraktur manga zarnigor emdi jom.

Mug‘anniy, tuzot nag‘mai rexta,
Ani qil unung birla omexta

Ki, bir sabzi shirin yana Hind aro,
Mening ro‘zgorimni qildi qaro.

Navoiy, nelar qildi xomang yana
Ki, bir mulki Hind o‘ldi nomang yana.

Necha ko‘rsa mulkida hindu savod,
Unutqay ko‘rungan zamon bu savod.

XLIV

Afv fazilatidakim, daryodil juvonmardlar mujrimlar gunohi xasu xoshokin baxshish nasimi bila ko‘ngul bahridin adam savohilig‘a surarlar va yuzlariga daryo mavjidek chin tushmas va hayrat zulumotidag‘i ovoralarni karam sham’i rahnamoylig‘i bila ul vodiyi haloktin chiqorurlar va ul tiyraliktin alarg‘a hech bushmas

Birov shahlar ichra erur muhtaram
Ki, bo‘lg‘ay aning da’bi afvu karam.

Angadur jahon ahlidin fardlig‘
Ki, oyini bo‘lg‘ay juvonmardlig‘.

Ani bil juvonmard yoxud karim
Ki, bedodidin bo‘lmag‘ay elga bim.

Demasmenki, bedod kom etmagay
Ki, bedodg‘a intiqom etmagay.

Gunahkor bo‘lg‘och anga uzrjo‘y,
Karam bahridin bo‘lg‘ay ul jurmsho‘y.

Quyi qilsa mujrim boshini uyot,
Quyiroq ani solmag‘ay tig‘i bot.

Gunah loyida kimsa bo‘lsa asir,
Toyilg‘och oyog‘ bo‘lg‘ay ul dastgir.

Muqassir shafe’ etsa taqsirini,
Talattuf bila qilsa tadbirini,

Va gar hurmat ahlini qilsa shafe’,
Shafoatgar amrig‘a bo‘lsa mute’,

Agar afvning bo‘lsa gunjoyishi,
Gunoh ahlig‘a yetsa baxshoyishi,

Ulus uzra, ey bandakim, shohsen,
Necha so‘z eshitgil gar ogohsen:

Guruheki ul soyiri nosdur,
Sening hukmunga ishlari posdur.

Erursen senu ul guruh – insdin,
Bori ofarinishda bir jinsdin.

Kamol ichra sendin ko‘pi arjumand,
Yana qobiliyatda dog‘i baland.

Senikim Haq aylab borig‘a amir,
Alarni sanga qildi farmonpazir.

Qayu birga bersa edi bu kushod,
Ne qilg‘ay eding qilmayin inqiyodg‘

Bukim Haq seni imtiyoz ayladi,
Bori xalqqa sarfaroz ayladi.

Gunahdin tilar chog‘da Haqdin amon,
O‘zungni alarning biri qil gumon.

Nekim o‘z qoshingda erur noravo,
Ulusqa ani ko‘rma aslo ravo.

Chekar chog‘da mujrim itobig‘a til,
Haq ollida jurmungni yod aylagil.

Yomong‘a jazo gar siyosatdurur,
Muruvvat – tariqi rayosatdurur.

Ani qatl aylardakim joni bor,
Hayal ayla, onchaki imkoni bor.

Necha qatlg‘a kimsa shoistadur,
Qasosida ta’xir boistadur.

Etar bo‘lsa filhol o‘lumdin gazand,
Abas bo‘ldi, bas hibsu zindonu band.

Bugun kimsa zindonda bo‘lsa ne bok,
Bo‘lur chun ani tongla qilmoq halok.

Taammulsiz o‘lsa bugun begunoh,
Sanga holini tongla bilganda, oh!

O‘zungni gar o‘ltursang ul dam ne sud,
Boshing kessang ilging bilan ham ne sudg‘

Nedin solg‘asen kimsaga bir maraz
Ki, topmas davo bo‘lsa joning evazg‘

Ne qilmoqdurur bir imoratni past
Ki, mumkin emas butmak, o‘lg‘och shikast.

Ani ko‘rkim, ul zori mazlum ano,
Necha ko‘rdi hifzida ranju ano[1].

Ul uyg‘onmasun deb, yebon qayg‘usin,
Harom ayladi kechalar uyqusin.

O‘tuz-qirq yil davra aylab sipehr,
Anga ko‘rguzub tarbiyat ichra mehr.

Tushub ul dog‘i charx davronig‘a,
Kirib qarndin so‘ng kishi sonig‘a.

Qilib hukm senkim, sitampeshae,
Chopib boshini qilmay andeshae,

Ravokim ko‘rub bu gazandi aning,
Tama’ eski to‘niyu bandi aning.

g‘araz nafsdin anga bu shumluq,
Yo‘q ulkim, sanga qilsa mahkumluq.

Ne nav’ aylagay kimsa, vah-vah, bu ish,
Ravomu bo‘lur, Alloh-Alloh, bu ish.

Bo‘rigaki qo‘y bo‘g‘mog‘i peshadur,
Shubon mehnatidin ne andeshadurg‘

Kabutarni rosu[2] qilurda halok,
Anga tifl o‘zin o‘ltururdin ne bokg‘

Agar qatl o‘lur o‘z yerida ayon,
Siyahchol aro iki kun ne ziyong‘

Va gar aylasa ul xatoni kishi,
Ne qilg‘ay bu yanglig‘ baloni kishig‘

Va gar kimsaga sobit o‘ldi gunoh,
Karam qilsang o‘lg‘on zamon uzrxoh.

Agar odami bo‘lsa – to joni bor
Yana qilmoq ul ishni imkoni borg‘

Ani jon bila aylading muhtaram,
Senga zohir o‘ldi kamoli karam.

Tiriklikdin o‘lg‘ay anga bu g‘araz
Ki, qilg‘ay sening bu ishingga evaz.

Agar topsa yuz jon, fido aylagay
Ki, to ul haqingni ado aylagay.

Agar qolsa bu orzudin yiroq,
Yevaz Tengridin gar yetar, yaxshiroq.

Yevazg‘a dog‘i qilmasa iltifot,
Bas ermasmudur dahr aro yaxshi otg‘

Skandarki andoq karam ayladi,
Qolur otni andesha ham ayladi.

Bu nav’ o‘lsa kimda karam javhari,
Bugun uldur ofoq Iskandari.

Kim o‘zni karam ichra mohir qilur,
Karam o‘z xavosini zohir qilur.

XLV

Ul tojir hikoyatikim, sudu savdosidin uluq ziyon boshig‘a keldi va jigargo‘shasi firoqidin jigar pargolalari yuzin munaqqash qildi va belidagi naqdin o‘lumlukni xalos qilur uchun berdi va qutulg‘on o‘lumluk aning jigargo‘shasi, balki naqdi erdi

Adan1 mulkida bor edi tojire,
Tijoratda tujjor aro mohire.[2]

Bor erdi bir ozoda farzand anga
Ki, yo‘q erdi olamda monand anga.

Yeshilmas edi noqadin mahmili,
Har o‘n kunda bir shahr edi manzili.

Borur erdi bir kecha shabgir etib,
Base sudu savdoni tadbir etib,

Bas etmay dame dashtu daryo so‘zin
Ki, urdi qaroqchi alarg‘a o‘zin.

O‘lum xavfidin borcha butroshtilar,
Qochib har biri bir boyir oshtilar.

Chu qochqon sari chiqdi tuz har kishi,
Bir iqlimg‘a qo‘ydi yuz har kishi.

Chu qutqordi jon tojiri rahnavard
O‘zin, lek o‘z o‘g‘lidin topti fard[3].

Jigargo‘shasin topmay ul tiyraro‘z,
Jigardin chekib ohi aflokso‘z.

Bu g‘amdin jigarni topib yoraliq,
Dedi: «Menmen emdiyu ovoraliq.

Quyundek yuz urg‘umdurur har taraf,
Bu xokiy badan bo‘lg‘ucha bartaraf.

Murodim harimig‘a qo‘ysam qadam,
Biyobonda sargashtalikdin ne g‘amg‘»

To‘kulgach haromi anga nogahon,
Ming oltun belida bor ermish nihon.

Belida muhayyo ko‘rub to‘shasin,
Yuz urdi tilarga jigargo‘shasin.

Jigar oqizib ko‘z yo‘lidin mudom,
Jigargo‘sha istab urar erdi gom.

Anga po‘ya resh etmish erdi jigar
Ki, bir turfa kishvarg‘a qildi guzar.

Jigarxuni bedil qilib dasht tay,
Hamul shahr gasht etgali urdi pay.

Ko‘rarkim, guruhe turubtur kasir,
Alar ilgida bir jigarxun asir.

Jigarguna, lek qon arosida g‘arq,
Boshi uzra tig‘e, aningdekki barq.

Jigarrang o‘lub qon aro hay’ati,
Bo‘lub bois ul ishga qon tuhmati.

Ming oltung‘a qonlig‘ qilib sarbasar,
Berurga vale kimsa chekmay jigar.

Bu savdo ko‘rub tojiri notavon,
Jigargohidin yeshti naqdin ravon.

Chu qutqordi mazlumni to‘shasi,
Qutulg‘on xud ermish jigargo‘shasi.

Anga ashk to‘kmakta ma’zur edi,
Ajab ishki, qon birla qon yur edi.

Chu butti jigar zaxmidin yorasi,
Dedi: «Holing ayt, ey jigar porasi»[4].

Dedi: «Ul kecha bo‘lg‘ach andoq balo,
Men o‘ldum aduv ilgida mubtalo.

Burun barcha qatlimg‘a jahd ettilar,
Boshimdin kechib so‘ngra ahd ettilar.

Kim: «O‘lturmoli, bo‘l bizing yorimiz,
Ne ish aylasak sohibasrorimiz».

O‘lar chog‘da bu nav’ in’omdin,
Mute’ o‘ldum ul elga nokomdin.

Bu kunga deginkim bu kishvarga azm
Qilib, ettilar jam’e el birla razm.

Bulardin shahodat topib bir faqir,
Alardin men o‘ldum bularg‘a asir.

Chu holimni hokimga yetkurdilar,
Surub meni qonliqqa topshurdilar.

Topar chog‘da umrum quyoshi kusuf,
Sanga xud bor o‘z qilg‘oningdin vuquf.

Ochib rodi ilging karam aqdini,
Berib naqd siym, oldi jon naqdini».

Ulus voqif o‘lg‘och bu ahvoldin,
Xabar berdilar shahg‘a ul holdin.

Chu voqif bo‘lub ul navohi shahi,
Karam nuktasining bo‘lub ogahi.

Yano qildi tojirni piroyaliq,
Burundin fuzun naqdu sarmoyaliq.

Ming oltungakim zohir etti karam,
O‘g‘ul toptiyu yuz ming iqbol ham.

Karam yomg‘uri qaydakim sochilur,
Anga oqibat gul bu nav’ ochilur.

XLVI

HIKMAT

Iskandarning savoli Arastudin ul bobdakim, har amalg‘akim, bir jazodur, ul amal tuxmig‘a bu bir nedin sazodur va javob mahsulin ko‘tarmak

Yana so‘rdi doroyi hikmatsirisht[1]:
«Ki ey harfi hikmat sanga sarnavisht,

Bukim keldi har ishga bir xosiyat,
Manga zohir etkim, nedur kayfiyatg‘

Ne fe’leki keldi birovdin yomon,
Yomonliq ko‘rardin anga yo‘q omon.

Va gar yaxshiliq kimga af’ol erur,
Jazosi aning ganji iqbol erur.

Nedin mundoq erkonga bir nukta sur,
Munung sirrini xotirimg‘a yetur».

Dedi nuktapardozi dono[2] manish:
«Ki ey nuktadin zotinga parvarish,

Nekim Tengri xalq etti ofoq aro,
Ne ofoqkim, bu kuhan toq aro.

Nihoniy anga berdi xosiyate,
Bu xosiyati ichra kayfiyate.

Agar qoyil ermas bu ishga kishi,
Bo‘lur bar abas ofarinish ishi.

Bashar xaylikim jahl erur lozimi,
Qachonkim bo‘lurlar har ish ozimi.

Agar naf’e ul ishta maqsud emas,
Ul ish kimsadin, bilki, mavjud emas.

Agar xud g‘araz naf’e pinhoni yo‘q,
Birovdin bir ish bo‘lmoq imkoni yo‘q.

Bajuz tifl yo ulki devonadur,
Xiraddin bu ikisi begonadur.

Vale har kishi bo‘lsa ahli uqul,
Taammulsiz ish aqli etmas qabul[3].

Qachon bo‘lsa maxluq aro bo‘yla hol,
Ajab yo‘qki, Xoliqdin o‘lg‘ay mahol.

Bukim naf’siz xalq qilg‘ay vujud,
Agar ravshan o‘tdur va gar tiyra dud.

Nekim ofarinishqa payvastadur,
Bori bir-birisiga vobastadur.

Bir ish desa bo‘lmas «sazovor emas»
Ki, bir rishtatob anda bekor emas.

Bu xud sobit o‘ldiki yo‘q hech zot,
Va yo hech af’ol yoxud sifot

Ki, zimnida xosiyate bo‘lmag‘ay,
Vujudida kayfiyate bo‘lmag‘ay.

Vale chun yaratti el af’olini,
Yashurdi anga dona ahvolini

Ki, dehqon nekim dona mazru’ etar,
Ani-o‘q o‘rar, chunki vaqti yetar.

Qachon sochsa tufroqqa bug‘doy birov,
Yo‘q imkonkim, ul arpa qilg‘ay darav[4].

Va gar arpa ham sochsa bo‘lmoqqa to‘q,
Anga bug‘doy o‘rmog‘ning imkoni yo‘q.

Kishi hanzal eksa achchig‘ bar topar,
Va gar nayshakar eksa – shakkar topar.

Chu af’olning ashrafu duni bor,
Agar dunu ashraf bu qonuni bor

Ki, har kim ayon etsa yaxshi qilig‘,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshilig‘.

Va gar kimsadin zohir o‘lsa yamon,
Ko‘rar har nekim, zohir etti hamon.

Kerak shoni ham bo‘lsa ishning bu tavr
Ki, bar lutf lutf-o‘q berur, javr-javr.

Topar aylasa fikr tab’i salim
Ki, bu nav’ ekin jodai mustaqim.

Bu qonundin ar bo‘lsa ish muxtalif,
Adolat tariqi bo‘lur munharif».

Chu qoyilg‘a bu nukta shofiy kelib,
Muxotabg‘a ham muncha kofiy kelib.

XLVII

Iskandarning, quyosh tun zulmi Zangboridin chiqib, kun ziyosi nimruzig‘a kirgondek, Hind sovodidin chiqib, Chin kishvariga kirgoni va Xoqoni Chin aning quyoshdek garmxo‘yluq bila tig‘i jahongir tortib kelaturg‘onin eshitib, muqobalasida zarradek behisob cherik yig‘ib, anga muvofaqatqa elchi yiborib,

nomuvofiq javob topqoni va ul jihatdin zarra hisobliq cherigi zarra xaylidek qo‘zg‘olib, o‘zi tadbir ishin zarrai qo‘ymag‘oni

Bu yanglig‘ dedi noqili nuktasanj,
Base tortqon nukta naqlida ranj:

Ki, chun bo‘ldi Iskandari nomjo‘y,
Qish ul turfa marz ichra oromjo‘y.

O‘zi xud edi kishvaroroyi Hind,
Yana majlisoro anga Royi Hind.

Borib goh shahr ichra hammom uchun
Imorat aro bodau jom uchun.

Solib Roy qasrida ishratqa pay,
Tarab birla og‘oz etib rudu may.

Gahi besha ichra shikor aylabon,
Shikor ichra may ixtiyor aylabon.

Gahi babr urub, goh sher o‘lturub,
Va gar pilu kark – ul daler o‘lturub.

Gahi soz etib bazm daryo aro,
Kirib kishtiyi bahrpaymo aro.

Tutub shast ila mohiyi siymgun[1],
Qilib jomi siymin ichardin nigun.

Nayistonni gohi qilib marhala,
Kirib anda andoqki sheri yala.

Gavazn o‘lturub, chun surub go‘rtak,
Qilib may aro nayshakardin gazak.

Gahi Shahd tog‘ig‘a aylab uruj,
Quyosh, o‘ylakim qilsa mayli buruj.

Chu may birla tog‘ uzra xushhol o‘lub,
Hamul shahddin forig‘ulbol o‘lub.

Gahi aylab oyini shohanshahi,
Tuzub nag‘ma xirgoh aro xirgahi.

Ichib borgohi falakjoh aro,
Saropardai charxdargoh aro.

Gahi donish ahli bila o‘lturub,
Kutub anda har ilmdin kelturub.

Qayu bahskim diqqatig‘a yetib,
Nekim bo‘lsa majhul ma’lum etib.

Bu yanglig‘ anga o‘tti laylu nahor,
Anga tegrukim bo‘ldi fasli bahor.

Sharaf burjini yorutub sham’i mehr,
Hamul sham’din ravshan o‘ldi sipehr.

Yana shoh raxshanda xurshiddek,
Jahon mulki fathig‘a Jamshiddek,

Azimatning ohangiga yig‘di bazm,
Xito birla Chin azmini qildi jazm.

Sipah bahri ichra yana tushti jo‘sh,
Kar etti falakning qulog‘in xuro‘sh.

Ko‘tardi yana harb ko‘sini pil,
Cholindi bu kishvarg‘a ko‘si rahil[2].

Olib Hind nohiyatin yakqalam,
Yurub Chin bilodig‘a chekti alam.

Chu Hindustondin chiqardi sipoh,
Ki, Chin kishvarin qilg‘ay oromgoh.

Borur yo‘lning atrofida har bilod
Ki, bir shoh edi anda oliynihod.

Gar ellik yig‘och erdi, gar yuz yig‘och,
Yibarmak cherik yo‘q edi ehtiyoj.

Biror nomakim ul taraf boribon,
Kelib nomabar birla yolboribon.

Chekib peshkashlar, ko‘rub shohni,
Qilib takyagah xoki dargohni.

Inoyat qilib shohi oliy maqom,
Tavaqqufsiz ilgarrak aylab xirom.

Yurub yo‘l, tamosho qilib har hade
Ki, to maskani bo‘ldi Chin sarhadi.

Bilib erdi Xoqonkim, ul tund sel,
Yurub Hinddin qildi Chin sari mayl.

Sipah yig‘mish erdi adaddin fuzun,
Yarog‘ aylamish erdi haddin fuzun

Ki, avval inod oshkor etmagay,
Xusumat ishin ixtiyor etmagay.

Solib sulhdin so‘z, yiborgay rasul,
Borishmoq tariqini qilg‘ay qabul[3].

Agar xasm bu so‘zga indursa bosh,
Uzotqay qilib do‘stona maosh.

Va gar ko‘rsa ish butmas ozarm ila,
Temur yumshamas po‘zishi garm ila.

O‘zin qilmag‘ay ajz birla zabun,
Cherik tortib etgay masof ozmun.

Bu tadbir ilakim topib erdi roy,
Qilib avval o‘zni harifozmoy.

Yibordi rasuli xiradpeshae,
Risolat aro chobukandeshae.

Nihoniy anga tutturub so‘z base,
Tengiz suyi uzra yibordi xase.

Chu qosid yetib shoh dargohig‘a,
Nazar soldi andozai johig‘a.

Sipohi ko‘rundiki, yuz yil xirad,
Qiyos aylay olmas anga haddu ad.

Yana o‘rduekim, sipehri barin,
Kelib anda bir chodiri kamtarin.

Asos onchakim, ko‘rsa nazzoragar,
Bo‘la olmayin hushig‘a choragar.

Ko‘rub, qolmayin o‘zda vodiynavard,
O‘zin soldi dargahg‘a andoqki gard.

So‘zin fahm etib xayli dargahnishin,
Shah ollida arz ettilar kelmishin.

Dedi shahki qosidni kelturdilar,
Hamul xasni daryog‘a yetkurdilar.

Rasuli xiradmandi korozmoy,
Ravon bo‘ldi tufroq uza chehrasoy.

Chu taxt ollini qildi oromgoh,
O‘zin qildi mashg‘ul har sori shoh.

Ki, taskin topib ko‘nglida iztirob,
So‘zin aytibon anglay olg‘ay javob.

Base maks etib, shohi kishvarxudo,
Dedi: «Qil hadisingni emdi ado!»

Duo ko‘p qilib qosidi notavon,
Bayon etti Xoqon hadisin ravon.

Ki: «Arz etti Xoqoni daryoshukuh
Ki, ey nomvar shohi anjumguruh!

Bukim azm qilding bu kishvar sori,
Nechukkim quyosh charxi axzar sori.

Kirib raxshi getinavarding bila,
Yoruttung bu kishvarni garding bila.

Bu ma’nig‘a bois ne erdi eking‘
Ne fikring buyon azm berdi eking‘

Agar do‘stsen, do‘stluq bu emas,
Kishi do‘stluq mundoq ishni demas

Ki, sendek ulug‘ shoh tortib sipoh
Bizing mulkni qilg‘asen jilvagoh.

Va gar xud adovatqa qilding g‘ulu,
Ne ko‘rdung adovatki, bo‘ldung adug‘

Rasulungki keldi so‘z aytib irik,
Anga uzr aytib uzottuq tirik.

Deb erdingki: «Azm etsun olib xiroj
Ki, Doro borib, mendadur taxtu toj».

Deb erdimki: «Gar bordi Doroyi dahr,
Sanga dahrdin yetsun oyinu bahr.

Va lekin mening birla Doro aro,
Ish erdi salohu madoro aro.

Yo‘q ulkim, manga g‘olib o‘lg‘ay edi,
Xiroju kesim tolib o‘lg‘ay edi.

Agar sen dog‘i qilsang andoq suluk
Ki, bir-bir bila aylagaylar muluk,

Tuzub ikimiz vahdat asbobini,
Faroz aylali shiddat abvobini.

Va gar bermas ersang bu ishga rizo,
Ko‘ray har ne ollimg‘a yozmish qazo.

Bu erdi so‘zum, emdi ham budurur,
O‘zung deki, bu so‘z yomonmudururg‘

Hamul so‘zdin inkor yo‘qtur manga,
Yana nav’ guftor yo‘qtur manga.

Bu dam dog‘i yonsang bo‘lub sulhjo‘y,
Manga dog‘i sulh uzradur guftugo‘y.

Va gar kin ishida g‘ulu aylasang,
Adovat uza guftugo‘ aylasang.

Mening dog‘i bu ishta yo‘q kamlig‘im,
Masof amrida nofarohamlig‘im.

Cherik onchadurkim, aning soni yo‘q,
Yaroq onchakim, aning imkoni yo‘q.

Ayolu vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor.

Vale iki shah zohir etganda kin,
Zafar qay taraf bo‘lmoq ermas yaqin.

Qayon fath bo‘lmoq chu ma’lum emas,
Jabin uzra ul harf marqum emas.

Kishi razmdin necha bo‘lsa yiroq,
Yerur hazm oyinida yaxshiroq»[4].

Suxanvar chu sharh ayladi barcha so‘z,
Javob istayu, tikti tufroqqa ko‘z.

Shah ul nuktalardin tabassum qilib,
Dedi gavharafshon takallum qilib

Ki: «Gar shohlig‘ izzu tamkinida,
Jahondorlig‘ rasmu oyinida,

Mening birla Doroni Xoqoni Chin
Barobar tutar – bu g‘alatdur yaqin

Ki, har kimsaga bo‘lsa ogohlig‘,
Bilurkim, erur mulk ila shohlig‘.

Agar shahg‘adur mulk ila e’tibor,
Mening kishvarim iki Dorocha bor.

Va gar xud shijoat erur mo‘tabar,
Aning holidin tutti erkin xabar

Ki, razmig‘a chun bo‘ldi rag‘bat manga,
Aning ushri yo‘q erdi shavkat manga.

Qilib erdim ul tavr ojiz ani
Ki, ko‘rmaydur el, o‘yla hargiz ani.

Chu men g‘olib erdim biloishtiboh,
Ham oxir manga berdi nusrat Iloh[5].

Musallam tutar bo‘lsa bu rozni,
Unuttik maqoloti nosozni.

O‘zin buyrug‘umg‘a mute’ ayladik,
Kelib uzru ajzin shafe’ ayladik[6].

Rioyat qilay ulcha imkonidur,
Aningdek sarafrozlar shonidur.

Agar tutmas ersa musallam muni,
Anga ko‘rguzay razmu hayjo kuni

Ki, har so‘zki qildim bayon – chin emish.
Manga chin demak rasmu oyin emish.

Tugandi so‘zum, emdi bo‘lg‘il ravon,
Anga bu so‘zumdin xabar qil ravon

Ki, sen borg‘och-o‘q azm qilg‘umdurur,
Yo‘l ohista-ohista kelgumdurur.

Ravonroq ketursang javobi savob,
Savob o‘lg‘usi bizga dog‘i javob[7].

Agar amrdin to‘lg‘ar o‘lsa bo‘yun,
Ko‘roliki, gardun ne o‘ynar o‘yung‘»

Chu qosid eshitti bu yanglig‘ maqol,
Qo‘pub qo‘ydi yuz yo‘lg‘a oshuftahol.

Davo topmayin dardi jonkohig‘a
Qadam qo‘ydi o‘z xoni dargohig‘a.

Ne so‘zkim qilib erdi Xoqon xitob,
Nelarkim buyurdi Skandar javob.

Nechukkim o‘tub erdi majlis aro,
Sarosar bayon ayladi mojaro.

Chu fahm etti Xoqonkim, ul tundsher[8],
Yerur ul gumon aylagandin daler.

Yiborsa kishi asru benaf’ erur,
Va gar borsa mundoq javobin berur.

Adovatqa mardona bel bog‘ladi,
Skandar kelur vaqtini chog‘ladi.

Cherik yig‘mish erdi Xito mulkidin,
Yeti yo‘qki, yetmish ato mulkidin.

Sipohi sipehr anjumidin fuzun,
Adad ichra sahro qumidin fuzun[9].

To‘quz yuz ming ul nav’ novakfikan,
Ne novakfikankim, balorakfikan

Ki, birdin bo‘lub xasm yomg‘urda g‘arq,
Yana bir choqilg‘ay aningdekki barq.

Jiba sarbasar zarhalu turksoz,
Kejim borcha zarbaft chiniytiroz.

Bori novakafgan, bori tig‘zan,
Bo‘lub borcha javshan bila ro‘ytan.

Har otlig‘ kelib naxli orosta,
Dema naxlkim, mohi nokosta.

Bu yanglig‘ sipah birla Xoqoni Chin,
Sipah yo‘qki, oshubi ro‘yi zamin

Aduvga chiqib o‘tru, Chin shahridin,
Solib jabhasi uzra chin qahridin.

Aduv vahmidin bo‘lmayin ishda sust,
Ko‘rub yer, tushurdi sipohin durust.

Sipah davrig‘a xandaqe qozdurub
Ki, nazzorasi hushni ozdurub.

Rioyat qilib hazm oyinini
Ki, soz aylagay razm oyinini.

Chu xandaq qozorg‘a topib ehtiyoj,
Bo‘lub xandaqi davri o‘n besh yig‘och.

Ani bovujud ixtisor aylabon,
Ichin lek mahkam hisor aylabon.

Aroba bila, o‘yla hisni matin
Ki, ermas falak hisni andoq hasin[10].

Aroba chu el davrig‘a yondoshib,
Iki davradin ham hisobi oshib.

Aroba uza to‘ra[11] payvast o‘lub,
To‘ra keynida xalq hamdast o‘lub.

To‘ra borcha qullob ila bandu bast,
Kamin aylabon keynida ahli shast.

Yana xandaq ollida mo‘ndu tikib,
Qalin nayshakardekki hindu tikib.

Yasab qo‘rg‘onin ul sifat bexalal
Ki, yo‘l topmag‘udek ichiga ajal.

O‘zin berkitib bo‘yla sarxayli Chin,
Yasab xayli davrida hisni hasin.

Yana yondin Iskandari chirarazm,
Qilib ko‘ch-barko‘ch Chin sori azm.

Anga tegrukim, bu o‘zin berkitib,
Munung mulki qasdig‘a ul ham yetib,

Chu Xoqon soridin ko‘rundi qaro,
Yasab turdi Skandar ul dasht aro[12].

Sipohiki ta’rif anga or edi,
Nechakim kishi ko‘p desa bor edi.

Sipohin tuzub shohi razmozmoy,
Suron soldiyu tushti hazmozmoy.

Suron yo‘qki, yuz ming hizabri yala,
Degin soldi ko‘k toqig‘a valvala.

Skandarning ul kelmagi tundu tez,
Suron birla bu solmog‘i rustaxez.

Aduv ko‘nglini ayladi vahmnok
Ki, ko‘rdilar oni ajab sahmnok.

Chu oqshom yaqin erdi iki sipoh,
Zaruratki, tuttilar oromgoh.

Falak chunki xurshid Xoqonini,
Yoshurdi tuzub g‘arb qo‘rg‘onini.

Hamul xayli Parvin o‘zin ko‘rguza,
Taloya kibi chiqti gardun uza.

Iki xayl aro hazm izhoridin,
Taloya ravon bo‘ldi har soridin.

Yazaklar payopay ravona bo‘lub,
Suho o‘qlariga nishona bo‘lub[13].

Skandar xayoli bukim subhgoh,
Taharruk topib xayli anjumsipoh.

Qilib harb ahlining oroyishi,
Yasab ulcha imkon gunjoyishi.

Aduv sori azm aylagay bedarang,
Aningdekki, daryog‘a surg‘ay nahang.

Chu parxosh etib korzor aylagay,
Qiyomat kunin oshkor aylagay.

Chu fahm ettilar hikmat ahli bu azm,
Kelib shohg‘a qildilar man’i razm.

Ki: «Tonglou indin madoro kerak,
Hayal aylamak oshkoro kerak.

Ne ishgaki sayyorau sobitot,
Qilurlar nuhusatda sayru sabot.

Nazarkim nuhusatqa voqe'durur,
Tanosub ila bizg'a roje'durur.

Bu iki kun ar shahg'a bo'lsa sukun,
Ishe solg'ay o'rtag'a charxi nigun

Kim, ul ishta bo'lg'ay g'arobat base,
Shah iqboli topqay mahobat base.

Bu so'zda agar bo'lsa dog'i xilof,
Uchunchi kun ar shoh qilsa masof.

Umid ulki a'dog'a solg'ay shikast,
Shukuhini qilg'ay qaro yerg'a past».

Shah ul so'z bila topti taskin base,
Havo tutmadi shu'lai kin base.

Yana sori Xoqoni gardunjanob
Yeli ichra topmish edi iztirob.

Xitoyi sipah, balki Chiniy guruh,
Ko'rub xasm xaylida behad shukuh.

Borining arosida oshub edi,
Bori vahm eliga lagadko'b edi.

Nechakim berur erdi Xoqon ko'ngul,
Tuzalmas edi vahm topqon ko'ngul.

Anga yettikim, qilmayin ishga mayl,
So'z izhor eta boshladi xayl-xayl:

«Ki bu nomvari komkori daler,
Yurak ichra qoplon, shukuh ichra sher

Ki, aylab jahongirlikni havas,
Havas qilg'onig'a topib dastras.

Bu kunga degin har qayonkim yurub,
Nekim komidur, ilgiga kelturub.

Qayu mulk soriki eltib hashar,
Ani fath etib, qilmayin sho‘ru shar.

Ne shah bo‘yni soriki tashlab kamand,
Bo‘lub bo‘yni oning kamandig‘a band.

Masofida ul kunki Doro edi,
Bu bir qatra, ul jarf daryo edi.

Anga razmu tadbir ila topti dast
Ki, iqboli shoxig‘a berdi shikast.

Yemas bizga Dorocha xaylu guruh,
Anga lek o‘n bizcha farru shukuh.

Yana ulki sohibqiron ham erur,
Juvondavlatu pahlavon ham erur.

Munungdek kishi birla ko‘shishg‘a pech,
Yemas ish hisobi bila rost hech.

Aning birla kim ursa lofi masof,
Xirad aytur ul so‘zning otin gazof.

Ulug‘larni aylab shafoat anga,
Kerak qilsa Xoqon itoat anga.

Yo‘q ersa erur ul qaviy, bu zaif,
Anga hech po birla ermas harif.

Kishi qilsa da’vo urush big‘idin,
Amon topmog‘ o‘lmas aning tig‘idin.

Birovkim – anga aql da’vosi bor,
O‘zi qasdin etmak ne ma’nosi borg‘

Yo‘q o‘z jonig‘a, xalq jonig‘a ham,
Ne jon, irz ila xonumonig‘a ham.

Mute’ o‘lsa aylab qabuli xiroj,
Tutar ul musallam munga taxtu toj.

Nelar qildi Malluyi badro‘z anga,
Bukun mu’tamad bo‘ldi Fero‘z anga.

Bo‘lub ajzig‘a mu’tarif Royi Hind,
Yerur bu zamon kishvaroroyi Hind.

Agar borsa Xoqon dog‘i qoshig‘a,
Qo‘yar mamlakat afsarin boshig‘a.

Ayon aylabon xizmat izhorini,
Olur har nekim mulkidur borini.

Bu ishtin nekim o‘zga tutsa vujud,
Pushaymonlig‘i qilmas ul vaqt sud».

Bo‘lub firqa-firqa eli so‘-baso‘,
Bu so‘zni qilur erdilar guftugo‘.

Birovkim edi mahrami xos anga,
Muhabbat aro sohibixlos anga.

Tilab xilvate xoli ag‘yordin,
Ne ag‘yordin, balki dayyordin.

Dedi o‘lturub yig‘layu zor-zor
Ki: «Yelga tushubtur ajab xorxor».

Yeshitganni eldin sarosar dedi,
Ko‘pu oz yo‘qkim, barobar dedi.

Tugatgach so‘zin dedi: «Yey shahriyor
Ki, bo‘lsun sanga doyimo baxt yor!

Manga ulcha ma’lum bo‘ldi, dedim
Ki, bu so‘zni ayturda ma’zur edim.

Inonsang bu holatqa bir fikr qil,
Inonmas esang ayla tahqiqu bil».

Dame qildi andesha Xoqoni Chin,
Chu ko‘p qildi tahqiq, bildi yaqin

Ki, noqil so‘zi sarbasar chin emish,
Ang‘a rostliq da’bu oyin emish.

Base bo‘ldi o‘z holig‘a chorajo‘y,
Anga bermadi hech bir chora ro‘y.

Yelin dog‘i bildiki, bordur muhiq,
Yemas ta’nu tashni’g‘a mustahiq

Ki, chiniy ayog‘ birla xoroi Rum,
Qachonkim urushtursa doroi Rum,

Necha kimsa aql ichradur zerdast,
Bilurkim qayon tushgusidur shikast.

Agar chini ul kinani qilsa fosh,
Bilurkim urar o‘z ayog‘ig‘a tosh.

Bu ishta hujum etti qayg‘u anga,
Tong otquncha yo‘q erdi uyqu anga.

Sahar vaqti bir roy topti savob,
Olib g‘ayb dushizasidin niqob.

Solib aql ko‘ngliga andeshae
Ki, topmaydur oni xiradpeshae.

Tilatti ham ul mahrami xosni
Ki, ko‘rguzmish erdi bu ixlosni.

Dedi: «Borgah davridin elni sur,
Saroparda dargohidin ham itur.

Yeshikni kelib aylagil takyagoh,
Nido qilki: «Ko‘rmas bugun elni shoh!»

Bugun asra oqshomg‘acha bu eshik,
Mening soridin bo‘lma andeshalik.

Kelur kecha gar keldim ersa bu chog‘,
Muyassardurur borcha komu farog‘.

Agar kelmasam o‘z yarog‘ingni ko‘r,
Ne ollingg‘a kelsa ayog‘ingni ko‘r.

Vale bir kunu bir kecha zinhor
Ki, bu pardada yaxshi bo‘l pardador.

Vale mendin ish suratin so‘rmag‘il,
Bu andesha kayfiyatin so‘rmag‘il».

Qabul etti Xoqon so‘zin mustami’,
Kirib uyga ul roy aro muxtari’.

Solib har ne shohona erdi asos,
Rasulona egniga soldi libos.

Hamul mahramig‘a ayttiki: «Bot,
Saroparda yonida keltur bir ot!»

Chu kelturdi markabni tayyor etib,
Saroparda yonig‘a chekti yetib.

Chiqib markab ustiga Xoqoni Chin,
Ani qildi bu roz ishiga amin.

XLVIII

Qamarsayyoh sarius-sayri quyosh bila qiron qilg‘ondek Xoqon Iskandarga risolat uchun muqorin bo‘lg‘oni va ul muqoranadin muqobalag‘a borg‘och qamardek nur va safodin to‘lg‘oni

Qorong‘uda chiqti sipahdin surub,
O‘zin qal’a darbandig‘a yetkurub.

Berib muhri naqshinki, Xoqon demish:
«Chiqoring menikim, erur kulli ish».

Alar chun nishona topib dilpisand,
Chiqorib ani qal’adin begazand.

Bo‘lub tez Xoqoni ofoqgard,
Skandar sipohi sari rahnavard.

Borur erdi ko‘nglida yuz ming xayol,
Xavotir qilib ko‘nglini poymol.

Chu xurshidi iskandariy ochti chehr[1],
Skandardek ofoq uza soldi mehr.

Nujum o‘ldi Chin xaylidek befurug‘,
Qazo qildi ko‘k marg‘zorin qo‘rug‘[2].

Skandar sipohig‘a farrux rasul –
Yetib ostonida qildi nuzul.

Ravon shahg‘a arz ettilar bu maqol
Ki: «Kelmish rasuli humoyunjamol.

Boshidin-oyog‘ig‘acha farru hush,
Bashar surati ichra kelgan surush».

Skandar dedi: «Aylabon ehtirom,
Anga taxtim ollinda aylang maqom

Ki, bu kecha bir tush ko‘rubmen g‘arib,
Bu gar bo‘lsa ta’biri ermas ajib:

«Quyoshcha manga tushta anvor edi,
Yana bir quyosh ham padidor edi.

Kelibon qo‘yar erdi ollimda bosh,
Kishi ko‘rmamish mundoq iki quyosh».

Yana hikmat ahlining a’lomida,
Falak sayridin yozg‘on ahkomida:

«Navodir edi bu iki kunda ko‘p
Ki, zohir bo‘lur, — dedilar, — munda ko‘p».

Navodirki qildi alar e’tibor,
Bu nodir biri bo‘lmoq imkoni bor».

Debon shah bu so‘zni, dedikim: «Yurung,
Degon kimsani ichkari kelturung!»

Borib chunki kelturdilar ichkari,
Ko‘rub rasmu oyini Iskandari.

Yiroqroq suxandoni farxundaroy,
Rasulona oyin keturdi bajoy.

Rasul erdi chun yaxshi avsof ila,
Skandar tilab quchti altof ila.

Yetib baxtdin bu bashorat anga,
Shah: «O‘ltur!» — deb etti ishorat anga.

Rasul o‘lg‘och ollida oromjo‘y,
Savol etti Iskandari komjo‘y.

Ki: «Har ne so‘zung bo‘lsa og‘oz qil,
Ne roz aytsang bizni hamroz qil!»

Taanni bila dedi farrux rasul
Ki: «Yey dargahing ostoni qabul!

Nekim aylading hukm, jon ustiga,
Ravon qilmoq oni ravon ustiga.

Va lekin Xito xoni Xoqoni Chin
Ki, tadbiru royig‘a yuz ofarin.

Manga necha so‘z debdurur, bas sharif
Ki, ermas eshitmakka har kim harif.

Agar tarqasa har taraf anjuman,
Rasul o‘lsau xusravi safshikan.

Surarg‘a chu shah lutfu ehsoni bor,
Men ul nukta surmakning imkoni bor.

Yana debdururkim shahi pokroy,
Agar bo‘lsa bu nav’ xilvatnamoy

Ki, shah bo‘lg‘ayu homili rozu bas,
Sen izhor qil har nekim multamas.

Yo‘q ersa qo‘pub yong‘ilu turmag‘il,
Va gar qilsalar hibs, dam urmag‘il.

Gumon etsalar el fidoyi seni,
Fasod ahlining tiyraroyi seni.

Shikol aylasunlar oyog‘ingg‘a band,
Qo‘lungg‘a dog‘i bog‘lasunlar kamand.

Skandar qo‘yub ollig‘a tig‘i tez,
Qil ul lahza tig‘i zabon nuktarez.

Agar bo‘lsangiz mendin andeshalik,
Qiling band inak oyog‘u ilik».

Skandarga oshti bu ishdin shaaf,
Dedi: «Boringiz har kishi bir taraf

Ki, band aylamaklikka yo‘q ehtiyoj,
Emas hudhud oyini sung‘urg‘a koj»[3].

Qilib hikmat ahli base iltimos,
Xususan Arastuyi anjumshunos.

Suxanvar oyog‘ini band ettilar,
Qo‘lin ham asiri kamand ettilar.

Shah ollig‘a kelturdilar tig‘ ham,
Yiroq qo‘ydilar borcha bir-bir qadam.

Chu bo‘ldi tihi xilvat ag‘yordin,
Yana so‘rdi po‘shida asrordin.

Rasul aytti: «K-ey, shahi pokroy,
Aduvband, yo‘q-yo‘qki, kishvarkushoy.

Sog‘inma meni qosidi rahnavard
Ki, Xoqon sanga bo‘ldi dargahnavard.

Bukim bo‘lmisham xoki dargahnishin,
Ne ilgimda tig‘u ne ko‘nglumda kin.

Ayog‘imda bandu iligimda band,
O‘zumni sanga qilmisham mustamand.

Bu ish boisi necha surat edi
Ki, bu nav’ kelmak zarurat edi».

Skandarni hayrat zabun ayladi,
Bu ishdinki charx nigun ayladi.

Dedi: «K-ey, sipahdori Chinu Xito,
Nechuk shohlar bo‘yla qilg‘ay xato

Ki, bo‘lg‘ay aduvsig‘a mundoq asir
Ki, kimsa anga bo‘lmag‘ay dastgir.

Tutulg‘ay kelib o‘z ayog‘i bila,
Dog‘i nukta surgay farog‘i bila.

So‘zungning adosida qilma shitob,
Burun bu savolimg‘a bergil javob».

Dedi aylabon fikr Xoqoni Chin
Ki: «Yey dahr mulkiga masnadnishin,

Tushub erdi boshimg‘a, bas, mushkil ish
Ki, oning iloji edi bu kelish.

Yana bor edi e’timodim sanga
Ki, bu nav’ edi e’tiqodim sanga

Ki, borsen xiradmandu ravshan ravon,
Juvonmardu himmatvaru pahlavon.

Zabunkushluk o‘lmas shioring sening,
Bu nav’ ishdur, albatta, oring sening.

Alarkim sanga qildilar ko‘p xilof,
Sipah chektilar zohir aylab masof.

Degan chog‘da uzr etmading juz karam
Kim, o‘ldi zalil, aylading muhtaram.

Manga topmayin andoq amri vuqu’
Ki, qilg‘ay taqozoyi bimu xushu’.

Xususan xisoli hamiding bilib,
Ulug‘ e’timod ishlaringga qilib.

O‘zumni qilib bo‘yla zoru zabun,
Tushub taxting ollig‘a xoru nigun.

Debon arzi holim tazallum qilib,
Asirona nutqu takallum qilib.

Topa olmadim hech surat bila,
Qoshingdin qo‘parni kudurat bila.

Bor erdi qoshimda quyoshdin yoruq
Ki, qilg‘ungdurur lutfu diljo‘yluq».

Bu so‘zkim surub shohi mushkilpisand,
Javobin bag‘oyat topib dilpisand.

Dedi ofarin aylab: «Yey komyob,
Bu roying xud erdi bag‘oyat savob.

Yana har so‘zung bo‘lsa izhor qil,
Xafo pardasidin padidor qil

Ki, bu hol ila ko‘rsa bo‘lmas seni,
Bu surat bila so‘rsa bo‘lmas seni».

Duo birla Xoqoni daryonazir,
Dedi: «K-ey, jahondori daryozamir!

Bu kelmakdin erdi g‘araz bu manga
Ki, bo‘lg‘ay janobingda yorg‘u manga.

So‘zum har ne bor, o‘lturub ro‘-baro‘,
Qoshingda degaymen borin mo‘-bamo‘.

Budur so‘zki, chun keldi shahdin rasul
Ki, ham kelgilu, ham xiroj et qabul.

Javobidin ar bo‘ldi oshufta shoh,
Kelibmen anga bo‘lg‘ali uzrxoh.

Gar ortug‘ dedim so‘z – gunahkormen,
Siyosat qilurg‘a sazovormen.

Bilib jurmum olingg‘a keldim zalil,
Agar tortsang tig‘ – qonim sabil[5].

Va gar afv ila qismim etsang tarab,
Sening xulqu lutfungdin ermas ajab».

Skandar dedi: «K-ey, shahi komyob,
Manga ulcha sen aytib erding javob.

So‘zi erdi ma’qulu yorona ham,
Pisand etgudek xeshu begona ham.

Vale men qilib puxta tadbirlik,
Chu boshimda erdi jahongirlik.

Jahon mulkin ochmoqni jazm ayladim,
Bu kishvar sari dog‘i azm ayladim.

Aduvsig‘a har shahki g‘olibdurur,
Bu yanglig‘ bahonag‘a tolibdurur.

Yo‘q ersa sanga o‘kta so‘z yo‘q edi,
Ne bo‘lsa bizing soridin-o‘q edi.

Gar ul so‘zda bor ersa dog‘i xilof,
Bilib ayladuk emdi xotirni sof»[6].

Duo qildi Xoqonu so‘z boshladi,
So‘zin o‘z murodi sari toshladi.

Dedi: «K-ey, mute’ ahli olam sanga,
Jahongir bo‘lmoq musallam sanga,

Ne kishvarki ochmoqqa urdung qadam,
Aning fathi xud bo‘lmadi bealam.

Qilib fathi tadbirida qiylu qol,
Ko‘ngulga kirib har zamon yuz xayol.

Bilursen o‘zung Mallu chog‘li kishi
Ki, nayrangu afsun edi varzishi.

Necha qildi ollingda kinu inod,
Ne tashvish ila bo‘ldi fath ul bilod.

Yeri bor edi aylamak qatlu kin,
Ato qilding o‘g‘lig‘a toju nigin.

Chu lutfungdin ogoh qilding ani,
Ato mulkida shoh qilding ani.

Buyon aylagach azm davlat bila
Ki, taxt uzra sen fathu nusrat bila.

Menikim aduv aylar erding xayol,
Bu nav’ ettim o‘zni sanga poymol.

Xayolimg‘a yuzlandi bu nav’ ish
Ki, mundoq itoat kishi qilmamish.

Senikim Haq etti bu nav’ arjumand
Ki, pastingdurur bo‘yla mendek baland.

Tilarmenki, bu bo‘lsa oson manga
Ki, bilsamki, ne qilg‘ung ehson manga!»

Skandar dedi: «Jam’ qilg‘il ko‘ngul,
Iki dahr aro sen ato, men o‘g‘ul.

Desang, xizmatingda jabin surtayin,
Seni taxti johimg‘a o‘lturtayin.

Qilib sanga farzanddek poybus,
Deyinkim, tirildi malik Faylaqus.

Sen et masnad uzra kulahdorliq,
Men ollingda aylay sipahdorliq.

Agar xud bu nav’ aylamassen qabul,
Ne yanglig‘ki, ko‘nglunga aylar shumul.

Meni ayla ogahki, ul ish qilay,
Necha aylay olg‘oncha ko‘shish qilay».

Bo‘lub shod Xoqoni davlatqarin,
Duolar bila aylabon ofarin.

Ko‘zidan tiya olmayin yoshini,
Qo‘yub shukr tufrog‘ig‘a boshini

Dedi: «K-ey, shahanshohi gardunsarir,
Sariringg‘a yo‘q avji gardunnazir.

Hamesha jahon pahlavon bo‘lg‘asen,
Jahon ahlig‘a komron bo‘lg‘asen.

Bo‘lub tav’ ila bandai farmon sanga,
Meningdek base xonu xoqon sanga.

Bu ne lutfu pokiza tiynat bo‘lur,
Bu ne xulqu ehsonu himmat bo‘lur.

Bu himmatki bermish sanga beniyoz,
Yerur shahlig‘ingg‘a jahon mulki oz.

Demon loyiqing iki olam edi
Ki, o‘n bo‘lsa erdi dog‘i kam edi.

Bu altofkim sen ayon aylading,
Meni shukrida notavon aylading.

Kaloming ayon aylagan mas’ala,
Yeshitmakka yo‘qtur manga havsala.

Vale chun deding oshnolig‘ so‘zi,
Aroda o‘g‘ulluq, atoliq so‘zi.

Gumonimda yo‘q erdi bu ehtirom
Ki, qilg‘ung meni bo‘yla oliy maqom.

Yaromas sanga garchi mendek ato,
Vale men bu so‘zni demakdur xato.

Guhar zotig‘a ne kam o‘lgay sharaf,
Bukim bo‘lg‘ay oning atosi sadaf.

Bu ehsoninga garchi loyiq emon,
Sadaf birla dur holidin yo‘q demon.

Va lek o‘zga so‘zlarki qilding bayon,
Alardin qil ushmuncha chog‘liq ayon

Ki, fosh etmagil elga bu rozni,
Bu kelmakdin anjomu og‘ozni.

Rasulona aylab manga iltifot,
Bukun asrabon, shom bo‘lg‘ach uzot.

Yelingga degilkim: «Bu kelgan rasul,
Yarashdin,– dedi,– so‘zu qildim qabul».

Tong otqach rasule yubor qoshima
Ki, solsun sharaf soyasi boshima.

Meni ayla dargohinga iltimos,
Kelay men tutub hukmu amringni pos.

Ko‘rub ayla ta’zim el ko‘rgudek,
Muluk oni bir-birga yetkurgudek.

Erur ming yil ulkim kelur yodima
Ki, xonlig‘dur obou ajdodima

Ki, bu mulk andinki ihdos erur,
Atodin atobizga meros erur

Ki, Chin mulkida erdilar xon bori,
Qayu xonki, qoonu xoqon bori.

Bularning tutub posi nomusini,
Manga solma bazming zaminbo‘sini

Ki, xoqonlig‘im shavkati sinmasun,
Shahanshahlig‘im savlati sinmasun.

Ulus ichra e’zoz qilg‘il meni,
«Ato», deb sarafroz qilg‘il meni.

Xirojeki nomangda mastur edi
Ki, Chin doyim ul ishta ma’zur edi.

Bu taklifni sen dog‘i qilmag‘il,
So‘zin demau ko‘zga ham ilmag‘il.

Xiroj istamakdin g‘araz mol esa,
Duru la’ldin tavqu xalxol esa,

Xazoyin manga benihoyatdurur,
Duru la’l behaddu g‘oyatdurur.

Manga har qachon bo‘lsa sendek o‘g‘ul,
Qachon maxzan asrarg‘a bo‘lg‘ay ko‘ngul.

To‘kay ollinga ul qadar molu ganj
Ki, yetsun sipohingg‘a yig‘mog‘da ranj.

Bu yanglig‘ rioyatlar etgan zamon,
Mening bog‘u qasrimg‘a bo‘l mehmon

Ki, yuzunga men dog‘i majlis tuzay,
Mulukona tartiblar ko‘rg‘uzay.

Necha vaqtkim bo‘lsa koming sening,
Bu kishvarda bo‘lsun maqoming sening.

Borur vaqting ul kunki ta’yin erur,
Uzotay aningdekki oyin erur.

Bo‘lay necha manzil jamolingg‘a shod,
Ne yerda buyursang qilay xayrbod.

Qil albatta pinhon vale bu so‘zum
Ki, mundoq risolatni qildim o‘zum».

Skandar dedi: «Men xud aylay nihon,
Sen ar zohir etsang netay nogahong‘»

Dedi: «Mendin o‘lmas bu ish elga tarh»,
Ne yang‘lig‘ki zabt aylamish, qildi sharh.

Skandar qabul etti bori so‘zin,
Bu va’da vafosig‘a tutti o‘zin.

Elin hozir istab, ishorat bila,
Dedi nukta, mundoq iborat bila

Ki: «Bu farruxoyini farxundapay
Ki, qildi biyobon risolatqa tay.

Burun qo‘llaridin kamandin oling,
Ayog‘laridin dog‘i bandin oling.

Base yaxshi so‘zlarga homil edi,
Risolat tariqida komil edi.

Mening birla Xoqon aro soldi sulh,
Hamul bahr ila kon aro soldi sulh.

Mulukona to‘nlar anga kiydurung,
Berib muncha naqd, ollima kelturung!»

Ne yanglig‘ki hukm etti, tutti vujud,
Ijozat berib shohi bofarru jud

Dedi: «Ting‘il oqshomg‘acha shodmon,
Ravon bo‘l jahon tiyra bo‘lg‘on zamon».

Duo aytibon shohi farzonag‘a,
Xirom ayladi mehmonxonag‘a.

Bo‘lub anda oqshomg‘acha komyob
Topib komu ochmay yuzidin niqob

Ki, ul yerdakim doxili Chin edi,
Risolatqa bu nav’ oyin edi.

Chu oy qosidi chiqti gardun uza,
Xirom aylayu tog‘u homun uza.

Rasuli qamarsayr ham mindi ot,
O‘zin manzili sori yetkurdi bot.

Hamul mahramekim edi muntazir,
Visolidin aylab ani muftaxir.

Anga topshurub dashtpaymo samand,
Kirib parda ichra shahi arjumand.

Borib yo‘ldag‘i ranju farsudalig‘,
Topib taxtu joh uzra osudalig‘.

Ishe aylab andoqki qilmay kishi,
Kishi xaylidin kelmay andoq ishi.

Sahargahki mehr o‘ldi masnadnishin,
Aningdekki taxt uzra Xoqoni Chin.

Skandar qilib taxti uzra maqom,
Buyurdi sipoh ahlig‘a bori om.

Ulus hozir o‘ldi chu dargohig‘a,
Tavajjuh qilib masnadi johig‘a.

Taanni bila shohi ofoqgir,
Tilab bir suxandoni farmonpazir,

Dedi: «Aylagil azm Xoqon sari,
Bahor abridek bahri Ummon sari.

Anga ayt mendin durudu salom,
Salomim degach, bo‘yla yetkur payom

Ki: «Qil bartaraf kina asbobini,
Uzoringg‘a och sulh abvobini.

Agar yaxshibiz, gar yomonbiz bukun,
Sening mulkunga mehmonbiz bukun.

Qo‘pub kelki, biz kinadin toqbiz,
Bag‘oyat jamolingg‘a mushtoqbiz.

Yaqinkim bu so‘zni qabul aylagung,
Niyoz ahli sori nuzul aylagung».

Skandar chu maqsudin etti tamom,
Rasul urdi yo‘l qat’i qilmoqqa gom.

Chu Xoqon sipohig‘a bo‘ldi qarin,
Surub nukta, andoqki durri samin.

Rasul erkanin oshkor ayladi,
O‘zin orzuxohi bor ayladi.

Chu Xoqong‘a arz o‘ldi ul mojaro,
Tilatti ani borgohi aro.

Qilib masnad uzra maqom ul dog‘i,
Ulusqa berib bori om ul dog‘i.

Skandar rasulidin etti savol
Ki: «Kelmakta maqsudung aytg‘il maqol».

Suxanvar nechukkim shah aytib edi,
Tamomini Xoqon qoshida dedi.

Eshitti chu Xoqon sarosar hadis,
Farahbaxsh, bal ruhparvar hadis.

Ko‘p izhori ayshu nishot aylabon,
Suxanvar bila inbisot aylabon.

Dedi: «Chunki shohi sipehrihtishom,
Surar erdi chun kin yuzidin kalom.

Adovat bila qildi bizga murur,
Sipah tortmoq bizga bo‘ldi zarur.

Bu damkim muloyim hikoyat demish,
Yaqin bo‘ldikim bizga xohon emish.

Aning birla yo‘q bizga parxoshu kin,
Bo‘lurbiz ravon sen bor ersang amin».

Rasul ayttikim: «Bizing shah so‘zi
Deyilgach, gumon etki, aytur o‘zi.

Yo‘q ersa bilur muncha ahli xirad
Ki, yo‘qtur menga seni istarga had».

Bu so‘z birla Xoqon qilib no‘shxand,
Ravon azm qilmoqqa mindi samand.

Bo‘lub Chin sipohi ajab shodmon
Kim, ul bimdin topti bori amon.

O‘ziga ulus, borcha aylandilar,
Aning keynicha bori otlandilar.

Magar baski jo‘sh urdi xalqi kasir,
Yer ajzosi bo‘ldi taxalxulpazir.

Xaloyiqqa hukm etti Chin xusravi,
«Ki o‘rnida bo‘lsun zaifu qavi.

Vale yuzcha gulro‘yi chiniynajod,
Yana ming xidevi xitoinihod.

O‘zi birla oldi, dog‘i surdi raxsh,
Anga tegrukim xusravi mulkbaxsh.

Skandar soridin dog‘i shohlar,
Xiradpeshau donishogohlar.

Alar dog‘i shohona tazyin bila,
Bular ham hakimona oyin bila,

Chiqib o‘tru Xoqong‘a aylab hujum,
Aningdekki, ul chog‘da bo‘lg‘ay rusum.

Ko‘rushub payopay, yetib favj-favj,
Tengizdin, aningdekki, har lahza mavj.

Chu shoh ostonig‘a bo‘ldi yaqin,
Ravon otidin tushti Xoqoni Chin.

Yugurub ilayinda ozodalar,
Ne ozodalar shohu shahzodalar.

Tanob uchig‘a chun yovuq qo‘ydi gom,
Oq uydin Skandar ham etti xirom.

Iki soridin qo‘l ochib iki shoh,
Qiron aylab andoqki xurshidu moh.

Chu bir-birlariga yovushti ikov,
Atou o‘g‘uldek quchushti ikov.

Falak ko‘rmayin oshkoru nihon,
Munungdek qarin o‘lmog‘ iki jahon.

Biri gar azim, ul biri a’zame,
Bu ham olame, ul dog‘i olame.

Quchushqoch iki shohi feruzbaxt,
Skandar yonib ayladi azmi taxt.

Tutub bir qo‘li birla Xoqon qo‘lin,
Anga ko‘rguzub taxti shohiy yo‘lin.

Chu Xoqon keyin qoldi aylab hijob,
Chiqordi chekib shohi gardunjanob.

Ayog‘in sarir uzra chun yetkurub,
Burun oni o‘lturtubu o‘lturub.

Qilurg‘a nekim va’da qilmish vafo,
Muning birla ham qilmayin iktifo,

Muloyim-muloyim so‘rub har nafas,
Aningdekki Xoqong‘a bir-bir havas.

Shafiqona so‘z chun damo-dam solib,
O‘g‘ulluq – atoliq so‘zin ham solib.

Tutub ilgini bu so‘z ayturda rust
Kim, ul ahd misoqin aylab durust.

Tugatgach so‘zin shohi bisyordon,
Bakovul kelib yoydi dastorxon.

Yoyildi chu shohona xonlar base,
Quyosh qursidek anda nonlar base.

Hamul xon aro guna-guna taom,
Bo‘lub lahza-lahza tabiatqa kom.

Chu tortildi xoniki dastur emas,
Taom oncha olamda maqdur emas.

Dedi mizboni falaktumtaroq
Ki: «Otlansa Xoqon ham ermas yiroq

Ki, Chin xalqi bilsa muloqotimiz,
Muhabbat tariqida isbotimiz».

Bu so‘zdin bo‘lub shod Xoqon base,
Qo‘pub bo‘ldi shahg‘a sanoxon base.

Skandar uzotti ani Chin sori,
O‘zi qo‘ydi yuz – jomi rangin sori.

Ayoqchi, to‘la ayla chini ayoq,
Yerur bizga so‘zning chini ishtiyoq.

Labolab tut oniki men sipqoray,
Dog‘i lahza-lahza o‘zumdin boray.

Mug‘anniy, kelu chert turkona soz,
Maqomi «Navo», yo‘qsa «Turkiy Hijoz»[7],

Navoiyning ash’oridin necha bayt,
Mening hasbi holim topib turkiy ayt!

Navoiy, tutub fol – devonni och,
O‘qurda duru la’l olamg‘a soch.

Mug‘anniyg‘a ham ayla ta’lim ani
Ki, qilsun surud ichra taqsim ani!

XLIX

Tuzluk ta’rifidakim, dahr bo‘stonining sarvsifat ozodavashlarining pisandidaroq shevasidurur va sidq qavl vasfidakim, sipehr shabistonining subhoso toza damlarining barguzidaroq shimasi va royi savobnamoy asarikim, mehri olamorodek juzve harakat bila kulliy yerni yorutur va kalomi salohafzoy favoidikim, oz nukta bila olam ahlig‘a ko‘p natija yetkurur

Birov dahr aro davlatoyin erur
Ki, har so‘zkim ul aytqay, chin erur.

Xudo komin oning ravo aylagay
Ki, har va’da qilsa – vafo aylagay.

Ne nazr etsa qilg‘ay vafodin ado
Ki, «Yufuna bin-nazri» debdur Xudo[1].

Qabul aylagan nuktani qarz bil,
Ani nassi qoti’ bila farz bil

Ki, bo‘ynungda ul bir og‘ir yukdurur,

Yerur tog‘cha, garchi bir tukdurur.

Qayu kimsakim, so‘zni yolg‘on degay,
Inonmaslar ar nassi «Qur’on»[2] degay.

Necha bo‘lsa yolg‘onchi el arjumand,
So‘zi anjuman ichradur nopisand.

Bor ermish burun chog‘da kozibvashe,
Uyiga tushub shu’lai sarkashe.

Fig‘onlar chekar ermish istab madad,
Yeshitganga bo‘lmay so‘zi mu’tamad.

Chu kuymish uyi yumub-ochquncha ko‘z[3],
Demish anga sohibdile bo‘yla so‘z

Ki: «Yolg‘on angakim farovondurur,
Chini ham el ollinda yolg‘ondurur.

Agar qilmadi el himoyat sanga,
O‘zungdin keraktur shikoyat sanga».

Eshittimki, bir shahg‘a bo‘ldi niyoz,
Uye aylamak bir sutun uzra soz.

Kezib toptilar bir yig‘och bo‘yla tuz,
Va lekin aning moliki bir ajuz.

Berib o‘n baho, balki yuz, balki ming,
Rizo bermayin xotiri zolning.

Chu bay’u sharo topmayin intiho,
Berib zol hamsangi oltun baho[4].

Yasodilar ul uyni gavharnigor,
Sutunni vale qildilar zarnigor.

Hamonoki keldi tamoshog‘a zol,
Yig‘ochin o‘pub, surdi mundoq maqol

Ki: «Solding, chu Haq tuz yaratti seni,
Ham o‘zungni oltun aro, ham meni».

Niholeki ul tuz bo‘lur jilvasoz,
Bari elni mundoq qilur beniyoz.

Agar tuzluk o‘lsa kishining ishi,

Ne vasf aylay olg‘ay ishini kishi.

Xususan shahi komron bo‘lg‘ay ul,
Jahon uzra xisravnishon bo‘lg‘ay ul.

Maozalloh, ar qilsa shah egrilik,
Yumog‘liq kerak shahlig‘idin ilik[5].

Birovgaki mulk o‘lsa zeri nigin,
Nigin birla ul bo‘lsa masnadnishin,

Anga «Rosti rasti»[6] etsa nigor
Qachon rost bo‘lmay bo‘lur rastgor.

Alifkim erur rostliqda alam,
Agarchi alifdur, erur alf ham[7].

Xatekim qilur tuzlugi birga ming,
Ne ish aylagay tuzlugi kimsaningg‘

Kishikim jahonda so‘zi rostdur,
Yerur dol angakim o‘zi rostdur.

Birovkim erur rostliqdin yiroq,
Aningdek kishi bo‘lmag‘on yaxshiroq.

Yana ulki soyibdurur roy anga.
Aduv kasratidin ne parvoy anga?[8]

Gum aylar yomon kunda bir yaxshi roy,
Tumon xasmni borcha razmozmoy.

Baso xasmkim ko‘proq andozadin
Ki, daf’ o‘ldi bir solg‘on ovozadin.

Razin roy ila yoymasa kimsa dom,
Havoda uchar qushni qilg‘aymu romg‘

Kishi bilmasa royi soyibfanin,
Qachon do‘st qilg‘ay edi dushmaning‘

Taammul bila kom paydo bo‘lur,
Tahammul bila g‘o‘ra halvo bo‘lur[9].

Yeshittimki, der erdi bir zufunun
Ki, bukim yilong‘a qilurlar fusun.

Bo‘lur o‘zi qaydig‘a pechon kamand

Ki, andin kishiga yetishmas gazand.

Magar ul bilur tildin ahli xirad,
Xushomad bayon qildilar beadad.

Payopay chuchuk so‘z chu payg‘om o‘lur,
Aningdek xashin jonvar rom o‘lur.

Nechakim xirad ichra bo‘lsa kami,
Yilondin yomonroq emas odami.

Chu g‘avvos kasb etti royi razin,
Nahang og‘zidin oldi durri samin.

Dam urmay chu ul durri g‘alton olur,
Tengiz qa’ridin gavhar oson olur.

Bas ulkim takallumg‘a og‘zin ochar,
Muxotabg‘a so‘z yo‘qki, gavhar sochar.

Ne tong tund dushman anga rom esa,
Chu rom o‘ldi hosil nekim kom esa.

Takallum bila kimsa inson erur,
So‘zi yo‘q bahoyimg‘a ne son erurg‘

Vale so‘zda dog‘i marotibdurur,
Ham anda hunar, ham maoyibdurur.

Ham uldurki aylar tirikni halok,
Ham andin o‘luk tan topar ruhi pok.

Xirad birla chun yaxshi so‘z bo‘ldi yor,
Kishi royi soyib qilur ixtiyor.

Xiradmand bo‘lsa balog‘atmaob,
Ne bo‘lg‘ay ishi g‘ayri royi savobg‘

Birovkim savob o‘ldi royi aning,
Berur ulcha royi Xudoyi aning.

L

Ardasher hikoyatikim, qaviy dushman daf’ini qilich bila qilurdin ojiz erdi, royi razin va tig‘i zabon bila ul mushkil qaziyag‘a saranjom berdi

Muluki tavoyif aro Ardasher

Ki, ham royzan erdiyu ham daler.

Magar Ardavon birla aylab xilof,
Iki soridin bo‘ldi azmi masof.

Hamonoki kuchluk edi Ardavon,
Munga yo‘q edi oncha tobu tavon.

Yonarg‘a rizo bermayin g‘ayrati,
Yururga vale za’fdin hayrati.

Taammul qilur erdi roy istabon,
Bir andeshai rahnamoy istabon.

Yarash istayu ozim etti rasul,
Aduv qilmadi ajzin anglab qabul.

Bor erdi sipohi aro bir kishi,
Aduv jonibi noma yozmoq ishi.

Necha bersalar erdi ogohliq,
Shah o‘lmas edi andin ikrohliq.

Aduv yetti bir kunchilik yo‘lg‘a tund,
Bu ham bo‘lmadi fikru roy ichra kund.

Xayolig‘a roye yetishti ajab,
Ravon davlat arkonin etti talab.

Kivurdi chu borini xilvat aro,
Ravon qildi bunyod bu mojaro

Ki: «Nogah kishi iztiror etmasun,
Aduv shavkatidin firor etmasun

Ki, Haqdin yetishti inoyat manga,
Yerur shodlig‘ benihoyat manga.

Ani sizga dermen, vale zinhor,
Kishi qoshida qilmangiz oshkor».

Bori ahd qilg‘och, ravon boshladi,
Tarab birla bu doston boshladi

«Ki, a’do soridin necha pahlavon:
Falonu falonu falonu falon

Ki, bu xayl erur asli ko‘shish chog‘i,

Nechukkim, bilursiz muni siz dog‘i.

Bo‘lub Ardavondin bori tiyraroy,
Manga aylab o‘zni tazallumnamoy.

Bu so‘zga qilib ahdu misoq etib,
Yibormishdururlar manga xat bitib

Ki, tonglaki el bo‘lsa vodiynavard,
Tuzulsa iki sori saffi nabard.

Ne yerdaki turg‘on esa Ardavon,
Chopib boshig‘a bir necha pahlavon.

Anga yetkurub zulm podoshini,
Sanga keltururbiz aning boshini».

Bu so‘zni chu taqrir etib Ardasher,
Yelidin ketib za’f, bo‘ldi daler.

Magar o‘rtada erdi payg‘omgar,
Bitib holni bo‘ldi e’lomgar.

Yeshitgach bu so‘z xasmi oliy asos,
Zamirig‘a yo‘l topti behad haros.

Ne topti yurub razm etarga jihat,
Ne xaylini daf’ etgali maslahat.

Yarashqa rizo berdi himmat tutub,
Yarashti, dog‘i yondi minnat tutub.

Bu kim topti bu nav’ royi savob,
Bu nav’ o‘ldi iqbolidin komyob.

LI

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, savob royg‘a mujibi isobat ne bo‘lg‘ay va xatog‘a jihati za’f ne va javob eshitmak

Yana so‘rdi Iskandari poktab’
«Ki, ey hikmatoyinu darroktab’,

Bukim odami borcha insondurur,
Bori ofarinishda yaksondurur.

Munga royi soyib Haq etti ato,
Va lekin anga berdi royi xato.

Yana ham bukim, royi soyib erur,
Ishinda aning bu ajoyib erur

Ki, chun pokroy o‘ldi beishtiboh,
Va lekin xato ham qilur goh-goh.

Kerakkim, bu bir bo‘lsa, ul bo‘lmasa,
Ul o‘lsa, bu bir sori yo‘l bo‘lmasa».

Taammul qilib dedi donishnavard:
«Ki, ey borcha, shahlar arosida fard,

Bukim xalq erur ofarinishda bir,
Ne donishda birdur, ne binishda bir.

Yerur Haq sifoti adaddin bari,
Bular har biri bir sifat mazhari.

Kerak har biri bo‘lsa bir fardzot,
Nedinkim emas birdek iki sifot.

Ne tong bo‘lsa bu birga fahmu xirad,
Yana bir xiraddin esa bemadad.

Xiradlig‘ning ar bo‘lsa royi durust,
Kerak bo‘lsa albatta gah-gah sust.

Nedinkim emas kimsa bir hol ila,
Yerur har zamon o‘zga minvol ila.

Yana ulki gar bo‘lsa tuz borcha roy,
Xirad bo‘ldi, bas, kimsaga rahnamoy.

Xirad g‘ayb ilmida a’modurur
Ki, bilmaski, tongla kelur nedurur.

Xiraddin erur g‘ayb ilmi yiroq,
Yerur bexiraddin xirad yaxshiroq.

Yana kimsaga borcha roy o‘lsa tuz,
Xiradg‘a berur, bas, ajab fikr yuz

Ki, Haq amrida bo‘ldi shirkat anga,
Yemasdur munosib bu fikrat anga.

Kamol ahlining royi gohi taboh,
Yerur Haq kamolig‘a ravshan guvoh».

Javobini shah topti chun dilpisand,
Yana urmadi dam bo‘lub bahramand.

LII

Xoqonning Iskandar uchun ziyofat asbobin tuzgani va ani Chinga elturga iltimos ko‘rguzgoni va ul shohona bazmu oyin vaz’i vasfida xomai nodiranigor durfishonliq qilmoq va ul tuhaf va navodir tazyini ta’rifida tab’i balog‘atshior gavharposhliq ko‘rguzmak va peshkashlari te’dodida to‘quz falak avroqin xomag‘a raqamzad qilmoq va bazmi dilkashlari sharhida sekiz bihisht riyozin aql ko‘ziga rad qilmoq

Bu debo uza paykaroroi Chin,
Bu nav’ ayladi naqshi deboi Chin

Ki, chun Chin sari bo‘ldi Xoqong‘a azm,
Mubaddal bo‘lub bazm ila kinu razm.

Yeli ko‘nglidin ketti ranju taab,
Bular o‘rnig‘a keldi ayshu tarab.

O‘zi tushti Chin shahrig‘a shodmon,
Kirib qasri davlatg‘a tushgan zamon.

Talab qildi arkoni davlatni bot,
Julus amri etti qilib iltifot.

Dedikim: «Bu shohi falakihtishom
Ki, olam yuzin fath qilmish tamom.

Jahon shahlarin aylamish bandasi,
Zabardastlar bo‘lmish afkandasi.

Kamand ulki gardung‘a band aylamish,
Bu oni asiri kamand aylamish.

Qachon bizga bor erdi xud bu gumon
Ki, bo‘lg‘ay bu altof ila mehmon.

Kelib tarki qatlu masof aylagay,
Bizing birla ko‘nglini sof aylagay.

Qilib ulcha imkoni bor ehtirom,
Manga taxti ustida bergay maqom.

Meni ham atoliqqa qilg‘ay qabul,
Ham o‘lg‘ay shafiqim, nechukkim o‘g‘ul.

Bilursizki, gar qilsa erdi nabard,
Ulusdin chiqorur edi ko‘kka gard.

Sanam zulfidek aylabon toru mor,
Qo‘porur edi borchamizdan damor.

Bu lutfeki ul oshkor ayladi
Ki, ehson tariqin shior ayladi.

Bu majma’ ichinda yig‘ilg‘on anga,
Yerur borcha ozod qilg‘on anga.

Men altofidin oncha sharmandamen
Ki, garchi ato der, vale bandamen.

Qilurdin anga xizmati dilpazir,
Xud ermasdurur hech yanglig‘ guzir.

Bu ishning salohi nedur, fikr eting,
Qoshimda chu fikr ettingiz, zikr etingg‘»

Bu so‘zlar degach shohi Chinu Xo‘tan[1],
Duosig‘a til chektilar anjuman.

Dedilarki: «Har nuktakim surdi shoh,
Yerur muttafiq borcha xaylu sipoh.

Bu shoheki bor emdi mehmonimiz,
Gar ollida bo‘lsa fido jonimiz.

Anga ulcha oyini e’zozdur,
Muni desa bo‘lg‘ay – hanuz ozdur.

Ne mulku sipahg‘a sen etsang raqam,
Bilurlar aning bermagin mug‘tanam.

Va lek ulcha sen o‘zing etkung yaroq,
Bilursen sen oni o‘zing yaxshiroq.

Nekim himmatingg‘a tamannodurur
Bizing himmat andin muarrodurur.

Qachonkim qiron aylasa nayyirayn,
Ko‘runurmu zarrot aro tushsa shayn?[2]

Bo‘lur chunki yondoshsa iki jahon,
Jahon darjahon, mo‘r ko‘zdin nihon.

Ne tong, xalq tab’i qiroq aylasa,
Skandarga Xoqon yarog‘ aylasa.

Muqassirdurur tab’imiz daxldin
Ki, to‘bo ishi kelmadi naxldin[3].

Vale muncha ish bizga ravshandurur
Ki, gar xarji yuz ganju maxzandurur.

Chu sen mizbon o‘lsang, ul mehmon,
Ko‘p o‘lmog‘lig‘in qilsa bo‘lmas gumon».

Bu so‘zlarki arz ettilar ul guruh,
Bo‘lub shod – Xoqoni daryoshukuh

Dedi: «Ulcha ko‘rguzdi bu qahramon,
Yerur elg‘a xud farz moli amon.

Sipohig‘a ulkim mavojibdurur,
Aning yillig‘i elga vojibdurur.

Yana yillig‘ig‘a ochib qufli ganj,
Men o‘z maxzanimdin bo‘lay naqdsanj.

Sipohiga fikr o‘lsa ushbu sifat,
O‘zi fikrini men ko‘ray maslahat»[4]

Bu yanglig‘ki so‘z o‘tti Xoqon bila,
Bori el qabul ettilar jon bila.

Bo‘lub borchasi bir-biriga mumid,
Qilib ish saranjomig‘a jahdu jid.

Necha kunda bori muhayyo bo‘lub
Ki, Chin naqddin konu daryo bo‘lub.

Bu yanglig‘ yasab peshkashlar o‘zi
Ki, hayron qolib anda davron ko‘zi.

Ming ot – borcha ohutaku go‘rdav,
Bori go‘ru ohudin eltib garav.

Alar gardig‘a yeta olmay sabo,
Sabosayri po‘yalaridin habo.

Yugurmak aro abru sekrirda barq,
Vale barqdek borcha oltung‘a g‘arq.

Ham oltun egar, dog‘i oltun lijom,
Ham oltun taqo, dog‘i oltun sitom.

Kejim borcha ustida zarbafti Chin.
Pashizalari la’lu durri samin.

Yana ming teva – har biri ko‘htan,
Falak pilicha har biriga badan.

Necha jussa ichra falakvash kelib,
Kamozorlig‘da malakvash kelib.

Bori sur’at ichra, nechukkim falak,
Nechukkim falak yo‘q, nechukkim malak.

Bori raxti deboyi Chinu Xitoy,
Javohir bori uzra ziynatfizoy,

Aloqa borig‘a sarosar ipak,
Duru la’lu feruza munchog‘idak.

Yana ming xachir, borchasi tezgom,
Sipehri harundek borig‘a xirom.

Pisandida sayru shitobi dog‘i,
Qatoriyu zini, rikobi dog‘i.

Ruxuti ham andoqki dastur o‘lub
Ki, otu teva uzra mazkur o‘lub.

Yana ming to‘quz raxti naxxu nasej,
Ochilmay, nechukkim topib tobu pech[5].

Necha bog‘dek borcha rangin kelib,
Vale tog‘dek bori sangin kelib.

Yana yashmdin ming avoniyu zarf,
Latofat aro bir-biridin shigarf.

Yana chini olot ming porcha,
Idora aro mehri sayyorcha.

Yana ming sihi qaddu gulxad kaniz,
Bari sunbuli zulfdin mushkbez.

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,
Qabog‘lari keng-keng, og‘izlari tor.

Kelib g‘amzai sho‘x ila dilfireb,
Libos ichra onchaki imkoni zeb.

Va lekin iki bul’ajab tuhfa ham
Ki, andoq kelib bul’ajab tuhfa kam.

Biri ko‘zguyi jomi Jamshiddek,
Safo ichra mir’oti xurshiddek

Ki, oni falak mehroyin debon,
Vale xalq oyinai Chin[6] debon.

Iki yuz anga oyu kundek yoruq,
Vale tiyra bo‘lmay bo‘lurdin ochuq.

Yoruq har yuzi chehra ko‘rguzgudek,
Demay bir yuzi tiyraro‘ ko‘zgudek.

Hakimiki oni tilism aylabon,
Namoyish anga iki qism aylabon.

Kelib bir yuzi bo‘ylakim chunki shoh,
So‘rar chog‘da masnad uza dodxoh

Ki, bir-birga el da’vo izhor etar,
Agar kimsa da’vog‘a inkor etar.

Bu da’voda ermas guvoh ehtiyoj,
Yerur ko‘zgu sori nigoh ehtiyoj.

Agar so‘zi chindur – ko‘rinur yuzi,
Ko‘runmas yuzi – bo‘lsa yolg‘on so‘zi.

Yana bir yuzining tilismi bu ish
Ki, shah bazm aro boda etsa xurish,

Anga majlis ahli nazar qilsalar,
Tamoshoyi shaxsu suvar qilsalar,

Alarkim, may ichgaylar orom ila,
Ko‘runur alarg‘a yuz andom ila.

Birov mayg‘a topib furudastliq,
Ayon qilg‘udek bo‘lsa badmastliq,

Ko‘runur yuzi ko‘zgu ichra buzuq,
Uzun, yo‘qsa, yoypong, kichik yo uluq.

Chu biynanda bu nuktag‘a topti pay,
Bo‘lub xushdil, aylar ravon tarki may[7].

Ko‘rub ul buzug‘lug‘ni nazzoragar,
Bo‘lur o‘z buzug‘ holig‘a choragar.

Yana lu’bate, bal jahon ofati,
Jahon ofati yo‘qki, jon ofati.

Xitoyi hasab, sho‘xi chiniynajod[8],
Jamolig‘a huru pari xonazod.

Iki banda husniga huru pari,
Va lekin qochib har biri bir sari.

Xito mulkida zulfi g‘avg‘o solib,
Ko‘zi Chin diyorida yag‘mo solib.

Iki chini zulfayni mushkin tanob,
Anga Chin ichinda sepib mushki nob.

Qaro qoshi mushkin hilole kelib,
Hilol andin oshuftahole kelib,

Ani charx aylarda mushkin hilol,
Tomib nuqtaekim – bo‘lub oti xol.

Uzori uza iki qiymoch ko‘z,
Ulus qonini ichgali ochko‘z

Kim, ul ochliq aylab oni zaif,
Uzolib yotib xastalardek nahif.

Quyoshdek anga davr ruxsor o‘lub,
Og‘iz nuqtasidin namudor o‘lub.

Chu pargor uchi davrin aylab kashon,
Padid o‘lg‘ucha nuqta topmay nishon.

Zanax tavqi lekin yana nimdavr
Ki, andin bori davr ahlig‘a javr.

Zaqan chohi ul davraning nuqtasi,
Tushub choh aro ahli davron base[9].

Qadi ishva birla xiromanda sarv,
Xiromanda sarvi xiromon tazarv.

Chu noz ul tazarv oshkor aylabon,
Base bozu shohin shikor aylabon.

Boshidin-oyoq ishvau xo‘bluq,
Oyoqdin boshi nozu mahbubluq.

Kelib borchadin turfa bu mojaro
Ki, ham bazm aro chustu ham razm aro.

Chu bazm o‘lsa ilhoni ushshoqso‘z,
Ne ushshoqso‘z, ayt ofoqso‘z.

Chu tortib navo, elni behol etib,
Xirad nutqini nag‘masi lol etib.

Cholib chun g‘ino notavon rishtasin,
Uzub notavonlarg‘a jon rishtasin.

Chu un birla barbat navosin tuzub,
Biri o‘lturub, ul biri tirguzub.

Qachonkim kirib razm maydonig‘a,
Qilib qasd maydon eli jonig‘a.

Chu raxshig‘a har sori javlon berib,
Zamon ahli javlonig‘a jon berib.

g‘anim o‘lsa gardun kibi zo‘rmand,
Vag‘o vaqti gardung‘a solib kamand.

Qilich solsa xoroni aylab shikof,
Anga xora kemuxti o‘lub g‘ilof.

O‘qi bo‘lsa yuz xudu xafton o‘tub,
Qatiq xoradin balki parron o‘tub.

Sinoni qachon ko‘rguzub pechu tob,
Sipehr ajdarig‘a tushub iztirob.

Qachonkim aduv xaylig‘a ot solib,
Chu ul yel yetib – xasdek el qo‘zg‘olib.

Baloeki charxi qadimiy nihod,
Bera olmayin bir aningdekni yod.

Skandarga Xoqon yasab peshkash,
To‘quz bo‘yla tuhfaki, sharh o‘ldi xush.

Bular chun sarosar muhayyo bo‘lub,
Yana Chin shahi majlisoro bo‘lub.

Yasab bir ajab bazmi oliyasos,
Takallufqa aql anda topmay qiyos.

Ulug‘ xaylni rahshunos aylabon,
Shah ihzorini iltimos aylabon.

Shah ollig‘a chun multamaslar yetib,
Hadisin aning yer o‘pub – arz etib.

Qabul aylabon so‘zni doroi dahr,
Ravon otlanib ayladi azmi shahr.

To‘shab erdi Xoqoni xurshidtoj,
O‘zi qasridin rost to bir yig‘och

Skandar yo‘li uzra deboyi Chin
Ki, pinhon bo‘lub erdi sahroyi Chin.

Har o‘n gomda bir nisor aylabon,
Duru la’lni xoksor aylabon.

Yo‘li uzra oncha to‘kub mushki nob
Ki, el to‘tiyoliqqa topmay turob.

Yel ul mushk uza chun bo‘lub rahnavard,
Tutub mushkdin ko‘k yuzin tiyra gard.

Bu hashmat bila xusravu toju taxt,
Kirib Chin diyorig‘a farxunda baxt.

Ko‘rub, o‘yla shahreki, charxi kuhun,
O‘qub misliga oyati «lam’yakun»[10].

Jinonvash havoliyu bog‘i aning,
Ne paydo uchi, ne qirog‘i aning.

Bezab tomu toshini oyin bila,
Musavvar bori hullai chin bila.

Ko‘rub oncha oroki, ko‘z ko‘rmayin,
Ko‘ngul ham taxayyulg‘a kelturmayin.

Skandarga har lahza ortib nishot,
Angochaki, Iskandaroyin bisot.

Qo‘yub chunki Xoqon bisotig‘a gom,
Topib dargohin charxi feruzafom.

Surub chunki dargohdin ichkari,
Ko‘rub olame chun boqib har sori.

Nazih ravzae charxi axzar kibi,
Anga har ochuq gul bir axtar kibi.

Kelib chor darchor pargor anga,
Sekiz doylig‘ to‘rt devor anga[11].

Yig‘ochlar o‘tub to‘rt devordin
Demaykim, yeti charxi zarkordin.

Adaddin fuzun har humoyun daraxt,
Qo‘yub bargdin charx toqig‘a raxt.

Bo‘lub charx uza shoxlar shevasi,
Degaysenki, anjum erur mevasi[12].

Yig‘ochlar tubida chaman-darchaman,
Sarosar tuzub charga sarvu saman.

Binafshaki o‘z qaddin aylab nigun,
Qalinliqda chodirshabi nilgun.

Magar charx o‘lub zebu tazyin uza,
Solib aks oyinai Chin uza.

Rayohing‘a kimsa adad topmayin,
Farahbaxsh atrig‘a had topmayin.

Qilib nargis o‘z g‘unchasin bayzavor
Ki, ko‘zinda erdi ramaddin g‘ubor.

Ramad yo‘qki, chun qor uza ko‘z solib,
Qoriqmoq ko‘zining ziyosin olib.

Bo‘lub lolau sabza naqshin gilem,
Shukufa to‘kub ul gilem uzra sim.

Mulavvan zujoja nishoni bo‘lub,
Ko‘k ayvonining tobadoni bo‘lub.

Bu gulshan ichinda fazoyi vase’,
Fazo o‘rtasida binoe rafe’.

Qilib posbonig‘a damsozliq,
Zuhal birla har shom hamrozliq.

Biyikrak falak qasridin poyasi,
Ravoqig‘a tushmay bulut soyasi.

Yog‘indin aning tomi nam ko‘rmagan,
Choqin shu’la toqig‘a yetkurmagan.

Muzahhab qilib oni boshtin-oyoq,
Agar rahba, gar burj, gar xud ravoq[13].

Bisotidag‘i xisht chinisirisht,
Musamman yasab chini andoqki xisht.

Chu chini bo‘lub farsh koshi anga,
Bo‘lub naqsh matnu havoshi anga.

Bori xisht anga chinioyin bo‘lub,
Safo ichra oyinai Chin bo‘lub.

Ichi qasrning sar-basar zarnigor,
Yeshik borcha ziynatda gavharnigor.

Kelib borcha naqqoshi chobukqalam,
Base vaqt urub kilki Moniyraqam.

Topib naqsh konunu hanjorini,
Musavvar qilib to‘rt devorini.

Mavoze’ anga har biri naqshi Chin,
Dema naqshi Chinkim, bihishti barin.

Bu qasr ichra taxti sipehr ihtirom,
Yasab shoh uchun anda oliy maqom.

Skandarga Xoqoni mehmonparast,
Bu oliy sarir uzra berdi nishast.

Anga dog‘i Iskandari taxtgir,
Makon etti ham ushbu oliy sarir.

Atou o‘g‘ul yanglig‘ o‘lturdilar,
Nishotu tarab bazmini qurdilar.

Bori o‘lturur elga hukm etti shoh
Ki, yerlik yerin qilg‘ay oromgoh.

Sukun topib avval kulahdorlar,
Alardin quyiroq sipahdorlar,

Yaqinroq tutub hikmat ahli julus,
Filotun, Arastuyu Farfunyus[14].

Chu qasr o‘ldi jannat kibi bequsur,
Xud erdi muhayyo sharoban tahur.

Chu ma’kuldin tab’ topti farah,
Ko‘ngul ayladi mayli chini qadah.

Ravon qo‘pti bir sho‘xi chinisirisht,
Malohat aro rashki huri bihisht.

O‘zi ichti yoquti ahmar suyi,
Vale shohg‘a tutti kavsar suyi.

Ravon ichti doroi davron dog‘i,
Ne doroi davronki, Xoqon dog‘i.

Chu evruldi uch-to‘rt davri nishot,
Padid o‘ldi el ko‘ngliga inbisot.

Qadah soldi ahbob mag‘zig‘a sho‘r,
Hijobu hayo raf’i kelturdi zo‘r.

g‘ino ahli haryon navo tuzdilar,
Navosozlig‘ rasmi ko‘rguzdilar.

Qilib jilva har soqiyi mahjabin,
Sochib anbarin zulfidin mushki Chin.

Bo‘lub hushu fahm ahlig‘a guftugo‘y,
May olg‘onga hushin tushub hoy-huy.

Iki shoh bir-birga aylab niyoz,
Takallum qilib har biri dilnavoz.

Bu oning qoshida qulog‘in tutub,
Munung ul o‘parg‘a oyog‘in tutub.

Bu aylab aning sadqasi mulki Chin,
Ul aylab munga sadqa ro‘yi zamin.

Yo‘q ulkim iki shahg‘a bu rasmi xos,
Har ikiga bir-bir bila ixtisos.

Chu ichmak ulus rasmu royi bo‘lub,
Gazak borcha xoni Xitoyi bo‘lub.

Olib charx atboqi har dam sabaq,
Ne yanglig‘ bo‘lurni tabaq-bartabaq.

Yashil xonlaru qursi limu bari,
Kavokib bila charxi minu bari.

Bo‘lub o‘yla bazmeki, charxi baland,
Bo‘lub ziynatu zebidin bahramand.

Yemakka ulus mayli bo‘lg‘onda fosh,
Gazak o‘rtadin chiqti, tortildi osh.

Qayu oshkim, yer yuzini xon tutub,
Vale xonni ne’mat yuz alvon tutub.

Ne dey, ulcha ul xon qiyosi edi
Ki, to‘quz ming otning uchosi edi.

Yana qo‘yg‘a yo‘q erdi haddu hisob
Ki, yuz ming desam bo‘lg‘ay ul intixob.

Munga loyiq angla ushoq oshini
Ki, ko‘rmak uyurdi falak boshini.

Chu tortildi bu nav’ behad taom
Ki, topti tamattu’ bori xosu om.

Ravon taxtdin tushti Xoqoni Chin,
Qo‘pub taxt uza shohi masnadnishin.

Tavoze’ bila Chin shahi turdi xush,
Shah ollig‘a so‘zlatg‘ali peshkash.

Hisobin bitib shah sari kettilar,
Hamul davlat arkoni arz ettilar.

Chu arz o‘ldi, Xoqon yukundi ravon,
Yukundi yana xusravi navjavon.

To‘quz-to‘quz o‘tkardilar borini,
Aningdekki aylabmen izhorini.

Ko‘rub tuhfa ul nav’ bori guzin,
Dedi shoh Xoqonga ko‘p ofarin.

Chu o‘tkardilar borchasin xayl-xayl,
Shah ul iki nodir sari qildi mayl.

Biri ul Xo‘tanzodi mahro‘ edi,
Yana mohvash turfa ko‘zgu edi.

Ravon bo‘ldi Xoqoni xurshidroy,
Bu ilgida oyina, ul birda oy.

Shah ollig‘a kelturdi ko‘zguni ham,
Ne ko‘zguki, ul mehri diljo‘ni ham.

Chiqib taxt uza o‘lturub shoh ila,
Dedi ko‘zgu vasfini dilxoh ila.

Shah ul ko‘zgudin bo‘ldi ko‘p shodmon,
Anga qildi mashg‘ulluq har zamon.

Ani ahli hikmatqa ko‘rguzdi ham,
Base so‘z aning bobida tuzdi ham.

Qo‘lidin bu ko‘zgu yiroq ketmadi
Ki, ko‘zgu chiroylig‘ni yod etmadi.

Gahe qildi ehsos qismin aning,
Gahe fikr qildi tilismin aning.

Chu qildi quyosh ko‘zgusi yuz nihon,
Yana zangi zulmatqa qoldi jahon.

Qadah ichmadi shohi hikmatparast,
Ki mazmum erur bo‘lmog‘i shoh mast.

Minib otqa mayl etti o‘rdu sari,
Quyosh o‘ylakim charxi minu sari.

Qo‘pub bo‘ldi Xoqon dog‘i hamrahi,
Bo‘lub hifzida ham ato, ham rahi.

Sipohig‘a chun shahni yetkurdi bot,
Yer o‘ptiyu o‘z shahrig‘a surdi ot.

Skandar tushub istadi jomi may,
Yana lahzae soldi suhbatg‘a pay.

Chu Xoqong‘a ul bazmu oyin bo‘lub,
Skandar so‘zi barcha tahsin bo‘lub.

Ketur soqiy, ul ko‘zguni ro‘baro‘y
Ki, kofurtab’ o‘lg‘ayu mushkbo‘y.

Dimog‘imda Chin mulki savdosidur,
Bu yanglig‘ may oning mudovosidur.

Mug‘anniy, ulug‘ yir navosini tuz!
Bijir ko‘kka piypo sadosini tuz!

Meni bir navo birla xushhol qil,
Jahon fikridin forig‘ulbol qil!

Navoiy, ichib may eshitgil surud
Ki, bas, bevafodur sipehri kabud.

Ki, Xoqong‘a gar juz jafo qilmadi.
Skandarg‘a dog‘i vafo qilmadi.

LIII

Ziyofat bog‘ining sarvdek ozodlari bobidakim, g‘unchadek xizmat kamarin chust bog‘lab guldek ochuq yuz bila xoni karamlari doim ochuqdurur va qo‘nog‘lari agar qumri bo‘lsun vagar bulbulkim, har biri o‘z xo‘ri holig‘a ko‘ra ul xondin navo toparlar va alar ifrot imtilosidin muarrodururlar va mufrit ishtahosidin mubarro

Xusho ulki, juz bazl anga pesha yo‘q,
Jahon boru yo‘qidin andesha yo‘q.

Zamon ichra topib o‘zin mehmon,
Anga mehmon borcha ahli zamon.

Kishikim anga mehmonliq qilib,
Bu ham jon bila mizbonliq qilib.

Chu mehmon yetib, dun kibi qochmayin,
Bal ul bo‘lmayin, ro‘zasin ochmayin.

Xalilullahoso ochib xoni bazl,
Qamar qursidek sindurub noni bazl[1].

Nechakim taomi kelib no‘shi bahr,
Kelib mehmonsiz mazoqig‘a zahr.

Va gar kelsa mehmon, qurug‘ non anga,

Bo‘lub qursi xurshidi raxshon anga.

Burun lutf behaddu poyon qilib,
Ochuq yuz bila xulqu ehson qilib.

Yuzin misli gulbargi xandon ochib,
Yana ollida gul kibi xon ochib.

Nechuk gulda gulbargi xandon to‘la,
Bu xon ichra gul bargidek non to‘la.

Chu mehmon uzotib qo‘lin xonig‘a,
Qo‘yub mizbon minnatin jonig‘a.

Ani toki to‘yg‘ormayin, to‘ymayin,
Ilik chekmay ul, bu ilik qo‘ymayin.

Agar bo‘lsa mehmoni shoh, ar gado,
Qilib mizbonliq tariqin ado.

Yo‘q ulkim shah ollida qo‘yg‘ay kuloch,
Gadog‘a qurug‘ nonu yovg‘on umoch.

Tafovut ko‘rar bo‘lsa xud bok yo‘q,
Vale anga shahdu munga xok yo‘q.

Gar ul sarvaru bu sarafkandadur,
Vale ikisi Tengriga bandadur.

Baso kuzpushtu parokanda hol,
Bo‘yida chu bo‘lg‘ay ipi eski shol[2]

Ki, bo‘lg‘ay ko‘ngul mulkining shohi ul,
Nihoniy ko‘ngul rozi ogohi ul.

Sipehri zabardast anga zerdast,
Ko‘rub himmati charxi a’loni past

Ki, gar shahg‘a fahm o‘lsa holi aning,
Boshin aylagay poymoli aning.

Kishi qilsa bo‘lg‘aymu tahqir ani
Ki, Haq aylamish bo‘lsa tavqir ani.

Bas, avlo bukim har qachon ahli roz,
Ochib bazl uyin bo‘lsa mehmonnavoz.

Chu el barcha suratda pinhon erur,

Xirad oni anglarda nodon erur.

Muvoso ko‘zin har taraf ochsa keng,
Hamul ko‘z bila borchani ko‘rsa teng.

Quyoshdekki ko‘rguzsa ruxsorini,
Solur teng jahon uzra anvorini.

Agar qasri zarrin erur, gar buzuq,
Barobar qilur partavidin yoruq.

Yo‘q ul sham’dekkim furuzandadur,
Chu parvonag‘a yetti – so‘zandadur.

Ne tong gar aning fe’li podoshiga,
Yetar har zamon tig‘ aning boshig‘a.

Bulutdek saxoliq kerak mizbon,
Ki tengdur anga marz ila marzbon[3].

Qachonkim sochar durri ehsonini,
Jahon sho‘razoru gulistonini.

Saxo yomg‘uri birla serob etar,
Ne serob, g‘arqi duri nob etar.

Yo‘q andoqki, yelkim erur xokro‘b,
Qachon dasht aro bo‘lsa xoshokro‘b.

Qilur yer yuzin xoru xasdin xalo,
Tamomin chuqurlarg‘a aylar to‘lo.

Bu af’olidin qilmish oni qadar,
Sabuksoru sargashtau darbadar.

Sangakim erur bazl qilmoqqa tav’,
Muni anglakim ul erur necha nav’,

Bir ulkim kishi bo‘lsa mehmon sanga,
Qilib seli isrof tug‘yon sanga.

Yo‘q oyini izzatfizolig‘ uchun
Ki, shuhrat bila xudnamolig‘ uchun.

Birov ollig‘a xon chu kelturgasen,
Kishi bir, vale o‘n qo‘y o‘lturgasen,

Payopay asopqurni aylab ravon,

Yemakdin bo‘lub ojiz ul notavon.

Anga sen yedurmak uchun so‘z bila,
Tikib ko‘zki, oni yebon ko‘z bila.

Aning ollig‘a har tabaqkim yetib,
Hamul osh ta’mini ta’rif etib.

Borin ul yesun deb, bu avsof erur,
Bu bedod qilmoq ne insof erurg‘

Uyung shayx Luqmon mazori emas,
Seni kimsa ul buq’a shayxi demas.

Xudo molig‘a qilmoq isrof neg‘
Junun ahlidek muncha itlof neg‘

Ki, Haq garchi debdur: «Kulu vashrabu»,
Vale ham demishturki: «Lo tusrifu»[4].

Ne qilmish bu mehmonki, o‘lturgasen,
Anga yolborib zahr yedurgaseng‘

Ne bir zahr, har luqma bir zahri nob,
Vale luqmag‘a kimsa topmay hisob.

Bu yanglig‘ ziyofat base shum erur,
Xirad ahli ollinda mazmum erur.

Yana bir bukim, har qachon keldi zayf,
Anga qilg‘asen bermayin tu’ma hayf.

Musofir ichin kuydurub ishtiho,
Vale yo‘q sening buxlunga intiho.

Ravo ko‘rmaging anga mahrumluq,
Yerur burnog‘idin batar shumluq.

Budur da’bkim yaxshidur, gar yomon
Ki, bo‘lg‘ay sening xoninga mehmon.

Burun lutf birla tarabnok qil[5],
Ne isrof qilg‘il, ne imsok qil.

Yemakka anga har ne darxo‘r esa,
Sanga dog‘i nekim muyassar esa.

Ochuq yuz bila chek aning qoshig‘a,

Vale istama muzd podoshig‘a.

Ishingga solib «Akramuz-zayfa» nur,
Tutub mar’i oyini «Xayrul-umur»[6].

Ziyofat bu nav’ o‘lsa oyin sanga,
Kerak mizbonliqda tahsin sanga,

Bu yanglig‘ kishi mizbon kamdurur,
Agar bo‘lsa donoi olamdurur.

LIV

Bahromi Go‘r hikoyatikim, uch olachuq eliga mehmon bo‘ldi, ikisi ifrot va tafrit ko‘rguzub, muxotab va mat’un bo‘ldilar va birisi adolat tariqidin Qorun

Erur naqlkim, shoh Bahromi go‘r[1],
Magar sayd uchun surdi bir kun sutur.

Ul ov ichra tushti sipahdin yiroq,
Ani bir qulon soldi eldin qiroq.

Chopib erdi ko‘p shohi sahronavard,
Iki-uch olochuq aro yetti fard.

Shahi dashtpaymo base och edi,
Bag‘oyat yemaklikka muhtoj edi.

Ul uylar qoshida edi bir daraxt,
Tushub soyag‘a shohi farxunda baxt.

Dedi ul xaloyiqqa tushgan zamon,
Ki: «Sizga erurmen bu dam mehmon.

Bo‘lung mohazar birla mehmonnavoz
Ki, andin navo topqay ahli niyoz».

Ul uch uy elidin biri dun edi,
Agarchi tamavvulda Qorun edi.

Nekim shah dedi, qilmadi iltifot,
Yana birga isrof erdi sifot.

Qazon osturub, qildi qo‘ylar qatil
Ki, molin ziyofatqa qilg‘ay sabil.

Solib ju’ mehmon dimog‘ig‘a dud,

Aning oshikim, tongla pishgay, ne sudg‘

Va lekin biri erdi ahli xirad,
Xusho ulki topqay xiraddin madad.

Ani uyga kelturdi tortib inon,
Ravon mohazar chekti — jug‘rotu non.

Ketib shohdin ranju farsudaliq,
Yebon mohazar topti osudaliq.

Anga berdi behaddu andoza mol,
Hamul dung‘a andozasiz go‘shmol[2].

Qilib ta’na musrifqa beintiho,
Nekim zoyi etganga berdi baho.

Bular tavrida turfa holat ko‘rung,
Anga ham tariqi adolat ko‘rung.

Bu birdek kerak mehmonliq dog‘i,
Yana bir kibi mizbonliq dog‘i.

LV

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, ziyofat xonin ne nav’ ochmoq yaxshidur va muroot sufrasin ne nav’ yoymoq mustahsan ko‘runur va dononing ul bobda nukta surgoni va hikmat moidasidin Skandarga foyda yetgurgoni

Yana so‘rdi farmondihi ro‘zgor1:
Ki: «Yey, donish ahlig‘a omuzgor,

Ziyofatda nedur tariqi savob,
Amal aylamak bizga qilg‘il xitob.

Ki, ul bo‘lg‘ay oyini hikmatqa jo‘b,
Ne andin kerak bo‘lg‘ay ozu, ne ko‘p

Ki, bu bobda borcha ahli milal
Ko‘p aylabdururlar tariqi jadal.

Qilibdurlar oxir muni ixtiyor
Ki, ko‘p qilg‘on ikrom erur baxtiyor».

Qilib donishoyin duo ibtido,
Duodin so‘ng aytti bu yanglig‘ ado:

«Ki, har neki mehmong‘a bor ehtiyoj,
Agar oshu non, yo‘qsa shahdu kuloch.

Kerak hozir o‘lsa bori xon aro,
Taodul tariqida mezon aro.

Aningdekki mazmum erur bo‘lsa kam,
Yerur o‘yla mazmum ifroti ham».

Dedi shahki: «Bu sheva oson erur,
Vale shah shukuhig‘a nuqson erur».

Taammul bila nukta surdi hakim:
Ki: «Yey, hikmat oyinida mustaqim.

Xudo shah janobin rafe’ aylamish
Ki, shahga ulusni mute’ aylamish.

Chu shah xalq rizqig‘a bo‘lmish zimon,
Yerur ortug‘ o‘ksuk yetkurmak yomon.

Vagar naqdi juzve ziyon aylasa,
Shukuhini ortar gumon aylasa.

Nekim xalq rizqig‘a maqsumdur,
Iki oncha ham qilsa ma’lumdur

Ki, ne moya bo‘lg‘usi zoid anga
Ki, to bo‘lg‘ay isrof oid anga.

Munung birla gar o‘zni istar azim,
Yemastur aning bu xayoli salim

Kim, ul bo‘lg‘usi ming, iki ming diram
Ki, xarjidin istar o‘zin muhtaram.

Angakim munung birla ortar shukuh,
Qilur fahm agar bo‘lsa fikratpujuh

Ki, aylar o‘zi o‘z shukuhini past,
O‘zi berur o‘z poyasig‘a shikast.

Yerur shahg‘a andin ulvi janob
Ki, past el ishidin qilur ijtinob.

Vagar ko‘ngli ehsonga hamrozdur,
Nechakim berur ko‘p, hanuz ozdur.

Angakim xiraddin yetar yorliq,
Pisandida ermas talafkorliq».

Chu bu nuktani surdi donishpujuh,
Qabul ayladi shohi gardunshukuh.

LVI

Iskandarning hukamo ittifoqi bila falak rozi pinhoniysi va olam sirri nihoniysini zohir va paydo va ravshan va huvaydo qilurg‘a suturlobi xurshidtob va mir’oti mehrsifot tasnif qilg‘oni va bu iki tuhfai mehr misoldin xotir jam’ etib yana iki mahvashi mehrjamol visolig‘a rag‘bat qilg‘oni va ul bobda sur yaroqin va surur tumtaroqin muhayyo qilib, sipehri barindek ayvonini Ravshanak nuridin munir tutqoni va Mehrnoz partavidin yorutqon

Bu Chiniy nigorish guzorandasi,
Yerur bu guzorish nigorandasi

Ki, Xoqon chu bo‘ldi Skandarparast
Skandarga Chin[1] ichra bo‘ldi nishast.

Etib erdi qish mavsumi dog‘i tush,
Emas erdi bir sori mumkin yurush.

Yana erdi Xoqonga behad havas,
Havas demakim, kom ila multamas

Ki, shah Chinda orom tutqay bu qish,
Tana’um qilib, jom tutqay bu qish.

Shah ollig‘a chun iltimos ayladi,
Shah oning hadisini pos ayladi.

Bu ishga tutub tab’i donishvarin,
Turub qildi qishloq Chin kishvarin.

Gahi hamnafas erdi Xoqon bila,
Quyosh, o‘ylakim mohi tobon bila[2].

Gahi sayd ishin ixtiyor aylabon,
Yurub Chin kiyigin shikor aylabon,

Gahi rudu may birla majlis tuzub,
Ichib may, nishotu tarab ko‘rguzub.

Gahi hikmat ahli bila royzan,
Bo‘lub ilmi hikmatda ustodi fan.

Hamul ko‘zgukim chekti Xoqon anga,

Bo‘lub erdi osoyishi jon anga.

Qachon taxt anga bo‘lsa oromgoh
Ki, o‘z dodin istar edi dodxoh

Tutar erdi ul ko‘zguni ro‘baro‘,
Qilib hukm oyinai rostgo‘.

Bu holatda hayrat yengib shohni,
Yana ul suruki donishogohni.

Qachonkim tuzub bazmi shohona ham,
Arog‘a solib ko‘zguni yona ham.

Hamul fe’lini oshkor aylabon
Ki, badmastni sharmsor aylabon.

Shah andoq bo‘lub erdi maftun anga
Ki, hayratda yo‘q erdi qonun anga.

Chu ko‘p soldi fikrat aro hayrati,
Bu vodiy sori chekti bosh fikrati.

Ki: «Bu bir tilismedurur turfasoz,
Yosog‘on bilib hikmat ahli bu roz.

Meni dog‘i doroi charxi baland,
Chu hikmat bila aylamish bahramand.

Yana xidmatimda necha yuz hakim,
Borining so‘zi poku royi salim.

Bilik bobida har biri olame,
Falak rozi ashkolig‘a mahrame.

Bu ko‘zguki solimni tuz ko‘rguzur,
Menga anda yuz fikr yuz ko‘rguzur.

Nedin men dog‘i ahli hikmat bila,
Borib chora keyniga himmat bila,

Taammul qilib, g‘avrig‘a yetmayin,
Tilism andin ortug‘ padid etmayin».

Tilab donish ahlini eldin nuhuft,
Bu ma’nida ko‘p qildi guftu shunuft.

Duolar qilib muttafiq ul guruh,

Dedilarki: «Yey shohi gardunshukuh!

Qachonkim buyursang bu yanglig‘ tilism,
Bu bir amr erurkim, erur bizga qism:

Taammul bila aylabon ittifoq,
Qiloli ish andin base yaxshiroq».

Hamul hikmat ahli bo‘lub iki xayl,
Ravon qildi har xayl bir ishga mayl.

Filotunu Suqrot o‘lub bir taraf,
Arastuyu Buqrot o‘lub bir taraf.

Alar sori Hurmus, Balinos ham,
Bu yon Arshimidus tutub pos ham.

Buyon iki yuz, ul taraf iki yuz,
Debon kecha-kunduz bu ma’nida so‘z.

Alardin damo-dam shahi nomvar,
Bo‘lub hikmat oyinida bahravar.

Riyozat bila ul iki xayl chust,
Topib yer bila ko‘k misolin durust.

Biri bo‘ldi olamda fikratnamo,
Vale bir guruh etti azmi samo.

Topib anjum oyinu tab’in tamom,
Tiboi mavolidi sifliy maqom[4].

Muvofiq topib kavkab anzorini,
Ayon ettilar san’at izhorini[5].

Filizzot aro zohir aylab tilism,
Mudavvar namudor etib iki jism[6].

Biri ro‘yu mis birla obod edi,
Yana bir duraxshanda po‘lod edi.

Alardinkim ul ro‘y topti gudoz,
Bo‘lub erdi bori suturlobsoz.

Alarg‘aki po‘lod o‘tru edi,
Namudori go‘yoki ko‘zgu edi.

Skandar berib iki sori madad,

Gah aylab qabul ishlarin, goh rad.

Alardin bu dog‘i bo‘lub mustafid,
Alar ham topib daxl mundin mufid.

Hamul qishda ul hikmat ahli nihon
Ki, har bir alardin edi bir jahon.

Iki turfa hay’at padid ettilar
Ki, olam elin mustafid ettilar.

Suturlobg‘a charx ashkoli qism,
Vale ko‘zgu jismi sarosar tilism.

Jahon mulki anda bo‘lub jilvagar,
Kishikim anga bo‘lsa suratnigar.

Falak tulu arzi[7] birida nihon,
Birida ayon borcha mulki jahon.

Ul o‘ldi suturlobi maxfisamo,
Bu bir bo‘ldi mir’oti getinamo[8].

Sharaf burji topqach quyosh ko‘zgusi[9],
Ki, qildi zamon raf’ qish qayg‘usi.

Quyosh jirmi bo‘ldi zari nobdek,
Skandar tuzatgan suturlobdek.

Qilib shoh masnad uza bazm fosh,
Sharaf burjidin ul sifatkim quyosh.

Sarir uzra yonida Xoqoni Shin,
Iki sori ko‘p shohi masnadnishin.

Tuzub borgoh ichra shohona bazm,
Qilib tahniyatdin tana’umg‘a azm.

Bu holatda kirdilar ul iki xayl,
Bori qildilar taxt ollig‘a mayl.

Bori ilm aro baxti sarmad kibi,
Tajarrudda aqli mujarrad kibi.

Skandar qilib borchag‘a ehtirom,
Sarir ollida xos qildi maqom.

Chu bazm ichra o‘lturdilar ul guruh,

Xaloyiqqa yetti alardin shukuh.

Maqom ichra chun zohir o‘ldi sukun,
Solib bosh quyi misli charxi nigun.

Viqor uzra bir dam chu o‘lturdilar,
Suturlobu ko‘zguni kelturdilar.

Qilib arz har qaysi timsolini,
Ayon ettilar har biri holini

Biridin ayon bo‘ldi aflok ishi,
Yana biridin arsai xok ishi.

Birida to‘quz charx taqsim o‘lub,
Birida ayon yeti iqlim o‘lub.

Chu Xoqong‘a fahm o‘ldi ul iki hol,
Tahayyur ani ayladi gungu lol.

Ayon ayladi shahg‘a hamdu sano,
Debon hamd, bu nukta surdi yano

Ki: «Shah sen kibi ko‘rmadi charxi pir
Ki, ne toj sensiz kerak, ne sarir.

Mulozimlaring dog‘i loyiq sanga,
Bilik ichra bori muvofiq sanga.

Yemas olam ahli kibi zotingiz
Ki, olamdin o‘ksulmasun otingiz».

Ul ishgaki hikmat eli chekti ranj,
Sila topti shahdin base molu ganj.

Magar erdi ul ganj ila mol kam
Ki, Yunonni qildi suyurg‘ol ham.

Ato qildi Xoqoni Chin ham base,
Guhar berdi, durri samin ham base.

G‘aniy bo‘ldi ul nav’ ahli kamol
Ki, tush vaqti har bir quyoshtin misol.

Chu xusravg‘a ul iki ish berdi dast,
Nishot aylabon bo‘ldi ishratparast

Ki, mashshotai baxt kulgu bila,

Hamul sofu raxshanda ko‘zgu bila.

Bezab gulruxi johu iqbolni,
Yuzinda yasab zulf ila xolni.

Muqavvas qoshig‘a chekib vusma ham,
Qo‘yub xol ham, sindurub kesma ham.

Qilib huri jannatdek orosta,
Yeram bog‘ida sarvi navxosta.

Shahi komron birla aqd aylagay,
Jahon ganji mahriga naqd aylagay[11].

Nikohini aylar zamon Mushtari
Kim, ul charxning keldi sa’d axtari.

Bo‘lub charx Suqrotig‘a baxt yor,
Qilur chog‘da yaxshi nazar ixtiyor.

Tutub ilgiga ul suturlobni,
Topib charx vaz’idin asbobni.

Tutub mehr sayri uchun irtifo’,
Tushub suqbadin suqba sori shio’.

Shah iqbol ila mayli roh aylagay,
Tarab nav’arusin nikoh aylagay

Ki, Doroyi davron qizi Ravshanak,
Kim, erdi jamol ichra mehri falak.

Vasiyat qilib erdi Doro nuhuft
Ki, bu shoh ila bo‘lg‘ay ul moh juft.

Jahongirlik amrida mohu sol,
Yemas erdi shahg‘a majoli visol.

Yana shoh Mallu qizi Noz Mehr
Ki, mehr o‘yla, ko‘rmaydur erdi sipehr.

Shah andin dog‘i bor edi komsiz,
Vale xotiri erdi oromsiz.

Tilar erdi jashni azim aylamak,
Xaloyiqni g‘arqi naim aylamak.

Yorub Ravshanakdin shabiston anga,

Bo‘lub borcha olam guliston anga.

Yana Noz Mehr o‘lg‘ay oromi ruh
Ki, topqay muloqotidin kom ruh.

Chu ko‘ngli pishurdi bu andeshani,
Tilatti guruhi xiradpeshani.

Alar birla bu nuktada urdi roy,
Ul ishga bori bo‘ldilar rahnamoy.

Ki, har kimgakim bo‘lsa toju sarir,
Anga bir xalafdin emastur guzir.

Chiqorda bu feruzagun mahddin,
Yemas shoh forig‘ valiahddin.

Quyoshkim qilur mayl mag‘ribqa, shom
O‘ziga qilur oyni qoyim-maqom.

Quyosh nuricha gar emas mohtob,
Yerur ul yorug‘luqqa noyib-manob.

Shajar chun qilur bog‘din intiqol,
Agar o‘rnida bo‘lsa navras nihol.

Bo‘lur oqibat bog‘ piroyasi,
Berur naf’ ham meva, ham soyasi[12].

Chu donishvar el qildilar ittifoq,
Dedi shohkim: «Aylasunlar yaroq».

Borib davlat arkoni shah komig‘a,
Topib shug‘l ul ish saranjomig‘a.

Necha kunda bori muhayyo bo‘lub
Ki, Chin kishvari jannatoso bo‘lub.

Bo‘lub oncha ziynatki charxi dani,
Hisob aylamak bo‘lsa ming yil fani,

Yuzidin biriga yeta olmag‘ay,
Mingidin birin sharh eta olmag‘ay.

Muhayyo bo‘lub har sifat xosta,
Chu asbobi sur o‘ldi orosta.

Ravon qildilar sur bunyodini,

Berib ishratu ayshning dodini.

Bahor erdiyu gul arusig‘a zeb,
Arusona bulbulg‘a andin fireb.

Gulu sabza ayyomida bo‘ldi to‘y,
Bo‘lub gulshan oyin bila shahru ko‘y.

Ayoqchi, ketur jomni lab-balab
Ki, to‘y o‘ldi ayyomi ayshu tarab

Ki, bu sur erur olamafro‘z ham,
Xususan erur fasli navro‘z ham.

Mug‘anniy tuzub chinga vaznida chang,
Navo chekki hay-hay o‘lang, hoy o‘lang,

Desang senki: jon qardoshim yor-yor!
Men aytayki: munglug‘ boshim yor-yor!

Navoiy, chu sarmanziling Chingadur,
Surudung dog‘i sur aro chingadur[13].

Ayolg‘ung necha yor-yor o‘lg‘usi,
Mening yig‘larim zor-zor o‘lg‘usi.

LVII

Yigitlik bahorining xushlug‘i va bahor yigitligining dilkashlig‘ida gul va bulbuldek barg va navo tuzmak va yuz barg va ming navo bila nag‘ma ko‘rguzmak va guliston atfoli sahob doyasidin sut o‘rnig‘a shirai joniy va suv o‘rnig‘a obi zindagoniy ichgonidin ruh naboti topqonin bayon qilmoq

Jahon chorbog‘iki dilkashdurur,
Yigitlik bahori bila xushdurur.

Yigitlikda ham o‘tsa laylu nahor,
Yerur ishrat ayyomi fasli bahor.

Tirilg‘an zamon sabza, o‘lganda Hut,
Ki «Subhona hayyil-lazi lo yamut».

Hamal sabzazori sari oftob,
Tana’um havosig‘a aylar shitob[1].

Aningdekki ilgini Muso sunar,
Qo‘zi tutqali yadi bayzo sunar.

Esar subhdam ruhparvar nasim,
Topar jon yig‘ochqa izomi ramim[2].

Bu yel Iso anfosin isbot etar
Ki, bog‘ ichra ihyoi amvot etar.

Bahoriy bulut pildek bedarang,
Qilur jilva har yon, bori pilrang.

Rutubat aro go‘yo ul xayli pil,
Bo‘lubtur bori g‘arqi daryoyi Nil.

Gar andoq emas, bas nedur, ayt bu
Ki, har yon alardin tomar qatra su(v)g‘

Dema qatrakim, poyaboron degil,
Dema pil, abri bahoron degil.

Chu abri bahori sochib durri nob,
Yetishti chaman sahnig‘a obu tob.

Ochib yer ragin sabzaning nishtari,
Chiqib qon kibi lolai ahmari.

Bo‘lub go‘yo ul qong‘a mayli fasod,
Nedinkim bo‘lub zohir andin savod[3].

Chaman aylabon hullasin rang-rang.
Tugub hulla xil’at uchun tang-tang.

Giyah bog‘ aro chinioyin bo‘lub
Ki, har gul anga lu’bati Chin bo‘lub.

Bo‘lub sunbuli targ‘a sarv uzra pech,
Qadu zulfdin bo‘lmayin farqi hech.

Gul atrofidin shoxi sunbul chiqib,
Yuz oldidin andoqki kokul chiqib.

Binafsha boshin andin aylab quyi
Ki, ostig‘a oning kirib mul suyi.

Agar topmasa ul su birla gazand,
Nega raxt yerdin ko‘tardi balandg‘

O‘zin tifli nargis qadahxo‘r qilib
Ki, limu terisini sog‘ar qilib.

Va yo limuyi bo‘rki topti shikast
Ki, davrin biyik qildi, uchini past.

Chiqib savsan oshufta majnun kibi,
Sabo kojidin rangi gardun kibi.

Yuzinda ayon forig‘ulbolliq,
Topib zavq tavrida beholliq.

Qilib shu’la zohir guli otashin,
Samandar kibi bulbul axgarnishin.

Ne gulkim, tushub oshyonig‘a o‘t,
Qayu oshyon balki jonig‘a o‘t.

Sabo payki aylab chamandin guzar,
Hamishabahor anglag‘il rangi zar.

Shabistonda gul ravshan aylab charog‘,
Fatila yasab g‘uncha qo‘ymoqqa dog‘.

Sabo doyasi chun bu ishni bilib,
Fatilasin oning parishon qilib.

Qilib shoxini nastaran siymgun
Kim, ul siym atrofin aylab nigun.

Bosib siym bo‘lg‘och garonbor ani,
Hamul shoxdekkim bosar qor ani.

Bo‘lub jilva qilg‘on zamon arg‘uvon,
To‘ni arg‘uvonrang, lek navjuvon.

Nasim oni har yonki moyil qilib,
Qizil to‘n bila elga qotil qilib.

Su uzra bulut tifli aqtor ila,
Qilib davrlar mashq pargor ila.

Dema tifl, Moniyki afzorsiz,
Chekib yuz tuman davr pargorsiz.

Sapidor uza gulki payvand o‘lub,
Qadi sarvi gulruxqa monand o‘lub.

Ko‘runub chaman xuldi rizvon kibi,
Gulu sarv anga huru g‘ilmon kibi.

Chu gulzor uza abri nayson yog‘ib,
Dema qatrakim, durri g‘alton yog‘ib.

O‘tub bir-birindin chu boranda abr,
Qilib na’ra, andoqki g‘urron hizabr.

O‘vidin tushub bog‘ aro zilzila,
Choqin shaklidin bo‘ynida silsila[4].

Yog‘in qatrasin obi hayvon, degil,
Aning torini rishtai jon, degil.

Nazohatda gulshan nechukkim bihisht,
Yeli borcha anfosi Isosirisht.

Bu fasl ichrakim tong yeli jon berur,
Bulut qatrasi obi hayvon berur.

Chiqib sabza ravhi naboti bila,
Qilur jilva topqon hayoti bila.

Nishot etmagan ulcha imkoni bor,
Gumon qilmag‘ilkim, aning joni bor.

Bu chog‘ etmagan aysh bo‘ston aro,
Jamodedurur shakli inson aro.

Vale ermas ul aysh ham dilpazir,
Ko‘ngul bir taraf gar emasdur asir.

Ko‘ngul chunki bir gul uchun zordur,
Ne tong, gar anga mayli gulzordur.

Va gar vaslidin bo‘lsa osuda hol,
Anga bog‘u gulshan tavofi halol.

Skandarga chun ishq aro bo‘ldi kom,
Tilab vasl gulshang‘a qildi xirom.

LVIII

Bulbul hikoyatikim, aning gulbongidin zog‘ yolqib, balog‘at ahlig‘a gachcha hindu harza degondek ta’n qildi va aning fasih javobidin o‘zgacha so‘zin bildi

Eshittimki, bir bog‘ aro gul chog‘i
Ki, tez o‘ldi bulbul fig‘on qilmog‘i.

Kelib sarzanish qildi bir zog‘ anga
Kim, erdi nishiman hamul bog‘ anga.

Dedi: «K-ey, jununshevai harzaroy,
Nedur buki, har yil aro o‘n bir oy.

Kezarsen chamanda hazinu xamo‘sh,
Bir oydur sanga muncha jo‘shu xuro‘shg‘

Bir ishta darangu saboting qani,
Chaman qushlaridin uyoting qanig‘»

Dedi bulbul: «Yey ishqdin bexabar,
Mening kuymagimdin sanga ne xabarg‘

Chu gul yo‘qturur o‘n bir oy bog‘ aro,
Yerur ro‘zgorim seningdek qaro.

g‘amu dard erur menda laylu nahor.
Va lekin chu esti nasimi bahor

Gul etti chiqib jilva oyin yana
Tikib jaybig‘a nofai Chin yana.

Chu gul qildi bu nav’ zebi jamol,
Qachon qolg‘ay ul lahza bulbulg‘a holg‘!

Chaman husni dinor, agar dongdur
Ki, bechora bulbulg‘a gulbongdur.

Chu ketti chamandin guli otashin,
Ko‘mur birla naylay bo‘lub hamnishin.

Seningkim namudoring o‘ldi jual,
Hayotingg‘adur gul isidin xalal.

Qachon anglag‘aysen mening holatim
Ki, sendin yiroq yaxshiroq suhbatim».

Chu bulbul ayon qildi bu dardu dog‘,
Qarordi javobida afsurda zog‘.

Demakka javob o‘lmadi saxtko‘sh
Qish ayyomi bulbuldek o‘ldi xamo‘sh.

LIX

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim insonga mayli tabiiy bahor va gullarga bo‘lmog‘i nedin bo‘la olg‘ay va aning hikmat bahoridin javob nasimi yetgurgoni

Yana so‘rdi doroi gardunmahal:
Ki: «Yey charx ashkoli ollingda hal.

Bukim har qachon yetsa fasli rabe’,
Nekim jinsi inson sharifu vaze’,

Bo‘lurlar bori xurramu shodmon,
Qilurlar havo bir taraf har zamon.

Ko‘ngulniki qish g‘uncha yanglig‘ qilur,
Bahor o‘lsa ul gul kibi ochilur.

Bu fasl elga muncha tarab ne ekin,
Bu yanglig‘ tarabqa sabab ne eking‘»

Dedi barcha ilmu funun ogahi:
Ki: «Yey nutqung anfosi Ruhullahi.

Bu ma’nida el ko‘p demishlar kalom
Ki, borin bilur shohi oliy maqom.

Tabiatqa gul mayli ermas ajab,
Chaman zavqi ham xeli ermas ajab.

Vale nuktakim, asl erur bu emas,
Deyin, chun erur shahg‘a bilmak havas.

Taboe’ki, ofoqu anfusda bor,
Borin to‘rt tab’ ettilar e’tibor:

Isiq, sovuq, o‘lu quruq fahm qil,
Ani o‘tu suv, yelu tufroq bil[1].

Ki, inson bulardin murakkabdurur,
Jame’i milalg‘a bu mazhabdurur.

Birin horri yobis, dedi borcha xayl,
Birin borid aylab rutubatqa mayl.

Birin horri rutab angla bevahmu bim,
Birin boridi yobis aytur hakim.

Qachon zohir o‘ldi sanga bu usul,
Tabiat bu nav’-o‘q topibdur fusul.

Alardin biri keldi fasli bahor
Ki, bordur tabiat anga ratbu hor.

Chu bu faslg‘a keldi tab’i hayot,
Yana uchga uch tab’ bo‘ldi sifot

Ki, safrou savdou balg‘amdurur,
Vale ruh tab’i munga zamdurur.

Shak ermaski, har kimsakim joni bor,
Hayotin tilar ulcha imkoni bor.

Bu ma’nidin ul fasl erur dilpazir
Ki, yo‘q elga mayl aylamakdin guzir.

Necha sirridin elga yo‘qtur shuur,
Vale yo‘q tabiat ishinda qusur.

Chu andin yetar ruhg‘a parvarish,
Anga yetsa bexost aylar kashish.

Suvkim tahg‘a bo‘ldi guzori aning,
Chekar tab’u yo‘q ixtiyori aning».

Chu donodin o‘ldi bu yanglig‘ futuh,
Hulul etti shah jismig‘a toza ruh.

LX

Iskandarning ul iki toza vard, yo‘q-yo‘qki, iki bahori nozparvard vaslidin kom topqoni va Noz Mehrning mehru nozidin betoqat bo‘lub, gul faslida aning gul jamolidin bahra olg‘oni va aning Ravshanak rashkidinkim, mahbubluq shevasidurur sham’dek sarkashlik qilib, charbzabonliq bila o‘z shabistonoroylig‘in ravshan etgoni va Iskandarning ul xilvat visolidin chiqib, Chin mulkidin Mag‘rib diyorig‘a azm etgoni va ul diyor g‘aroyibidin azab qolg‘oni

Bu paykarni ulkim namudor etar,
Guzorish ishin mundoq izhor etar

Ki, Chin ichra Iskandari Faylaqus,
Chu topti iki o‘yla zebo arus.

Bahoru yigitlik, dog‘i shohlig‘,
Yana hikmatu donishogohlig‘.

Bilibkim, necha bo‘lsa olamg‘a shoh,

Yerur oqibat tufrog‘ oromgoh.

Ne olamg‘a topmish vafoe kishi,
Ne shahliqqa ko‘rmish baqoe kishi.

Kishiga bu holot chun bo‘lg‘usi,
Dekim, aysh qay kun uchun bo‘lg‘usig‘

Bu taqdir ila shohi ishratparast,
Necha kun tarab jomidin bo‘ldi mast.

Iki sham’ birla shabiston aro,
Iki sarvqad birla bo‘ston aro

Bo‘lub kom topmoqqa oromjo‘y,
Topib chunki orom, o‘lub komjo‘y.

Hamul Ravshanak mahdi ulyo bo‘lub,
Shabistonida majlisoro bo‘lub.

Bori parda ahlig‘a bonu edi
Ki, shah birla zonu-bazonu edi.

Vale Noz Mehr erdi poyinparast,
Anga taxt yonida erdi nishast.

Qilib shahg‘a gohi parastorliq,
Gahi g‘amza birla jigarxorliq[1].

Vale Ravshanakka base rashk edi,
Anga boqsa shah, ko‘zida ashk edi.

Bilib xusrav ul nav’ rashku hasad,
Rioyat tariqig‘a yo‘q erdi had.

Qilib Ravshanak birla ayshu nishot,
Aning birla oz aylabon inbisot.

Vale notavon ko‘ngli zori aning,
Hazin xotiri beqarori aning.

Bu ishtin malolat topib Noz Mehr
Ki, shoh o‘zga yon qildi og‘oz mehr.

Taloshmoqqa ne haddu yoro edi
Kim, ul sham’i ayvoni Doro edi.

Vale g‘ofil andinki, shohi jahon,

Aning mehrini jonda asrar nihon.

Hazin joni oning xarobidurur,
Ichinda aning iztirobidurur.

Iki kun edi Ravshanak navbati,
Muning lek bir kun edi xilvati.

Bu andeshadin ko‘nglida erdi ranj,
Bo‘lur erdi nozuk tani g‘ussasanj.

Bu oyin ila o‘tti fasli bahor
Ki, to bo‘ldi gul mavsumi oshkor.

Shah anglab edikim, mahi somiri[2],
Ko‘zi Hindu Kashmirning sohiri.

Yerur jins rashkidin oshuftadil,
Nihon shahdin ozurda, eldin xijil.

Kunekim, bo‘lub erdi navbat anga
Ki, bo‘lg‘ay shabistonda xilvat anga.

Shah oning harimig‘a mayl ayladi,
Jamolig‘a jonin tufayl ayladi.

Dedikim: «Necha yoshurun o‘rtanay,
Ulustin nihon tunu kun o‘rtanayg‘

Nihon ishqdin yetti ish jonima,
Bukun fosh etay roz jononima».

Kelib hurvash ollida tuzdi bazm,
Farog‘at bila bodag‘a qildi azm.

Shah etti ayon bodapaymoyliq
Ki, sho‘x aylagay majlisoroyliq.

Vale mohvash ko‘ngli g‘amgin edi,
Nihoni qoshi kunjida chin edi.

Takalluf bila majlisoro bo‘lub,
Ishi bast etarda madoro bo‘lub.

Skandar necha aylabon justujo‘y,
Sumanbar daler aylamay guftugo‘y.

Necha bu niyoz oshkor aylabon,

Ul oyini noz oshkor aylabon.

Munung chun fuzun bo‘ldi sarkashlig‘i,
Aning haddin oshib mushavvashlig‘i.

Chu shah ko‘rdikim, toqati toq o‘lur,
Junun ichra rasvoyi ofoq o‘lur.

Anga ishq amri junun aylamish,
Junun aqlu fahmin zabun aylamish.

Ne hikmat anga yetkurur yorliq,
Ne oyini donish madadkorliq.

Tazallum bila dedi: «K-ey, nozanin!
Nedin bizga qilding ayon bo‘yla king‘

Nedur ajzim ollinda tavsanlig‘ing,
Angakim erur do‘st – dushmanlig‘ing.

Ne jurm ettim erkin meni xoksor
Ki, ko‘nglungga o‘lturdi mendin g‘ubor.

Ne xaskim o‘tungdin kuyar log‘-log‘,
Ne hojat yana quymog‘ ul o‘tqa yog‘g‘

Chibinkim erur shahdinga poyband,
Taponcha bila anga nedur gazandg‘

Vafo aylagilkim, jafokor emon,
Bu zulm aylamakka sazovor emon.

Chu men ishq aro o‘lgum, o‘lturmagil,
Qatilingg‘a tig‘i jafo surmagil.

Niyozimg‘a boq, asru noz aylama,
Taaddi ko‘pu lutf oz aylama!»

Bu yanglig‘ tazallum chu ko‘rguzdi shoh,
Kinoyat bila zolimi kinaxoh.

Shakar tungini ayladi shahdrez,
Ko‘p ul shahd zimnida neshi kalez[3]

Ki: «Shah ayshini Haq mudom aylasun,
Ishin dilbari birla kom aylasun!

Aning loyiqi keldi Doro qizi

Ki, ko‘z ravshan aylar ayog‘i izi.

Kanizikim ul bo‘lsa hindinajod,
Ne hindinajod, ayt kashmirzod.

Ne loyiqki, oni anis aylagay,
Takalluf yuzidin jalis aylagay».

Dedi shahki: «Yey xasta jon ofati!
Demay xasta jonkim, jahon ofati!

Kinoyat tariqini bir dam unut,
Qilib rahm, bedod tarkini tut.

Manga Ravshanak ta’nini qilma ko‘p,
Ul ishta ko‘zungga meni ilma ko‘p.

Meni anda ma’zur tutsang bo‘lur,
Zamiringni masrur tutsang bo‘lur

Ki, vojibdurur ehtiromi aning,
Nedinkim, biyikdur maqomi aning.

Yerur Bahmaniy tojning gavhari,
Yana Kayqubodiy sipehr axtari».

Dedi makr ila sho‘xi shirinzabon
Ki: «Yey yeti kishvar uza marzbon!

Bu so‘zning muhabbatqa ne daxli bor
Ki, ishq ichra shahliqqa yo‘q e’tibor.

Jamolu malohat ko‘ngul komidur,
Uzun turra taqvo qushi domidur.

Nasab birla bo‘lsa anga shohliq,
Hasab birla yetmish manga mohliq.

Aning toji kishvarga bo‘lsa xiroj,
Mening ollima bosh qo‘yar ahli toj.

Anga faxr nisbatda Jamshiddin,
Manga or husn ichra xurshiddin.

Anga mulk agar bo‘lsa farmonpazir,
Manga zor erur yuz tuman mulkgir.

Agar ul xirad birla afsonadur,

Manga yuz xiradmand devonadur.

Gar ul bo‘lsa ofoq eliga aziz,
Solurmen men ofoq aro rustaxez.

Anga gar erur pesha jon o‘rtamak,
Manga sheva bo‘lmish jahon o‘rtamak.

Gar ul g‘amzadin o‘qni parron qilur,
Mening kirpikim tirboron qilur.

Gar ul qatl ishiga qilur ehtimom,
Mening tig‘i ishqim qilur qatli om.

Anga gar fusun aylamak vird erur,
Manga borcha kashmir shogird erur.

Anga g‘amza bo‘lsa jahon sohiri,
Manga bo‘ldi go‘sola yuz somiri[4].

Aning shuhrati gar erur om aro,
Mening qo‘zg‘olonimdur islom aro.

Gar ul xalqni qatl etar dam-badam,
Manga keldi tirguzmak oyini ham.

Aning qilsa zulfi yilonni fusun,
Fusunum qilur ajdahoni zabun.

Aning zulfi gar cheksa imon ragin,
Mening tori la’lim chekar jon ragin[5].

Qachon sunbulum ursa gul uzra tob,
Yopar yuzga xurshid tundin niqob.

Qoshim yoyini kimki aylar xayol,
Uyotdin ko‘ziga ko‘runmas hilol.

Yerur kirpigim o‘qig‘a jon hadaf,
Nishona otarg‘a magar chekti saf.

Ko‘zumga, qachonkim bo‘lur uyqu kom,
Bo‘lur olam ahlig‘a uyqu harom.

Yuzu mardumakvor xolim so‘zi,
Degil gul uza tushti bulbul ko‘zi.

Chekilgach uzorim qirog‘ig‘a nil,

Yerur taqvoyu aql ko‘ziga mil.

Gajakdekki zulfum aro tobdur,
Ko‘ngullarni tortarg‘a qullobdur.

Labim la’likim javhari jon erur,
Su ul la’l aro obi hayvon erur.

Tishim rishtasin jolai nob de,
Dema jolakim, durri serob de.

Yo‘q og‘zim bo‘lub javhari bebaho,
Ne paydo vujude anga, ne baho.

Iki la’lim etgach takallum padid,
Qilib og‘zima el tavahhum padid.

Ani xalq yo‘q yerda aylab gumon,
Agar bo‘lsa ham ul hamon – yo‘q hamon.

Yuzumda dema siymdin g‘abg‘abe
Ki, oy ichra xurshidvash kabkabe.

Ne kavkabki, nuri aning bekaron,
Quyosh birla husn ichra aylab qiron.

Labim peshasi jonfizoyandaliq,
Ko‘zum shevasi dilraboyandaliq.

Dema ruh – qaddim ko‘rub lol o‘lub
Ki, Ruhul-amin dog‘i behol o‘lub.

Xiromim qilib ravza sarvini mot,
Anga mojaro qilmay obi hayot.

Jamolim quyoshni solib tobqa,
Tanim siymi titratma siymobqa.

Belim torin ulkim xayol aylabon,
Hamono xayoli mahol aylabon.

Xayolim bashar ichra g‘avg‘o solib,
Maloyikka husnum alolo solib.

Ko‘rungan zamon suratim paykari,
Xaloyiq ko‘ziga ko‘runmay pari.

Labimda takallumdin ortuq fusun,

Fusundin dog‘i husnu nozim fuzun.

Quyosh qo‘zg‘olib husnum oshubidin,
Falak past mehrim lagadko‘bidin.

Vale muncha afsonadin ne asig‘
Ki, shah komig‘a keldi shahdim achig‘.

Ne xush debdur ul dardmandi firoq
Ki: «Oz baxt – ko‘p husndin yaxshiroq»[6].

Shikoyat manga yo‘qturur shohdin
Ki, shikvam erur baxti gumrohdin».

Chu shirinlab ul nav’ sho‘r ayladi,
Aning ishqi xusravg‘a zo‘r ayladi.

Kalomig‘a vola qilib jonini,
Ravon jon aro chekti jononini.

Hamoyilsifat tortibon qo‘ynig‘a,
Iligin hamoyil qilib bo‘ynig‘a.

g‘azol ul sifat sher qilg‘ach shikor,
Shikorig‘a mehr ayladi oshkor.

Mamos o‘ldi chun shoxi sandalg‘a oj,
Ne bo‘lg‘onni ermas demak ehtiyoj[7].

Skandar bu xilvatqa maftun edi,
Parichehra yorig‘a majnun edi.

Necha kun bo‘lub pardada ayshsoz
Ki, fahm o‘lmay ul pardadin hech roz.

Chu oshiqqa bo‘ldi muyassar visol,
Aning ishqida qolmas avvalg‘i hol.

Chu shahg‘a necha kun edi ul shaaf,
Yaqin bildikim, umrin aylar talaf.

Yana aqlu hikmat panoh ayladi,
Xirad taxtin oromgoh ayladi.

Jahon mulkin etganda zeri nigin,
Olinmay qolib erdi Mag‘rib zamin.

Sipahg‘a berib ne’matu kom ham,

Mavojib demay, balki in’om ham.

Chu ul fikridin ko‘nglini tindurub,
Yurush hukmini elga jar yetkurub.

Shahekim, sipah bo‘ldi obod anga,
Yerur dushmanidin ko‘ngul shod anga.

Agar shohdin xalqi g‘amnok emas,
Qalin bo‘lmog‘idin aduv bok emas.

Maozalloh, ar bo‘lsa noshod eli,
Aduv yo‘q, berur oni barbod eli.

Saxo shohdin elga matlub erur,
Siyosat ham o‘z o‘rnida xo‘b erur.

Skandarki farrux jahondor edi,
Ne shahliqqa matlub anga bor edi.

Sipohin chu ehson bila qildi shod,
Ayon etti Xoqon bila xayrbod.

Anga topshurub mulki Chinu Xito,
Yana malik hamchun deb oni ato.

Sipah surdi Chin mulkidin tashqori,
Tavajjuh qilib mulki Mag‘rib sori.

Qilib8 hamrah o‘lmog‘ni Xoqon havas,
Qabul o‘lmayin shahg‘a bu multamas.

Ani qaytarib ko‘p nihon roz ila,
Anga loyiq oyini e’zoz ila.

Solib Hind haddi janubini yo‘l
Ki, ul turfa kishvar bo‘lub rost qo‘l,

Ijozat berib Royi Hindig‘a ham,
O‘kush lutf birla qilib muhtaram.

Chu ul qaytibon Hind mulkiga bot,
Surub shoh Mag‘rib bisotig‘a ot.

Sipohi masun borcha ofotdin,
O‘tub bedarde mulki Gajrotdin[9].

Bo‘lub bahri Ummon aning manzili,

Necha kunki maskan bo‘lub sohili.

Kema ul navohiyda nekim bilib
Borin o‘rdu ollinda hozir qilib.

Kema ichra gohi maqom aylabon,
Jazoyir bila gah xirom aylabon.

Tengiz qat’ etib fulki soyir bila,
Gahi qat’i vodiy jazoyir bila.

Savohilda fathi bilod aylabon,
Jazoyir diyorin kushod aylabon.

Bu yanglig‘ qilib qat’ hadsiz tengiz,
Yana tog‘ ila dasht andozasiz.

Hamul yergakim azm etib erdi shoh,
Qilib sa’y yetkurdi xaylu sipoh.

Madad aylabon lutfi bori anga,
Makon bo‘ldi Mag‘rib diyori anga.

Bu iqlimni ham yurub qildi fath,
Minib raxshi davlat, surub qildi fath.

Base shahri a’zamg‘a berdi kushod
Ki, Mag‘ribzamin keldi a’zam savod.

Hamul shahrlar shohi solib shane’,
Qabul aylabon mol bo‘ldi mute’.

Qilib shoh Mag‘rib zamin gashtini,
Biyik tog‘i birla ochug‘ dashtini.

Ne manzilg‘akim yetti bo‘lmay sabur,
Qilur erdi manzil-bamanzil ubur.

Ki, chun bo‘ldi manzuri bu marzu bum,
Nazar aylagay ul dam aqsoi Rum.

Va lekin bu iqlim aro ko‘p ajib,
Bo‘lur erdi har lahza ko‘rmak nasib.

Tabiat g‘aroyibqa qone’ bo‘lub
Ki, ul Rum azmig‘a mone’ bo‘lub.

Hamul jumladin bir bu erdiki shoh,

Qilur chog‘da ul marzni jilvagoh.

Yetishti aningdek biyobon aro
Ki, havli solur erdi o‘t jon aro.

Tutub dashtni it kibi jonvar,
Vale borchag‘a mo‘r yanglig‘ suvar.

Ayog‘u ilik borcha andoqki mo‘r,
Vale sheri darroncha har birga zo‘r[10].

Alar ichra har kimsakim surdi ot,
Anga mo‘rlar qildilar hamla bot.

Chu oshub ila hamla ko‘rguzdilar,
Ani bir-biridin ravon uzdilar.

Aningdekki, qolmay nishoni aning,
Yer ustida bir qatra qoni aning.

Chu bu yerga yetti shahi hushmand,
Dedi: «Surmasun kimsa ul yon samand».

Hamul yer elidin savol ayladi,
Bu ma’nida ko‘p qiylu qol ayladi.

Dedilarki: «Bir nav’ yerdur bu marz
Ki, solur tasavvur ani jong‘a larz.

Bu vodiy erur bir yig‘och ursa zo‘r
Ki, anda solur sho‘r bu nav’ mo‘r.

Bulardin nari vodiedur nazih,
Nazohatda bog‘i Eramdin fazih.

Guruhedurur anda oromgir
Ki, bu elga ul qavmdindur nafir.

Qayu qavm, Tengri balosi alar,
Jahon ganjining ajdahosi alar.

Qaviy haykal, andoqki, bir pora ko‘h,
Biriga harif o‘lmayin yuz guruh.

Qayu bir desang ul qadar zo‘r anga
Ki, bu jonvarlar kelib mo‘r anga.

Alarning tilin fahm qilmay kishi,

Nekim aytibon harza, bilmay kishi.

Alardin nari borsa o‘n kuncha yo‘l,
Kelur vodie iki tog‘, iki qo‘l.

Falaksoy har tog‘ning xorasi,
Solib bo‘rkni avji nazzorasi.

Qizil oltun aylab biri ko‘zga fosh
Ki, xira qilib ko‘zni misli quyosh.

Yana bir kelib sarbasar siymi nob,
Qamardek anga lam’au nuru tob.

Bu maxzanki, har toshidur bebaho,
Bo‘lub bu xaloyiq anga ajdaho.

Bu elga vale turfa uyqu erur
Ki, ko‘p o‘zlaridin ajab bu erur

Ki, har o‘n kun ul qavm uyqudadur,
Jame’i taradduddin osudadur.

Chu o‘n kun o‘tar uyg‘anurlar bori,
O‘z ahvolig‘a aylanurlar bori.

Toparlar yana o‘n kun uyg‘og‘liq,
Bu uyg‘og‘liq uyqulari chog‘liq.

Topa olur uyqu chog‘i kimsa dast,
Hamul devvashlarga bermak shikast.

Qutulmish vale bimdin jonlari
Ki, bu mo‘rlardur nigahbonlari.

Alar ul xazoying‘a ganjur o‘lub,
Alarning nigahboni bu mo‘r o‘lub».

Taolilloh, ul Soniyi zul-jalol[11]
Ki, sun’ida ojizdur ahli kamol.

Yerur sun’i hushu xiraddin fuzun,
Ne hushu xirad, balki haddin fuzun.

Chu shah topti ul ishga ogohliq,
Xiraddin talab qildi hamrohliq.

Yetishgan maqomida qildi nuzul,

Yig‘ildi janobig‘a ahli uqul.

Ki, qilg‘aylar ul ishga nazzorae,
Chu qilg‘aylar andishai chorae.

Vale ul ajablarki paydo bo‘lub,
Ko‘ngul Tengri sun’ida shaydo bo‘lub.

Ko‘ngulga bo‘lub qism mabhutluq,
Xiradqa yetib ajzu fartutluq.

Qila olmayin chora hikmat bila,
Qolib ojizu lol hayrat bila.

Ketur soqiy, ul ruh sarmoyasin
Ki, ma’dum etay aql piroyasin.

Ki, qo‘l tutmadi aqlu hikmat manga,
Vale qasdi jon etti hayrat manga.

Mug‘anniy, g‘aribona un chek hazin
Ki, manzilgahim bo‘ldi Mag‘rib zamin.

Sochay boshing uzra zari mag‘ribiy,
Quyosh yerga mag‘ribda sochqon kibi.

Navoiy, chu g‘urbatda sen shod bo‘l!
Vatan yodi ranjidin ozod bo‘l!

Agar Sharqu g‘arb o‘lsa manzil sanga,
Ne g‘am, kom agar bo‘lsa hosil sanga.

LXI

Basirat ko‘zlarin aynul-yaqin kuhli yorutqonlar bobidakim, qayon boqsalar ofarinish g‘aroyibin mushohada qilurlar va Mubde’i korsoz va Muxtare’i bandanavoz sun’ig‘a ofarin ayturlar va odami xokiy xilqati so‘zikim, «Xamirrtu tinata odama biyadi arbaina sabohan» dastburdi bila suratpazir bo‘ldi. «Va laqad karramno bani odama» parvarishi bila taxti xilofatgir

Birov ahli ma’ni deyolur o‘zin
Ki, Haq ochmish o‘lg‘ay basirat ko‘zin[1].

Ne surat angakim bo‘lur oshkor,
Ani anglasa sun’i suratnigor,

Qayu naqsh aro ko‘rsa bir choshni,
Aning sone’i bilsa naqqoshni.

Ne paykarki orosta ko‘rsa ul,
Aning paykaroroyig‘a topsa yo‘l.

G‘arazi naqshdin bo‘lmasa naqshband,
Kishi naqshdin bo‘lmag‘ay bahramand.

O‘kush naqshlar birla charxi kabud,
Ko‘rungan bila nozirig‘a ne sudg‘

To‘quz xonida yuz tuman moida,
Ko‘rungan bila elga ne foida?[2]

Bu gulshandakim ofarinishdurur,
Nazar qilg‘uchi ahli binishdurur

Ki, har bir chamankim ko‘rar dilkushoy,
Bo‘lur bog‘bonig‘a fikratnamoy.

Qayu naxlu bunkim ko‘rar nozanin,
Qilur naxlbandig‘a yuz ofarin.

Ne gul rangu bo‘yin ko‘rub turfa soz,
Topar san’ati ichra bir o‘zga roz.

Bu andozasiz korgohi vase’,
Arosida bu borgohi rafe’

Ki, turmush muallaq, anga yo‘q sutun
Ki, ermas sutun yo‘qlug‘idin nigun.

Nazar aylagan aylamay iztirob.
Topa olmag‘ay anda bir rishtatob

Ki, ul rishtada bo‘lmag‘ay san’ate
Ki, to bilmag‘ay zimnida hikmate.

Yorutqong‘a tavfiq kuhli nazar,
Qayon tushsa ko‘z, hojat ermas guzar

Ki, sun’ ichra bo‘lub g‘aroyib talab,
Talab ichra ko‘ngliga solg‘ay taab.

Kishikim, g‘aroyib qilur orzu,
Ne lozimki qilg‘ay yurub justujo‘g‘

Gahi manzili bo‘lg‘ay aqsoyi Chin,
Gahi tortqay ranji Mag‘rib zamin.

Gahi Hind mulkida bo‘lg‘ay zalil,
Taajjubda ko‘rmakka tovusu pil.

Arab barrig‘a gah bo‘lub tezgard,
Shuturmurg‘ ko‘rmakka vodiynavard.

Nazar qilsa topqon basirat ko‘zi,
Yerur bu boridin ajabroq o‘zi.

O‘z avzoyig‘a boqsa sar to qadam,
Topar aylasa yaxshi andesha ham

Ki, ne turfa timsol erur dilpisand,
Aning zimnida ma’niyi arjumand.

Burun aylayin sharh timsolini,
Deyin so‘ngra ma’nisining holini.

Ne timsolkim, durri daryoyi jud,
Ne daryou dur, sarvi bog‘i vujud.

Boshi uzra toji xilofat kelib,
Hamul toj uza la’li ra’fat kelib[3].

Jabinida piroyai shohliq,
Qoshi uzra tug‘royi ogohliq.

Ko‘zidin ayon nuri aynul-yaqin,
Sochida nihon tobi hablul-matin.

Jamolida anvori shohanshahi,
Kalomida e’jozi Ruhullahi.

Qo‘lidin gahi mehri gardunnamoy,
Gahi barmog‘idin iki pora oy.

Qilib tiynatin qudrat ilgi xamir,
Hamul qo‘l bila shakli suratpazir.

Haq o‘z qudratin oshkoro qilib,
Jamolin aning olamoro qilib.

Hakimi azal turfa jisme yasab,
Demay jism, mushkil tilisme yasab.

Tuzub ul tilism ichra ko‘p toru pud
Ki, egniga solib libosi vujud.

Yana sun’ ila o‘zga bir olame,
Haqiqat aro aqldin mubhame.

Bu erdi namudoru timsol anga,
Deyin emdi ma’nisidin hol anga.

Bu yanglig‘ tilism o‘lg‘och orosta,
Tamom, o‘ylakim mohi nokosta.

Hakimeki aylab aning sozini,
Nihon aylabon maxzani rozini.

Hamul ganjkim topmay ahli jahon,
Ani bu tilism ichra aylab nihon.

Chu ul ganjini anda maktum etib,
Xaloyiqqa sirrini ma’dum etib.

Kishikim bu ganjinag‘a topti yo‘l,
Jahon ahlining shohi ul bo‘ldi, ul.

Dema ganjkim, yeti daryo degil,
Ne daryo, to‘quz charxi volo degil.

Taolallah ul Xoliqi mohu mehr,
Qayu moh ila mehr, gardon sipehr

Ki, bir qatrada qildi daryo nihon,
Suho zimiyda charxi a’lo nihon.

Kishikim g‘aroyibdin istar nasib,
Nima topmoq o‘lg‘aymu mundin g‘arib.

g‘aroyibqa har kimki xohon erur,
Ham o‘zinda maqsudi pinhon erur.

Ne ma’niki istar o‘zinda topor,
Jahonda kezarning ne ma’nisi borg‘

LXII

Ul bolig‘lar hikoyatikim, suv istay Muhit girdobig‘a azm qildilar, nahangi fano tu’masi bo‘lg‘on zamon suvdin ayrilg‘onlarin bildilar

Birovkim bu daryoda g‘avvos edi,
Manga nuktae durr masallik dedi

Ki, daryoda bor erdi favji baliq,
Suv topmoq uchun doim andeshaliq.

Alarg‘a mudom orzu erdi su(v),
Suv erdi alarg‘a mudom orzu[1].

Bo‘lub ish borig‘a suv istar fani,
Der erdilar, ulkim, suv derlar ani.

Ne yanglig‘ ekin ta’mu rangi aning,
Qayu nav’ sayru darangi aning.

Diramlar bo‘lub tanlari uzra dog‘,
Sudin hech topmaslar erdi so‘rog‘.

Dedi bir bolig‘, ul tabu tob aro
Ki: «Derlar falon tund girdob aro.

Nahangedurur solxo‘rdu kuhun,
Bu daryog‘a sayr aylagan avju bun.

Kerakkim, suvdin ul nishon anglag‘ay,
Bu, bas, turfa rozi nihon anglag‘ay.

Aning sori azm ettilar turmayin,
Suvning orzusida dam urmayin.

Qilib sa’y ul komi noyobg‘a,
Yetishtilar ul tund girdobg‘a.

Ne girdobkim, charxi gardandadek,
Ne igrim, sipehri navardandadek.

Suvning davrasig‘a yetishgach bori,
Tushub har biri davradin bir sori.

Bolig‘larni butratti girdobi biym,
Aningdekki, tol yafrog‘ini nasim.

Bu holatda chayqaldi daryoyi jarf,
Padidor bo‘ldi nahangi shigarf.

Bolig‘larg‘a tushganda dardi firoq
Ki, bir-birdin o‘lmish edilar yiroq.

Borin yutti bir-bir nahangi fano,
Ichi javfida jam’ qildi yano.

Alar barcha suvdin chu ayrildilar,
Burun suvda erkonlarin bildilar.

Nadomat chiqorsa falak uzra dud,
Chu me’da o‘ti muhriq erdi, ne sudg‘

Bo‘lurdin burun bir-biridin bihil,
Bo‘lur erdilar barchasi muzmahil.

Sanga dog‘i ganjeki pinhon erur
Ki, tab’ing vuqufida nodon erur.

Yo‘q ul senda pinhonki, sen anda gum,
Jaholatdin ammo ishing ushtulum.

Yering bo‘lsa girdobi bahri ano,
Seni tu’ma qilg‘och nahangi fano.

Ne sud ul dam o‘lmoq ayon bu tariq
Ki, matlub aro bor ekansen g‘ariqg‘

Netarsen tilab har ajoyibqa yo‘l,
Ajoyib erur senda, ogoh bo‘l!

Burunroqki sud etmagay har nadam,
O‘zungni bilib, yo‘lg‘a qo‘yg‘il qadam.

LXIII

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, chun inson darki maqsudi asliy haqiqati idrokidin muarrodur, nega soyir hayvonotdin mustasnodur

Yana so‘rdi farmondehi ganjposh:
Ki: «Yey, nuktada aylagan ganj fosh,

Bukim ashrafi xalq inson erur
Ki, Haq sirri zotida pinhon erur.

Chu ul sham’din ravshan ermas ko‘zi,
O‘zi ganjidin voqif ermas o‘zi.

Nedin bo‘ldi bas ilmu iyqon aro,
Aning birla farq o‘zga hayvon arog‘»

Dedi nuktapardozi oliy sifot

«Ki, inson erur mudriki kulliyot.

Yerur o‘zga hayvon bu ishtin bari
Ki, inson erur borchaning sarvari».

Dedi: «Bilmasa ulcha maqsud erur
Ki, maxfiydur o‘zida ne sud erur».

Dedi: «Ulcha bordur o‘zida nihon,
Bilurdin fuzunroqdur ahli jahon.

Vale muncha bilmishki, bilmaydurur,
Bu maqsud darkini qilmaydurur.

O‘zi bilmasi anglag‘on so‘zu dard,
Ani borcha maxluqdin qildi fard.

Talab ranji-yu, topmamoq shiddati,
Bo‘lubtur aning mujibi shavkati.

Nedin o‘zgalar ko‘nglida tobdur
Ki, bu dardi noyob-noyobdur».

LXIV

Iskandarning mo‘r xaylin shikor etgali sipohin tuzotgoni va ul guruhi devsor devonavor yetib, aning sipohi ollida saf tuzotgonlari va alardin bir safshikan iki saf orasig‘a surub, Iskandar sipohining safdarlarin ojiz etgani va ul g‘azolai chiniy sher suratida maydong‘a kirib, ajdahoshikorliq qilg‘oni va Iskandar g‘azoli chiniyni ohuyi haram qilib aning saydin lutf ila yana sayd etgoni va ul borib o‘z saydlari bila majlisqa yetgoni

Ayon aylagan nuktaposhandaliq,
Bu nav’ etti kog‘azxaroshandaliq

Ki, chun surdilar shoh xayli sutur,
Hamul yergakim, erdi g‘avg‘oyi mo‘r.

Chu shah bo‘ldi voqif hamul rozdin,
Tushub topti taskin taku tozdin.

Qilib ahli hikmat bila guftugo‘y,
Yetib chora oyinini justujo‘y.

Muqarrar munga qildilar royni
Kim, ul mavkibi kishvaroroyni

Ki, bordur hisob ichra haddin fuzun,

Dilovar el anda adaddin fuzun.

Qilib necha dapqur saforoyliq,
Kiyimdin qilib ziynatafzoyliq,

Yurugaylar ul mo‘r dashtig‘a tez,
Shikor etgali aylagaylar sitez:

Qalin mo‘r xayli ne bo‘lg‘usidur,
Zarar sori mayli ne bo‘lg‘usidurg‘

Agar sher chog‘liq ayon qilsa zo‘r,
Yerur sher – sher oxiru mo‘r-mo‘r.

Biyobon chu ul mo‘rdin bo‘lsa pok,
Yurugaylar ul elga bevahmu bok.

Nabard aylagaylar sipah birla shoh,
Anga tegrukim fath bergay Iloh.

Quyosh chunki mag‘ribda bo‘ldi nihon,
Qalin mo‘rdek tiyra bo‘ldi jahon.

Shah ul dasht aro qo‘ndi qilmay haros,
Vale mo‘rdin tuttilar kecha pos

Ki, el uyqusidin yeshilgan gala,
Hamul dasht aro bo‘lsa nogah yala.

Ani mo‘r xayli shikor etmagay,
Talashmoq bila toru mor etmagay.

Alam chekti chun subhi gardunmaob,
Yuz ochti shahi mashriqiy intisob[1].

Saf oroyishin qildi doroi Rum,
Sipah ayladi mo‘r yanglig‘ hujum.

Yana na’razan bo‘ldi ahli masof,
Yana ko‘s uni bo‘ldi gardun shikof[2].

Sipoh ahlig‘a tushti bir karru far
Ki, ofoq aro soldilar sho‘ru shar.

Hamul xayli vahshiy aro yetti un,
Sog‘indilar, o‘lmish qiyomat bukun.

Hamul un sori yettilar behijob,

Aning sirrin anglarg‘a aylab shitob.

Chu o‘ttilar ul mo‘r sahrosidin,
Qomuq pildek pashsha g‘avg‘osidin.

Sipahdin to‘la ko‘rdilar yer yuzin,
Qaro aylabon dahr tog‘u tuzin.

Solib el g‘ulusi jahon ichra sho‘r,
Aningdekkim, ul dasht aro xayli mo‘r.

Chu saf ko‘rdi vahshiy ulus har taraf.
Alar ham tuzattilar o‘truda saf.

Bori devpaykar, bori g‘ulvash,
Bori g‘ulbandu bori devkush.

Kelib kargdek kuch bila, piltan,
Vale hay’at ul nav’kim, ahraman.

Ko‘z azraq, saqol sorig‘u tiyra yuz,
Chiqib borchaning manglayidin munguz[3].

Qulonu kiyik charmi – kisvatlari,
Alarning eti birla qutlari.

Tutub qo‘lg‘a har qaysi bebok dun,
Og‘ir cho‘bdaste, nechukkim sutun.

Temur birla qullob sarxam qilib,
Yig‘ochlarning uchig‘a mahkam qilib.

Alarg‘a hamul bas kelib sozi harb,
Aning birla-o‘q aylab og‘ozi harb.

Bu hay’at bila tuzdilar chun yasol,
Adu ichra ming devi vahshiyfiol.

Biri kirdi maydon aro kin ila,
So‘z aytib o‘zi bilgan oyin ila.

Muboriz tilab to‘kkali qonini,
Rahovard uchun olg‘ali jonini.

Bu yondin dog‘i surdi xorotane,
Tani xoravash birla ko‘hafkane.

Shah ollida ko‘p yerda qilg‘on nabard,

Aduvdin chiqorg‘on sipehr uzra gard.

Harificha jismining andozasi,
Vale andin ortug‘roq ovozasi.

O‘zi pilpaykar, oti karkadan,
Vale karkadankim, erur karktan[4].

Laqab Ra’d[5] anga ahli parxosh aro,
Vale ra’ddek yer tutub tosh aro.

Chu maydon aro kirdi gurdi daler,
Aningdekki ajdar masofig‘a sher.

G‘animi ham oning sori qildi mayl,
Aningdekki, xoro sori tund sel.

Yetishgach biri birga aylandilar,
Iki qulladek ishga qatlandilar.

Biri birga zarb urdilar beadad,
Vale la’b ila borchasi bo‘ldi rad.

Yurub oqibat vahshzodi harun,
Aning sori soldi gajaklik sutun.

Gajak mahkam o‘lg‘och, chekib qildi past,
Aningdekki berk o‘lsa mohig‘a shast6.

Keyin bog‘ladi qo‘llarin chunki rust,
Gajak birla tutti otin dog‘i chust.

Chu topshurdi o‘z xaylig‘a ul asir,
Muboriz tilab yona chekti nafir.

Yana purdile kirdi maydong‘a tund
Ki, gurzidin erdi qayo tig‘i kund.

Qayodek belida kamar uzra tig‘,
Kamardin aduv chopqali bedarig‘.

Qayo yanglig‘ ostida ko‘hpaykare,
Vale po‘yada o‘ylakim sarsare.

Degil qulla uzra baloe minib,
Va yo tog‘ uza ajdahoe minib.

Laqab Qahqaro[7] deb anga ahli kin,

Yeri Qirvon, zodi Mashriq zamin.

Ravon kirgach-o‘q soldi vahshiyg‘a ot,
Anga ahraman qilmadi iltifot.

Yana kin o‘ti bo‘ldi andoq baland
Ki, gardung‘a bim erdi yetgay gazand.

Gahi bu yonib tund, ul kirsa tez,
Gah ul tez yong‘och, bu aylab gurez.

Gahi hamlalar aylabon ro‘baro‘,
Rad aylarni favt etmayin mo‘-bamo‘.

Yana vahshiy olib aning tobini,
Solib egniga chekti qullobini

Ki, markabdin o‘ldi nigun Qahqaro,
Yiqildi qaro gardu tufroq aro.

Ani dog‘i rust aylabon devzod,
G‘anim istayu aylar erdi inod.

Yana bir kishi kirdi ko‘shish chog‘i,
Ul ikidek o‘ldi asir ul dog‘i.

Yana kirdi ham zohir aylarga kuch,
Giriftor bo‘ldi nechukkim ul uch.

Bu yanglig‘ o‘n uch gurdi razmozmun,
Kirib bo‘ldilar devvashqa zabun.

Qoshig‘a necha pahlavoni zamon,
Yetishmak hamonu – tutulmoq hamon.

Anga har kishikim muboriz edi,
Yetishgan dam ilgida ojiz edi.

Yana qichqurur erdi istab g‘anim,
Vale andin el ko‘nglida erdi bim.

Haroson bo‘lub xalq maydonidin,
Kecha olmayin bejihat jonidin.

Bu ish solibon shoh ko‘nglig‘a tob,
Mizojida zohir bo‘lub iztirob.

Qila olmayin elga hukmi anif,

Nabard ayla, debkim, shah erdi harif[8].

Boqib tursa, vahshiy base harza deb,
Shah ul ishda nomusdin g‘ussa yeb

Ki: «Bu shumlardin biri bo‘lsa bu,
Kishi naylagay barcha qilsa g‘ulug‘»

Gahi yo‘l topib ko‘ngli ichra haros,
Tutub lek hikmat tariqini pos.

Yetib ko‘ngli holig‘a yuz ming gazand,
Takalluf bila aylabon zahrxand.

Vale dev yonmoq havas qilmayin,
Hamul sho‘ru g‘avg‘oni bas qilmayin.

Bu holatda bir chobuk aylab shitob,
Yopib orazi uzra chiniy niqob.

Nechukkim quyosh ko‘kda po to ba farq,
Quyoshdek bo‘lub ko‘k temur ichra g‘arq.

Sipehr uzra mehri jahontobdek,
Qilib jo‘sh yer uzra siymobdek.

Samandi uza chobuki pahlavon,
Solib chiniohang bargustvon.

Tutub chin-bachin qo‘lda pechon kamand,
Osib xo‘didin shuqqa chiniy parand.

Samandi olib barqdin tezlik,
O‘zi charxdin tavri xunrezlik.

Kirib chun tarid etti har sori fosh,
Yaqinroq surub shahg‘a indurdi bosh.

Chu shah ollida qildi arzi niyoz,
Yonib qildi vahshiy sori turktoz.

Ne shah tonib oni, ne xaylu sipoh,
g‘amidin chekib xalq pinhoniy oh

Ki: «Bu nav’ zebo yigit yuz darig‘
Ki, qilg‘ay bu vahshiydin oshom tig‘!»

Vale ul qilib xasm birla nabard

Ki, raxshi sochib charxi gardong‘a gard.

Yegarmak bila raxshi aylab shitob,
Solib ahraman jismig‘a iztirob.

Ani muztarib aylabon tobdin,
O‘zin asrabon lek qullobdin.

Biri yer, biri charxi davvordek,
Sukun birla sayr ichra pargordek.

Chu parxoshidin xasm bo‘ldi najand,
Anga tashladi o‘yla pechon kamand

Ki, bo‘yni bila bir qo‘lin qildi rust,
Ani sudrayu shah sori surdi chust.

Chekardin tanin notavon aylabon,
Bo‘yin tufrog‘ ichra nihon aylabon.

Tani raxshi ostida pomol o‘lub,
O‘zi sudralur birla behol o‘lub.

Shah ollig‘a chobuksuvori daler,
Yetib, sekribon ottin andoqki sher.

Chekib tiyra tufrog‘ uza saydini,
Valek aylabon rust aning qaydini.

Shah andoq ul ishtin tarabnok o‘lub
Ki, gardi taab ko‘nglidin pok o‘lub.

Ravon yondi oshubu ranji itib,
Kelib tushti o‘z xaylini berkitib.

Sipah bo‘ldi xandaq aro, o‘yla berk,
Topa olmag‘udek anga charx erk.

Tushub shoh raxshi sipahgardidin,
Ilik, yuzni yub razmgah gardidin.

Kirib borgoh ichra Jamshidvor,
Bo‘lub baxtu davlatdin ummidvor.

Tuzub majlis ahli bila anjuman,
Ravon istabon gurdi vahshiyfikan.

Chu kirgach eshikdin yali shergir,

Chekib madhida majlis ahli nafir.

Ani istab Iskandari Faylaqus,
Quchub bo‘ynini, ul qilib poybo‘s.

Inoyat base oshkor aylabon,
Boshig‘a javohir nisor aylabon.

Ko‘p etti chu lutfu karam oshkor,
Dedi: «K-ey, aduvband, vahshiyshikor,

O‘zungni ayon qilki, kimsen, ravon
Ki, shavqung sening bizdin oldi tavon!»

Chu chobuk jamolidin oldi niqob,
Degin chiqti mig‘ ostidin oftob.

Hamul sho‘xi chininajod erdi ul,
Hamul chobuki hurzod erdi ul

Ki, shahg‘a chekib erdi Xoqon ani,
Qilib vasf behaddu poyon ani

Ki: «Husn ichra xurshidi tobon erur,
Yana Zuhra yanglig‘ xushilhon erur

Bular borcha bir yonu, bir yon bu
Ki, maydon aro bordurur kinajo‘»[9].

Skandarga xush kelmayin bu sifot,
Anga aylamaydur edi iltifot.

Unu husni behaddu poyon edi,
Vale kin ila razmi pinhon edi[10].

Bu choqqa degin istar ermish mahal
Ki, bir yerda yuzlansa kinu jadal.

Shah ollinda jonin nisor aylagay,
Hunarkim bilur – oshkor aylagay.

Bugun ko‘rdikim, darmahaldur base,
Ki, davlat ishiga xalaldur base.

O‘zin soldi bu nav’ maydon aro,
Aduvsin asir etti javlon aro.

Skandar chu bildiki ul oy erur

Ki, xurshiddek olamoroy erur.

Debon Tengri sun’ig‘a yuz ofarin
Ki, lutfi anga qildi nusrat qarin.

Dedikim: «Jamolig‘a yopsun niqob
Ki, qilmas tun oqshom tulu’ oftob.

Shabistong‘a turmay xirom aylasun,
Shah uyqusin anda harom aylasun».

Chu ul sham’ kirdi shabiston sari,
Hamul nav’kim sarv bo‘ston sari.

Tilab shoh majlisoro rudu may,
Tuzub rasmu oyini Kovusu Kay.

Tarab sori azm ayladi kom ila,
Topib komi dil dam-badam jom ila.

Chu maydin anga garm bo‘ldi dimog‘,
Tarab birla boshig‘a chiqti ayog‘.

Talab qildi tutqunni majlis aro,
Ki, surgay aning birla bir mojaro.

Kiyurdilar ul nav’kim ahraman,
Shukuh oldilar shaklidin anjuman.

Salosil aro mahkam a’zo anga,
Kishidin yetishmay muvoso anga.

Ko‘rub shoh andoq giriftor ani,
Iki pilcha zo‘r ila zor ani.

Dedi, oldilar bandin a’zosidin,
Ko‘ngul forig‘ etti aning posidin.

Chu band oldilar ehtirom ayladi,
Sarir o‘trusida maqom ayladi.

Burun dedi kelturdilar ko‘p taom
Ki, mehmonga yetti g‘izo birla kom.

Yana berdilar jilva jomi shigarf,
To‘la maydin, andoqki, daryoyi jarf.

Chu bir jomni mehmon qildi no‘sh,

Ayoqchi, ko‘rung turfakim, tutti qo‘sh.

Iki jomni chunki no‘sh ayladi,
Shah altofidin ko‘ngli jo‘sh ayladi.

Yana shoh berdi kayoniy qadah
Ki, jonig‘a yetkurdi yuz ming farah.

Har in’omkim shohdin bo‘ldi fosh,
Qo‘yub mun’im ollinda har lahza bosh.

Solib ul kamoli navozandaliq,
Aning bo‘ynig‘a ribqai bandaliq[11].

Ani may chu beixtiyor ayladi,
O‘pub yer, bu so‘z oshkor ayladi.

Ki: «Men vahshiymen biyobonnihod,
Atodin ato vahshiyu vahshzod.

Yo‘q andoq tilimkim sanong aytsam,
Sen etgonga loyiq duong aytsam.

Vale nuktaedur nihone manga,
Deyin, gar desangkim: «De oni manga».

Dedi shahki: «Har ne kalomingdur – ayt,
Kalomingni, andoqki komingdur – ayt»

Dedi vahshiyoyini devonavash,
Chu ifrot ila erdi paymonakash

Ki: «Sendin ko‘p o‘ldi navozish manga.
Yemas emdi podoshi oz ish manga.

Va lekin qo‘lumdin kelur muncha ish
Ki, qilg‘aymen ollingda o‘lguncha ish.

Janobingdin ayrilmag‘aymen dame,
Xilofingg‘a ish qilmag‘aymen dame.

Vale bilki, men bu ulus xonimen,
Tunu kun alarning nigahbonimen.

Chu ko‘rdum sipohingni andoqki mo‘r,
Yetishgay debon qavmu xaylimg‘a zo‘r.

Alarning jafosin tutub jon aro,

O‘zum kirdim ul lahza maydon aro.

Ne aylay hamul ishlar ifshosini
Ki, sen aylamishsen tamoshosini.

Bu damkim janobingg‘a bo‘ldum asir,
Xud o‘ldi saodat manga dastgir.

Siyosat qilichin manga surmading,
Meni o‘lturur yerda o‘lturmading.

Yana muncha qilding inoyat manga,
Karam aylading benihoyat manga.

Bu dam gar ijozat berursen, boray,
Kelay, o‘ylakim bir ishingga yaray.

Meni sog‘inib bastai g‘am bu dam,
Yerur qavmu xaylimda motam bu dam.

Sening davlatingdin borin shod etay,
Borin g‘ussa bandidin ozod etay».

Borurg‘a shah etti ishorat anga,
Yetishgach bu yanglig‘ bashorat anga.

Yer o‘pti, o‘zin aylabon yerga past,
Qo‘pub tebradi o‘ylakim pili mast.

Ko‘runub ajab shohning ul ishi,
Debon bir so‘z o‘z ko‘nglida har kishi.

So‘z ayturg‘a har kimsa aylab havas,
Vale topmayin kimsa ul dastras.

Kelib hikmat ahlig‘a ham bas ajib
Kim, ul bir ish erdi bag‘oyat g‘arib.

Vale shoh xandonu xushhol edi,
Ul andeshadin forig‘ulbol edi.

Nekim qilsa iqbol talqin anga,
Ani aylamak erdi oyin anga.

Bo‘lur erdi har kimsaga bir gumon
Kim, ul qissadin o‘tti mumtad zamon.

Yeshik ahlig‘a tushti sho‘ru shag‘ab,

Kirib keldi ul vahshiyi bul’ajab.

Hamul pahlavonlarki tutmish edi,
Ulus ko‘nglin ishdin sovutmish edi.

O‘zi birla kelturdi borini xush,
Ravon qildi shoh oldida peshkash.

Qulog‘ tuttiyu yerga qo‘ydi yuzin,
Alardek quli qildi shahning o‘zin.

Shah ul qissadin bo‘ldi, bas shodmon,
Ne shohi zamon, balki yaxshi-yomon.

Anga lutf etib shohi oliysifot,
Yana oshkor etti ko‘p iltifot.

Giriftorlarkim xalos o‘ldilar,
Yana shoh bazmig‘a xos o‘ldilar.

Chu shah boqti lutf aylabon ul sari,
Biri bor edi Boriqi Barbariy.

Inoyat bila ul karam ma’dani,
Borin quchti istab, bataxsis ani.

Nasib o‘ldi mahjurlarg‘a visol,
Bo‘lub vasldin borcha osudahol.

Ul oqshom bori mayparast o‘ldilar,
Borin uyqu bosti, chu mast o‘ldilar.

Ayog‘chi, bu dam tut manga bir ayog‘
Ki, hijrondin o‘ldi mushavvash dimog‘.

Zamone bo‘lub daf’ qayg‘u manga,
Magar soate kelgay uyqu manga.

Mug‘anniy surudi visol ayla soz
Ki, hijronda ko‘p topti jonim gudoz.

Aningdekki, ul qavm topti visol,
Manga ham nasib aylagay Zuljalol!

Navoiy, visol odamiy komidur,
Hayoti abad vasl ayyomidur.

Qachon vasl topsang nasib asra dam,
Agar bir dam o‘lsunki, tut mug‘tanam[12].

LXV

Hajr shomi tiyraligi ta’rifidakim, balo do‘zaxining dudi aning janbida tarab bihishtining sunbuli bo‘la olg‘ay va ul shomda ro‘zgori qororg‘onlar sharhi holi ixtilolikim, subhi vasldin ko‘zlari yorumaydur, xususan, bu varaq yuzin qaro qilg‘onning holi va vasl gavhari shabcharog‘ining jahontoblig‘i va gavhari shabcharog‘ vaslidek noyoblig‘i

Xusho ulki, gar cheksa yuz yil firoq,
Dame vasl tushgay anga ittifoq.

Necha kimsa hijronda cheksa alam,
Agar oqibat vasl topsa, ne g‘amg‘

Nechakim firoq ofati jon erur,
Anga so‘ngra vasl o‘lsa oson erur.

Birovkim anga bo‘lsa maxmurluq,
Yetar jismu jonig‘a ranjurluq.

Vale bazm aro chun qadahno‘sh o‘lur,
Bori dardu ranji faromush o‘lur.

Ajab umr erur ro‘zgori firoq
Ki, yuz qatla andin o‘lum yaxshiroq.

Hayoti abad – vasl ayyomidur
Ki, jon qutiyu xotir oromidur.

Yerur shomdek tiyra ayyomi hajr,
Ne bo‘lg‘ay, xayol aylagil, shomi hajrg‘

Aning shomini jonning ofoti bil,
Balo soyasi, marg zulmoti bil.

Qaro kun misolu namudi ham ul,
Ajal o‘tining tiyra dudi ham ul.

Agar qilmadi dudlig‘ rasmi fosh,
Nedin doyim andin to‘lar ko‘zga yosh.

Qaro kun misoli gar ermas yaqin,
Nedin xastalar ko‘nglin aylar hazin.

Firoq o‘lmasa oshiqi notavon,

Bog‘ir porasin ko‘zdin etmas ravon.

Agar hajrdin ko‘rmasa rustaxez,
Qachon kuygay erdi bo‘lub ashkrez.

Quyosh hajridin bo‘lmasa dardnok,
Yaqosini subh etmagay erdi chok.

Magar guldin o‘ldi yiroq lolalar
Kim, o‘z bag‘rini qildi pargolalar.

Falak bo‘lmadi chunki xurshidsiz,
Bulutdin nedin osti bo‘ynig‘a kiz.

Bulut bag‘rin oy hajri go‘yo so‘kar,
Nedin yo‘qsa ashkini yummay to‘karg‘

Sulaymonsiz ar qilmadi so‘g fosh,
Nigin ne uchun urdi ko‘ksiga toshg‘

Magar tog‘ Farhodsiz jon chekar,
Sadodin nega yo‘qsa afg‘on chekar?

Qolib dasht Majnuni jonkohdin,
Yuzin yirtti go‘yi shahrohdin[1].

Firoq ichra kuydurdi bulbulni gul,
Yerur kul, emas rangi andoqki kul.

Qilur hajr kul jismi g‘amnokni,
Ne tong o‘rtasa barq xoshoknig‘

Birov anglag‘ay hajr o‘ti hirqatin
Kim, ul chekmish o‘lg‘ay birov furqatin.

So‘r andin g‘ami hajr qayg‘usini
Ki, bir shomi hajr oldi uyqusini.

Kishi dam-badam kuymak ermas yiroq
Kim, ul mendek o‘lg‘ay asiri firoq.

Bog‘ir qonidin bo‘ldi rangin yoshim,
Firoq ichra to tushti munglug‘ boshim.

Kishi mendek ozurdajon bo‘lmasun,
Firoq ilgida notavon bo‘lmasun.

Firoq ichra elga necha mahl erur,

Chu vasl ila bo‘ldi badal, sahl erur.

Nihoyatsiz o‘ldi manga bu malol
Ki, yo‘q shomi hajrimga subhi visol.

Firoq ilgidin elgakim javrdur,
Aning bu balosi necha tavrdur:

Biri olam asbobi hijroni bil,
Muassir jahon ahlig‘a oni bil.

Biri ayru tushmaklik ahbobdin,
Kishi bag‘ri o‘rtanmak ul tobdin.

Biri dog‘i hajri qarobat erur
Ki, jon ichra andin mahobat erur.

Bir ulkim yetib ishqdin xastaliq,
Birov jonibi bo‘lsa dilbastaliq.

Bori hajr erur xud uqubat bila,
Va lekin emas bu suubat bila[2].

Bularning boridin erur sa’b ul
Ki, maqsudi aslig‘a gum bo‘lsa yo‘l.

Mangakim ichim hajrdin zordur,
Burung‘idin o‘zga bori bordur.

Biridin bo‘lur betahammul kishi,
Bori bo‘lsa ko‘rkim, ne bo‘lg‘ay ishig‘

Vale bo‘lmag‘ay andin ortuq tarab
Ki, solg‘onda jon ichra hijron taab.

Kishi vasl davronidin topsa bahr,
Badal bo‘lsa ul no‘sh birla bu zahr,

Ani sharbati zindagoni degil,
Desang umri jovid, oni degil.

Ilohi bu davlatdin ursang navid,
Navoiyni ham qo‘ymag‘il noumid.

LXVI

Majnun hikoyatikim firoq tog‘i og‘irlig‘idin o‘zni tog‘din tashlamoq tiladi va Layli nomasi ilik tutub va qosidi kamarin tutub tashlamoqqa qo‘ymadi

Yeshittimki, Majnuni[1] sahronavard
Ki, boshtin-oyog‘i edi so‘zu dard.

Necha vaqt Laylidin erdi yiroq,
Tanin sizg‘urub erdi dog‘i firoq.

Hamul shu’lai shavq tug‘yonidin,
Kechib erdi anduhlig‘ jonidin.

Chu hijron aro qolmadi toqati
Ki, muhlik edi yorining furqati.

Chiqib Najd[2] uza bo‘ldi nazzoragar,
Bu nav’ o‘ldi ul holig‘a choragar

Ki, majnunluq oshubini boshlag‘ay,
O‘zin ul kamardin quyi toshlag‘ay

Ki, bu nav’ o‘larni asiri firoq,
Ko‘rar hajr bedodidin yaxshiroq.

Kamar ustiga keldi zoru junun
Ki, o‘zni quyi tashlag‘ay sarnigun.

Bu holatda bo‘ldi ayon qosidi
Ki, Layli anga noma yozmish edi.

Kelib berdi dildorining nomasin,
Sovuq qildi ul garm hangomasin.

Ko‘ngul noma mahvi qilib ko‘zni ham,
Qayoni unutti demay, o‘zni ham.

Bo‘lub ul bitik hirzi joni anga,
O‘lumdin qutulmoq nishoni anga.

Necha yil aning birla xursand edi
Kim, ul ruq’a jonig‘a payvand edi.

Qachon noma bo‘lsa tiriklikka dol,
Hayoti abad bersa, tong yo‘q visol.

LXVII

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, yolg‘uzluq mujibi jam’iyatdurur va jamoat mujibi tafriqa, bas nedin hajr marduddurur va vasl mahbub

Yana so‘rdi donoyi hikmatsirisht
Ki: «Yey aqlu hikmat sanga sarnavisht,

Chu g‘avg‘oni mamnu’ tutmish xirad,
Nedinkim, ul elga ko‘p o‘ldi adad.

Alar ishtig‘olini ulkim siqa,
Demishkim, erur mujibi tafriqa.

Qachon bo‘yla bo‘lg‘ach, bas ul yaxshiroq
Ki, tab’ ixtiyor etgay eldin qiroq.

Chu hijrong‘a hush ahli tolibdurur,
Nedin tab’ vuslatqa rog‘ibdururg‘»

Taammul bila bixradi nuktadon,
Bu nav’ o‘ldi shoh ollida nuktaron

Ki: «Kasratni gar aql man’ aylamish,
Adovat durur ishqu aql ichra ish.

Qayu ishnikim, ishq aylar pisand,
Yemas aql man’ aylamak sudmand.

Necha bo‘lsa elga xirad rahnamoy,
Har ishta tariqi muvajjahnamoy.

Vale ishqdin chunki oshub o‘lur,
Xirad xayli anda lagadko‘b o‘lur.

Yana ulki, insong‘a ahli tamiz,
Bilurkim, nima jondin o‘lmas aziz.

Vale zumrai ishq jononini,
Ko‘p ortuq ko‘rarlarkim o‘z jonini.

Yerur jonsiz o‘lmoq o‘lumdin xatar,
Vale onsiz o‘lmoq – o‘lumdin batar.

Bo‘lur chog‘da jondin badang‘a firoq,
Kelur kimsa tab’ig‘a albatta shoq.

Bu oyin ila tab’ majbul erur

Ki, sevgay hayotin, bu ma’qul erur.

Qayu kimsakim, jondin o‘lsa ahab,
Ne tong aylamak jondin ortuq talab».

Javobin topib shohi donishqarin,
Dedi nuktavar jonig‘a ofarin.

LXVIII

Iskandarning Mag‘rib diyori fathidin so‘ngra Rumg‘a azm etganida Ya’juj zulmidin Qirvon navohisi xalqining tazallum qilg‘oni va aning ul balo raxnasini berkitgali sad tarhi solg‘oni va muhandisvash me’morlar va handasaoyin sangkorlar shihobkirdor raja bila sad o‘rnig‘a rang to‘kmak va Atoridxayol ustodlar va Zuhalosor haddodlar gach o‘rnig‘a ro‘yi mahlul va ohak yeriga po‘lodi masqul quyub sad uchin falak toqig‘a yetgurganlari

Dabiri raqamsanji farxundaroy,
Bu nav’ o‘ldi kofur uza mushksoy

Ki, chun oldi shohi sipehrihtishom,
Bori mulki mag‘ribni andoqki kom.

Hamul bul’ajab xaylu nodir guruh
Ki, fikridin erdi xaloyiq sutuh.

Alar sarfarozikim erdi asir
Ki, shah lutfi bo‘ldi anga dastgir.

Mute’ o‘ldiyu qulluq etti qabul,
Yo‘q ulkim, bori xayli ham bo‘ldi qul.

Shah ul mo‘rlarni qilurg‘a halok
Dedi: «Otlanib xalq bevahmu bok,

Tuzub charga, solsunlar ul nav’ sho‘r
Ki, ul dasht aro qolmasun jinsi mo‘r».

Hamul xayli vahshiy qilib iltimos,
Dedilarki: «Yey shohi gardunasos!

Alar bo‘lmay, emin emas jonimiz
Kim, ul mo‘rlardur nigahbonimiz

Ki, og‘irdurur bizga uyqu base,
Quloq solki, a’jubadur bu base

Ki, o‘n kecha-kunduz taku po‘dabiz,

Yana o‘n kecha-kunduz uyqudabiz.

Chu uyqug‘a borduq alardur hisor,
Yovutmaslar elni yaminu yasor[2]».

Shah ul nuktadin barmog‘in tishladi,
Alar qatlin ul elga bag‘ishladi.

Yana istadi ko‘rmak aylab yurush,
Iki tog‘kim erdi oltun-kumush.

Dedilar hamul qavm aylab duo
Ki: «Bo‘lsa unut yaxshi, bu muddao

Kim, ul tegraga bormoq oson emas,
Ne oson emas, balki imkon emas

Ki, o‘n kunchilik yo‘ldur ul iki tog‘,
Bu yerdinki, holo, qilursen surog‘.

Vujudi aning bizga bordur yaqin,
Vale ko‘rmamishbiz, desak so‘zni chin.

Ne biz ko‘rmagi birla toptuq murod,
Ne bizdin ulug‘lar dog‘i berdi yod.

Nedinkim, yo‘lida xatar ko‘pturur,
Yuz urg‘on kishiga zarar ko‘pturur.

Topilmas yeti kunchilik yo‘lda suv,
Giyohiki butmishdur – erur og‘u.

Isiq xayli ul nav’ aylar hujum
Ki, esgach nasim anda aylar samum.

Qilur qaysi yelkim esar mu’tadil,
Agar bor esa ajdaho muzmahil.

Yana qolg‘on uch kunchilik yo‘lki bor,
Yilondur hamul dasht aro ulki bor.

Yerur kafchau, af’iyu ja’fari,
Bo‘lub har bir ul ganjning ajdari.

Alarg‘a tuman mingdin ortuq adad,
Tuman ming demay, balki behaddu ad[3].

Agar pashsha bo‘lsa alarg‘a zalil,

Bo‘lub yetsa bir nish, andoqki pil.

Yilon bordur anda – eshitgil bu so‘z
Ki, odam o‘lar, chun anga solsa ko‘z.

Yerur bu baliyatdin o‘tmak mahol,
Nekim ayladuk sharh, bu erdi hol».

Shah ul so‘zni chun istimo’ ayladi,
Hamul yon borurg‘a vido’ ayladi.

Dedi: «Ul taraf azm etardin murod,
Tamoshodin etmak edi o‘zni shod.

Yemas erdi maqsud oltun-kumush
Ki, bo‘lg‘ay kishi muncha mehnatqa to‘sh.

Tamoshog‘a yo‘l chunki bog‘liqdurur,
Aning azmi tarki yarog‘liqdurur.

Tamoshodin ar bo‘ldi qat’i nazar,
Ne himmat bo‘lurkum, tilab siymu zar.

Bu naqd istay o‘lmoq ravon ul taraf,
Vale naqdi jonini qilmoq talafg‘»

Chu ul azmdin forig‘ o‘ldi bilkul,
Ul el iltifotig‘a qo‘ydi ko‘ngul.

Karam aylab etti rioyat base,
Bori topti shahdin inoyat base.

Alarni makonig‘a ozim qilib,
Necha kimsa lekin mulozim qilib.

O‘z ollinda asrab g‘arobat uchun,
Yeshikda shukuhu mahobat uchun.

Chu mag‘ribni osudahol ayladi,
Yana azmi savbi shimol ayladi.

Tengiz aylabon qat’u tog‘ artilib,
Yurur erdi yo‘l Rum azmi qilib.

Hamul turki chin[4], yo‘qki chiniy g‘izol
Ki sherafkan erdi qilurda jidol.

Solib shoh ko‘ngliga o‘z shavqini,

Chekib bo‘ynig‘a zulfining tavqini.

Bo‘lub shoh matlubu marg‘ubi ham,
Ne matlubu marg‘ub, mahbubi ham.

Aning birla tun-kun bo‘lub jur’akash,
Borur erdi o‘z mulkiga shodu xush[5].

Guzargohi Rusu diyori Farang,
Qayu yerga yetgach, o‘tub bedarang.

O‘tar chog‘da mobayni g‘arbu Shimol,
Tilab dod jam’e parokandahol.

O‘kush nola aylab tazallum bila,
So‘rub shoh alarni tarahhum bila.

Dedilarki: «Shoho, jahondor bo‘l,
Qadar qudratu charxmiqdor bo‘l!

Jahon mulkiga berding obodlig‘,
Jahon ahlig‘a adl ila shodlig‘.

Diyoreki adling anga yetmamish,
Diyor ahlini shodmon etmamish.

Hamonoki bu marz ila bum erur,
Dog‘i bu necha zoru mazlum erur».

Dedi shah: «Bu kishvar nedindur xarob,
Yeliga nedin tushti bu iztirobg‘»

Dedilarki: «Bu mulkning bir hadi,
Hamono erur Qirvon sarhadi[6].

Kim, ul mulk g‘arbig‘a moyildurur,
Aro yerda bir tog‘ hoyildurur

Kim, ul tog‘din nari ofot erur,
Ul ofotdin nari zulmot erur.

Bu nav’ etti voqif xabar berguchi
Ki, zulmatning andindurur bir uchi.

Yerur tog‘u zulmat aro vodie
Ki, yo‘l eltmas ul taraf hodie.

Ne zulmat – jahannam, ne vodiy – saqar

Ki, ya’juj xaylig‘a bo‘ldi maqar.

Ne ya’jujkim, yuz tuman, ming balo,
Biz ul yuz tuman ming balodin jalo[7].

Alarni Haq o‘z qahridin xalq etib
Ki, ko‘p elga bedod alardin yetib.

Yerur ishlarin vasf qilmoq mahol
Kim, ul vasfdin nutq erur gungu lol.

Taaddud aro yo‘qturur sonlari,
Yana sonsiz oyini nuqsonlari.

Qad uzra yoyilmish parokanda soch,
Biri bir qarishdur, biri o‘n quloch[8].

Dema soch, xoshoku xas ma’dani,
Libos andin aylab borining tani.

Quloq iki yondin bo‘lub birga juft,
Najas tanlarin ko‘zdin aylab nuhuft.

Kelib g‘ul barmog‘i barmog‘lari,
Vale dev tirnog‘i tirnog‘lari.

Yomon yuzlari rangi behad sarig‘,
Qizil tuklar anda safodin arig‘.

Biaynih ko‘z andoqki – maymun ko‘zi,
Vale shum har qaysi mal’un ko‘zi.

Burun ichlarin til bila pok etib,
Topib lazzat, o‘zni tarabnok etib,

Aningdekki, mabraz ariturda el,
Solurlar ani xoli aylarga bel.

Og‘izdin to‘ng‘uzdek chiqib iki tish,
Vale yerni qozmoq alar birla ish.

Ne yerniki ul tishlar etti taboh,
Qiyomatqacha butmay andin giyoh.

Takallumda hashv ulcha imkon kelib,
Og‘iz barchasida zanaxdon kelib.

Tushub har birining iki emchagi,

Va gar xud tishisi, va gar erkagi.

Hamul tog‘ undur, aningdekki, vahm
Qila olmoyin ko‘ktin avjini fahm.

Iki yuz anga sofu yilmon qayo,
Nima butmay andin nechukkim iyo.

Iki yonikim hech topmay gusil,
Bo‘lub Qof atrofig‘a muttasil.

Bu mobayn alarning tarabxonasi,
Bu tog‘ o‘ylakim Qof domonasi.

Vale davrakim bo‘yla ko‘rguzdi Qof,
Topib nasx qofi kibi har shikof.

Bo‘lub fosil ul toqqa bir dara,
Ubur etgali ul guruhi shara.

Alar yilda solib iki qatla sho‘r,
Chiqib tog‘ shikofidin andoqki mo‘r.

Bizing shahru vodiy sori yoyilib,
Ne bedodkim mumkin o‘lg‘ay, qilib.

Kelur chog‘ alar, biz firor aylabon,
Vatandin jalo ixtiyor aylabon.

Borimizg‘a ul nav’ bechoraliq,
Solib tog‘u vodiyda ovoraliq.

Nekim topib ul qavm talon etib,
Bori shahru kishvarni vayron etib.

Kishi topsalar aylab oni halok,
Taloshib yemakka etin zavqnok.

Mavoshini elturga yaksar surub,
Vatangahlarig‘a degin yetkurub.

Zaxira yemakdinki mavjud o‘lub,
Alar zulmidin barcha nobud o‘lub.

Yemak birla xud mutlaqo to‘ymayin
Va gar to‘ysa ham donae qo‘ymayin

Borin aylabon naql bungohqa;

Budur arzimizkim, deduk shohqa».

Dedi shahki: «Ul nopisandida xayl,
Qachonkim qilurlar sizing sori mayl,

Nechuk sizg‘a ma’lum o‘lur ul balo
Ki, andin burunroq qilursiz jalog‘»

Dedilar: «Bu tog‘ekim ul qavmi shum,
Aning ul yuzida qilurlar hujum.

Bu sori bo‘lur chog‘da sahronavard,
Qilur charx oyinasin tiyra gard.

Qachon bo‘lsa ul tiyra gard oshkor,
Bo‘lur tiyra bizlarga ham ro‘zgor».

Dedi shah: «Qachon bo‘lg‘ay ul ish chog‘ig‘»
Dedilar: «O‘tub bir necha kun dog‘i».

Eshitgach bu so‘z dovari choraras,
Alar chorasin qilmoq etti havas.

Topib berk manzil, tusharga panoh,
Hamul marz aro qildi oromgoh.

Dedilar ul el yuz tazarru’ bila,
Janobida ushbu tavaqqu’ bila

Ki: «Bizga necha baxtdin yo‘q navo.
Nechuk ko‘rgabiz el gazandin ravog‘

Shah ar munda maskan qilur, qilmasun,
Alarni jahon ahlidek bilmasun

Ki, nogah biri yetsa ul qavmning,
G‘anim o‘trusida ne yuzu, ne ming,

Bataxsiskim yuz tuman ming balo
Ki, bu kishvar o‘lgay alardin to‘lo.

Yetishgay borining boshida g‘azab,
Bori el qonin ichgani tashnalab».

Dedi shahki: «Siz bizga qayg‘urmangiz
Va lekin bu kishvararo turmangiz.

Toshing har neyingiz bo‘lsa aylab shitob

Ki, bu mulk aro qolmasun rishtatob

Ki, Tengriga ul dam tavakkal qilay,
Alar fikrin aylay, nechukkim bilay».

Alar chiqtilar mulkdin xonako‘ch,
Vale qilmadi shohi farzona ko‘ch.

Dedi, davrig‘a qozdilar har fariq,
Ochuq xandaq, ammo bag‘oyat amiq.

Kishilar yibordiki, har marzu bum,
Farang o‘lsunu Rus, yo Shomu Rum.

Nekim bo‘lsa me’mori chobukxayol,
Yana dog‘i ustodi nozukxayol.

Yana korgarlar, bori charbdast,
Balo raxnasin qilg‘udek sangbast.

Misu ro‘yu qal’i, birinju temur,
Yana qo‘rg‘oshun birla tolu ko‘mur.

Qilib necha yuz ming teva uzra soz,
Yana necha ustodi ohangudoz.

Muhayyo qilib ehtimom aylabon,
Borin jahd ila tezgom aylabon.

Yeturgaylar ul yerga borini bot,
Bori butti shoh aylagach iltifot.

Chu nekim keraklik edi, bo‘ldi rost,
Aningdekki doroi davrong‘a xost.

Anga tegru har kun o‘zi otlanib,
Hamul tog‘ domonasin aylanib.

Solib iki ming sangburi bedarang,
Kamar uzra kesmak uchun taxta sang.

Bori zo‘rdast ichra po‘loddek,
Qotig‘ xora kesmakda Farhoddek.

Alar xorani bemadoro kesib,
Madorosiz ul tog‘da xoro kesib.

Yig‘ib oncha asbob bog‘larg‘a sad

Ki, taxminidin ajz topib xirad.

Chu har ne keraktur muhayyo bo‘lub,
Hamul tiyra gard oshkoro bo‘lub

Ki, ya’juj azmig‘a erdi nishon,
Bo‘lub mehr nurig‘a zulmatfishon.

Yig‘ishturdilar elni taklif ila,
Kivurmakka xandaqqa taxvif ila.

Suruldi gala dog‘i xandaq sari
Ki, jonliq nima qolmadi tashqari.

Kamingahda besh ming nabardozmoy,
Nihoni qo‘yub shohi farxundaroy

Ki, bir dastburd aylabon oshkor,
Qilurg‘a hamul saydlardin shikor.

Alar ichra o‘n vahshiyi mag‘ribiy,
Qamish xayli ichra teraklar kibi.

Bu savdo alarni chu marbut etib,
Kelib xandaq ahlini mazbut etib.

Bu holatda chiqti guruho guruh
Ki, ya’jujdin to‘ldi sahrou ko‘h.

Chiqib bo‘yla holatda ahli kamin,
Aningdekki, titrab zamonu zamin,

Alar xaylig‘a o‘zlarin urdilar
Ki, tig‘ ostida ko‘pni o‘lturdilar.

Bu yanglig‘ chu ko‘rdi alar dastzo‘r,
Xayol aylakim, tushti daryog‘a sho‘r.

Qo‘yub borcha to‘sh-to‘shdin ul elga yuz
Ki, kasratlaridin to‘lub tog‘u tuz.

Aningdek nabard oshkor ettilar
Ki, ul xayl ishin iztiror ettilar.

Ne o‘qu qilichdin birisiga bok,
Ne o‘qu qilichkim bo‘lurdin halok.

Itik tig‘din har nechakim o‘lub,

Hamul tig‘din ham itikrak bo‘lub.

Alar ham ko‘p elni halok aylabon,
Halok aylaganni xo‘rok aylabon.

Otidin muborizni yiqqon zamon,
Yiqilg‘och, taloshib tugatmak hamon.

Demonkim yebon jismu qolabni ham,
Ne jismu ne qolabki, markabni ham.

Ajabroqki, ne xasmu ne o‘z debon,
Yiqilg‘onni filhol uzushub yebon.

Bu yanglig‘ki aylab nabard ul sipoh,
Ko‘p el bo‘ldi oqshomga tegru taboh.

Base ul jamoatdin o‘lturdilar
Ki, to o‘zni xandaqqa yetkurdilar.

Chu parxoshdin qolmayin jonlari,
Kirib jon arosig‘a qo‘rg‘onlari

O‘kush rev ila hisn azmi qilib,
Hamul devvash xalqdin ayrilib.

Bular aylagach rev ila tarki razm,
Alar ham qilib tog‘u sahrog‘a azm.

Tong otquncha oshubu g‘avg‘o bila,
Qalin it masallik alolo bila.

Bori og‘zida telba itdek yolin,
Adadda vale it tukidin qolin.

Chu hozir bo‘lub shah qoshig‘a sipoh,
Musibat tutub xayli g‘oyibqa shoh.

Qabul aylagan ish ko‘runub qatig‘,
Pushaymonlig‘i hech qilmay asig‘.

Chu ko‘shish sori topmayin hech yo‘l,
Zarurat urub chora zaylig‘a qo‘l.

Bilibkim, necha kun tahammul kerak,
Qilur ishda ko‘prak taammul kerak.

Yemakdin chu xolidur ul marzu bum,

Magar topmayin tu’ma ul xayli shum,

Yonib o‘z makonig‘a azm etsalar,
Qilib avd, kelgan sari ketsalar.

Yetib ishga ul lahza nazzorae,
Qila olg‘ay ul qissag‘a chorae.

Ham ushbu deyilgan kibi ul guruh
Nima topmog‘ondin bo‘lub chin sutuh.

Bori qildilar avd kelgan sari,
Dara ichra sig‘may kirib ichkari.

Alarg‘a chu yuzlandi ovoraliq,
Zamona unutti sitamkoraliq.

Shah otlandi ul xayli dono bila,
Razin royu aqli tovono bila.

Rikobida san’atgar el behisob,
Qilib ul dara sori bori shitob.

Chu yettilar, ermas edi ul dara,
Ochuq julgae erdi xo‘bu sara.

Va lekin iki jonibi iki tog‘,
Nechukkim berib erdi ul el surog‘.

Iki tog‘ arosida massohi chust,
Yaqinroq yerin ayladi bozjust.

Tanob onchakim chektilar har sari,
Yaqinroq yeri erdi o‘n ming qari[9].

Nujum ahli soat qilib ixtiyor,
Kezib markab uzra shahi baxtiyor.

Buyurdiki to‘ktilar ul yerga rang[10],
Tushub qo‘ydi soat bila xora sang.

Gudozandalig‘ ichra ming korgoh,
Qilib, o‘ylakim ko‘ra tayyorgoh.

Muhandislar aylab fusunsozliq,
Masohat bila korpardozliq.

Bo‘lub korgarlar dog‘i ishda chust,

Raja jadvali birla poku durust.

Gach o‘rnig‘a mahlul etib haftjo‘sh[11],
Quyub yerga san’atgari saxtko‘sh.

Solib haftjo‘sh ustiga taxta tosh,
Bori jonibi tez bo‘lg‘on tarosh.

Qo‘pub yona ustodi Boniyhasab,
Qo‘yub toshni toshqa lab-balab.

Chu bir sath ul tosh hamvor o‘lub,
Yana ustida ish namudor o‘lub.

Chu tulig‘a o‘n ming qari erdi arz,
Binosig‘a besh yuz qari bo‘ldi arz[12].

Necha ming bu ish uzra ustod edi
Ki, san’atda bannou haddod edi.

Qo‘yub ul sifat darz-bardarz tosh
Ki, bo‘lmay sari mo‘y anga darz fosh.

Yana erdi muzdur sondin fuzun,
Nechakim qiyos etsa ondin fuzun.

Bo‘lub olame bo‘yla san’atnamoy,
Kecha-kunduz ish qildilar olti oy

Ki, necha ming ustodu san’atgari,
Tamom ettilar Saddi Iskandariy[13].

Muarrixdin ettim bu nav’ istimo’
Ki, topti sad uch yuz qari irtifo’.

Iki zina dog‘i yasab el sori
Ki, chiqqay quyidin ulus yuqori.

Yana kunguru burj etib qal’avor,
Temurlar bila aylabon ustuvor.

Yasab iki manzil nigahbon uchun,
Tashib tosh ko‘p sangboron uchun.

Qilib anda ta’yin necha yuz kishi
Ki, sad hifzi bo‘lg‘ay alarning ishi[14].

Chu sad bo‘ldi andoqki charxi kabud,

Jahonofaring‘a shah etti sujud.

Bu holatda ul xayli muhliksitez,
Solib dashtu vodiy aro rustaxez.

Yetishtilar andoqki, ma’hud edi,
Burung‘icha un-shayn mavjud edi.

Balo raxnasin toptilar, o‘yla rust
Ki, tish birla tirnog‘lari bo‘ldi sust.

Dedi shohkim: «Sangboron qiling,
Balo xaylig‘a toshni parron qiling!»

Aningdek alar boshig‘a yog‘di tosh
Kim, ul toshdek tushti tuproqqa bosh.

Chu yo‘q erdi g‘avg‘olaridin asig‘,
Bo‘lub qatl toshidin andeshalig‘.

Yonib bir-birisiga aylondilar,
Chu sud etmadi jahdu jidd – yondilar.

Yer ahlig‘a har zulmkim surdilar,
Falakdin borig‘a evaz ko‘rdilar.

Bu bedodkim aylab ul qavm fosh,
Ne tong osmondin agar yog‘sa toshg‘

Necha qatla mundoq topib go‘shmol,
Yana ul taraf boqmog‘ etmay xayol.

Bu oyin ila chun shahi purxirad
Ki, ya’juj daf’i uchun chekti sad.

Qilib xotirin jam’, qildi xirom,
Sipah birla yod aylab asli maqom.

Necha kun chu qat’ ayladi marzu bum,
Yana bo‘ldi manzilgahi taxti Rum.

Ketur soqiy, ul jomi taqvishikan
Ki, ko‘nglumga tushmish havoi vatan.

Tilarmen kezib rub’i atlolni,
Desam ranji g‘urbatdagi holni.

Mug‘anniy, chu toptim maqomimda kom,

Tuzat kom ila sen dog‘i bir maqom.

Qilib fahm ul ohangning rangini,
Yana tark etay sayr ohangini.

Navoiy, vatan bo‘ldi manzil manga,
Bu manzildin ammo ne hosil manga

Ki, har kimki bor erdi yoru qarin,
Bo‘lubtur adam sori g‘urbatguzin.

LXIX

Yeldek sayr aro sabukborlig‘ nafyin qilmoq va tog‘dek sukun aro boviqorliq amrin buyurmoq va ashob suhbatinkim bir-bir ishlari borurg‘a shitobdurur g‘animat bilmak va ahbob muloqotinkim, har biri bir gavhari noyobdurur, mug‘tanam tutmoq va adam g‘aribistonidin shammae yod etmak va vujud sarmanzilin xushluq bila o‘tkarurni vasiyat qilmoq

Chu oxir bo‘lurbiz adam, ey rafiq,
g‘animat tutoli bu dam, ey rafiq!

Bu bir damki, xushvaqtlig‘ berdi dast,
Tarab jomidin aylagil o‘zni mast.

Chu bu damni charx o‘tkarur ham, bu dam
Damo-dam may ichkim, erur dam — bu dam.

Ko‘rub umr tarixi mubhamlig‘in,
g‘animat bil ashob hamdamlig‘in.

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g‘urbat havas aylama.

Safar mehnati jovidonidurur,
Nedinkim saqardin nishonedurur.

Safarg‘a nedur har dam etmak havas,
Sanga ul safarkim bor ollingda, bas.

Necha bo‘lsa xayling aro ko‘su pil,
Choling‘usi pil uzra ko‘si rahil.

Necha sayr tashvishidin qonmog‘ung
Ki, borg‘ungdur ul nav’kim, yonmog‘ung.

Yerur bir yo‘l ollingda behad qatig‘,
Mayi hajri ahbobning bas achig‘.

Ne hamroh ul yo‘lda, ne hamdame,
Yerur, Alloh-Alloh, ajab olame

Ki, har kimki ul yo‘lg‘a qo‘ydi qadam,
Burung‘i qadamdur savodi adam.

Ne ul sayr poyonig‘a had padid,
Ne maqsud paydo, ne maqsad padid.

Yerur oncha ranju suubat anga
Ki, o‘lmak emastur uqubat anga.

Yerur bejihat kimki sharhin qilur
Ki, har kimki aylar taammul – bilur.

Kishi bilsa ollinda bu nav’ yo‘l,
Safarni ne yanglig‘ havas qilg‘ay ul.

Nechakim tavaqqufni jazm aylagung.
Qachon bo‘lsa bu yo‘lg‘a azm aylagung.

Chu oxir borursen, shitobing nedur,
Borurdin burun iztirobing nedur.

Taraddudni tark aylab orom tut.
Tuzub bazm ahbob ila jom tut.

Yo‘q ulkim, borib sen, qolurlar bu xayl
Ki, bordur borig‘a borur sori mayl.

Yerurlar g‘animat bori bu zamon
Ki, bir-biriga siz barchangiz mehmon.

Bo‘lung mayg‘a gulrez o‘lub subhxez
Ki, bir-bir uchun bo‘lg‘unguz ashkrez.

Tarab birla jomi shabona iching,
To‘lo tutsalar bebahona iching.

Oling ayshdin umrning komini,
Tutung xush yigitlikning ayyomini.

Ichib bazm aro jomi dilkash tutung,
Nekim kelsa o‘zni dame xush tutung.

Ne soatki yuzlansa komu murod,
Sochib o‘tqa ispand, o‘qung «in yakod».

Va gar bermasa dast komu tarab,
Tarab yo‘q debon o‘zga solmang taab.

O‘zungizni mehnat kuni ovutung.
Ne g‘am kelsa davrondin, oson tutung.

Agar g‘am yetib, kimsa topsa alam,
Qilur bir g‘amin kuch bila iki g‘am.

Muni anglakim oshkoru nihon,
Kiro aylamas g‘am yemakka jahon.

Chu bir lahza davrong‘a yo‘q e’timod,
Badan qaydida jong‘a yo‘q e’timod.

Nechuk odami bejihat g‘am yegay,
Va gar bo‘lsa yuz ming jihat ham yegay.

Burung‘i kunu tongladin urma dam
Ki, ul bir adamdur, bu dog‘i adam.

Erur bir bu kun har ne nobudu bud
Ki, iki adam ichra tutmish vujud.

Dami naqd agarchi bu ma’dum emas,
Vale yetmak oqshomg‘a ma’lum emas.

Ne oqshom, tiriklik erur bir nafas,
Ham ermas yaqin topmoq oxir nafas.

Chu bir damg‘a yo‘qtur kishiga zimon,
Falak zulmidin al’amon-al’amon!

Muni dog‘i g‘am birla qilg‘on basar,
Xiraddin magar topmamishtur asar.

Alam ichra dam urmag‘il, ey ko‘ngul,
Ne g‘am yetsa qayg‘urmag‘il, ey ko‘ngul.

Judoliqqa shod o‘lma ashobdin,
Jafo yetsa ayrilma ahbobdin.

Chu gardun ishi bevafolig‘durur,
Saranjomi rasmi judolig‘durur.

Firoq ichra ta’jil, ya’niki neg‘
Bu hosilg‘a tahsil, ya’niki neg‘

Vatandin chu oxirdur ovoraliq,
Nedur oni istab sitamkoraliq.

Budur charx ishikim shitob aylagay,
Ne obod ko‘rsa — xarob aylagay.

Chu ul buzg‘usi, qilmag‘il iztirob
Ki, andin burun aylagaysen xarob.

Va gar sayrg‘a asru rog‘ib esang,
Safar naf’u zarrig‘a tolib esang,

Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l,
Tila xilvatu anjuman ichra bo‘l.

Safar azmi do‘zaxqa soniydurur,
Vatan hubbi imon nishonidurur.

Kishigakim imon erur sarnavisht,
Necha jurmi bor ko‘rgusidur bihisht.

Borib jurmsiz kirma do‘zax aro,
O‘zungga keturma uzun mojaro.

Chu zotingda imondin o‘ldi nishon,
Gulistoni jannatda bo‘l gulfishon.

Erur ravzai xuld chun maskaning,
Ne bo‘ldi do‘zaxqa bormoq faning.

Jahon mulkin etsang safar xushku tar,
Skandardek olsang yurub bahru bar,

Qo‘yub borin oxir chu ketgungdurur,
Deginkim olib oni netgungdurur.

Hamul xushku, tarki azimat tutub,
Farog‘at maqomin g‘animat tutub.

Yetakka ayog‘ cheksang andoqki tog‘,
Necha kun bu vayronda qilsang farog‘.

LXX

Ul kabutar hikoyatikim podshohning qasri zarnigori hibsidin qutuldi va o‘z buzuq oshyonini nishiman qildi va bumdek anga ul vayrondin farog‘at ganji topildi

Eshittimki, bir toyiri nomabar,
Bitik zimnida sharhi hangomabar,

Sabukpar kabutarki, har bir quloch
Ki, parron ochib tay qilib bir yig‘och.

Topib erdi bir shoh qaydida band,
Yetib erdi bolu parig‘a gazand.

Falak gardishi aylabon zulmu zo‘r,
Necha yil ani aylabon xonago‘r.

Chu zindonidin qochti ul benavo,
Nishotu farah birla tutti havo.

Singib ko‘kka har sori chun boqti ul,
O‘zining diyori sori tutti yo‘l.

Qilib sa’y ila tayri farxundapay,
Necha kunchilik yo‘lni bir damda tay.

Vale zulmi davron solib inqilob,
Qilib erdi ul bo‘lg‘on uyni xarob.

Kabutar yetishgach uyin topmadi,
Va lekin uchardin qanot yopmadi.

Base el bo‘lub tom uza donarez,
Uchurub kabutar berur erdi xez.

Bular sori hech aylamay iltifot,
Urar erdi o‘z tomin istab qanot.

Base davr urub ehtiyot aylabon,
Buzug‘ uzra qo‘ndi, nishot aylabon

Ki, ma’nus erur garchi vayronadur,
Netay shoh qasrinki, begonadur.

Yerur qushqa xushroq chu boqsang ayon,
Murassa’ qafasdan tikan oshyon.

LXXI

HIKMAT

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, tabiatqa vatanda kom va ma’luf maskanda orom jihati ne bo‘lg‘ay va aning javobi

Yana so‘rdi doroi mushkilpisand:
«Ki ey borcha mushkillaring dilpisand,

Ne manzilg‘akim bo‘lsa ishratfizoy,
Tabiat kerak bo‘lsa rag‘batnamoy.

Va lekin necha aylasak ishta g‘avr,
Yemas odami nav’i ichra bu tavr.

Angakim buzug‘ kulba zindoncha bor,
Qoshida aning bog‘i rizvoncha bor.

Bu ish bo‘yla nevchundurur, hikmat ayt,
Tariqin bayon aylabon illat aytg‘»

Dedi hikmatomuzi donishpujuh
Ki: «Bu bobda so‘z demish har guruh.

Vale hikmat ahli aro har mudiq
Ki, bu nuktada bo‘ldilar muttafiq.

Budurkim, nega tab’ mu’tod o‘lur,
Chu mu’todig‘a yo‘l topar shod o‘lur.

Gar istar gado kunji vayronini,
Tilar shah dog‘i qasru ayvonini.

Takallufni bu ishda ma’yus bil,
Aning tab’ig‘a oni ma’nus bil.

Tabiatqa har neki odat bo‘lur,
Chu eskirdi odat – tabiat bo‘lur.

Yaqinkim, bilur shohi hikmatpazir,
Tabiatqa o‘z shonidin yo‘q guzir.

Taboe’ga bu nav’ erur parvarish
Ki, aylarlar o‘z mayli birla kashish.

Alarg‘a bu mayl ixtiyoriy emas,
Bajuz qismati sun’i Boriy emas.

Ne yerkim birov tab’i ma’lufidur,
Bu ma’lufining oncha mash’ufidur

Ki, odat bo‘lur kimki bor ogahi,

Tabiatqa odat bo‘lur muntahi.

Chu bo‘ldi tabiat kerak bo‘yla-o‘q,
Anga chunki o‘z maylidin chora yo‘q».

Chu qoyil to‘kub dur nechukkim sahob,
Olib mustame’ bahrdek durri nob.

LXXII

Iskandarning quyoshdek jahongirligidin so‘ngra daryobor fathi uchun orzu kemasiga kirib, havas yelkanin tortqoni va hukamo ittifoqi bila Rum daryosi sohilida olam mulkining mohir najjorlarin yig‘ib kema tartibig‘a amr qilg‘oni va uch ming hiloli qavsmonand qurulg‘ondin so‘ngra mihvaroso tirlar bila alarg‘a qattiq yoydin chiqqan o‘qdek ravonliq bermaklari va aning ul safinalarda mavj xututidin bihor fathnomasin o‘qug‘oni

Bu bahr ichra g‘avvosi gavharfishon,
Berur bo‘yla so‘z gavharidin nishon

Ki, olamni Iskandar olg‘och tamom
Ki, qildi yana Rum mulkin maqom.

Necha kun vatan ichra masrur edi,
Nishot ayladi ulcha maqdur edi.

Yuzi solib ul mulk aro nuru tob,
Nechukkim sharaf burjig‘a oftob.

Topib aysh har marzu har bum eli,
Vale o‘zgacha shod o‘lub Rum eli.

Mubohot etib borcha ofoq aro,
Ne ofoq aro, charxi nuh toq aro.

Ne tong, faxr to‘rtunchi ko‘k qilsa fosh,
Ani jilvagoh aylagandin quyosh[1].

Chu shah necha vaqt o‘ldi oromgir,
Dilorom ila jomdin komgir.

Ko‘p aylar edi xotirig‘a xutur
Ki: «Chun berdi tavfiq Rabbi g‘afur.

Jahongirlikka qilib ehtimom,
Chu azm ettim, oldim jahonni tamom.

G‘aroyib nekim dahr aro bor edi,

Bu bir maxfiy, ul bir padidor edi.

Nabotiyu koniyu gar jonvar,
g‘aroyib misolu ajoyib suvar[2].

Sipehr etti ollimda ifshosini
Ki, qildim borining tamoshosini.

Nekim arz sathida topmish vujud,
Manga bo‘ldi manzur budu nabud.

Va lekin tengiz sayrini qilmadim,
Ne erkonni ul pardada bilmadim.

Savohilda derlarki, ko‘ptur g‘arib,
Jazoyirda ham ko‘prak andin ajib.

Bihor ichra xud benihoyatdurur,
Muhit ichra behaddu g‘oyatdurur[3].

Bu shakli mudavvarki derlar jahon
Ki, bor aksari suv ichinda nihon.

Qurug‘liq yeri o‘ndin ermasdurur,
Bilur el nishon bo‘yla bermasdurur.

Erur ofarinish aro oncha pech
Ki, janbidadur to‘quz aflok hech.

Falaklarki, hech o‘ldi ul pechdin,
Qoshida jahon kamdurur hechdin.

Hisob ichra bu hechdin dog‘i kam,
Kishi ko‘rmamish bo‘lsa ushrini ham[4].

Nedur muncha lofi jahongardliq,
Yerur bu sifat lofi damsardliq?

Chu afloku anjumg‘a yetmas ilik
Ki, mohiyati elga bo‘lg‘ay bilik.

Bilib biz hisobini bog‘lab rasad,
Haqiqatlarin fahm qilmas xirad.

Alarg‘aki qodir emastur kishi,
Bilinmas sukuni bila gardishi.

Jahonkim, bo‘lubtur musaxxar manga,

Anga hukmronliq muyassar manga.

Ani mulk etib Haq, meni mulkdor,
Manga borcha ishga berib iqtidor.

Agar ulcha mulkumdadur, bilmasam,
Chu bilmay, bilur fikrini qilmasam.

Mening birla soyir el ichra ne farq
Ki, bo‘lg‘ay alar bahri g‘aflatda g‘arq?

Kerak har nedur farshi g‘abro aro,
Qurug‘luq aro, yo‘qsa daryo aro.

Agar aylasa baxt hamrohliq,
Yurub borchadin topsam ogohliq.

Qurug‘lug‘ni qildim Xizr birla tay,
Bu dam qo‘ysam Ilyos ila suvg‘a pay».

Chu ko‘nglida yer tutti mundoq havas,
Topa olmadi daf’ig‘a dastras.

Havas tundbodi chu bedod etar,
Xirad xonumonini barbod etar.

Bu andesha chun ko‘nglin etti zabun,
Dimog‘ig‘a yuzlandi bimi junun.

Bilibkim ne ko‘nglida pinhon erur,
Nihon tutsa jonig‘a nuqson erur.

Talab ayladi donish ahlini bot,
Yana davlat ahlin qilib iltifot.

Chu bu anjuman ixtiyor ayladi,
Nihon rozini oshkor ayladi.

Ichinda nihon ko‘ngli maqsudini,
Ayon ayladi budu nobudini.

Bori bildilarkim, ne qilmish havas,
Tengiz sayridur ko‘ngliga multamas.

Qayu birki man’ aylayu soldi so‘z,
Debon so‘zni, chun shohg‘a qoldi so‘z.

So‘zin, o‘yla ma’qul ila qildi rad

Ki, bo‘ldi javobida ojiz xirad.

Bilib borchakim, man’ dargir emas.
Rizodin o‘gun hech tadbir emas.

Pisand ettilar barcha, aylab duo
Ki: «Haq soldi ko‘nglunga bu muddao.

Umid ulki ham lutf etib Kirdigor,
Bu azmingda qilg‘ay seni komkor».

Qayu ishta shah topsa royi zaif
Kim, o‘lg‘ay jadal aylamakka harif.

Ne jonibki, shah bo‘ldi ko‘shishnamoy,
Zaruratki, bo‘lg‘ay mute’ ahli roy.

Shah ar mashvaratda sitamkoradur,
Sitam chekmay ul ishta ne choradur?[5]

Vale g‘ayb sirri chu paydo emas,
Qazo qismati oshkoro emas.

Baso roykim aql anga yuz dalil
Topor, lek o‘lur, borcha royi alil.

Baso ishki nafs etsa anda inod,
Yetishgay hamul rahguzardin kushod[6].

Ne roeki iqbol erur rahnamun,
Aning tobe’i keldi charxi nigun.

Bas, avlo bukim qay taraf tushsa shoh,
Kishi zilli johig‘a chekkay panoh.

Ki, bo‘lg‘ay ish o‘ng kelsa masrurluq,
Ham o‘lg‘ay yomon kelsa ma’zurluq.

Skandar so‘zin qilg‘och ul el pisand,
Bo‘lub ko‘ngli ul roydin bahramand.

Ravon hukm qildiki, san’atvar el,
Qilib chust kishti yo‘nar ishga bel.

Masolihki, darkordur har nima
Olib, soz qilg‘aylar uch ming kema.

Ming andin bo‘lub shoh azmig‘a xos,

Hamul elgakim keldi bazmig‘a xos.

Yana ming ham arkoni davlat uchun,
Suv ustida qilmoqqa sur’at uchun.

Sekiz yuz sipohiyi jarrorg‘a,
Iki yuz yana ahli bozorg‘a.

Mingikim raqam aylab o‘z otig‘a
Ki, bo‘lg‘ay panah bahr ofotig‘a.

Yuzi jung o‘lub har bir andoqki shahr
Ki, topqay kishi shahrdek anda bahr.

Bo‘lub, o‘ylakim shahr har jung aro,
Mahallotu ko‘yu maqomu saro.

Yana uch yuz ul nav’kim bexalal,
Biri ming sipohig‘a bo‘lg‘ay mahal

Ki, bo‘lg‘ay bori o‘z farog‘i bila,
Sekiz yil keraklik yarog‘i bila.

Yana iki yuz kemada zodi roh,
Bo‘lub ul ish ahlig‘a oromgoh.

Yana yuzda solib tanobu rasan,
Masohatni qilmoqqa bahr ichra fan.

Yana iki yuzda jammolu sutur
Ki, shoyad savohilg‘a tushgay ubur[7].

Yana yuz kelib zavraqi tezrav
Ki, eltib suv uzra sabodin garav.

Yana iki ming ham bu tartib ila,
Butarga bori ziynatu zeb ila.

Chu farmon etib shohi ofoqgir,
Bo‘lub ahli ofoq farmonpazir.

Turub xayli sanno’din teshakor,
Yig‘och kesgali necha ming peshakor.

Masolih yoqo beshasidin yetib,
Hunarvar qaroru shikebi ketib.

Bu kishti yasar xaylning manzili,

Bo‘lub Rum daryosining sohili.

Hamul suv yoqosi iki-uch yig‘och,
Ko‘rub arrau teshadin kuch yig‘och.

O‘n-o‘n besh ming ustodi najjor edi
Ki, tun-kun ish ustida darkor edi.

Yana muncha shogirdu muzdur ham,
Bori sa’y etib ulcha maqdur ham.

Yana ikki-uch ming kishi borcha chust,
Ish etmak uchun kun-bakun bozjust.

Solib oncha ul sohil ichra xuro‘sh,
Degil Rum daryosig‘a tushti jo‘sh.

Bu yanglig‘ o‘tub uch yilu bir nima,
Tengiz suyig‘a kirdi uch ming kema

Aningdekki, taqsim topti burun,
Tutub har kim o‘z kemasida o‘run.

Solib necha yilliq yo‘l asbobini,
Tengiz sayrining har ne noyobini.

To‘lub kemalar ichra har xosta,
Chu bo‘ldi kerak yanglig‘ orosta.

Taharruk tutub shoh daryo kibi,
Ne daryoki, charxi muallo kibi.

Qilib mamlakat ahlig‘a xayrbod,
Navozish bila aylabon elni shod.

Chiqib bodpoy uzra bo‘ldi ravon,
Shabistoni ahli qolib notavon.

Surar erdi yakronini bedarang,
Anga tegrukim, bahri Rumu Farang.

Chu sohil sari dashtdin qildi mayl,
Aningdekki daryo sari tundsel.

Qo‘yub raxshi daryo qirog‘ig‘a gom,
Inonin chekib shohi daryoxirom.

Hamul hikmat ahli suturlobsanj,

Chekib yaxshi soat zuhurig‘a ranj.

Chu bir lahzae maks vojib edi,
Qolur el sari shoh boqib dedi

Ki: «Yey qavmkim, qildingiz xizmatim,
Chekarsiz bu kun g‘ussai furqatim.

Necha hajringiz birla xursandmen,
Vale barchangizdin rizomandmen.

Qazodin manga tushti mundoq safar,
Qadar hukmidin elga «aynalmafar»[8].

Quloqqa nekim aytsam so‘z – tutung,
Necha vaqtdin so‘ng meni ko‘z tutung.

Agar mulku, vagar mol, gar din erur,
Nekim har biringizga ta’yin erur.

Qayu ishki har kimga chektim raqam,
Raqam chekkanimdin chiqormang qadam.

Hadisim ko‘ngul ichra oling bori,
Salomat bo‘lung, yaxshi qoling bori.

Duo birla bizni gahe yod eting,
Bu xidmat bila emdi imdod eting».

Bu so‘zlar degach shohi kishvarxidev,
Ulus chektilar ko‘kka yaksar g‘irev.

To‘kub ashkdin borcha yuzlarga rud,
Dedilar aning joniga ko‘p durud.

Duodin so‘ng og‘oz etib bu kalom
Ki: «Gar bar, agar bahr qilsang maqom.

Nechakim firoqingda g‘am yegabiz,
Ne yoroki, yaxshi-yomon degabiz.

Bisoti tarab jilvagohida bo‘l,
Qayonkim esang, haq panohida bo‘l.

Ne amr etganing, toki bor jonimiz,
Tag‘oful qilurg‘a ne imkonimizg‘

Chu bizdin duo aylading muddao,

Ne ish ilgimizdin kelur juz duo».

Alarg‘a bu yerga yetishgach maqol,
Tulu’ ayladi burji farxundafol.

Suturlob sori chu ko‘z soldi shoh,
Ravon kemani qildi oromgoh.

Quyosh Jady burjig‘a chunkim yetib,
Ravon Hut burjig‘a tahvil etib.

Falak yetkurub bo‘yla yomg‘ur chog‘in,
To‘kub el ko‘zi benihoyat yog‘in.

Chu shah kema ichra maqom aylabon,
Ulus ham sarosar xirom aylabon.

To‘lub chun labo-lab ul uch ming kema,
Ham el birla, ham har keraklik nima.

Topib hukm mallohi ozodmard,
Ravon kemani qildi daryonavard.

Qalin kishti o‘lg‘onda junbushnamoy,
Terang bahr bo‘ldi g‘urunbushnamoy.

Yurub suv uza shahri a’zam savod,
Taharrukda bir o‘zga olam savod.

Savodi yopib jarf daryo yuzin,
Bulut o‘ylakim charxi xazro yuzin[9].

Bu oyin bila shohi daryoshukuh,
Yurub qildi daryoni yukdin sutuh.

Qayon azm bevahmu bok ayladi,
Tengiz bag‘rini chok-chok ayladi.

Chu ul nav’ mehmon kirib bahr aro,
Qilib mizbonlig‘da suv mojaro.

Ochib har taraf abrmonand kaf,
Ki jam’ aylagay har ne bo‘lg‘ay sadaf.

Bori durlarin oshkor aylagay,
Borin mehmong‘a nisor aylagay.

Sochib borchasin shahg‘a ogohvor,

Bori durlarin aylagay shohvor.

Birovningkim ul nav’ mehmoni bor,
Ne durrkim, nisor etgay ar joni bor.

Ayog‘chi ketur jomi daryomisol
Ki, bahr ichradur shohi daryonavol.

Manga tutki, no‘sh aylab, aylay tarab
Ki, daryo kibi bo‘lmisham xushklab.

Mug‘anniy, tarona tuzat rexta,
Hazin rudunga lahne omexta[10]

Ki, ashkimni to‘kkay duri nobdek,
Buyurg‘ay manga charxi girdobdek.

Navoiy, talab qil tariqi fano
Ki, suv uzradur dahr uyiga bino.

Ko‘ngulni bu uy birla shod aylama,
Hubob uyiga e’timod aylama.

LXXIII

Iskandarning hukamodin daryobor vaz’in savol etgoni va Suqrotning kurrai arz davrida suvning ne nav’ ihota qilg‘onin sharh qilg‘oni va Muhit atrofida yeti axzar daryokim, yeti charxi xazrodek sho‘rangez, balki xunrezdurur taqsim etib, o‘n iki ming jazoirkim, xolidotdin ayrudur, munqasim qilg‘oni va buhayrot sharhidin elga tahayyurot solib va anhor mojarosidin soyilni bahrdek xushklabliqdin serob qilg‘oni

Hamul kunki shah bo‘ldi daryotavof,
Aning jungining ko‘ksi daryoshikof.

Tilab hikmat ahlini majma’ tuzub,
Borilarg‘a diljo‘yluq ko‘rguzub,

Dedi: «Bahr kayfiyatin aytingiz
Ki, ne vaz’ iladur yer uzra tengizg‘»

Taammul qilib borcha ahli ayon,
Dedilarki: «Suqrot qilsun bayon

Kim, ul hikmat ahlining ustodidur,
Zamiri xirad hikmatobodidur».

So‘z andin so‘rub shohi daryojanob,
Berib bo‘yla Suqroti dono javob:

«Ki, yer jirmidur hay’ati mustadir,
Kurra ayladi oni Hayyi Qadir.

Vale ul kurra suv ichinda nihon,
Ochuq qismi uldurki, derlar jahon

Ki, ma’murau tog‘u homun erur
Ki, oti aning rub’i maskun erur.

Vale suv ihota qilibdur ani,
Yerur yeti iqlim ochuq qolg‘ani.

Vale ul ham ochuq emasdur tamom,
Ki, har jonibin bahr etibdur maqom.

Muhitekim, ul charxosodurur,
Aning davrida yeti daryodurur

Ki, har yon kirib rub’i maskun aro,
Duxul aylamish tog‘u homun aro.

Yana ham o‘n olti buhayrot erur
Ki, har birga bir o‘zgacha ot erur.

Yana yuzdin ortuq erur ro‘dbor
Ki, olur alardin ulus e’tibor.

Nechukkim Ko‘hak, yo‘qsa ro‘di Hirot,
Va yo Nil yo Kavsaroso Furot.

Alardin jahon ichra obodliq,
Aning naf’idin xalq aro shodliq.

Yerur chashma bu ro‘dlar manba’i,
Vale bahrlarg‘a bo‘lub maqta’i.

Taarruz buhayrot ila ro‘dg‘a,
Xalal yetkurur sharhi maqsudg‘a.

Hamul yeti daryoki zoxirdurur
Ki, anda bilodi jazoirdurur.

Ani sharh etarga qiloli shuru’,
Alarg‘a yaqin birla budur vuqu’

Ki, majmu’i ul bahrdin ayrilur
Ki, dono Muhit oning otin qilur.

Alardin biri bahri Rumu Farang
Ki, sensen bu dam ul tengizda nahang

Ki, obodu bum ichra voqe'durur,
Jazoirki anda mazore'durur.

Yerur olti yuz ulcha topmish adad
Ki, yo‘q anda ma'murluq ichra had.

Ikinchini qil bahri Mag‘rib gumon
Ki, mavjig‘a orom yo‘q bir zamon.

Shimoliyu sharqiysi ma'mur bil,
Jazoir ming ul suvda mashhur bil.

Uchunchi erur bahri Zangu Habash
Ki, oshubidin keldi devonavash.

Ming uch yuz jazira aning doxili,
Base ko‘p jazirasining hosili.

Hisob ichra to‘rtunchidur bahri Hind
Ki, janbida bir nov suv ro‘di Sind.

Jazoir anga uch yuzu iki ming,
Necha lujja ko‘li hamul bahrning.

Biri keldi Ummonu Qulzum biri,
Yana Bahrayni purtalotum biri.

Beshinchi tengiz keldi daryoyi Chin,
Jazira ko‘p ul suvda mardumnishin.

Adad ichra uch ming, dog‘i yeti yuz,
Jazoir arosida ko‘p tog‘u tuz.

Duvong degan suvni oltinchi de,
Bilodi savodin ko‘ngul tinchi de.

Iki mingga yaqin jazoir anga,
Tuman ming kema lek soir anga.

Yetinchini Mashriq suyi qil hisob,
Quyosh avval anda solib nuru tob.

Bo‘lub o‘n iki ming jazoir tamom,
Munung birla o‘n oltita vassalom.

Bulardin erur ayru bahri Hazar
Ki, vahm aylay olmas suyidin guzar.

Anga ham jazoir adadsizdurur,
g‘aroib bular ichra hadsizdurur.

Bular barchaning manba’idur Muhit
Ki, ovozasi tutti sathi basit.

Anga muttasildur bular borisi,
Qurug‘lug‘durur lekin uch sorisi.

Va lekin erur ul bag‘oyat amiq
Ki, aflok anga tushsa aylar g‘ariq.

Kelibdur sifat bu vatira anga,
Jihat buki, bo‘lmas jazira anga.

Va lekin uluq vaz’liq jonvar,
Alarga ajab vaz’ birla suvar.

Yerur andin ortuqki ahli xirad,
Takallum bila aylay olg‘ay adad.

Budur bahr ishikim, dedim mujmalin,
Bayon ayladim maxraju madxalin.

Kishi qilsa tafsilini orzu,
Ko‘rar sayr etarda qilib justuju».

Skandar bo‘lub xurramoyin base,
Ayon qildi donog‘a tahsin base.

Burun yeti daryog‘a azm etti jazm,
Bulardin so‘ng etmak Muhit ichra azm.

Bo‘lur odamiyning biyik himmati,
Yerur himmatidin fuzun g‘aflati.

O‘lum solg‘usi chun dimog‘ig‘a dud,
Tamanno o‘tin muncha yoqmoq ne sudg‘

LXXIV

Mashriqda ganj topqon kishi hikoyatikim, mag‘rib ganjnomasini o‘qub, mehrdek boshtin qadam qilib, mag‘ribqa bordi va ul zari mag‘ribiy topqoch mehrdek uyoqti

Birov topti Mashriqda ganji shigarf,
Yozig‘lig‘ eshigida bu turfa harf

Ki: «Har kimki bu ganjni topti, jazm
Agar qilsa Mag‘rib diyorig‘a azm,

Falon yerda mundin uluq ganj erur,
Anga kim qadam urdi, poranj erur».

O‘qug‘och ani tome’i xomkor,
Dedi: «Ikisidin bo‘lay komgor».

Munga «himmat» oti qo‘yub fikrati,
Ravon qildi Mag‘rib sori himmati.

Necha yil qilib qat’ daryou dasht,
Bo‘lub anga yuz ming balo sarguzasht.

Yetib, istagan yerni topqon mahal,
Boshig‘a yetishti sarosar ajal.

Ne mundin yedi bar, ne ondin dog‘i,
Mashaqqat chekib kechti jondin dog‘i.

Yemas shahliq — olmoq yurub bahru bar,
Yerur topmoq andinki Haq berdi bar.

Birovkim, bu ma’niga yobandadur,
Xiradmandu farxundapay bandadur.

LXXV

HIKMAT

Iskandarning savoli Suqrotdin ul bobdakim, kurrai arzni tamom suv ihota qilmog‘onning hikmati ne bo‘lg‘ay va aning javobi

Skandar savol etti Suqrotdin
Ki: «Yey fard tafritu ifrotdin,

Bukim yer yuziga Muhit o‘ldi su(v),
Bayon qilki, mushkildurur bizga bu

Ki, ne vajhdin tutmadi yer yuzin,
Jahon sathining borcha tog‘u tuzin

Ki, bu rub’i maskunga suv keldi oz,
Ham onchaki bor erdi elga niyoz.

Muhitekim, ul oshkorodurur,
Nega davrida yeti daryo dururg‘

Chu andin yeti bahr bo‘ldi judo,
Nega tutmadi yer yuzin – qil adog‘»

Duo qildi donoyi daryozamir,
Ki: «Olsun jahon shohi daryonazir.

Guruhe demishlarki, bu jirmi xok,
Yerur vaz’ ichinda balandu mag‘ok.

Necha asli vaz’i mudavvardurur,
Bu hikmat eliga muqarrardurur.

Vale yer yuzi chunki hamvor emas,
Kishi fikr agar qilsa dushvor emas.

Bilurkim, yog‘indin qachon bo‘ldi sel,
Qilur tog‘din past vodiyg‘a mayl.

Chu olam yuzi bo‘ldi pastu baland,
Bu so‘zni qilur donish ahli pisand

Ki, suv moyil o‘lmish chuqurlarga-o‘q,
Yerur bu jihatdin biyiklarda yo‘q.

Guruhe bu ma’ni guvohidurur
Ki, derlar bu hikmat Ilohiydurur.

Tutulmoq kerak erdi yer suv bila,
Hamul nav’kim, aks ko‘zgu bila.

Vale xalqkim, Haqqa oson edi,
G‘araz ofarinishdin inson edi.

Anga jilvagoh ochti qudrat bila,
Bu ma’nig‘a yo‘q daxl hikmat bila.

Muni bil Hakimi Azal hikmati
Ki, topmas bulardin xalal hikmati.

Yerur chunki ul yerda ojiz xirad,
Xirad ahlig‘a so‘z demakka ne had»

Skandarga ul so‘z kelib dilpazir,
Sukut o‘ldi hikmat bila noguzir.

LXXVI

Iskandarning yeti daryo bila o‘n iki ming jazoir bilodin fath etgandin so‘ngrakim bir qatla Muhit davrasin pargorsifat evrulub erdi, Muhit nuqtagohig‘a azimat qilg‘oni va ul sayrda yig‘och marokibning yeldin harakati va suv dashtining samoviy hay’ati va kulokdin ul dasht aro ko‘p arg‘adol namudori va hubobdin ul yo‘l aro ko‘p sangreza osori va Iskandarning Muhit markaziga yetgoni va charx do‘lobi ani aylandurib, Iskandariya azmi etgoni

Guharrezkim, nuktaovardurur,
Bu daryoda mundoq shinovardurur

Ki, chun surdi dono bu yanglig‘ maqol,
Xabar topti doroi daryonavol

Ki, ne nav’ emish bahr kayfiyati,
Safar sori jozim bo‘lub niyati.

Hakimi ilohiyg‘a[1] surdi nafas,
Ki: «Sendin erur bizga bu multamas,

Kim andoqki yetti so‘zungdin navo,
Bu sayr ichra sen bo‘lg‘asen peshvo.

Sening tobe’ing borcha mallohlar,
Bori bahr sayrida sayyohlar.

Alar birla topib suv hanjorini,
Qayon boshlasang xalq raftorini,

Bo‘lurbiz bori donishing payravi
Ki, fahming biyik keldi, roying qavi».

Qabul etti Suqrotu yo‘l boshladi,
Ulus bordi har yonki, ul boshladi.

Bo‘lub ehtiyot amri lozim anga,
Hamul kema ahli mulozim anga.

Ishe tutmoq ul yo‘l ishin pos o‘lub,
Aning posini tutqon Ilyos o‘lub[2].

Surub kemani ul andoqki tayr,
Hamul suvg‘a qildilar ohangi sayr

Ki, daryoyi Afranjau Rum edi
Ki, holot anga g‘ayri ma’lum edi.

Jazoyir futuhiga yuz qo‘ydi shoh,
Qilib sa’y shah birla xaylu sipoh[3].

Qayonkim qilib azm, qo‘ymay olib,
Chu olib, g‘aroyibqa ko‘p ko‘z solib.

O‘zi aylabon suvda fathi bilod,
Jazoyir bilodini aylab kushod.

Va lekin necha kimsa ta’yin etib,
Alar suv qirog‘i bila yo‘l ketib.

Necha kemau ahli hikmat necha
Ki, ham kunduz aylab ravshan ham kecha.

Suvda o‘y, nechukkim hubob urg‘oli,
Hamul bahr davrin tanob urg‘oli.

Savohilda to yer topib, yo‘l yurub,
Masohat tariqin bajo kelturub.

Ne yerkim bo‘lub besha, yo berk tog‘
Ki, qat’ida massoh topmay farog‘.

Suv ichra qilib kema birla shitob,
Bu nav’ oni massoh chekkay tanob

Ki, bir kema ichra yig‘ib har sari,
Tanobi qadi o‘n iki ming qari.

Qilib kemaga berk langar toshin,
Va lekin ul ipning yana bir boshin

Yana bir kema ahli tutqay surub,
Nekim shart surmak, bajo kelturub.

Necha tor tutqon kema qochibon,
Tanobini turg‘on kema ochibon.

Chu soyir kema rishtasi tortilib,
Hamul kema sayrini sokin qilib.

Anga kema ahli solib langarin,
Yana kema suvdin olib langarin.

Tanobin yig‘a bahr aro tezrav,
Nechukkim burung‘i kema tezdav.

Munga ham chu tortildi chekkan tanob,
Turub bu vale, turg‘on aylab shitob.

Bu yanglig‘ chu bu bir turub, ul yurub,
Bu turg‘on qachonkim yurub, ul turub.

Alar chun bu yanglig‘ shitob aylabon,
Muhosiblar oni hisob aylabon.

Kezib bu sifat bahr atrofini,
Masohat bila anglab avsofini.

Yana bir necha dog‘i ahli hisob,
Urub bu sifat bahr qutrin tanob.

Hakimi muhosib bu san’at bila,
Bilib hosilin zarbu qismat bila

Ki, atrofi oning erur necha yo‘l,
Yana sath birla erur necha ul.

Jazoyirni to fath qilg‘uncha shoh,
Hisobin hakim aylabon ro‘baroh.

Chu bir bahr fathi saranjom o‘lub,
Hisobi dog‘i o‘ylakim kom o‘lub,

Nekim bo‘ldi ul suvda hangomae,
Aning borcha sharhin yozib nomae.

Chu ul noma sharhin durust aylabon,
Kabutar ayog‘ig‘a rust aylabon

Ki, hamroh ani Rumdin kelturub,
Havo aylabon ul paru bol urub.

Xabar eltib ul barcha Rum ahlig‘a,
Qurug‘luqdag‘i marzu bum ahlig‘a.

Bu yanglig‘ yeti bahri zaxxorni,
Yeti jarf daryoyi xunxorni.

Kezib ayladi barchasig‘a ubur,
Nechukkim suv uzra sabou dabur.

Ajoyibni g‘oyatdin ortuq ko‘rub,
g‘aroyib nihoyatdin ortuq ko‘rub.

Urub o‘n iki ming jazoyirg‘a gom,
Qilib fath chun aylabon ehtimom.

Chu tortib tanob anda bevahmu bim,
Bilib barchaning tulu arzin hakim.

Yeti bahrni chun musaxxar qilib,
Borining salohu fasodin bilib.

Muhit o‘ldi bir davra bu sayr aro,
Yana xomazan yozdi bu mojaro.

Uzotti yana toyiri nomabar
Ki, yetkurdi hijronkash elga xabar.

Yana manzili bo‘ldi bahri Farang,
Qilib bir jazira ichinda darang.

O‘tub qilg‘ali bahr ichinda xirom,
Bu choqqa degin o‘n iki yil tamom.

Jazira aro chun makon ayladi,
Ulus ko‘nglini shodmon ayladi.

Gumon ettilarkim, tugandi safar,
Vatan bo‘lg‘usidur alarg‘a mafar.

Buyurdi yana shohi daryoshitob
Ki, kelturdi Suqroti hikmatmaob.

Tengizda ravon qilg‘on asboqini,
Chekilgan masohatning avroqini[4].

To‘la bo‘lmish erdi varaq bir kema
Ki, yo‘q anda kog‘azdin o‘zga nima.

Solib borcha sanduqlar ichra chust,
Alarni qilib qirlar birla rust.

Qilib vahmkim o‘tsa kog‘azg‘a nam,
Anga nogahon botil o‘lg‘ay raqam.

Kemakim ul avroq birla to‘lub,
Safina bo‘lub demakim, jung o‘lub[5].

Chu sanduqlarni chiqordi hakim
Varaqlar qolib erdi namdin salim.

Dedi shohkim: «Necha ahli qalam,
Hisob aylasun ul adadsiz raqam».

Muhosiblar oni hisob ettilar,
Adad maxlasin intixob ettilar.

Hakim ul adadni chu tashih etib,
Borin shoh ko‘ngliga tavzih etib.

Taaqqul bila shohi gardunjanob,
Qilib ul raqam intixobin hisob.

Hakimeki oncha adad aylabon,
Hisob ichra shahg‘a madad aylabon.

Suvning sathig‘a chun bo‘lub rahshunos,
Necha zar’ erkonni aylab qiyos.

Tengiz tulu arzin vajab-barvajab.
Topib zarbu qismat bila betaab.

Muhitekim ul bahri a’zamdurur,
Aning javfida barcha olamdurur.

Masohat bila befusunu firib,
Bilib havzdekkim, erur bir jerib.

Angakim jahon bo‘lsa bog‘i tarab,
Tengiz bo‘lsa havzi aning ne ajabg‘

Yeshittimki, farmondihe bor emish,
Hadisida bu so‘zga takror emish

Ki: «Dahr o‘ldi bir kadxudoning yeri,
Bu gar bor ersa, bordur oning yeri».

Jahon topsa ul nav’ bir kadxudoy,
Ne tong olam o‘lsa anga bir saroyg‘

Chu shah topti daryoning oyinini,
Bu nav’ ayladi davri taxminini

Ki, bo‘lsa kema suvda sur’atnamoy,
Safar qilsa to‘quz yilu yeti oy.

Hamul bahri a’zamni bir davr etar,
Qayu yergakim suvg‘a kirmish, yetar.

Chu pargor davrini pos ayladi,
Yana qutrin oning qiyos ayladi.

Ayon bo‘ldikim uch yilu bir nima,
Bo‘lur suv aro sayr qilsa kema.

Muhitig‘a markazki beishtiboh,
Yerur bahri a’zamga ul nuqtagoh.

Yaqin borur ul yon azimat chog‘i,
Iki yilchiliq yo‘lu kamrak dog‘i.

Yana kelmagi dog‘i oncha bo‘lur,
Azimatda borg‘on zamoncha bo‘lur.

Buyurdi qilib to‘rt yilliq yaroq,
Muhit o‘rtasig‘a safar ittifoq.

Yig‘ib anjuman, bo‘yla surdi kalom
Ki: «Bizni havoi tamannoi xom

Ki, oning otin xalq qo‘ymish havas,
Vale filhaqiqat bu yanglig‘ emas.

Bori Tengri taqdiridur begumon,
Kishi qilmog‘i yaxshidur, gar yomon,

Gar ul, gar bu har qaysi taqdir ila,
Qila olmadim chora tadbir ila.

Ulusning malolig‘a bo‘ldum sabab,
Base ko‘rdilar xalq ranju taab.

Bu damkim bu yerda qilibmen darang,
Bilurmenki eldur safardin batang.

Emas bo‘lsalar sayrning rog‘ibi,
Bilurmen erur Haq alar jonibi.

Manga bu tamanno tuganmaydurur,
Yururdin zamirim o‘sonmaydurur,

O‘n uch yil ishimkim tamosho edi,
Jazoyir bila yeti daryo edi.

Muhit erdi maqsud suv sayridin,
g‘araz soqit erdi aning g‘ayridin.

Bu muddatki, bahr ichra qildim xirom.
Ne yerlarki yuzlandi fathig‘a kom.

Bori far’ edi, toki qat’ o‘ldi suv,
Mening xotirimg‘a erur asl bu

Ki, sayr ayladim doira davrini,
Kerak anglasam markazi g‘avrini[6].

Agar umru tavfiq bersa Xudoy,
Kema to‘rt yil bo‘lg‘usi bahrsoy:

Iki yil borib, iki yil kelmagi,
Vale yo‘q kishi g‘aybni bilmagi.

Manga gar erur davlatu baxt yor,
Bu yo‘l qat’ida hech yo‘q ixtiyor.

Bilurmen bu ish amri ma’hud emas,
Kishiga tengiz sayri maqsud emas.

Ulus ko‘ngliga tushmasun inhirof
Ki, bori erur bu yurushtin maof.

Yo‘likim qilur marg taxvifini,
Nechuk qilg‘amen elga taklifinig‘

Vatang‘a yonib xalq osudadil,
Bori bizdin o‘ldiklar[7] ammo bihil».

Bu so‘zni chu sharh etti doroi Rum,
Fig‘on chektilar xalq aylab hujum

Ki: «Shoho, ne jurm aylamish bu guruh
Ki, kelding alar qullug‘idin sutuhg‘

Necha qulluq etmakta sharmandabiz,
Yomon-yaxshi bo‘lsoq sanga bandabiz.

Borimizg‘a doim bu ermish murod
Ki, bo‘lsoq tobug‘ungda g‘amginu shod.

Ajal jonimiz qasdi qilg‘on chog‘i,
Tan o‘lg‘ay sening dargahing tufrog‘i.

Ne qilduqki, doroi sohibxirad,
Borimizga mundoq chekib xatti rad.

O‘zidin sipohin yiroq istadi,
Asiri baloi firoq istadi.

Borurbiz qayonkim sanga kom erur,
Turarbiz sanga qayda orom erur.

Tirik bo‘lmoqu sendin o‘lmoq yiroq,
Yerur bizga andin o‘lum yaxshiroq».

Skandar sipohin qilib ozmun,
Yaqin bildikim bo‘lmamishlar zabun.

Yerur xidmatida bori yakjihat,
Ko‘rub elga diljo‘yliq maslahat.

Bori xaylig‘a ofarin ayladi,
Inoyatqa borin qarin ayladi.

Dedi: «Haq ishingizga bersun evaz,
Bu so‘zdin manga bilmak erdi g‘araz

Ki, bu ranj aro xalq holi nedur,
Mening birla har kim xayoli nedurg‘

Boridin chu ixlosu sidq o‘ldi fahm,
Manga ham bu dam murtafe’ bo‘ldi vahm.

Hamul men shahu siz sipohsiz manga,
Yomon kun yetishgach panohsiz manga.

Bu ixlos birla Xudo yoringiz,
Havodis aro Haq nigahdoringiz».

Bo‘lub shod shahqa duo qildilar,
Sadoqat tariqin ado qildilar.

Shah uch bo‘ldi elni, taammul bila,
Bag‘oyat munosib taxayyul bila.

Iki ming kema ahlin etti judo,
Dedi: «Yoringiz bo‘lsun emdi Xudo».

Og‘ir yuk edi dog‘i ortuq kishi,
Alar birla yo‘q shahning ortuq ishi.

Vatan sori borin ravon ayladi,
Borin lutf ila shodmon ayladi.

Dedi: «Rum mulki sori qaytingiz,
Salomatlig‘imdin xabar aytingiz.

Burun yeti daryoyi zoxirni deng,
Yana o‘n iki ming jazoyirni deng

Ki, fath ayladim tig‘u tadbir ila,
Chu tadbir edi rost taqdir ila.

Bu damkim Muhit o‘ldi maqsad manga,
Kerakmas edi xayli behad manga

Ki, ne mulk fathi edi, ne bilod
Ki, qilsam cherik birla oni kushod.

Jihat bu edi bizni qaytarmog‘i,
Muhit ichra oz el bila bormog‘i».

Uzotqoch alarni bu oyin ila,
Yeti yuz kema bo‘ldi taskin ila,

Elin ham ayirib dedi: «Siz guruh
Bo‘lung ushbu manzilda taskinpujuh.

Cheking to‘rt yil intizorim mening,
Bu muddat bo‘lung posdorim mening.

Muhayyo qiling Rumdin ko‘p mato’
Kim, ul aylagay daf’i za’fu sudo’.

Men o‘lsam safar ozimi jidd bila,
Agar yondim ersa bu mav’id bila,

Ul ashyo bo‘lub mujibi taqviyat,
Quvo topqay andin yana tarbiyat.

Chu bir-birga hijron chekib yetkabiz,
Farog‘at bila azmi Rum etkabiz.

Va gar xud falak zulm etib oshkor,
O‘yun o‘zga nav’ o‘ynasa ro‘zgor,

Meni tortibon bahri zaxxor aro,
g‘ariq etsa daryoyi xunxor aro.

Suvda tu’ma aylarga qilmay darang,
Zabun etsa bu ajdahoni nahang.

Zamon o‘tsa sizlarga mav’uddin,
Topib o‘zni navmid maqsuddin,

Duo xatti bizga raqamzad qiling,
Bihil aylabon azmi maqsad qiling»[8].

Ayirdi uch yuz kishtiyi teztak,
Yururda nechukkim hiloli falak.

Mulozim qilib hikmat ahlin tamom,
Madorolarig‘a qilib ehtimom.

Bo‘lub borcha mamlu ul uch yuz kema,
Tengizda keraklik bo‘lur har nima.

Necha ming kishi yakdilu yakjihat,
Jalodat kelib barchasig‘a sifat.

Kema ilmida barcha mallohdek,
Tengiz g‘avsi fannida timsohdek[9].

Ne xidmatki aylab bori dilpazir,
Alar shahga, shah barchag‘a noguzir.

Murattab qilib shohi gardunnabard,
Kirib kemaga, bo‘ldi daryonavard.

Alar qoldilar ashkdin bahrrez,
Borib ashkdek shohi daryositez.

Tunu kun qilib po‘ya gardun kibi,
Suv ichra qolib rub’i maskun kibi.

Kecha tinmoqu kunduz orom yo‘q,
Yemakdin navo, uyqudin kom yo‘q.

Necha boqsa yo‘q tog‘u sahro padid,
Nekim g‘ayri daryo – bori nopadid.

Suv aflokdin hech topmay gusil,
Bo‘lub davrasi davrig‘a muttasil.

Gumon aylabon xayli daryoxirom
Ki, gardun aro aylamishlar maqom.

Quyoshkim qilib sayr ul aflok aro,
Nihon bo‘lmayin markazi xok aro.

Necha nurini bahr aro butrotib,
Tengizdin tug‘ub ham tengizga botib.

Qachonkim bo‘lub suv tubiga nigun,
Yuziga yopib pardai obgun.

Chu mashriq sari po‘ya birla yurub,
Suzuk suvda gavhar kibi bilgurub.

Topib chun quyosh suv yuzidin xafo.
Vale partavi topmayin intifo.

Aningdekki fonus aro bo‘lsa sham’,
Ko‘runur aning partavi birla jam’.

Vale bo‘lsa ko‘nglak samoviy anga,
Laqab ichra voloyi moviy anga.

Qachonkim topib suv aro sham’i mehr
Ki, lu’bat ayon aylar erdi sipehr.

Nechukki yuqordin ko‘runub nujum,
Alarning suvda aksi aylab hujum.

Dema akskim, yuz tuman jonvar,
Suv amvojida zohir aylab suvar.

To‘qulg‘on kibi jinsi zebo aro,
O‘kush jonvar naqshi debo aro.

Suvni ravshan aylab alarning ko‘zi,
Nechukkim, havoni falak yulduzi.

Hamul jonvarlar suvda xayl-xayl,
Qilib to‘sh-to‘shidin kemalarga mayl.

Yoqib ko‘zlari yuz tuman ming charog‘,
Topib el quyosh partavidin farog‘.

Chu ul shu’lalar kemalarga yetib,
Yig‘ochlar tutoshurdin el vahm etib.

Hamono kuyardin qilib man’ suv
Ki, kuymas amad sham’ bo‘lsa g‘ulu.

Vale shakllar jilva aylab muhib
Ki, el ko‘ngli topib alardin nahib.

Angachaki bu xayl yaksu bo‘lub,
Ulus bag‘ri ul vahmdin suv bo‘lub.

Bular chun bo‘lub bartaraf, yona favj
Padidor o‘lub, solibon suvg‘a mavj.

Qolib kemalar yuz ming ofat aro,
Kema ahli bahri maxofat aro.

Yel og‘zig‘a yuz ming karat jon yetib
Ki, bir bo‘yla oqshomga poyon etib.

Yana chun bihor uzra chiqti quyosh,
Buxor o‘ldi har yon bihor uzra fosh.

Nazardin tengiz anjumi gum bo‘lub,
Itarda ham, andoqki anjum bo‘lub[10].

Suv tahrikidin goh girdoblar,
Inonig‘a yo‘lning berib toblar.

Ne girdobkim, jarf chohi amiq,
Quyosh Yusufin aylagudek g‘ariq[11].

Ajab keldi chahg‘a havoli suvdin,
Suvda choh kim ko‘rdi xoli suvdin.

Musofirg‘a ne hol bo‘lg‘ay taboh
Ki, yo‘lida har yon bu nav’ o‘lsa chohg‘

Falak gunbazig‘aki kelmish nigun,
Suv har yon manore yasab bozgun.

Kema davrasig‘a berib imtidod,
Aningdekki tol bargiga girdbod[12].

Biridin qutulmoqqa chun xos o‘lub,
Yana bir samoig‘a raqqos o‘lub.

Gahekim bo‘lub raf’ sargashtalik,
Hamul davradin baxt bargashtalik.

Esib sarsaru bahr o‘lub mavjxez,
Falak birla suv mavji aylab sitez.

Yel andoq esibkim, tengiz chayqalib,
Suyi bahrning mavjdin qo‘zg‘alib.

Solib ko‘hmonand ko‘loklar,
Payopay tengiz jismiga choklar.

Kirib suv tubiga salomat kuni,
Bo‘lub oshkoro qiyomat kuni.

Falak yelga vahshat eshigin ochib,
Tengiz vahshi daryo tubiga qochib.

Ne daryo tubikim, sug‘a ul taraf,
Chiqib gar bolig‘, gar nahang, ar kashaf.

Chu ko‘lok o‘zin charxsho‘y aylabon,
Falak sathig‘a obro‘y aylabon.

Kemakim qilib charx sori ravish,
Qilib tiri ko‘k Tirig‘a sarzanish.

Quyi chun inib, bo‘lub oning yeri
Dema bahr tahtiki, tahtas-sari.

Bo‘lub Savru Hut avjidin vahmlig‘,
Tubidin topib ko‘p o‘yu balig‘.

Falakka urub birni daryo suyi,
Yana birni eltib, vale yer quyi.

Kema ahli gohi o‘luk, gah tirik,
Tirik ham yub ul suvg‘a jondin ilik.

Gahikim ul oshub topib nishast,
Bo‘lub tog‘dek mavjlar suvg‘a past.

Qutulib kema ahli ul harbdin,
Kelib ul biri Sharqu bu g‘arbdin.

Yig‘och otlarin bahr aro chopishib,
Ukush ranj ila bir-birin topishib.

Taab ko‘zlarin ashkbor aylabon,
Tengiz ichra gavharnisor aylabon.

Alardin o‘zida biri qolmayin,
Skandar magarkim o‘zin solmayin[13].

Borurlar edi bo‘yla oyin bila,
Gahi sur’atu goh taskin bila.

Bu yanglig‘ o‘tub bir yilu to‘quz oy
Ki, markazga bo‘ldi qazo rahnamoy.

Skandarg‘a bu mujda berdi suro‘sh
Ki: «Yey, odamizodi behudako‘sh!

Hamul yerga yettingki kom aylading,
Husulida yillar xirom aylading».

Qilib raf’ shah ko‘nglidin yosni,
Talab qildi Suqrotu Ilyosni.

Alarg‘a dog‘i bo‘lmish erdi ayon,
Kelurlar edi aylamakka bayon.

Chu aytishtilar, shubha raf’ o‘ldi pok,
Skandar bo‘lub xurramu zavqnok.

Buyurdi safoyinni turg‘uzdilar,
Solib langarin, bodbon buzdilar.

Dedi elgakim: «Siz turung emdi shod,
Qilurmen baringiz bila xayrbod.

Tengiz qa’rini aylab erdim havas,
Topibmen bu soat anga dastras.

Kirarmen murodim tamanno qila,
Havas qilg‘onimni tamosho qila»[14].

Bu yerda rivoyatqa bor ixtilof,
Vale Xusrav[15] etmish munga e’tirof

Ki, bir shisha soz etti sanduqvash,
Guharvor sanduq aro kirdi xush,

Boshin, – dedi, – rust ettilar qir ila,
Tanobe chekib anga tadbir ila.

Tutub berk ul ahli ano bir uchin,
Tugub shishasig‘a yano bir uchin,

Qilib raf’ har vahmu andishani,
Tengiz ichra soldilar ul shishani.

Qolib ul tengiz qa’rida necha oy,
Bo‘lub bahr holin tamoshonamoy.

Chu yuz kun qolib, bahr anga ortibon,
Alar shishasi rishtasin tortibon.

Vale bu rivoyat erur bas mahol,
Vuqu’ig‘a topmas xirad ehtimol.

Yana bir rivoyat dog‘i bordur
Ki, roviylar ollinda muxtordur.

Manga dog‘i ul keldi chun dilpazir,
Qachon bo‘lg‘ay oni demakdin guzir.

Budur ulki, tarixlar noqili,
Ham oni nabi debdurur, ham vali.

Xabar bu sifatdurkim, ul komjo‘y,
Chu bo‘ldi Muhit ichra oromjo‘y,

Riyozat base chekmish erdi tani,
Topib tasfiya xotiri ravshani.

Bo‘lub sayr itmomi topqach maqom,
Ishi ham suluk ichra bo‘ldi tamom[16].

Valoyat maqomida topti o‘zin,
Nubuvvat charog‘i yorutti ko‘zin.

Ko‘zi bo‘lg‘och ul shu’ladin nurluq,
Suv ahlig‘a raf’ o‘ldi masturluq.

Qayon boqti, ko‘rdi nekim bor edi,
Anga borcha maxfiy padidor edi.

Suvu suvdag‘in o‘yla ko‘rdi ayon
Ki, ko‘rgay kishi barkai mohiyon.

Qurug‘luqqa har jonvarkim bo‘lur,
Bashar jinsidin har suvarkim bo‘lur.

Ko‘rundi anga borchasi suv aro,
Nechukkim bular aksi ko‘zgu aro.

Vale anda bor erdi timsol ko‘p,
Qaviy haykalu turfa ashkol ko‘p

Ki, olamg‘a tushsa biri nogahon,
Nazorasidin o‘lgay ahli jahon.

Bolig‘larki bo‘lg‘onda junbushnamoy,
O‘ta olmag‘ay sur’at etsa bir oy.

Vale ko‘p nahang o‘ylakim bo‘yla hut,
Muqarrar anga iki har kungi qut.

Yurub egri xarchang loyiq munga,
Shinovar kashaf ham muvofiq munga.

Skandarg‘a nekim tamanno bo‘lub,
Yuz oncha g‘aroyib tamosho bo‘lub.

Bo‘lub bar ila bahrning shohi ul,
Nubuvvat ramuzining ogohi ul.

Yetib chun bu iqboli jovid anga,
Nimakim emas erdi ummid anga.

Berib xaylig‘a mujdae ul holdin,
Bo‘lub borcha muqbil ul iqboldin.

Bilib xalq shohi muzaffar ani,
Hakimu valiyu payambar ani.

Haroson kelib, yonibon shodmon,
Kema sayridin tinmayin bir zamon.

Kema sur’ati ul sifat tez edi
Ki, janbida gardun garonxez edi.

Xirom ichra andoq bo‘lub poyasi
Ki, hampoylig‘din qolib soyasi.

Iki yilchiliq yo‘lni bir yil surub,
Qo‘yub borg‘on elga o‘zin yetkurub.

Yetib chun elig‘a shahi arjumand,
Bo‘lub vasli birla bori bahramand.

Tutub bir kun ul manzil ichra maqom,
Yana kun yururga qilib ehtimom.

Anga tegrukim aylabon suvni tay,
Saodat bila qo‘ydi sohilg‘a pay.

Su tashviridin jismi betob edi,
Salomat mizojida noyob edi.

Xayolig‘a keldiki – ketmak kerak,
Bu foniy jahon tarkin etmak kerak,

Qilib yelga irsol o‘z dinini,
Tuzub mamlakat zabtu oyinini.

Burunroqki, bo‘lg‘ay ishi iztiror,
Muluki tavoyifqa berdi qaror.

Aningdekki, tuzgan kibi ul muluk,
Qilib yeti yuz yilgacha bir suluk

Ki, ul mulk alarg‘a qolib necha pusht,
Chiqormay alardin sipehri durusht.

Chu ul fikrdin xotirin tindurub,
Kecha-kunduz orom tutmay yurub.

Takovar surub za’fliq tan bila,
Nihon jismi zorig‘a shevan bila.

Qila olmayin kimsa hampoyliq,
Ul aylar edi dashtpaymoyliq.

Tamuz o‘tidin erdi olamg‘a jo‘sh,
Suvlar aylabon qaynamoqtin xurush.

Quyosh tobidin yer aningdek qiziq,
Ki, bittab’ aylab havoni isiq.

Isiq fartidin yer yuzi o‘rtonib,
Kishiga oyoq yerga yetgach – yonib.

Surarga Skandar samandin ravon,
Isiq ayladi jismini notavon.

Mizojining anglabki somoni yo‘q,
Bilibkim, yurumakning imkoni yo‘q.

Turub tushti tafsanda qumloq uza,
Qilib yeldin ohang tufroq uza.

Marazdinki bor erdi jismida tob,
Mizojig‘a solmish edi iztirob.

To‘sholguncha yer – quvvati qolmadi,
Bo‘lub za’fi g‘olib – tura olmadi.

Tushub erdi bir ko‘ha, ochti ani,
Uzoldi hamul ko‘ha uzra tani.

Chu behad qizimish edi ul yobon,
Birov qildi qolqon bila soyabon.

Magar aylagon ul sipahdorliq,
Qilib erdi qolqonni zarkorliq.

O‘qub erdi shah tole’ ahkomida
Ki, oning hayotining anjomida:

Temurdin yer, oltundin o‘lg‘ay samo,
Anga bo‘lg‘ach ul iki suratnamo

Ki, arzi temur, charxi oltun erur,
Yaqin bildikim, ish digargun erur.

Ko‘zidin to‘kub ashk qayg‘u bila,
Ilik yuvdi jonidin ul su(v) bila.

Ketur soqiyo bodau, qo‘y nizo’,
To‘lo tut manga sog‘ari alvido’.

Dame mug‘tanam angla mayxonani
Ki, to‘ldurg‘usi charx paymonani.

Mug‘anniy, chekib nag‘ma, qil bizni shod,
Kerak bo‘lsa ul nag‘mai xayrbod.

Agar munglug‘ istar esang anda bayt,
Navoiyning oshufta nazmidin ayt!

Navoiy, topib soqiyi mohvash,
Yonida aning mutribi nag‘makash.

Bo‘lub mast, yod etma ogohliq,
Agar istar ersang dame shohliq.

LXXVII

Jahon bazmi soqiylari hayosizlig‘idakim, umr sog‘arig‘a ajal zahri quyarda g‘ofil bila ogoh aro tafovut ko‘rmaslar va umr bog‘i so’ilari vafosizlig‘idakim, hayot shoxini ajal tig‘i bila qat’ etarda

gado bila shoh aro farq bermaslar va olami xokdin etak silkarga ish’or va bu vartai halokdin ilik tortarg‘a irshod

Jahong‘a chu yo‘qtur baqo, ey ko‘ngul,
Tama’ qilma andin vafo, ey ko‘ngul.

Jahon nedurur – bir ulug‘roq kesak,
Yiroq tortqil ul kesakdin etak

Ki, bor ul kesak suv ichinda g‘ariq,
Olib o‘rtag‘a oni bahri amiq.

Erur oning uch rub’i daryo sori,
Yana rub’i keldi sudin toshqori.

Nekim suv aro topti poludaliq,
Yetak topmag‘ay andin oludaliq.

Hamul rub’ikim bahrdin keldi fard,
Yerur mumkin andin zamiringg‘a gard.

Bu balchig‘ bila gard aro qilma xo‘y,
Bo‘l aning firoqi sori garmpo‘y

Ki, kirgan bu bolchiqqa imkon emas,
Kishi botsa chiqmog‘lig‘ oson emas.

Hamul gard aro kimki qo‘ydi ayog‘,
Ne ko‘z qoldi oshubidin, ne dimog‘

Ki, Bahrom anga bottiyu chiqmadi[1],
Qiyomatqacha yottiyu chiqmadi.

Munga dog‘i Kayxusrav o‘lg‘och nihon,
Yana topmadi oni ahli jahon.

Qayu shahki oldi jahon kishvarin,
Tasarruf qilib bahru kon zevarin.

Ham oni jahon dardnok ayladi,
Ne bergonni olib, halok ayladi.

Kishikim, bu ma’nig‘a da’vosi bor,
Yiroq yerga bormoq ne ma’nosi borg‘

Qayu shah nechukkim Skandar edi,
Hakimu valiyu payambar edi.

Qayu ishga ilgi uzoldi ekin
Ki, ul bermayin dast, qoldi eking‘

Ne iqlim azmig‘a chekti sipoh
Ki, fath o‘lmadi bo‘lmayin kinaxoh.

Ne dasht uzrakim tuzdi saffi nabard,
Chiqordi adu xaylidin ko‘kka gard.

Bular xud erur shohlarning ishi,
Yana ishki qilmaydur andoq kishi.

Kayumars davronidin to bu davr
Ki, keldi muluk ichra har guna tavr.

Vale necha ishkim anga berdi dast,
Yana shohlarg‘a emas erdi dast.

Biri yeti iqlim fathi tamom
Ki, bu rub’i maskun uza surdi gom.

Chu yoydi saropardai shavkatin,
Yeti arsada choldi besh navbatin.

Yana chunki azm oshkor ayladi,
Nahangona fathi bihor ayladi.

Olib yeti daryoyi zoxirni ham,
Yana o‘n iki ming jazoirni ham,

Yana chekti ya’juj ollig‘a sad
Ki, sharh ichra ojizdur andin xirad.

Yana tuzdi bo‘lg‘och sipehrozmo,
Suturlobu mir’oti getinamo.

Yana qildi chun ilm anga bo‘ldi qism,
Jahon mulkida ko‘p ochilmas tilism.

Yana muncha bemislu dono hakim,
Ki, bo‘ldi anga borcha yoru nadim.

Bilik avji fikratlari manzili,
Bori ollida hal falak mushkili.

Jahon ichra mundoq topib shohliq,
Nechuk shohliq, donishogohliq.

Valoyatdin ilgida quvvat dog‘i,
Nechukkim valoyat, nubuvvat dog‘i.

Qachon odamiy bo‘yla ma’hud emish,
Kishi qayda bu nav’ mavjud emish.

Anga qilmadi davri gardun vafo,
Jafo birla ham qilmadi iktifo.

Jafo elni bistarg‘a solmoq bo‘lur,
Firoshi uza jonin olmoq bo‘lur.

Yo‘q ul elki bo‘lg‘ay base arjumand,
Necha dog‘i bor ersa xoru najand.

Ajal uyqusig‘a bo‘lurda asir,
Bo‘lur jismi bistarda oromgir.

Skandarni ko‘rkim, bu dam charxi dun
Ki, qildi ajal uyqusig‘a zabun.

Faras chopturub dasht ila tog‘ uza,
Yiqibdur tanin tiyra tufrog‘ uza.

Necha vaqt aylab vatandin judo,
Anou necha siymtandin judo.

Bular borcha mahbubu payvand ham,
Demaykim bular, necha farzand ham.

Tay etgan zamon dashtu bahri firoq
Ki, ko‘nglida tug‘yon solib ishtiyoq.

Ani vasl zavqi navidi bila,
Solib po‘yag‘a kom umidi bila.

Bo‘lur chog‘da umididin komyob,
Solib jonig‘a marg o‘ti birla tob.

Qilib qasdi jon kinaxohi kibi,
Qiziq qum uza toba mohi kibi.

Ne boshida bir munisu mahrame,
Ne ollida bir mushfiqu hamdame.

Solib dasht aro notavonu alil,
Olur xasta jonini zoru zalil.

Davo qilmayin hech darmon bila,
Qilur qatl yuz dardu armon bila.

Qayu birdakim hushu xibratdurur,
Bu ish olam ahlig‘a ibratdurur.

Angakim jahon komin aylar havas,
Bu afsona tanbehi o‘lguncha bas.

LXXVIII

Luqmon hikoyatikim, jahon mutaallaqotidin ganjdek bir buzug‘ni ixtiyor etti va ming yildin so‘ng sipehr ajdahosidin anga ham oseb yetti

Yeshittimki, Luqmong‘a davron aro,
Sukun erdi bir kunji vayron aro.

Buzug‘ni makon aylab andoqki ganj
Topar erdi issig‘, sovug‘ bo‘lsa ranj.

Yog‘in yo gunashdin ul oromgoh,
Aning jismig‘a bermas erdi panoh.

Yoshi mingga yetguncha erdi bu hol,
Birov qildi hayrat yuzidin savol

Ki: «Yorutub yer yuzin donishing,
Nedin yo‘q jahon ayshi birla ishingg‘

Vatan aylamay turfa koshonae,
Qilibsan makon kunji vayronaeg‘»

Javob aytti piri omuzgor
Ki: «Vayrona ichra uzun ro‘zgor,

Bu kim chug‘z yanglig‘ basar ayladim,
Sog‘indimki, daf’i zarar ayladim

Ki, chun qilmadim mayl olamg‘a hech,
Meni ul dog‘i solmag‘ay g‘amg‘a hech.

Muni ko‘rki, davrondin eltur chog‘i,
Olur mendin ushbu buzug‘ni dog‘i.

Chu oxir adam sori qo‘yg‘um qadam,
Manga bordur ortug‘ bu vayrona ham.

Jahondin necha el haroson erur,
Aning ranjidin maxlas oson erur»[1].

LXXIX

HIKMAT

Bir soil savoli Luqmondin ul bobdakim, muncha ilmingga bois kim erkin va bizga andin xabar bergin va aning jahl ahlig‘a ishorati va aksin tutar bashorati

Ham andin birov so‘rdi bu nav’ so‘z,
Ki: «Ey ravshan etgan bilik birla ko‘z!

Chu asringda yo‘q erdi andoq kishi
Ki, sen chog‘liq o‘lg‘ay aning donishi.

Bas, ushbu qadar donishi behisob,
Degil kimdin o‘ldi sanga iktisobg‘»

Dedi: «Donish ahlig‘a aylanmadim,
Bilikni bilur eldin o‘rganmadim.

Jahon ilmi bukim manga yod erur,
Anga borcha jahl ahli ustod erur.

Nekim qildi johilki, erdi yomon,
Tutub aksi, toptim yomondin amon.

Jahon ahlig‘a chun shior o‘ldi jahl,
Yerur borchaning aksini tutqon ahl».

Deding chun jahon ahli, ey hushyor,
Jahon tarki avval kerak ixtiyor.

Kishi bo‘lsa bu ganj ila komyob,
Ne tong bo‘lsa oromgohi xarob.

Jahon tarkidur shodlig‘ boisi,
Xarobidur obodlig‘ boisi.

LXXX

Iskandarning noldek marg pecho-pechida onasig‘a azo man’i uchun noma yozmog‘i va andin so‘ngra hayoti nomasin qazo novardida qilmog‘i va xayli aning na’shin Iskandariyag‘a naql qilmog‘lari va onasig‘a ul noma yetib, na’shqa o‘tru chiqqoni va o‘g‘lin tufuliyatda mahd ichra uyqu uchun navozish qilg‘ondek na’shi mahdi ichra dog‘i uyg‘onmas uyqusida navozish qilmog‘i va ko‘ksi chokidek yer ko‘ksin dog‘i chok etib Ani tufroqqa topshurg‘oni

Muarrixki, bu nuktada surdi so‘z,
Bu yanglig‘ nihoyatqa yetkurdi so‘z

Ki, chun shahg‘a ul ishdin o‘ldi vuquf,
Hayoti quyoshig‘a yetti kusuf.

Yaqin bildikim, keldi ketmak chog‘i,
Jahon, balki jon tarkin etmak chog‘i.

Bu yanglig‘ qatig‘ kunda doroi dahr,
Ajal jomidin aylab oshomi zahr.

Anosi chu yodig‘a tushti aning,
Ajab o‘t nihodig‘a tushti aning.

Ko‘zin ochibon elga aylab nigoh,
Ajal yelidek chekti bir sovug‘ oh.

Dabir istadi, safhau xomae,
Anosig‘a yozmoq uchun nomae.

Ki, kog‘az uzorin qaro aylagay,
Vasiyat ishin mojaro aylagay.

Dabiri guharsanji chobukraqam,
Ochib sahfai dard, chekti qalam.

Anga nuktalarkim Skandar dedi,
Raqam qildiyu ul bu yanglig‘ edi.

Ki, bu safhakim nomai dard erur,
Raqam anda hangomai dard erur.

Birov hamdidindur bidoyat anga,
Ki, yo‘q ibtidou nihoyat anga.

Mufizi ato, balki xalloqi jud,
Xaloyiqqa bergan adamdin vujud.

Badan ichra jon javharin solg‘uchi,
Yana oxir o‘z berganin olg‘uchi,

Tengiz ichra itgonga ham rahbar ul,
Biyobonda o‘lgonga ham yovar ul.

Gadolig‘ni shahlig‘din etgan aziz,

Jahon shahlari ollida bir pashiz.

Aningkim mizojin alil aylabon,
Biyobonda zoru zalil aylabon.

Qazosidin o‘lg‘onda ogohlig‘,
Asig‘ qilmayin hashmatu shohlig‘.

Nihon har qazosida hikmat base
Ki, bilmay qilib aql fikrat base.

Taolilloh, ul Sone’i Zuljalol
Ki, ham lam-yazal keldi, ham lo-yazol.

Chu Haq shukru hamdin ado aylabon,
Vasiyat bu nav’ ibtido aylabon

Ki: «Mendinki, yo‘q mendek ozurdae,
Ajal xayli ilgida pajmurdae.

Sangakim, buzulg‘on tanim jonisen,
Vujudum samin la’lining konisen.

Budur so‘zki, ko‘p furqating istadim,
Yiroqliq bila mehnating istadim.

Boshimg‘a tushub harza andeshae,
Dedim olam ochmoq erur peshae.

Ne qilg‘on xayolim bori xom emish,
Havas jomi ko‘nglumga oshom emish.

Kerak erdi, to kirdi mag‘zimg‘a hush,
Xirad toki soldi dimog‘img‘a jo‘sh.

Demon qilsam erdi o‘g‘ulluq sanga,
Qabul aylasam erdi qulluq sanga.

Sanga aylabon xoki dargohliq,
Aning otin aytsam edi shohliq.

Ul iqbolima charx bo‘ldi hasud,
O‘lar chog‘da o‘ltursam o‘zni ne sudg‘

Rizong o‘lmasa ko‘ngluma g‘amzudoy,
Bu darmondag‘a voyu yuz qatla voy!

Necha tutmadim hukmu amringni pos,

Tut albatta sen pos, bu iltimos!

Hamul damki, yetgay bu nomam sanga,
Bilingay o‘qub naqshi xomam sanga.

Yaqinkim bo‘lub paykaring rez-rez,
Hayotingg‘a tushgay ajab rustaxez.

Chu sensen jahon ahli donandasi,
Ulusning vasiyatrasonandasi.

Kerak har ne ollimg‘a yozdi qazo,
Sanga ham ayon bo‘lsa mendek rizo.

Ko‘ngul mendin uzmak ishin chog‘lasang,
Chu uzdung, ani Tengriga bog‘lasang.

Yuzung koj ila qilmasang mushkrez,
Soching birla mushk uzra kofurbez[1].

Tuzub navham ohangida mojaro,
Jahon qilmasang g‘am tunidek qaro.

Quyoshdek iching so‘znok etmasang,
Yoqong o‘ylakim subh chok etmasang.

Sarig‘ yuz uza qilmay oq sochni fosh,
Shuo’i xututin nechukkim quyosh.

Xarosh etmasang yuz yanolar kibi
O‘g‘ul motamida anolar kibi.

Agar sabrg‘a bo‘lmasa toqating,
Bu ishga vafo qilmasa quvvating,

Uluq jashn qilg‘il qilib ehtimom,
Tuzat hadsiz anda mulavvan taom.

Munodi qilib borcha atrofqa,
Xabar aytib arzolu ashrofqa,

Yig‘ib kishvar ahlini ayvoninga,
Yig‘ilg‘onni o‘lturtqil xoninga.

Chu ul davra yetkurdi bir-birga bosh,
Degil, tortsunlar el ollinda osh.

Yoyilg‘och ulus ollida at’ima

Ki, tutqay bori jashn ichin yer nima.

Degilkim, munodi ul elga desun
Ki: «Ul kimsa bu oshlardin yesun.

Ki, bu ko‘hna dayri kuhan toq aro,
Anga bo‘lmag‘ay kimsa tufroq aro».

Nazar qil bu so‘zni degach xoninga
Ki, kimsa sunarmu ilik noninga?

Uzotsa birov ul yemaklarga qo‘l,
Mening so‘guma sen ham ozurda bo‘l.

Va gar kimsa qo‘l sunmasa har taraf,
Yemak shug‘lini qilsalar bartaraf.

Bu ma’lum o‘lurkim, yo‘q ermish birav
Ki, tufroq aro yo‘q kishisi garav.

Bilingachki bu nav’ emish ro‘zgor,
Ul ishdin o‘zungga bo‘l omo‘zgor.

G‘amimda alam huznidin fard bo‘l,
Bori olam ahlig‘a hamdard bo‘l.

Necha sarvaru baxti farxundasen,
Alar bandadur, sen dog‘i bandasen.

Kerak bandag‘a ish sarafkandalik,
Ne Haqdin kelur aylamak bandalik.

Nekim Haq rizosi, rizomand bo‘l,
Qazo har nekim qilsa, xursand bo‘l.

Men ar yaxshi erdim va gar xud yomon,
Xirom ayladim umr bermay amon.

Qo‘lumda agar naqd maqsud emas,
Pushaymonlig‘imdin vale sud emas.

Sanga bo‘lsa bir necha kun muhlate,
Ravo ko‘rma Haq yodidin g‘aflate.

Gahi lek farxunda avqot aro
Ki, bo‘lg‘ung shuhud ichra toat aro.

Bu o‘lgan g‘aribingni yod aylagil,

Duo birla ruhini shod aylagil».

Skandar chu maqsudin etti tamom,
Chekildi varaq kunjiga: «vassalom».

Berib pech, topshurdi maktubni,
Ayon qildi ko‘ngliga matlubni

Ki: «Qilmay tavaqquf, tunu kun surung,
Anomg‘a bu maktubni yetkurung.

Bu damkim uyoqib manga oftob,
Yopilg‘ay quyoshimg‘a mushkin sahob.

Boshim uzra ko‘p iztirob aylamang,
Jahonni azodin xarob aylamang.

Manga na’sh ichinda maqom aylangiz,
Demay kecha-kunduz xirom aylangiz.

Qiling naql jahdu jidd aylab bori,
Skandarni Iskandariya[3] sori.

Tiriklikda ul yer edi ma’manim,
O‘lum vaqti ham aylangiz madfanim.

Vale qilsangiz na’sh aro ustuvor,
Hamul lahza zinhoru yuz zinhor:

Chiqoring bir ilgimni tobutdin,
Hamul nav’kim – rishta yoqutdin

Ki, el solib ul sori hayrat ko‘zi,
Ne hayrat ko‘zi, balki ibrat ko‘zi:

«Bu panjaki, barmog‘lari chekti saf,
Jahonni jahon ahlidin urdi kaf.

Kafi ichra oldi jahon kishvarin,
Baru bahrning la’l ila gavharin.

Chu urdi ajal ilgi tabli rahil,
Baqo bo‘ynig‘a soldi habli rahil[4].

Jahondin shal ilgi misoli borur,
Nechukkim, chinor ilgi xoli borur.

Angakim, madadkor bo‘lg‘ay bilik,

Jahon shug‘lidin bori chekkay ilik».

Bu yerlarga yetkurdi chun shah so‘zin,
Tugandi so‘zi, dog‘i yumdi ko‘zin.

Olib erdi chun mulki foniyni jazm,
Baqo mulkini olg‘ali qildi azm.

Solib tan tilismini tufroq uza,
Havo qildi bu charxi nuh toq uza.

Chu ko‘k sori yerdin safar ayladi,
Yeru ko‘kni zeru zabar ayladi.

Ajal sarsari bo‘ldi getinavard,
Qaro qildi olam yuzin tiyra gard.

Nigunsor o‘lub xisravoniy daraxt,
Tushub yerga toj, o‘ldi yuz pora taxt.

Qarosin nigin yuzda fosh ayladi,
Yuzin ham sarosar xarosh ayladi.

Uzub hikmat avroqini tundbod,
Kutub uchtiyu elga qoldi savod.

Kutubdek kiyib hikmat ahli qaro,
Tushub ilm yanglig‘ siyohi aro[5].

Falakkim, ul ish bemadoro qilib,
Qiyomat kunin oshkoro qilib.

Nedinkim bo‘lub bir jahon xalqi ur,
Solib noladin dahr aro nafxi sur.

Bu yanglig‘ qiyomatki, nogah tushub,
Chiqib ko‘kka arzu falak tah tushub[6].

Chu yer topibon charxmiqdorliq,
Topib yona ko‘kdek nigunsorliq.

Falak birla yer sarbasar chayqalib,
Dema chayqalib, borchasi qo‘zg‘alib.

Hamul dam chiqib chun arodin amon,
Hamono yana ko‘rmay oni zamon.

Ko‘rub el bu yanglig‘ falak javrini,

Uchurguncha oshubdin havrini.

Zalilona g‘avg‘ou faryod etib,
Chu shahning vasiyatlarin yod etib.

Yana tarki ohu fig‘on aylabon,
Ne hukmeki shohi jahon aylabon.

Hamul nav’ etib na’shi tartibini,
Degandin fuzun ziynatu zebini.

Mahofa aro aylabon oni rust,
Qadam qo‘ydilar shah degan sori chust.

Burunroq kishi eltibon nomani,
Onosig‘a arz etti hangomani.

Onosi chu voqif bo‘lib holdin
Ki, ne Rustam ayrilmish ul Zoldin.

Ketib mag‘zidin fahmu hushu xirad,
Qolib ruhsiz bir quruq kolbad.

Tilab ko‘ksini chok-chok aylamak,
Ul anduhdin o‘zni halok aylamak.

Vale chun boqib noma mazmunig‘a,
Tasalli berib joni mahzunig‘a.

Bilibkim Skandar nekim yozdi pand,
Yeshitmaklik oni erur sudmand.

Va lekin o‘zin zabt eta olmayin,
Vasiyat boshig‘a yeta olmayin,

Tilab oh o‘tidin jahon o‘rtagay,
Jahon yo‘q, to‘quz osmon o‘rtagay.

Yana aylabon shah so‘zi posini,
Nihoniy ichib zahrlar kosini.

Hamul dard o‘tidin nihon o‘rtanib,
Ki, pinhon o‘tidin jahon o‘rtanib.

Kuyub jismida puda raglar dog‘i,
Bo‘lub kul qurug‘on so‘ngaklar dog‘i.

Anga bo‘yla holatki yetti guruh,

Qaro ostig‘a qolibon dashtu ko‘h.

Qo‘yub shah na’shin bo‘yunlarg‘a xayl,
Qilib har qadam yo‘lda jonlar tufayl.

Chu fahm etti ul ishni ismatpanoh,
Ichi barqidin chekti bir o‘tluq oh.

Aso tutti, dog‘i belin bog‘ladi,
Tushub yo‘lga gardun ichin dog‘ladi.

Sitamdidalardek qadam olibon,
Uyotdin falak bosh quyi solibon.

Alarkim ko‘rub ul qaro kun anga,
Bori navha aylab, chekib un anga.

Yiroqtin ko‘rub o‘g‘li tobutini,
Uzub charx aning umrining qutini.

Falakdin ko‘rub xalq ul nav’ rev,
Malak zumrasi ichra solib g‘irev.

Chu tobutqa yetti tojur-rijol,
Dedi un chekib zoru oshuftahol

Ki: «Xush kelding, ey mehmoni aziz
Ki, qurboning ushbu qarig‘on kaniz!

Sanga loyiq ermas edi bu saroy
Ki, bo‘ldung qo‘yub bizni, g‘urbatgaroy.

Ne loyiqki qilg‘ay makon nuri pok,
Bu dayr ichrakim aslidur tiyra xok.

Munavvar qilib ravza bo‘stonini,
Yoruttung maloyik shabistonini.

Xirad ollidakim muhosibdurur,
Bu ish xud bu yanglig‘ munosibdurur.

Sanga gar bu suratda erdi surur,
Sururungg‘a bizdin rizodur zarur.

Manga lek zulm o‘ldi aflokdin,
Sari’anjumu dahri bebokdin

Ki, azm etmadim yo‘lg‘a sendin burun,

Yasarg‘a sanga jannat ichra o‘run[7].

Ajab la’b ko‘rguzdi af’oli charx
Ki, xurshid uyoqti, qolib zoli charx[8].

Bu kunni agar qilsam erdi xayol,
Meni ul dam o‘lturgay erdi malol.

Bu ish tushta gar jilva qilg‘ay edi,
Hamul lahza zahram yorilg‘ay edi.

Qazodin bu ish keldi chun jonima,
Bu seli balo jismi vayronima.

Bu shiddat aro ham yo‘q erdi g‘amim,
Agar bo‘lsa erdi ayon motamim.

O‘kursam edi oq sochimni yoyib,
Kelib goh o‘zumga, gahi sustoyib.

Yuzumdin o‘yub toza pargolalar,
Ochib za’faronzor aro lolalar.

Yaqo chokiga dast topsam edi,
Qaro kiz osib tanni yopsam edi,

Chekib nola ul nav’kim nafxi sur,
Falak javfig‘a solsam erdi futur.

Berib na’shing ollinda joni zaif,
Solib jisming ustiga jismi nahif.

Falak zulmidin xoli aylab ko‘ngul,
Ano borsa erdi nechukkim o‘g‘ul.

Va lekin budur dardi joni manga,
g‘amu mehnati jovidoni manga

Ki, motam tutub shayn yeta olmadim,
Berib jon, so‘ngungcha yeta olmadim

Ki, sendin burun yetti nomang manga,
Raqam aylagan naqshi xomang manga.

Ne ishlarki aylab eding iltimos,
Zarur erdi tutmoq hadisingni pos.

Uqubat agar torttim beadad,

Yeshitmasga hukmung va lekin ne hadg‘

Emas erdi xoqonu qaysar so‘zi
Ki, ul noma erdi Skandar so‘zi.

Tanim durjig‘a pok gavhar qanig‘
Baru bahr shohi Skandar qanig‘!»

Bu oyin ila ul bo‘lib nuktarez,
Xaloyiq ichiga tushub rustaxez.

Kelur erdilar tortib afg‘onu oh,
Anga tegrukim shahg‘a oromgoh.

Chu ul tanni madfang‘a yetkurdilar,
Degil ruhni tang‘a yetkurdilar.

Qilib tiyra tufroq bag‘rin xarosh,
Yoshurdilar ul tufroq ichra quyosh.

Erur rasm ushbu kuhan toq aro,
Quyosh botmog‘i tiyra tufroq aro[9].

Ko‘mub tiyra tufroqqa ravshan tanin,
Yasab yuz tuman zeb ila madfanin.

Sipehr atlasin qabrpo‘sh ettilar,
Necha kun fig‘onu xuro‘sh ettilar.

Ham oxir ko‘ngulni bori tindurub,
Ko‘ngulda havas xorini sindurub.

Fig‘on necha aylab, navo topmayin,
Ul ozurdaliqqa davo topmayin.

Tutub borcha oyini xursandliq,
Qazo hukmig‘a sabrpayvandliq.

Ayoqchi, ichim keldi g‘amdin batang,
Keturgil to‘lo sog‘ari lolarang.

Ki, chun bo‘lsa oni sumurmak manga,
Ish o‘lg‘ay hamul dam o‘kurmak manga.

Mug‘anniy, kelu navha ohangi tuz,
Buzug‘ ko‘nglumizni yana dog‘i buz

Ki, ham motamiy qildi, ham g‘amzada,

Firoq ichra bizni bu motamkada.

Navoiy, jahondin vafo istama,
Tutub benavolig‘, navo istama!

Birovga jahondin yetishmas ano
Kim, ul tutsa oyini faqru fano.

LXXXI

Yeti hakimning Iskandar onasig‘a azo tekurgali kelmaklari va har birining duo va sano gulruxlarig‘a o‘zga iborat debolari libosi kiydurub jilva bergoni va tahsin va ofarin mahvashlarig‘a o‘zga alfoz gavharlari zevarin toqqoni va ul dog‘i yeti falak qoshida dahr zolidek o‘zni past tutb, alarg‘a ma’zirat oshkor qilg‘oni

Bu motamsaroy[1] ichragi navhagar,
Teshar elga bu navha birla jigar

Ki, Iskandar etti chu qat’i hayot,
Anosig‘a bo‘ldi qaro koinot.

Nechukkim vasiyat yozib erdi shoh,
Amal qildi Bonuyi iffatpanoh[2].

Ishe qildikim, hargiz ul nav’ ish,
Jahon ahlidin hech kim qilmamish.

Bo‘lub voqif ul ishdin ahli yaqin,
Qilib har biri yuz tuman ofarin.

Bori keldilar motamin so‘rg‘ali,
Nihoyatdin afzun g‘amin so‘rg‘ali.

Hamul shohi mag‘furning madfani,
Bo‘lub erdi tun-kun aning maskani.

Chu Bonuyi dahr o‘ldi dono anga
Ki, yuz qo‘ydi ul yeti daryo anga.

Hamul qavm ihzorig‘a berdi bor,
Qilib yumni maqdamlarin e’tibor[3].

Yeti bahr bo‘lg‘och ayon nogahon,
Falakdek taharrukka tushti jahon.

Ayog‘ uzra hurmatlarig‘a turub,
Borin bir-bir o‘lturtubu o‘lturub.

Alar chunki bir lahza topib sukun,
Filotun dedi borchasidin burun

Ki: «Bonuki davrondin ogoh erur,
Bilik ichra davr ahlig‘a shoh erur.

Anga hojat ermas bizing pandimiz,
Hamul nuktai sabrpayvandimiz.

Nedinkim, erur a’qali ro‘zgor,
Xaloyiqqa aql ichra omo‘zgor[4].

Vale bir duodin emastur guzir
Ki, borbiz anga barcha farmonpazir.

Guhar cho‘msa daryog‘a bo‘lsun hayot,
Quyosh botsa gardung‘a yetsun sabot[5].

Ne hojatki, biz bo‘lg‘abiz sabrxoh
Ki, sabr aylamakni yozib erdi shoh.

Nekim shah vasiyatda ko‘rguzdi pand,
Borin bo‘ldi andin fuzun korband[6].

Bukun uldurur olam ahlida fard,
Demay sherzan, balki yuz sheri mard

Ki, andoq o‘g‘ul andin oldi qazo,
Qazog‘a ayon etmadi juz rizo.

Umid ulki bu dardu anduhning,
Xudo muzdin etgay ayon birga ming».

Tugatgach Filotuni dono payom
Ayon qildi Suqrot mundoq kalom

Ki: «Yey yeti iqlim Bonusisen,
Xirad shaxsi zonu-bazonusisen.

Sanga g‘oyib ar bo‘ldi ozoda shoh,
Bori holinga hozir o‘lsun Iloh.

Anga oqil o‘lg‘ay nasihatpisand
Kim, ul aqldin bo‘lmag‘ay bahramand.

Qazodin ne kelsa rizo bermagay,
Rizo ham nechukkim, sazo bermagay.

Ayog‘ig‘a sonchildi ersa tikan,
Bo‘lub ohdin ko‘kka novakfikan.

Nasimiki zaylig‘a yetkursa gard,
Aning dardidin tortqay ohi sard.

Va lek ul kishikim xiradmanddur,
Nekim Tengridin kelsa xursanddur.

Sening bu tariqing erur barkamol
Ki, Haq bermasun donishingga zavol».

Tugandi chu Suqrotning hikmati,
Yetishti Balinosning navbati.

Duo qildi og‘ozi ta’zim ila,
Tikib ko‘zlarin yerga taslim ila.

Duo xatm etib, dedi bu so‘z yano
Ki: «Yeti ato birla bu to‘rt ano[7].

Seningdek topa olmay ogoh qiz
Ki, dahr o‘lmasun sendek ogohsiz.

Bori elga bu so‘zga bor ittifoq
Ki, dushvor erur dardu dog‘i firoq.

Bu dard ichra ulkim jaza’korroq,
Rizo bermagan dardi dushvorroq

Ki, avval rizo naqdi bo‘lg‘ay talaf,
Musibatning ajri dog‘i bartaraf.

Sening royinga nuri tahqiq erur,
Haq ehsonidin oncha tavfiq erur

Ki, shoyista ishga qilursen shuru’,
Ne shoyista ermas, etarsen ruju’».

Balinos chun so‘zni qildi ado,
Yana etti Buqrot so‘zi ibtido

Ki: «Yey g‘ussa oshomida Qofi hilm,
Sening zotinga sodiq avsofi hilm

Chu sabring kamandin Haq etti uzun,
Anga har dam o‘lsun uzunluk fuzun.

Muni bilki, har neki bor junbushi,
Nihoyatqa yetgach sukundur ishi.

Topar go‘y chavgondin ildomliq,
Va lekin bo‘lur oxir oromliq.

Yo‘q ul go‘ykim, gunbazi garmpo‘y
Ki, sargashtadur tun-kun andoqki go‘y.

Munga dog‘i bir kun qaror o‘lg‘usi,
Qaror ichra beixtiyor o‘lg‘usi.

Bulardin biri angla odamni ham,
Ne odamki, bal ahli olamni ham.

Angakim azaldin xirad yordur,
Bu ish fikratig‘a madadkordur.

Seni yuz tuman shukrkim, Kirdigor
Xirad ganjidin ayladi komgor».

Chu Buqrot harfig‘a itmom edi,
Duo birla donanda Xurmus dedi

Ki: «Yey, gulsiz o‘lg‘on xazondida bog‘,
Yorug‘ nuridin ayru tushgan charog‘.

Bilursenki ochilsa bog‘ ichra gul,
Uzar bog‘bon oxir andin ko‘ngul.

Nechakim charog‘ o‘lsa majlisfuruz,
Ham oxir bo‘lur oqibat tiyraro‘z.

Chu bu nav’ erur dahr xosiyati
Ki, bo‘lg‘ay parokanda jam’iyati.

Munga iztirob aylamak sud emas,
Demay sudkim, juz ziyonbud emas.

Sanga Tengri chun berdi donandaliq,
O‘zungga nasihat rasonandaliq

Demak pand – tahsili hosildurur,
Degandin xirad naqshi zoyildurur»[8].

Chu Xurmus dedi so‘z, bo‘lub xokbo‘s,
Ravon boshladi nukta Farfunyus

Ki: «Yey, hikmat oyinidin bahramand,
So‘zung gavharu gavharing arjumand!

Bukun sensen ul bahru koni shigarf
Ki, bo‘lmish duru gavharing bartaraf.

Vale qaysi daryo yaratmish Xudo
Ki, ul bo‘lmadi o‘z duridin judo.

Yana qaysi konkim, mag‘ok o‘lmadi,
Borib gavhari, bag‘ri chok o‘lmadi.

Erur sunnatullohu rasmi qadim,
Bilurda sening dog‘i misling adim[9].

Xirad, o‘yla qilmish seni arjumand
Ki, fe’ling erur barcha bixradpisand.

Sangakim bu Haqdin mavohibdurur,
Bu ne’matqa ko‘p shukr vojibdurur»[10].

Chu Farfunyus etti irshodini,
Arastu qilib nukta bunyodini.

Ayon aylabon nuktai dilxarosh,
Der erdiyu ko‘zdin to‘kar erdi yosh

Ki: «Bu vajhdin durfishondur ko‘zum
Ki, deyolmonu, bordurur ko‘p so‘zum.

Sanga pand bermak emas dilpisand,
Keraktur manga yuz kishi bersa pand.

Vale men chu ermon nasihatpazir
Ki, hushumni savdo qilibdur asir.

Der erdimki dardu g‘amingni so‘ray,
Bu poyoni yo‘q motamingni so‘ray.

Netaykim, so‘rardin tilim loldur,
Zamirim, bas oshufta ahvoldur.

Bu g‘amda madad qildi Bonug‘a Haq
Ki, olmoq kerak barcha andin sabaq

Ki, bizlarcha ham iztirob etmadi,
O‘zin dard o‘tig‘a kabob etmadi.

Ichi g‘unchadek tah-batah qon bo‘lub,
Vale xalq aro og‘zi xandon bo‘lub.

Ne hukmi qazog‘a bo‘lub nosipos,
Ne Haq lutfu judig‘a haqnoshinos.

Demas so‘z tiliga murur etmayin,
Xayolig‘a balkim xutur etmayin

Ki, Haq ortug‘ etsun bu iqbolini,
Humoyun qilib har nafas folini».

Chu hush ahli Bonu g‘amin so‘rdilar,
Dimog‘ini hushig‘a kelturdilar.

Qilib xotiroso fusunu dami,
Nihon yoralarg‘a qo‘yub marhami.

Aning bo‘yla marham topib yorasi,
O‘ziga kelib hushi ovorasi.

Alar uzrig‘a bo‘ldi afsonasanj,
Yeti kon uza bir buzug‘ to‘kti ganj[11].

Ki: «Mendin bu motam erur sizga ko‘b,
Skandar g‘ami bordurur sizga jo‘b

Ki, holoti sizlarga ma’lum edi,
Kamoloti sizlarga mafhum edi.

Safar ichra siz erdingiz yor anga,
Hazar ichra siz yoru g‘amxor anga.

Demasmenki, ul bor edi shohingiz,
Rafiq erdi andoqki dilxohingiz.

Baringiz anga oshkoru nihon,
Ko‘p ortug‘roq erdiki iki jahon.

Chu ul yoringiz bordi, g‘amginmusiz,
Aning hajrida motamoyinmusiz

Ki, Haq bu g‘amingizni raf’ aylagay,
Qatig‘ motamingizni daf’ aylagay.

Skandardin ar borchamiz fardbiz,
Vale bir-birimizga hamdardbiz.

Bu ish bo‘lg‘ali qilmadim so‘z havas,
Takallum qilib urmadim bir nafas.

Dedim umrdin to tanim topsa qut,
Qo‘yay so‘zdin og‘zimg‘a muhri sukut.

Chu sizdin ayon bo‘ldi hamdardliq,
Yemas yaxshi hamdarddin fardliq.

Meni soldingiz so‘zga beixtiyor
Ki, hamdard o‘lub so‘zga ne ixtiyor».

LXXXII

Ul ilgi kesilganning hikoyatikim, qo‘lig‘a tuhmat tig‘i dastburd ko‘rguzdi v aul hamdardlarig‘a yetgach, dastandozlig‘ bila navha tuzdi

Eshittimki, bor erdi bir notavon,
Falak zulmidin qismi ranju havon.

Yana dast berdi ajab shiddate,
Qo‘lin kestilar aylabon tuhmate.

Chu bu zulm anga o‘tti, dam urmayin,
Nafas el bila beshu kam urmayin.

Kesuk ilgin oldi butun qo‘lg‘a, bot
Yugurdi xaloyiqqa beiltifot.

Bu ishtin bo‘lub voqif ahli dile,
Yerishti ichiga tushub mushkile.

Yiroqdin qilur erdi hamrohliq
Ki, ul ramzdin topqay ogohliq.

Chu mazlum chiqti ulusdin qiroq
Ki, chiqmoq ulusdin qiroq yaxshiroq.

Borur erdi andoqki devonae
Ki, nogah padid o‘ldi vayronae.

Bor erdi buzuqta necha dardmand,
Qo‘li barchaning bo‘yla topqon gazand.

Alar ollig‘a yetgach ul siynaresh,
Degaysenki bag‘rig‘a sonchildi nesh.

Kesuk ilgini tashlabon, chekti voy,
Alar ichra ham tushti ko‘p hoy-hoy.

Quchub bir-birin mojaro qildilar
Ki, olam fazosin qaro qildilar.

Kamin aylagan ko‘rgach ul sozni,
Tafarrus bila bildi ul rozni.

Ki mazlum eldin tilab fardliq,
Chekib keldi ul elga hamdardliq.

Kishi topsa hamdardini nogahon,
Ne imkon nihon dardi qolmoq nihong‘

LXXXIII

HIKMAT

Ul bobdakim, iki hamdard bir-biriga nedin ma’lufdururlar va iki hamjins bir-birining muloqotig‘a nevchun mash’uf

Bu yanglig‘ demish hikmatandesha xayl
Ki, hamjins qilmoq biri birga mayl.

Yerur bir jihatdinki mashrablari,
Yana dog‘i tole’da kavkablari.

Muvofiqdurur asli fitrat aro
Ki, mayl o‘ldi bir-birga nisbat aro.

Bir axtar qilib ikiga parvarish,
Berur mayl ikovga tabiiy kashish.

Ul axtarg‘a harne asar bo‘lg‘usi
Ki, ul xayr yo‘q ersa shar bo‘lg‘usi.

Ul elga asar yuzlanur voqe’i
Ki, bu najm erur sohibi tole’i.

Agar ayshu rohat va gar dardu g‘am,
Borig‘a nasibi yetar beshu kam.

Topib rohat ichra hamovardliq,
Yana ranju mehnatda hamdardliq.

Fuzun aylar avvalg‘i nisbatlarin,
Berur ittisol ichra shiddatlarin.

Qachon muncha nisbat topar iki yor,
Qilur mayl bir-birga beixtiyor.

Iki zor bulbul hamovoz o‘lur,
Bo‘yla iki qumrig‘a parvoz o‘lur.

Agar vahshu tayr o‘lsin, ar jinnu ins,
Bu ishdin erurlar anis iki jins.

LXXXIV

Ul shahzodai sipehrjanob madhikim, xurshedu oy qiron qilg‘onda tuqqan sa’d axtardurur va sarvu gul muqorin bo‘lg‘onda ochilg‘on g‘unchai suxanvar va doston ibtidosini sultoni sohibqiron madhida bir necha durfishonliq bila muzayyan qilmoq va guzorish debochasini Skandari davron sanosida bir necha guharrezliq bila murassa’ etmak va shahzoda madhin nasoyih bila ixtisor qilmoq va yeti hakim bila Iskandar hikmatlarin anga oshkor aylamak va so‘ngra qoyil o‘z zodai tab’i iki la’li otashin aning qulog‘ig‘a loyiq va iki durri samin aning istimoig‘a muvofiq nazm silkiga tortmoq va duo javohiri bila xatm qilmoq

Bihamdillah, iqbol o‘lub korsoz,
Bu tug‘ro bayozig‘a chektim tiroz[1].

Alif ibtidosig‘a aylab raqam,
Nihoyatg‘a qildim raqam mimi tam[2].

Ki, ya’ni bu so‘z yetti itmomig‘a,
Bu tarix og‘ozi anjomig‘a.

Madadgor o‘lub gunbazi tezgard,
Skandar hadisig‘a berdim navard.

Agar bordi Iskandari taxtgir,
Jahon mulkida qo‘ydi toju sarir.

Bu ishtin jahon bo‘lmasun dardnok,
Chu qoyim-maqom o‘ldi paydo, ne bokg‘

Bori shohlar sarfarozini bil,
Skandarsifat Shohi g‘oziyni bil.

Erur olam ahli nigahboni ul,
Nigahbon yo‘q, Iskandari soni[3] ul.

Skandar agar keldi oyinasoz,

Zamiri aning bo‘ldi mir’oti roz.

Gar ul4 ganjlar uzra qildi tilism,
Munga ganj sarf aylamak bo‘ldi qism.

Gar ul erdi hikmat tariqida chust,
Bu keldi tavakkul yo‘lida durust.

Gar ul qo‘ymadi dushman etmay taboh,
Bu – dushmanlarig‘a erur nekxoh.

Gar ul – roy ila qildi har ishni big‘,
Munga Haq nasib ayladi royu tig‘.

Gar ul obi hayvon uchun surdi ot,
Munung har so‘zi keldi obi hayot.

Gar ul fitna ya’jujig‘a chekti sad,
Munung mulkiga fitna kelmak ne had.

Gar ul olam oldi tuzub dorugir,
Bu — olam berur, istasa bir faqir.

Anga gar yo‘q erdi xalafdin sharaf,
Munga Tengri berdi o‘n olti xalaf[5].

Alardin biri mehri purnur erur
Ki, har noma boshida mazkur erur.

Biri ulki, yuz lutf erur zotig‘a
Ki, «Farhodu Shirin» erur otig‘a[6].

Yana qolg‘on o‘n to‘rt ma’lum qil,
Nazohatda o‘n to‘rt ma’sum bil.

Ikisi nabira, o‘n iki o‘g‘ul
Ki, har birga yuz shohu shahzoda qul.

Erur davlat avjig‘a o‘n iki burj,
Sharaf durru la’lig‘a o‘n iki durj

Ki, bo‘lsun bori umridin bahramand,
Alardin dog‘i xusravi arjumand.

Bori bo‘lsun ofoq aro komkor,
Bataxsis shahzodai nomvor.

Yuzi mehr bazmida sham’i tiroz,

Qadi saltanat bog‘ida sarvinoz.

Lataf – jismining jonu jononasi,
Sharaf bahrining durri yakdonasi.

Yeti pushti olamg‘a sulton kelib,
Atodin ato xon, bin xon kelib.

Ato Shohi g‘oziyu ul nuri ayn,
Muzaffar Husayn ibni Sulton Husayn.

Alal-olamina doma ehsonahu,
Lahu xalladallohu sultonahu[8].

Taolilloh, asru ajab zot erur
Ki, olamg‘a andin mubohot erur.

Zafarg‘a qarin farrux oti aning,
Bori aybdin pok zoti aning.

Adab taxtining mehri afloki ul,
Hayo bahrining gavhari poki ul[9].

Kelib qahridin do‘zax o‘tig‘a bim,
Vale xulqi jannat gulidin nasim.

Kichik yoshliq, ammo ulug‘ qadrliq,
Hilolida ma’lum o‘lub badrliq.

Necha sher bo‘lsun kichik, gar ulug‘,
Erur savlati birla el qayg‘ulug‘.

Ulus chehrai olamafro‘zidin,
«Bilur yil kelishini navro‘zidin»[10].

Chu vasfin bayon qilmoq oson emas
Ki, poyonig‘a yetmak imkon emas.

Nasihat tariqin shior aylayin,
Duo birla-o‘q ixtisor aylayin.

LXXXV

Yuqori mastur bo‘lg‘on va ilgari mazkur bo‘lg‘on dastur bila madhdin duog‘a ruju’ qilmoq va hukamo xiradnomalarig‘a shuru’ qilmoq

Ayo, shohvashlarning ozodasi,
Jahon ahlining shohu shahzodasi!

Skandarki bor erdi olamg‘a shoh,
Bori olam ahlig‘a zilli Iloh.

Jahon ahlicha ilmu donolig‘i,
Xirad quvvatidin tavonolig‘i.

Bo‘lub qismi ham hikmatu, ham bilik,
Yana chekmayin o‘rganurdin ilik.

Emas erdi o‘z royu tadbiri kam,
Tilar erdi el royu tadbiri ham.

Tutub pand donishvar eldin umid,
Xiradnomalar olmish erdi mufid.

Solur erdi har kun alar sori ko‘z,
Topib dilpisand ish, dilosoy so‘z.

Hakim aytqondek bo‘lub korband,
Ne ishdinki aylab, bo‘lub bahramand.

Necha so‘z alardin bayon aylagum,
Ne maxfisi o‘lsa, ayon aylagum.

Umid ulki, sen ham qilib istimo’,
Sanga dog‘i naf’ aylagay ul mato’.

Biridur Arastu xiradnomasi
Ki, tahrir etibdur aning xomasi.

Shuru’ aylagum garchi mujmal anga,
Vale Tengri hamdidur avval anga.

Chu Haq hamdig‘a aylamish ixtitom,
Bu yanglig‘ Skandarg‘a surmish kalom

Ki: «Bilgilki, olam vafosizdurur,
Ne olamdadur – ham baqosizdurur.

Nekim bo‘lmag‘ay anda poyandaliq,
Anga yaxshi ermas kiroyandaliq[1].

Yerur Haqki boqidurur, loyazol
Ki, yetmas kamolig‘a oning zavol.

Nekim Tengrining g‘ayri yod etmagil,
Chu yod aylasang, e’timod etmagil.

Haq ollinda mundoqki, sensen haqir,
Sanga, o‘yla yo‘q hech zoru faqir.

Nechukkim sanga marhamat aylar ul,
Sen ul elga ham marhamat uzra bo‘l.

Uluskim sanga bandakirdordur,
Sanga dog‘i bir qodire bordur.

Zaifingg‘a gar lutf qil, gar g‘azab,
Qaviydin dog‘i oni qilg‘il talab.

Kishi muhr aro har ne qildi nigor,
Varaqta hamul naqsh o‘lur oshkor[2].

Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo,
O‘zungga ravo ko‘rmaganni ravo».

Filotun so‘zidurki: «Yey sarfaroz,
Haq etmish seni xalqdin beniyoz.

Aning lutfidindur bu shavkat sanga,
Aning baxshishidin bu hashmat sanga.

Agar amrig‘a qilmasang inqiyod,
Qachon topqay ollida uqdang kushod.

Sipah fikrig‘a elni qilma taboh
Ki, Tengri qilur ishni, yo‘qkim sipoh.

Sipah tutsa olamni andoqki dud,
Zafar bermasa Haq taolo, ne sudg‘

Sipahni ham asru najand aylama,
Falokat aro mustamand aylama

Ki, shahdin yetishsa sipahg‘a gazand,
Sipahdin erur bim shahg‘a gazand.

Ne mutlaq-inon ayla, ne noumid,
Yetur biymu ummid birla navid.

Sipah xotirin lutf ila shod qil,
Raiyatni adl aylab obod qil.

Bu ikiga sendin qachon yetsa kom,
Topar shahlig‘ing ravnaqu intizom».

Yana surdi Suqrot bu nav’ so‘z –
Ki: «Tut Tengridin fathu iqbol ko‘z.

Qachon Haq bila sidqing o‘ldi durust,
Ne hojat nima xalqdin bozjust.

Seni ayladi Tengri o‘z soyasi,
Biyikdur hamul soyaning poyasi.

Kerak elga osoyish ul soyadin,
Yetishmak navo borcha piroyadin.

Munungdek biyik poya qadrini bil,
Anga loyiq af’ol fikrini qil.

Ulus ranjig‘a ehtimom aylama,
O‘zungga bu otni harom aylama.

Raiyatni adlingdin osuda tut,
Farog‘at mihodida uyquda tut.

Alarg‘a chu taskinu oromdur,
Sanga dog‘i hosil bori komdur.

Raiyatqa bo‘lsa parokandaliq,
Topar saltanat naxli barkandaliq.

Agar qo‘y bo‘ri xayli pomolidur,
Yaqin bilki, cho‘pong‘a it holidur».

Yana dedi Buqroti farruxsirisht
Ki: «Yel chun ko‘rar har nedur sarnavisht.

Ne taqdirdur daf’i oson emas,
Kishi ko‘rmayin oni imkon emas.

Qazo daf’ig‘a solibon elga ranj,
g‘alatdur tama’ aylamak molu ganj

Ki, hifz etmasa ezidi zul-jalol
Kishiga ne ganj asig‘ aylar, ne mol[3].

Tavakkuldadur garchi komu nishot,
Vale shart erur aylamak ehtiyot.

Rioyatda ifrot matlub emas,
Tavakkulda g‘aflat dog‘i xo‘b emas.

Ne andozasiz g‘am, ne hadsiz surur,
Kerak ishda oyini xayril-umur.

Bo‘lur ham saloting‘a ul nav’ hol
Ki, ifroti oning erur e’tidol:

Biri mufsid elga siyosatdurur,
Ul ifrot sharti rayosatdurur.

Yomong‘a chu ifrot ila bo‘lsa bim,
Qolur yaxshi ifrot birla salim»[4].

Yana bo‘ldi Fisog‘urs nuktavar
Ki: «Shah poklikdin kerak bahravar.

Ani chunki shoh etti Yazdoni Pok,
Kerakmas aning xotiri lavsnok.

Agar bor esa poklik niyati,
Anga yor o‘lur poklar himmati.

Kerak og‘zi poku so‘zi dog‘i pok,
Yana ko‘ngli poku ko‘zi dog‘i pok.

Bori lavsdin ko‘ngli xoli aning,
Xaloyiq ayoli – ayoli aning.

O‘zi chun shior ayladi poklik,
Bo‘lur daf’ nopoku beboklik.

Chu vahm etti nopoklikdin yomon,
Xaloyiq ayolig‘a bo‘ldi amon.

Agar aylasa shoh nafsi havo
Ki, bir ma’siyat birla topqay navo.

Yaqindurki avval tilar xilvate
Ki, eldin anga yetmagay vahshate.

Ajab bo‘lg‘ay eldin bu fe’li nihon,
Vale nozir o‘lg‘ay Xudoyi jahon.

Kerak topsa avval bir andoq o‘run
Ki, bo‘lg‘ay ishi Tengridin yoshurun!»

Yana Asqalinus irshodidur
Ki: «Obodgar elga shah dodidur.

Qayu shahki yo‘q adl ila dod anga,
Ulus birla mulk o‘lmas obod anga.

Chu shah zulm sori uzotti ilik,
Ochildi uluq zulm uyiga eshik.

Aning zulmi kishvarg‘a oncha emas
Ki, zolim ne zulm aylasa, so‘z demas.

Agar shahg‘a ish lutfu gar kin erur,
Eliga hamul sheva oyin erur.

Qachon javq-javq o‘lsa, avbosh mast,
Tushar taqvo ahlig‘a ko‘p-ko‘p shikast.

Chu yoshlarg‘a bog‘lansa maktab yo‘li,
Bo‘lur gum ulug‘larg‘a mazhab yo‘li.

Xalal yo‘l topar to‘g‘ri oying‘a ham,
Tushar raxna islom ila ding‘a ham.

Kerak shah adolat shior aylagay
Ki, zulm ahlini xoksor aylagay.

Xaloyiq topib adlidin intizom,
Ishi iki dunyoda bo‘lg‘ay tamom».

Yana Hurmus etti navosozliq,
Bu nav’ ayladi nuktapardozliq

Ki: «Shahg‘a saxovat erur noguzir,
Bo‘lurg‘a ishi xalq aro dilpazir.

Saxo ul emasturki, har bulhavas,
Mubohot uchun sarf etar siymu bas.

Ajab yo‘qki yormoq sochar bexirad,
Kumush banddin ram qilur domu dad.

Tilab, dog‘i bergan saxovat emas,
Saxo ahli oni saxovat demas.

Chu metin uzotib tilin un solur,
Qatiq xoradin la’lu yoqut olur.

Saxo uldururkim, shahi nomvar
Basirat ko‘zi birla aylab nazar.

Berur avval arzoqi xaylu sipoh
Ki, qolmas anga da’voyi vomxoh.

Chu daf’ etti muzdurning vomini,
Qiyor ozu ko‘p elga in’omini.

Berur luqma angakim, och erur,
Olur ko‘nglin oningki – muhtoj erur.

Mubohot ila o‘zin etmas aziz,
Agar yuz tuman bersa, gar bir pashiz.

Ne sarf aylar o‘lsang, bu nav’ ayla sarf
Ki, bu sarf erur asramoqtin shigarf».

Skandar so‘zidurki: «Har qaysi shoh
Ki, bir mulk anga ro‘zi etgay Iloh,

Agar fikri bo‘lsa jahongirlik,
Jahon fathida pok tadbirlik.

Yurush fikri bo‘lsa kerak anga ish
Ki, bir mulk aro bo‘lmasa iki qish.

Birovkim, jahondin kerak kom anga
Yemas yaxshi bir yerda orom anga.

Cherik chekmak archi ko‘runur irik,
Iriklik emas raf’ chekmay cherik.

Shahekim iriklikka ermas daler,
Ishi nusrat o‘lmas aningdekki sher.

Tuzuk istagan tobe’u xaylini,
Siyosatqa tuz aylasun maylini.

Agar tuzsa ovin saranjom ila,
Urushda yasolin tuzar kom ila[6].

Vale shah kerak bo‘lmasa bulhavas,
Ishi bo‘lsa shahlig‘ xayoliyu bas».

Skandar bila yeti andoq hakim
Ki, vasf etsa ul elni tab’i salim.

Demak yeti kavkab[7] erur nurluq,
Va yo charxi a’zam bag‘oyat uluq.

Solib so‘zga anfosi qudsiysirisht,
Sanga ochtilar bo‘yla sekiz bihisht.

Navoiy ne arz aylagay juz duo,
Vale bor anga iki so‘z muddao:

Bir ulkim: shariat qo‘lin tut qavi,
Bori ishta bo‘l shar’ning payravi

Ki, bu joda birla xirom aylasang,
Talab markabin tezgom aylasang,

Iki dahr komi bo‘lub hosiling,
Nabi ko‘yi bo‘lg‘ay sening manziling.

Ikinch ulki, qil xidmati volidayn,
Bil ul ikining qullug‘in farzi ayn[8].

Agar istasang dunyou oxirat,
Bukun saltanat, tongla kun – mag‘firat

Ki, Haqdin rizo hosil etmak budur,
Rizo demayin Haqqa yetmak budur.

So‘zim chun tugandi duo aylayin,
Zaroat tariqin ado aylayin.

Alo, toki bo‘lg‘ay Skandar so‘zi,
Ul olg‘on yurub yeti kishvar so‘zi,

Nasib et aning mulkini shohg‘a,
Duosini qil jori afvohg‘a.

Bu nav’ aylabon shohi ozodani,
Aning ko‘ngli istarcha shahzodani.

Anikim, murabbiy anga shoh erur,
Qil ul nav’kim, shahg‘a dilxoh erur.

LXXXVI

Gadoyi kamsarmoyai balandpoya hikoyatikim, shohi balandpoyai kamsarmoyag‘a nasihatda so‘z yuzin irik qildi va bu suhon bila ishiga andom bermak tiladi

Yeshittimki, bir shahg‘a bemoyae,

Nasihat bila yetkurub voyae,

Bo‘lur erdi pand aytibon nuktasanj,
Nechukkim, buzug‘din ayon bo‘lsa ganj.

O‘lukni birov nutqi etsa tirik,
Agar haqdur, ul nukta bordur irik.

Birov ko‘rdi chun davlat arkonidin
Ki, so‘z tund erur ortuq imkonidin.

Vale qoyile bordur asru haqir,
Dedi tund o‘lub: «K-ey, gadoyi faqir!

Angakim – erur shohu, sen bir gado,
Ne hadding bila pand etarsen adog‘»

Dedi nuktapardozi Isonafas
Ki: «Gar men haqir ersam andoqki xas.

Sanga bor esa so‘z bilurdin mazoq,
O‘zum sori boqma, so‘zum sori boq!

Kerak bo‘lsa so‘z, o‘ylakim durri pok,
Sadafdek haqir o‘lsa qoyil, ne bokg‘

Manga ham agar nuktada tez esam,
Qamish no‘gidin otashangez esam.

O‘zum nechakim zoru pajmurdamen,
Lagadko‘bi gardundin ozurdamen.

Hamonoki so‘z poku sofiydurur,
Adabsizlig‘img‘a talofiydurur».

LXXXVII

HIKMAT

Ul bobdakim, mashvaratda deguchiga mulohaza qilmay deyilgonni ko‘ngulga jilva bermak kerak va sochilg‘on javohirdin munosibni termak kerak

Xiradmandkim, sohibi roy erur,
Xirad nuridin olamoroy erur.

Anga mushkil ish tushsa bir bobdin,
Tilar mashvarat xayli ahbobdin.

Alarning agar royi soyib esa,
Va gar fikrida yuz maoyib esa.

Chu sarrishtai g‘ayb ravshan emas,
Qayu soyib erkan, muayyan emas.

Biri aql ila tushsa xotirpisand
Ki, qilsa nekim bo‘lsa hozir, pisand.

Begonsa anga aql bo‘lg‘och hakam,
Qilurg‘a qo‘yar hikmat ahli qadam.

Vale g‘ayb ilmi chu masturdur,
Ish o‘ng kelmasa kimsa ma’zurdur.

Vale mashvaratda adad kasrati,
Berur bu natijaki el fikrati.

Taxayyul aro borcha bir nav’ emas,
Hadisin iki kimsa birdek demas.

Necha kimsa aylab xayolig‘a kuch,
Agar topsa so‘z har biri iki-uch.

Bu durlar aro aqli javharshinos,
Ishi rishtasi birla aylab qiyos.

Birisinki soyirg‘a foyiq topar,
Ishi afsari uzra loyiq topar.

Aning birla chun rost keldi ishi,
Yig‘ishturdi o‘z gavharin har kishi.

Vale uldur iqboldin bahramand
Kim, ul pok gavharni qilg‘ay pisand.

Bu durlarki – men sochtim ofoq aro,
Nujum o‘rnig‘a charxi nuhtoq aro.

Umid ulki chun bo‘lsalar barxabar,
Shahu shohzoda bo‘lub bahrabar.

Solib o‘z qulog‘ig‘a shahzoda ham,
Qabul aylagay shohi ozoda ham.

Va lek istasam tezbozorliq,
Alar zohir etmay xaridorliq,

Qulog‘larig‘a bo‘lmasa ustuvor,
Qachon yerga qolg‘ay duri shohvorg‘

Ne tufroqqa qolsun sipehr axtari
Ki, bo‘lg‘ay eri charxi nilufariy.

So‘z oningdururkim, talabgoridur,
Aningdur guharkim, xaridoridur.

Bukun chunki shah tab’idur javhari,
Qachon yerga qolg‘ay bu so‘z gavharig‘

Agar bo‘lmasa zebi torak anga,
Nekim bo‘lsa bo‘lsun muborak anga.

Boshi uzra borin nisor ayladim,
Tamom o‘ldi so‘z, ixtisor ayladim.

Ketur soqiy, ul la’li serobni
Ki, ko‘zdin oqizg‘ay duri nobni.

To‘kay shodlig‘ ashkin ul jomg‘a
Ki, yetti bu og‘ozim anjomg‘a.

Mug‘anniy, tuzat nay unin dilpazir
Ki, bas qilg‘udek bo‘ldi kilkim sarir

Ki, mast o‘lg‘onimda ichib jomi may,
Gar ul nay uni sokin o‘lsa, bu nay.

Navoiy, yaqin bo‘ldi osoyishing,
Bo‘lub so‘z arusig‘a oroyishing,

Bezaldi chu ul mohvashqa jamol,
Jamolin ko‘rub vaslidin koming ol.

LXXXVIII

Hokimsuratu darveshsiyrat, balki Darvesh ismi hukumat qism, ya’ni axaviy maobi davlat iyobqa mavoizoso kalom va nasoyihi molokalom demak

Ayo gavharim konining gavhari,
Munir axtarim burjining axtari[1].

Necha avji hashmat uza fosh sen,
Manga nisbat ichra qarindoshsen.

Bu besh ganjdinkim ushottim tilism,
Necha gavhar aylay sanga dog‘i qism.

Manga chun nasib o‘ldi mayxonae,
Sumur sen dog‘i necha paymonae.

Hamul gavharim bordurur necha pand,
Bu paymona ham nuktai sudmand.

Eshitmakda qilma jadal zinhor,
Aning birla qilg‘il amal zinhor.

Seni qildi chun Xoliqi Korsoz,
O‘z abnoyi jinsing aro sarfaroz.

Bu shukronag‘a qil sarafkandalik,
Buyurg‘on kibi Tengriga bandalik.

Nekim amr etibdur rizo birla ko‘r,
Agar bilmasang bilguchi topu so‘r.

Chu bo‘ldung saromad Haq ehsonidin,
Bo‘yun to‘lg‘ama amru farmonidin

Ki, Haq bo‘lsa Vahhobu g‘affor ham,
Erur lek Jabboru Qahhor ham.

Chu qildi seni bas uluq rutbalik,
Uluq amrin oning chu tutsang kichik,

Agar g‘ayratu qahri tutsa vujud,
Xayol etki, ul dam nadomat ne sudg‘

Tutay der esang Tengri amrin qavi,
Bo‘l oxir nabi shar’ining payravi.

Erur jodai shar’ bir shohroh
Ki, ozmoqtin ul yo‘lda asrar Iloh.

Desang ozmayin chiqma ul jodadin,
Yurub kom top baxti ozodadin.

Xudou rasul amri topqach kamol,
Valine’mat amrig‘a qil ishtig‘ol.

Ne hukm aylasa qilmog‘in farz bil,
Agar shubhae bor esa arz qil.

Vale arzida asra sharti adab
Ki, tarki adab bahra berur taab.

Manga so‘z yozardek anga yozmag‘il,
Nishoting binosi tubin qozmag‘il

Ki, Haq garchi qisming tarab aylamish,
Bu johingg‘a oni sabab aylamish.

Sabab qilmasa shoh lutfin Xudo,
Menu sen kim erduk – bir-iki gado.

Shah ar lutf qilsa inoyat chog‘i,
Vale aylay olur uqubat dog‘i.

Kerak shohdin elga xavfu rajo,
Tinor bu ikini keturgan bajo.

Rioyat chu qulluqqa qilding tamom,
Raiyat ishiga ham et ehtimom.

Adolat bila elni qil bahramand
Ki, yaxshig‘a ketsun yomondin gazand.

Navosiz ulusning navobaxshi bo‘l,
Navoiy yomon bo‘lsa sen yaxshi bo‘l.

Sanga berdi Haq oncha lutfi mizoj
Ki, ermas bu so‘zlar demak ehtiyoj.

Vale har dam o‘lsa bayoni aning,
Bilurmenki, yo‘qtur ziyoni aning.

Chu davrong‘a yo‘qtur baqou sabot,
Ham andin erur bevaforoq hayot.

Men ar bo‘lsamu bo‘lmasam oshkor,
Bu so‘zlarni qo‘ydum sanga yodgor.

Kerak bo‘lsa bori shioring sening
Ki, kavnayn aro Tengri yoring sening.

LXXXIX

Bu maodin javohirin ehtimom bila nazm silkiga tortmoqning taqriri va bu maxozin tilismotini istehkom bila itmomg‘a yetkurmakning tahriri va ham javohir piri daryozamir ravshan ko‘ngliga yer tutqonning

bayoni va ham maxozin shuaroyi she'riy sarir muqaddasa arvohig'a qabul tushganning tibyoni va alardin bu zaifning podshohi islom duosi iltimosi va bu niyozmand iltimosi mujibibila alarning duosi

Manga davlat ilgi bo'lub rahnamun,
Chu bu panjag'a qildi zo'r ozmun.

Dema panja oni, qatiq xora de,
Dema xora, po'lodi yakpora de![1]

Solib panjakim, bo'lg'ali zo'rsanj,
Topib panja ul panjada tobu ranj.

Chu zo'r ortuq aylab tarozusidin,
Chiqib yo'qki oranj bozusidin[2].

Ne panja erur, «Xamsa»i ganjsanj
Ki, dono qo'yubtur otin «Panj ganj»[3].

Qayu «Xamsa»kim, maxzani durri nob,
Qayu panjakim, panjai oftob

Ki, har kim anga ko'rguzub zo'rdast,
Chu zo'r aylabon, ilgi topib shikast.

Meningkim qo'lum erdi behad zaif,
Emas erdi ul panja birla harif.

Solib panjavarliq zamirimg'a sho'r,
Ne ilgimda quvvat, ne panjamda zo'r,

Desam tark etay, qo'ymayin himmatim,
Desam zo'r etay, yetmayin quvvatim.

Chu panjamg'a hasrat bila boqibon,
Bu panjamg'a ul panjani qoqibon.

Bu andisha mendin olib aqlu hush
Ki, nogah nido qildi farrux surush

Ki: «Yey g'arqai bahri ajzu niyoz,
Bo'la olmag'on dardinga chorasoz!

Yetishgil qo'pub pir[4] dargohig'a,
Tavajjuh qilib joni ogohig'a.

Aning botinidin tila yorliq,
Biyik himmatidin madadkorliq

Ki, har quflkim fathidur nopadid,
Anga bor eranlar duosi kalid»[5].

Yeshitgach bu so‘z, boshtin aylab qadam,
Kishi, o‘ylakim qilsa azmi haram[6].

Chu ul oston ma’man o‘ldi manga,
Bihishti barin maskan o‘ldi manga.

Qayu oston tavfgohi falak,
Qayu tavfgah, sajdagohi malak.

Ko‘zum ochib ul oston tufrog‘i,
Ko‘zum ham yorub, balki ko‘nglum dog‘i.

Tavajjuhg‘a chun xotirim qildi mayl,
Yeta boshladi fayz, andoqki sel.

Ne haddim eshikka urarg‘a ilik,
Ilik mayl qilmay ochildi eshik.

«Niyoz ahli kirsun!» debon chiqti roz,
Bu roz anglag‘ach kirdim aylab niyoz[7].

Ne xilvat, namudori charxi barin,
Ne xilvatnishin, balki Ruhul-amin.

Ani aylabon ravshan anvori quds,
Munung nutqidin ravshan asrori quds.

Ul ul nav’kim fayz topqon ko‘ngul,
Bu ul nav’ maskan aro aqli kul.

Chu men bo‘ldum andoq haram mahrami,
Haram yo‘qki, nuru safo olami[8].

Quyosh nurida mahv o‘lub zarravor,
Ko‘ngulni qila olmayin ustuvor.

O‘zum o‘zlugum mehnatidin orib,
Borib o‘zlugu men o‘zumdin borib.

Qila olmayin arz-holimni ham,
Xayol aylay olmay xayolimni ham.

Bu yanglig‘ meni aylabon gungu lol,
Ayon ayladi Isooso maqol.

Ne der so‘zki, ko‘nglum aro bor edi,
Meni chunki gung etti, borin dedi

Ki: «Go‘yo pishurgan xayoling budur,
Qila olmasingdin maloling budur».

Chu bu xastadin qildi tasdiq fahm,
Anga xud bu hol erdi tahqiq fahm.

Ishim butmagiga duo ayladi,
Bori hojatimni ravo ayladi.

Dedikim: «Bu bir ish edi qilg‘uluq,
Bu aytilmag‘on nukta aytulg‘uluq.

Bu soatqa mavquf erdi ekin,
Bu dam Tengri tavfiq berdi ekin.

Agarchi yetishti malolat sanga,
Vale oxir o‘ldi havolat sanga

Kim, ul ganjlar boshig‘a yetgasen,
Tilismotini dog‘i fath etgasen

Ki, har necha qilduq nazar dahr aro,
Qiyos ayladuk vodiyu shahr aro.

Yo‘q atrok aro birda oncha bilik
Ki, bu nav’ ulug‘ ishga urg‘ay ilik.

Ne atrokkim, ham ajam, ham arab,
Ko‘rarlar bu ishni ajabdin ajab.

Kerak dahr ahlig‘a o‘n kun jadal
Ki, besh baytdin bog‘lag‘ay bir g‘azal.

Baso masnaviygo‘yi nozuk xayol
Ki, nazm ahli ichra solib qiylu qol.

Xaloyiqqa yuz husnu noz aylagay
Ki, o‘n yilda ming bayt soz aylagay.

Chiqorg‘on zamon ul nav’ oyin savod
Ki, olamda yo‘q bo‘yla rangin savod.

Savodig‘a har kimki ko‘z solibon,
Qaro shomi mehnat aro qolibon.

Ne zulmatki, yo‘q obi hayvon anga,
Qayu tunki, yo‘q mehri raxshon anga.

Agar dahr aro sepsa mushki tator,
Ko‘ngulni qilur tiyrayu ko‘zni tor.

Bu besha arodur iki narra sher,
Bu bahr ichra iki nahangi daler.

Anga kirgali sheri jangi kerak,
Munga ham dilovar nahangi kerak[9].

Sen-o‘q sen bukun chobukandishae
Daqoyiq aro nozukandishae

Ki, so‘z tavri keldi sening shoninga,
Bo‘lub xatm tab’i durafshoninga.

Musallam so‘zunga ravonliq dog‘i,
So‘z ichra sanga pahlavonliq dog‘i.

Ravon kilkinga oncha bor e’timod
Ki, so‘z derda shaqqig‘a bersa kushod.

Ravon aylagay oncha obi hayot
Ki, to‘yg‘ay Xizr suyidin koinot.

Bu ish chunki bo‘lg‘ay muqarrar sanga,
Umid ulki bo‘lg‘ay muyassar sanga.

Qo‘p emdi, ishingning xayolida bo‘l,
Xayol ahli zebi jamolida bo‘l

Ki, sendin bu shug‘lungda hushyorliq,
Duo birla bizdin madadkorliq».

Eshitgach bu so‘zlar meni notavon,
O‘luk jismima kirdi go‘yo ravon.

Bo‘lub jon berur sirrining ogahi,
Topib nutqum anfosi Ruhullahi.

Yer o‘ptum, dog‘i yo‘lg‘a azm ayladim,
So‘z ayturni ko‘nglumga jazm ayladim.

Kelib xilvatim ichra yuz kom ila,
Yo‘nub xoma no‘gini orom ila.

Chu qildim qalam no‘gini nuktabez,
Qila boshladi no‘gidin ganjrez.

Chu «Hayrat»qa soldim ko‘ngul rag‘batin,
Anga g‘olib ettim ulus hayratin.

Chu «Farhod»g‘a bo‘ldum andeshavar,
Tuz ettim base tog‘ – o‘lub teshavar.

Chu «Majnun» hadisig‘a tuzdum funun.
Base xalqni qildi shaydo junun.

Yana «Sab’a»g‘a tab’im o‘lg‘och qarin,
Yeshittim yeti charxdin ofarin.

Skandarga til tortib ozar kibi,
Dedim oni «Saddi Skandar» kibi.

Tanosub bila aql nomovari
Dedi otini «Saddi Iskandariy»[10].

Chu bo‘ldi bu mahvashlar orosta,
Hamul nav’kim, sarvi navxosta.

Dema sarv, har bir riyozi bihisht,
Eli xosiyatda Masihosirisht.

Latofat aro yuz bihishti barin,
Ravon har biri ichra ming huri iyn.

Bu besh ganjnikim kushod ayladim,
Varaq uzra oni savod ayladim.

Savodin solib juzvdonim[11] aro,
Dema juzvdonimki, jonim aro.

Aning sori[12] bo‘ldi ko‘ngul rag‘bati
Kim, erdi madadkor aning himmati.

Madadkor yo‘q, amr etguchi ul,
Ne ish tushsa, g‘avrumg‘a yetguchi ul.

Borur erdim aylarga arzi niyoz,
Ish itmomini qilmoq ifshoi roz.

Zamirimda lekin xayolot edi
Ki, bu ish husuli ajab bot edi.

Ulug‘larki sabti bu harf ettilar,
Uzun umrlar anda sarf ettilar:

Nizomiyki nazm ahli ustodidur,
Aning tab’i so‘z jinsi naqqodidur

Ki, bu ganjlardur mato’i aning,
Mato’i nekim, ixtiro’i aning.

Hamonoki eldin kanori tutub,
Yarim qarn zahmat chekib, qon yutub.

Topa oldi besh ganj miftohini,
Yana oncha vaqt etti islohini.

Chu bir qarn davr etti charxi mudir,
Chiqordi bu a’jubai dilpazir.

Necha tojvardin topib parvarish,
Ishi bu o‘tuz yilda erdi bu ish.

Ne el mehnatidin malole anga,
Ne bu ishdin o‘zga xayole anga.

Chiqorib riyozatda qirq arba’in,
Bu besh ganj rozig‘a bo‘ldi amin.

Yana Xusrav ul turki hindi laqab
Ki, so‘z birla oldi Ajam to Arab.

Kushod aylaguncha bu mahkam hisor,
Base aylab afsonada ixtisor[13].

Necha vaqt aning ham ishi bu edi
Ki, fikratqa zonu-bazonu edi.

Zamon xud o‘tuz yilg‘a andoz emas,
Agar nisf emas, sulsidin oz emas.

Yana kimki bo‘ldi buyon rahshunos,
Bo‘lur qilmoq oni bulardin qiyos.

Sangakim yo‘q emgakda g‘oyat padid,
Ulus mehnatida nihoyat padid.

Qilib tongdin oqshomg‘acha qiylu qol,
Yuzungga yetib har nafas yuz malol.

O‘zung tinmayin xalq g‘avg‘osidin,
Qulog‘ing xaloyiq alolosidin.

Bu mehnatlar ichra chekib so‘zga til,
Zamondin kamo besh o‘tub iki yil.

Chekib xoma bu noma itmomig‘a,
Yeturgaysen og‘ozin anjomig‘a

Ki, aqli muhosib shitob aylasa,
Deyilgan zamonin hisob aylasa.

Yig‘ishtursa bo‘lmas bori olti oy
Ki, bo‘ldung bu ra’nog‘a suratnamoy[14].

Tuzaldi bu nazming base sarsari,
Yana turki alfoz anga bir sari

Ki, har nechakim diqqati bordur,
Talaffuz aro laknati bordur.

So‘zungniki yaxshi ko‘rarsen o‘zung,
Ko‘runmas yomon, chun erur o‘z so‘zung.

Qoshingda sening garchi ko‘p vazni bor,
Chu bor o‘z so‘zung, yo‘q anga e’tibor

Ki, so‘z zodai tab’u farzand erur,
Chu farzand erur, jong‘a payvand erur,

Necha zodai tab’ erur nopisand,
Kishining o‘z ollida bor arjumand.

Necha bum farzandi manhusdur,
O‘z ollida xushjilva tovusdur.

Kanab shoxi yo‘q garchi xoshokcha,
Qalandarg‘adur sarvi cholokcha[15].

So‘zungkim, sanga keldi holo pisand,
Pisand erkin el ichra yo nopisand.

Ne bo‘lg‘ay ko‘rub piri koshif[16] meni,
Bu ahvoldin qilsa voqif menig‘

Burun aytqonlar dog‘i bu kitob
Ki, chekmish ajal yuzlariga niqob

Ki, jannat riyozida har birga ruh,
Umid ulki, har lahza topqay futuh.

Alar ruhig‘a to ne surat ekin,
Safo ravhimu yo kudurat eking‘

Bu ishtin dog‘i piri ravshanzamir[17],
Meni barxabar qilsa, o‘zni xabir.

Urub gom mundoq xayolot ila,
Dimog‘imda savdo maholot ila.

Ki, yettim angakim erur maqsadim
Ki, har dam demakka otin yo‘q hadim.

Niyoz aylayu ostonin o‘pub,
Biyik suddai charxshonin o‘pub,

Chekib «Xamsa»ni juzvdondin ravon,
Qo‘yub xizmatida meni notavon.

Necha ganjkim oshkor aylabon,
Ayog‘ig‘a borin nisor aylabon.

Safinam chu azm etti daryo sari,
Uzatti kafin bah rul ajzo sari[18].

Nazar soldi ochib varaq-barvaraq,
Bo‘lub multafit, chun ochib har varaq.

Qayu so‘zdakim bir savol aylabon,
Javobin degach, zavqu hol aylabon.

Qilib goh tahsinu gohi duo
Ki, yuzdin biri yo‘q manga muddao.

Etib har so‘zidin kushode manga,
Bo‘lub hosil andin murode manga.

Musalsal kalomimdin og‘zida so‘z,
Men ollinda yerga tikib iki ko‘z.

So‘zum ochibon bo‘stondek engin,
Qilib lutf, egnimga soldi yengin.

Qayu yengki, gardung‘a solsa ani,
Muhaddab yuzin aylagay munhani[19].

Chu egnimga ul qo‘l bila yeng yetib,
Zamirimdin o‘zluk xayoli ketib.

Chu o‘zluk ketib, yuzlanib holate
Ki, o‘zdin o‘zumga bo‘lub g‘aybati.

O‘zumdin hamul damki g‘oyib bo‘lub,
Manga jilvagar ko‘p g‘aroyib bo‘lub.

Ko‘rub o‘zni bir toza bo‘ston aro,
Qilib gasht bog‘u guliston aro.

Nazohat kelib ravzamonand anga,
Yeram soyiri orzumand anga.

Chamandin chamang‘a men aylab xirom,
Aningdekki el tavfi Baytulharom[20].

Ko‘rundi bu holatda jam’i kasir[21],
Urub halqa, suhbat tutub dilpazir.

Alardin birov keldi ul yonki men,
Chamanda aningdek xiromonki men.

Manga yetti, bor erdi shoirvashe,
Jamoli xushu hay’ati dilkashe.

Salom aylabon, marhabo ayladi,
Risolat tariqin ado ayladi.

Ki: «Bu farruxoyinu farxunda xayl,
Qilurlar dame ixtilotingg‘a mayl»[22].

Qabul aylayu, solib ul yon qadam,
O‘zin dog‘i so‘rdum, hamul elni ham.

Dedikim: «Alar zumrai ma’naviy,
Guruheki nazm ettilar masnaviy.

Xususan alarkim erur «Xamsa»sanj
Ki, har birdur ul «Xamsa»din koni ganj.

Erurlar bu majma’da hozir bori,
Sening sori mushtoqu nozir bori.

Chu so‘rdung meni, ey hadising qaviy,
Hasandur otim, xalq deb – Dehlaviy[23].

Eshitgach bu so‘z, jismima tushti tob,
Sarosima ko‘nglumga ham iztirob.

Qo‘lub uzr, quchtum yana ustuvor,
Qadam qo‘ydum ul sori mushtoqvor.

Borurda Hasan aytib otin manga,
Qilib har birin boshqa talqin manga

Ki, uch kimsadur sadri majlisnishin,
Qilib sharh bir-bir alarning ishin.

Ki: «O‘rtodag‘i piri farruxjamol
Ki, vasfida keldi xirad nutqi lol,

Erur hazrati Shayx[24], ogoh bo‘l!
Niyoz aylabon xoki dargoh bo‘l.

O‘ng ilgi sori anga payravdurur,
Jahon ofati – Mir Xusravdurur.

Yana bir yon ustodu piring[25] sening,
Raqamxoni lavhi zamiring sening

Ki, bu xayl erur jismu ul jonlari,
Agar jon bular bo‘lsa, jononlari.

Yana iki yondin bu qavm-o‘qdurur,
Kishi yo‘qki, bu bazm aro yo‘qdurur.

Ko‘rushgil bori birla, hurmat bila,
Daler o‘lmag‘il so‘zda – jur’at bila».

Qabul aylabon men, nekim aytib ul
Ki, qat’ o‘ldi ko‘prak bu majma’g‘a yo‘l.

Dog‘i yuz qaricha masofat qolib
Kim, ul bazm eli qo‘ptilar qo‘zg‘olib.

Manga o‘tru kelmakka aylab sitez,
Solib men alar sori gomimni tez.

Debon bir-bir ul xayl otin rahbarim[26],
Ko‘rushmakka dog‘i bo‘lub yovarim.

Chu Sa’diyu, Firdavsiyu, Unsuriy,
Sanoiyu, Xoqoniyu, Anvariy[27].

Taaddudda muhtoji tafsil erur,
Vale bo‘lsa tafsil, tatvil erur.

Bori dastbusig‘a toptim sharaf,
Olib yondilar meni kelgan taraf.

Anga tegrukim shayxu payrav edi
Ki, ya’ni Nizmoiyu Xusrav edi.

Yana bir bizing piru maxdum ham,
Qo‘pub urdilar ilgarirak qadam.

Bu iki yurub Shayxdin ilgari,
Yugurdum meni xasta ham ul sari.

Qo‘lum tutti pir ixtiyori bila,
Ko‘rushturdi hamrohu yori bila.

Ko‘zumdin to‘kub qatra yog‘in dog‘i,
Iligin ham o‘ptum, ayog‘in dog‘i.

Tutub Jomiyu Xusrav iki qo‘lum,
Nizomiy sari boshladilar yo‘lum.

To‘kub ashk – mendek asiri g‘ame,
Vale har qo‘lumg‘a tushub olame.

Vale men bo‘lub garchi o‘zdin nihon,
Kirib iki ilgimga iki jahon.

Manga Shayx birla ko‘rushmak hamon,
Muborak ayog‘ig‘a tushmak hamon.

O‘pub tufrog‘ini to‘kub seli ashk
Ki, andin yebon to‘quz aflok rashk.

Boshim yerdin olib inoyat qo‘li,
Qilib jilvagohim hidoyat yo‘li.

Yonib tutti yerlik yerida qaror,
Meni lek bexud qilib iztiror.

Chu Shayxu iki yori[28] topti sukun,
Turub men niyoz ichra qaddim nigun.

Julus ichra yetti bashorat manga
Ki, ollinda qildi ishorat manga.

Chu bo‘ldi manga hukmi birla nishast,
Niyoz etti jismimni tufroqqa past.

Talattuf bila Shayxi oliy maqom,
Mening sori bunyod qildi kalom.

Burun so‘rdi holimni shafqat bila,
Yer o‘ptum javobida hurmat bila.

Yana dedi: «K-ey olam ahlida fard,
Falak tab’inga kelmayin hamnavard.

Sipehr aylab el ichra nodir seni,
Jahon nazmi tavrida qodir seni.

G‘azal tavrida chunki qilding xirom,
So‘z ahlig‘a so‘z derni qilding harom.

Tutub erdi nazming jahon kishvarin,
Jahon kishvarin yo‘qki, jon kishvarin.

Bu dam masnaviyg‘akim aylab shitob,
To‘kaboshlading xomadin durri nob.

Ajab ish bu ishda sanga berdi dast
Ki, el nazmig‘a berdi nazming shikast

Ki, qilding so‘z ichra tatabbu’ manga,
Ne istarda etting tazarru’ manga

Ki, men «Xamsa»da aylab erdim vaid
Ki: «Har kimki, ayturg‘a tutsa umid,

Qilay tig‘i burron so‘zum dosidin,
Uray boshin ul tig‘ olmosidin».

Ko‘p el ochti da’vog‘a so‘z boshini,
Bu da’vo aro qo‘ydi o‘z boshini.

Chu ko‘rguzdi farzand Xusrav niyoz,
Niyozi bila topti ul ganji roz.

Yana bir, iki, uch gadolig‘ bila,
Nasib oldilar benavolig‘ bila.

Magar senki bu yo‘lg‘a qo‘yg‘och qadam,
Vujudung xayolini qilding adam.

Nechakim kelib rif’ating tog‘cha,
Vale kelmay ollingda tufrog‘cha.

Niyoz ashkidin lavhi xotirni yub,
Fano harfin ul safha uzra yo‘yub.

Topib pir farzona Jomiy kibi,
Mumiddu muovin Nizomiy kibi.

Sunub poklik birla bu ishga qo‘l,
Ochib poklar ruhi ollingda yo‘l.

Sahar vaqti harfe savod etmayin
Ki, ruhum duo birla shod etmayin,

Farah topmayin ma’niyi xos ila
Ki, yod etmayin bizni ixlos ila.

Ne menkim, bori nazm ahlini pok,
Duo birla har subh etib zavqnok.

Niyozing chu bu nav’ o‘lub beadad,
Sanga biz ham aylab adadsiz madad.

Yo‘q ersa erur asru savdoi xom,
Iki yilda bir «Xamsa» qilmoq tamom,

Qayu «Xamsa», besh gavhar omuda ganj,
Tasarruf jafosidin osuda ganj[29].

Duru la’l anga barcha ko‘zdin nuhuft,
Ne durrida rishta, ne la’lida suft.

Ne durkim berib Haq Taborak sanga,
Umid ulki, bo‘lg‘ay muborak sanga.

Kishi sen kibi ishga qilsa shuru’,
Ajab yo‘q evaz bo‘yla topsa vuqu’.

Vale muncha ganji maoniy sanga
Ki, Haq ro‘zi etti nihoniy sanga.

Qayu erdakim ayni binishdurur,
Sababni bilurkim, iki ishdurur.

Biri ulki tuttung tariqi niyoz,
Qabul ayladilar seni ahli roz.

Ishingga qilib sa’y rag‘bat bila,
Madad qildilar borcha himmat bila.

Yana ulki fazl ahli harne qilur,
Urar lofu ishni murabbiy qilur.

Erur gar murabbiy emas kordon,
Muattal xiradmandi bisyordon.

Hunarparvar – ishni buyurg‘uchidur.
Hunarvar vale lof urg‘uchidur.

Chu shohing sening erdi sohib kamol,
Yana ollida qadrsiz mulku mol.

Angakim bu iki ish o‘ldi nasib,
g‘arib ish zamonida ermas g‘arib.

Shahekim ulus chorasozidurur,
Ulus fozili Shohi g‘oziydurur

Ki, Tengri fuzun aylasun davlatin,
Yeti charxdin ham biyik rif’atin

Ki, keldi zamonida sendek kishi
Ki, ermas ishing odamizod ishi».

Chu so‘z yetti bu yerga, men beharos,
Qo‘pub ayladim bir duo iltimos

Ki: «Chun dedingiz shahg‘a hamdu sano,
Duoe qiling davlatig‘a yano».

Dedi Mir Xusravg‘a donoyi roz
Ki: «Sen Shohi g‘oziyg‘asen madhsoz.

So‘zungdin base bayt yodidadur,
Asarlar muborak nihodidadur.

So‘zungdin chu ko‘ngliga yetgay asar,
Damingdin duo dog‘i etgay asar.

Duo aylakim, fazlu donish eli
Ham «omin» desun, biz ham «omin» deli».

Boqib dedi fazl ahlig‘a piri roh:
«Ki, siz shoir, ul dog‘i xush tab’ shoh.

Chu farzand Xusrav duo aylagay,
Aning komini Haq ravo aylagay.

Dengiz borcha «omin» dilu jon bila,
Duo qildik ul chashmi giryon bila».

Yeshitgach qo‘pub borcha minnat tutub,
Deb «omin»u shoh sori himmat tutub.

Suxanvar qo‘pubkim duo boshladi,
Duosig‘a mundoq ado boshladi

Ki: «Yo Rabki, to olam o‘lg‘usidur,
Ichinda bani Odam o‘lg‘usidur.

Kirib tahti hukmig‘a olam dog‘i,
Bo‘lub bandasi jinsi odam dog‘i.

Qiyomatqacha davlatig‘a bisot,
Hamisha bisotida ayshu nishot.

Jahon ahli adlida osudahol,
Bataxsiskim, ahli fazlu kamol».

Duo xatm bo‘lg‘och tushurdi ilik,
Yo‘q ul, balki majmui ahli bilik.

Duokim, ul ahli savob aylagay,
Ajab yo‘qki, Haq mustajob aylagay.

Tugangach duo, ayladim iltijo,
Qo‘yundin chekib «Xamsa»ni jo-bajo.

Solib tiyra tufroq aro yig‘labon,
Bu yanglig‘ tuzub mojaro, yig‘labon

Ki: «Bu zodai xotiri xastani,
Ko‘nguldin takallumg‘a payvastani

Ki, himmat tutub ehtimom ettingiz,
Demasmenki men, siz tamom ettingiz.

Karam birla tufrog‘din ham oling,
Inoyat qilib bir nazar ham soling

Ki, el xotirig‘a nuzul aylasun,
Ulus ko‘ngli oni qabul aylasun».

Ravon Shayx oldi bu iblog‘din,
Garonmoya naqdimni tufrog‘din.

Boqib Mavlaviy[30] sori qildi ruju’
Ki: «Sen qil duo, zohir aylab xushu’

Ki, qoyil erur so‘nggi farzandimiz,
Bilik mazra’idin barumandimiz.

Bularkim aning zodu payvandidur,
Bori bizga farzand farzandidur.

Sanga ham chu shogird erur, ham murid,
Duosini sendin tutarbiz umid».

Chu Maxdum topti duo sori yo‘l,
Yana ochtilar borcha oming‘a qo‘l.

Duoeki ko‘nglumga matlub edi,
Muhavvis zamirimg‘a marg‘ub edi

Qilib, ayladilar bu mahzunni shod,
Manga chunki yuzlandi mundoq murod.

Sujud ettim ul xayli ogohg‘a,
Dedilar: «Degaysen duo shohg‘a».

Bu so‘zdin bo‘lub o‘zgacha holatim,
O‘zumga kelib, bordi ul g‘aybatim.

Ko‘rarmen, hamul hujrada pir erur,
Janobida holimg‘a tag‘yir erur.

Bu dam go‘yo egnimdin olmish qo‘lin
Ki, bu sori solmish xayolim yo‘lin.

Hamul ollida boshim erdi quyi,
Oqar erdi tufroqqa ashkim suyi.

Dedi lutf ilakim: «Ne nav’ erdi hol»,
Yana boshni qildim anga poymol.

Dedim: «Ulcha men xastaga hol erur,
Aning sharhida notiqa lol erur».

Dedi: «Ulcha bu dam sanga berdi dast,
Yana kimsaga bermamish erdi dast.

Qo‘pu, shukr qil Tengri ehsonig‘a,
Bu tavfiqi behaddu poyonig‘a».

O‘pub yerni, qo‘ydum chu tashqori gom,
Degaysen: mening erdi olam tamom!

Manga «Xamsa» takmili bir yon edi,
Bu maqsud tahsili bir yon edi.

Ne til birla dey shukr Ma’buduma
Ki, yetkurdi oxir bu maqsuduma.

Bu damkim, beribtur murodimni Haq,
Ul avloki, toq uzra qo‘ysam varaq.

Farog‘at bila inbisot aylasam,
Tuzub bazm, bir dam nishot aylasam.

Ayoqchi, to‘la ayla jomi farog‘
Ki, ko‘p fikrdin yubs topmish dimog‘[31].

Ki, ko‘z lam’asidin munavvar qilay,
Dimog‘im isidin muattar qilay.

Mug‘anniy, so‘zum tingla oxir gahi,
Hazin nag‘mae soz qil xirgahi.

Bir ohang ila aylagil romishe
Ki, yetgay manga bir dam oromishi.

Navoiy, qilib Tengri koming ravo,
Sanga ro‘zi etti ajoyib navo.

Uzot Tengri shukri navosig‘a til,
Navo ortuq istar esang, shukr qil!

ShARH VA IZOHLAR

«Saddi Iskandariy» dostonining ilmiy-tanqidiy matni 60-yillar boshida o‘zbek matnshunos olimi P. Shamsiev tomonidan tuzilgan edi. Ammo qandaydir sabablarga ko‘ra, matn chop etilmagan. Matnda so‘z boshi va ilmiy izohlar mavjud emas. Hozirda mazkur matn O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Hamid Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutn arxivida saqlanadi.

Keyingi yillarda navoiyshunoslik fani Alisher Navoiy asarlarining shoir hayotligida va uning vafotidan birmuncha vaqt o‘tgach ko‘chirilgan qadimiy, nodir nusxalar bilan boyidi. Jumladan, Anglpyaning Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan Badiuzzamon uchun ko‘chirilgan miniatyurali «Xamsa» nusxasi Abdujamil nusxasndan «yosh» jihatdan faqat olti oygagina farq qiladi va u Navoiyning bevosita homiyligi ostida ko‘chirilgan.

Turkiyaiing «To‘pqopi» muzeyida saqlanayotgan Istanbul kulliyoti ham Navoiyning nazari tushgan tabarruk nusxalardan. Shuningdek, Parij kulliyoti, Qo‘lyozmalar instituti fondida saqlanayotgan XVI asr «Xamsa»si ham shu davrning nodir yozma yodgorligi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shu qo‘lyozmalarni manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha o‘rganib ilmiy istifodaga olib kirish hamda hurmatli domlamiz matnlari tuzilgandan buyon o‘tgan chorak asrdan ziyod vaqtni nazarda tutib Qo‘lyoz-malar instituti ma’muriyati va ilmiy sovetining maslahati bi-lan filologiya fanlari nomzodi Mavjuda Hamidova dostonning mukammal ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqdi. Matnga yuqorida zikr etilgan, hozircha dunyo fondlarida eng qadimiy deb hisoblangan XV—XVI asrdagi olti qo‘lyozma va P. Shamspev matnlari — jami yetti qo‘lyozma asos bo‘lgan.

Dostonning hozirgi chop etilayotgan nusxasi M. Hamidova temonidan tuzilgan ana shu ilmiy-tanqidiy matn asosidadir. Navoiy (Navoyi) taxallusining yozilishi xususida hali bir to‘xtamga kelinmaganligini ko‘zda tutib uni ilgarigi nashrlar holida qoldirildi.

Ilmiy kommentariyali izohlarni filologiya fanlari nomzodi Toshpo‘lat Ahmedov tuzgan.

Ushbu amalga oshirilgan nashrda dostonning litografik hamda turli vaqtlarda chop etilgan nusxalaridan ham foydalanildi;

a) «Saddi Iskandariy», Uzpoligrafkombinat, Toshkent, 1941;

b) «Xamsa», Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S. Ayniy, O‘zdavgashr, Toshkent, 1947;

v) «Saddi Iskandariy», Uzbekiston Davlat nashriyoti, Toshkent,1949;

g) «Xamsa», «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1960;

d) «Saddi Iskandariy», Badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent,1965;

e) «Saddi Iskandariy». Nasrga aylantiruvchi Inoyat Mahsumov, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,Toshkent,1978;

yo) «Saddi Iskandariy» (nasriy bayoni bilan). Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991.

I

1.Ushbu hamd bobida xudoning sifatlari haroratli misrlarda vasf etiladi.

2.Tasavvufga asoslangan bu baytda «vujud», «jud» (birinchi misra) «jud», «vujud» (ikkinchi misra) so‘zlari keltirilib, radd-ul-ajz mina-s-sadr san’ati ishlatilgan.

3.G‘azzoliyning to‘liq nomi Imom Abu Hamid ibn Muhammad bo‘lib, u Xurosonning Tus shahrida 450 (1058/59) yilda tug‘ilgan. U dastlabki ma’lumotni Tusda oladi, so‘ngra Nishopurga boradi. Bir qancha vaqt saljuqiylardan Nizomul-mulk xizmatida bo‘ladi va shu vaqtdan boshlab din va tasavvuf falsafasi bilan shug‘ullandi. U Nizomul-mulk topshirig‘iga ko‘ra, Bag‘doddagi Nizomiya madrasasida to‘rt yil ishlaydi. Keyincha bu vazifani ukasi Ahmadga topshirib. o‘zi ilmiy ish bilan chuqur shug‘ullanadi. Uning yirik asarlaridan biri «Kimiyoyi saodat»da olimning diniy va falsafiy qarashlari

aks ettirilgan. G‘azzoliy 1111 yilning 19 dekabrida vafot etgan.

4. «Yetti ato» - yetti qat ko‘k yoki yetti iqlim, «to‘rt ano» to‘rt fasl ma’nosida.

5. Bu baytda radd-ul-ajz mina-s-sadr san’ati (birinchi misraning boshi va oxiri, ikkinchi misraning o‘rtasida «kishi» hamda «oshiq» so‘zlarini ishlatgai holda)dan foydalanilgan.

II

1. O‘z fikrini ravshan talqinlar orqali berish maqsadida iltizom (bir yoki bir necha so‘zning qaytarilishi) san’atidan foydalanilgan.

2. Horun—Muso payg‘ambarning akasi bo‘lib, u Bag‘dodda xalifalik qilgan.

3. Ashk — qadimgi Eronda o‘tgan afsonaviy podshohlardan biri.

III

1. Bu joydagi «Kuntun-nabiy»—«men payg‘ambarman» deb boshlanadigan hadisga ishora.

2. Muso—yahudiy payg‘ambarining nomi. «Tavrot»—yahudiylarning diniy kitobi Muso payg‘ambarga nozil bo‘lgan deb hisoblanadi.

3. Dovud — afsonaviy payg‘ambarlardan biri bo‘lib, «Zabur» kitobi unga nisbat beriladi.

4. Iso — xristian dinining asoschisi, mifologik payg‘ambar.

5. «Injil»—xristian dinidagilarning muqaddas kitobi.

6. Makka— Saudiya Arabistoni g‘arbida joylashgan shahar, musulmonlar haj qiladigan joy.

7. Yadulloh — xudo qudratiga ishora.

8. Chin — Xitoy.

9. Arsh — osmonning eng yuqorisi, xudo manzili.

10. Jabrail—mifik obraz. Xudo bilan payg‘ambar o‘rtasida vositachi bo‘lgan farishta.

11.Misradagi «me’roj nomi» iborasi Muhammad payg‘ambar,-ning ko‘kka, ya’ni xudo oldiga chiqqaniga ishora.

IV

1. Buroq — diniy rivoyatlarga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar «me’roj» kechasi ko‘kka minib chiqqan afsonaviy ot.

2. Baytul-haram— Makka shahridagi Ka’ba deb atalgan mashhur ziyoratgoh.

3. Atorid— Merkuriy sayyorasi (mifologiyada bu yulduz adiblarning homiysi hisoblanadi).

4. Zuhra— Cho‘lpon yulduzi — Venera (osmon sozandasi ma’nosida).

5. Rud — torli musiqa asbobi.

6. Bu baytda husni ta’lil (biror narsa yoki hodisaga g‘ayri voqeiy, lekin shoirona sabab keltirish) san’ati ishlatilgan.

7. Bahrom—Mirrix (Mars) sayyorasi.

8. Mushtariy—Yupiter planetasi, munajjimlar bu sayyorani «Sa’di akbar» yoki «Falak qozisi» deb ataydilar, joyi oltinchi falakda, deyiladi.

9. Zuhal — Saturn sayyorasi.

10. Bu misraning ma’nosi: «Barhayot pok loyman (Xudo ma’nosida).

11. «G‘oyatda kuchli» ma’nosida.

12. Ikkinchi misrada qo‘shtirnoqqa olingan iboralar Muhammad payg‘ambar madh qilingan oyatlardan olingan so‘zlar.

V

1. «Ikingizdan madad»—Sharqda mashhur xamsanavislar Nizomiy va Xusrav Dehlaviylar ko‘zda tutiladi. Il’yos Yusuf o‘g‘li Nizomiy Ganjaviy 1141 yilda Ganj shahrida tug‘ilgan. 1203 yilda vafot etgan, shoirning qabri ham shu yerdadir. Ulug ozarbayjon shoiri Nizomiy lirika va birinchi navbatda dostonnavislikda ulug‘ san’atkordir. Nizomiy Sharq adabiyotida to‘ng‘ich xamsanavis sifatida shuhrat topgan. Shoirning «Xamsa»si «Maxzanul-asror» («Sirlar xazinasi»), «Xusrav va Shirin», «Layli va Majnun», «Haft paykar» («Yetti go‘zal») va «Iskandarnoma» kabi dostonlarni o‘z ichiga oladi. Nizomiy «Xamsa»si, o‘z navbatida, «Panj ganj» nomi bilan ham ma’lumdir. Alisher Navony Nizomiyning bu asarini ko‘pincha «Panj ganj» deb tilga oladi. Xusrav Dehlaviy — atoqli fors-tojik shoiri. Hayoti Hindistonda kechgan. Yaminiddin Abul Hasan Xusrav Dehlaviy 1253 yilda tug‘ilgan, 1325 yil 27 sentyabrda Dehlida vafot etgan.

Xusrav Dehlaviy fors, urdu va arab tillarida asarlar bitgan. Nizomiy «Panj ganj»i an’anasi asosida «Xamsa» yaratgan shoirdir. Xusrav Dehlaviyning otasi Sayfiddin Muhammad Kesh (Shahrisabz)lik bo‘lib, mo‘g‘ullar istilosi vaqtida Hindistonga ko‘chib ketgan edi. Dehli sultonlaridan Shamsiddin Eltutmish (1211— 1236) unga amirlik unvonini bergan. Sayfiddin Muhammad mo‘g‘ullarga qarshi Hindistondagi janglarning birida halok bo‘lgach (1261), yosh Xusravni bobosi Imodul-mulk tarbiyalaydi. U 8 yoshida shayx Nizomiddin Avliyoga murid tushadi. Xusrav Dehlaviy keyinchalik shayx— ustoziga bag‘ishlab «Afzal ul-favoid» («Foydali so‘zlarning afzalligi) va «Rohat ul-muhibbin» («Do‘stlikning rohati») kabi asarlarini yozgan.

Amir Xusrav Dehlaviyning «Tuhfat us-sig‘ar» («Yoshlik tuh-fasi», 1272), «Vasat ul-hayot» («Hayot o‘rtasida», 1284), «G‘urrat ul-kamol» («Kamolotning boshlanishi», 1293), «Boqiyat un-nohiya» («Saralarning sarasi», 1316), «Nihoyat ul-kamol» («Kamolot cho‘qqisi, 1323) kabi devonlari bor.

U «Qiron us-sa’dayn» («Saodatli sayyoraning qo‘shilishi», 1289), «Miftoh ul-futuh» («G‘alabalar kalidi», 1291), «Matla’ ul-anvor» (1299), «Shirin va Xusrav» (1298), «Majnunu Laylo» (1298), «Oyinai Iskandariy» (1299), «Hasht behisht» («Sakkiz jannat», 1301) kabi epik asarlarning muallifidir. Uning «Xamsa»si yuqorida nomlari tilga olingan keyingi besh dostondan iboratdir.

Xusrav Dehlaviy «Xazoyin ul-futuh» («G‘alabalar xazina»si, 1311), «Duvalroniy va Xizirxon» (1316), «Nuh sipehr» («To‘qqiz qavat osmon». 1318), «Tug‘luqnoma» va «Tarixi Dehli» kabi tarixiy besh risoladan iborat «E’jozi Xusrav» («Xusrav mu’jizalari», 1319) nomli ilmiy asarlarning ham muallifidir. Badiuzzamon Xurosoniyning yozishicha: «Shoirlardan hech biri o‘zidan keyin Amir Xusravchalik ko‘p she’r qoldirmagan» (O‘zSE, 12 tom. T. 1979. 406— 407-betlar).

2. Xizr—afsonaga ko‘ra, «obi hayvon» (tiriklik suvi)ni izlab topgan va undan ichib, abadiy tirik bo‘lgan payg‘ambar. Navoiy Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarning o‘ziga Xizrdek rahnamo bo‘lishdarini istaydi.

3. Yoshlikdan Nizomiy va Xusrav Dehlavny asarlarini sevib o‘qigan Navoiyda ulardan olingan taassurot katta-katta asarlar yaratish fikrini o‘ng‘otganligi bu baytda e’tirof etilgan.

4. To‘rt oromgoh —«Xamsa»ning dastlabki to‘rt («Hayratul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ai sayyor») dostonlaridir.

5. Bir, ikki, uch kishi — Nizomiy, Xusrav va Ashraf.

6. Qorun — afsonaviy obraz. Katta boylikka ega bo‘lgan.

7. Skandar — Iskandarning, vazn talabiga ko‘ra, qisqartirilgan shakli.

VI

1. Alisher Navoiy adabiyotnnng asosiy materiali bo‘lgan so‘zga katta e’tibor bergan. NAVOIY «so‘z»ni o‘z asarlarida ko‘p na’noda ishlatadi. U «so‘z» terminn ostida insoniyatning hamma ma’navii boyligini — alohida ijtimoiy kategoriya bo‘lgan tilni ham, ideologiya formalaridan hisoblangan falsafa

va badiiy adabiyotni ham tushuna beradi hamda ularni ko‘p vaqt bir-biridan farq qilmaydi» (A. H a y i t m ye t o v, Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari, O‘zSSR Fanlar akadempyasi nashriyoti, Toshkent, 1959, 78-bet). Navoiy «Xamsa»sining deyarli hamma dosgonlarida («Farhod va Shirin» bundan mustasno) «So‘z ta’rifida...» atamasi bilan maxsus bob («Hayratul-abror»da XIV, «Layli va Majnun»da V, «Sab’ai sayyor»da V, «Saddi Iskandariy»da VI) yaratgan. «Xamsa»dagi dostonlarning Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan boblarida ham so‘zning qudrati, ta’siri va mohiyati haqida keng to‘xtaydi.

Navoiy «badiiy so‘zinng jamiyatdagi kishi ongi va psixologiyasiga ijobiy va salbiy tasir kuchi» (A. Hayitmetov. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari, 79 bet)ni yaxshi bilgani holda, har bir shaxsga, ohang va mazmuniga ko‘ra ham turlicha ta’sir etishi mumkinligini ko‘zda tutnb. «Hayratul-abror»da:

Ham so‘z ila elga o‘lumdin najat,
Ham so‘z ila tonib o‘lik tan hayot («Xamsa», 1960, 104-bet) desa, «Saddi Iskandariy»da:
Ulukka gar andin erur joyi pok
Va lekin tirikni ham aylar halok («Xamsa», 1960, 632-bet) deydi.

2. Bahri Ummon — Ummon dengizi.

3. Dami Isaviy — an’anaviy afsonalarga ko‘ra, Iso payg‘ambar o‘z nafasi bilan o‘liklarni tiriltirish qudratiga ega bo‘lgan. Bu yerda o‘shanga ishora qilinadi.

4. «Ehtimol, uning hamrohi Jabroil (Ruhul-quds) bo‘lgandir yoxud bu kelgan Iso (Ruhullah) payg‘ambarning nafasidurkim, o‘luklarni tiriltadi».

5. Takrir san’ati ishlatilgan bu baytda har uchala «qutub»— kitob so‘zining ko‘pligini bildiradi.

6. Nodiri fard — Nizomiy Ganjaviyga nisbatan ishlatilgan.

7. Bssh ganj — Nnzomiyning «Panj ganj» deb atalgan «Xamsa»siga ishora.

8. Aning — Nizomiy Ganjaviy, muning — Xusrav Dexlaviy.

9. Ashraf — XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning birikchi yarmida yashab ijod etgan hamda «Xamsa» yaratgan shoirlardan bo‘lib, uning to‘liq ismi—Ashraf nbn Shayxulimom Abu al-Husayn ibn al-Hasan al-Marog‘iy at-Tabriziydir. Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asarida Ashraf haqida ma’lumot berib deydi: «Mavlono Ashraf—darveshvash va nomurodsheva kishi erdi. Va kiyiz burk ustina qurchuq chirmar erdi. Va el bila dog‘i omizishi oz erdi. Ko‘prak avqot «Xamsa» tatabbu’ig‘a sarf qilur erdi, to ul kitobni tugatur tovfiqi topti, voqean, o‘z xurdi holig‘a ko‘ra yamon bormaydur. Afv fozilotida «Xamsa»sidin bu bayt yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

Va nazdi kase k-o‘ ba donish meh asg,
Zi muchrimkushi churm baxshi beh ast...

(Mazmuni: Bilimda ilg‘or bo‘lgan kishi qoshida gunohkorni o‘ldirishdan—gunohini kechish yaxshidur») (Alisher N a v o i y. Asarlar, 12-tom, T., 1966, 14-bet).

VII

1. Nuriddin Abdurahmon Jomiy—1414 yilning 7 noyabrida Xurosonnipg Jom shahrida shayxulislom — Nizomiddnn Ahmad oilasida tug‘ilgan. U maktab tahsilidan keyin, Hirotdagi Dilkash madrasasida, Mavlono Junayd qo‘lida, keyinroq Shahobiddin Muhammad Jojarmiy va Aloiddin Ali Samarqandiylardan ta’lim olgan.

Abdurahmon Jomiy Samarqandga kelib Qozizoda Rumiy darslariga qatnashgan. U filologiya, falsafa, matematika, astronomiya, huquq kabi fanlar bilan chuqur shug‘ullangan. Din va tasavvufni sinchkovlik bilan o‘rgangan. Jomiy Bahovaddin Naqshbandiy ta’limoti ta’sirida bo‘lgan Shayx Sa’diddin Qoshg‘ariydan tasavvuf bo‘nicha talim oladi.

Abdurahmon Jomiy 1492 yil 8 noyabrda Hirotda vafot etgan. Abdurahmon Jomiyning «Fotihat ush-shabob» («Yigitlik ibtidosi». 1479), «Vasat ul-iqd» («O‘rtacha marvarid shodasi», 1489), «Hotimat ul-hayot» («Hayotning xotimasi», 1491) kabi devonlari ma’lum. Adib «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjir», 1472), «Salomon va Absol», 1480—81 «Tuhfat ul-ahror» («Hur kishilarning tuhfasi», 1481—82). «Sabhat ul-abror» («Yaxshi kishilarning tasbihi», 1482— 83), «Yusuf na Zulayho», 1483, «Layli va Majnun», 1483, «Xiradnomai Iskandari» 1485 kabi dostonlarning muallifidir. Shoir mazkur yetti dostonni birlashtirib «Haft avrang» («Yetti qaroqchi yulduz») nomini bergan. Shuniig uchun ham uning bu dostonlar majmuasi ko‘proq «Haft avrang» nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Jomiyning «Bahoriston» asari ham malum. Shoir adabiyotshunoslik sohasida «Risolai aruz», «Risolai qofiya», «Risolai muammo» kabi asarlar yaratgan. Adib tasavvuf va falsafaga oid «Naqshi-fusus» («Javohirlar naqshi»), «Naqd un-nusus» («Nusues tanqidi»), «Ashiat ul-la’mat» («Shu’lalar ziyosi»), «Nafohat ul-uns» («Do‘stlarning nafasi») kabi asarlarining ham muallifidir.

2. Birinchi misra oxiridagi «tuhfa» so‘zi Abdurahmon Jomiy «Xamsa»sining birinchi dostoni— «Tuhfat ul-ahror»ga ishora. Ikkinchi misradagi «tuhfa»—sovg‘a ma’nosida ishlatiladi.

3. «Subha»— Jomiy «Xamsa»sidagi dostonning qisqartirilgan nomi.

4. Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostoniga ishora.

5. «Layli va Majnun»—Jomiy asari.

VIII

1. Radd-ul-ajz-s-sadr san’ati ishlatilgan bu baytning mazmuni: «Vujud sajdadan bunday foydalar ko‘rsa, sajda qilmaganlarni bevujud desa bo‘ladi».

2. Ikki baytning mazmuni: «Avval g‘azal aytishga qasd qilib, jahon ichiga ulug‘ qiyomat soldim. Sog‘ odamlar buni o‘qigan vaqtlarida, olamda qiyomat kunini ko‘rganday bo‘ladilar».

3. Bunday kichik ishga hech qanoatlana olmadim, ko‘nglimda doimo ulug‘ muddao — orzu, maqsad (epik asarlar yozish) bor edi.

4. Ul — Xudo.

5. Bu bayt Toshkentda 1949 yilda nashr etilgan shoir «Tanlangan asarlarining V kitobida (27-bet) quyidagicha" berilgan:

Chu hotif menga bu nido ayladi,
Sen etgan adoni ado ayladi.

6. Navoiy baytning birinchi misraida «etib to‘rti itmomg‘a» deganda yaratayotgan «Xamsa»sining to‘rt dostoni («Hayratul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ai sayyor»)ni ko‘zda tutgan bo‘lsa, ikkinchi misrada «biri yetmamish erdi» deganda hali yozib tugallanmagan (Saddi Iskandariy»—T. A.) dostonini ko‘zda tutmoqda.

7. Nazm elining shahi — Abdurahmon Jomiy ko‘zda tutilmoqda.

8. Baytdagi alar—Nizomiy va Xusrav Dehlaviy bo‘lib; bu bir — Jomiy demakdir.

9. Bu so‘zni «xush» shaklida yozsalar ham, «xash» o‘qib, «kash» bilan qofiyadosh qilish odat bo‘lgan.

IX

1. Shohi G‘oziy—Navoiy o‘z asarlarida Husayn Boyqaroni ko‘pincha shu unvon bilan yuritadi.

2. Ul iki uy — Jannat bilan Do‘zax.

3. Sulgon Husayn — Sulton Husayn Biyqaro 1418 yili tug‘ilgan, 1469 yili Hirotda taxtga o‘tirib, 37 yil hukmronlik qilgan. U Husayniy taxallusi bilan g‘azallar yozgan. Alisher Navoiy «Ma-olisun-

nafoys»ning unga maxsus bag‘ishlangan 8-majlisida Husayniy g‘azallariga yuqori baho beradi. Sulton Husayn Bonqaro Alisher Navoiydan 5 yil keyin, 1506 yili Hirotda vafot etgan.

4. Mazmuni: «Uning otiga taqdir — tangri ehsoni doim bo‘lsin va tangri uning shohligini doimiy qilsin deb yozgan».

5. Dashti Qifchoq — Sirdaryoning quyi oqimi va Balxash ko‘lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududning XI— XVI asrlardagi nomi. Dashti Qipchoq atamasini dastlab Nosir Xusrav (1003—1088) qo‘llagan, shundan boshlab arab va fors tillaridagi asarlarda uchraydi. V. V. Bartoldning aniqlashicha, Dashti Qipchoq aholisi (Sharq manbalarida — qipchoqlar, rus solnomalarida — polovetslar, Vizantiya tarix kitoblarida qo‘monlar ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lib, charvachilik va ovchilik, daryo, ko‘l yoqalarida yashagan aholi dehqonchilik, shaharlar (Saroy Botu, Saroy Berke, Urdu Bozor, Sig‘noq, Arquq)dagi aholi esa hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan.

6. Bu va keyingi baytlarda kelgan «aning», «gar ul»— Iskandarni bildirsa, «muning»—Husayn Boyqaroni anglatadi.

7. Birinchn «rost»—o‘ng ma’nosida, ikkinchisi esa, musiqa kunlaridan birining nomi.

X

1. Sulton Badiuzzamon— Sulton Husayn Boyqaroning katta o‘g‘li, Seyiston va Balx viloyatlarining hokimi (1496—1505). U 1314 yilda Istambulda vafot etgap.

2. Bu baytda tavzi’ (bir xil tovushga ega so‘zlar, ayni paytda, «q» tovushi) hamda tasdir (bir so‘zni ikki-uch yerda berish) san’atlari ishlatilgan.

XI

1. Odam Ato—iudizm, xristian va islom afsonalari (masalan, «Bibliya»)da birinchn odam, inson zotining otasi. Qadimiy ahdda yozilishicha, xudo Odam Atoni loydan yaratib, unga jon ato qilgan. Diniy adabiyotlarda Odam Ato nomi bilan bog‘liq ko‘plab afsona va rivoyatlar uchraydi.

2. Muhammad — Muhammad ibn Abdulloh (570—571, Makka — 632.8.6, Madina)—islomda ollohining elchisi, payg‘ambar deb e’tirof etilgan tarixiy shaxs. U Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadonida tug‘ilgan. Yetimlikda o‘sgan. Avval cho‘ponlik bilan mashhur bo‘lib, keyin savdogarlarga xizmat qilgan. U badavlat Xadichaga uylangach, mustaqil savdogarchilik bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. 610—622 yillar Makkada o‘zini payg‘ambar deb e’lon qiladi. U avvalgi ma’jusiylikni tanqid qilib, unga yagona xudo to‘g‘risidagi ta’limotni qarshi qo‘yadi. Lekii uning targ‘iboti Makka hukmronlarininig qarshiligiga uchraydi va Muhammad o‘z tarafdorlari bilan Yasrub (Madina)ga ko‘chishga majbur bo‘ladi, bu ko‘chish hijra deyiladi (bu 622 yil 22 sentyabrga to‘g‘ri keladi). Muhammad Madinaga kelib musulmonlar jamoasiga asos soladi.

3. Mazmuni: «Tangri uni payg‘ambarlarning boshlig‘i qildi va payg‘ambarlik masnadiga o‘tqazdi».

4. «Nizomut-tavorix» «(Tarixlarning nizomnomasi»)—XIII asrda o‘tgan Nosiriddin Abu Sa’id ibn Abdulloh Bayzaviy asari. Bu asar qadimiy Eronning umumiy tarixi bo‘lib, unda Odam Atodan to eramizning 1265 yiligacha bo‘lgan davr qamrab olinadi.

5. Peshdod, Kayoniy, Ashkoniy, Sosoniy — Eronning afsonaviy va tarixiy sulolalarn nomlari. Navoiy bu to‘rtala sulolaning hukmronlik yillari 4336 yilu olti oy davom etganlngini xabar qiladi.

6. Kayumars — qadimgi Eronning afsonaviy podshohlaridan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da shunday deb yozadi:

«...Tarix ulamosi ittifoqi bila birovkim saltanat qildi, Kayumars erdi... Har taqdir bila podshohlik qoidasi andin burun yo‘q erdi. Bu qoidani ul tuzdi. Dog‘i avval kishikim, shahar bino qildi, ul erdi... Ming yashadi va lekin umrining oxirida qirq yil saltanat qildi. Dog‘i Siyomak o‘g‘li Xushangnikim,

nabirasi erdi, valiahd qildi...».

7. Xushang — Ajam podshohlarining to‘ng‘ich sulolasi — peshdo-diylarga mansub. Alisher Navoiy «Tarixn muluki Ajam»da yozadi: «Xushang xiradmand va odil va olim podshoh erdi va «Jovidi xirad» otlig‘ kitobni hikmat ilmida ul tasnif qildikim, Ma’mun xalifa vaziri Hasan Sahl andin biror nima topib, arab tiliga tarjima qilibtur... Va temurni toshdan ul chiqardi... Yerga farsh ul soldi va tulku va os tiyin terisin ul qiyarga qabul qildi... Doim tog‘larda ibodat qilur erdi. Tavorixda mundoq masbatdurkim, devlar ani sajdada topib, tosh bila boshin yanchib o‘ltur-dilar».

8. Tahmuras — Peshdodiy shohlaridan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozadi: «Tahmuras otasi Xushangning chin valiahdi erdi, aning o‘rnida saltanat taxtida o‘lturdi va xaloyiq rioyatag‘a va mamolik himoyatig‘a jidd bila mashg‘ul bo‘ldi. Va aning zamonida azim qahat voqe’ bo‘ldi... Va ro‘za tutmoq andin sunnat qoldi. Va ul bino qilg‘on shaharlar Marvda Kuhandiz va Xurosonda Nishopur va Isfahonda Mahriz va Soriyya... Va aning zamonida qattiq vabo bo‘ldi. Har kimning bir sevar kishisi bor ersa erdi, aning suratin yasab, aning bila xursand bo‘lur erdi, to butparast-liqqa bunjar bo‘ldi. Va Tahmuras o‘ttuz yil mulk surdi».

9. Nashopur, Marv, Sipohon — qadimgi shaharlar.

10. Jamshid — Eronning qadimgi afsonaviy podshohlaridan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozadi: «Ba’zi ani Tahmurasning qardoshi debturlar va ba’zi qardoshining o‘g‘li. Chin saltanatqa o‘lturdi, jahon mulkin adl va dod bila tuzdi... G‘arib ixtirolar qildi. Va ul jumladin sipohiylik aslahasi... Sinon va harba va pichoq... ul yasadi. Va hammom bino qildi va g‘avvoslig‘ hayol qildi... Va saltanatining zamoni yetti yuz yilg‘acha bo‘ldi... Zahhok (uni) tutib, arra bila ikki bo‘lub, jismin pora-pora qildi».

11. Zahhok — Eronning afsonaviy podshohlaridan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozadi: «Zahhok binni Mardos chun Jamshid qatlidan so‘ng Pors taxtin oldi, zulmu sitam og‘oz qildi. Faridun ani jazosig‘a yetkurdi. Zahhok saltanati ming yil erdi». Zahhok — Firdavsiy «Shohnoma»sida ham tasvirlangan.

12. Faridun—afsonaviy peshdodiy podshohlaridan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozadi: «Faridun yaxshi axloqliq olim va odil podshoh erdi. Aning uch o‘g‘li bor erdi: ...Salim, Tur, Eraj. Mamolikni uchovga qismat qildn. Faridunning podshohligi besh yuz yil erdi...».

13. Manuchehr— Eronning afsonaviy peshdodiy podshohlaridan. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozadi: «Manuchehr Erajning qizining o‘g‘li erdi... Va ul odil podshoh erdi. Firot orig‘in ul qozdi va Iroqqa suv eltti... Va ko‘prak dehqonlig‘ ziynatu zebin ul arog‘a keturdi... Manuchehr yuz yigirma yil podshohlig‘ qildi».

14. Nuvdar—qadimiy Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da u haqda: «Nuvdar Manuchehrning o‘g‘lidir. Otasidan so‘ngra mulk anga yetti. Ammo ul ayyosh va beparvo kishi erdi. Manuchehr qo‘yg‘on qoida pa rusmni tuza olmadi va mulk va sipohig‘a xalal yo‘l topib, Afrosiyob-cherik tortib kelib, ani tutub o‘lturdi. Va o‘n nkki yil Eron mulkida turub, buzugluq qildi. Va ul nav’kim. oz yerda obodlig‘ qoldi. Ba’zi taporixda Nuvdarni Sehri Narimon debturlar. Va podshohligii ba’zi olti yil va ba’zi ikki yil debturlar», deb yozadi.

15. Afrosiyob — qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub shoh. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uning haqida kuyidagilarni yozadi: «Ani debturlarkim, Pushang binni Tur binni Faridun o‘g‘lidir va ba’zi aning nisbatin Kayumarsg‘a yetkurubturlar. Ammo burungi (binni Faridun — T. L.) durustroqdur. Chun Nuvdarni o‘lturdi, eron mulkini andoq buzdiki, oz yerda ma’murluq qoldi, yig‘ochlarni kesti va imoratni yiqti va korizlar bila bulog‘larni ko‘mdi. Va ul fursatda Somi Narimon o‘tub, o‘g‘li zol Rustam otasi aning ta’ziyatig‘a mashg‘ul erdi, Zol ul kuchi bila sipoh orosta qilib, ani Eron mulkidin chiqrdi. Ba’zi debturlarkim, Zob binni Tahmosbkim, Manuchehr nabiralaridandur, xuruj qilib, ul aning bila urushur yarog‘in topmay, yuz urub o‘z mulkiga azimat qildi. Afrosiyob podshohlig‘i o‘n ikki yil erdi».

16. Zob Tahmosb — qadnmny Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh. Alisher Navoiy

«Tarixi muluki Ajam» asarida uning haqida to‘xtalib, quyidagilarni yozgan: «Zob binni Tahmosb Feruz ham debturlar. Nasabi yuqori o‘tti. Odil podshoh erdi. Ko‘p vaqt Erondi Afrosiyob buzgon yerlarni isloh qildikim, yuz obodon-liqqa ko‘ydi, Derlarkim, yetti yil raiyyatdin xiroj olmadi. Va ba’zi xazoyinkim. Manuchehr va Nuvdardni qolib erdikim, Afrosiyob qiloi hasonatidin iliklay olmadi. Ul xazoyin bila yetti yil Zob Tahmosb saltanat asbobin tuzub, maosh o‘tkardi. Va Zol binni Som angach xidmatlar qildi va buzuq mamolikni tuzarda modallar qildi. Va Zob ikki rudxonakim, Zobin derlar, Iroq mulkida chnqardi. Va o‘z hayoti zamonida saltanatni Girshaspqa musallam tutti. Aning podshohliqin Banokatiy besh yil debtur. O‘zga tavorixda o‘ttuz yildur».

17. Garshosb—Peshdodiylar sulolasiga mansub podshhlardan. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam» kitobida Garshosb xakida quyidagicha ma’lumot beradi: «Garshosbning onasi» ibni Yamin binni Ya’qub alayhissalomning qizi erdi va otasi Zob binni Tahmosbning qardoshi erdi. Ko‘prak tavorixda Rustam Dostonni aning naslidin debturlar. Ammo faqir qoshida bu qavl yiroqroq ko‘rinur nevchunkim Zolkim, Rustamning otasidur, aning qoshida sipohlar erdi va Garshosbni «Guzida»da balki xeyli tavorixda Manuchehr nabiralarig‘a chiqaribturlar. Va Rustamni Som binni Narimon binni Atrut binni Obting‘a yetkurubturlar, vallohu a’lam. Garshosb bila chog‘ida Afrosiyob yana cherik tortib Erong‘a kelib, Garshosb bila masof tuzub, razm qildi. Afrosiyob urushida Garshosb favt bo‘ldi va Zoli Zar Zobilistondin cherik tortib kelib, Afrosiyobni Erondin chiqardi. Va Garshosbning saltanati zamomida ixtilofdur: «Nizomut-tavorix» va Banokatiyda yigirma yildur, «Guzida» bila «Muntaxab»da olti yil, ba’zida besh yil xam bor...».

18. Ajam—bu yerda Xuroson va Movarounnahrda mashhur qadimiy kuylardan birining nomi.

XII

1. Kayqubod — Eronda hukm surgan kayoniylar sulolasining dastlabki afsonaviy podshohlaridan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uni bir yuz yigirma yil hukm surgan, deydi.

2. Rustam — Eronning mashhur afsonaviy qahramoni. Afsonalarga ko‘ra, Zolning o‘g‘li bo‘lgan Rustam Kayqubod va Kaykovuslar zamonida yashagan va mashhur qo‘shin boshlig‘i bo‘lgan.

3. Kovus— afsonalarga ko‘ra, Kayqubodning nabirasi. Kovus Eronlnpg afsonashsh kaeppy sulolaspdap bo‘lgan podshohlardan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da Kovus yuz ellik yil podshohlig‘ qilgan, deydi.

4. Gudarz— Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uning to‘liq ismi Giv binni Gudarz Kashnod ekanligini aytadi. Eronning afsonaviy qahramonlaridan birning nomi.

5. Tus— Eronning afsonaviy qo‘shin boshliqlaridan biri. U Kayxusravga xizmat qilganligi to‘g‘risida Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da ma’lumot beradi.

6. Siyovush — afsonaviy Kaykovusning o‘g‘li. Siyovush haqida Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozadi: «...Kaykovusning o‘g‘li bor erdi, Sudobadin o‘zga anodin Siyovush otlig‘kim, Yusuf Alayhissalomdin so‘ngra aningdek jamil yigit yo‘q erdi... Va ani Rustam asrab erdi, tarbiyat topib erdi. Sudoba—ugay onasi anga oshiq bo‘lub erdi, andin kom hosil qila olmay, o‘z qo‘rqunchidin Kaykovus qoshi-da ani o‘zi bila badnom qilib chaqti va ul o‘z baroati uchun o‘tqa kirdi. Chun ul tuhmatdin muarro erdi, o‘tdin osiyb topmadi va atosining xato royi va talavvun mizojidin vahim qilib, Turong‘a Afrosiyob qoshig‘a bordi. Afrosiyob anga e’zoz va ikrom qilib, qizin berib, Turkiston viloyatin berdi. Ammo Girsiyuznnng hasaddin sioyat qilg‘oni bila tahqiq qilmay, ani begunoh o‘lturdi va aning borasig‘a ajab hayf yuzidin zulm bordi...».

7. Qayxusrav — qadimgi Eronning afsonaviy podshahlaridan biri bo‘lib, Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uni Siyovushning o‘g‘lch Kaykovusning nabirasi ekanligi haqida ma’lumot beradi.

8. Rustamu Zol — Rustamning otasi.

9. Luhrosb — Eronning qadimiy kayoniylar sulolasiga mansub afsonaviy podsholardan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da Luhrosb haqida yozadi: «Luhrosb binni Avrand

Kaikovusning inisining o‘g‘lidir. Drrul-mulki Balx erdi. Olamning ko‘prak mulkin ochti. Ammo chun otalari saltanat qilmaydur erdilar va Kayxusravning o‘g‘li yo‘q jihatidin mulkni angd berganda, elga qatig‘ keldi. Chun ul bu ishni angladi, el bila andoq borishtikim, borcha ani tiladilar... Chun Luhrosb taxtni Gushtaspqa topshirdi va o‘zi Balxda ibodatqa mashg‘ul erdi. Gushtasp ba’zi bilod fat-hig‘a mashg‘ul erkanda, Arjasp kelib Balxni olib, Luhrosbni o‘lturdi Va Luhrospning podshohlig‘i yuz yigirma yil erdi».

10. Balx—Shimoliy Afg‘onistonda, hozirgi Mozori Sharif g‘arbidagi ko‘hna shahar. Miloddan avval VII asrdan ma’lum. Balx tarixda Ummul bilod (shaharlar onasi) deb yuritilgan. Yunonlar Balxni Baqtra deb ataganlar.

11. Buxtunnasr—Luhrosbning afsonaviy lashkarboshlaridan biri.

12. Garshosb—«Tarixi muluki Ajam»da Gushtasp tarzida berilgan: «Chun Luhrosb taxtni Gushtaspqa topshurdi va o‘zi Balxda ibodatqa mashg‘ul erdi... Gushtasp —Halab mulkida taxtqa o‘lturdi, va zardusht aning zamonida paydo bo‘ldi. Va Gushtasp osoridin Samarqand qo‘rg‘oni va devorikim, Eron va Turon orasig‘a tortilibtur va Naso shahri va Bayzo shahrikim, base akobir va ashrof andindurlar. Va saltanati yuz yigirma yil erdi».

13. Zardusht—qadimgi Eronda Gushtasp zamonida o‘tparastlik dinining asosini qurgan kishi (bu din shu iom bilan mashhur bo‘lgan).

14. Majus — otashparastlik.

15. Bahman — qadimiy Eronning kayoniylar sulolasidan bo‘lgan Luhrosbning nabirasi, Isfandiyorning o‘g‘li, Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozadi: «Bahman podshoh bo‘lg‘ondin so‘ngra adl oyin qildi, Bahmanning otasi Tolut naslidin erdi va harami Argion binni Sulaymon alanhnssalom qnzidip ikki o‘g‘li bor edi: Soson va Dorob. Uch qizi bor edi: Humoy va Farang va Bahmando‘st. Soson zohid va mutaqiy kishi erdi. Mulkka parvo qilmadi, go‘sha tutti. Humoyni Humoni ham debturlar. Bahmon o‘z aqdig‘a kiyurub erdi. Mavt marzida tojni aning qorniga quydikim, Dorobqa homila erdi... Ba’zi debturlarkim, Bahman podshohlig‘ini yo Humoyg‘a berdi, tojni andin tug‘ar farzandga havola qildi. Va podshohlig‘ining zamoin yuz o‘n ikki yil erdi.

16. Zobuliston — qadimiy Eron viloyatlaridai birining nomi. Afsonaviy kahramon Rustam ko‘pincha shu yerda yashagan.

17. Xumoy — Eronning afsonaviy podshoxlaridan Bahmanning xotini. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da u haqida quyidagilarni yozadi: «Humoy roy va xiradlig‘ xotun erdi. Bahmandin so‘ngra taxtqa o‘lturdi... Va Humoyning saltanatining muddati o‘ttuz yil erdi va osori Istaxrda Hazorsutun erdikim, ani Iskandar buzdi va ba’zi Chihil minorni ham anga mansub qilibturlar. Va Samara shahrikim, Jorbodqon derlar ham, ul bino qildi».

18. Doro — Eronda o‘tgan peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh. Alisher Navoiyning «Tarihm muluki Ajam» asarida Dorob deb berilgan va uning sababini batafsil tushuntirgan: «Humoy... Chun homila erdi, vaz’ haml qildi va saltanat hubbi qo‘ymadikim, o‘g‘lini podshohliqqa mansub qilib, o‘zi anga muhofazat qilg‘ay. Ani bir sanduqqa solib qiyr bila mahkam qilib, daryoga soldi. Debturlarkim, bir gozur ilikiga tushub, ani farzandchilay asrab tarbiyat qildi... Gozur ani suvda topqan uchun Dorob ot qo‘ydi...

Dorob chun Humoy o‘rnig‘a taxtqa o‘lturdi, adl va dod pesha qildi. Va ul xiradmand va pahlavon va xo‘b surat podshoh erdi... Va aning saltanatini ba’zi oltmish yil, ba’zi ellik ikki yil derlar».

19. Doroyi Doro — peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozadi: «Doro ibn Dorobni chup valiahd qilib erdi, otasi o‘rniga podshoh bo‘ldi. Chun zolim tab’ kishi erdi, zulmidin ulug‘ el ozurda bo‘ldilar... Va Doroning podshohlig‘i o‘n to‘rt yil erdi».

20. Pahlaviy — bu o‘rinda O‘rta Osiyo xalqlari orasida mashhur bo‘lgan qadimiy kuylardan birining nomi.

XIII

1. Iskandar, Iskandar Zulqarnayi— Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Bu obrazning paydo bo‘lishi tarixiy yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy faoliyatn bilan bog‘liq. Iskandar Qur’onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Iskandar haqidagi ilk ma’lumot X asr tarixchilari Hamza ibn Hasan al-Isfahoniy, Dinyuvariy, Tabariylar asarlarida, keyinroq Beruniyning «Qadimi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida uchraydi. Badiiy asarlarda, jumladan, Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Bal’amiy asarida Iskandar salbiy obraz sifatida berilgan bo‘lsa, Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiyning «Iskandarnoma», Amir Xusrav Dehlaviyning «Oyinai Iskandariy», Abdurahmon Jomiyning «Xiradnomai Iskandariy» asarlarida Iskandar obrazi fotih, olim. faylasuf va payg‘ambar tarzida tasvirlangan.

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi. «Saddi Iskandariy» dostonida esa Iskandarning ideal obrazini yaratib, uni shoh va olim sifatida talqin etadi.

2. Ashki Doro — qadimiy Eronnning ashkoniylar sulolasiga mansub afsonaviy podshoh. Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da xabar berishicha, hokimiyatni Abtahshi Rumiydan (uni o‘ldirib) olib, Eronda uch yil hukmdorlik qilgan.

3. Ashki Ashkon — afsonaviy Ashki Doroning o‘g‘li bo‘lib, Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da Ashki Ashkon yigirma yil podshohlik qilgan, deydi.

4. Bahromi Shopur — qadimiy Eronning ashkoniy sulolasidan bo‘lgan afsonaviy podshohlardan biri. U otasi (Ashki Ashkon)dan keyin o‘n bir yil taxtda o‘tirgan, deydi Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da.

5. Yalosh ibni Bahrom — Eronning ashkoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan podshohning nomi. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uni Bahrom binni Shopurning valiahdi bo‘lganligi hamda o‘n besh yil podshohlik qilganligini hikoya qiladi.

6. Hurmuz ibin Yalosh — ashkoniylar sulolasining podshohlaridan. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uni otasi (Yalosh ibin Bahrom)ga noyib bo‘lib, o‘n to‘qqiz yil podshohlik qilganligini xabar beradi.

7. Narsi ibni Yalosh — qadimiy Eronning ashkoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan afsonaviy podshoh. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uning o‘n yil podshohlik qilganligi haqida xabar bergan.

8. Feruzi Hurmuz— ashkoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan podshoh. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da: «...aning saltanati o‘ttuz yil erdi», deydi.

9. Yalosh ibn Feruz— ashkoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan shoh Alisher Navoiy. «Tarixi muluki Ajam»da: «...ul Xusravning qardoshi erdi. Oqibat ul dog‘i qardoshi ichgan sharbatni ichti va aning podshohlig‘i yil erdi», deydi.

10. Xusrav ibn Yalosh—qadimiy Eronning ashkoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan podshohlardan bir.

11. Yaloshi Yalosh — ashkoniylir sulolasiga mansub bo‘lgan podshohlardan biri. Ye. E. Bertels bu nomni Baloshi Balosh, deydi.

12. Ardavoni Yalosh—ashkoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh.

13. Ardavon ibni Ashg‘on— qadimiy Eronda ashkoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh.

14. Gudarzi Ashg‘on—qadimiy Eronning ashkoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh.

15. Ardavon—Eronning ashkoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uni Arduvon binni Yalosh tarzida qalamga olib quyidagicha yozadi:

«Ashkoniylarning so‘nggi podshohi erdi, azamat va tajammuli va mulkining vus’ati ul tabaqadagi salotindin ortti. Va mulki tavoyifdin ko‘pin ul maqhur qilib, mulkin oldi va o‘ziga munqod qildi. Va oxirul-amr Ardasher Bobak ani oradin chiqarib mulk ashkoniylardan sosoniylarg‘a intiqol topti...».

XIV

1. Ardasher ibni Bobak — sosoniylar sulolasidan bo‘lgan birnichi podshoh. «Tarixi muluki Ajam»da u quyidagicha xarakterlanadi: «...Har taqdir bila Ardasher Bobak sosoniylarning avvalg‘i podshohidir. Va ul Soson binni Bahman nabirasidur. Va aning sharhi budirkim, chun Bahman Humoyni valiahd qildi, Sosonkim o‘g‘li erdi, go‘sha tutti, andoqkim, mazkur bo‘ldi... Sosondin bir o‘g‘ul qolib erdi, oti aning ham Soson erdi, mutavori va maktum yurur erdi.

2. Shopur bin Ardasher — sosoniylar sulolasidan bo‘lgan Ardashor Bobakning o‘g‘li.

3. Hurmuz — qadimiy Eronning sosoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan podshoh.

4. Bahromi Hurmuz — sosoniylar sulolasiga mansub podshoh. «Tarixi muluki Ajam»da Alisher Navoiy Bahrom binni Hurmuz deb bergan. Navoiy yozadi: «Bahrom binni Hurmuz otasi Hurmuz vasiyati bila podshoh bo‘ldi va Moniy naqqoshning, millatikim Zindiqa erdi, aning zamonida shoyi’ bo‘ldi. Va ko‘p xaloyiq anga firifta bo‘ldilar va aning dinig‘a kirdilar. Atboi qolin va bu Bahrom xudoparast erdi va xiradmand podshoh erdi. Tiladikim, Moniyning millatin daf’ qilg‘ay. Avval ani umidvorlig‘lar bila musohib va mulozim qildi va atboin o‘zidin vahimsiz qildi, to barcha zohir buldilar. Andin so‘ngra ulamoni yig‘ib, aning bila bahsqa soldi va ulamo ani yakfan qilib, kufrni anga sobit qildilar. Bu hujjat bila Moniyning terisin so‘ydurub, somon tiqtirdi va atboin qatl etti... Va Bahromning zamoni va muddati uch yil va uch oy erdi».

5. Bagromi Bahrom— sosoniylar sulolasiga mansub podshoh. Alisher Navoiy uni «Tarixi muluki Ajam»da Bahrom binni Bahrom tarzyada ataydi.

6. Bahromi Bahromi Bahrom — sosoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh. «Tarixi muluki Ajam»da Bahrom binni Bahrom binni Bahrom deb berilgan. Navoiy yozadi: «Ota va abuka otin anga qo‘ydilar, va lekin ani shahanshoh dedilar. Bu laqab bila shuhrat tutti va ul kishikim, bu laqab topti ul erdi. Sha’ni arjumand va axloqi dilpisand podshoh erdi, axloqi elga marg‘ub va atvori ulusqa matlub. Zulm binosni buzdi va adl asosin tuzdi... Va ul to‘rt oy mulk surdi...».

7. Narsi—sosoniy podshohlaridan biri. «Tarixi muluki Ajam»da uning to‘lik ismini Narsi binni Bahrom deb keltiriladi.

8. Hurmuzi Narsi—sosoniy podshohlaridan Nasri binni Bahromning o‘g‘li. «Tarixi muluki Ajam»da Hurmuz binni Narsi deb berilgai va u quyidagicha xarakterlangan: «Ul bag‘oyat mutakabbir kishi erdi. Saltanatidin burun bu sifotin el bilib, andin haroson erdilar... Bir kun g‘oyat xudpisandlig‘idin so‘rdikim, maning af’ol va sifotimg‘a ne nima keraklikdur?.. Hakim mundoq javob berdikim, xaloyiqqa hokim va sohibi ixtiyor bo‘lg‘ondek o‘z nafsingg‘a ham hokim va sohibi ixtiyor bo‘lmoq sanga keraklikdur. Ul bu so‘zdin, chun zoti javhari bor erdi, g‘aflat uyqusidin seskanib, o‘z qilig‘i tegrasiga uyrulub, mustahsan avtor tutub, marzi axloq pesha qildi... Va Hurmuzning zamoni yetti yil yo to‘qquz yil erdi».

9. Shopuri Hurmuz— sosoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh.

10. Ardamer ibni Hurmuz — sosoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da: «Ardasher binni Hurmuz Shopur zul Aktofning inisi erdi. Vafot qilurda chun Shopur o‘g‘li kichik erdi, saltanatni inisig‘a berdikim, o‘g‘li ulg‘aysa, anga bergan... Chun Shopur o‘g‘li ulg‘aydi, mulkni anga musallam tutib o‘zi oradin chiqti. Saltanati, zamoni o‘n yil erdi», deb yozgan.

11. Shopuri Shopur — sosoniy podshohlaridan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uning haqida quyidagilarni yozgan: «Shopur binni Shopur chun taxtqa o‘ltirdi, bag‘oyat atvori, husn va axloqi mustahsan podshoh erdi. G‘oyat yaxshilig‘idin Rum podshohini o‘ziga muti’ qilib erdi, andoqki qaisar vafoti chog‘ida, chun o‘g‘li kichik erdi, Shopurg‘a kishi yiborib, istido’ qildikim, men qaribmen... o‘g‘li kichikdur, bir kishi... yiborkim, Rumda saltanat qilsun, O‘g‘lum ulg‘aysa, mulkni anga topshurg‘ay. Shopur Shirvinni yibordi... Chun mulk vorisi ulg‘aydi, Shirvin taxalluf qilmay, mulkni anga topshurdi... Shopur chodir ichinda erdikim, qatiq yel qo‘pub chodirni aning boshig‘a yiqti

va sutun boshig‘a tegib, halok bo‘ldi. Va saltanati besh yil va bir nima erdi».

12. Bahromi Shopur — sosoniy podshohlaridan biri. «Tarixi muluki Ajam»da shunday yoziladi: «Otasi Shopur o‘rnida taxtqa o‘lturdi va aning siyratin ba’zi muarrixlar yaxshi debturlar va ba’zi yomon. Va ani Kirmonshoh derlar... Bahromni ba’zi... bir yil podshohlik qildi debturlar...».

13. Feruz bin Yazdijird— sosoniy podshohlardan bo‘lgan Hurmuz binni Yazdijirdning o‘g‘li. «Tarixi muluki Ajam»da Navoiy yozadi. «Feruz binni Yazdijird musulmon aa oqil kordon va odil podshoh erdi. Adolat bila mamolikni obod qildi va saxovat bila raoyoni xushnud va shod etti. Aning saltanati zamonida yetti yil qahat voqe’ bo‘ldi va raoyodin xirojni soqit qildi. Bu yetti yil hech kishi kishidik hech nima tilamadi va ko‘prak muhtojlarga xazinasidin vajhi maosh muqarrar qildi. Aning adolati barakatidin... yetti yildan so‘ngrakim yomg‘ur berdi. Ul yilda oncha mahsul karam qildikim, yetti yilliq qahatning qusuri rost bo‘ldi... Va Feruz ko‘prak mamolikni olg‘ondin so‘ngra Turkiston mulkiga etrdi. Va Turkiston podshohi aning bir manzilida azim chohlar qazib, ustidin xaspo‘sh qilib erdi... ko‘p el ul chohlarga tushti. Ittifoqan o‘zi dog‘i bir chohqa tushub halok bo‘ldi... Va saltanati zamoni yigirmi yil erdi».

14. Yalosh ibni Feruz— sosoniylar sulolasidan bo‘lgan podishh.

15. Kubod ibni Feruz — sosoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh.

10. Jomosb—sosoniylar sulolasidan, Qubod ibni Feruzning ukasi «Tarixi muluki Ajam»da uning haqida quyidagicha ma’lumot bermladi: «...Qubodni tutub band qildilar. Va Jomaspnikim, aning inisi erdi, podshoh qildilar. Mazdak qochib Ozarbayjong‘a bordi va Qubodning singli ani hiyla bilan qochurdi. Va ul Turkistong‘a borib, bazi hayotila debturlar, har taqdir bila ko‘mak olib, mulk ustiga yurugach, bildilarkim, Jomasp aning bila muqovamat qila olmas. Ani ham band kildilar va Qubodg‘a topshurub, Qubodni yana taxtqa o‘lturttilar... Va muarrixlar Jomaspni muluk a’dodida tutmaydurlar».

17. Nushiravoni Qubod — Sharq xalqlari yozma va og‘zaki ijodiyotida adolatparvar hukmron timsolida keng tarqalgan obraz Alisher Navoiy hal Nushiravonni odil podshoh sifatida talqin etgan. Bu nom Alisher Navoiy ijodida Nushirvon, Nushiravon va Anushirvon shakllarida uchraydi.

18. Hurmuz ibni Anushirvon — sosoniylar sulolasidan bo‘lgan Nushirvonning o‘g‘li.

19. Parvez Hurmuz — Hurmuz ibni Anushirvonning o‘g‘li. U Sharq adabiyotida Xusrav Parviz nomi bilan mashhur. Xusrav Parviz Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviylar «Xamsa»sidagi ikkinchi doston «Xusrav va Shirin»ning asosiy qahramoni. Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida uni bosqinchi, adolatsiz, zolim shoh sifatida tasvirlagan.

20. Sheruya — Parviz Hurmuzning o‘g‘li. Sheruya Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi salbiy obrazlardan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uning haqida quyidagilarni yozgan: «Sheruya otasini o‘lturgandin so‘ngra, podshohliq taxtig‘a o‘lturdi... Ammo mujmali budurkim, Xusravning g‘oyat tajammuli va joxidin ul nav’ki yukori te’dod qilildi, dimog‘ida g‘urur va fe’lida futur bo‘lub erdi va siyosat va g‘azabi elga haddin oshib erdi. Ul jumladin biri bukim, munajjimlar anga deb erdilarkim, sening zavoling o‘z avlodingning ilgida bo‘lg‘usidur... Otasini o‘lturgandin so‘ngra aning ham jismiga azim ranj tori bo‘lub, yetti oydin so‘ngra hayot va diatin ajal muqoziysig‘a topshurdi. Mulk hirsidin o‘n yetti og‘o-inisini dog‘i o‘lturdi...»

21. Ardasher— sosoniylar sulolasidan bo‘lgan Xisrav Parvizning nabirasi. Sheruyaning o‘g‘li. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da u haqmda mufassal ma’lumot beradi.

22. Qisra Arislon — Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uning to‘liq nomini Kisro Arslon binni Kisro Qubod binni Feruz deb bergan.

23. Qisro — sosoniylar sulolasidan bo‘lgap podshoh.

24. Turon — sosoniylar sulolasidan bo‘lgap Parvizning qizi. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uning nomini Turondo‘xt deb beradi va bu haqda yozadi. «Turondo‘xt chun podsholig‘ taxtig‘a orom tutti, bag‘oyat oqila erdi, bildikim, mulk anga o‘zgalardek vafo qilmag‘usidur. Dod va adl bunyod qildi va xaloyiqqa ko‘p umidvorliglar berdi. O‘zidan burungi jami’ akosira zamonidni qolg‘on shaltoqlarni jami’ raoyog‘a bag‘ishlab, daftarlarin buyurdikim yuvdilar va yaxshi oyinlar

orag‘a kiyurdi... Va xaloyiq andin base muroffah va masrur bo‘ldilar... Va Turondo‘xt Shahrirodni o‘lturgop kishinikim, Mashhur Xurosoniy derlar erdi, tarbiyat qilib, vuzarot berdi. Va bir yilu to‘rt oy podshohlik qilg‘ondin so‘ngra mulkka vido’ qildi».

25. Parvez Baxrom — qadimiy Eronning sosoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh.

26. Ozarm — sosoniylar sulolasidan bo‘lgai Turondo‘xtning singlisi.

27. Farrux— sosoniylar sulolasining oxirgi podshohlaridan biri. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da uni Farruxzod deb bergan: «...Yana kishi tilar erdilar. To mag‘rib shaharlaridin birida Farruxzodni toptilar va taxtqa o‘lturttilar. Va ani ham Parviz avlodidin debturlar. Va ul dogi olti oy saltanat qilg‘ondin so‘ngra qatlg‘a keldi».

28. Yazdijird — sosoniylar sulolasining eng oxirgi podshohi.

XV

1. Ko‘k toqiga ko‘p sado solgan turt xayl — Eronda hukmronlik qilgan to‘rt (peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va sosoniylar) suloladan iborat. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam» asari hamda «Saddi Iskandariy» dostonining XI, XII, XIII va XIV boblarida bu sulolalarning har biri to‘g‘risida o‘zigacha mavjud bo‘lgan tarixiy asar va manbalardan kelib chiqib ma’lumot beradi, ularning hammalarini «muluki Ajam» (Ajam hukmdorlari) deb ataydi.

2. Navoiy Iskandar ikkinchi (Kayoniylar) tabaqadai so‘ng o‘tdi, deydi, Aslida esa Iskandar sosoniylar davrida o‘tgan.

3. Faylaqus—Iskandarning otasi.

4. Mazmuni: «Ko‘rdilarki, homilador xotin bir bola tuqqan, lekin xotnning jismida ruh qolmagan (o‘lgap)».

5. Ano so‘gi — onasinnng motami.

6. Nori majus—majusiy (o‘tga topniuvchi)lar olovi, yani yolqinli olov.

7. Donayi dahr — Abdurahmon Jomiy bo‘lib, ayni paytda, u ham o‘zinnng shu nomdagi dostonini yaratish bilan band bo‘lgan.

8. Nassi qote’ — keskin dalil.

9. Naqumohis— Iskandar otasi Faylaqusning olim va donishmand vaziri bo‘lgan, u Iskandarga yoshligidan boshlab tarbiya berib, unga ko‘p ilmlarni o‘rgatgan.

10. «Mustaqimin», «rojiin» munajjimlar termini bo‘lib, yulduzlarning «to‘g‘ri yurishi» va yurishdagi «orqaga siljishi» kabi taxminlarni ifodalaydi.

11. Tifli farruxpayi pokzod— Iskandar demak.

12. Xushku tar, bahru bar — quruq va suv, dengiz va yer yuzi ma’nosida.

13. Mazmuni: «Goh ot ustida qurol o‘ynatar, goh yayov holda kuch ko‘rsatar edi».

14. «Ota azasini bartaraf qilgan, taxtga chiqib, shohlik uzugini taqdi».

15. Alisher Navoiy dostoni qurilmasining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, unda boblar oxiridagi lirik xotnmani ham takompllashtirganidir. Agar Nizomiy Ganjaviy «Iskandarnoma»ning «Sharafnoma» qismida soqiyga, «Iqbolnoma» qismida mutribga murojaat qilgan bo‘lsa, Xusrav Dehlaviy esa har bir bob oxiridagi lirik xotimada ham soqiy va ham mutribga murojaat qilsa, Alisher Navoiy bob oxirida soqiy va mugribga murojaat qilish bilan birga, o‘z-o‘ziga ham murojaat qilish bilan bobni yakunlaydi.

XVI

1. Oldingi va bu baytning mazmuni:

«Jat (hayvon o‘rgatuvchi)niig aniq o‘ynatishdan maqsadi non topish bo‘lgach, uni itga tashlash mumkinmi, maymun topganini ichiga siqqancha yeb, qolganini lunjiga to‘playdi».

2. Bu so‘z «Xamsa»ning 1960 yil Toshkent nashrida «boyim» tarzida berilgan. Boshqa manbalarda «bim» (qo‘rquv, qo‘rqinch, xavf) shakdlda to‘g‘ri yozilgan.

3. Baytning mazmuni: «Himmat ahlining fe’li kengligi tufayli, uning oldida boy ham, kambag‘al ham birdek ko‘rinadi».

4. Mazmuni: «Saxiyning qanday boyligi bo‘lmasin, in’om etishda uning qimmati ko‘ziga ko‘rinmaydi, hatto oxirgi tangasigacha ehson qilaveradi».

XVII

1. Bu hikoyat Abu Bakr Muhammad ibn Muhamad ibn al Valid al-Faxri at Turtushi (1220—27 yilda o‘lgan)ning «Siroj ul-mulk», Abdurahmon Jomiyning «Iskandarnoma» dostonlarida ham bor (Ye. E. Bertels, Navoi va Djami, 300—307, 360—389-betlar). Navoiy unga, birinchidan, voqeani Mag‘rib zamni (Shimoliy Afrika)da bo‘lib o‘tgani, ikkinchidan, o‘sha joydagi podshohning jang vaqtida o‘lgani kabi detallarni qo‘shgan.

2. «Tirik odamlarga aralashmaydi, eski qabrlardan boshqa joyda turmaydi».

3. «Yana biri: hech birda kambag‘allik bilan almashinmaydigan abadiy boyliklar».

XIX

1. Qarama-qarshi qo‘yish usulidan foydalanib yaratilgan bu baytning mazmuni: «Sher tortishi kerak bo‘lgan narsani chumoli qanday tortsin, filning yukini pashshaga ortib bo‘ladimi axir».

2. Oldingi uch va bu baytning mazmuni:

«U har ishda zamon ahlidan ustun, shu bilan shohlikka loyiq, quyoshdek zo‘r mehrli, sof ko‘ngil, qo‘shin tortganda olamni qo‘lga oladigan, adolat chog‘i xuddi navbahorday charaqlagay, siyosat bobida jahonni o‘rtovchi yashinday, shafqatsizlikda dushmanni qaytaradigan,» qattiqlik paytlarida xalqparvar bo‘lsin».

3. «Soliq yozuvchi amaldor xalqqa sitam qilsa, soliq yozuvchi qo‘lini qalamdek qalam qilsin (tiisin)».

4. Kitobat san’ati ishlatilgan bu baytda: zulm so‘zidagi «lom» (l) ila «mim» (m)ni «lam»i jaxdga, ya’ni morfologik qoida bo‘yicha, bo‘lishsizliq belgisiga aylaptirib, «zulm» so‘zining o‘zini ham yo‘q qilsin deyiladi.

5. Sening so‘znng garchi jon bag‘ishlog‘chi bo‘lsa-da, hozirgisi

barchani yoppasiga qirib yuborgudek bo‘ldi».

6. Yupiter planetasi, forscha nomi Birjis bo‘lib, munajjimlar bu sayyorani «Sa’di akbar» va «Falak qozisi», joyi oltinchi falakda, deydilar.

7. Arastu — yunon faylasuflaridan Aristotel ismining arabcha shakli. Navoiy tasviricha, Iskandarning yurishlarida uning yonida birga yurgan, har bir bobda ilm-hikmat yo‘li bilan mushkullarini hal qilib turgan yetti olim, donishmand, hakimlardan biri.

8. Balinos — Iskandar atrofidagi yetti olim, hakimdan birining nomi.

9. Ilyos — qadimgi adabiyotda bu nom kishilarning daryo safarlarida yo‘ldoshi va yo‘lboshlovchisi simvoli o‘laroq gavdalanadi, quruqlik safarlarida esa rahnamo Xizrdir.

10. Navoiy bu bayt orqali hammani (podshohmi u, gadomi u, qat’i nazar) adolatga undamoqda.

XX

1. Anuishrvon — asli ismi Xusrav I bo‘lib, laqabi Anushirvondir. Anushirvon so‘zining ma’nosi — adabiy ruh egasi, ulmas ruh egasi demakdir. Anushirvon otasi Qubod o‘lgandan so‘ng (531 yil) taxtni egallaydi va Mazdak qo‘zg‘olonini bostiradi, shuning uchun voqeanomalarda adolat timsoli sifatida

shuhrat qozongan.

XXI

Mahmud—tarixiy shaxs. Mahmud G‘alnaviy ibn Sabuktagin (1030 yilda o‘lgan)—G‘aznaviylar davlati hukmdori (998—1030), somoniylarning Xurosondagn noyibi Sabuktagin vafot etgach (997), taxtni uning katta o‘g‘li Mahmud g‘aznaviy egallaydi. Uni Maisur ibn Nuh II (somoniylardan) Balx, Termiz va Bust shaharlari noyibi deb tan olishga majbur bo‘lgan. Mahmud G‘aznaviy 999 yili butun Xurosonna egallab o‘zini sulton deb e’lon qilgan. So‘ngra u 1001 yilda Qoraxonaylar xoni Nasr bilan shartnoma tuzgan. Shartnomaga ko‘ra, ikkala davlat uchun Amudaryo chegara chizig‘i deb belgilangan. Xorazmshoh Abulabbos Ma’mun (999—1016) xalq qo‘zg‘oloni vaqtida qatl etilgach, Mahmud G‘aznaviy 1017 yilda Xorazmnn bosib olgan. Mahmud G‘aznaviy 1025 yilda Movarounnahrga hujum qilib, Sog‘oniyon hamda Xuttai (Ko‘lob)ni o‘ziga qaratib olgan. U Panjob, Kashmir va Shimoliy Hindiston viloyatlariga 17 marta talonchilik yurishlari uyushtirgan. Mahmud G‘aznaviy pahlaviy va arab tillarini bilgan, o‘zi she’rlar ham bitgan. U G‘aznada juda ko‘p nodir kitoblar to‘plagan (o‘arang: O‘zSE, VII tom, T., 1976, 94-bet).

Badiiy adabiyotda Mahmudni odil podshoh sifatida talqin etish an’anaga aylangan. Nizomiy Ganjaviyning «Maxzanul-asror» dostonida keltirilgan Sulton Sanjar va kampir xaqidagi, Navoiyning «Saddi Iskandariy» aslrida Mahmud va Mas’ud (Mahmudning o‘g‘li) hikoyatlar fikrimizga yaxshi dalildir (ko‘ring: Ye. E. B ye r t ye s, «Navoi i Djami» 390 str.). Navoiy bu hikoyatda Mahmud hayotiga bog‘liq bir lavha (kampir uyiga bostirib kirgach sarbozlarni jazolashi) orkali uning odil bo‘lganligini alohida ta’kidlaydi. Nizomiy va Navoiy dostonlarida tasvirlangan Mahmud obrazi tarixiy Mahmud G‘aznaviy bo‘lmay, buyuk shoirlar badiiy tafakkurlarining mahsulidir.

XXIII

1. Mo‘badi nuktasanj — so‘zga epchil donishmad ma’nosida.
2. Yukoridagi ikki va bu baytning mazmuni: «Yana qissasiga aql yugurtirib, tarixlari ustida ko‘p o‘ylab ishlarida qanchaki g‘aroyib bo‘lsa u ishda ko‘p ajoyib bor esa, unda mavjud bo‘lgan yolg‘onlarni chiqarib tashlab, unga nazm bilan bezak bersam», deydi.
3. Fathi bilod — shaharlarni qo‘lga kiritish.
4. Mag‘rib zamin — G‘arb bu o‘rinda Afrika mamlakatlari ma’nosnda.
5. Zangibor — bu o‘rinda Habashiston ma’nosida ishlatilgan.
6. Doro — Eronda o‘tgan kayoniylar sulolasining oxirgi podshohi. Bu haqda yuqorida ham aytildi.
7. Bilodi Farang — Yevropa mamlakatlari ma’nosida.
8. Baytning mazmuni: «U yerning xalqlarini mute’ qilgach, Qrim bilan Andalus (Ispaniya)ni bosib oldi».
9. Zardusht — qadimgi Eronda o‘tparastlik diniga asos solgan kishi (bu din shu nom bilan mashhur bo‘lgan),
10. Suhayl nomli yulduz Yaman mamlakatida yaxshi ko‘rinar ekan va u yerda haqiq atalgan qimmatbaho tosh ko‘p topilar ekan, bu joyda o‘shanga ishora qilinadi.
11. Mazmuni: «Os va Rus tomon yurganda, u yerdagilarnin yuzlari qo‘rquvdan qahrabodek sarg‘ayib ketdi».
12. Charkas — hozirgi Gruziya sostavida joylashgan mavze. Gurja esa hozirgi Gruziyaning tarixiy nomi.
13. Mazmuni: «Chigil bilan Yag‘modan xuddi chamanda g‘arbdan sharqqa esgan shamolday o‘tib ketdi».
14. «Yo‘llarin o‘lchatgach, mamlakatning yo‘llari orasidagi masofalar uchun yig‘och (uzunlik)

o‘lchovini tayinladi».

15. Bir yig‘och masofa o‘n ikki ming qari (metr)ga teng.

16. Baytning mazmuni: «Uning tashabbusi bilan har bir yig‘och yo‘lga ma’lum belgi qo‘yildi».

17. Mazmuni: «Tig‘i chaqmoqday alangalangach, zanji (qora tanli negr)lar ko‘mirday kuydilar».

18. «Oltin tuxum istab ko‘p mashaqqatga duchor bo‘lma, chunki oltin tuxum beruvchi qush havoga uchib ketgan (o‘lgap)».

19. «Uning g‘azab o‘ti shunday alangalanib ketgan ediki, go‘yo osmon ichida qiyomat-qoyim boshlangandek ko‘rinardi».

20. Baytning mazmuni: «Men unga shunday ta’zir beraykim, uni eslaganda har qanday badkirdor odamning ko‘zi ochilib ketadigan bo‘lsin».

21. Chavgonu go‘y — chavgon—uchi egri uzun tayoq, go‘y — chavgon o‘yinida qo‘llanadigan to‘p, koptok.

22. «Sirlar tashuvchi (elchi) ikki bukilib dedi: «Joningga haqdan ming-minglab rahmatlar bo‘lsin».

23. «Kishi o‘ziga qul deb xitob qilishi har holda to‘g‘ri yo‘l emas».

24. «Qo‘ton (laylak) katta qushlardan sanaladi, lekin shunqor oldida uning nima joni bor?»

25. Oldingi ikki va bu baitning mazmuni: «Yana biri bukim, shoh menga ehson qilib, go‘y bilan chavgon yuboribdir. Bunda ham bir maxfiy va ramziy ma’no bor. Masalan, olimlar justuju qilib, yer yuzini go‘ydek dumaloq ekanini aniqlaganlar».

XXIV

1. Rifq — muloyimlik, yoqimlilik.

2. Mazmuni: «Qaysi amal — o‘rinda bir guruh o‘tirgan bo‘lsa, hammasining mayli boshqa amalga — yuqori amalga o‘tishida bo‘ladi».

3. «Taassub oraga tashvish solgach, oraga yana nizo-adovat tushdi».

4. Mazmuni: «Bular ichida o‘rta tabaqadagilarning nizolari ashaddyaroq bo‘lib, bularning noahllig‘idan juda Ko‘p zarar yuzaga keladi».

5. Bu to‘rt baytda Navoiy o‘z zamonida ko‘rgan fojialarini aks ettirgan: «Husayn Boyqaro bilan o‘g‘li orasiga nizo tushib, ko‘p qon to‘kilgandan, uning o‘g‘illari: oralarida va umuman Temur avlodi orasida dushmanlik paydo bo‘lib, ko‘p xalqni va bir-birlarini xarob qilganlar.

Mazmuni: «Har qalay ikki darveshning do‘stligi — bir-biriga dushman bo‘lgan ikki shohdan afzaldir».

XXV

1. Chingizxon (asl nomi Temujin, Temuchin) (taxm. 1155—1227 25. 8)—mo‘g‘ul feodal imperiyasi asoschisi, sarkarda.

2. «Agar kishi do‘stlikni havas qilsa, to abad unga ushbu masal kifoyadir».

XXVI

1. «Shohi Faridunxaishm»—Iskandarga nisbatan ishlatilgan sifat.

2. «Hikmat oyini donanda»—Arastuga nisbatan aytilgan.

3. Uch baytning mazmuni: «Birovning nojo‘ya bir ishi bo‘lib, uni qilishi zarur bo‘lib qoladi. Ammo bu ishdan el-yurtga katta-kon zarar yetadigan, tagi qaltis, janjal chiqadigan bo‘lsa, birov bu ishni man’ etish imkoniyatiga ega bo‘lsayu, bundan o‘zini chetga olsa, u kechirarli emas».

XXVII

1. Mazmuni: «Kishilar xayr berish uchun Rum, Zangibor, Farang mamlakatlaridan boshqa hamma joyga, dunyo bo‘yicha to‘xtovsiz choptilar».

2. Turon—O‘rta Osiyoning shimoli-g‘arbi va Qozog‘istoning janubi-g‘arbidagi tekislik.

3. «Hamma iqlimning hukmdorlari bo‘yinlariga itoat xalqasini osib, to‘da-to‘da bo‘lib kelishar edi».

4. Bu va oldingi uch baytning mazmuni: «Xitoy mamlakatining xoqoni Mangu ham, Hind elkning boshlig‘i Qoraxon ham, Misr yurtining azizi Varqa’ ham, Dasht elining hokimi Temurtosh ham, Xovaron mamlakatidan Farangisu, Shirvon elidan Davoli kabi kishilarning hamma-hammasi Doroning ko‘z o‘ngidan o‘tishdi. Shoh va shahzodalarning, sarkarda va amaldorlarning son-sanog‘i yo‘q edi».

5. Mazmuni: «Lekin Iskandarning shiori sulh va tinchlik edi, u Doroga o‘xshab hovliqmasdi».

6. «Kecha posbonlari qanchalik hushyor bo‘lsa, qo‘oshn qorovullari ham shunchalik ziyrak—bedor edilar».

7. U (Iskandar) «Xaibar qo‘rg‘onidek handaq yasadi, yo‘q Xaybar emas, Iskandar devoridek istehkom qurdi».

8. Bu ikki baytning mazmuni: «Men hikmat yo‘lida muncha lof urib, ajab yerda urush maydonini yoyib-ochib qo‘ngan ekanman. Bu yerdan qaytishning imkoni yo‘q, urush qilsam nuqsondan boshqa hech narsa bo‘lmas».

9. Mazmuni: «Qo‘shinning har tarafini ilg‘or qism o‘rab oltan bo‘lib, ular dushman tarafidan pisib keladigan tun o‘g‘rilarini (razvedkachilarni) qo‘lga tushirish payida edilar».

10. «Go‘yo yerda zilzila paydo bo‘lib, u «o‘z homilasini tashlab qo‘ydi».

11. To‘rt bayt mazmuni: «Taqdir ikki daryoga jo‘sh soldi, bu g‘avg‘o Mirrix planetasi qulog‘iga yetdi. Polvonlar haybatli na’ralar torttilar, bu na’ralar yer qatlamlariga zilzila soldi. Yerda zilzila paydo bo‘ldi, «va yer o‘z yuklorini yuzaga chiqardi», qilichbozlar, falak turki (Mirrix planetasi)dek boshdan-oyoq ko‘k temirga chulg‘andilar».

12. Borong‘or — harakatidagi qo‘shinining o‘ng qanoti.

13. «Bu vaqtda jannatga o‘xshash Samarqand yo‘q edi, buni (Samarqandni) Iskandar bino qildi».

14. Shaypol — Iskandarning qo‘shni boshliqlaridan biri.

15. «Qurollarning bir-biriga urilishidan chaqmoq o‘ti yarqirar, otlarning kishnashidan esa, momaqaldiroq sadosi eshitilardi».

16. Mazmuni: «Falak beyaasining tabiati qisirlik bo‘lmaganda, bu g‘avg‘odan u homila tashlab yuborar edi».

17. Boriqi Barbariy— Doroning sobiq askari. U Dorodan ko‘p jabr ko‘rib, Iskandar qo‘shiniga xizmatga o‘tgan.

18. Harron — Doro pahlavonlaridan biri.

19. Shayda—Harronning qarindoshlaridan, Doroning pahlavonlaridan biri bo‘lgan.

20. Ravshanak — Eron shohi Doroning qizi. Doroning jang maydonida o‘limi oldidan vasiyatiga ko‘ra, Iskandar bu go‘zal qizni xotinlikka olgan.

21. Bu baytning mazmuni: «Agar davr Doroga zaharni tez bergan bo‘lsa, Iskandarga ham abadiyatni bera qolmaydi-ku!»

XXVIII

1. Ikki baytning mazmuki: «Kimki shohlik qilishni istasa, barcha askarlarning holidan voqif bo‘lsin. Ularning ta’minoti masalasini hal qilganda, har kishining darajasiga qarab izzatini bajo keltirsin».

2. «Hayril-umur»—ishning yaxshisi demak, bu yerda «ishning yaxshisi o‘rtachalikdir» degan arabcha maqolga ishora qilingan.

3. Mazmuni: «Feruzani eshakmunchoqdan va butun chinnini siniq sopol ko‘zadan farq qilsa».

4. Arabcha yozuvda har ikkala so‘z bir shaklda — ( ) yozilsa-da, birinchisi ming, ikkinchisi esa bir (abjad hisobida)dir.

5. Ikki baytning mazmuni: «Biyobonda o‘lgan toshbaqaning quruq chanogi shaklan sadafni eslatadi. Lekin buning birida durdona bo‘lsl, ikkinchisida bir necha chirigan suyakdan o‘zga narsa bo‘lmaydi».

XXIX

1. Bu qismda gap Sulton Abu Said haqida bormoqda. Sulton Abu Said — Amir Temurning evaralaridan biri (Mironshohning nabirasi). Xuroson hukmdori bo‘liap bu shoh Ozarbayjonga harbiy yurishi vaqtida Mug‘on dashtida o‘ldirilgan.

XXX

1. Navoiy dostonining asosiy boblaridagi hikmat qismida Iskandar ko‘pincha Arastuga savol bilan murojaat qiladi. Bu yo‘l faqat yetmish uchinchi bobning uchinchi qismida Suqrotga va yetmish yettinchi bobning uchinchi qismida Luqmonga murojaat qilish bilan o‘zgargan, xolos.

2. Mazmuni: «Lekin buni qilish nafsiga og‘ir keladi va kishining nafsi yengillik tomoniga mushtoq bo‘ladi».

3. «Kimdakim biron yomon xislatga ega bo‘lsa, har ishda va har qanday holatda o‘sha tug‘ma xislatning ta’sirdia yuradi».

4. Atorid—Merkuriy sayyorasi.

XXXI

1. Baytning mazmuni: «Agar Doro ikkidan birini berib, uning ham yarmini xalqdan undirib kelgan bo‘lsa, biz buni (maoshni) ikki baravar oshiramiz».

2. «Shoh: Xazinadan ikki hissadan maosh bering,— dedi. Shunday qilib, el ranjdan qutuldi».

3. Mazmuni: «Hamma xazinadan maoshini oldi, shah o‘ziga tobelarni shunday rozi qildi».

4. Baytulharam — Makka shahridagi Ka’ba shu nom bilan yuritiladi.

5. Ilhomi hotif — g‘oyibdan xabar beruvchi ilhom, joni xoif — qo‘rquvchi jon.

6. Mazmuni: «Agar itoat qilmay, bo‘yin egmay, xudo saqlasin, johillik va o‘jarlik qilsang».

7. Mazmuni: «Elchilar har tarafga ketdilar. Ular ishda, so‘zlashda lozim ko‘ringan hamma narsani maydasidan yirigigacha bilib olgan edilar».

8. Oldingi beshala va bu baytning mazmuni: «Zero, tangri menga uch hunarni nasib qilibdurkim, agar birovdan yengilsam kutilmagan g‘aroyib voqea bo‘lur edi. Birinchisi shukim, mamlakatim nihoyatda mustahkam, uning tog‘lari baland, qal’alari istehkom shaklida. Bundan tashqari, bu yerda yana bir ajoyib ish qilingankim, qal’aning butun tevaragi ham, yer osti ham daryodan iboratdir. Ikkinchisi shukim, mening bir qancha sehrgarlarim bor bo‘lib, ular hammasi mendan moyana yeb yotadigan xizmatkorlardir Agar mening boshimga falak biron ofat yuborsa, ular shunday shafqatsizlik bilan chora ko‘radilarki, sehr-joduni ishga solib, yumronqoziqni yirtqich sherga, bug‘ini salobatda qonxo‘r qoplonga aylantiradilar».

9. Hinduyi rahta — hindcha kuy.

XXXII

1. Uch baytning mazmuni: «Utning manqali may shirasida jonlanib tursayu, may shirasi xuddi manqaldagi o‘tdek o‘tkir bo‘lsa. O‘rdak shakl, tiniq may idishi yonida bo‘rdoqi o‘rdak kabobi tursa, o‘tning shu’lasi uyni gulshan, mayning jilvasi ko‘zni ravshan aylasa».

2. Shoir bu misrada qor bilan qoplangan jahonni oq po‘stinga o‘ralgan kishiga o‘xshatgan.

3. Muallif bu misrada suvni simobga va muzlagan suvni toza kumushga tashbih etmoqda.

4. «In yakod»— ko‘z tegmasin uchun o‘qiladigan duoning boshi.

XXXIII

1. «Ko‘z ochib qarasa uyda, xuddi qorong‘u kechada hamma yoqni yoritib turgan Suxayl yulduzidek Layli o‘tirgan ekan».

XXXIV

1. «...doroyi daryonavol»—Iskandar ma’nosida.

2. «...hakimi Masihomisol»—Arastu demak.

3. «Buning dahshati bilinib turgach, kishi tabiati bundan qo‘rquvda bo‘lishi kerak edi».

4. To‘rt bayt mazmuni: «Donishmand munajjim shunday dedi: «Bu ishning boshqa bir sababi bor. Masalan, qishning tabiati sovuq, nam va rutubatlidir. Aql bu maealaga shu tarzda qaraydi, yosh kishilarning tabiatiga mayin havo yoqqani holda, harorat va quruqlik aziyat beradi. Quruqlik bilan issiq harorat alangalatgan kishi vujudini sovuq va namchil havo mo‘‘tadil holatga keltiradi».

5. Shabobu kuhulat — yoshlik va qarilik ma’nooida.

XXXV

1. Aras ridi—Aras daryosi — hozirgi Ozarbayjon territoriyasida.

2. Sipohon — Isfahon. U Eronning markaziy qismida joylashgan tarixiy viloyat.

3. Xuroson—Eronning shimoliy sharqiy qismidagi tarixiy-ma’muriy viloyat.

4. Hirmand—Xurosondagi daryolardan biri.

5. Zobuliston — Erondagi bir viloyat (yuqorida ham eslatilgan).

6. Nimro‘d — Xurosondagi daryo.

7. Dirijaz — Xurosondagi daryo.

8. Birohimi Adham (Ibrohim Adham)— shohlikdan voz kechib, tasavvuf yo‘lini qabul qilgan mashhur shaxs. 777 yilda vafot etgan.

9. Murg‘ob rud — Afg‘oniston va Turkmaniston hududidan oqib o‘tadigan daryo.

10. Chaxcharon—Xuroson hududidan oqib o‘tadmgan daryo.

11. Bu baytda shoir radd-ul-ajz mina-s-sadr san’atidan foydalangan. Xuroson — birinchi misraning boshi va ikkinchi misraning oxirida; Hiriy (Hirot)— birinchi misraning oxiri va ikkinchi misraning boshida takrorlangan.

12. Movarounnahr—o‘rta asrlarda Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘i shundan nom bilan atalgan.

13. Ko‘hak— Zarafshon daryosining qadimgi nomi.

14. Furot (arabcha nomi Shatt-ul-Furot)—G‘arbiy Osiyodagi eng katta daryo. U Turkiya, Suriya na Iroq hududidan oqib o‘tadi.

15. Nil— Afrika qit’asidagi eng katta daryo.

16. Salsabil — jannatdagi afsonaviy buloq.

17. «Suv bu tepaning oldidan shunday oqar ediki, qaragan kishi: «Tepa oshiqning boshiyu, dars suvi unng ko‘z yoshi»,— derdi».

18. Bu blyt irsolu-l-masal san’atiga yaxshi misol bo‘la oladi, Unda «mnng qarg‘aga bir kesak»

maqoli ishlatilgan.

XXXVII

1. Ikki baytning mazmuni: «Gado elga kam ko‘rinishi kerak, ko‘p ko‘rnnaverishi uni hor qiladi». Feruza (toshi) oz bo‘lgani uchun, azizdir, eshakmunchoq ko‘i bo‘lgapidan o‘ntasi bir puldir».

2. Mazmuni: «Shohining ko‘zi ko‘r bo‘lgan edi».

3. Uch baytning mazmuni: «Kimki sa’y-harakat qilib, mening ko‘zimni ochsa, unga ko‘z nurimni, ya’ni ko‘zim pardasida yashiringan qizimni nikohlab berib, uni ko‘z qorachig‘iday farzand etaman, ko‘zim nurini unga payvand qilaman», deb va’da bergan edi.

XXXVIII

1. Yuqoridagi baytlarning mazmuni: «Ey hikmat ahliga saboq beruvchi hakim! Bir joyda istiqomat qilganda osoyishtaligu, safarga chiqqanda ming turli mashaqqat bor bo‘lgani holda, nima uchun ilm-hikmat ahli safarni ma’qul topadi?»

2. «Safar o‘tida kuyishni o‘ziga maqsad qilib olgan odam ham vujud otini toblab, chiniqtirib kamolotga erishadi».

3. Ikki baytning mazmuni: «Masalan, safarda yurgan odamning yegan taomi yaxshi hazm bo‘ladi. Ovqat tez hazm bo‘ladimi, kishning salomatligi yaxshilanaveradi».

XXXIX

1. Baytning mazmuni: «U shohning savlatidan qochqinda, falon qal’ada uning qo‘rg‘oni bor.

2. «Doimo ruhparvar nasim esib turgani uchun jannatga o‘xshaydi, bo‘lmasa jahannamning xuddi o‘zidir».

3. «Bu ikkining tarki»— o‘t va shamolning tarki ma’nosida.

4. Bu misrada takrir san’atidan («ne» so‘znning to‘rt marta takrorlanishi orqali aytilayotgan fikr bo‘rttirilib) mohirona foydalanilgan..

5. Baytda Navoiy iltizom san’atidan, o‘rinli foydalangan. Unda «o‘t», «el». «suv» so‘zlari bir necha bor takrorlangan bo‘lib, ular, birinchidan, mazmunni kuchaytirgan, ikkinchidan, o‘quvchi xotirida mustahkam iz qoldirishni ta’minlagan.

6. «Uning tubi Kayumars zamonidan beri yonib turgan katta olov o‘chog‘ining o‘zidir».

7. Bu baytda tavzi’ (bir xil tovushga ega bo‘lgan so‘zlardan foydalanish) hamda tasdir (so‘zlar takrori) san’ati ishlatilgan.

8. «Har tomonga taxtga tosh bostirilgan, uning biriga yel, biriga o‘t yashirilgan».

9. «O‘t chohdan shu’la urganda, uning yallig‘i qal’ani kuydiradi».

10. «Shu onda Iskandar bilan Aflotun ikkovlari qo‘rg‘onga tomoi emas, tangrining qudratiga ko‘z tikdilar».

11. Bu ikki bandizod—Malluning o‘g‘li va qizi, demak.

12. «Yana tojingni o‘zingga qaytarib, o‘lkangni ham o‘zingga berib chiqib ketamiz».

13. Bargi mamotni soz etmak—o‘likni ko‘mish uchun yarog‘ini tayyorlash (lozim).

14. Amru Zayd!—hozirgi «Eshmat», «Toshmat» degan ma’noda.

XLII

1. *Agar qilsa ta’lil quvvat ketib,*
Ko‘pidin tabiatqa illat yetib.

Baytning birinchi misrasidagi «ta’lil» so‘zi Abdujamil va Sultonali nusxalarida to‘g‘ri, o‘z o‘rnida qo‘llanilgani holda, Istanbul va Toshkent nusxalarida «taqlil» tarzida berilganki, natijada baytning mazmuniga putur yetgan. «Ta’lil» so‘zi kasallanish, bahona qilish ma’nolarini berib, baytning ikkinchi misrasidagi «illat» so‘zm ham aynan «ta’lil»ni qo‘llashni talab qilyapti. «Taqlil» esa «kamaytirmoq», «ozaytirmoq» ma’nolarini bildiradi. Baytdan ilgarigi qismlarda gap ovqatning inson me’dasi uchun zarurligi, qarilik, kamquvvatlik haqida ketayotganini hisobga olsak, ma’no quyidagicha oydinlashadi:

Kishi badani qaryalikka yuzlangach, gavda harorati pasayadi, natijada me’da susayadi, ovqat yaxshi hazm bo‘lmaydi. Agar shu sabab bilan ovqat kam tanovvul qilinsa quvvat ketadi, ko‘p yeyilsa hazm bo‘lmaydi, badanga illat— kasallik yuzlanadi, qarilik ana shunday bedavo darddir.

XLIII

1. Bu besh baytda pil (fil) gavdasi ajoyib mubolag‘a va o‘xshatishlar bilan tasvirlangan: fil gavdasini yaxlit kulrang toshdan bo‘lgan toqqa, boshini tog‘ uchidan chiqib turgan falak singari to‘garak toshga o‘xshatiladi, tog‘ bo‘lganda ham kemaga o‘xshab yuruvchi, ikki qulog‘i esa kema yelkani kabi, xartumi «somon yo‘li»day, balki ajdaho singari, deyiladi.
2. Bu misra talqini: filning tishi shaklan to‘g‘ri alifdek bo‘la borib, lomdek egiladi. Shu o‘xshatish orqali alifdek to‘g‘ri tishlar lom kabi egrilarning dastidan (loinkor ma’nosini bildiradi) balogardon bo‘lib ketganligiga ishora qilinadi.
3. «Yana har bir fil ustida ajoyib bir taxt bo‘lib, har taxtning ichida to‘qqizta baxti kulgap hind malikasi o‘tirar edi».
4. «Bular Zuhal (Saturn) yulduzi singari oltin rangda, Bahrom (Mars) yulduziday otashin va g‘azabnok, o‘ylaganlari nuqul urush va adovat edi».
5. «Bu vakillarning Iskandar oldida qimmati g‘oyat katta edi. Binobarin, ular tomonidai keltirilgan sovg‘ayu tortiqlar uning nazdida bir qora pulchalik ham ko‘rinmaydi».
6. Nigor — Dehli yaqinidagi o‘rmon.
7. Iltizom san’ati ishlatilgan bu parchada sandal (qorasariq rangli, yoqimli hidli daraxt) bir nyocha bor takrorlangan. Shoir sandal so‘zini ta’kidlash orqali tilga olingan joyning havosi g‘oyatda yumshoq, yoqimli ekanligini bo‘rttirib ko‘rsatishga erishgan.
8. Sind — Xindistondagi daryolardan biri.
9. Fasli rabe’ — bahor fasli.
10. «Unda qishu yoz rayhonlar to‘la, asalari u yerda gul teruvchidir».

XLIV

1. Bu bantda ishlatilgan «ano» ikki ma’noni (ona va mashaqqat) bildiradi.
2. Rosu — susarlar oilasidan bo‘lgan yirtqich hayvon bo‘lib, u kaptar va tovuqqa juda o‘ch bo‘ladi.

XLV

1. Adan— Arabiston yarim orvlidagi yirik shaharlardan biri. Hozirgi Janubiy Yaman Xalq Respublikasi hududidadir.
2. «Adan mamlakatida bir savdogar bor edi, u savdo ishida o‘z kasbdoshlarining eng epchili edi».
3. «Yo‘lovchi savdogar o‘z jonini qutqardi-yu, biroq o‘z o‘g‘lidan ajralib qolganini ko‘rdi».
4. Bu parchada tavzi’ hamda iltizom san’atlari ishlatilgan.

XLVI

1. Doroyi xikmat— Iskandar ma’nosida.

2. Nuktapardozi dono—Arastuga nisbatan ishlatilgan.

3. «Biroq har bir kishi aql egasi bo‘lsa, uning aqli o‘ylamasdan biror ishni qabul qilmaydi».

4. Bu baytda irsoli masal san’ati ishlatilgan. Unda «kim nima eksa o‘shani o‘radi» xalq maqoli mavjud.

XLVII

1. Shast bilan moxiyi siymgun tutmoq — qarmoq bilan kumushday (tanga) baliq tutmoq.

2. Ko‘si raxil cholmoq — ko‘chish nog‘orasini qoqmoq, ya’ni qo‘zg‘alish haqida signal berish,

3. Solib sulhdin so‘z, yiborgay rasul, Borishmoq tariqini qilg‘ay qabul. Baytdagi «borishmoq» so‘zi «yarashmoq»qa ishoradir (borishmoq so‘zining o‘zi kelishmoq, kelishib olmoq ma’nolarini bildiradi).

4. «Tinchlik qoidasida kishi urushdan qancha yiroq bo‘lsa, shuncha yaxshiroqdir».

5. «Hech shubhasiz, men g‘olib bo‘lishim kerak edi, oxirida ham haq (xudo) menga nusrat va zafar ato qildi».

6. Ayladik — bu joyda «aylasin» ma’nosida ishlatilgan.

7. Ravonroq ketursang javobi savob, Savob o‘lg‘usi bizga dog‘i javob. Baytning birinchi misrasidagi «ravonroq» so‘zi asarning 1960 yil nashrida «burunroq» tarzida berilgan.

8. Tundsher — Iskandarga berilgan sifat.

9. Ikki baytning mazmuni: «Butun Xitoy yurtlarining hammasidan, ya’ni yetti mamlakat, yo‘q, yetti emas, yetmish ota-boboning yurtidan lashkar to‘plagan, askarlari son jihatidan osmon yulduzidan ham, sahro qumidan ham ko‘p edi».

10. «Aylanasi aroba (to‘p arobasi) bilan shunday mustahkam qo‘rg‘on bo‘ldiki, falak qo‘rg‘oni ham o‘shanday mustahkam emas edi».

11. Aroba uza to‘ra— to‘p arobasi oldida katta qalqon, demak.

12. Chu Hoqon soridin ko‘rundi qaro, Yasab turdi Iskandar ul dasht aro. Baytdagi «yasab turdi» iborasi nashr (1960)da «yasol tuzdi»ga aylantirilgan. Vaholonki, har ikki ibora mantiqan bir-biridan farq qilmaydi.

13. Ikki baytning mazmuni: «Ikki tomondan ehtiyot yuzasidan, qo‘shinni qo‘riqlash uchun, tun posbonlari chiqadilar. Bandi ushlovchilar ham ketma-ket ravona bo‘lib, eng xira hulkar yulduzlardek, ko‘z ilg‘amas harakat qila boshladilar».

14. Ar—«agar»ning qisqartirilgan shakli (klassik adabiyotda vazn talabi bilan «agar» so‘zini «ar» tarzida qisqartirib ishlatish keng odat bo‘lgan).

XLVIII

1. Xurshidi iskandariyning chehra ochishn—quyosh chiqishi ma’nosini bildiradi.

2. Mazmuni: «Yulduzlarning Chin qo‘shinidek rangi o‘chib, taqdir-qazo osmonining ko‘k yaylovini taqir qilib qo‘ydi».

3. «Popushakda shunqorni urish odati yo‘q».

4. «Meni yo‘l kezuvchi elchi deb o‘ylama, sening dargohingga xoqon keldi».

5. Qonim sabil — qonim hadya ma’nosida ishlatilgan.

6. Ikki baytinng mazmuni: «Aslini olganda, senda uncha gunoh yo‘q, hamma gap biz tomondan sodir bo‘lyapti. Agar avvalgi so‘zlarda, ba’zi bir anglashilmovchiliklar bo‘lsa ham, endi uning sababini bilganimizdan so‘ng, ko‘nglimizda hech shubha qolmadi».

7. «Turki hijoz»— cholgu kuyi.

XLIX

1. Bu bayt asarning boshqa nashrlarida uchramaydi. Undagi arabcha so‘zlarning mazmuni: «Nazrlariga vafo qilurlar».

2. Nassi qur’on — qur’ondan dalil.

3. Yolg‘onning yomon oqibatlarga olib kelishi haqida «Hayratul-abror»da ham hikoya bor («Sher va Durroj»ni eslang).

4. Mazmuni: «Oldi-sotti ishi bitavermagach, oxirda og‘irligi kampir (vazni)ga teng oltin berdilar».

5. «Agar shoh to‘g‘rini qo‘yib, egri yo‘ldan yuradigan bo‘lsa, xudo ko‘rsatmasin, shohlikdan voz kecha qolgani yaxshiroqdir».

6. «Rosti rasti»— rostlik, to‘g‘rilik — shodlik, farog‘at keltiradi ma’nosida.

7. Mazmuni: «To‘g‘rilikning bayrog‘i alif ( )dir, lekin u harf arabchada «alif» o‘qilsa birni, «alf» o‘qilsa mingni bildiradi». «Masalan, bir odamning fikri to‘g‘ri bo‘lsa, dushman ko‘pligidan qanday xavfi bor?»

8. Maqol ishlatish san’atidan foydalanib yozilgan bu baytning mazmuni quyidagicha: «O‘ylash bilan maqsad yuzaga chiqadi, sabr bilan g‘o‘ra halvo bo‘ladi».

LII

1. Xo‘tan — Xitoyning shimoli-g‘arbiy qismidagi qadimiy shahar. Taklamakon cho‘lidagi vohaning markazi. Qadimda karvon yo‘llarining kesishgan joyi bo‘lgan. XV asrgacha Xo‘tan orkali Xitoydan Yevropaga ipak olib borilgan.

2. Mazmuni: «Qachonki kun bilan oy qiron qilib, bir-biriga ro‘baro‘ bo‘lsa, arzimas dog‘lar ularning nurlari orasida ko‘zga ilinadimi?»

3. «Tab’imiz bir narsa deyishdan ojizdir, xurmo daraxti (jannatdagi) tubi daraxti ishini qilolmaydi».

4. Uch baytning mazmuni: «Uning sipoh (lashkar)lariga beriladigan moyonaning bir yilligini to‘lash ham xalq uchun vojibdir. Yangi yilgi beriladigan xirojlarni esa dafina (ko‘milgan boylik) qulfini ochib, men o‘z xazinamdan naqd berib yubora qolarman. Agar sizlarga shu fikrim ma’qul bo‘lsa, shaxsan shohni qanday e’zozlashni mening o‘zim o‘ylab ko‘rarman!»

5. Mazmuni: «Yana bir ming to‘qqiz yuz xil uy jihozlari qanday taxlanib tugilgan bo‘lsa, shundan yechilmay turardi».

6. Oyinai Chin (Chiniy oyina)— xoqonning Iskandarga qilgan ajoyib sovg‘alaridan biri bo‘lib, Navoiyning ta’rificha, u oyinaning ikki yuzi ikki xil mo‘jizali ya’ni bir yuzi orqali gunohkor va gunohsiz (gunohkor oyinaga qarasa aksi ko‘rinmas, gunohsiz qarasa ko‘rinar ekan) aniqlansa, ikkinchi yuzida majlisda o‘tirib ko‘p ichib mast bo‘lib qolgan odamning basharasi namoyon bo‘lar ekan.

7. Bayt mazmuni: Bukri va kambag‘al, ustida ipdan to‘qilgan eski kiyimi bo‘lgan ko‘rmmsiz kishilar ko‘ngil mamlakatining shohi bo‘lishi mumkin. Insoniylikni, donolikni kiyim va tashqi ko‘rinish belgilamaydi, demoqchi shoir.

Yozilishida bir, ammo o‘qilishi va ma’nosi turlicha bo‘lgan so‘zlar o‘quvchini chalg‘itib qo‘pol ma’naviy xatolarni yuzaga keltiradi. Bu hol 1960 yil nashr nusxasida uchraydi:

Chu bayninda bu nuktag‘a topti pay,
Bo‘lub xushdil, anlar ravon tarki may.

Baytdagi «bayninda» so‘zining «bayn» shakli ora, oraliq, o‘rta ma’nolarini anglatadi va uning bayt mazmuniga hech qanday aloqasi yo‘q. Bantdan oldingi. qismlar esa Chin xoqoni tomonidan

Iskandarga hadya qilingan «oynai chin» (Chiniy oyina) haqida hikoya qiladn. Ana shularni hisobga olib va baytdagi boshqa so‘zlar mantiqidan kelib chiqib, bu so‘zni «bayninda» emas, «biynanda» deb o‘qisak, «ko‘ruvchi», «boquvchi» ma’nolarini beradi va shoir nazarda tutgan fikr oydinlashadi.

8. Sho‘xi Chiniynajod»— xoqon Iskandarga tortiq qilgan go‘zal, demak.

9. Ikki baytning mazmuni: «Yuzidagi kuldirgichi ham yarim davra shaklida bo‘lib, bundan butun zamon kishilari jabrlanar edi. Bag‘baqa chuqurchasi u davraning nuqtasi bo‘lib, bu davrning ko‘pgina bechoralari shu chuqurga asir bo‘lib qolgan edilar».

10. Mazmuni: «Shoh shunday shaharni qurdiki, keksa dunyo ham misli yo‘qligidan «lam’yakun» (misli bo‘lmagan) oyatini o‘qir edi».

11. «U bog‘ning to‘rt pargarli eshigi va sakkiz paxsali devori bor».

12. «Bu daraxt shoxlarining ko‘kdagi manzarasini ko‘rganda, «osmondagi yulduzlar shularning mevasi ekan» deb o‘ylaysan».

13. Mazmuni: «Uning sahnlari, qubbalari va burchlari boshdan-oyoq oltin bilan bo‘yalgan».

14. Ikki baytning mazmuni: «Avval, o‘lkalarniig boshida toji bor amirsultonlari, ulardan so‘ng vazir-vuzaroyu lashkarboshlari o‘tirdilar. Aflotun, Arastu va Farfiyonus kabi hikmat ahli—faylasuflar shoh atrofiga joylashdilar».

LIII

1. Bu baytda talmeh va o‘xshatish san’atidan foydalanilgan. Unda berilgan Xalilulloh — Ibrohim payg‘ambarning laqabi.

2. Baytdagi «kujpusht» so‘zi Abdujamil,. Sultonali va Porso Shamsiev qo‘lyozmalarida «ko‘z pusht», nashr (1960) nusxasida «ko‘z pushti» tarzida xato berilgan. Bu ahvolda berilishi uning mazmuninigina mavhumlashtirib qolmay, Navoiyning aytmoqchi bo‘lgan falsafiy fikrini ham yo‘qqa chiqargan. Bu so‘z boshqa qo‘lyozmalarda oddiy «z» emas, balki «jola»dagi uch nuqtali ( ) yozilgan. Demak, ( ) «ko‘z» emas, balki «kuj» ekani, unga «pushti» emas, «pusht» so‘zini qo‘shib o‘qib ko‘rganimizda «kujpusht», ya’ni «bukir» ma’nosini anglatuvchi qo‘shma so‘z yasaladi. Demak, bu so‘z mantiqan yuqoridagi misralarda qayd qilingan mazmunga muvofiq keladi va Navoiy aytmoqchi bo‘lgan yuksak falsafiy ma’noni ochishga xizmat qiladi. Chunki birinchi misradagi parokanda hol, ikkinchi misradagi «Bo‘ynida chu bo‘lg‘ay ipe eski shol» jumlasi mantiqan ana shu «kujpusht» so‘zining kelishini talab qiladi.

3. Baytning mazmuni: «Saxovatda mezon bulutdek bo‘lmog‘i lozim, zero, bulutga yer ham, yer egasi ham barobardir».

4. To‘rt bayt mazmuni: «Mehmon hamma ovqatni yesin, to‘ysiya deyish odamgarchilikdan bo‘lsa ham, lekin majburan yedirib, kishini jabrlash insofdan emas. Sening uying Shayx Luqmonning mozori emas, seni hech kim bu joyniig shayxi demaydi. Xudo molini isrof qilish, bu qanaqa gap? Jinnilarga o‘xshab oziq-ovqatni to‘kib-sochish nonko‘rlik emasmi? Xudo «eng-iching» degani bilan, «isrof qilmang» ham deganku, axir?».

5. Ikki baytning mazmuni: «Eng yaxshi odat shu bo‘lishi kerakki, yaxshimi-yomonmi, bir odam sening dasturxoningga mehmon bo‘lgan ekan, boshlab uni xushmuomalalik bilan xursand qil, so‘ngra esa, isrofgarchilik ham qilma, xasislik ham».

6. Mazmuni: «Ishingga «Akramuz-zayfa» (mehmonni siylang) so‘zi nur solsa, «Xayrul-umur» (har bir ishda o‘rtachalik) rasmini tut».

LIV

1. Bahrom go‘r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421—433)—sosoniylardan Yazdigirdning o‘g‘di. Yaman podshohi Nu’mon va unnig o‘g‘li Munzir tarbiyasida o‘sgan. Yazdigird zulmidan bezor

bo‘lgan xalq u vafot qilgandan sung Ardasher naslidan bo‘lgan Kisroni (ba’zi manbalarda Xusravni) taxtga ko‘taradi. Bu voqeadan xabar topgan Bahrom lashkar tortib Eronga keladi. U otasining xatolarini takrorlamaslik va mamlakatda adolat, tinchlik o‘rnatishga o‘z a’yonlari va xalq oldida qasamyod qiladi. An’anaviy shartga muvofiq ikkita sherni o‘ldirib, ular o‘rtasidagi tojni oladi va podshohlik taxtiga o‘tiradi. Uning sevgan mashg‘uloti go‘r—qulon ovi bo‘lganligi uchun ham u Go‘r laqabiga olgan.

Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiyning «Haft paykar», Xusrav Dehlaviyning «Hasht bihisht» va Alisher Navoiyning «Sab’ai sayyor» dostonlarida Bahrom Go‘r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni vaqtda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan.

2. Sakkiz baytning mazmuni: «U uch uylikdan bittasi Qorunday badavlat bo‘lsa ham, ammo nazari past odam edi. U shohning aytganlariga ahamiyat bermadi. Ikkinchisi esa, isrofkunanda edi: u qo‘ylar so‘ydirib, katta qozonlar osdirib, zo‘r bir ziyofatning tayyorgarligini ko‘ra boshladi. Ochlik mehmonning dimog‘ini kuydirib, ichini achitib turgan paytda, uning ertaga pishadigan oshidan nima foyda edi? Valekin, uchinchi xonadonning egasi aqlli odam edi. Zotan, aqldan madad oluvchi odamlar xushbaxtdirlar. U baxtiyor odam, shohni o‘z uyiga olib kirib, o‘sha ondayoq uning oldiga uyida tayyor turgan non bilan qatiqni qo‘ydi. Mohazar (tayyor turgan ovqat)ni yegach, shohdan ochlik ranji, mashaqqati ketib, joni huzur topti. Binobarin, shoh mana shu mohazar bilan mehmon qilgan mehmondo‘stga behaddu-hisob mol-dunyo hadya etgani holda, haligi past odamga juda qattiq tanbeh berdi».

LV

1. Farmondehi ro‘zgor»— Iskandarga nisbatan ishlatilgan birikma.

LVI

1. Chin — hezirgi Birma Ittifoqi tarkibidagi bir okrugning nomi. U Bangladesh va Hindiston bilan chegaradosh. Bu joy qadimda Xitoy tarkibida bo‘lgan.

2. Bu baytda Iskadar quyoshga, xoqon esa oyga o‘xshatiladi.

3. Bu baytda shoir tarse’ san’atidan o‘rinli foydalangan. Baytdagi hamma so‘zlarning vazni teng.

4. Bu baytda: «Yulduzlar holatini va yer yuzidagi «mavolid», ya’ni jonli va jonsiz, tabiatni tekshirib», deyilgan.

5. Kavkab anzori — yulduzlarning o‘zaro munosabat darajalari.

6. Mazmuni: «Ma’dan aralashmalaridan tilsim qilib, dumaloq shaklga ega bo‘lgan ikki kurol yasadilar».

7. Falak tulu arzi — falakning uzunlik va kengligi ma’nosida.

8. Mir’oti getinamo— jahonnamo ko‘zgu.

9. Quyosh kuzgusining sharaf burji topishi — bahor kelishi ma’nosini bildiradi.

10. Mazmuni: «Hammalari ilm bobida abadiy baxt kabi, yolg‘izlik, soflikda sof aql kabi».

11. Uch baytning mazmuni: «Shoh suturlob (astrolyabiya)ni qo‘lga olib, shu asbob yordami bilan falakning vaziyati qanaqa-yu, shu’lalariga qaraganda, quyosh yurishidagi yuksak daraja qaerda ekanini aniqlagach, baxtiyorlik bilan mayga mayl qilib, shodlik kelinchagini o‘ziga nikohlab oldi».

12. Olti baytning mazmuni. «Har bir kimsaning toju taxti bo‘lsa, u o‘zidan keyin o‘rniga valiahd qoldirish tadbirini ham ko‘rmog‘i lozim. Masalan, quyosh magrib (g‘arb)ga botish oldidan o‘z o‘rniga oyni qoyilmaqom qiladi. Mohitobon garchi quyoshchalik nur taratmasa ham, bari bir uning yorug‘ligi o‘rnida o‘rinbosar bo‘lib qoladi. Agar bir daraxt bogdan ko‘chirilsa-yu, o‘rnida bir yosh nihol qolsa. oqibat natijada u bog‘ning ziynati bo‘lib qoladi, ham mevasi, ham soyasi bilan kishilarga naf yetkazadi».

13. Tajnis (bir shakldagi so‘zlarni turli ma’noda ishlatish) san’ati ishlatilgan bu baytning mazmuni: «Navoiy, turgan manzilning Chinda bo‘lgach, to‘y tugaguncha «Changa» (yor-yor) vaznida kuylayver».

LVII

1. Ikki baytning mazmuni: «Hut (fevral-martga to‘g‘ri keladi) kirib sabzalarga jon bitishi bilan, doim tirik va abadiy o‘lmas yaratuvchi oftobni hamal (mart-aprel) sabzalari (burji) tomon yo‘llab, tabiat ne’matlarini kuyosh harorati bilan parvarish qilish taraddudiga tushdi.

2. Izomi ramim — chirigan so‘ngak (bu yerda daraxtning tanasi ma’nosida ishlatilgan).

3. Mazmuni: «Qonda fasod paydo bo‘lsa, savdo ko‘paygani» degani hakimlar ta’biri bo‘lib, bu yerda lolani qonga, undagn qoralarni savdoga o‘xshatgan.

4. O‘vidin tushub bog‘ aro zilzila, Choqin shaklidin bo‘ynida silsila.

Baytning birinchi misrasidagi «o‘vidin» so‘zi Sultonali nusxasida «aridin» shaklida yozilgan. Ma’lumki. «ari» so‘zi alif bilan yoziladi. Demak, kotib ayn harfidan keyin keladigan «vov» harfini «re» shaklida yozib, ham orfografik xatoga, ham ma’no buzilishiga yo‘l qo‘ygan. Baytdan ilgarigi misralarda bahor fasli, sheri g‘urrondek na’ra tortib osmonda kezib yurgan seryog‘in bulutlar, ulardan tomgan obi hayot qatralar, chaqmoq shu’lalari kabi manzaralar tasvirlangan. Shularga yuqoridagi bayt mazmunini ham qo‘shib sharhlasak, quyidagi manzara namoyon bo‘ladi va baytning ma’nosini «aridin» emas, «o‘vidin» so‘zi ochishga xizmat qilajagiga ishonchimiz komil bo‘ladi: Gulzorga yoqqan bahor yomg‘irini qatra deb o‘ylama, uning har bir tomchisi obi hayotu yirik durlardir. Momaqaldiroq ovozidan go‘yo bog‘da zilzila bo‘layotgandek hamma yoq titraydi. Chaqmoq o‘zining olovli rangi bilan go‘yo shersifat bulutlar bo‘yniga tilla zanjir taqadi.

LIX

1. Ikki baytning mazmuni: «Yer yuzi va undagi odamlarning tabiati to‘rt unsurga bo‘linadi: issiq, sovuq, ho‘l va quruq, bu esa o‘t va suv, yel va tuproq» demakdir.

LX

1. To‘rt bayt mazmuni: «Ravshanak katta xotin sifatida. yotoqda shoh bazmini qizdirar, u bilan har doim bir taxtda tizzama-tizza o‘tirar hamda haramxonadagi barcha xonimlarga boshliq va malika edi. Nozmehr esa, ikkinchi darajada, o‘rim taxt yonida bo‘lib, shohga itoatkorlarcha bo‘yin egib o‘tirar va goho g‘amzakyu istng‘no bilan Iskandarning jigarini xun qilar edi».

2. Mahi somiriy: Kashmirning sohiri—o‘ziga maftun qiladigan, demak.

3. «Shakar idishini shakarrez qildi, ya’ni tor og‘zidan shirin so‘z aytdi, lekin u bol tagida ari nayzasi, ya’ni achchiq so‘z bor edi».

4. «Uning g‘amzasi jahonni sehrlasa, menga yuzlab Sommriy buzoq bo‘ladi». Bundagi Somiriy mifologik obraz. U Muso payg‘ambar zamonida Musoga qarshi chiqib, gapiradigan oltin buzoq yasab, shu bilan kishilarni uziga qaratishga uringan ekan. Bu baytda o‘shanga ishora qilingan.

5. Nozmehr murojaatining bu qismi iltizom san’atiga yorqin misol bo‘lib, unda «gar ul» (Ravshanak), «manga» (Nozmehr), «gar ul» (Ravshanak), «mening» (Nozmehr), so‘zlari alohida ta’kidlanmoqda.

6. Irsoli masal san’ati ishlatilgan bu baytda: «Oz baxt — ko‘p husndan yaxshiroq» xalq maqoli mavjud.

7. Ikki baytning mazmuni: «Ohu sherni shu usul bilan ov qilgach, o‘z shikormga muhabbat izhor ayladi. Sandal shohiga fil tishi urilgach, so‘ngra ne bo‘lganini aytishga ehtiyoj yo‘qdir».

8. Bu so‘z boshqa hamma oldingi nashrlarda «solib» tarzida berilgan.

9. Mulki Gajrot — G‘arbiy Hindistonda Arabiston dengizi sohilidagi joyning nomi.

10. Ikki baytning mazmuni: «U dashtni itga o‘xshash jonivorlar tutib ketgan bo‘lib, bu maxluqlar ko‘rinishda xuddi chumolini eslatar edilar. Hammasining oyoq-qo‘llari chumoliniki singari bo‘lishiga qaramay, lekin ular yirtqich sherdan zo‘r edilar».

11. «Ollohu taoloning qudrati shunday ulug‘ki, uning qudrati oldida har qanday aql, bilim va kamolot egasi ojizdir».

12. Bu so‘z barcha nashrlarda «vu» deb berilgan.

LXI

1. Basirat ko‘zi—aql-idrok ko‘zi, tafakkur ko‘zi, qalb ko‘zi va ibrat ko‘zi, demakdir.

2. Osmonning to‘qqiz qavat dasturxonida yuz tuman noz-ne’mat bo‘lgani bilan (qo‘l yetmagach) undan ne foyda?»

3. Uch baytning mazmuni: «Boshlab, men odam vujudiy timsolini sharhlab beray, so‘ngra, uning ma’naviy ahvolini bayon aylay. Bu timsol deganim — saxiy dengizning duri, yo‘q, dengiz duri emas, inson vujudi bog‘ining sarv daraxtidir. Odamning boshida shohlik toji bor bo‘lib, bu toj ustida qimmatbaho la’l o‘rnatilgan».

LXIV

1. Baytdagi «mashriqin» so‘zi Abdujamil va Toshkent nusxalarida hamda nashr (1960) nusxasida ham «mag‘ribin» shaklida xato berilgan. Bayt mazmuniga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu yerda so‘z quyosh haqida, uning Mashriq (Sharq, kunchiqar)dan yuz ochib ko‘tarilishi haqida ketyapti. Baytdagi «shah» so‘zi Iskandarga emas, balki osmon shohi — quyoshga taalluqlidir. Bayt mazmuni: Tong o‘z alvon bayrog‘ini ko‘tarib yorisha boshladi, Mashriq shohi — Quyosh jamol ko‘rsata boshladi.

2. Mazmuni: «Yana saf tortgan jangchilarning na’ralari yangrab, jang nog‘aralarining sadosi yeru ko‘kni chok-chok qila boshladi».

3. «Bularning ko‘zi ko‘k, soqoli sariq, yuzi qora bo‘lgani holda, hammasining peshonasida shoxi bor edi».

4. Bu baytda o‘xshatish — Karkadan (Iskandar pahlavonlaridan biri)ni filga monand etish bilan birga, unda tajnis (karkdan—karktan) san’ati ham ishlatilgan.

5. Ra’d — Karkadanning laqabi.

6. Ikki baytning mazmuni: «Nihoyat, vahshiydan tug‘ilgan qaysar pahlavon bir hamla qilib, uning bo‘yniga changakli xodani soldi. Changak mahkam o‘rnashgach, xuddi qarmoq bilan baliq tutgandek uni tortib yerga urdi».

7. Qahqar — Iskandar pahlavonlaridan birining laqabi.

8. «O‘z kishilariga, «urush qil» deb qatiy buyurolmasdi, chunki harif g‘oyat zo‘r edi».

9. Ikki baytning mazmuni: «Bu go‘zal, husnda xurshidi tobonning xuddi o‘zi, yana Zuhra yulduzidek xushovoz san’atkordir. Bu sifatlari bir tarafda tursin, jang maydonida bunga bas keladigan jangchi topilmas».

10. Chin xoqoni Iskandarga tortiq etgan qiz g‘oyatda go‘zal bo‘lgan. Nizomiy dostonida tasvirlanishicha, u (qiz) vahshiylarga asir tushadi va uni Iskandar odamlari ozod etadilar hamda Iskandar unga uylanadi. Navoiyda tasvirlangan bu obraz o‘zining sadoqati, epchilligi, qisqasi, mislsiz jasorati bilan Iskandarni lol qoldiradi. Biroq Iskandar unga uylanmaydi.

11. «Qilingan bu shafqatu marhamatlar uning bo‘yniga qullik sirtmog‘ini soldi».

12. «Qachon vaslga erishuv nasib bo‘lsa, shu damni kutib, bir damgina bo‘lsa ham uni g‘animat bil!».

LXV

1. Talmih san’ati ishlatilgan (Sulaymon, Farhod va Majnunga ishora) uch baytning mazmuni: «Agar Sulaymonsiz qolganiga motamzada bo‘lmaganida edi, uzuk o‘z ko‘ksiga tosh urmasdi. Tog‘ bechora Farhodsiz jon azobi chekadi shekilli, ertayu kech sado solib, fig‘on qiladi. Dasht, joni azobda qolgan Majnundan ajralgani uchun, katta yo‘lda yuzini timdalab yotibdi».

2. Olti baytning mazmuni: «Firoq dastida jabrlanuvchilarning boshidagi balo bir necha xildir: biri.— molu davlat ayrilig‘i bo‘lib, jahon ahliga buning ta’siri zo‘rdir. Do‘st-yordan ayriliq dog‘i ham kishining yurak-bag‘rini kuydglrib yuboradi: qarindosh-urug‘, tuqqan jigarlarning hajri ham yomon, u kishi joniga iztirob soladi, yana biri ishq dardiga mubtalo bo‘lib, birovga ko‘ngil qo‘yishdir.

3. Ayriliqlarning hammasida azob-uqubat boru ammo hech qaysisining mashaqqati mana shu keyingichalik emas. Agar haqiqiy maqsadga yetishish yo‘li topilmasa, bularning barchasidan mana shunisi mushkuldir».

LXVI

1. Majnun va Layli afsonaviy shaxslar bo‘lib, ularning samimiy sevgilari haqida hikoya qiluvchi ko‘p rivoyat, ertak va dostonlar mavjud. Layli va Majnun Alisher Navoiyning shu nomdagi dostonida bosh qahramon sifatida tasvirlangan.

2. Najd — Arabistondagi tog‘lardan biry. Afsonalarga qaraganda, Majnun ko‘pincha ana shu tog‘ etagida yashagai.

LXVIII

1. Ya’juj — afsonaga ko‘ra, xunuk bashara, bahaybat, hamma narsani nobud qiluvchi, odamxo‘r maxluq.

2. «O‘ng va so‘ldan hech kimning kelishiga yo‘l qo‘ymaydilar».

3. Besh baytning mazmuni: «Bu yerda garmsel shamollar shunday hujum bilan esadiki, bu shamol tekkan zahoti kishi halok bo‘ladi. U yerning hatto mo‘‘tadil hisoblangan shamoli esganda ajdaho bo‘lsa ham mavh etadi. U dashtning qolgan uch kunlik yo‘li esa, hammasi ilonzordan iboratdir. U ilonlar kofcha, af’i, ja’fariy kabi zaharli ilonlar bo‘lib, har biri u yerdagi xazinalarni poylaydigan ajdaholardir. Ularning soni ming tumandan oshadi, ming tuman qayoqda, balki u ilonlarning son-sanog‘i yo‘q».

4. Hamul turki chin — Chin xoqoni Iskandarga tortiq qilgan go‘zal ayolga ishora.

5. Xush so‘zi xash o‘qiladi.

6. Qirvoi sarhadi— qadimiy eron viloyatlaridan biri.

7. Uch baytning mazmuni: «Bu tog‘ bilan zulmat o‘rtasida bir vodiy bo‘lib, yo‘l boshlovchilar u tarafga bora olmaydilar. U zulmat emas, jahannamdir, vodiy emas — do‘zaxdir. Qisqasi, u yer — ya’juj deganlarning qarorgohidir. Bu ya’juj deganimiz yuz ming tuman balodan iborat. bo‘lib, biz shu behisob balolardan qochganlarmiz».

8. Bu baytda ajoyib sifatlash — parokanda soch, kichraytirish — bir qarish, mubolag‘a — uch quloch ishlatilgan.

9. O‘n ming qari — taxminan o‘n ming metrga teng masofa.

10. Rang to‘kmoq — qurilish rejasini tortmoq, ma’nosida.

11. «Hunarmand ustalar ganch o‘rniga haftjo‘sh (etti ma’dan qotishmasi)ni biriktirib yerga quydilar».

12. Birinchi arz — yer, ikkinchisi en ma’nosida ishlatilgan.

13. Saddi Iskandariy — Iskandar to‘sig‘i, Iskandar devoriga ishora.

14. Uch baytning mazmuni: «Sadning tepasiga yana qal’alarning singari qubba va kungiralar ham yasab, ular temir bilan mustahkamlandi. U yerga posbonlar uchun ham ikkita joy qilindi va dushmanni toshbo‘ron qilish uchun yuqoriga ko‘p toshlar yig‘ildi. Sadni muhofaza qilib qo‘riqlab turish uchun ham bir necha yuz kishi tayinlandi».

LXXII

1. «To‘rtinchi osmonni quyosh jilvalantirgan ekan, uning bundan faxrlanishiga ajablanishning o‘rni bormi?»

2. «O‘simliklar, kondan chiqadigan ma’danlar va jonvorlarni, qiziq shakl va ajoyib ko‘rinishli maxluqlarni...».

3. «Sohillarda g‘aroyibotlar ko‘p bo‘lgani kabi, orollarda ham ajoyibotlar benihoya ekanini aytadilar. Unday qiziq narsalar dengizlarda qanchalik ko‘p bo‘lsa, okeanlarda behaddi-hisob emishlar».

4. Bu bayt Alisher Navoiyning «Asarlar»i X tomida boshqa joyda berilgan.

5. «Agar shoh mashvarat — majlisda qattiqqo‘llik qilar ekan, uning sitamini chekmaslikning iloji bormi?»

6. «Ko‘p ish borki» nafs u ishda o‘jarlik qilsa lekin (u) o‘sha yo‘lovchi yordami bilan hal bo‘ladi»..

7. «Yana ikki yuztasida tuyalar va otlar bo‘lib, qirg‘oqqa chiqqanda kerak bo‘lmshi ko‘zda tutilgan edi».

8. «Qazo mening boshimga bu safarni soldi, kishi taqdir hukmidan qayga qochishi mumkin?»

9. Uch baytningg mazmuni: «G‘umg‘uch kemalar qo‘zg‘olgach, teran daryo hayqirib, to‘lqinlanib ketdi. Bu kemalardan suv yuzida ulug‘ shahar tuzildi, harakatidan esa go‘yo o‘zga bir olam paydo buldi. Kemalar qorasi bulut ko‘m-ko‘k osmonni qoplagandek, chuqur daryo yuzini qoplab oldi».

10. «Ey mug‘anniy! Mungli bir kuy chal, sozingga xazin bir qo‘shiqni ham jo‘r ayla».

11. Hubob uyi — suv yuzida paydo bo‘lib yo‘qoladigan pufakcha ma’nosida.

LXXIII

1. Suqrot, Sokrat (mil. av. 470 (469.)—Afina—399)—qadimgi yunon faylasufi. Suqrotning hayoti va ta’limoti haqidagi muhim ma’lumotlar shogirdlari —Ksenofont va Platon asarlari orqali yetib kelgan. Suqrot demokratiyaga dushmanlikda asossiz ayblanib, o‘lim jazosiga hukm qilingach, o‘zi zahar ichib o‘lgan.

LXXVI

1. Hakimi ilohiy — Suqrot hakim ma’nosida.

2. (Suqrot) «yo‘ldagi ishlarni nazorat qilib borsa, uning ishiga Ilyos (dengizlar piri) qo‘riqchilik qilar edi».

3. Uch baytning mazmuni: «U (Suqrot—T. A.) kemalarni xuddi qushdek uchirib, suv sayri—safarini boshlab yubordi. Bular tushgan suv Farang va Rum dengizi bo‘lib, unig ahvol-vaziyati hanuzgacha hech kimga ma’lum emas edi. Shoh askar va sipohlari bilan u yerdagi orollarni fath egish ishiga kirishib ketdi».

4. «Dengizda tekshirib o‘rganilgan va o‘lchangan joylar haqida yozilgan qog‘ozlarni» demoqchi.

5. Varaq-varaq qog‘ozlar bilan to‘lgan u kema qayiq singari kichkina emas. nihoyatda cho‘ng-katta kema edi».

6. Ikki bayt mazmuni: «Suvda yurishda qilingan bu ishlar ikkinchi darajadagi ishlar bo‘lib, mening uchun asosiy ish buki, hozirgacha dengiz doirasini aylandimu, endi dengiz markazini ham aniqlasam

edi».

7. Bihil o‘ldiklar—(bundagi o‘ldik— o‘lsin ma’nosida) kechirsinlar, demak.

8. Qo‘shgirnoq orasidagn Iskandar so‘zining mazmuni: «Sizlar ushbu joyda turnig, bu yerda to‘rt yil meni kuting. Rumdan kuchsizlik va boshog‘rig‘ni qaytaruvchi narsalar oldiring. Men safarga chiqib va’dam bo‘yicha qaytib ketsam, o‘sha dorivor narsalar menga kuch-quvvat bag‘ishlashda ilon bo‘lar. Hijrondan qutilib, bir-birimiz bilan ko‘rishib farog‘at bilan Rumga qaytarmiz. Agar bordiyu, falak zulm ko‘rsatib, boshqacha o‘yin oshkor etib, meni dengizga g‘arq qilsa, bu ajdahoni nahang yutib yuborsa, bu bilan va’da vaqti o‘tib ketsa, maqsadingiz hosil bo‘lmay, noumid qolsangiz, haqqimizga duoyi fotiha yo‘llab, bizni kechirib, o‘z yo‘lingizga ravona bo‘ling».

9. «Kemachilik ilmida barcha kemachidek, dengizga sho‘ng‘ishda xuddi timsohdek».

10. «Xuddi osmon yulduzlari kabi dengiz yulduzlari ham ko‘zdan yo‘qolishdi».

11. «Girdob emas, tagsiz chuqur choh bo‘lib, quyosh yusufini garq qilar darajada». Bu yerda «Yusuf va Zulayho» qissasidagi Yusufni chohga tashlash voqeasi eslatilmoqda.

12. Kemaga dengiz to‘lqinlarning kelib urilishini tol bargiga quyun shamolining urilishiga o‘xshatilmoqda.

13. «Ularning hammasi (kemadagilar — T. A.) o‘zini oldirgan bo‘lib, faqat Iskandargina o‘zini tetik sezardi».

14. Uch baytning mazmuni: «Siz endi xursandchilik bilal shu yerda turing. Men hammangiz bilan xayr-xo‘shlashaman. Dengiz qa’riga tushishni havas qilgan edim, hozirgi soatda shu niyatimga yetib turibman. Orzu qilgan murodim ushaladigan bo‘ldi, so‘z tagiga tushib, u yerdagi hayotni tomosha qilayin».

15. Xusrav — Amir Xusrav Dehlaviyga ishora. Navoiy bu baytda Iskandarning dengiz sayohati haqida turlicha bir-biriga qarama-qarshi rivoyatlar borligi hamda unga Xusrav Dehlaviy alohida e’tibor berganligini ta’kidlamoqda. Navoiy ham o‘z dostonining shu parchasida Dehlaviyga yaqin tasvirlar beradi. Biroq ular o‘rtasida farq ham bor. Bu farq avvalo, Dehlaziyda Iskandarning dengiz safaridan orqaga qaytishi juda qisqa muddatni tashkil etganidan iborat bo‘lsa, Navoiyda bu vaqt bir yilni tashkil etadi. Ikkinchidan, Navoiyning dengiz sayohati manzarasining tasviri, jonli, ancha realistik bo‘yoqlarga ega. Bu ayniqsa safar davrida, Iskandarning ozib ketgani, kasal bo‘lishini bayon etuvchi manzaralarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

16. Olti baytning mazmuni: «Bundan boshqa ham rivoyat borki, bu rivoyat beruvchi roviy (qissa aytuvchi—A. G.)lar qoshida maqbuldir. Menga ham shu keyningisi ma’qul bo‘lgani tufayli, uni aytish foydadan holi emas deb bilurman. Bu shundan iboratki, tarixlarni naql qiluvchi kishilar, Iskandarni ham valiy, ham nabiy (payg‘ambar) bo‘lgan deb aytadilar. Bu keyingi xabarga ko‘ra, murod-maqsadiga yetish yo‘lida yurgan Iskandarning ravshan dili okean ichida qattiq riyozat va zahmat chekkani sababli, yanada pokizalanib ketgan».

LXXVII

1. Bahrom anga bottiyu chiqmadi—Navoiy «Sab’ai sayyor» dostonidagi Bahrom taqdiriga ishora qilmoqda.

LXXVIII

1. «Kimki dunyoga hirs qo‘ymasa, jahonning ranj-mashaqqatidan xalos topishi osonroqdir».

LXXX

1. Yuzingni shapaloqlab ko‘kartirmasang, ko‘karganni oq soch bilan yopmasang».

2. «Hamma yoqqa jar solib, katta-kichik, barchaga xabar yetkazib deyilgan.

3. Iskandariya — Misr Arab Respublikasi shimolidagi qadimiy shahar. Nil daryosi deltasining g‘arbiy qismida. U shaharki miloddan avval 332—331 yili Iskandar Zulqarnayi qurdirgan.

4. Ajal qo‘li nog‘orasini qoqqach, bo‘yniga abadiylik tomon jo‘nash ishini soldi».

5. Fan-hikmat ahillari — olamlar kitoblardek qora libos kiyib, ilm singari siyohga burkanib oldilar».

6. Ikki bayt mazmuni: «Chunki bir jahon xalqi yalang‘och bo‘lib. butun dunyoga g‘avgo solar edi, nogoh bunday qiyomat yuz berib yer ko‘kka chiqib, falak pastga tushdi (dunyo ostin-usgun bo‘ldi)».

7. Ikki baytning mazmuni: «Lekin menga falakdan, tez uchadigan yulduzlaru beparvo dunyodan nihoyatda og‘ir zulm bo‘ldi. Sendan ilgariroq u dunyoga men yo‘l olmadim, u yerdan jannatdan senga bir tuzukroq joy tayyorlamadim».

8. Bu misrada Iskandarning o‘lishi quyosh botishi (xurshid uyoqti)ga, Iskandarning onasi qari osmon (zoli charx)ga o‘xsha-tilgan.

9. Uch baytning mazmuni: «Uning tanasini olib borib, xuddi ruhni tanaga kiritgandek, qabrga kiritdilar. Qora tuproqning bag‘rini yorib, uning ichiga quyoshni ko‘mdilar. Oxiri quyoshning qora tuproqqa botishi, bu ko‘hna dunyoning rasmi — odatidir».

LXXXI

1. Dostonda bir qancha olimlar obrazi mavjud. Bular Naqumohis, Arastu, Filotun-Aflotun, Suqrot, Asqalinus, Buqrot, Hurmus, Faysog‘urs kabilardir. Ularning ko‘plari juda qadim zamonlardan boshlab Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lib, u olimlar tomonidan yaratilgan asarlarning ko‘pchilik qismi arab tiliga tarjima qilinganligi tufayli keng tarqalgan hamda shu joylarda yashaydigan olimlar tomonidan ularga sharhlar berilgan. Xalq orasida Arastu, Aflotun haqida afsona va rivoyatlar paydo bulgan, badiiy asarlar yozilgan. Alisher Navoiy bu afsona, rivoyat, asarlar bilan tanish bo‘lgani ehtimoldan uzoq emas. Biroq Navoiy «Saddi Iskandariy»da olimlarning tarixiy obravlarini yaratish yoki ularning ilmiy ishlarini bayon etish, ijtimoiy-falsafiy qarashlarini talqin etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan emas. U an’analarga amal qilgani holda, yunon olimlaridan xalos topish osonroqdir» ning nomlarini keltirgan. Bundan maqsad esa, ular obrazi orqali o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarni yoritish edi. Shuning uchun ham Navoiy olimlarni antik dunyodan o‘z zamoniga olib kirgan. Shoir ular orqali ilm-ma’rifatni targ‘ib qiladi hamda o‘z davridagi olimlarni el-yurt uchun foydali ishlar bilan shug‘ullanishga undaydi. Bundan tashqari, Navoiy o‘z davri hukmdorlarini ilm-fan ahllariga homiylik qilishlarini (shoirning o‘zi bunga yorqin misol bo‘la oladi), ularning oqilona maslahatlarini tinglab, davlatni idora qilishni uqtiradi.

2. Bonuyi iffatpanoh — Iskandarning onasiga ishora. Bu obraz o‘zining sabr-matonati, oqil-donoligi hamda tadbirkorligi bilan diqqatga sazovor bo‘lib, u o‘zining ko‘pgina yaxshi fazilatlari bilan «Farhod va Shirin»da tasvirlangan Mehinbonu obraziga yaqin turadi.

3. Ikki bayt mazmuni: «Dunyo Bonusi (Iskandarning onasi) yetti daryo (etti hakim)ning yuz qo‘yganini bilgach, ularning qadamini muborak bilib, o‘z huzuriga kirishlariga ruxsat beradi».

4. «Chunki u, dunyoning eng aqllisi, aql bobida xaloyiq ustozidir».

5. «Gavhar daryoga cho‘ksa ham bor bo‘lsin, quyosh yer tagiga botsa ham qaytib chiqsin».

6. «Shoh vasiyatlarining hammasini ortig‘i bilan amalga oshirdi».

7. Yeti ato birla to‘rt ano — yetti iqlim bilan to‘rt unsur (tuproq, suv, o‘t, havo) demak.

8. «Pand-nasihat tahsilini olgansan, senga aqli yetuk bo‘lmagan odamgina nasihat qiladi».

9. «Bu qadimdan rasmi odat bo‘lib, ollohning sunnat va qoidasidir».

10. «Sengga haq taolo shunday fazilatlarni bag‘ishlagan ekan, bunga kupdan-ko‘p shukr qilish vojibdir».

11. «Ularga uzr aytish yo‘li bilan so‘zga kirishib, yetti konga (etti hakim ma’nosida) bir vayrona

(ko‘ngli vayron ona)dan shunday xazina to‘kildi».

LXXXIV

1. Xudoga shukurki, baxtim ishimga rivoj berib, bu shohona kitobni bezab tugatdim».

2. «Kitobat san’ati ishlatilgan bu baytning mazmuni: «Kitob ibtidosini alif bilan boshlab, oxirini mim harfi bilan tamomladim».

3. Iskandari soni—Husayn Boyqaro demak.

4. Ul—Iskandar, bu Husayn Boyqaro degan ma’noda.

5. «Agar undan nasl qolmagan bo‘lsa, xudo bunga o‘n olti farzand ato ayladi».

6. «Farhodu Shirin» erur otig‘a —«Farhod va Shirin» Sulton Husayn Boyqaroning katta o‘g‘li Bade’uzzamon Mirzo nomiga bag‘ishlanganligiga ishora qilingan.

7. Muzaffar Xusayn—Husayn Boyqaroning kichik o‘g‘li. 1506 (911)da otasi vafotidan keyin akasi Bade’uzzamon bilan birga Xurosonda hukmron bo‘lgan. Lekin oradan ko‘p o‘tmay, Shayboniyxonning hujumiga uchrab Astrobodga qochgan va o‘sha yerda o‘lgan.

8. Arabcha baytning mazmuni: «(butun) dunyoga in’omini (ehsonini) davomli qilsin. Ayt, uning (Muzaffar Husani Mirzoning— X.A.) hukmronligini abadiy qilsin».

9. U (Muzaffar Husayn) adab taxtining osmon qadar baland martabali kuyoshi, hayot dengizining pokiza gavharidir».

10. Irsoli masal san’ati ishlatilgan bu baytning mazmuni:

«Yilning yaxshi-yomon bo‘lishi — bahorning kelishidan ma’lum bo‘lgani kabi, el—xalq uning olamni yorituvchi yuzidan ko‘p umidvordir».

LXXXV

1. Ikki baytning mazmuni: «Shuni unutmaginki, olam vafosizdir, shuningdek, olamda nimaiki bo‘lsa, baqosizdir, doimiy emasdir. Nima narsa betayin va beqaror bo‘lsa, unga e’tiqod qo‘yish — ishonish yaxshi emas».

2. Ikki bayt mazmuni: «Kuchsiz-bechora odamlarga xoh yaxshilik va xoh zugum qilsang, kuchlilardan ham shuni talab et, ya’ni odamlarni har ishda teng kur. Odam muhrga nimani o‘ysa, muhr bosilgach, qog‘ozga shu tushadi».

3. «Ulug‘lik egasi bo‘lmish tangri o‘z hifz — himoyatida saqlamasa, odamga na ganj — xazina asqotadiyu, na mol-mulk».

4. Ikki baytning mazmuni: «Fitna va ig‘vo bilan sho‘g‘ullanuvchi kishilarni siyosat ostiga olish, ularga qattiq jazo berish — hukmdor uchun shartdir. Yomonlarni haddan tashqari qo‘rqinchda saqlash — yaxshilarning nihoyat darajada osoyishta yashashi uchun sharoit yaratib beradi».

5. Qo‘shin tortish garchi og‘ir ko‘rinsa-da, busiz og‘irlikni yo‘qotib bo‘lmaydi.

6. Yasolni kom bila tuzmak — qo‘shin safini maqsadga muvofiq tartib berish.

7. Yeti kavkab — Iskandar atrofidagi yetti olim—hakim ma’nosida ishlatilgan.

8. «Ikkinchisi shuki, ota-onangga xizmat qil,. bularning ikkisiga qulluq qilishni haqiqiy farz deb bil».

LXXXVIII

1. Bu bobda Alisher Navoiy o‘z ukasi Darveshaliga nasihat qiladi. Darveshalining tug‘ilgan va vafot yili noma’lum. Darveshali Balx hokimi, Navoiyning vazirlik vaqtida uning kitobdori bo‘lgan. Unga 1482 yilda amirlik unvoni berilgan. U Ibrohim Husayn (Husayn Boyqaroning hali voyaga yetmagan o‘g‘li) nomidan Balxni idora qiladi. Majididdinning Navoiyga qarshi harakatlaridan norozi

bo‘lib, 1490 yili Hisor hokimi Sulton Mahmud bilan birgalikda Sulton Husaynga qarshi bosh ko‘taradi. Husayn Boyqaro uni zindonga soladi. U 1494 yili Makkaga borishga ruxsat oladi. Qaytib kelgach (1498), devoni oliyga xizmatga tayinlanadi. Navoiy vafotidan keyin Balxga ketadi. Shayboniy xizmatida bo‘ladi. Shayboniy vafotidan (1510) keyin Zahiriddin Muhammad Bobur xizmatiga o‘tadi. Uning 1511 yildan keyingi taqdiri noma’lum.

LXXXIX

1. Bu bayt ruju’ (qaytish so‘zidan) san’atiga yorqin dalil bo‘lib, shoir unda avval panja, xora (tosh) kabi obrazli iboralarni ishlatib, so‘ng undan qaytadi va po‘lodi yakpora, deydi.

2. Ikki baytniig mazmuni: «Zo‘rlar qatoriga kiraman deb, panjaga qo‘l urish bilan, u papjadan o‘z panjasiga ko‘p shikastlar yetkazgan kimsalar xam bo‘lgan, Haddan ortiq zo‘r berib kuchayishlari natijasida ularning bilaklari tirsaklaridan chiqib ham ketgan».

3. «Paij ganj»— Nizomny Gapjaviy: «Xamsa»sining nomi.

4. Par—shoirning ustozi Abdurahmon Jomiy.

5. «Har bir ochilmagan qulfni ochishda buyuk kishilarning duosi kalid bo‘la oladi».

6. Azmi haram qilmok—Makkaga (hajga) bormoq.

7. Tasdir san’ati (bayt niyoz suzi bilan boshlanib, o‘sha so‘z bilan tugagan)dan foydalanib yaratilgan bu baytning mazmuni: «Orzu-istagi bor kishilar kirsin!» degan so‘z eshitildi, buni eshitgach, umid bilan kirdim».

8. To‘rt baytning mazmuni: «U kishining joyi xilvat emas, yuksak ostonani eslatar, o‘zlari esa, xilvatda — yolg‘iz o‘tiruvchiga emas, Jabroil farishtaga o‘xshar edilar. Uni [Jabroilni] muqaddas nur ravshan aylagan, ya’ni u nurdan yaratilgan bo‘lsa, buning [Jomiyning] so‘zlaridan muqaddas sirlar ayon bo‘lar edi. Jabroilni eslatadigan darajada to‘liq aql egasidir. Men shunday bir haramga mahram bo‘ldimki, yo‘q u haram emas, yorug‘lik va poklik olami edi».

9. Olti baytning mazmuni «Ularning bu yozganlari yuzaga chiqqanda, siyoh bilan yozilgan bu kabi qora-qura narsalarning olamda bo‘lishiga hayratlanasan. Ularning yozganini kim o‘qisa, xuddi qorong‘i kechada qolgandek mashaqqatga tushadi. U shunday zulmatki, odam ichay desa, obi hayot yo‘q, u shunday tunki, unda oftob nuridan nishona ham ko‘rinmaydi. Unday shoirlar dunyoga eng muattar mushk sepdik, deb maqtanganlaridan ham mushklari ko‘ngilni qora va ko‘zni xira qiladi, xolos. Lekin bu o‘rmonda ikkita mard sher [Nizomiy bilan Xusrav] bor bu dengiz ichida ikkita botir nahang [Nizomiy va Xusrav] bo‘lib, bu o‘rmonga kirish uchun xuddi o‘shanday jangovar sheru, bu dengizga tushish uchun o‘shanday dilovar nahang bo‘lmoq kerak».

10. Qo‘shtiroq ichiga olingan nomlar Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi besh doston: «Hayrzgul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ai sayyor», «Saddi Iskandariy»dir.

11. Savodin juzvdon aro solmoq — qoralamasini kitobga mo‘ljallangan xaltaga solmoq.

12. Aning sari — Jomiy sari, demak.

13. Ikki baytning mazmuni: «Bundan keyin, o‘z so‘zlari bilan ajam va arabni olgan, asli nasabi turk bo‘lgani holda «hindiy» laqabi bilan nom chiqazgan Xusrav bo‘lsa, ko‘p afsonalarni qisqartirib, bu mustahkam qo‘rg‘onni qo‘lga kiritdi».

14. Bu ra’noga suratamoy bo‘lmoq—bu go‘zalning suratini namoyon qila olmoq, ya’ni «Xamsa» yozish ishini tugallamoq, demakdir.

15. «Kanap daraxtining shoxi xas-xashakcha bo‘lmasa ham, qalandarga barvasta sarv daraxtiday ko‘rinadi» (kanap ipidan to‘nlik mata to‘qiladi).

16. Piri koshif — Jomiy ko‘zda tutilmoqda.

17. Piri ravshanzamir — Jomiyga nisbatan ishlatilgan.

18. «Asarim bir kema kabi ma’rifat daryosi [Jomiy] tomon yo‘nalgach, ulug‘ dars (Jomiy) o‘z muborak qo‘lini bu daftarlarga uzatdi»,

19. «Qanday yengki, uni osmonga tashlasa, ko‘kning qiyshiq yuzini bukib yuborar edi».

20. El tavfi Baytilharam — odamlar Ka’ba atrofida aylangandek (Ka’ba— Makkadagi ziyoratgoh), demoqda.

21. Jam’i kasir — bir to‘da kishilar, demak.

22. «Bu xushta’b va muborak zotlar sen bilan bir nafas ko‘rishishini orzu qiladilar!»

23. Hasan Dehlaviy — umrining avvalida nonvoy bo‘lgan. Keyinroq Xusrav Dehlaviy bilan tanishib, uning vssitasi bilan ilm va adabiyotga berilib ketgan. Hasan Dehlaviy g‘azalgo‘ylikda shuhrat qozongan edi. U 1308 (707) yili Dehlida vafot etgan.

24. Hazroti Shayx — Nizomiy Gajnaviy demak.

25. Ustodu pir — Abdurahmon Jomiyga nisbatan aytilgan.

26. Rahbar — Hasan Dehlaviy ko‘zda tutilmoqda.

27. Muslihiddin Sa’diy Sheroziy (1204—1292), Abulqosim Firdavsiy (934—1020), Abulqosim Hasan binn Ahmad Unsuriy (1040 Balxda vafot etgan), Sanoiy G‘aznada tug‘ilib o‘sha yerda 1181 yilda vafot etgan. Hoqoniy — Afzaliddin Ibrohim binni Ali Shirvoniy — qasidago‘ylikda zo‘r shuhrat qozongan. U hajdan qaytishda 1186 (582)da Tabrizda o‘lgan. Qabri o‘sha yerda, Anvariy — uing nomi Avhadiddin. Xurosonning Abevard viloyatidagi Budna qishlog‘ida tug‘ilib, Tus (hozirgi Mashhad)da tarbiya olgan. Zamondoshlari unga «hakim» unvonini bergan edilar. Anvariy umrining o‘rtalaridan she’r va adabiyot bilan shug‘ullanib, ustoz darajasigacha ko‘tarilgan. Anvariy 1152 (53)547 h.)da Balxda vafot etgan.

28. Iki yor—Jomiy va Xusrav ko‘zda tutilmoqda.

29. Ikki bayt mazmuni: «Bo‘lmasa, ikki yilda bitta «Xamsa» yozib tamomlash — o‘taketgan xom xayoldan boshqa narsa emasdir. «Xamsa» bo‘lganda ham shunday «Xamsa»ki, u beshta gavhar xazinasidan iborat bo‘lib, sarflanib, zoe bo‘lish xavfidan omonlik topgan xazinadir».

30. Mavlaviy — Abdurahmon Jomiyga nisbatan ishlatilgan.

31. Dimog‘ning yubs topishi — dimog‘ xushk bo‘lib, quruqshab qolishi demak.